Kokand University

“GLOBALLASHUV SHAROITIDA ONA TILI VA ADABIYOTNING IJTIMOIY AHAMIYATI VA UNI SAQLASH TAMOYILLARI”

MAVZUSIDAGI II ANA’ANAVIY XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



QO‘QON 2026

Qo‘qon universiteti direktori
G‘.E.Zaxidov tahriri ostida

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-2026-yillarga mo‘ljallangan ilmiy va ilmiy-amaliy tadbirlar rejasiga muvofiq tashkil etilgan xalqaro anjuman materiallaridan iborat bo‘lib, konferensiya til va adabiyotning jamiyat ma’naviy hayotidagi roli, milliy o‘zlikni saqlash, yosh avlod tarbiyasida ona tilining ahamiyati hamda innovatsion yondashuvlar asosida ilmiy tadqiqotlar olib borish masalalariga bag‘ishlangan.

Tahrir kengashi:

Sirojjiddin SAYYID – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi
Almaz Ülvi BINNATOVA – Ozarbayjon Milliy Fanlar Akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot institut. Filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
JABBOR ESHONQUL – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi direktori, Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
OLIMJON DAVLATOV– Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi direktori, Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (DSc), professor
Maqsud ASADOV – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktorining o‘rinbosari. Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Sohibjamol TANGATAROVA – Farg‘ona viloyati hokimi maslahatchisi
Zeboxon QOBILOVA – Qo‘qon universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Saidbek Boltabayev – Turkiya Respublikasi, Karabuk universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Konferensiya materiallarini to‘plab, nashrga tayyorlaganlar:

Sh.Jumanova, M.Imomaliyeva, N.Tursunova, X.Raimova, S.Ergasheva

ONA TILI — MILLAT MA’NAVIYATINING TAYANCHI

G‘.E.Zaxidov,
Qo‘qon universiteti direktori

Globallashuv insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab bergan murakkab va serqirra jarayon sifatida bugungi kunda millatlar hayotiga tobora chuqur kirib bormoqda. Ushbu jarayon ilm-fan, texnologiya, iqtisodiyot va madaniyat taraqqiyoti uchun keng imkoniyatlar yaratishi bilan bir qatorda, har bir xalq oldiga o‘z milliy tili, adabiyoti va ma’naviy qadriyatlarini asrab-avaylashdek ulkan mas’uliyatni ham yuklamoqda. Zero, ona tili — millatning ruhi, tarixiy xotirasi, tafakkuri va ma’naviy qiyofasini belgilovchi eng muqaddas hamda boqiy qadriyatlardan biridir.

Til va adabiyot azal-azaldan xalqning ma’naviy kamoloti, madaniy taraqqiyoti hamda milliy o‘zligini saqlab qolishning eng muhim tayanchi bo‘lib kelgan. Turkiy xalqlar ma’naviy merosida ham tilga ehtirom va adabiyotga muhabbat yuksak qadriyat sifatida ulug‘langan. Ajdodlarimiz yaratgan boy ilmiy-adabiy meros, mumtoz she’riyat va zamonaviy adabiyot namunalari inson tafakkurini yuksaltirish, ezgulik va ma’rifat g‘oyalarini targ‘ib etish, milliy o‘zlikni anglash va barkamol avlodni tarbiyalashda beqiyos o‘rin tutadi.

Ayniqsa, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Furqat, Muqimiy, Abdulla Avloniy, Behbudiy singari buyuk mutafakkirlar ijodida ona tilining cheksiz badiiy imkoniyatlari, xalqning ma’naviy qudrati va milliy tafakkuri yorqin namoyon bo‘lgan. Ularning asarlari bugungi globallashuv davrida ham yosh avlod qalbida vatanparvarlik, milliy g‘urur, ma’rifat va insoniy fazilatlarni shakllantirishda muhim ma’naviy maktab vazifasini o‘tamoqda.

Bugungi kunda dunyo axborot maydonining kengayishi, raqamli kommunikatsiyalar va ommaviy madaniyat ta’sirining ortib borishi ayrim tillar va milliy madaniyatlar oldida muayyan tahdidlarni yuzaga chiqarmoqda. Shu bois, ona tilining sofligini saqlash, uning nufuzini oshirish, zamonaviy ilm-fan va texnologiyalar bilan uyg‘un holda rivojlantirish, yosh avlod qalbida til va adabiyotga muhabbat hamda hurmat tuyg‘usini kuchaytirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri sanaladi.

Mazkur II an’anaviy xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya aynan ana shu muhim masalalarni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish, ona tili va adabiyotning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni hamda ijtimoiy vazifalarini yoritish, milliy-madaniy merosni asrash va rivojlantirish tamoyillarini belgilashga qaratilgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Konferensiya sho‘balari doirasida globallashuv va til siyosati, ona tili va adabiyotning ijtimoiy vazifalari, ta’lim tizimida til va adabiyot o‘qitish muammolari, raqamli muhitda til masalalari, tilni saqlash va rivojlantirish strategiyalari, tarjima va madaniy muloqot, shuningdek, folklor hamda milliy merosda tilning o‘rni kabi dolzarb yo‘nalishlar yuzasidan olib boriladigan ilmiy munozaralar muhim ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqilishiga xizmat qiladi.

Ishonamizki, ushbu xalqaro ilmiy anjuman doirasida ilgari suriladigan innovatsion g‘oyalar, ilmiy yondashuvlar va tajribalar almashinuvi ona tili va adabiyotimiz taraqqiyotiga, xalqaro ilmiy hamkorlikni yanada mustahkamlashga, milliy qadriyatlarimizni dunyo miqyosida keng targ‘ib etishga munosib hissa qo‘shadi.

Mazkur konferensiya materiallari filologiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, folklorshunoslik va pedagogika yo‘nalishida faoliyat olib borayotgan olimlar, tadqiqotchilar, professor-o‘qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar hamda talaba-yoshlar uchun muhim ilmiy-manba bo‘lib xizmat qiladi, deb ishonamiz.

Fursatdan foydalanib, mazkur xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishida ishtirok etayotgan barcha xorijiy va mahalliy olimlarga, ilmiy hamkorlarga, professor-o‘qituvchilarga hamda tashkilotchilarga samimiy minnatdorligimizni bildiramiz. Barchangizga mustahkam sog‘liq, ilmiy va ijodiy faoliyatingizda yuksak muvaffaqiyatlar, yurtimiz ravnaqi, milliy ma’naviyatimiz taraqqiyoti yo‘lida ulkan zafarlar tilaymiz.

DAVLAT TILI SIYOSATINING SAKKIZ MUAMMOSI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Yangi O‘zbekistonda til siyosati: yutuqlar, qiyinchiliklar va strategik yo‘l xarita

Olimjon Davlatov,
Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi direktori,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (DSc), professor
(O‘zbekiston)

Til nafaqat muloqot, balki davlat mustaqilligini, iqtisodiy raqobatbardoshlikni va ijtimoiy birlikni ta’minlaydigan muhim vosita hisoblanadi. Dunyoning taraqqiy etgan davlatlari amalga oshirgan til islohotlariga nazar tashlasak, bu fikr nechog‘i haqiqat ekaniga amin bo‘lamiz. Mana, o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga hademay o‘ttiz olti yil to‘ladi. O‘tgan davr davomida tilimiz mavqiyeni mustahkamlash, uni O‘zbekistonda yagona muloqot vositasiga aylantirish borasida qator ishlar amalga oshirildi. Afsuski, bular hali yetarli emas. Hali oldimizda qilinishi zarur bo‘lgan ishlar talaygina. Masalan, o‘zbek tili faqat ma’muriy hujjatlar va bayroqdor shiorlarda qolib ketayotganday. To‘g‘ri, so‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda til siyosati bo‘yicha yangi sahifalar ochilishi umid beradi odamga. Qisqa vaqt ichida ba’zi yutuqlarga erishdik ham, ammo hamon tizimli muammolarni hal qilolganimiz yo‘q. O‘ylaymanki, o‘zbek tili bilan bog‘liq muammolarni ilmiy va publisistik nigoh bilan ko‘rib chiqish fursati allaqachon yetib kelgan.

Dunyodagi yetakchi til siyosati maktablarida bu masalaga uchta asosiy mezon orqali yondashadi. Birinchisi — instrumental mezon hisoblanib, til davlat boshqaruvining quroli hisoblanadi. Ikkinchisi ekologik mezon — tillar ekotizim va xilma-xillikning kuchli manbai. Uchinchisi huquqiy mezon — til huquqi inson huquqi demakdir. O‘zbekiston sharoitida esa eng maqbul yo‘l — "asimmetrik plyuralizm", ya’ni o‘zbek tili davlatni birlashtiruvchi o‘qtomir, qardosh tillar esa madaniy va mintaqaviy hayotimizdan to‘liq foydalanish mavqega ega. Chunki Finlyandiya, Singapur va Lyuksemburgda bu tajriba o‘zini oqlagan.

Keling, O‘zbekiston til siyosatining sakkiz muammosini ilmiy nazariy asoslab, xorijiy tajriba asosida tahlil qilib ko‘ramiz. Muammolarni uchga — strategik, struktural va operativ turlarga ajratib o‘rganamiz.

YANGI O‘ZBEKISTON: YUTUQLAR VA BURILISH NUQTALARI

Adolat yuzasidan so‘nggi yillarda Yangi O‘zbekiston til siyosatida qator muhim qadamlar qo‘yilganini aytib o‘tish darkor. Xususan, 2019-2022 yillardagi

imlo islohoti davlat hujjatlari to‘liq lotin alifbosini yuritilishiga xizmat qildi. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti tashkil etilib, mutaxassislar tayyorlash tizimiga asos solindi. Davlat tilini rivojlantirish departamenti faoliyati til siyosatini institusional jihatdan mustahkamladi. Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalarida o‘zbek tilidagi muloqotga e’tibor kuchaydi. Turkiy davlatlat tashkiloti doirasidagi hamkorlik va faollik o‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirdi. Biroq yutuqlar ortida tizimli muammolar hamon bo‘y cho‘zib turibdi. Quyida ularni har birini alohida ko‘rib chiqamiz.

1-MUAMMO: IDENTITET VA PRAGMATIKA ZIDDIYATI

O‘zbek tili siyosatida asosiy ziddiyat — bu til milliy identitet ramzimi yoki iqtisodiy imkoniyat vositasi? AQSHlik sosiolog va tilshunos Joshua Fishman "Reversing Language Shift" (1991) asarida tilning ikki vazifasini alohida ajratib ko‘rsatadi: Xs funksiyasi (etnik identitetlik belgisi) va Xish funksiyasi (instrumental qurol). Ya’ni ko‘pincha davlatlar tilni bayroq sifatida ko‘taradi-yu, uning funksional kuchini ta’minlovchi institutlarga sarmoya kiritmaydi. Natijada til ramziy jihatdan "mavjud", funksional jihatdan "o‘layotgan" bo‘ladi.

Fransuz sosiologi Pyer Burdyening "lingvistik bozor" nazariyasi bu holatni yanada oydinlashtiradi: til ramziy kapital. Agar o‘zbek tilida gapirishga mehnat bozorida, akademiyada va texnologiyada ustunlik berilmasa aslo rivojlanmaydi. Bu ziddiyatning yechimiga Isroil davlati tajribasi qo‘l kelishi mumkin. Ivrit tilining "qayta tirilishi" mo‘jiza emas, balki ongli ravishda boshqarilgan maqom va egalikning uyg‘unligidadir. O‘zbekistonda haqiqiy holat quyidagicha — Toshkentdagi yirik korporatsiyalarda suhbatlar rus yoki ingliz tilida olib boriladi, oliy ta’limda rus tilidagi darsliklar hamon ustun, IT-sohasi mutaxassislari o‘zbek tilida texnik hujjatlani topishda qiynaladi. Mazkur muammoga atigi ikki yechim bilan yo‘l topish mumkin: adabiyot va milliy g‘ururni shakllantirish hamda mehnat bozorida, ta’lim va raqamli dunyoda alohida byudjet va institutlar tashkil etish.

2-MUAMMO: RUS TILI MEROSI — TAQIQ YOKI RAQOBAT?

Postkolonial tilshunoslikda metropoliya tilining mahalliy tillarni "yeb qo‘yishi" glossofagiya (Phillipson, 1992) deb ataladi. Hozirda Toshkent aholisining taxminan 30–35 foizi, viloyatlarda 5–10 foizi kundalik hayotda rus tilidan foydalanadi. Oxirgi paytlarda yoshlar orasida rus tilini emas, ingliz tilini

o‘rganuvchilar ortib borayotgani ham bor gap. Muhimi, bu tabiiy kechmoqda. Ammo bu jarayonga qanday munosabatda bo‘lish siyosiy jihatdan eng muhim masala hisoblanadi. Chunki Ukrainaning 2019 yildagi "Davlat tili to‘g‘risida"gi qonuni radikal almashtirish strategiyasini belgilab berdi. Natijada milliy o‘zlikni anglash kuchaydi, ammo ijtimoiy ziddiyot va obro‘sizlanish o‘sdi. Irlandiya tajribasi esa boshqacha saboq beradi. Gel tili 80 yil davomida majburiy tiqishtirilganiga qaramay hamon u yerda ingliz tili hukmronligini saqlab qoldi. Chunki til rivojlanishi uchun tabiiy istak bo‘lmasa, majburlash siyosatining o‘zi yetarli bo‘lmaydi. Shu sababli O‘zbekistonda rus tilini man qilmay, balki o‘zbek tilini har bir sohada raqobatbardoshligini oshirishga tabiiy sharoit yaratib berish kerak. Masalan, tibbiy hujjatlarni o‘zbekchalashtirish, IT-park vakillariga o‘zbekcha texnik vazifalarni majburiy talab qilish choralarni ko‘rish kerak. Natijada rus tili o‘z-o‘zidan chetga chiqib ketadi.

3-MUAMMO: TURKIY INTEGRATSIYA — IMKONIYATMI YOKI XAVF?

Turkiy davlatlar tashkiloti va TÜRKSOY doirasidagi hamkorlikda o‘zbek tiliga nisbatan ehtiyotkorlik bilan yondashish muhim. Agar o‘zbek tiliga turkcha "dialekt" aralasha boshlasa, demak, til mustaqilligi xavf ostida qoladi. Chunki har bir til o‘z adabiy me’yorlarini ishlab chiqish va vazifasiga ko‘ra mustaqillikka ega bo‘ladi. Katalan va oksitan tillarining tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ular lingvistik jihatdan yaqin bo‘lsa-da, alohida standart yaratilmagani sababli o‘rtaliqda qolib ketdi. Aksincha, Skandinaviya modelida — Daniya, Norvegiya, Shvesiya tillari bir-biriga yaqin bo‘lishiga qaramay, har biri alohida akademiyaga va standartga ega. Nordic Language Council doirasida ular hamkorlik qilsa-da, hech qachon bir-birini yutib yubormaydi. O‘zbekistonda ham aynan "Nordic modeli"ni targ‘ib qilishi maqsadga muvofiq. Har bir turkiy til o‘z standartini saqlagan holda mintaqaviy hamkorlikni kuchaytiraverish kerak. Samarqandda "Turkiy tillar standartlari" bo‘yicha sammitning tashkil etilishi va "Turkiy davlatlar tashkiloti tillari xilma-xilligi protokoli"ni ishlab chiqilishi — o‘zbek tilini ham, turkiy hamjamiyatning ham manfaatiga to‘liq mos keladi.

4-MUAMMO: KORPUS REJALASHNING TUGALLANMAGANLIGI

Tilshunos Eynar Xogen tilnining rivojlanishini to‘rt bosqichda asoslaydi. Birinchisi, me’yorni tanlash, ikkinchisi, kodlashtirish, uchinchisi vazifasini

kengaytirish va oxirgisi jamoatchilik tomonidan qabul qilinishi. Hozir o‘zbek tili birinchi va ikkinchi bosqichlar o‘rtasida qolib ketgan, deb hisoblash mumkin. Uchinchi va to‘rtinchi bosqichlar — ayniqsa, texnika sohasida ko‘p masalalarga hali yechim to‘la-to‘kis topilmagan. Shu kunlarda o‘zbek tili tegrasidagi vaziyat quyidagicha: tibbiy atamalarning taxminan 60–70 foizi rus tilida saqlanib qolayapti; huquqshunoslik darsliklarida isk, istes, otvetchik kabi atamalar hamon rasmiy hujjatlarda ishlatilayapti; IT-sektor GitHub va Stack Overflowda o‘zbek tilidagi kontentni deyarli uchramaydi. Ustiga ustak, lotin va kirill alifbolaridan parallel foydalanilmoqda.

Malayziyaning Dewan Bahasa dan Pustaka (1956) tajribasidan o‘rnak olish mumkin. 60 yil ichida avval davlat idoralari, keyin oliy ta’lim va biznes uchun malay tilida 500 000 dan ortiq atama yaratildi va tasdiqlandi. Isroilda Ivrit tili akademiyasi har yili yangi atamalar yaratadi: tasdiqlaydi, darsliklariga kiritadi, ommaviy axborot vositalarida foydalaniladi. O‘zbekistonda ham aynan shunday — O‘zbek tili va atamashunoslik milliy institutiga zarurat sezilmoqda.

5-MUAMMO: TIL SIYOSATI INSTITUTLARINING ZAIFLIGI

O‘zbekistonda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Atamalar qo‘mitasi, Fanlar akademiyasining tilshunoslik instituti va boshqa idoralar bor. Ammo ularning hech biri majburiy me’yor ishlab chiqish vakolatiga ega emas. Biror bir jamoalarga yoki davlat idoralariga sanksiya qo‘llay olmaydi. Bir maqsad yo‘lida faoliyat yuritmaydi. Moliyaviy mustaqillikka ega emas. Bu borada Kanadaning Kvebek provinsiyasidagi OQLF (Office québécois de la langue française) modeli ibrat qilib ko‘rsatish mumkin. U yerda 400 nafardan ortiq xodim ishlaydi, mustaqil byudjetga ega, til qoidalari buzilganda ogohlantirishi, jarima solishi, hatto lisenziyasini bekor qilish vakolatiga ega. O‘zbekistonda ham davlat, akademiya, fuqarolik jamiyati va media vakillaridan iborat mustaqil byudjetli, majburiy standartlar ishlab chiqaradigan va monitoring yuritadigan vakolatga ega O‘zbek tili milliy kengashini tuzish ayni davrda o‘ta muhimdir.

6-MUAMMO: MINORITAR TILLARNING HUQUQIY MAVHUMLIGI

Skutnabb-Kangas "lingvistik genosid" deganida jismoniy zo‘rlashni emas, balki tilni jamiyat hayotidan asta-sekin chiqarib yuborishni nazarda tutgan edi. O‘zbekistonda qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, tojik, turkman tillari uchun huquqiy

baza mavjud, ammo ularni amalga oshirishning mexanizmi noaniq. Qoraqalpoq tili Konstitutsiyada tasdiqlangan. Qoraqalpog‘iston Respublikasida rasmiy til hisoblanadi. Lyekin darslik ishlab chiqarish juda kam moliyalashtirilgan, oliy ta’limda o‘qitish deyarli yo‘q, Wikipediadagi maqolalar soni ham kam.
Samarqand va Buxoroda ko‘p sonli tojikzabon aholi yashaydi. Ularning til huquqlari ham mavhum. BMTning Minoritar huquqlar deklaratsiyasi (1992) va OBSE Lund tavsiyalari (1999) bu borada aniq mezonlarni belgilab bergan. Ozchilik so‘zlashadigan tillarga ta’lim, ommaviy axborot, ma’muriy xizmatlar davlat tomonidan ta’minlanishi lozim. Ispaniyada katalan, bask, galisiya tillarining har biri avtonomiya statutida alohida tartibga solingan. Bu asimmetrik model hisoblanadi. Unga ko‘ra, har bir til huquqiy statusga ega bo‘lishi, moliyalashtirilishi, vazifalari aniq ko‘rsatilgan hujjat — ishlab chiqilishi va davlat byudjetidan aniq mablag‘ ajratilishi shart. Bu nafaqat huquqiy majburiyat, balki ijtimoiy birlikni saqlashning zarur sharti hamdir.

7-MUAMMO: TA’LIM TILI — DEKLARATSIYA VA REALLIK

Respublika oliy ta’limida rasman o‘zbek tili ustunlikka ega, amalda esa aniq va tabiiy fanlarda rus yoki ingliz tili hukmronlik qiladi. Tilshunos Kamminsning BICS/CALP nazariyasi (1979) shuni ko‘rsatadiki, bolalar muloqot tilini ikki yilda, akademik tilni besh-yetti yilda o‘zlashtiradi. Demak, o‘zbek tilida ta’lim bermoqchi bo‘lgan davlat, avvalo, akademik til — darslik, atama, janr kelishuvlarini ishlab chiqishi shart. Malayziya tajribasiga ko‘ra, 1970-yillarda malay tilini aniq va tabiiy fanlar uchun yagona ta’lim tili qilib ko‘rishdi. Biroq raqobatbardoshlik uchun 2003 yilda ingliz tiliga qaytishga majbur bo‘lishdi. 2012 yilda yana malay tiliga o‘tishdi. Bu kabi oldinga-orqaga islohotlar ta’lim tizimiga jiddiy zarar yetkazdi. Shu sababli iqtisodiy va akademik raqobatbardoshlik bilan hisoblashmay tilni o‘zgartirish mumkin emas. Irlandiya tajribasi ham shuni tasdiqlaydi. Maktabda irland tilini majburiy qilish 80 yildan keyin ham foyda bermadi, chunki hayotda va mehnat bozorida foydalanilmayapti.

Toshkent davlat texnika universiteti va Toshkent tibbiyot akademiyasida o‘zbek tilida yozilgan zamonaviy darslik juda cheklangan. Mavjud darsliklarning aksariyati 1990-yillarda rus adabiyotlaridan o‘girilgan tarjimalar hisoblanadi. Hozirgi kunda ular muhim adabiyotlar emas. Bu muammoga uch bosqichlik ketma-ketlikda yechim topish mumkin. Umumiy fanlarni o‘zbekcha o‘qitish, texnik-ilmiy fanlar ham o‘zbek tilida, ham ingliz tilida parallel olib borish hamda

xorijiy tilni (ingliz) o‘rganish. Bu borada keyingi yillarda darsliklar nashr etish, o‘qituvchilarni malakasini oshirish o‘rinli.

8-MUAMMO: RAQAMLI FAZODA TILNING KO‘RINMASLIGI

Devid Kristal o‘zining "A Language Death" asarida internetdagi til — "yashayotgan til", internetda yo‘q til — "o‘layotgan til", deb aytadi. Kornayning "raqamli til tengsizligi" tahliliga (2013) ko‘ra, o‘zbek tili "vital" (hayotiy) va "thriving" (rivojlanish)ning o‘rtasida. Ko‘p ko‘rsatkichlar bo‘yicha "vital"ga yaqinroq. Common Crawl korpusida o‘zbek tilining ulushi 0.03 foizdan kam (ingliz tili 45 foiz); ChatGPT va boshqa katta til modellari o‘zbek tilida ma’lumotlar kam bo‘lgani bois xatolar ko‘p qiladi. Bu ilmiy tilda algoritmik marginalizatsiya, deb ataladi. (Sun’iy intellekt yoki avtomatlashtirilgan algoritmlarning insonlar, guruhlar yoki g‘oyalarni tizimli ravishda kamsitishi, axborot maydonidan siqib chiqarishi va chekka (marginal) holatga tushirib qo‘yishi jarayoni.) Ma’lumotlar va AI trening kamligi, AI sifati pastligi uchun foydalanuvchilar boshqa tilni afzal biladi. Oqibatda ma’lumot yana kamayadi. Halqani kesmay til raqamli dunyoda mustahkamlanmaydi. Yoshlar Google, YouTube, TikTok, ChatGPT da o‘zbek tilida sifatli kontent topolmay boshqa tillarga o‘tib ketadi.

Mazkur masalada Uels tajribasi qulay. Welsh Language Commissioner orqali Netflix, Spotify, BBCda uels tilidagi kontentga davlat subsidiyalar ajratadi. Natijada YouTubedagi uelscha kanallar soni 5 yilda 3 barobarga oshdi. Katalon tili esa community-driven yondashuv orqali Yevropada ispancha va fransuzchadan keyin eng ko‘p Wikipediaga ega. Buning yechimi juda oddiy. Ular Wikipedia va Common Crawl korpusini 3 yilda 10 barobar oshirishdi, milliy NLP loyihasi, Hugging Face, Meta AI, Google bilan til ma’lumotlarini almashtirish bo‘yicha shartnomalar tuzishdi.

XULOSA: YANGI TIL ARXITEKTURASIGA YURISH

Muammolarni tahlil qilib, O‘zbekistonda til muammosi mahalliy emas, balki tizimli degan xulosaga kelish mumkin. Har bir muammo bir biriga bog‘liq. Masalan, korpus tugallanmasa ta’lim ishlamaydi; institut zaif bo‘lsa korpus yaratilmaydi; raqamli dunyoda til yo‘q bo‘lsa, yoshlar qiziqmaydi. Bu muammolar zanjirini bir emas, bir vaqtda bir nechta joydan kesish kerak.

Isroil, Kvebek, Malayziya, Uels, Ispaniya tajribalarining umumiy bir xususiyati bor: muvaffaqiyatli til siyosati tartibga solingan, resurs bilan ta’minlangan va

mustaqil vakolatli institutlar yaratilgan. Mazkur institutlar siyosiy irodadan emas, huquqiy hujjatdan kuch oladi.

Yangi O‘zbekistonda til siyosatida yutuqlar bor. Ammo ular siyosat darajasida qolib ketmasligi — mehnat bozori, ta’lim, atamashunoslik, raqamli dunyoda dadil qadamlar qo‘yilishi zarur. Til siyosati — bu millatning kelajagini loyihalash demakdir. Va bu loyiha nafaqat hissiyotlarga, balki ilmiy, tahliliy, huquqiy va uzoq muddatli maqsadlarga tayanishi shart.

GLOBALLASHUV SHAROTIDA QADRIYATLAR QADRI: MA’NAVIY YUKSALISH VA XORAZM MA’RIFATI

Maqsud Asadov,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktor o‘rinbosari,
filologiya fanlari doktori, professor

Qadim Sharq xalqlari tarixi va tamaddunida o‘chmas iz qoldirgan Xorazmning zamonaviy dunyo sivilizatsiyasida ham o‘rni beqiyos. Avvalo, o‘tmishning nekbin qadriyatlaridan ulgu olib, ulug‘ ajdodlar qoldirgan bebaho ma’naviy, adabiy meros ta’sirida ulg‘aygan avlod o‘zligida sobit, e’tiqodda qoyim, ezgu niyatlar yo‘lida qat’iyat bilan qadam bosmog‘i muqarrardir. Xorazmning mangu uyg‘oq ruhi, xorazmiylarning yengilmas va muzaffar shukuhi, mehnatkash, adolatparvar, bag‘rikeng va hayotsevar xorazmliklarning jo‘shqin tabiati ana shu o‘ktam qadamlarga yanada quvvat va qudrat baxsh etadi. Qolaversa, “mamlakatimiz o‘zining milliy o‘zligini va meros siyosatini rivojlantirayotgan bir paytda, xalqimizning haqiqiy kuchi uning buyuk o‘tmishida va Yangi O‘zbekistonning yorqin kelajagi sari og‘zibirchilik bilan intilishida yaqqol namoyon bo‘l”[1]ayotgani ayni haqiqat.

Xorazm haqida so‘z ketganda, albatta, Qoraqalpog‘iston va qoraqalpoqlar ham beixtiyor yodga keladi. Chunki Amudaryoning quyi oqimida joylashgan bu ikki el azaldan mintaqamizning ijtimoiy, madaniy, adabiy jihatdan yuksalishida bir

[1] Абдуҳалимов Б. Тарих чархпалагида бир бутун макон / “Жадид” газетаси, 2025 йил 23 май.

tanu bir jon bo‘lib, muhim hissa qo‘shib kelishgan. Xorazm xalqining bag‘rikengligi qoraqalpoqlarni bu zaminga boshlab kelgan bo‘lsa, qoraqalpoqlar o‘z an’analari, tili va san’ati bilan Xorazm hayotini yanada boyitdi. Biz mazkur maqolada ikki xalq madaniyati, xususan, tili va adabiyotining o‘zaro ta’siri masalalariga ham bir qadar to‘xtalishga harakat qilamiz. Til va adabiyot taraqqiyoti esa xalq ma’naviyatining yuksakligi, dunyoqarashining kengligi, matonatining mustahkamligiga ham u yoki bu darajada bog‘liq.

Til – millat irodasi razmi

Til millatning o‘zligi, yashovchanligi, iroda kuchini ko‘rsatuvchi bemisl qudratdir. Til muayyan makonda istiqomat qiluvchi kishilarning o‘ziga xos tabiati, orzu-umidlari, boqiy an’analarini yorqin aks ettirib, xalqning ma’naviy qiyofasini gavdalantirib turadi. Xorazm – mamlakatimiz hududida milloddan avvalgi II-I asrlardan milodiy XVIII asrlargacha o‘z rasmiy tili – xorazmiy tiliga ega bo‘lgan o‘ziga xos maskan. Dunyoda xalqlar ko‘p, ammo tillarning soni sanoqli. Ma’lumki, insoniyat tarixida hamma ulus ham o‘z ona tiliga ega bo‘lavermagan. Buning uchun nafaqat tilning fonetik tarkibi va grammatik qonuniyatlari tizimidagi individuallik, balki millatning hayotiy tajribasi va yorqin xarakteri ham muhim ahamiyatga egadir. Chunki til ijtimoiy hodisa bo‘lib, o‘zaro muloqot natijasida boyib, sayqallanib, rivojlanib boraveradi. Tilning shakllanishi va tadrijiy takomili, ayniqsa, lug‘at tarkibining boyib borishi shu til sohiblarining ijtimoiy faolligi va atrofdagilar bilan yaqin, do‘stona munosabatlariga ham aloqador.

Qadimgi xorazmiy tilining Hind-Yevropa til oilasi eron turkumiga kirgani, 5 ta unli, 27 ta undosh fonemadan iboratligi ilmiy asarlarda yoritilgan. Aytaylik, bugungi kunda Amudaryoning quyi oqimida joylashgan ayrim toponimlarda ham qadimgi xorazmiy tiliga xos u yoki bu unsurlar saqlanib qolgani qayd qilingan: Masalan: Yndavak, Pishkanak, Arvak kabi. Umuman, til kishilik jamiyatining taraqqiyot tarzini, millat yoki xalq xarakterining yorqin jihatlarini ifoda etuvchi,

uzoq davrlar mobaynida shakllangan va muayyan qolipga kirgan ma’naviy yuksaklik belgisi ekani e’tiborda tutilsa, qadimgi Xorazmning nechog‘li qudratga sohibligi va bemisl salohiyatini atroflicha mushohada etishga imkon paydo bo‘ladi. Bu esa o‘ziga xos xarakter sohibi o‘laroq dunyo tamaddunida muhim o‘rin tutgan xorazmliklarning qoraqalpoqlar bilan o‘zaro bag‘rikenglik, do‘stlik, birodarlik tamoyillari asosida qo‘lni qo‘lga berib, yurt ravnaqi uchun xizmat qilayotganlariga yana bir dalildir.

Xalq dostonlari – abadiyat sadolari

Professor B.Abduhalimov yozganidek, “Xorazm va qoraqalpoq folkloridagi dostonchilik an’analari bir xil tarzda shakllangan. “Alpomish”, “Farhod va Shirin”, “Go‘ro‘g‘li” kabi epik asarlar har ikki hudud aholisi orasida keng tarqalgan va ularning ijrochilik san’atida ham umumiylik bor. Shuningdek, milliy qo‘shiqlar va maqom an’analaridagi yaqinliklar ham ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan”[2]. Bu, ayniqsa, jirovlar-u oshiqlarning ijro yo‘sini, soz-u ohangining mushtarakligida, doston, maqol, matal, ertak, afsona va rivoyatlar mazmunining uyg‘unligida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xorazm va Qoraqalpoq xalqi azaldan san’atsevar, jo‘shqin va ruhan uyg‘oq xalq. Bu xalq ijodiyotining go‘zal namunalari, ayniqsa, dostonlarda ko‘proq ifoda topgan. Xususan, Xorazm dostonchilik maktabi o‘ziga xos ijro usuli, cholg‘u asbobi, ijro jarayoni bilan ham ajralib turadi. Jumladan, guruh bo‘lib, ochiq ovozda kuylash Xorazm dostonchilik maktabining yorqin tabiatini belgilab beradi. Baxshilar dutor va garmon (soz) jo‘rligida (keyinchalik tor ijrosida) kuylaydi. Baxshiga bulomonchi, g‘ijjakchi va doirachi jo‘r bo‘ladi. Nasriy matnni baxshi hikoya qilib, she’riy parchalar ijrosida baxshiga doirachi ham qo‘shiladi.

To‘g‘ri, Xorazm xalq ijrochiligining tarixini ham, qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodiyoti an’analarining ildizini ham taxmin qilish, aniqlash mushkul. Yer yuzida

[2] Абдуҳалимов Б. Тарих чархпалагида бир бутун макон / “Жадид” газетаси, 2025 йил 23 май.

tiriklik borki, san’atga oshnolik, musiqaga oshuftalik ko‘ngillarga hamrohlik qiladi. Biroq bu ikki xalq dostonchilik maktabi va uning an’analari shakllanishi, taraqqiy etishi hamda bugunga qadar yashab kelayotganiga xalq va millat taqdiriga beparvo bo‘lmagan avlodlarning hissasi juda kattadir. Qolaversa, avloddan avlodga meros sifatida o‘tib kelayotgan Xorazm xalfachilik maktabi an’analari, ayniqsa, xalfalarning ijro jarayonida improvizatsiyaga keng o‘rin berishi, o‘ynoqi va xushchaqchaq kayfiyati xalq ijrochiligi hamda musiqa san’ati uyg‘unligini ta’minlovchi yana bir jihatdir. Baxshichilik erkaklar, xalfachilik, asosan, ayollar tomonidan davom ettirilayotgani esa xalq ijrochiligining gender tabiatiga xos xarakterli xususiyatni ifoda etadi.

“Avesto” va yozma adabiyot tadriji

Markaziy Osiyoda ilk yozma adabiyotning yaratilishi ham Amudaryoning quyi oqimidagi maskanlar bilan bog‘liq. Gap shundaki, Markaziy Osiyo va Eron xalqlarining mushtarak yozma yodgorligi “Avesto”ning tarixiy vatani ham Xorazm zaminidir. Ilk yozma adabiyotning paydo bo‘lishi, muallif dunyoqarashiga xos individual yondashuvlar va badiiy so‘z san’atining ifoda imkoniyatlari haqida bahs yuritganda, shubhasiz, “Avesto” dastlabki manba sanaladi. Mazkur kitob faqat otashparastlikka xos qonun-qoidalar jamlanmasigina emas, balki axloq, ma’rifat, madaniyat borasidagi g‘oyalar, ilg‘or fikr-qarashlarning bebaho xazinasidir. Sharq mumtoz adabiyotining uztoz, shogird, gul, bulbul, mug‘anniy, soqiy, mug‘bacha, may kabi qator obrazlari, faxriya, doston, xamriyat, soqiynoma, qasida singari janrlari yaralishida ham “Avesto” muhim mavqe egallaydi. Jumladan, mumtoz adabiyotda may mavzusidagi she’rlar rindona yoki qalandarona she’rlar deb yuritiladi. Rindona she’rlar nafaqat o‘zbek mumtoz she’riyati, balki Sharq xalqlari adabiyotida ham eng ko‘p murojaat etilgan mavzu ekaniga diqqat qaratilsa, adabiyot tarixi, jahon ma’naviy taraqqiyotida “Avesto”ning tutgan o‘rni yanada ravshanlashadi.

Aslida, har qanday davrda may adabiyotda g‘am-qayg‘uni mahv etuvchi, kishiga quvonch, shodlik va ko‘tarinki kayfiyat ulashuvchi o‘ziga xos hayotsevarlik ramzi sanalgan. Bundan salkam uch ming yil ilgari Xorazm diyorida yaratilgan zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”da ham bu fikrlarning isbotini ko‘rish mumkin:

Sig‘inaman baxt-shodlik haqqi,
Bor ovozda duo qilaman.
Ibodatlar keltiradirman
Qo‘l yetmas ul Huvarnoga men.
Xaomaning sharbati bilan
E’zozlaydirmiz
Yetib bo‘lmas hamda ilohiy
Huvarnoni biz...[3]

Yuqoridagi she’riy parchada tilga olingan ichimlik – “xaoma sharbati”, asosan, majoziy, ya’ni ko‘chma ma’nolarni ifodalab, kishiga hayotiy lazzat va ilohiy zavqu shavq bag‘ishlovchi poetik timsol sifatida tavsiflangan. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, “qaynoq sharbat” ma’nosini anglatgan may so‘zi ham aslida “Avesto”dagi madh so‘zidan paydo bo‘lgan. Ozarbayjonlik olima F.Azizovaning yozishicha, abbosiylar davrida arab xalifalari sosoniy hukmdorlarning urf-odatlari, bayramlari, shohona bazmlari va ularda ijro etilgan kuy-qo‘shiqlarni qayta jonlantirish orqali “Avesto”da tasvirlangan an’analarni davom ettirganlar. May bazmlarida kuylangan madhiyalar, ya’ni qasidalar bevosita “Avesto”dagi xaoma kulti bilan bog‘liqdir. May mavzusi ifodalangan she’riy janr – “xamriyyat” kalimasining asosi arab tilidagi “xamara” so‘zidan olingan bo‘lib, u bevosita “xaoma” ta’sirida hosil bo‘lgan. Aslida “xamara” va “xaoma” so‘zlarining

[3] Авесто. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 220.

ma’nosi bir xil – “may tayyorlash” demakdir[4]. Asosan, majoziy ma’nolarni ifodalab, kishida keng dunyoqarash, teran fikr uyg‘otuvchi, hayotiy lazzat va ilohiy zavqu shavq bag‘ishlovchi ramziy obraz sifatida tavsiflangan “haoma sharbati”ni mumtoz she’riyatdagi may timsolining ilk ko‘rinishlaridan biri sifatida ham ko‘rsatish mumkin.

Mumtoz adabiyotda Xamriyat janri “Avesto”dagi xaoma timsoli ta’sirida yuzaga kelgan bo‘lsa, Soqiynoma janri bevosita xamriyat janri asosida shakllangan. Ammo xamriyat she’rlar tarixiy-etnografik xarakterda bo‘lsa, unga aloqador tushunchalar soqiynomada tasavvufiy ma’noga ega. Masalan, xamriyatda may quyuvchi – soqiy obrazi may bazmlarini boshqaruvchi kishini anglatsa, soqiynomada u Haq ramzi, ruhoniy rahbar timsolidir. Shuningdek, xamriyatda mug‘anniy may bazmlariga jonlilik, ko‘tarinki kayfiyat olib kiruvchi aniq bir shaxs bo‘lsa, soqiynomalarda ilhom beruvchi, Haq yo‘liga kirgan solik qalbini ilohiy sir-asrordan xabardor etuvchi sifatida ham talqin etilgan.

Faqat bugina emas o‘zbek mumtoz adabiyotida she’riy janrlar taraqqiyoti haqida so‘z borar ekan, o‘zbek nasrining ilk namunasi Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy”, noma janri asoschisi Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asarlarini ham alohida sanab ko‘rsatish joiz. Bu ikki asar o‘zbek mumtoz she’riyatining shoh janri – g‘azalning paydo bo‘lishi va tadrijiy takomilida muhim rol o‘ynagan. Shuningdek, dastlabki qit’a va fard namunalari ham “Muhabbatnoma”da uchraydi. Ajiniyozu Berdaq kabi qoraqalpoq xalqining yetuk so‘z san’atkorlari mumtoz adabiyotimizni axloqiy-ma’rifiy g‘oyalar va hikmatlar bilan boyitishda ham muhim hissa qo‘shishgan. Xorazm diyori ilm-fani va adabiyotining dunyo tamadduniga ulushini esa Mahmud Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud kabi ulug‘ mutafakkirlar faoliyati misolida ham ko‘p va “xo‘b” davom ettirish mumkin.

[4] Азизова Ф. Арабизированные авторы в эволюции арабской классической поэзии. – Баку: Элм, 2009. – С.101.

Umuman olganda, qadim Amudaryoning quyi oqimi hududida yuzaga kelgan til, adabiyot va ma’rifat durdonalarini atroflicha o‘rganish xalqimizning buyuk o‘tmishi va boy ma’naviy merosi qudratini olamga namoyon etishda, qolaversa, zamonaviy ipak yo‘li bo‘ylab tobora rivojlanib borayotgan madaniy, ma’naviy aloqalarning yanada yuksalishida Xorazm va qoraqalpoq so‘z san’atining tutgan betakror o‘rnini ochib berishda alohida ahamiyatga egadir.

SHO‘BA MA’RUZLARI

ZAMONAVIY ADABIYOTDA GLOBALLASHUV MUAMMOSINING YORITILISHI (N.Norqobulovning “Sut sotuvchi bola” hikoyasi misolida)

Qayumov Abduvahob Abdurashidovich
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Xolmatova Nargiza Ne’matovna
Farg‘ona viloyati Quva tumani
14-maktab Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
(O‘zbekiston)

Annotatsiya: Badiiy adabiyotda bir voqeaning bir necha muallif tomonidan bayon etilishi har bir yozuvchining hayot haqiqatiga yondashuvi, obrazli o‘zlashtirish ifoda usuli, individualligini anglash jihatdan xarakterli bo‘ladi. Chunki ijodiy jarayon yozuvchida o‘ziga xos usulda kechadi. Qaysi bir ijodkorning tuyg‘ularini junbushga keltirgan aynan bir voqeani boshqa biri sokinlik bilan qabul qilishi mumkin, ya’ni har bir yozuvchining o‘zi qalamga olayotgan mavzuga qaysi tomondan yondashuviga qarab belgilanadi. Globallashuv jarayoni keltirib chiqarayotgan mummolar ham mavzu sifatida juda ko‘p yozuvchi va shoirlarni o‘ziga tortgan. Kimlardir bu muammolarni ishtirokchi sifatida ko‘rsatib bersa, boshqalar esa, u tufayli vujudga kelgan iztirobli kechinmalar asosida voqealarni

o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalantirishga, salbiy oqibatlarini izohlashga hamda mulohaza qilishga undaydi.

Kalit so‘zlar: Gloabllashuv, ommaviy madaniyat, ruhiyatshunos, degradatsiya, tarbiya, metod, detal.

Annotation: In fiction, the representation of a single event by multiple authors is indicative of each writer’s unique approach to reality, their figurative interpretation, expressive style, and individuality. This is because the creative process unfolds in a distinctive manner for every writer. An event that stirs deep emotions in one author may be perceived with calm detachment by another; thus, the interpretation depends on the perspective from which the writer approaches the subject. The problems generated by the process of globalization have also attracted numerous writers and poets as a significant thematic concern. While some depict these issues through direct participation within the narrative, others present them through emotionally charged experiences, aiming to vividly portray events before the reader’s eyes, interpret their negative consequences, and encourage critical reflection.

Keywords: Globalization, mass culture, psychology, degradation, upbringing, method, detail.

“Bugungi zamondosh uchun yorug‘ asarlar havodek zarur. Insoniyatning iymon-u e’tiqoddan mahrum qismi shundog‘am umidsizlik degan botqoqqa cho‘kib boryapti. Shunday paytda bashar ahliga bir qatim nur ilinish ijodkorning muqaddas burchi emasmi?[1, 5] – deydi U.Hamdam. Shiddat bilan o‘zgarayotgan bugungi dunyoda o‘zligini yo‘qotib borayotgan insonga yozuvchi aytganidek “tarbiya maktabi” bo‘luvchi asarlar juda muhimdir. Chunki har qanday ma’naviy tahdidlarga qarshi inson faqat yuksak ma’naviyati bilan qarshi chiqishi mumkin.

Yozuvchi I.Sulton bugungi adabiyot va inson haqida so‘z yuritar ekan, “Zamonaviy dunyo adabiyoti inson istak-xohishlari aro daydib yuribdi. G‘alati va tushunarsiz, mantiqsiz, g‘oyalar paydo bo‘lmoqda…”, “ruhiyatshunoslar allaqachon olamda inson degradatsiyasi(axloqiy yoki madaniy qadryatlarning pasayishi) degan jarayon yuz berayotganidan ogohlantirib bo‘lishdi” [2,13] – deya zamonaviy badiiy adabiyotning kamchiliklari, insonlarning xohishlari kun sayin ortib borayotgani va shu bilan birgalikda, bu jarayonga qarshi kurashish uchun bizning milliy urf-odatlarimiz, an’analarimiz mavjud ekanligiga ishora qiladi.

“Bugungi kunda, zamonaviy o‘zbek nasri tobora globallashib, butun inson taqdiriga daxldor mummolarni badiiy talqin etib bormoqda”[3,4], – deydi

adabiyotshunos S.Quronov. Shu jumladan, hozirgi o‘zbek adabiyotida bu kabi globallashuv muammolarini o‘z asarlarida yoritayotgan zamonaviy yozuvchilarimiz qatorida N.Norqobulovning “Sut sotuvchi bola” hikoyasini misol qilib keltirish mumkin. O‘zbek nasrida o‘ziga xos uslubga ega bo‘lgan yozuvchi ijodida inson botiniy kechinmalari, tabiat manzaralari va hayotning achchiq haqiqatlari bosh mezon hisoblanadi. Adibning ushbu hikoyasida aks etgan voqealar sodda, hayotiy lavhadek ko‘rinsa-da, aslida juda chuqur ijtimoiy va psixologik yukka ega asardir. Hikoya bosh qahramoni — tong-azonda, hali hamma uxlab yotgan mahalda og‘ir sut bidonlarini ko‘tarib, ko‘p qavatli uylar tomon yo‘l olgan kichik bir bolakay. Uning eng katta xavotiri — maktabga, darsga kechikish. Ko‘z oldida mudom maktab muallimasining "Tag‘in kechikdingmi? Qachongacha davom etadi bu?!" degan darg‘azab qiyofasi va zug‘umli nigohi turadi. Bola darsga tezroq yetib borish uchun chopmoqchi bo‘ladi, ammo qo‘lidagi og‘ir bidonlar bunga yo‘l qo‘ymaydi. Bolaning hayoti faqatgina ertalab sut sotishdan iborat emas. U darsdan keyin ham hamma tengqurlari kabi o‘ynay olmaydi, daraxtga osilib sho‘xlik qilgisi, xotirjam xayol surgisi keladi. Ammo u bozorga chopishi, odamlar tashlab ketgan yemish qoldiqlarini yig‘ishi, ariq bo‘ylaridan o‘t yulib kelishi shart. Chunki uyida uni "mudom yumlashgani yumlashgan", ochofat ikki sigir kutmoqda.

Hikoyada har bir detal ma’lum vazifa bajaradi. Jumladan, bola o‘z oilasining tirikchilik manbai bo‘lgan o‘sha sigirlarni ich-ichidan yomon ko‘radi. Ularni bolalarcha ojizlik va alam bilan zimdan mushtlab qo‘yadi. Negaki, shu jonivorlar sabab u o‘zining bolaligidan, o‘yinlaridan va eng yomoni — maktabdagi qadridan mahrum bo‘lmoqda. Ammo ota-onasining ardog‘ida bo‘lgan bu sigirlarga ochiqchasiga qarshi chiqa olmaydi. Adib bolaning charchog‘ini, zinapoyaga bir zumgina o‘tirib tin olgisi kelishini shunday tasvirlaydiki, o‘quvchi qahramonning jismoniy va ruhiy toliqishini yurakdan his qiladi. Bolaning sut tezroq sotilishi uchun mijozlarga bog‘liqligi, uning ilojsizligi asarning ta’sirchanligini oshirgan. Normurod Norqobilovning "Sut sotuvchi bola" hikoyasi — bolalikning sofligi va hayotning qiyinchiliklari o‘rtasidagi kurash haqidagi og‘riqli asardir. Yozuvchi bolakayning mushtdek jussasidagi ulkan tashvishlarni tasvirlash orqali kitobxonda chuqur hamdardlik uyg‘otadi va uni hayot haqida jiddiy mushohada yuritishga majbur qiladi. Bu hikoya o‘zbek bolalar adabiyoti va realistik prozasining eng go‘zal namunalaridan biridir. Shuningdek, globallashuv davrida bu kabi holatlar jamiyatga ma’naviy zarar bermoqda. Oilalarda farzandlarning ta’lim olishidan ko‘ra ko‘proq pul topishi, daromadga boy kasblarning ortidan quvishi odatiy holga

aylanib qolmoqda. Bu kabi holatlar kun sayin ortishi esa insonni yangi muammolar sari qadam qo‘yayotganiga ishora qiladi. Xulosa qilib aytganda, bu kabi vaziyatlarda insonlar haqiqiy tarbiyani, albatta, adabiyotdan, milliylik aks etgan turli asarlardan oladi. Zero, adabiyotshunos A.Qayumov ta’kidlaganidek: “Badiiy asar inson psixologiyasiga tez ta’sir etuvchi vositalardan sanaladi. Shuning uchun kitobxon shuuriga qadim qadryatlarga muhabbat tuyg‘usini yuksaltirishda, mafkuraviy tahdidlar va ommaviy madaniyat ta’siriga qarshi tura oladigan yetuk insonlar qilib tarbiyalashda milliy xarakterga ega qahramonlar obrazini yaratish muhim ahamiyatga egadir”[4,143]. Shunday ekan biz, milliy xarakterga boy asarlarni tanlab olib, uning mohiyatini tushunib, ma’naviy dunyoyimizni anglab yashamog‘imiz kerak. Haqiqiy kitobxongina bu kabi tushunchalarni to‘liq anglab yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati;

1. Ulug‘bek Hamdam. Umidbaxsh adabiyot ehtiyoji. “Hurriyat” gazetasi. (onlayn) 2020 yil 17-yanvar
2. Yaxshi odamga aylanasan, Yozuvchi I.Sulton bilan suhbat. “Kitob dunyosi” gazetasi veb-sahifasi
3. S.Quronov.Isajon Sultonning ikki romani haqida. kh-davron.uz. 2018 yil, 28-dekabr
4. Muhammadjon Xolbekov. “Moziyga qaytaylik”n.ziyouz.com
5. Maslova A.N. Globallashuv jarayonlari sotsiolagik nuqtai nazardan: ta’riflar va tushunchalar. Universitet kitobi. 2008

6. Muhammadjon Xolbekov. “Moziyga qaytaylik”n.ziyouz.com

7. Maslova A.N. Globallashuv jarayonlari sotsiolagik nuqtai nazardan: ta’riflar va tushunchalar. Universitet kitobi. 2008

8. Ulug‘bek Hamdam. Istiqlol davri adabiyoti. Jahon adabiyoti jurnali. 2019-yil, fevral, 2-soni

9 . Sa’dulla Quronov. Isajon Sultonning ikki romani haqida.. kh-davron.uz 2018-yil, 28-dekabr.

10. Isajon Sulton. “Ozor”(hikoya). MuallifZiyo.uz 2013-yil, noyabr

11. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. www ziyouz.uz

12. Isajon Sulton. “Ozor”(hikoya). MuallifZiyo.uz 2013-yil,noyabr

13. Sa’dulla Quronov. Isajon Sultonning ikki romani haqida.. kh-davron.uz 2018-yil, 28-dekabr.

14. A.Qayumov Milliy xarakter va badiiy mahorat. Monografiya. 2020-yil, 143-bet

FILOLOG-PEDAGOG TAYYORLASH TIZIMIDA METODIKA FANINING O‘RNI

Saribayeva Maxsuda Urinbayevna
Guliston davlat universiteti dotsenti, p.f.n.
maqsudasaribayeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada filolog-pedagog tayyorlash tizimida metodika integrativ fan sifatida namoyon bo‘lishi, u filologiya, pedagogika va psixologiya bilimlarini yagona kasbiy faoliyat modeliga birlashtirishi, metodika fanining filolog-pedagog tayyorlashdagi funksional roli ilmiy asoslangan. Shuningdek, filolog-pedagog faoliyati davomli muloqotga asoslanishi, metodika o‘qituvchiga muloqotni boshqarish texnologiyasini o‘rgatishi, ya’ni ochiq savollar berish, fikrni rivojlantirish, bahsni boshqarish, turli talqinlarni uyg‘unlashtirishdan saboq berishi, natijada o‘qituvchi darsda nazoratchi emas, balki o‘zaro muloqot tashkilotchisiga aylanishi, bu esa o‘quvchida mustaqil fikrlashni rivojlantirishi va pedagogning kasbiy rolini mustahkamlashi ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

Shu bilan birga metodika fanining strategik ahamiyati va ta’lim sifati bilan bog‘liqligi, zamonaviy ta’lim tizimida pedagog tayyorlash sifati bevosita uning metodik tayyorgarligiga bog‘liq ekanligi ham ilmiy tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy metodika, metodik yondashuv, innovatsiya, metodika nazariyasi, adabiy ta’lim, baholash tizimi, raqamli texnologiya, usul, komponent, kreativ pedagogika.

Abstract. This article substantiates the manifestation of methodology as an integrative discipline within the system of philological-pedagogical training, emphasizing its role in synthesizing the knowledge of philology, pedagogy, and psychology into a unified model of professional activity. The functional

significance of methodology in the preparation of philologist-educators is scientifically grounded. Furthermore, the study examines the communicative nature of the philologist-pedagogue's professional activity, demonstrating that it is fundamentally based on continuous interaction. In this context, methodology equips educators with the technology of managing communication, including the ability to formulate open-ended questions, develop and extend ideas, moderate discussions, and harmonize diverse interpretations. As a result, the teacher in the classroom transforms from a mere controller into an organizer of interactive communication, which, in turn, fosters students' independent thinking and strengthens the educator's professional role.

In addition, the article analyzes the strategic significance of methodology and its direct correlation with the quality of education, arguing that, within the contemporary educational system, the quality of teacher training largely depends on the level of methodological preparedness.

Keywords: modern methodology, methodological approach, innovation, methodology theory, literary education, assessment system, digital technology, method, component, creative pedagogy.

Zamonaviy ta'lim tizimi ijtimoiy rivojlanishning yangi bosqichiga kirib borar ekan, pedagog shaxsiga qo‘yiladigan talablar ham mazmun va sifat jihatidan tubdan o‘zgarib bormoqda. Ayniqsa, gumanitar yo‘nalishdagi mutaxassis – filolog-pedagog faoliyati endilikda faqat bilim berish bilan chegaralanmay, balki shaxsni rivojlantirish, tafakkurni faollashtirish va madaniy qadriyatlarni anglash jarayonini boshqarishga qaratilmoqda. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim modeli o‘qituvchidan bilimlarni yetkazuvchi emas, balki ta'lim faoliyatini loyihalovchi, tashkil etuvchi va tahlil qiluvchi mutaxassis bo‘lishni talab qiladi.

Adabiyot fanining o‘ziga xosligi shundaki, u faqat axborot beruvchi predmet emas, balki shaxsning estetik, axloqiy va ma'naviy kamolotiga xizmat qiluvchi murakkab madaniy hodisa hisoblanadi. "Adabiyot fanining o‘ziga xosligi shundaki, u faqat axborot beruvchi predmet emas, balki shaxsning estetik, axloqiy va ma'naviy kamolotiga xizmat qiluvchi murakkab madaniy hodisa hisoblanadi" [4: 95]. Shu sababli uni o‘qitish jarayonida o‘qituvchi oddiy ilmiy ma'lumotlarni uzatish bilangina kifoyalanmaydi. U badiiy matnni pedagogik jihatdan qayta ishlab, o‘quvchi tafakkuri darajasiga moslashtiradi, talqin qiladi va o‘quvchining

mustaqil fikrini shakllantiradi. Mazkur vazifa esa faqat filologik bilim bilan emas, balki metodik tayyorgarlik orqali amalga oshiriladi.

Bugungi pedagogik tadqiqotlar koʻrsatishicha, oʻqituvchining kasbiy modeli “bilimdon mutaxassis”dan “kompetent pedagog”ga tomon evolyutsiya qilmoqda. Bu evolyutsiyada metodik tayyorgarlik hal qiluvchi omilga aylanadi. Chunki aynan metodika nazariy bilimlarni pedagogik faoliyat mexanizmiga aylantiradi. Shuning uchun filolog-pedagog tayyorlash tizimida metodika fanining oʻrnini aniqlash nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

Filologik tayyorgarlikning asosini adabiyot tarixi, nazariyasi va matn tahlili tashkil etadi. Biroq amaliy pedagogik faoliyat shuni koʻrsatadiki, chuqur ilmiy bilimga ega mutaxassis ham metodik tayyorgarlik yetarli boʻlmasa, samarali oʻqituvchi boʻla olmaydi. Sababi – bilimni bilish va uni oʻrgatish ikki xil faoliyat turidir. Oʻqituvchi bilimni oʻquvchi yoshiga moslashtirishi, didaktik qayta ishlashi, maqsadga muvofiq metod tanlashi hamda natijani baholashi zarur. Bu esa maxsus kasbiy kompetensiyani talab qiladi. “Oʻqituvchining kasbiy shakllanganligi asosini motivatsion xislatlar, intellektual salohiyat, amaliy koʻnikmalar, irodaviy, hissiy hamda oʻz-oʻzini boshqara olish sifatlari tashkil etadi”[5:101]. Shunday qilib, filologik bilimlar pedagogik faoliyat uchun zarur, biroq yetarli shart emas. Ular metodik kompetensiya bilan uygʻunlashgandagina real ta’limiy qiymat kasb etadi. Metodika fanining vazifasi aynan shu uygʻunlikni ta’minlashdan iborat – ya’ni ilmiy mazmunni oʻqitish texnologiyasiga aylantirishdir.

Filolog-pedagog tayyorlash tizimida metodika integrativ fan sifatida namoyon boʻladi. U filologiya, pedagogika va psixologiya bilimlarini yagona kasbiy faoliyat modeliga birlashtiradi.

Filologik ta’limda metodika fanining mustaqilligi ayniqsa yaqqol koʻrinadi. Adabiyot oʻqitish jarayoni oddiy bilim uzatishdan iborat emas, balki badiiy tafakkurni rivojlantirish, estetik idrokni shakllantirish va shaxsiy munosabatni vujudga keltirish jarayonidir. Bunday murakkab pedagogik hodisani umumiy didaktik qoidalar bilan toʻliq tushuntirib boʻlmaydi. Shu bois adabiyot oʻqitish metodikasi oʻzining maxsus qonuniyatlari, usullari va texnologiyalariga ega boʻlgan mustaqil ilm sifatida shakllanadi. Ayniqsa, adabiyotshunoslik va pedagogikaning tutash nuqtasi oʻlaroq koʻrilishi adabiyotlarda qayd etiladi: “Ammo bu ikkala fan ham (adabiyotshunoslik va pedagogika, izoh bizniki – M.S.) uzluksiz ta’lim jarayonida adabiyotdan nimani va qanday oʻqitilishi masalasini hal

qilib bera olmaydi. Adabiyot o‘qitish metodikasi ilmi har ikki fan xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi” [6:9].

Filologik ta’limda metodikaning asosiy vazifalaridan biri badiiy asarni o‘quvchi yoshiga mos ravishda didaktik qayta ishlashdir. Badiiy matn ilmiy maqola singari to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushuntirilmaydi; u savol, muammo, dialog va tahlil orqali o‘zlashtiriladi. O‘qituvchi esa ushbu jarayonni boshqaruvchi mediator sifatida faoliyat yuritadi. Demak, metodika o‘qituvchining pedagogik vositachilik faoliyatini ilmiy asoslaydi.

Metodika fanining pedagogika va didaktika bilan aloqasi uzviy, ammo ular aynan bir xil emas. Didaktika ta’limning umumiy kategoriyalarini – maqsad, mazmun, metod va shakllarni o‘rganadi. Metodika esa ularni konkret predmetga moslashtiradi. Masalan, umumiy didaktikada “muammoli ta’lim” prinsipi mavjud bo‘lsa, adabiyot metodikasida bu badiiy asarni muammoli savollar orqali talqin qilish texnologiyasiga aylanadi.

Filologiya bilan metodikaning aloqasi yanada chuqurroqdir. Filologiya matn mazmunini ochib beradi, metodika esa shu mazmunni o‘quvchiga yetkazish yo‘lini ishlab chiqadi. Biri mazmunni yaratadi, ikkinchisi esa uni o‘zlashtirish mexanizmini tashkil etadi. Shu sababli metodikasiz filologiya pedagogik ahamiyat kasb etmaydi, filologiyasiz metodika esa mazmunsiz texnologiyaga aylanadi. Ularning birligi pedagogik samaradorlikning asosiy sharti hisoblanadi.

Psixologiya metodika uchun muhim nazariy tayanch vazifasini bajaradi. “Shuningdek, adabiyot o‘qitish metodikasining chiqargan xulosalari va bergan tavsiyalari o‘quvchilarning fiziologik va ruhiy xususiyatlariga maksimal darajada mos kelishi kerak. Shuning uchun ham metodika ilmi umumiy psixologiya va yosh pedagogikasi singari fanlarda erishilgan so‘nggi yutuqlarga tayangandagina samarali ish ko‘ra oladi” [10: 9]. O‘quvchining yosh xususiyatlari, qabul qilish darajasi, tafakkur bosqichlari va motivatsiyasi hisobga olinmasa, eng mukammal metod ham natija bermaydi. Ayniqsa, badiiy matnni idrok etish jarayoni emotsional va obrazli tafakkur bilan bog‘liq bo‘lgani sababli metodika psixologik qonuniyatlarga tayanadi. Rus metodistlarining darsligida bu mohiyat quyidagicha ifoda qilingan: “Metodika vaqtni tejash, o‘quvchilar kuchini oqilona ishlatish, o‘quv materialidagi asosiy va bosh xususiyatlarni ko‘ra olish ko‘nikmasi, jamoa mehnatini tashkil eta bilish san’ati; o‘quvchilarga ularning individual xususiyatlarini ko‘zda tutib ta’sir ko‘rsatish tizimidir”[2:4], – deya ta’riflaydi.

Metodika fanining filolog-pedagog tayyorlashdagi funksional roli ham o‘ziga xosdir. Filolog-pedagog tayyorlash tizimida metodika fani faqat nazariy bilim beruvchi kurs sifatida emas, balki pedagogik faoliyatni shakllantiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Uning asosiy vazifasi bilimlarni faoliyatga aylantirishdir. Chunki o‘qituvchi kasbi bilimga egalik qilish bilan emas, balki uni boshqalar ongida hosil qilish bilan belgilanadi. Demak, metodika – bilimdan ko‘nikmaga, ko‘nikmadan kompetensiyaga o‘tish jarayonini ta’minlovchi o‘tish bo‘g‘inidir.

Bundan tashqari bu fan bilimlarni amaliy faoliyatga aylantirish funksiyasini bajaradi. Turk manbalarida ta’kidlanganidek, “Insonlar bilim yaratadi, lekin bilim ham insonlarni boshqaradi”. Bilimlar o‘z holicha amaliy ahamiyat kasb etmaydi, shu bilimni harakatga yo‘llaydigan mexanizm kerak. Har qanday ilmiy tayyorgarlik pedagogik faoliyat uchun yetarli bo‘la olmaydi. Filolog mutaxassis badiiy matnni tahlil qila olishi mumkin, biroq uni o‘quvchiga tushunarli shaklda yetkazish boshqa turdagi intellektual faoliyatni talab qiladi. Metodika ana shu faoliyatni modellashtiradi. Rus metodist olimlari metodikaning fundamental va amaliy vazifalarini ajratib ko‘rsatadilar [1:5]. Professor V.Qodirov amaliy vazifalar mohiyati nima uchun?, nimani?, qanday?, nega shu tarzda savollari vositasida belgilanishini ta’kidlaydi [7:10]. Yetakchi olimlar bu savolning fan nuqtayi nazardan ahamiyatini ham darajalaydilar. Masalan, Qozoqboy Yo‘ldoshev fikricha, “… **qanday** savoli **nimani** so‘rog‘iga qaraganda muhimroqdir” [10:119]. Biz esa o‘quvchiga yo‘naltirgan holda metodika o‘qituvchiga quyidagi savollarga javob topishni o‘rgatadi deb bilamiz:

- O‘quvchi nimani bilishi kerak?
- O‘quvchi qanday yo‘l bilan bilib oladi?
- O‘quvchi bilimni qanday qo‘llaydi?

Bu jarayon uch bosqichda amalga oshadi: didaktik qayta ishlash, pedagogik tashkil etish va reflektiv baholash. O‘qituvchi badiiy asarni dastlab ilmiy darajada anglaydi (ya’ni o‘qi uchun filologik tahlil qilib iladi), keyin uni o‘quvchi tafakkuriga moslashtiradi, so‘ng esa o‘quvchi faoliyati orqali mazmunni o‘zlashtirishga erishadi. Natijada bilim tayyor axborot sifatida emas, balki shaxsiy tajriba sifatida shakllanadi. Metodika fanining bu funksiyasi ayniqsa adabiyot ta’limida muhimdir. Chunki badiiy asar o‘qitilmaydi – u birgalikda anglanadi, u orqali hayot haqiqatlari kashf etiladi. O‘quvchi badiiy matnni o‘qituvchi izohi orqaligina emas, balki savol, muammo, bahs va talqin orqali ham o‘zlashtirishi kerak. Demak, metodika o‘qituvchiga bilimni uzatish emas, balki o‘quv faoliyatini

tashkil etishni o‘rgatadi. Bu OTMda mutaxassis tayyorlash hamda malaka oshirish tizimida markaziy nuqta bo‘lishi lozim.

Metodika fanining filolog-pedagog **kasbiy identifikatsiyasini shakllantirishdagi roli** ham beqiyos. Filolog-pedagog tayyorlash jarayonining eng muhim bosqichlaridan biri talabaning kasbiy o‘zligini anglashidir. Talaba dastlab o‘zini tilshunos/adabiyotshunos – ya’ni til/adabiyotni o‘rganuvchi mutaxassis sifatida tasavvur qiladi [3:8]. Biroq pedagogik faoliyat uchun bu yetarli emas. U o‘z bilimini boshqalar (o‘quvchisi)ga yetkazuvchi, ta’lim jarayonini boshqaruvchi shaxsga aylanishi zarur. Aynan metodika fani shu o‘zgarish – filologdan pedagogga aylanish jarayonini ta’minlaydi. Filolog-mutaxassisdan filolog-pedagogga o‘tish mexanizmi ham o‘ziga xosdir. Filologik sifatida tayyorgarlik asosan mazmunni o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘ladi: talaba matnni tahlil qiladi, g‘oyani aniqlaydi, nazariy tushunchalarni o‘rganadi. Metodik tayyorgarlik esa faoliyatga qaratiladi: o‘quvchi mazmunni qanday anglaydi, qanday savol berish kerak, hatto savollarning xarakteri qanday bo‘lishi kerak [8:12], qanday vazifa orqali talqin yuzaga keladi.

Shu nuqtadan boshlab talabaning kasbiy fikrlashi o‘zgaradi. U matnni quyidagicha ko‘ra boshlaydi:

- filolog sifatida – “asar nimani anglatadi?”
- pedagog sifatida - “o‘quvchi bu asarni qanday anglaydi?”

Demak, metodika bilim markazidan o‘quvchi markaziga o‘tishni ta’minlaydi. Bu o‘zgarish kasbiy identifikatsiyaning boshlanish nuqtasi hisoblanadi.

Talaba metodika orqali quyidagilarni anglaydi:

- bilim tayyor holda berilmaydi, u faoliyatda hosil bo‘ladi;
- o‘qituvchi tushuntirmaydi, balki anglashga olib keladi;
- dars ma’ruza emas, hamkorlik jarayonidir. Natijada pedagogik tafakkur shakllanadi va talaba o‘zini bilim manbayi emas, balki ta’lim tashkilotchisi sifatida idrok eta boshlaydi.

Shu tariqa **kasbiy pozitsiya va pedagogik mas’uliyatning shakllanishi** yuz beradi. Kasbiy identifikatsiyaning muhim belgisi – bu pedagogik pozitsiyaning shakllanishidir. O‘qituvchi o‘z faoliyatining maqsadini anglamasa, uning harakati tasodifga o‘xshab qoladi.

Taniqli metodist olim Qozoqboy Yo‘ldoshev ta’kidlaydi: “Adabiyot o‘qitishning maktab ta’lim tizimidagi boshqa o‘quv fanlarini o‘qitishdan jiddiy farqlanadigan bir jihati uning o‘qituvchi shaxsiyatiga qattiq darajada bog‘liq

ekanligidir. Adabiyot o‘qituvchisiga adabiyotshunoslikni puxta o‘zlashtirish va adabiyot o‘qitish metodikasiga doir yangiliklarni egallab olish kifoya qilmaydi. Adabiyot o‘qituvchisi ham bilimi, ham shaxsiyati bilan o‘quvchilarni o‘ziga rom eta olsagina adabiy ta’limdan ko‘zda tutilgan maqsadga erishishi mumkin. O‘qituvchi darsni nafaqat metodik jihatdan, balki ma’naviy jihatdan ham loyihalashni o‘rgan boradi va endi **shaxsiy pedagogik tajribaning shakllanishi** ro‘y beradi.

Ma’lumki, filolog-pedagog faoliyati davomli muloqotga asoslanadi. Adabiyot darsini dialogsiz, muloqotsiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Metodika o‘qituvchiga muloqotni boshqarish texnologiyasini o‘rgatadi, ya’ni ochiq savollar berish, fikrni rivojlantirish, bahsni boshqarish, turli talqinlarni uyg‘unlashtirishdan saboq beradi. Natijada o‘qituvchi darsda nazoratchi emas, balki o‘zaro muloqot tashkilotchisiga aylanadi. Bu esa o‘quvchida mustaqil fikrlashni rivojlantiradi va pedagogning kasbiy rolini mustahkamlaydi. Binobarin, metodika fanining kasbiy identifikatsiyani shakllantirishdagi roli quyidagi jarayonlarda namoyon bo‘ladi: bilim markazidan o‘quvchi markaziga o‘tish; pedagogik pozitsiyaning shakllanishi; mas’uliyatli munosabatning rivojlanishi; shaxsiy pedagogik tajribaning hosil bo‘lishi; muloqot madaniyatining shakllanishi. Shu tufayli metodika fani filolog-pedagog tayyorlashda shunchaki o‘quv kursi emas, balki kasbiy shakllanish mexanizmidir. U talabaning ixtisoslik bilimlarini pedagogik faoliyatga aylantirib, uni haqiqiy o‘qituvchi qilib yetishtiradi.

Shu o‘rinda metodika fanining strategik ahamiyati va ta’lim sifati bilan bog‘liqligi o‘rtaga chiqadi. Zamonaviy ta’lim tizimida pedagog tayyorlash sifati bevosita uning metodik tayyorgarligiga bog‘liq ekanligi tobora aniq namoyon bo‘lmoqda. O‘tgan asrda adabiyot o‘qitish ilmi rivojiga ulkan hissa qo‘shgan rus metodist olimlari V. A. Kan-Kalik, V. I. Xazanlarning “Maktabda adabiyot o‘qitishning psixologik-pedagogik asoslari” nomli risolasida adabiyot o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligiga alohida urg‘u beriladi va adabiy-ta’limiy mehnatning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, badiiy-pedagogik vazifalarning badiiy-tadqiqiy, badiiy-konstruktiv, badiiy-tashkiliy va badiiy-kommunikativ tarzidagi tasnifini keltiradilar va ularning har biriga alohida to‘xtaladilar. Metodist olim Valijon Qodirov bu vazifalar haqida tizimli tushunchasi bo‘lmagan o‘qituvchining darslari ongli emas, stixiyali tarzda kechishiga e’tibor qaratadi [9:22]. Chunki o‘qituvchi kasbiy faoliyatining samaradorligi faqat bilim darajasi bilan emas, balki bu bilimni qanday tashkil

etilgan pedagogik jarayon orqali o‘quvchiga yetkazishi bilan belgilanadi. Shu sababli metodika fani filolog-pedagog tayyorlash tizimida alohida kurs emas, balki tayyorlovning strategik markazi sifatida qaraladi.

Metodika – pedagogik faoliyatning markaziy komponenti. O‘qituvchining kasbiy faoliyatini tahlil qilganda uch asosiy tarkibiy qism ajratiladi: mazmun, faoliyat va natija. Mazmun – fan bilimlari majmui; natija – o‘quvchida shakllangan kompetensiyalar; faoliyat esa ularni bog‘lovchi jarayondir. Metodika aynan shu faoliyatni tashkil etadi. Agar metodika mavjud bo‘lmasa, mazmun tizimsiz axborotga aylanadi, o‘quvchi faoliyati passivlashadi, natija tasodifiy bo‘ladi. Bunga aks o‘laroq metodika mavjud bo‘lsa, bilim faoliyat orqali o‘zlashtiriladi, o‘quvchi subyektga aylanadi, natija barqaror bo‘ladi. Demak, metodika pedagogik jarayonning ichki mexanizmini yaratadi. Shu bois u yordamchi emas, markaziy komponent hisoblanadi.

Zamonaviy ta’lim modelida o‘qituvchi bilim manbayi emas, balki o‘quv faoliyatini tashkil etuvchi subyekt sifatida qaralmoqda va shunday bo‘lishi ham shart. Bu esa o‘qituvchidan faqat predmet bilimini emas, balki pedagogik jarayonni loyihalash, boshqarish va tahlil qilish kompetensiyalarini talab qiladi. Metodika fani aynan shu kompetensiyalarni shakllantiradi va pedagogni reproduktiv faoliyatdan konstruktiv faoliyatga olib o‘tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Алексеева М.М., Яшина Б.И. Методика развития речи и обучения родному языку дошкольников: Учеб. пособие для студ. высш. и сред, пед. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2000. С.5.

2. Богданова О., Леонов С., Чертов В. Методика преподавания литературы. – Москва: ACADEMA, 2004. –С.4

3. Hasanov Sh.A. Adabiyot fani o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari talqin. ADPI Ilmiy xabarnomasi. 2026, №1. 4-8-betlar.

4. Иброҳим Ҳаққул. Мушоҳада ёғдуси. Адабий ўйлар**,** ҳикматлар, лутфлар. – Т.: Тафаккур, 2019. – Б. 95.

5. Холбозорова Н.Х. Олий педагогик таълимда бўлажак ўқитувчининг касбий ривожланиши. Kasb-hunar ta’limi №4, 2023. 101-b. (97-103-betlar).

6. Husanboyeva Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi. I kitob. –T.: Metodist, 2023. (400).

7. Kadirov V.A. Nutq o‘stitish metodikasi. Darslik. Andijon: Jahona nashr, 2025.

8. Qodirov V.A. Adabiyot o‘qitishning tashkiliy dadaktik vazifalari. Тил ва адабиёт таълими. –Тошкент, 2013. –№ 7 - Б.9-12.

9. Qodirov V.A. Metodika – muammolar qulfining kaliti. Metodist, 2024, №1. 22-bet. (14-25)

10. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA ONA TILI VA ADABIYOT ORQALI TALABALAR IJODIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Xamroyev Suhrob Raxmatovich,
Buxoro davlat universiteti
psixologiya va sotsiologiya
kafedrasi erkin tadqiqotchisi.
(O‘zbekiston)

Annotatsiya. Mazkur maqolada globallashuv sharoitida ona tili va adabiyotning yoshlar tafakkuriga ta’siri, talabalarda ijodiy kompetensiyani rivojlantirishdagi o‘rni hamda bu jarayonning ijtimoiy-psixologik omillari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy adabiyotning shaxs kreativligi, mustaqil fikrlashi va ma’naviy immunitetini shakllantirishdagi ahamiyati yoritilib, oliy ta’lim tizimida ona tili va adabiyot fanlarini innovatsion yondashuv asosida o‘qitish zarurati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: globallashuv, ona tili, adabiyot, ijodiy kompetensiya, kreativ tafakkur, ma’naviyat, mutolaa, psixologik omillar, milliy qadriyatlar, jadidchilik.

Abstract. This article scientifically analyzes the influence of the native language and literature on the worldview of young people in the context of globalization, as well as their role in developing students’ creative competence and the socio-psychological factors of this process. Furthermore, the article highlights the importance of national literature in shaping individual creativity, independent

thinking, and spiritual immunity, while substantiating the necessity of teaching native language and literature in higher education through innovative approaches.

Key words: globalization, native language, literature, creative competence, creative thinking, spirituality, reading, socio-psychological factors, national values, Jadidism.

Bugungi globallashuv davri inson ma’naviyati, ongi va tafakkuriga nihoyatda katta ta’sir ko‘rsatayotgani ayni haqiqat. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ommaviy madaniyatning keng yoyilishi va kommunikativ makonning chegarasizlashuvi natijasida milliy qadriyatlarni saqlash masalasi tobora dolzarb tus olmoqda. Ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy kamoloti, mustaqil fikrlashi va o‘zligini asrab qolish masalasi bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘layotir. Ona tili va adabiyot fani nafaqat ta’limiy, balki ijtimoiy-psixologik va ma’naviy ahamiyatga ham egaki, bu fanning kuchidan foydalanishni davrning o‘zi taqazo etmoqda.

Til millat qiyofasini aks ettiruvchi asosiy omildir. Inson tafakkuri til orqali shakllanadi, rivojlanadi va namoyon bo‘ladi. Psixologik nuqtayi nazardan qaralganda, nutq va tafakkur bir-biri bilan uzviy bog‘liq jarayonlardir. Tilning boyligi insonning fikrlash doirasini kengaytiradi, obrazli mushohada yuritish qobiliyatini rivojlantiradi hamda shaxsning kommunikativ faolligini kuchaytiradi. Shu sababdan ham ona tilining qadrsizlanishi milliy tafakkurning zaiflashuviga olib kelishi mumkin. Globallashuv jarayonida ayrim yoshlar nutqida begona unsurlarning ko‘payib borayotgani, virtual kommunikatsiyaning ustuvor tus olayotgani, kitob mutolaasining kamayib borayotgani ma’naviy xavf sifatida baholanishi aniq.

Shunday murakkab sharoitda adabiyot inson qalbini tarbiyalaydigan, uning ruhiy olamini boyitadigan eng muhim ma’naviy vositalardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda. Badiiy asarlar orqali inson oq va qorani taniydi, estetik did va axloqiy qarashlarini shakllantiradi. Ayniqsa, milliy adabiyot yosh avlod ongida vatanparvarlik, milliy g‘urur va tarixiy xotira tuyg‘ularini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega. Shu ma’noda, jadid adabiyoti namunalarining tarbiyaviy imkoniyatlari nihoyatda kengdir. Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi ma’rifatparvar adiblar o‘z asarlari orqali xalqni ilm-ma’rifatga, tafakkur erkinligiga va milliy uyg‘onishga da’vat etganlar. Ularning qarashlarida yoshlarni ma’naviy barkamol etib tarbiyalash g‘oyasi yetakchi o‘rin tutadi.

Abdurauf Fitrat adabiyotning, jumladan, she’riyatning millat ma’naviy hayotidagi o‘rnini alohida ta’kidlab, “Madaniy bir ulusning she’rsizlig‘in so‘ylamak esa, gapurub turg‘an bir kishining jonsizIig‘ina ishonmoq kabi kulunchdir.”, deb yozadi [1].

Bugungi zamonaviy ta’lim tizimida “ijodiy kompetensiya” tushunchasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki zamonaviy jamiyat tayyor bilimni takrorlovchi emas, balki yangilik yarata oladigan, muammolarga kreativ yondasha biladigan va mustaqil fikrlovchi shaxslarni talab etmoqda. Psixolog olim J. Gilford kreativlikni divergent tafakkur bilan bog‘lagan bo‘lsa [2], E. Torrens uni yangicha fikr yaratish qobiliyati sifatida talqin etadi [3]. Demak, kreativ tafakkur insonning nostandart qarorlar qabul qilishi, tasavvur doirasining kengligi va original g‘oyalar yaratish qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

Talaba-yoshlarda ijodiy kompetensiyaning shakllanishi bir qator ijtimoiy-psixologik omillar bilan chambarchas bog‘liq. Bularning qatoriga erkin fikrlash muhiti, mutolaa madaniyati, ma’naviy qadriyatlar, hissiy-intellektual rivojlanish, kommunikativ faollik hamda motivatsiya kiradi. Ayniqsa, badiiy adabiyot inson tasavvurini kengaytirishi, emotsional sezgirlikni oshirishi va obrazli tafakkurni rivojlantirishi bilan kreativ fikrlashning muhim omiliga aylanadi.

Dramatik va she’riy asarlar talabaning ruhiy kechinmalariga chuqur ta’sir qilib, uni fikr yuritishga, mulohaza qilishga hamda yangi xulosalar chiqarishga undaydi. Oqibatda shaxsda erkin fikrlash, qolaversa, analitik tafakkur rivoj topadi.

Globallashuvning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda ma’naviy xavflari ham mavjud, albatta. Ommaviy madaniyatning tobora keng quloch yoyishi, yengil-yelpi axborotlarning keng tarqalishi va virtual muhitga qaramlik yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, internet makonida milliy qadriyatlarga zid bo‘lgan axborotlarning bisyorligi ma’naviy immunitet masalasini dolzarb qilib qo‘ymoqda. Ma’naviy immunitet insonning turli mafkuraviy tahdidlarga nisbatan ruhiy va axloqiy barqarorligini anglatadi. Bunday barqarorlik esa avvalo sog‘lom ma’naviy muhit, kitobxonlik madaniyati va yaxshi milliy tarbiya orqali shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ona tili va adabiyot fanlari talabalarda ma’naviy immunitetni rivojlantiruvchi muhim omil sanaladi. Chunki badiiy adabiyot insonni tarixiy xotira bilan bog‘laydi, unda milliy o‘zlikni anglash hissini kuchaytiradi hamda ruhiy olamni boyitadi. Kitob mutolaasi esa tafakkur faolligini oshiradi, lug‘at boyligini kengaytiradi va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Tadqiqotlar

shuni ko‘rsatadiki, muntazam kitob mutolaa qiladigan yoshlarning kreativ tafakkuri va kommunikativ salohiyati yuqori bo‘ladi.

Bugungi oliy ta’lim tizimida talabalarni faqat nazariy bilim bilan qurollantirish yetarli emas. Talabalarda kreativ tafakkur, innovatsion yondashuv va mustaqil mushohada yuritish ko‘nikmalarini shakllantirish zarur. Bu jarayonda ona tili va adabiyot fanining nihoyatda keng pedagogik imkoniyatlari asqatadi. Avvalambor, badiiy matnlarni tahlil qilish asosida talabalarda mustaqil munosabat bildirish ko‘nikmasini rivojlantirish darkor. Talabaning asar voqealariga shaxsiy erkin yondashuvi uning ijodiy faolligini kuchaytiradi. Shuningdek, munozara, esse yozish, dramatizatsiya va interfaol metodlardan foydalanish kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Jadid adabiyotini chuqur o‘rganish ham talabalarning ma’naviy va intellektual kamolotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki jadidlar asarlarida tafakkur erkinligi, milliy uyg‘onish va ma’rifatparvarlik g‘oyalari mujassamdir. Fitratning ilm-ma’rifat haqidagi qarashlari bugungi zamonaviy ta’lim tamoyillari bilan hamohangdir. U yoshlarni fikrlashga, anglashga va jamiyat taraqqiyoti uchun mas’uliyatni his etishga da’vat etgan.

Aslini olganda, raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Elektron kutubxonalar, audiokitoblar va onlayn adabiy platformalar yoshlarning mutolaaga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Ammo texnologiyadan foydalanishda ma’naviy mezonlarni unutmaslik kerak. Chunki texnika inson tafakkurini rivojlantirishi ham, uni yuzakilashtirishi ham mumkin.

Globallashuv sharoitida ona tili va adabiyotning ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati tobora ortib bormoqda. Zamonaviy axborot makonida milliy o‘zlikni saqlash, til madaniyatini rivojlantirish va badiiy tafakkurni qo‘llab-quvvatlash strategik ahamiyat kasb etmoqda. Chunki til millat qiyofasi, adabiyot esa uning ma’naviy xotirasidir.

Talabalarda ijodiy kompetensiyani shakllantirishda ona tili va adabiyot fanlari yetakchi pedagogik-psixologik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Badiiy matnlar tahlili orqali talaba obrazli tasavvur mustaqil fikrlashni uyg‘un holda rivojlantiradi. Bu esa shaxsning kreativ salohiyatini oshiradi. Axir global axborot oqimi sharoitida yoshlarda tanqidiy fikrlash va mediasavodxonlikni rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi. Chunki har qanday axborot ham asl haqiqatni ifodalamaydi. Shu sababli uni tahlil qilish madaniyati zarur, deb hisoblayman.

Olib borilgan ilmiy kuzatuvlarimiz shuni ko‘rsatdiki, muntazam mutolaa bilan shug‘ullanuvchi talabalarda nutqiy madaniyat, ijodiy fikrlash va kommunikatsion kompetensiyalar yuqori darajada shakllanadi. Bu esa ularning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Adiblarimiz, ulug‘lar ijodiy merosini o‘rganish talabalarda milliy tafakkur, ma’naviy mas’uliyat va ijtimoiy faollikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Ularning g‘oyalari bugungi ta’lim tamoyillari bilan uyg‘un bo‘lib, innovatsion yondashuv uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli oliy ta’lim tizimida ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda muammoli, interfaol va kreativ yondashuvlarni keng joriy etish maqsadga muvofiq. Bu esa talabalarni tayyor bilim iste’molchisi emas, balki mustaqil ijodkor shaxs sifatida shakllantirishga beqiyos xizmat qiladi.

Globallashuv sharoitida milliy til va adabiyot insonning ma’naviy barqarorligi hamda milliy identikligini saqlashda muhim psixologik omil hisoblanadi. Zamonaviy psixologiyada ham badiiy tafakkur va milliy madaniy muhit shaxsning ijodiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlanadi [4].

Shu bilan bir qatorda, ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir talaba individual ijodiy salohiyatga ega. Bu salohiyatni to‘g‘ri yo‘naltirish pedagogning asosiy vazifalaridan biridir. Psixologik jihatdan qaraganda, erkin muhitda talaba o‘z fikrini ochiq ifoda etadi. Bu esa uning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Qolaversa, ijodiy faoliyatda ichki motivatsiya hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Motivatsiya, turtki qanchalik yuqori bo‘lsa, ijodiy natija ham shunchalik samarali bo‘ladi. Ta’limda rag‘batlantirish tizimi talabalar faolligini oshirishga xizmat qiladi. Badiiy asarlar tahlili jarayonida empatiya qobiliyati shakllanadi. Empatiya esa ijtimoiy-psixologik barqarorlikning muhim ko‘rsatkichidir. Shuningdek, guruhli muhokamalar talabalarda hamkorlikda fikrlash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Hamkorlikdagi ijodiy jarayon yangi g‘oyalar paydo bo‘lishiga zamin hozirlaydi. Oliy ta’limda loyiha asosida o‘qitish usullari samarali hisoblanadi. Bu usul talabaning mustaqil izlanishini rag‘batlantiradi. Kitob mutolaasi bilan bir qatorda zamonaviy media manbalardan foydalanish ham muhim. Lekin bu jarayon tanqidiy yondashuv bilan olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki axborot oqimida chalg‘ituvchi ma’lumotlar ham mavjud. Talaba ularni tahlil qilish orqali axborotni saralash ko‘nikmasini egallay boradi. Milliy adabiyotdagi obrazlar shaxsning qadriyatlar tizimini shakllantiradi. Bu esa ma’naviy ongning barqarorligini ta’minlaydi.

Shuningdek, til madaniyatining rivojlanishi jamiyatda muloqot madaniyatini oshiradi. Madaniyatli muloqot esa ijtimoiy barqarorlikka xizmat qilishi shubhasiz. Til — millatning ma’naviy xotirasi va tafakkur shaklini saqlovchi muhim ijtimoiy hodisadir. Filologiya fanlari doktori, professor Nuriddin Mahmudov ta’kidlaganidek, ona tili milliy dunyoqarash va madaniy identiklikning asosiy tayanchi hisoblanadi [5].

Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan oqilona foydalanish ham g‘oyat dolzarb. Chunki texnologiyalar ta’lim samaradorligini oshiradi. Biroq ular inson omilini almashtira olmaydi. Ustoz va talaba o‘rtasidagi ijodiy muloqot ta’limning asosiy yadrosi sanaladi. Shu bois pedagogik jarayonda insoniy munosabatlar ustuvor bo‘lishi kerak. Natijada talaba shaxsi har tomonlama barkamol bo‘lib rivojlanadi. Bu esa jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, ona tili va adabiyot orqali shakllangan ijodiy kompetensiya milliy taraqqiyotning muhim omili, deya olamiz.

Bir so‘z bilan aytganda, globallashuv sharoitida ona tili va adabiyotning ijtimoiy ahamiyati yanada ortib bormoqda. Milliy til va adabiyot xalqning ma’naviy mavjudligini saqlab qoluvchi asosiy omillardandir. Talabalarda ijodiy kompetensiyani rivojlantirishda esa badiiy adabiyotning o‘rni beqiyos. Adabiyot inson tafakkurini boyitadi, mustaqil fikrlashni shakllantiradi va ma’naviy immunitetni mustahkamlaydi. Shu bois oliy ta’lim tizimida ona tili va adabiyot fanlarini innovatsion yondashuv asosida o‘qitish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish hamda ulug‘lar, jadidlar merosidan samarali foydalanish bugungi kunning dolzarb pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi. Illo, millatning ertangi kuni uning ma’naviy tafakkuri va ijodiy salohiyatiga chambarchas bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar (Darslik va o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar). – Toshkent: Ma’naviyat, 2009.
2. Joy Paul Guilford. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967.
3. Ellis Paul Torrance. Torrance Tests of Creative Thinking. – Princeton: Personnel Press, 1974.
4. Rashidova G. Психология творчества и таланта: научные и теоретические аспекты // O‘zMU Xabarlari. – 2024. – №1.3.

5. Mahmudov N. Til va jamiyat. – Toshkent: Ma’naviyat, 2019.

MILLIY TIL MADANIYATI VA TARBIYA JARAYONIDA YOSHLAR NUTQINING O‘RNI

Umurzakova Kommuna Xursanovna,
Qo‘qon Universiteti filologiya fakulteti dotsenti
Email: umurzakovakommunaxon@gmail.com
(O‘zbekiston)

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilning milliy-madaniy va ijtimoiy ahamiyati, uning inson tafakkuri va bilish jarayonidagi o‘rni yoritilgan. Tilning jamiyat taraqqiyotidagi asosiy vosita sifatidagi funksiyasi, bilim va tajribaning avloddan avlodga uzatilishidagi roli ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, globallashuv va raqamli kommunikatsiya sharoitida yoshlar nutqida yuzaga kelayotgan o‘zgarishlar, ijtimoiy tarmoqlar ta’sirida shakllanayotgan qisqartmalar, rus tilidan o‘zlashgan so‘zlar hamda grafik belgilar masalasi ko‘rib chiqiladi. Maqolada nutq madaniyati va adabiy til me’yorlari o‘rtasidagi muvozanat, shuningdek, zamonaviy kommunikativ muhitda tilni saqlash va rivojlantirish zarurati asoslanadi. Tadqiqot natijalari tilni milliy qadriyat sifatida asrash, yoshlar nutq madaniyatini rivojlantirish hamda tilga ongli yondashuvni shakllantirish muhimligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: til, millat, nutq madaniyati, globallashuv, yoshlar nutqi, lingvokulturologiya, adabiy til, ijtimoiy tarmoqlar, kommunikatsiya, til me’yorlari.

Abstract: This article examines the national-cultural and social significance of language, as well as its role in human thinking and cognitive development. Language is analyzed as a key instrument of societal progress and a primary means of transmitting knowledge and experience from one generation to another. The study also explores changes occurring in youth speech under the influence of globalization and digital communication, including the widespread use of abbreviations, borrowings from the Russian, and graphical symbols in social media discourse. Particular attention is given to the interaction between speech culture and literary language norms, as well as the need to preserve and develop language in the modern communicative environment. The findings emphasize the importance of treating language as a national value, fostering speech culture among young people, and developing a conscious and responsible attitude toward language use in the context of rapidly evolving digital communication.

Keywords: language, nation, speech culture, globalization, youth speech, linguoculturology, literary language, social media, communication, language norms

Til – millat ko‘zgusi. Inson dunyoga kelgach, u biologik mavjudot sifatida emas, balki ijtimoiy va ma’naviy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllanishi uchun turli bilim, malaka va tajribalarni egallashi zarur. Ushbu jarayon atrof-muhitni kuzatish, eshitish, o‘qish hamda idrok etish orqali amalga oshadi. Ayniqsa, eshitib va o‘qib o‘rganish jarayonlari til vositasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, til inson tafakkurini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Til orqali uzatiladigan axborot va bilimlar doirasi nihoyatda keng bo‘lib, u insonning bilish imkoniyatlarini cheklanmagan darajada rivojlantiradi. Agar til mavjud bo‘lmaganida, insonning bilish faoliyati faqat shaxsiy tajribasi bilan chegaralanib qolgan bo‘lur edi. Bunday sharoitda jamiyat a’zolari o‘zaro bilim almasha olmagan, avvalgi tajribalar umumlashtirilmagan va natijada insoniyat bugungi moddiy hamda ma’naviy taraqqiyot darajasiga erisha olmagan bo‘lardi. Demak, til insoniyat rivojida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Tilning ma’rifiy va ijtimoiy ahamiyati shundaki, u jamiyat a’zolari tomonidan egallangan bilim va tajribalarni ommalashtirish, ularni tizimlashtirish va rivojlantirish imkonini yaratadi. Har bir shaxs tomonidan orttirilgan bilim til orqali boshqalarga yetkaziladi va shu tariqa individual tajriba umumiy ijtimoiy tajribaga aylanadi. Bundan tashqari, til bilim va ma’naviy merosni avloddan avlodga uzatishning eng ishonchli vositasi hisoblanadi. Og‘zaki va yozma nutq orqali saqlanib qolgan ilmiy, madaniy va axloqiy qadriyatlar yangi avlod tomonidan qayta o‘zlashtiriladi va takomillashtiriladi. Natijada har bir yangi avlod o‘z faoliyatini avvalgi tajribani takrorlashdan emas, balki uni davom ettirish va rivojlantirishdan boshlaydi.

Til bilish jarayonida zamon va makon to‘siqlarini bartaraf etuvchi muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Til tufayli insoniyat eng qadimgi davrlarga oid tarixiy, ilmiy va madaniy ma’lumotlardan xabardor bo‘lish bilan birga, kelajak rivoji haqidagi ilmiy bashoratlar va nazariy qarashlarni ham o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, til sezgi a’zolari orqali bevosita idrok etib bo‘lmaydigan hodisalar, jarayonlar va mavhum tushunchalarni anglash imkonini beradi.

Inson faoliyatida til borliqni bilish va fikr almashish vositasi vazifasini bajaradi. Til vositasida insoniyat tomonidan jamg‘arilgan bilimlar qayd etiladi, saqlanadi va avloddan avlodga yetkaziladi. Til millat ruhining ko‘zgusidir. Tilda millatning bor-yo‘g‘i, o‘y-fikri, dunyoqarashi, orzu-umidlari, Vatani, his-tuyg‘ulari gavdalanadi. Tildagi har bir so‘z, uning har bir shakli inson tafakkuri va tuyg‘usining natijasidir. Til yaxlit bir tizim sifatidagina ijtimoiy vazifani bajara oladi. Til asosiy birliklari: tovush, so‘z, qo‘shimcha, gaplar orqali grammatik jihatdan ohang vositasida va mantiqan o‘zaro bog‘lanishda borliq haqidagi hukmlarni ifodalaydi, nimanidir tasdiqlaydi yoki inkor qiladi. Til insoniyat tomonidan yaratilgan, unga xizmat qiladigan va har qaysi millatning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotiga mos tarzda rivojlanib boradigan ijtimoiy hodisadir.[1]

Moddiy predmetlar o‘z shakli va ko‘rinishi orqali inson ongida obraz sifatida aks etishi mumkin bo‘lsa, shaklsiz va mavhum tushunchalar faqat til birliklari yordamida idrok etiladi. Xuddi shuningdek, mavjudot va hodisalarning ko‘zga ko‘rinmas ichki mohiyati, ruhiy holatlari, ijtimoiy va axloqiy munosabatlari ham so‘z orqali anglanadi va boshqalarga yetkaziladi. Shu jihatdan til nafaqat aloqa vositasi, balki tafakkur, bilish va ijtimoiy ongni shakllantiruvchi asosiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Bugungi globallashuv va raqamli kommunikatsiya sharoitida nutq madaniyati masalasi yangi shakl va ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda. Xususan, hozirgi yoshlar nutqida ijtimoiy tarmoqlar, mobil aloqa va internet platformalari ta’sirida shakllangan til birliklari keng qo‘llanilmoqda. Bunda qisqartmalar (masalan, ok, btw, asap, brb, pls), xorijiy tillardan, ayniqsa rus, ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlar (respekt, krinj, trend, hayp, toksik, lichka) hamda grafik-belgilar (emoji, gif, stikerlar) yoshlar muloqotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ushbu hodisa tilning tabiiy rivojlanish jarayoni sifatida baholanishi mumkin bo‘lsa-da, uning adabiy til me’yorlariga ta’siri masalasi alohida e’tibor talab etadi.

Ijtimoiy tarmoq tillarida tezkorlik, qisqalik va soddalik ustuvor bo‘lib, bu holat ko‘pincha grammatik me’yorlarning buzilishi, so‘zlarning fonetik yozilishi, imlo va tinish belgilariga befarqlik bilan munosabatda bo‘lish kabi holatlarni yuzaga keltirmoqda. Natijada yoshlar nutqida og‘zaki va yozma nutq chegaralari tobora yaqinlashib, adabiy va norasmiy nutq o‘rtasidagi tafovut xiralashmoqda. Bu esa nutq madaniyatining an’anaviy mezonlari bilan zamonaviy kommunikativ ehtiyojlar o‘rtasida muayyan ziddiyatni yuzaga keltiradi.

Shu bilan birga, hozirgi yoshlar tilida kuzatilayotgan qisqartmalar va o‘zlashgan birliklar kommunikativ qulaylikni ta’minlash, emotsional-ekspressivlikni kuchaytirish va ijtimoiy guruhga mansublikni ifodalash vazifasini ham bajaradi. Demak, mazkur hodisalarni faqat salbiy jarayon sifatida baholash biryoqlamalik bo‘lib, ularni ijtimoiy-lisoniy hodisa sifatida ilmiy tahlil qilish zarur. Muhim jihat shundaki, yoshlar tilida shakllanayotgan bu birliklar adabiy til me’yorlariga zid tarzda rasmiy, ilmiy va ta’limiy nutqqa ko‘chib o‘tmasligi lozim.

Yoshlar nutqida keng qo‘llanilayotgan harflardan biri o‘zbek tilidagi “sh” harfining o‘rniga ingliz tilidagi “w” ning ishlatilishi ham yoshlar nutqida ko‘p uchrayotgan keskin o‘zgarishlardan biridir. So‘zlarning ijtimoiy tarmoqlarda, turli kontentlarda, o‘zaro suhbatlashgan (chat) paytda ishlatadigan qisqartma so‘zlari yoki harflarni almashtirib ishlatishi, tilning o‘zgarishiga katta sabab bo‘ladi. Masalan:

Shart – wart

Bo‘lishi – böliwi, bóliwi

Shamol – wamol kabilardan foydalanish bugungi kunda yoshlar orasida keng qo‘llanilayotgani tilga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchaytirish zaruratini uyg‘otadi. Bu kabi o‘zgarishlardan foydalanishning asosiy sabalaridan quyidagilarni ta’kidlash mumkin:

- Vaqtni tejash, bunda “sh” harfi tarkibidagi ikki harf “s” va “h” ni kompyuter yoki telefon klaviaturasidan yozish uchun ketgan vaqtga nisbatan “w” harfiga ketadigan vaqt kamroq sarflanadi; o‘ harfining yozilishi uchun ham o va ‘ belgisidan foydalanish uchun ketadigan vaqtga nisbatan ö, ó kabilarga sarflanadigan vaqt kamroq;
- Yangilikka bo‘lgan qiziqish, yoshlar doim o‘z uslublarini yaratishga intilishlari natijasida ham bu kabi o‘zgarishlarni kuzatishimiz mumkin. Lekin tildagi o‘zgarishlar til me’yorlarini hisobga olgan holda, milliy madaniyat va mentalitetni hisobga olgan holda bo‘lsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi;
- Globallashuv jarayoni va texnologiyaning rivojlanishi ta’sirida. Umumlashuv jarayonida yoshlarning umumiy, qisqa va belgilardan iborat bo‘lgan tildan foydalanishga urunishlari ham bevosita milliy til va undan foydalanishga ta’sir ko‘rsatadi.

Shunday ekan, zamonaviy nutq madaniyatini shakllantirish jarayonida bir tomondan milliy til an’analari, adabiy til me’yorlari va axloqiy talablar saqlanishi,

ikkinchi tomondan esa ijtimoiy tarmoqlar va raqamli makonda yuzaga kelayotgan yangi til hodisalariga ongli, tanqidiy va me’yoriy yondashuv qaror topishi muhimdir. Bu esa yosh avlodda tilga nisbatan mas’uliyatli munosabatni shakllantirish, nutqiy kompetensiyani rivojlantirish hamda zamonaviy kommunikativ muhitda milliy til madaniyatini asrab-avaylashga xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy til madaniyatini asrash va rivojlantirish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, hozir axborot tehnologiyalari zamonida yoshlar nutqida tilga bo‘lgan munosabat, so‘z tanlash madaniyati va ifoda aniqligi jamiyat ma’naviy darajasining muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Chunki internet tarmoqlari orqali tillarning o‘zaro globallashuv ta’sirida ekanligi, ko‘plab so‘zlarning hatto tarjimalari emas, aynan shu so‘zlar ishlatilayotganiga har kuni guvohi bo‘lamiz. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, yoshlar qanday so‘zlayotgan bo‘lsa, ertangi jamiyat ham shunday fikrlaydi va yashaydi.

Zamonaviy jahon tilshunosligida turli sohaviy birliklarning leksik tizimdagi maqomini aniqlash hamda ularni lingvokulturologik nuqtayi nazardan tadqiq etish dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, har bir tilda allegorik vositalarning lingvistik jihatdan tahlil qilinishi ularning lingvokulturologik tabiatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois allegoriyaning struktur-semantik, kognitiv, lingvokulturologik va pragmatik xususiyatlarini kompleks tarzda o‘rganish zarurati tobora ortib bormoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ilm-fan va ta’lim sohalariga bo‘lgan e’tiborning kuchayishi har bir tadqiqotchi oldiga nazariy va amaliy yo‘nalishlarda qator mas’uliyatli vazifalarni qo‘ydi. Til va jamiyatning bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqligi, doimiy aloqador ekanligi hamda ularning dinamik holda uzluksiz o‘zgarishlarga uchrashi allegorik vositalarda ham o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. “Mamlakatimiz taraqqiyotining zamini, hech shubhasiz, ilm-fan va innovatsiyalarga bog‘liq”[2] ekani, bu sohadagi ishlar ko‘lamini kengaytirish vazifasini har bir shaxsga yuklamoqda.

Tilshunoslik sohasi ko‘plab kichik tarmoqlarga ega bo‘lgan yirik sohadir. Bu soha tilning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, til va tafakkur, til va nutq, til va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar, tilning jamiyatdagi o‘rni, ichki tuzilishi, til tasnifi, tahlil qilish usullari kabi masalalarni o‘zida jamlaydi va o‘rganadi. Tilshunoslikda zamonaviy tadqiqot metodlarining almashinuvi badiiy matnda ifodalanuvchi til birliklarining inson ongidagi kognitiv jarayonlar bilan bog‘liq jihatlarini o‘rganishi

bilan ham ahamiyatlidir. Shu bois turli tillar badiiy matnlari misolida allegoriyaning qo‘llanish mexanizmi, inson tomonidan olamning milliy va lisoniy manzarasini yaratishda tasvir vositalarining bevosita va bilvosita ishtiroki, uning turli tillardagi umumiy va xususiy qonuniyatlarini tadqiq qilish zamonaviy tilshunoslikda allaqachon dolzarblik kasb etdi. Bu boradagi muammolarga ilmiy jihatdan asosli yechim topish uchun olib borilayotgan tadqiqotlar, dunyoni bilishda til va tafakkur munosabatlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Madaniyat – jamiyat, inson ijodiy kuch va qobilyatlarini tarixiy taraqqiyotini muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko‘rinishlarida, ular yaratadigan moddiy va ma’naviy boyliklarda ifodalanadi.

Madaniyat tushunchasi muayyan tarixiy davr, konkret jamiyat, elat va millat, inson faoliyati yoki turmushining o‘ziga xos sohalarini izohlash uchun qo‘llaniladi. Tor ma’noda esa madaniyat tushunchasi ma’naviy hayot sohasi uchun qo‘llanadi. “Madaniyat” so‘zi arabcha “Madina” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, dastlab Arablar kishilar hayotini ikki turga ajratib ataganlar. Ulardan biri “badaviy” yoki “sahroyi” turmush, ikkinchisi “madaniy turmush” deb atalgan. Badaviylik – ko‘chmanchi holatda, sahro va dashtlarda ko‘chib yurib istiqomat qilgan insonlarga nisbatan, madaniylik – shaxarda o‘troq xolda yashab, o‘ziga xos yashash tarsi va madaniyatiga ega bo‘lgan xalqlarga nisbatan ishlatilgan[3,53]. Lingvistika esa til haqidagi fan bo‘lib, tilda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar, tilshunoslik sohasining barcha yangiliklarini o‘rganadi. Til millat ko‘zgusi bo‘lib, u orqali millatning madaniyati, urf odatlari, an’analari kabilar o‘rganiladi.

Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o‘ziga xos jihatlarning tilda aks etishini o‘rganish lingvokulturologiyaning asosiy maqsadi. [4,10] Bu sohaning obyekti til va madaniyat bo‘lib, predmeti esa o‘zida madaniy semantikani namoyon etuvchi turli til birliklari. Binobarin, lingvokulturologiyada madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq etiladi.[5,9] Bunday til birliklari lingvomadaniy birliklar deb atalib, ular bu termini ostida jamlanadi. Ramz, allegoriya, metafora, metonimiya, o‘xshatish, mifologema, etalon, paremiologik birliklar, stereotiplar, pretsedent birliklar va nutqiy etiketlar eng asosiy lingvomadaniy birliklar bo‘lib, ular tilning asosiy birliklari va madaniyatni namoyon qiluvchi vositalardir. Olamning lisoniy manzarasini, madaniyatning asosiy konseptlari jamlanmasi bo‘lgan konseptosferani, til egalarining milliy-madaniy mentalligini aks ettiruvchi lisoniy birliklarni va lisoniy ongni tavsiflash hamda insoniyatning dastlabki tasavvurlariga muvofiq keluvchi madaniy

arxeotiplarni, nutqiy muloqotga tegishli milliy ijtimoiy-madaniy stereotiplarni aniqlash lingvokulturologiyaning asosiy vazifalaridan bo‘lib, til va madaniyatni o‘zaro bog‘lab o‘rganuvchi soha bo‘lib shakllandi.

Til – millat ko‘zgusi. Til orqali har qanday millat o‘z boyliklarini, milliy qadiryatlarini, urf-odatlarini, an’analarini namoyon eta oladi. Shu bilan bir qatorda xorijiy tilni o‘rganish jarayonida yosh avlod shu tilning jamiki boyliklarini o‘ragnib tahlil eta oladi. Ma’lumki, til — millatning ruhi, uning tarixiy xotirasi va ma’naviy boyligidir. Milliy til madaniyati esa faqat grammatik qoidalarga rioya qilish bilangina emas, balki so‘zga mas’uliyat bilan yondashish, nutqda odob va hurmatni saqlash orqali namoyon bo‘ladi. Yoshlarning nutqi ularning ichki dunyosi, tarbiyasi va madaniy saviyasini aks ettiradi. Shu bois yoshlar nutqiga befarq qarash — kelajak avlod tarbiyasiga loqaydlik bilan qarash demakdir. So‘nggi yillarda e’lon qilingan qator ilmiy tadqiqotlar ham bu fikrni tasdiqlaydi. Xususan, xorijiy ilmiy nashrlardan birida chop etilgan **“Youth Slang: Influence on Speech Culture”** nomli maqolada yoshlar nutqida sleng va norasmiy so‘zlarning ko‘payishi adabiy til me’yorlariga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani qayd etiladi. Tadqiqot mualliflari yoshlar nutqidagi bunday holatlar vaqt o‘tib umumiy nutq madaniyatiga ham ta’sir qilishi mumkinligini ta’kidlaydi [6,79].

Tarbiya jarayonida nutq madaniyati alohida o‘rin tutadi. Avvalo, bola o‘zining ilk so‘zlarini oilada o‘rganadi. Ota-onaning muomalasi, uyda qo‘llaniladigan so‘zlar, suhbat ohangi farzand nutqining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Agar oilada so‘zga e’tibor, to‘g‘ri va ravon nutq ustuvor bo‘lsa, bu holat bolaning butun hayoti davomida unga hamroh bo‘ladi. Aksincha, beparvolik va qo‘pol muomala yosh ongida salbiy nutqiy odatlarni shakllantiradi. Bu borada mahalliy ilmiy manbalarda ham muhim fikrlar ilgari surilgan. **“Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda milliy qadriyatlarning o‘rni”** nomli maqolada til va nutq madaniyati yoshlar ma’naviy tarbiyasining ajralmas qismi sifatida baholanadi. Muallif tilga hurmat, so‘z mas’uliyati va muomala madaniyati yoshlar ongida milliy qadriyatlarga sadoqatni shakllantirishini ta’kidlaydi.

Maktab va oliy ta’lim muassasalarida esa nutq madaniyatini rivojlantirish yanada muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi va ustozlar nafaqat bilim beruvchi, balki nutqiy namuna bo‘lishi lozim. Dars jarayonida adabiy til me’yorlariga rioya qilish, fikrni aniq va tushunarli ifodalash, badiiy va publitsistik matnlardan samarali foydalanish yoshlarning nutq madaniyatini yuksaltiradi. Ayniqsa, ona tili va adabiyot fanlari bu borada tarbiyaviy tayanch vazifasini bajaradi.

Bugungi kunda yoshlar nutqida ayrim muammolar ham ko‘zga tashlanmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalgan qisqartmalar, begona so‘zlarga ortiqcha berilish, so‘zlashuvda befarqlik va loqaydlik holatlari buni tasdiqlaydi. Bu holatni faqat yoshlarning aybi sifatida baholash to‘g‘ri emas. Axborot muhiti, ommaviy madaniyat, nazoratning sustligi ham bunday muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda.[6,58]

Shu bois yoshlar nutqini rivojlantirish masalasi umumjamiyat mas’uliyatiga aylanishi zarur. Ommaviy axborot vositalari, ta’lim muassasalari, ziyolilar va ijodkorlar milliy til madaniyatini targ‘ib etishda faol bo‘lishi lozim. Kitobxonlikni oshirish, nutq madaniyatiga bag‘ishlangan tadbirlar, munozara va tanlovlar tashkil etish ham samarali natija beradi.

Respublika ijtimoiy hayoti hamda xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida davlat tilida xalqaro mezonlarga mos ravishda ish yuritish, milliy-ma’naviy qadriyatlarni chuqur o‘zlashtirish va fikrni yozma nutqda mantiqiy hamda me’yoriy asosda ifoda etish barkamol va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, milliy til madaniyati va yoshlar nutqi tarbiya jarayonining ajralmas qismidir. Tilga hurmat — o‘zlikka hurmatdir. Yoshlar nutqini asrash va boyitish orqali biz nafaqat bugungi avlodni, balki kelajak jamiyatni ham ma’naviy barkamol etib tarbiyalaymiz. Chunki so‘z madaniyati yuksak bo‘lgan jamiyatgina mustahkam va barqaror rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://turan-edu.uz/media/books/2024/05/28/20eb6217-19ed-4119-8c82-b8b279abf286.pdf
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi – https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan/7998
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. “M harfi”. Toshkent.
4. Sabitova Z.K. Lingvokulturologiya: uchebnik. – M.: Flinta: Nauka, 2013.
5. Rajapova, M. A. (2025). Badiiy matnda qo‘llanuvchi allegorik vositalarning lingvokulturologik xususiyatlari (PhD dissertatsiyasi). Qo‘qon davlat universiteti.

6. Xursanovna, U. K. (2025). NUTQIY NORMALARDAN CHETLASHISH VA YOZISHDAGI INNOVASION ELEMENTLAR. XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR, 1(3), 57-59.

BADIIY ADABIYOTDA SHAXSIY IDENTITET MASALASIGA DOIR

Qodirov Abdulazizbek Luqmonjon o‘g‘li,
Qo‘qon universiteti Andijon filiali
O‘zbek va rus filologiyasi kafedrasi
dotsenti v.b., f.f.b.f.d(PhD)
(O‘zbekiston)

Annotatsiya: Mazkur maqolada badiiy adabiyotda identitet masalasi nazariy va badiiy– estetik jihatdan tahlil qilinadi. Identitet tushunchasining falsafiy, psixologik va adabiy talqinlari yoritilib, uning shaxs ruhiyati hamda badiiy tafakkurdagi o‘rni ochib beriladi. Tadqiqotda zamonaviy adabiyotda milliy, ijtimoiy, madaniy va individual identitetning namoyon bo‘lish shakllari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, badiiy matnda qahramonning o‘zligini anglash jarayoni, identitet inqirozi va ma’naviy izlanishlari poetik vositalar orqali tahlil etiladi. Maqolada identitetning tarixiy xotira, milliy qadriyatlar va global madaniy jarayonlar bilan aloqasi ham yoritilgan. Tadqiqot natijalari badiiy adabiyotda identitet masalasi insonning ichki dunyosini ochishda muhim estetik va konseptual vosita ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, zamonaviy o‘zbek adabiyotida identitet masalasi badiiy tafakkurning yetakchi yo‘nalishlaridan biriga aylangani asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: identitet, badiiy adabiyot, shaxs, milliy identitet, poetika, badiiy tafakkur, qahramon, identitet inqirozi, madaniyat, estetik talqin, ruhiyat, modernizm.

Abstract: This article examines the issue of identity in fiction from theoretical as well as artistic and aesthetic perspectives. Philosophical, psychological, and literary interpretations of the concept of identity are analyzed, and its significance in personal consciousness and artistic thinking is revealed. The study explores the manifestations of national, social, cultural, and individual identity in contemporary literature. Particular attention is paid to the character’s

process of self– awareness, the crisis of identity, and spiritual quests reflected through poetic devices. The article also discusses the relationship between identity, historical memory, national values, and global cultural processes. The findings demonstrate that the issue of identity serves as an important aesthetic and conceptual tool for revealing the inner world of a person in literary works. The article also discusses the relationship between identity, historical memory, national values, and global cultural processes. The findings demonstrate that the issue of identity serves as an important aesthetic and conceptual tool for revealing the inner world of a person in literary works. Furthermore, it is argued that the problem of identity has become one of the leading directions of artistic thinking in modern Uzbek literature.

Keywords: identity, fiction, personality, national identity, poetics, artistic thinking, character, identity crisis, culture, aesthetic interpretation, spirituality, modernism.

Globallashuv davrida identitet masalasi muhim masalalardan biri sifatida ilm– fan vakillari e’tiborini tortib kelmoqda. Insonning dunyoda kim ekanligini va asosiy vazifasini anglashga intilishi, haqiqiy “men”ini izlashi qadim davrlardan buyon davom etib kelayotgan bo‘lsa-da, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning chigallashgani, turli ijtimoiy-falsafiy qarashlarning bashariyatga ta’siri, raqamlashayotgan jamiyat inson ichki dunyosini yanada chuqurroq tadqiq etish masalasini qo‘yadi. Bu esa identitet masalasini turli fanlar kesimida alohida o‘rganish zarurati borligini ko‘rsatadi. Xususan, identitet tushunchasini adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan baholash, uning badiiy adabiyotdagi shakllarini tahlil qilish dolzarb ahamiyatga ega.

XX asrning birinchi yarmidan boshlab sotsiologiya, psixologiya va falsafada identitet nazariyasi bo‘yicha qator ishlar amalga oshirila boshlandi. Jumladan, psixolog E.Eriksonning tadqiqotlari identitet nazariyasi taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etadi. E.Erikson identitet masalasini inson shaxsining psixologik va ijtimoiy taraqqiyoti bilan bog‘liq holda tadqiq etadi. U identitetni insonning o‘z “Men”ini anglashi, o‘zligini his qilishi hamda jamiyatdagi o‘rnini belgilashi bilan bog‘liq murakkab psixosotsial hodisa sifatida talqin qiladi. Erikson nazariyasiga ko‘ra, identitet inson hayoti davomida bosqichma-bosqich shakllanadi va bu jarayon biologik, psixologik hamda ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’siri asosida rivojlanadi. Olimning fikricha, shaxs o‘z hayotining har bir bosqichida muayyan

psixologik inqirozlarni boshdan kechiradi va aynan shu jarayon identitetning shakllanishiga xizmat qiladi [1:21].

Shaxsiy identitet muammosini o‘rganish, eng avvalo, shaxs va identitet tushunchalarning mazmunani aniqlashtirishni talab qiladi. Germenitiv doira qonunlariga ko‘ra, shaxsiy identitat fenomenini tahlil qilishdan avval uning aniq ta’rifini berish zarur bo‘lsa-da, mazkur hodisaning mohiyatini faqatgina uning funksional va strukturaviy jihatlarni o‘rganish asosida tushunish mumkin. Shu sababli shaxsiy identitetni tadqiq etishda dastlabki “oldindan tushunish” konsepsiyasi muhim metodologik asos vazifasini bajaradi.

G‘arb falsafasida shaxsni maxsus tadqiqot obyekt sifatida ko‘rib chiqqan Boxius shaxsni “aqlli mavjudotning individual shakli” sifatida talqin etadi. Identitet esa umumiy ma’noda narsaning o‘z-o‘ziga aynanligi ya’ni uning faqat o‘zi bo‘lib qolishi ma’nosini anglatadi [3:65]. Shu nuqtayi nazardan, shaxsiy identitet shaxsning o‘ziga xosligi, boshqa barcha mavjudlik shakllaridan farqlanganligini ta’minlovchi mazmuniy asos sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, shaxsiy identitet shaxsning individualligini belgilovchi va uni boshqa voqeliklardan farqlab turuvchi mazmuniy aniqlikdir.

Mazkur yondashuv asosda shaxsiy identitetning asosiy vazifasi shaxsni tashkil voqelikdan farqli va mustaqil mavjudlik sifatida qaror toptirishdan iboratdir. Shu bois identitet vazifalarni ikki asosiy guruhga ajratish mumkin: birinchi guruh vazifalar shaxsning tashqi dunyodan mazmuniy jihatdan ajralib turishini ta’minlaydi. Ikkinchi guruh esa ushbu farqlilikning voqelikda namoyon bo‘lishi va amalga oshishiga xizmat qiladi.

Birinchi holatda shaxs o‘zini butun borliqqa qarama-qarshi qo‘yadi. Ikkinchi holatda esa tashqi dunyoning muayyan mazmun qatlamlarini o‘zlashtirish vositasida boshqa qatlamlarga qarshi qo‘yadi. Natijada shaxsning barcha tarixiy-ijtimoiy va madaniy identifikatsiya shakllari identitetning aniq tarixiy ko‘rinishlari sifatida yuzaga keladi.

Shaxsiy identitetning ikkinchi guruh vazifalari esa shaxsning o‘z individualligini qaror toptirish jarayonidagi faol va passiv holati bilan bog‘liqdir. Agar shaxs o‘z identitetini erkin ravishda shakllantirsa, u subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Aksincha, uning identiteti tashqi muhit, jamiyat yoki boshqa insonlar ta‘sirida shakllansa, shaxs obyekt maqomida qoladi. Shu ma’noda shaxsiy identitet insonning o‘zligini anglash va uni voqelikda tasdiqlash jarayoni bilan uzviy bog‘liqdir.

Shaxs va dunyo o‘rtasidagi qarama-qarshilik masalasini tadqiq etar ekan, V.N.Gasilin insonning o‘zini “Men” va “men emas” shaklida ajratishi ayni paytda uning o‘zini identifikatsiya qilishi ekanligini ta’kidlaydi [4:89]. Insonning mazmuniy individualligi nimaga asoslanishi mumkinligi masalasi esa falsafiy tafakkur tarixida eng murakkab savollardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ong universallikka ega bo‘lgani sababli u shaxsning mutlaq individualligini ifodalab bera olmaydi. Georg Gegel ta’kidlaganidek, hissiy ishonch orqali idrok etilgan har qanday “yakka” mohiyat tushunchada umumiylik shakliga aylanadi. F.Nitsshe esa ongni individual emas, balki insondagi “jamoaviy va turga oid” qatlam sifatida baholaydi. Shu bois inson o‘zini anglashga qanchalik urinmasin, u ko‘proq o‘zidagi umumiylikni idrok etadi.

Bundan tashqari, inson irodasi ham personal identitetning mutlaq asosi bo‘la olmaydi. Chunki shaxsning istak va maqsadlari ko‘pincha jamiyat tomonidan shakllantiriladi. Reklama, targ‘ibot va ijtimoiy me’yorlar insonning xatti-harakatlarini boshqaradi, natijada shaxs o‘z qarorlarining qanchalik mustaqil ekanligiga shubha bilan qaray boshlaydi. Peter Sloterdijk fikricha, insonning ichki tuzilmasida go‘yoki “Boshqa”ning mavjudligi singdirilgan bo‘lib, u ijtimoiylashuv jarayonida shaxsni jamiyatning mahsuliga aylantiradi. Shuning uchun insonning “Men”i ko‘pincha tashqi kuchlar tomonidan dasturlashtirilgan hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

XX asr psixoanalitik tafakkurida insonning haqiqiy mohiyati sifatida talqin etilgan ongosti ham personal identitetning barqaror asosi bo‘la olmaydi. Jean Baudrillard ongostining zamonaviy madaniyatda insonning ichki “ramziy ombori”ga aylantirilganini qayd etsa, Jacques Lacan ongosti tuzilmasi til kabi tashkillashtirilganligini va inson uni jamiyatdan meros qilib olishini ta’kidlaydi [8:27]. Demak, insonning eng yashirin qatlamlari ham mutlaq individual emas, balki ijtimoiy va madaniy diskurslarning mahsulidir.

Shaxsning o‘z tarixiga asoslangan identiteti ham mutlaq ishonchli asos bo‘la olmaydi. Chunki o‘tmish inson xotirasida saqlanadigan izlar orqali mavjud bo‘ladi, xotira esa manipulyatsiya va sun’iy konstruksiyalarga moyildir. Shu sababli insonning o‘z tarixiga tayangan holda o‘zini identifikatsiya qilishi ham nisbiy xarakter kasb etadi. Natijada personal identitet insonning mutlaq va o‘zgarmas mohiyati emas, balki ijtimoiy, madaniy va tarixiy omillar ta’sirida shakllanuvchi murakkab fenomen sifatida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy adabiy jarayonda identitet muammosi milliy, ijtimoiy-madaniy va individual qatlamlar kesimida

talqin qilinib, qahramon ruhiyati va ichki ziddiyatlarni yoritib berishda yetakchi badiiy vositalardan biriga aylangan. Tadqiqot davomida identitet tushunchasi psixologik, falsafiy va adabiy-nazariy jihatdan murakkab hamda ko‘p qatlamli fenomen ekanligi aniqlandi. Shuningdek, badiiy matnda identiteting inqirozi tarixiy xotira, milliy qadriyatlar hamda globallashuv jarayonlari orasidagi munosabatlar vositasida inson ruhiy olamning chuqur badiiy tasvirini yaratishga xizmat qilishi kuzatildi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy adabiyotda identitet masalasi insonning o‘zligini anglash, ma’naviy-ruhiy kechinmalari hamda jamiyat bilan o‘zaro munosabatlarini yoritishda muhim badiiy hamda estetik kategoriyasi sifatida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy adabiy jarayonda identitet muammosi milliy, ijtimoiy-madaniy va individual qatlamlar kesimida talqin qilinib, qahramon ruhiyati va ichki ziddiyatlarni yoritib berishda yetakchi badiiy vositalardan biriga aylangan. Tadqiqot davomida identitet tushunchasi psixologik, falsafiy va adabiy-nazariy jihatdan murakkab hamda ko‘p qatlamli fenomen ekanligi aniqlandi. Shuningdek, badiiy matnda identiteting inqirozi tarixiy xotira, milliy qadriyatlar hamda globallashuv jarayonlari orasidagi munosabatlar vositasida inson ruhiy olamning chuqur badiiy tasvirini yaratishga xizmat qilishi kuzatildi. Natijada identitet masalasi zamonaviy badiiy tafakkurning muhim konseptual yo‘nalishlarini biri sifatida inson va jamiyat munosabatlarini anglashda keng estetik imkoniyatlarga ega ekanligi asoslandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Erik Erikson Erikson E. H. Identity: Youth and Crisis. – New York: W. W. Norton & Company, 1968. – 336 p.
2. Stuart Hall Hall S. Cultural Identity and Diaspora // Identity: Community, Culture, Difference. – London: Lawrence & Wishart, 1990. – P. 222-237.
3. Zygmunt Bauman Bauman Z. Identity: Conversations with Benedetto Vecchi. – Cambridge: Polity Press, 2004. – 120 p.
4. Anthony Giddens Giddens A. Modernity and Self– Identity: Self and Society in the Late Modern Age. – Stanford: Stanford University Press, 1991. – 256 p.
5. Paul Ricoeur Ricoeur P. Oneself as Another. – Chicago: University of Chicago Press, 1992. – 384 p.

6. Jacques Lacan Lacan J. Écrits: A Selection. – London: Routledge, 1977. –418 p.
7. Jean Baudrillard Baudrillard J. Simulacra and Simulation. – Ann Arbor: University of Michigan Press, 1994. – 164 p.
8. Friedrich Nietzsche Nietzsche F. Beyond Good and Evil. – New York: Vintage Books, 1989. – 240 p.
9. Georg Wilhelm Friedrich Hegel Hegel G. W. F. Phenomenology of Spirit. – Oxford: Oxford University Press, 1977. – 640 p.
10. Sigmund Freud Freud S. The Ego and the Id. – New York: W. W. Norton & Company, 1962. – 80 p.
11. Benedict Anderson Anderson B. Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism. – London: Verso, 2006. – J 240 p.
12. Edward Said Said E. Culture and Imperialism. – New York: Vintage Books, 1994. – 416 p.
13. Mikhail Bakhtin Bakhtin M. The Dialogic Imagination. –Austin: University of Texas Press, 1981. – 444 p.
14. Michel Foucault Foucault M. The Archaeology of Knowledge. – New York: Pantheon Books, 1972. – 245 p.
15. Carl Gustav Jung Jung C. G. The Archetypes and the Collective Unconscious. – Princeton: Princeton University Press, 1981. – 470 p.

ABDURAUF FITRAT ASARLARIDA KELTIRILGAN BA'ZI METAFORALARNING LINGVOPRAGMATIK TAHLILI

Usmonova Shaxnozaxon Erkinjonovna,
Namangan davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim innovatsiyalari kafedrasi
ona tili fani o'qituvchisi,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: zafarbekismatov@gmail.com
Tel: +99899 728 05 58
(O'zbekiston)

Annotatsiya. Bugungi kun tilshunosligida pragmatika va emotsional-ekspressivlik tushunchasi hali ham markaziy tushunchalardan biri hisoblanmoqda.

Ko‘plab shoir va yozuvchilarimizning asarlari misolida bu tushunchani bir necha tilshunoslik yo‘nalishlarida tadqiq qilingani fikrimiz dalilidir. Faqat metaforaning Fitrat asarlarida qo‘llanilishi va ularning lingvopragmatik tahlilini hali to‘liq o‘rganilmagan. Shu bois mazkur maqolada Abdurauf Fitrat asarlarida keltirilgan ba’zi metaforalarning lingvopragmatik xususiyatlarini tahlil qilinadi. Shu bilan birga Fitratning badiiy topilmalarini ham o‘rganilib, shoir aslida nima demoqchiligini yoritiladi.

Kalit so‘zlar: metafora, ko‘chim, badiiy matn, konsept, zoomorfizmlar, diniy-afsonaviy tushunchalar, jonsiz predmet nomlari.

Annotation. In today’s linguistics, the concepts of pragmatics and emotional expressiveness remain among the central notions. The fact that these concepts have been studied in various branches of linguistics based on the works of many poets and writers supports this idea. However, the use of metaphor in the works of Abdurauf Fitrat and their linguopragmatic analysis have not yet been fully explored. Therefore, this article analyzes the linguopragmatic features of metaphors as linguistic means expressing emotional expressiveness in the works of Abdurauf Fitrat. At the same time, Fitrat’s artistic discoveries are examined, and the ideas the poet sought to convey are revealed.

Keywords: metaphor, figurative meaning, literary text, concept, zoomorphisms, religious and mythological notions, names of inanimate objects.

Metafora ko‘chimning asosiy turlaridan biri hamda til vositalarining obrazli, ta’sirchan bo‘lishiga yordam beradigan, so‘z yoki iboralarning o‘z ma’nosidan tashqari, boshqa ma’noda qo‘llanishi natijasida hosil bo‘ladigan badiiy tasvir vositasidir. Uning metaforadan tashqari yana metonimiya (bir tushuncha yoki narsa boshqa bir tushuncha yoki narsa nomi bilan atalishi), sinekdoxa (butunning o‘rniga qismni yoki aksincha, qismning o‘rniga butunni qo‘llash) [1;582] kabi turlari ham bor. Metafora badiiy matnda eng keng tarqalgan turi sanalib, uni boyitadi, ta’sirchan va obrazli qiladi.

Bugungi kunda yoshlarimizda milliy ongni shakllantirishni ularning tili va adabiyotiga bo‘lgan qiziqishini orttirishdan boshlamoq lozim. Zero, yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek: “Kelajagimiz egasi bo‘lgan yosh avlodimiz zamonaviy bilimlar, innovatsiya va taraqqiyot cho‘qqilarini egallashi uchun albatta chet tillarini o‘rganishi lozim. Lekin ular milliy ruh, milliy tafakkur egasi, vatanparvar insonlar bo‘lib voyaga yetishlari uchun, avvalo, o‘zbek tili va adabiyotini bolalikdan boshlab

puxta bilishlari shart”. [1] Zamonaviy tilshunosligimizda XX asrda metafora hodisasi ham tilshunoslarning diqqatini tobora ko‘proq torta boshladi, metaforaga yangicha yondashuvlar yuzaga kela boshladi. J.Jeyns, M.Osborn, V.fon Gumboldt, E.Kassirer, N.F.Aliferenko, J.Lakoff, M.Jonson kabi olimlarning o‘z tadqiqotlarida metaforaga antropologik nuqtayi nazardan yondashgan fikrlari bu davrga kelib asosiy o‘rinni egallay boshladi. [2;35]

O‘zbek tilshunosligida ham metaforalarni o‘rgangan va unga munosib ta’rif bergan bir qator olimlar bor. Jumladan, **U.S.Qobulova metaforani adabiy istiloh deb baholaydi hamda uning o‘xshatishdan o‘xshatish vositalarining tushib qolishi bilan farqlanishini ta’kidlaydi.[3] Tilshunos olim M.Yo‘ldoshev metaforani “qisqartirilgan o‘xshatish” deb izohlaydi.**[4;68] **Sh.Mamaraimova esa metaforaga olamning milliy tasvirida axloqiy-baholovchi psixik-mental birlik sifatida qaraydi. Uning talqinicha, metaforaning muhim uslubiy xususiyatlaridan biri shuki, u ijodkorning dunyoqarashidan paydo bo‘ladi va subyektiv xarakter kasb etadi. [5;46]**

Ko‘chimlardan Fitrat asarlarida metaforik qo‘llanish natijasida emotsional-ekspressiv ma’no hosil qiluvchi juda ko‘p so‘zlar mavjudligini kuzatdik. Ularning turli tushunchalarni anglatishiga ham e’tiborimizni qaratdik va bu tushunchalarni quyidagicha guruhlarga ajratdik: zoomorfizmlar, diniy-afsonaviy tushunchalar, jonsiz predmet nomlari. Ular ham o‘z ichida yana guruhlash mumkin. Dastlab, ijobiy ma’nolarda keluvchi metaforik zoomorfizmlarga quyidagilarni kiritdik:

1. Yirtqich, yovvoyi hayvonlarni anglatuvchi so‘zlar (arslon, yo‘lbars):

Ey Ulug‘ Turon, arslonlar o‘lkasi!

Qayg‘urma! Eski davlating, eski saltanating, eski yigitlaring, eski arslon-laring hammasi bor, hech biri yo‘qolmamishdir… [6;9]

Dunyoni “urho”lari bilan titratkan yo‘lbars yurakli bolalaring qani? (“Yurt qayg‘usi”) [7;357]

Ushbu parcha Fitratning milliy uyg‘onish va g‘urur g‘oyasini o‘zida aks ettiradi. U turk xalqlariga murojaat qilib, ularning shonli o‘tmishini eslatadi va ruhiyatlarini ko‘tarishga harakat qiladi. She’rning asosiy g‘oyasi – yo‘qotilgan emas, balki vaqtincha unutilgan buyuklikni yana tiklash mumkinligi haqidagi ishonch.

2. Uy hayvonlarini anglatuvchi so‘zlar:

Turkning yurti, ulog‘i, o‘chog‘i, Turoni yot qo‘llarg‘a tushdi.

Turkning bilgisi, ongi, o‘ylovi, ziyrakligi jaholat o‘ljasig‘a ketdi. [7;360]

Bu parchada Fitrat turk xalqlarining tarixiy fojealarini va ularning madaniyati, yurtlari, tafakkurlarining yo‘qolish xavfini ifodalagan.

3. Qushlar va uy parrandalarini anglatuvchi so‘zlar (chumchuq, bulbul, ko‘garchin (kaptar), qush): Qush boqish-la qarangiz… (“Sharq”)

Salbiy ma’no anglatuvchi metaforik zoomorfizmlar guruhlari quyidagicha:

1. Yirtqich, yovvoyi hayvonlarni anglatuvchi so‘zlar (qoplon, tulki):

Qardosh etin to‘ymay yegan qoplonlar? (“Mirrix yulduziga”)

Tulki, ilon, shayton, aldovchi mal’un Anglizlar! (“Qor”)

2. Uy hayvonlarini anglatuvchi so‘zlar (maymun (darsliklarda uy hayvoni sirasiga qo‘shilganligi bois biz ham ma’qulladik):

Sho‘r suvlardan chiqib kelgan bu maymun (inglizlar nazarda tutilgan), (“Qor”)

3. Qushlar va uy parrandalarini anglatuvchi so‘zlar (boyqush):

Cho‘kmishdi yer uzra olam to‘sug‘i,

O‘ksuzlik boyqushi qanot qoqardi. (“Behbudiyning sag‘anasin izladim”)

4. Gazandalarni anglatuvchi so‘zlar (ilon):

Oyog‘imga zanjirlar emas, jahannam ilonlari sorilsa,

yana sen sari ketarman. (“Yurt qayg‘usi”)

5. Hasharotlar, qurt-qumursqalarni anglatuvchi so‘zlar (zuluk) :

O‘rtoq qonin qonmay ichkan zuluklar, (“Mirrix yulduziga”)

Bundan tashqari Fitrat asarlarida ijobiy va salbiy emotsional-ekspressiv bo‘yoq kasb etgan diniy-afsonaviy tushunchalarni anglatuvchi so‘zlar ham metaforik asosida qo‘llanganini kuzatdik. Masalan, uchmoh (yam-yashil uchmohlar), malak (Erka malak) kabi ijobiy, olbosti (inglizlarga nisbatan qo‘llangan g‘arbli olbosti (Fitratning shaxsiy topilmasi!) metaforasi), shayton (shaytonlar qo‘shini), mal’un, dev (dev ishtiholiq hayvonlar), tamug‘ (Tamug‘ olovlari), tangri (taxtga nisbatan “insonning dushman tangrisi” deb ishlatilishi) kabi salbiy bo‘yoqdor so‘zlar.

Jonsiz predmet “qo‘g‘irchoq” (kichik xonga nisbatan Rahimbiy qo‘llagan o‘xshatish), “qop-qora haykal” (uy, saroy, qo‘noqlarning tundagi ko‘rinishiga o‘xshatma); o‘simlik (qizil gulim, tikon, jon chechagim, nozli yaprog‘im, armonim guli, teraklar, xirmon, gulistonim, rayhonim); ayrim samoviy jismlar (yulduz, yop-yorug‘ oy, nozli quyosh, titrak (qora, eski) bulutlar, qora yer, ko‘k ko‘kragi); uy-ro‘zg‘or buyumlari (beshik, o‘choq); ichimlik (chog‘ir, og‘u) va boshqa turli predmet (qalqon, zanjir, xanjar, qopqon, qopchig‘, qora qalin pardalar) nomlarini ifodalovchi so‘zlar ham Fitrat asarlarida metafora asosida ijobiy yoki salbiy

emotsional ma’no anglatadi. Quyida bizning e’tiborimizni tortgan “terak” so‘zi asosida hosil qilingan ikki xil metaforani izohlaymiz:

Yana butun borlig‘imning negizlari yemirildi,

Umidimning ko‘p chidamli teraklari yiqildi, (“Yana yondim”)

Ushbu misralar shoirning ichki dunyosidagi og‘riq va iztirobni ifodalaydi. Bu yerda “butun borlig‘imning negizlari yemirildi” degan ibora shaxsiy yo‘qotishlar, hayotning asosiy tayanchlari qulaganini anglatadi. Shoir o‘zining hayotga bo‘lgan ishonchi, mustahkam qarashlari yoki qadriyatlarining yemirilganini bildiradi. “Umidimning ko‘p chidamli teraklari yiqildi” misrasi esa inson qalbidagi umidlarni, bardoshli, kuchli irodani tasvirlaydi. Terak – chidamli, shamollarga bardoshli daraxt bo‘lib, umidning qudratini ifodalaydi. Lekin bu yerda “yiqildi” deyilganligi sababli, shoirning oldinga intilishlari va kelajakka bo‘lgan umidlari sinib, barbod bo‘lganini ko‘rsatadi.

Rahimbiy: … Davlatimizning buyuk, buyuk teraklarini o‘z qo‘lingiz bilan yiqita berdingiz, butun ishni menga emas, bir ahmoq mug‘ambil bo‘lg‘an Ulfatg‘a topshurdingiz. Taxtdan tushkaningizning sababi shuldir. [8;28] Rahimbiy tomonidan aytilgan ushbu so‘zlar Fitratning “Abulfayzxon” dramasida asosiy ziddiyatni ochib beradigan muhim parcha; Rahimbiyning Abulfayzxonga qaratilgan qattiq tanqididir. U shohning noto‘g‘ri qarorlarini fosh qilib, uning taxtdan tushishiga sabab bo‘lgan xatolarini ko‘rsatadi. Rahimbiyning fikricha, Abulfayzxonning noto‘g‘ri odamlarga ishonishi, vatanparvarlarni yo‘q qilishi, davlat ishlarini munosib shaxslarga emas, layoqatsiz shaxslarga topshirishi uning qulashiga olib kelgan. Bu parcha muallifning hokimiyat va yetakchilik mas’uliyati haqida ogohlantiruvchi keskin tanqididir. Rahimbiy shohning davlatga zarar keltirgan noto‘g‘ri qarorlarini fosh qiladi. Fitrat ushbu dialog orqali yomon boshqaruv oqibatlarini, adolatsizlik va noto‘g‘ri kadrlar siyosatining davlat qulashiga olib kelishini ko‘rsatadi. Shuningdek, bu asar tarixiy voqealar asosida yozilgan bo‘lsa-da, undagi fikrlar har qanday davr uchun dolzarbdir: mamlakatni oqil insonlar emas, layoqatsiz va hiylakor odamlar boshqarsa, u zaiflashib, yemiriladi.

Bu ikki tahlililimiz asosida Fitrat bir predmetdan ikki xil ma’noli metaforalarni yarata olganini ko‘rdik. Bu esa Fitratning o‘ziga xos individual-mualliflik uslubini aks ettiradi.

Tilshunoslikda ham, adabiyotshunoslikda ham metaforalarni qo‘llashdan maqsad so‘zning turli ma’nolaridagi nozikliklarni kashf etishdan iboratdir.

Metaforalar, asosan, kontekstda yaqqol namoyan bo‘ladi. Metafora asosidagi ma’no ko‘chishi belgi, narsa yoki harakatga oid biror leksemaning o‘zaro o‘xshashligi bo‘lgan boshqa predmetga nisbatan qo‘llashdan hosil qilinadi. Metaforaga har doim funksional jihatdan qarash muhim ahamiyat kasb etadi. Bir tomondan, nutq egasining his-tuyg‘ularini ifodalashga xizmat qilsa, boshqa tomondan, adresatning ularni qabul qilishga qay darajada yordam berayotganini diqqat markaziga qo‘yishga harakat qiladi.

Matnga lingvopoetik yondashuvda lisoniy va xususiy – muallif metaforalarni farqlash kerak. Lisoniy metaforalar til taraqqiyoti bilan bog‘liq hodisa hisoblanadi. Bunday metaforalarda uslubiy bo‘yoq, ekspressivlik, subyektiv munosabat aks etmaydi. Faqatgina ma’lum so‘zni atash ma’nosi kengayadi. Masalan, odamning ko‘zi – derazaning ko‘zi, uzukning ko‘zi kabi. Bunday metaforalar lingvopoetik nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega emas.

Xususiy – muallif metaforalari kutilmagan, yangi, okkazional bo‘ladi. Ularni ijodkorning o‘zi borliqni subyektiv munosabatini ham qo‘shib obrazli ifodalash asosiga quradi. Xususiy muallif metaforalarida hamisha konnotativ ma’no aniq bo‘ladi. Ba’zan shunday metaforalar ham borki, ularda hayvonlardagi munosabat orqali turli konnotativlik yuzaga kelgan. Masalan, Fitrat she’rlarida tulki, ilon – ayyor va maymun – masxaraboz ma’nosida kelgan. She’rlarida hayvon va qushlarning ma’lum tipik xususiyatlari boshqa predmetlarga nisbatan metaforik usulda ko‘chirilgan, natijada konnotativ ma’no yuzaga kelgan hamda matnning ta’sirchanligi oshirilgan. Ammo ular an’anaviy metaforalar hisoblanadi. Masalan:


Uchmoq kabi bog‘chalarda bulbuldek Sayrab yurdi. (“Nega bo‘yla?”)

Yangi, kutilmagan metaforalar asarning ta’sirchanligini oshirib, unga yuqori darajada poetik ruh bag‘ishlaydi. Ijodkorning o‘zi tomonidan yaratilgan metaforalar uning qanchalik emotsionallikka berilishidan konkretlashadi. Metaforaning yana bir xususiyati unda ochiq o‘xshatishdan ko‘ra yashirin o‘xshatishning ekspressivlik funksiyasi kuchliroq bo‘ladi. Metafora nafaqat nutqni bezaydi, balki u tafakkur bilan bog‘liq hodisa hisoblanadi. Ijodkorlarning poetik tafakkuri metaforalarning qo‘llanilish o‘rinlarida aniqlashadi. Masalan:

Bormi senda bizim kabi insonlar,
Ikki yuzli ishbuzarlar, shaytonlar.
O‘rtoq qonin qonmay ichkan zuluklar,
Qardosh etin to‘ymay yegan qoplonlar?
Bormi senda, o‘ksuz yo‘qsulning qonin –

Gurunglashib, chog‘ir kabi ichkanlar?
Bormi senda butun dunyo tuzugin
O‘z qopchig‘in to‘ldirg‘ali buzg‘anlar.
Bormi senda bir o‘lkani yondirib,
O‘z qozonin qaynatg‘uchi xoqonlar.
Bormi senda qorin-qursoq yo‘lida
Elin, yurtin, borin-yo‘g‘in sotqonlar? (“Mirrix yulduziga”)

Bu she’r Mirrix yulduziga murojaat tarzida yozilgan bo‘lib, unda shoir jamiyatdagi illatlar: ikkiyuzlamachilik, zulm, adolatsizlik va mansabparastlikni fosh etadi. Shoir insoniyat orasidagi xiyonatkor, manfaatparast, o‘z qornini o‘ylab, boshqalarni ezadigan kishilar haqida so‘z yuritadi. She’r ritorik so‘roq uslubida yozilgan bo‘lib, shoir Mirrix yulduzidan insoniyat orasida uchraydigan yovuzliklar bor-yo‘qligini so‘rab, bu illatlarga nafratini bildiradi. Bu uslub she’rga jonlilik va ohangdorlik baxsh etadi. She’rning asosiy g‘oyasi – insoniyat orasida uchraydigan yovuzlik va adolatsizlikni fosh qilish. Shoir shafqatsizlik, xoinlik va vatanparvarlik yetishmovchiligini keskin qoralaydi va jamiyatni bunday illatlardan poklashga chaqiradi. She’rda so‘roq san’ati asosiy o‘rin tutadi va boshqa san’atlar bilan (tajnis “qon” (o‘ksuz yo‘qsulning qoni); tashbeh “chog‘ir kabi ichkanlar”; istiora va tanosub “shayton, zuluk, qoplon”) birgalikda she’rga badiiy kuch bag‘ishlaydi:



1.1-rasm. “Mirrix yulduziga” she’rida keltirilgan metaforalar

Yuqoridagi tahlillar orqali shoir she’rda metaforalardan keng foydalanib, jamiyatdagi adolatsizlik, manfaatparastlik va xoinlikni fosh qilishga urunganini anglaymiz. Bu metaforalar she’rning badiiy kuchini yanada oshirgan va shuning uchun ham o‘quvchiga yanada ta’sirliroq yetib borishiga yordam beradi.

Shuningdek, mazkur oltita metafora mantiqiy fikrlash asosida ko‘chirilganligiga ham shubha yo‘q. Chunki ularni faqatgina ma’noviy tomondan ko‘chma ma’noga ko‘chirish – mantiqiy fikrlash bo‘yicha bir-biriga biriktirsa bo‘ladi. Bunday birikmalarni inson eshitganda ong orqali uning mazmunini anglay boshlaydi va bu birliklarga nisbatan inson ongida psixologik o‘zgarish kuzatiladi, ya’ni tinglangan birlikka nisbatan ijobiy yoki salbiy fikr – baho semasi ongda o‘z aksini topadi. Demak, badiiy matnlarda metafora o‘xshashlik asosida yuzaga kelsa-da, unda mantiqiy fikrlash birinchi o‘rinda turadi. Aslida mantiqiy fikrlash metaforaning eng muhim belgisi sanaladi.

Har bir vujudga kelgan metaforaning zamirida o‘sha xalqning milliy mentaliteti, ijtimoiy kelib chiqishi, o‘y-fikrlari yotadi. O‘sha xalqning tafakkur mahsuli sifatida yaratilgan metaforalar jamiyatning qanday rivojlanishi bilan ham bog‘lanadi. O‘zbeklarning milliy mentalitetidan kelib chiqib, metaforalarning vujudga kelishi ham milliylashib ketgan. Lekin individual-mualliflik metaforalari milliy qoliplarga mos tushmaydi, ular shoirga xos ijodiy fikrlashni, poetik tafakkurni aks ettiradi. Misol uchun ushbu parchani keltiramiz: Xayol: Sen fazilatliq bilimlarning qo‘l, qanotlarini uzub tashlading. Inju tizg‘uchi adiblarning qalamlarini o‘choq supurgisiga aylantirding. Ota pichog‘i bilan bolalarini bo‘g‘izlading. Bola hanjari bilan otalarni yiqitding. Do‘stlarni bo‘g‘ushturding, o‘rtoqlarni urushturding. Dalaning erkini, shaharning tinchini, erlarning g‘ayratini, xotunlarning ismatini talatding. Otamdan qochib, o‘ziga sig‘ing‘anim holda uyolmayin, boshimni kesdirgan Afrosiyobingdan mana shu kimsasiz bolani og‘ulab yiqitqon Rahimxoningg‘acha minglarcha yirtqich xoinlarni sen yaratding, sen yashatding. (“Abulfayzxon”)

Fitratning “Abulfayzxon” dramasidan olingan ushbu parcha “taxt”, ya’ni hokimiyat va saltanatga qarata aytilgan ayblovdir. Muallif hukmronlik uchun olib borilgan kurashlar va zulm natijasida jamiyatda ilm, adolat, do‘stlik va oilaviy qadriyatlar yo‘q bo‘layotganini ko‘rsatadi. Bu yerda milliyligimizga xos bo‘lgan “o‘choq, supurgi, ota, bola, pichoq, hanjar, dala, er, xotun” kabi leksikalar yordamida metaforalar hosil qilingan. Bundan ko‘rinadiki, berilgan parchada ko‘plab original metaforalar ishlatilgan. Quyidagi jadvalda berilgan parchalarda ko‘chimlar juda kuchli va ta’sirchan bo‘lib, Fitrat bu asar orqali hokimiyat uchun kurashning fojiali oqibatlarini fosh qiladi. Bu dramatik ifodalar orqali muallif xalqni uyg‘onishga, zulm va johillikka qarshi kurashishga chaqiradi. Quyida biz uni jadval ko‘rinishida tahlil qildik:

1.1-jadval.

“Abulfayzxon” dramasida “taxt” ga qarata aytilgan o‘xshatishli ayblovlar

Metafora qatnashgan jumlalar:	**Metaforalarning ma’nolari:**	**Matnnning asl mazmuni:**
1. “Sen (taxt) fazilatliq bilim-larning **qo‘l, qanot**larini uzub tashlading”.	ilm-fanning rivojlanishiga yordam beradigan asosiy kuch	Bu yerda taxt hukumat yoki hokimiyatni anglatmoqda
2. “**Inju tizg‘uchi** adiblarning qalamlarini **o‘choq supurgisi**ga aylantirding”.	1) juda nozik va qadrli asarlar yaratadigan; 2) adabiyotni ahamiyatsiz narsaga aylantirilganini bildirilyapti	Adabiyot vakillariga bee’tibor bo‘lingani ta’kidlanyapti
3. “**Ota pichog‘i** bilan **bolalarini bo‘g‘izlading**”.	1) avlodlar yoki davlatga tegishli kuch va vositalarni bildiradi; 2) o‘z xalqini yoki kelajak avlodni yo‘q qilish tushuniladi	davlat yoki hukumat o‘z kelajagini o‘z qo‘li bilan halokatga eltayotganini anglatadi
4. “**Bola hanjari** bilan **otalarni yiqitding**”.	1) yosh va tajribasiz odamlarning kuchi yoki g‘azabi; 2) keksa, dono va tajribali avlodni yo‘q qilish	yosh yoki tajribasiz kishilarning o‘z davrining donishmandlarini yo‘q qilishi yoki mansabidan tushirishi deb tushunamiz
5.“Do‘stlarni **bo‘g‘ushturding**, o‘rtoqlarni **urushturding**”.	1) “bo‘g‘ushtirish”; 2) “urushtirish”	fitnalar va nizolarni avj oldirish orqali jamiyatni parokanda qilish
6. “**Dalaning erki**ni, **shaharning tinchi**ni, **erlarning g‘ayrati**ni, **xotunlarning ismati**ni talatding”.	1) qishloqning mustaqilligi; 2) metonimiya; 3) erkaklarning kuch-quvvati va mehnati; 4) ayollarning pokligi va	“Bularning barchasini talatding” – ya’ni bu qadriyatlarni yo‘q qilish yoki hurmatsizlantirishni

	sharafi	nazarda tutilgan.
7. “Mana shu kimsasiz bolani **og‘ulab yiqitqon** Rahimxo-ninggacha minglarcha yirtqich xoinlarni sen yaratding, sen yashatding”.	1) zaharlab, o‘ldirish, lekin adib bu yerda yashirin ma’noda, ya’ni taxt vorislari ongining zaharlanishini nazarda tutgan; 2) adib insonlarni yirtqich hayvonlarga o‘xshatish orqali ularning vahshiyligini ta’kidlayapti.	davlat yoki jamiyatga xiyonat qilgan shaxslar, deb sharhlasak bo‘ladi.

Yuqoridagi kabi misollarni Fitrat asarlari asosida ko‘rib chiqish orqali ko‘chimlar, xususan, metaforaning badiiy matnlarda emotsional-ekspressivlikni kuchaytirishdagi eng muhim vosita ekanligini va uning pragmatik ma’nosi ham borligini dalilladik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://president.uz/uz/lists/view/8581 – 21.10.2025
2. Худойберганова Д. Матннинг мазмуний таркибида метафоралар // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. – № 1. – Б. 35.
3.Қобулова У.С. Метафорик матнда интеграл ва дифференциал семалар муносабати (ўзбек халқ топишмоқлари мисолида): Фил. фан. номз. …дисс. автореф. – Тошкент, 2007.
4. Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 68.
5. Қўнғуров Р. ва б. Ўзбек тилининг функционал стиллари. – Самарқанд, СамДУ асарлари, 1984. – Б. 46.
6. Nurmuhammadov J., Qambarova S., Olimjanov O., Yuldasheva M., Inomjonova S. Adabiyot (Ijod maktablarining 8-sinflari uchun darslik), II qism. – Toshkent: Adast poligraf, 2022. – B. 8-20.
7. Usmonova Sh. E. Abdurauf Fitrat she’rlarida emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi lisoniy vositalarning lingvopragmatik tahlili // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – Samarqand, 2024. – B. 355-363.

8. To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot (11-sinf darsligi). II qism. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – B. 4-31.

EKSPRESSIV NUTQIY AKTLARNING PRAGMATIK VA LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Uminiso Orunbayeva,
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktaranti
uminisoxon@gmail.com
ORCID: 0009-0009-3928-2475
(O‘zbekiston)

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekspressiv nutqiy aktlarning pragmatik mohiyati, ularning kommunikativ jarayondagi o‘rni hamda lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ekspressiv nutqiy aktlarning samimiylik, emotsionallik va adresatga yo‘naltirilganlik kabi asosiy belgilariga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, J.Ostin, J.Syorl, N.R.Norrik, A.Vejbitskiy va boshqa tilshunoslarning ekspressiv nutqiy aktlar haqidagi nazariy qarashlari qiyosiy jihatdan ko‘rib chiqilgan. Maqolada ijobiy va salbiy ekspressivlarning nutqdagi ifodalanish usullari hamda ularning perlokutiv ta’siri yoritilgan. Ekspressivlarning muvaffaqiyatli amalga oshishida samimiylik va psixologik holatning muhim omil ekanligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari pragmalingvistika va nutqiy aktlar nazariyasini yanada chuqurroq o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: ekspressiv nutqiy akt, pragmatika, illokutiv akt, samimiylik, emotsionallik, adresat, perlokutiv ta’sir, kommunikatsiya, nutqiy jarayon, lingvistik tahlil.

Abstract. This article examines the pragmatic essence, communicative functions, and linguistic characteristics of expressive speech acts. Particular attention is paid to such fundamental features as sincerity, emotional expression, and orientation toward the addressee. The study comparatively analyzes theoretical approaches proposed by linguists including J. Austin, J. Searle, N. Norrick, and A. Wierzbicka regarding the classification and interpretation of expressive speech acts. The paper also discusses the realization of positive and negative expressives in discourse and their perlocutionary impact on communication. Special emphasis is placed on the role of sincerity and psychological state in ensuring the successful

implementation of expressive speech acts. The findings contribute to a deeper understanding of pragma linguistics and speech act theory, highlighting the importance of expressive elements in interpersonal communication and discourse analysis.

Keywords: expressive speech act, pragmatics, illocutionary act, sincerity, emotionality, addressee, perlocutionary effect, communication, speech process, linguistic analysis.

Ekspressiv nutqiy aktlar sinfini shakllanishiga olib kelgan dunyo qarashlar ekspressiv jumlalarning boshqa sinflar bilan u yoki bu sababga koʻra bogʻliq ekanligini koʻrsatadi. Illokutiv aktlarning ekspressivlar sinfini chegarasini aniq va muvaffaqiyatli belgilash imkoni kam. Ularni amalga oshirilishi nutqiy aktning talaffuziga bogʻliq boʻladi. Uning muvaffaqiyatini shaklga solishning me'yorlari J.Syorl tomonidan yaratilgan sxemasi asoslanib yaratilgan.

Ekspressiv nutqiy aktlar asosiy mohiyatini quyidagicha shaklga solish mumkin: soʻzlovchi jumlani adresatning ishtirokiga qarab samimiy va yuz ifodasi bilan talaffuz etishi; propozitsional mazmunni aniq ifoda etilishi; adresatga aloqadorlik.

Ekspressiv dastlabki muvaffaqiyatini ta'minlovchi shart soʻzlovchining jumlani ma'lum hukm bilan talaffuz qilishi, emotsional holatni va emotsional muloqotni koʻrsatish hisoblanadi. Ekspressiv nutqiy akt soʻzlovchi tomonidan ishlab chiqilishi va sodir boʻlmagan hodisani ifodalamasligi kerak. Hali yuz bermagan holat uchun uzr soʻrash yoki oʻzini aybdor deb his qilish mumkin emas.

Soʻzlovchi jumlani talaffuz qilar ekan propozitsional mazmunni yuzaga chiqarishga harakat qiladi. Bu shart propozitsional mazmun sharti deb nomlanadi.

Ekspressivlikni muvaffaqiyatini ta'minlovchi keying shartlardan biri jumlaning ijobiy va salbiy ekspressivlikka ega ekanligidir. Tinglovchining soʻzlovchining nutqiga qiziqish bildirishi yoki bildirmasligi uning talaffuziga ta'sir etadi: adresat soʻzlovchi aniq harakatni bajarishini yoki jumlani aniq talaffuz qilishini afzal koʻradi. Agar bu holat amalga oshmasa, propozitsional mazmunning tushunilishiga toʻsiq paydo boʻladi. Va aksincha salbiy zaryadlangan ekspressivlar quyidagi shartlarga koʻra amalga oshiriladi: adresat soʻzlovchi ma'lum harakatni bajarishini yoki uni shunday talaffuz qilinishini afzal koʻrmaydi. Masalan tahdid

nuqsonli bo‘lsa, uni bajarish ixtijoriy bo‘lib qoladi. Agar so‘zlovchi tahdidiga o‘zi ishonmasa, u yanada nuqsonli hisoblanadi va tahdid orqali bajartirish ko‘zlangan ish harakat amalga oshmay qoladi. Xuddi shunday uzr so‘rashlar ham nuqsonli bo‘lishi mumkin. Agar aybdor bo‘lmagan odam uzr so‘rasa, uning talaffuzida kamchilik uchraydi. Chunki u haqiqatda aybdor bo‘lmaydi va buni his qilmagan holda talaffuz qiladi. Binobarin qanaydir jarayon yoki shart so‘zlovchi jumlani ma’lum ekspressivlik bilan talaffuz etishi orqali yuzaga chiqadi.

Ekspressiv nutqiy aktning muvaffaqiyatli chiqishida samimiylik sharti ham muhim ahamiyat kasb etadi. So‘zlovchi harakatni amalga oshirishda va jumlani talaffuz qilishda samimiylikka intiladi. Samimiy va nosamimiy ekspressivlar farqlanadi. Nosamimiy ekspressivlarni so‘zlayotgan so‘zlovchi axborotni psixlogik jihatdan to‘g‘ri yetkazilishiga e’tibor bermaydi. Propozitsiyani saqlashga harakat qilmaydi. Jumlani samimiy ekspressivlik bilan yetkazishni istagan so‘zlovchi esa, jumlaning psixologik holatga mos talaffuz qilinishiga harakat qiladi. O‘z jumlalari yordamida propozitsiyani saqlab turishga urinadi. Jumlani samimiylik bilan talaffuz qilish jarayonida so‘zlovchi beixtiyor jumlalarini ekrpressivlar bilan talaffuz qiladi. Samimiy ishtiyoq jarayonni to‘g‘ri kechishini ta’minlaydi. Eskpressivlarning muvaffaqiyati so‘zlovchi tomindan jumlani ta’sirchan talaffuz qilishga bog‘liq bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar shundan dalolat beradiki, ekspressivlikning reallashishida samimiylik juda muhim rol o‘ynaydi. Ekspressiv nutqiy aktlar nima qanday aytilganini, psixologik holatni qanday ifodalanganini yoki qandaydir ma’lumotga munosabatni tushunishga yordam beradi.

Samimiylik shartini bajarmaydigan jumlalar ham mavjud bo‘lib, ularni talaffuz qilishda so‘zlovchi psixologik holatni hisobga olmaydi. Ba’zi tilshunoslar bu qarashni minnatdorchilik bildirish, uzr so‘rash, tabriklash va tilak bildirishlarga tadbiq etib bo‘lmaydi. Formonovskiy o‘z tadqiqotida emotiv nutqiy akt va etiketli nutqiy akt turlarini ajratib, uning fikricha so‘zlovchi turlicha perlokutiv samara kutadi: emotiv nutqiy aktlar bevosita emotsional holat bilan bog‘liq bo‘lib, etiketli nutqiy aktlar (minnatdoorchilik bildirish, uzr so‘rash va boshqalar) kishilik jamiyatida belgilangan ijtimoiy me’yorlarga qaragan holda amalga oshiriladi. Shundan kelib chiqqan holda emotivlar va etiketli nutqiy aktlarni bir sinfga birlashtirib bo‘lmaydi. N.I.Formonovskiyning fikriga ko‘raekspressivlik nutqiy aktni yuzaga chiqaruvchi, ajratib turuvchi ma’nolaridan biri hisoblanadi.

Bizning nazarimizda, nutqiy aktlarni samimiyva nosamimiy turlarga ajratish va ularni turli kategoriyalar doirasida ko‘rib chiqish noto‘g‘ri bo‘lgan bo‘lar edi. Bizning mulohazamizda jumlalarning invariantlari (prototiplari) farqlanib, ular samimiylik shartlariga javob beradi. Ular samimiy ekspressivlarning variantlari sifatida o‘rganiladi. Bunday tushunchaga ko‘ra prototip ma’no neytrallashishi va jumlada yana qanday qo‘shimcha ma’nolarni reallashishi aniq bo‘ladi.

Yuqorida guvoh bo‘lganingizdek, ekspressivlar sinfi uchun yaratilgan terminologiya haqida lingvistik adabiyotlarda yakdil fikr yo‘q. Terminologiyada uchraydigan turli qarashlar ekspressivlar sinfi chegarasini belgilashda ham uchrab turadi.

Albatta bu mavzuga murojaat qilinganda avvalambor bu borada tashabbuskor hisoblangan J.Ostin hamda J.Syorlning ishlariga e’tibor qaratish lozim. Ularning tadqiqotlarida ham turli-tuman fikrlarga duch kelamiz. Masalan J.Ostin o‘z qarashlarini so‘zlovchining adresatga bo‘lgan ijobiy tipik nutqiy akt turlari (salomlashish, minnatdorchilik bildirish, uzr so‘rash va boshqalar)dan tashqari bexabitiv(ekspressivlar)ga ham tadbiq qiladi va ular ham musobaqaga, duelga chaqirishi mumkinligini qayd etadi. Shu bilan birga salbiy jumlalarning so‘zlovchini qandaydir harakat qilishga, unga oid fe’llarda foydalanishiga olib keladi. Bunga misol qilib quyidagi fe’llarni keltirish mumkin: g‘azablanmoq/негодовать, tez maqsadga o‘tmoq/резко возражать, qoralamoq/обвинять, nolimoq/жаловаться, qarshilik qilmoq/протестовать, shubhalanmoq/оспаривать. J.Ostinning tadqiqotlarida bexabitivlar sinfining keng va biroz aniq chegarasi berilgan bo‘ib, ular bayonotlarga va ekzersitivlarga ham yaqin turadi. Shuning uchun ham J.Ostinning shogirdi J.Syorl bu taksonomiyani qattiq tanqid qiladi.

J.Syorl taklif etilgan nutqiy aktlar klassifikatsiyasi va unga belgilangan kriteriyalardan kelib chiqib, ekspessivlar sinfini chegaralash mumkin bo‘lgan quyidagi na’munaviy fe’llarni keltirib o‘tadi: minnatdorchilik bildirmoq/благодарить, tabriklamaoq/поздравлять, kechirim so‘ramoq/извиняться, hamdardlik bilrdirmoq/соболезновать, afsuslanmoq/сожалеть, yaxshi kutibolmoq/приветствовать. U keyinchalik ekspressivlar sinfiga quyidagi fe’llarni ham kiritadi: maqtamoq/ хвалить, hushomad qilmoq/говорить комплименты. Yuqorida keltirilgan fe’llarga qarab ekspressivlar sinfini so‘zlovchini jarayon yoki shaxsga ijobiy tuyg‘usini ifodalovchi nutqiy aktlar sifatida tushunish mumin bo‘ladi. Freyzerning

klassifikatsiyasida so‘zlovchining ekspressiv holatini aks ettiruvchi aktlarni ifodalovchi fe’llar sifatida tabriklamoq/поздравлять, minnatdorchilik bildirmoq/благодарить, hamdardlik bildirmoq/соболезновать fe’llarni misol qilib keltirib, savol berish, qarshilik qilish va roziliknі bildiruvchi fe’llarni ham qo‘shimcha qilib o‘tadi. Tasniflashning kriteriyalari yo‘qligi sababli turli illokutsiyalarni bir turga birlashtirish imkoniyati qiyin.

Bexabitivlar guruhini ko‘rib chiqar ekanmiz, A.Vejbitskiyning ishlari ham e’tibor tortadi. U ham J.Ostinning fikrlarini davom ettirgan holda tadqiqot olib borganini ko‘rish mumkin. U J.Ostinning ma’qullash, hamdardlik bildirish, tabriklash, minnatdorchilik bildirish, uzr so‘rash haqidagi fikrlarini ma’qullab, qo‘shimcha ravishda hamdu-sa’no aytish, qarg‘ash va tilak bildirishlarni keltirib o‘tadi. Uning fikriga ko‘ra bu jumlalar aniq bir semantik kategoriyadan tashkil topmaydi.

N.R.Norrik esa ekspressivlarni tuyg‘u, hissiyotni ifodalovchi, ma’lum jarayonga mos reaksiya keltirib chiqaruvchi va o‘z tarkibiga kechirim so‘rash, minnatdorchilik bildirish, tabriklash, hamdardlik bildirish, tanqid qilish, shikoyat qilish, ma’qullash, uzr so‘rash, maqtanish va boshqalarni oluvchi akt deb ko‘rsatib o‘tadi. N.R.Norrik ekspressivlarning chegarasini belgilashda tuyg‘uni asosiy kriteriya deb hisoblamaydi. Uning fikricha tuyg‘uning mavjudligi yoki mavjud emasligi faqat jarayondan kelib chiqadigan hodisa bo‘lib, konkret bir nutqiy aktga bog‘liq.

Lekin N.R.Norrikning qarashlari ham S.Marten-Klif tomonidan tanqid qilinadi. Ekspressivlar so‘zlovchining ichki tuyg‘usini yuzaga chiqarish uchun talaffuz qilinadi deb taklif etadi. Uning fikricha, tuyg‘u psixik baza bo‘lib, S.Martin-Klif tomonidan ekspressivlar uchun eng markaziy xarakter etib belgilanadi. Uning tasnifi o‘xshashlik va farqli tomonlarga asoslanadi va quyidagilar misol qilib keltiriladi: xushomad, tabriklash, yaxshi tilak bildirish, ma’qullash, minnatdorchilik bildirish, istehzo qilish, salbiy tilak bildirish, qo‘pol sevinish, umid qilish, his qilish, hamdardlik bildirish, afsuslanish, uzr so‘rash, xavotirlanish, shikoyat qilish, tanqid, haqorat qilish, hasrat qilish, vahima qilish va boshqalar. S.Martin-Klif maqtov va tanqid bu sinfga taalluqli emas deb ko‘rsatib, ularni faqat adresatni ma’lum baholash tizimiga olib kirish uchun qo‘llaniladi deb ta’kidlaydi. Ularning maqsadi hech qanday tuyg‘uni ifodalash emas deb fikr bildiradi.

Yana bir rus tilshunosi Yu.D.Apresyan ekpressivlarni nutqiy rituallar deb atab (J.Syorlning tushuchasida ekspressivlar), ularning qatoriga bir necha o‘zgartirishlar kiritadi. Uning asosiy qo‘shimchasi omad tilash bo‘lib, uni S.Martin- Klifning ijobiy tilak bildirish deb keltirilgan fikri bilan taqqoslashimiz mumkin. Lekin Yu.D.Apresyan pushaymon bo‘lish (uni hamdardlik bildirishning bir ko‘rinishi sifatida ko‘rib chiqish mumkin), maqtov va xushomad holatini keltirmaydi.

M.Ya.Glovinskiyning ham fikrlari Yu.D.Apresyanning fikrlariga yaqin bo‘lib, uning tasnifidan ham maqtov va xushomad o‘rin olmagan. U barcha ekspressivlarni o‘zini tutish shakllari sifatida ko‘rsatib o‘tadi.

Ekspressivlar tarkibini ko‘rib chiqishga qaratilgan yuqoridagi fikrlar shuni ko‘rsatadiki, bu sinfning chegarasini belgilash masalasida barcha tilshunoslar deyarli turlicha yondashishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Девкин В.Д. Диалог. Немецкая разговорная речь в сопоставлении с русской: Учеб. пособие(для ин-ов и фак-ов ин. языков). – М.: Высш.школа, 1981. – 160с.
2. Штелинг Д.А. Грамматическая семантика английского языка. Фактор человека в языке: Учебное пособие. – М.: МГИМО, 1996. – 254с.
3. Austin J.L. How to do things with words. Oxford UP, New York, 1973. 4. Ballmer T., Brennenstuhl W. Speech act classification: A study in the lexical analysis of English speech activity verbs. Berlin etc., 1981.
4. Leech G.N. Principles of Pragmatics. – L.; N.Y., 1983. – XII, 250 бет.
5. Kipling R. The Light That Failed. – Penguin Books, London, 1998. – 240 бет
6. Usmonova, D. U., & Jurayeva, S. E. (2025). A cognitive analysis on conceptual metaphor in English social media discourse. Modern American Journal of Linguistics, Education, and Pedagogy, 1(2), 301–308.
7. Satvoldievna, U. D., & Sharabidinovna, O. U. (2020). Conceptual problems of simultaneous interpretation. Проблемы современной науки и образования, (2 (147)), 36-38.

8. Orunbaeva, U., & Okhunov, A. (2022). Conceptual problems of simultaneous translation. Science and innovation, 1(B8), 2255-2258.
9. Orunbayeva, U. S. (2024). Cognitive problems in simultaneous interpretation. Educational Research in Universal Sciences, 3(4), 573-575.
10. Orunbayeva, U. (2024). SYNCHRONIZATION PROBLEMS OF SIMULTANEOUS TRANSLATION. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 11, 87-90.
11. Orunbayeva, U. (2025). ENHANCING TRANSLATOR SYNCHRONIZATION COGNITIVE APPROACHES AND CONTEXTUAL SOLUTIONS FOR UZBEKISTAN. International Journal of Artificial Intelligence, 1(5), 701-705.
12. Orunbayeva, U. (2025). SINXRON TARJIMADA KOGNITIV MODELLAR. " Issues of Turkish Philology", 1(1).

O‘ZBEKISTON YOSHLARI MA’NAVIYATIDA BUZG‘UNCHI G‘OYA VA BUZG‘UNCHI TA’SIRLARNING NAMOYON BO‘LISH SABABLARI

Abduxoliq Tashanov,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar
instituti bo‘lim boshlig‘i (99 736 23 60)
(O‘zbekiston)

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlar ma’naviyatining tabiati. unga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi buzg‘unchi g‘oya va buzg‘unchi ta’sirlarning namoyon bo‘lish sabablari tahlil qilingan. Yoshlarga xos salbiy xususiyatlar, makismalizm tamoyillari, ijtimoiy-ma’naviy muhitdagi yoshlar manfaatlari bilan to‘qnash keladigan omillar, ijtimoiylashuv jarayonidagi bo‘shliqlar, yoshlar ijtimoiy manipulyatsiyasi, yoshlar psixikasi bilan bog‘liq muammolar, internetning yuqori buzg‘unchilik potensiali va yoshlar o‘rtasida buzg‘unchi g‘oyaning tarqalishi, salbiy ta’sir etuvchi xavf omillari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar, ma’naviyat, buzg‘unchi g‘oya, buzg‘unchi ta’sir, ijtimoiy-ma’naviy muhit, manipulyatsiya, yoshlar manfaatlari, potensial, internet, xavf omillari.

Аннотация. В данной статье анализируется природа духовности молодежи, причины проявления деструктивных идей и деструктивных влияний, оказывающих на нее негативное влияние. Изучены негативные

особенности, присущие молодежи, принципы макизмализма, факторы, сталкивающиеся с интересами молодежи в социально-духовной среде, пробелы в процессе социализации, социальная манипуляция молодежью, проблемы, связанные с психикой молодежи, высокий деструктивный потенциал интернета и распространение деструктивных идей среди молодежи, факторы риска, оказывающие негативное влияние.

Ключевые слова: молодежь, духовность, деструктивная идея, деструктивное влияние, социально-духовная среда, манипуляция, интересы молодежи, потенциал, интернет, факторы риска.

Abstract. This article analyzes the nature of youth spirituality, the causes of destructive ideas and the manifestation of destructive influences that negatively affect it. The study examines the negative characteristics of youth, maximalist principles, factors that clash with the interests of youth in the socio-spiritual environment, gaps in the socialization process, social manipulation of youth, problems related to the youth psyche, the high destructive potential of the Internet and the spread of destructive ideas among young people, and risk factors that have a negative impact.

Keywords: youth, spirituality, destructive idea, destructive influence, socio-spiritual environment, manipulation, youth interests, potential, internet, risk

O‘zbekiston – yoshlar mamlakatidir. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda yoshlarimizning o‘rni va ta’siri tobora ortib borayotgani quvonarli hol. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025 yil 1 yanvar holatiga respublika bo‘yicha yoshlar (14-30 yosh) soni 9 630 556 kishini yoki jami aholining 25,7 foizini tashkil etgan. Bu juda katta ijtimoiy-ma’naviy va o‘z navbatida iqtisodiy potensialni anglatadi. «Har yili aholimiz o‘rtacha 2 foizga o‘smoqda, 1 milliondan ziyod o‘g‘il-qizlarimiz katta hayotga kirib kelmoqda. Yoshlarimizga qarab, ular erishayotgan yutuqlarni ko‘rib, ko‘ksimiz tog‘dek ko‘tariladi, qanday ulkan bunyodkor kuch safimizga qo‘shilayotganidan g‘ururlanib ketamiz”[1].

Yoshlar o‘rtasidagi destruktiv xatti-harakatlar ularning fuqarolik manfaatlariga, sog‘lom insoniy ehtiyojlariga tahdid soluvchi ijtimoiy loyihalari qabul qilinishiga javoban ochiq qarshilik ko‘rsatishning agressiv individual va jamoaviy og‘zaki va noverbal harakatlarida namoyon bo‘ladi (masalan, internet erkinligi); turli noqulaylik yoki tartibsizliklar natijasida tirbandliklar, binolar qulashi, aholi orasida qurbonlar bo‘layotgan vaziyatda mahalliy hokimiyat organlarining harakatsizligiga javoban; har qanday davlat mansabdor shaxslari yoki biznes elitasining jinoiy xatti-harakatlari to‘g‘risida huquqni muhofaza qilish organlarining ochiq-oydin harakatsizligi; qoniqarsiz yashash sharoitlari tufayli va boshqalar. Bunday buzg‘unchi faollik keskin salbiy oqibatlar, natijalar va shu

bilan birga jamiyat uchun konstruktiv oqibatlarga, ayrim hollarda ijobiy o‘zgarishlarga ham olib kelishi mumkin.

Avlodlararo ziddiyatni o‘rgangan tadqiqotchilar bu holatga 1960-yillarda Yevropa ommaviy talabalar tartibsizliklarini qamrab olgan paytda e’tibor qaratdilar. Taniqli jamiyat va mafkura bilimdoni K. Manngeim yosh avlodni asosiy ijtimoiy resurs, deb hisoblaydi, uning asosiy vazifasi ijtimoiy o‘zgarishlarning favqulodda zarurati sharoitida “vositachilikni jonlantirish” mulohazasini ilgari suradi[2]. Dinamik jamiyatlar, olimning fikricha, o‘zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga tez moslashish uchun yoshlarga tayanishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, avlodlar o‘rtasidagi ziddiyat ijtimoiy rivojlanishga va o‘zgargan ijtimoiy-siyosiy yoki iqtisodiy voqelikka moslashishga yordam beradi.

Konfliktologik paradigmaga asoslanib, yoshlar o‘rtasidagi buzg‘unchi xatti-harakatlar ularning har qanday ijtimoiy adolatsizlikka o‘ziga xos munosabati bo‘lib, muayyan ijtimoiy muammolar va nizolar keskinlashganda o‘zini sababiy tarzda namoyon qiladi. Bu faoliyat ijtimoiy rivojlanish va zarur ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun foydali bo‘lgan buzg‘unchi ijtimoiy amaliyotlarda ham uchraydi, chunki har qanday konflikt funktsional xususiyatga ega.

Amalga oshirilayotgan kontseptualizatsiya doirasidagi muhim tushuncha buzg‘unchilik turli ko‘rinishlarga ega bo‘lib, pirovardida ularning aksariyati ekstremizm va terrorga asoslangan quyidagi harakatlarda namoyon bo‘ladi: tartibsizlik, hokimiyat tuzilmalariga qarshi harakat, ultimatumlar qo‘yish, fuqarolik itoatsizligi va boshqalar[3.]. Ekstremizmning markazida odamlarning “biz” va “ular”ga bo‘lingan ijtimoiy jamoalari o‘rtasidagi ziddiyat yotadi. Tarixning turli davrlarida ekstremizmning paydo bo‘lishiga turli omillar sabab bo‘lgan: siyosiy, hududiy, iqtisodiy, etnik, diniy. Mutaxassislar fikricha, aynan 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar ekstremal xatti-harakatlarga eng ko‘p moyil bo‘ladi va ular aholining ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan eng zaif yoki beqaror qatlami hisoblanadi.

Ma’lumki, ijtimoiy faoliyatning ma’lum paradoksi - bu odamning buzg‘unchilikka bo‘lgan istagi – insoniylikka mos kelmaydigan (atrofdagi dunyo, o‘zi) normal tuzilmani buzish, nomuvofiq faoliyat ko‘rsatishidir. Turli sabablarga ko‘ra, destruktiv xatti-harakatlarning tasnifi mavjud, masalan: tashqi vayron qiluvchi va ichki buzg‘unchi xatti-harakatlar. O‘z navbatida buzg‘unchi xulq-atvorning turlari yaratish, ijodkorlik va antisosial, buzg‘unchi harakatlardir[4.41]. Buzg‘unchi faoliyat ma’lum bir ijtimoiy tuzilishga maqsadli munosabat bo‘lishi ham mumkin[5.]. Shu bilan birga, yoshlar ijtimoiy voqelikda mavjud ijtimoiy tengsizlik yoki ijtimoiy adolatsizlikning namoyon bo‘lishiga ko‘proq impulsiv munosabatda bo‘lishadi. Sotsiologik tadqiqotlarga ko‘ra, yoshlarning bunyodkorlikka intilishining yetakchi motivi “turli g‘oya va mafkuralarga

ergashish, dunyoni o‘zlari uchun yaxshiroq, qulayroq joyga aylantirish istagi”dir[6.72]. Biroq, yoshlarning bunyodkorlikka bo‘lgan ijtimoiy faolligi “faqat ijtimoiy ma’qullangan harakatlarda (klassik faollik) emas, balki yashirin ijtimoiy ma’qullash fonida aniq ijtimoiy ma’qullanmagan (agressiv faollik)da ham namoyon bo‘ladi[7.77]. Masalan, odamlarning hayoti yoki manfaatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan huquqlarning cheklanishi yoki buzilishiga javoban ijtimoiy faoliyat deviant va huquqbuzarlik (delikvent ijtimoiy faollik) bilan birga bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, yoshlar muammolarning sabablariga emas, balki oqibatlariga, ya’ni ularning huquq va manfaatlarining buzilishiga qarshi chiqadilar[8.54].

Bugungi kunda nosog‘lom va noxolis kuchlarining internet va mobil tarmoqlar orqali tarafdorlarini safarbar qilish imkoniyatlari kengayishi munosabati bilan buzg‘unchi faoliyatning tarmoq modellarini o‘rganish yanada dolzarblashmoqda[9.3]. Ko‘plab tadqiqotlar, jumladan falsafiy fanlarda ham norozilik va ekstremistik materiallarni joylashtirish uchun faol foydalaniladigan Internet tadqiqot ob’ektiga aylanib bo‘ldi.

Yoshlarning bunyodkorlikka qaratilgan ijobiy faolligi namoyon bo‘lishining yuqoridagi o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ularning real buzg‘unchi faoliyati va virtual buzg‘unchi faolligi (Internet makonida mavjud) haqidagi tushunchani ilgari surish mumkin. Demak, yoshlarning buzg‘unchi faoliyati - bu yoshlarning turli buzg‘unchi ta’sirlar ortidan ijtimoiy adolatsizlik, tengsizlik, ijtimoiy-siyosiy keskinlik natijasida yuzaga keladigan, o‘zgartirish yoki ularga qarshi kurashish maqsadidagi, jamoaviy va yakka tartibdagi nutqlarda, norozilik harakatlarida namoyon bo‘ladigan qarshilik, ekstremizm harakatlaridir.

Yoshlik psixologiyasi bo‘yicha amerikalik mutaxassislarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy jamiyatning televizion va kompyuter tarmoqlaridagi intensiv video axborot oqimlari yosh bolalarga zararli ta’sir ko‘rsatadi, chunki ular miyaning asab tuzilishini normal shakllantirish jarayonlarini buzadi. Natijada, bizning ko‘z o‘ngimizda aqli o‘zgargan odamlarning yangi avlodi shakllanmoqda, bu klip-fikrlash va ko‘proq yoki kamroq murakkab muammolarni hal qilishga ye’tibor qarata olmaslik bilan tavsiflanadi. Ammo aynan shu avlod kelajakda nafaqat yuqorida aytib o‘tilgan global muammolarni, balki bugungi kunda biz bilmagan yangi muammolarni ham hal qilishi kerak bo‘ladi.

Bunday vaziyatda biz nimani taklif qilishimiz mumkin va bu yerda yangi yutuq va yopilish texnologiyalari qanday rol o‘ynashi mumkin? Bu savolga javob berib, rus faylasufi, muhandisi va bastakori V. S. Dashkevich tomonidan taklif qilingan inson buzg‘unchiligi tabiati tushunchasini ko‘rib chiqish tavsiya yetiladi. U insonning ijtimoiy xulq-atvorining chuqur motivatsiyasi uning ongsizligi bilan belgilanadi, deb faraz qildi. Va bu, o‘z navbatida, axborot muhiti, shu jumladan

tovushlar va belgilar muhiti, ya’ni jamiyatning musiqiy va badiiy madaniyati bilan belgilanadi.

Ushbu tabiiy muhitni deformatsiya qilish orqali zamonaviy odam miyaning chap va o‘ng yarim sharlari faoliyatining uyg‘unligini buzadi. Shu bilan birga, nafaqat xayoliy idrok uchun, balki insonning altruistik fazilatlari, uning mehribonligi va boshqa odamlarga bo‘lgan ye’tibori uchun ham mas’ul bo‘lgan o‘ng yarim sharning faoliyati zaiflashadi. Aslida, bu zamonaviy dunyoda g‘ayritabiiy darajada yuqori darajadagi xudbinlik va shafqatsizlikning sababi, biz bugun hamma joyda ko‘rmoqdamiz. Ushbu sababni bartaraf yetish yoki uning ta’sirini sezilarli darajada zaiflashtirish uchun odamlarning ongsizligiga chap va o‘ng yarim sharlar faoliyatining uyg‘unligi tiklanadigan tarzda ta’sir qilish kerak.

Insonning buzg‘unchilik darajasini pasaytirish uchun inson psixikasi uchun qulay bo‘lgan axborot muhitini yaratish kerak. Buning uchun global televidenie va radioeshittirish, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarning Internet texnologiyalari samarali vositadir. Ushbu vositalar orqali tarqatiladigan ommaviy axborot vositalarining ijobiy tarkibi zamonaviy jamiyatning psixologik muhitini tubdan o‘zgartirishi, uning ijtimoiy keskinligini kamaytirishi va odamlar o‘rtasida ularning hamkorligi uchun zarur bo‘lgan ishonch muhitini yaratishi mumkin. Shu bois madaniyat va san’at arboblari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari mutaxassislari va diniy arboblar oldida bugungi kunda strategik muhim va mas’uliyatli vazifa turibdi – zamonaviy jamiyatning axloqiy va psixologik muhitini yaxshi tomonga o‘zgartirish, unga “qahramonlar” obrazlarini taklif qilish. Hozirgi davrimiz uchun bu namuna bo‘lib, insonda chinakam insoniy fazilatlarni tarbiyalash uchun o‘z hissasini qo‘shadi.

Hamma davrlarda ham aynan yoshlar o‘z atrofdagi dunyoni o‘zgartirishga, yangi ijtimoiy tartiblar o‘rnatishga intilgan ijtimoiy guruh bo‘lgan. Shu sababdan u ba’zan to‘g‘ridan-to‘g‘ri joriy hukumat yoki ijtimoiy tarbiblarga qarshi chiqishi mumkin. Yoshlar norozilik potentsialiga ega bo‘lib, agar bu energiya va o‘zgarishlarga intilish yaratish va rivojlanishga yo‘naltirilmasa, kuchli buzg‘unchi kuchga aylanishi mumkin. Shu bilan birga, yoshlarning ijtimoiy-ma’naviy ahvoli va kayfiyatini tez-tez aniqlashga harakat qilish, ularning xavf sharoitida doimiy mavjudligini hisobga olish muhim hisoblanadi. Ayrim tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, past vertikal harakatchanlik va “hamma narsani bir vaqtning o‘zida” olish istagi qarama-qarshiligiga duch kelgan yoshlar, o‘zlari xohlagan narsaga erishish uchun ko‘pincha tavakkal qilishga tayyor bo‘lishadi. Biroq, xavf ham ijobiy, ham halokatli shakllarda ifodalanishi mumkin[10.7]. Har bir-qiz yigit muvaffaqiyatga erishish uchun ta’limga va o‘z biznes modelini rivojlantirishga e’tibor qaratadi, boshqasi esa jinoyat va zo‘ravonlik yo‘liga kirib qoladi. Har ikki holatda ham biz yoshlarning o‘z farovonligi va turmush darajasini oshirishga intilayotganini ko‘ramiz, lekin bu maqsadlarga erishish mexanizmlari qarama-qarshidir.

Ushbu komponent yoshlarni buzg‘unchi ta’sirlarga va tegishli vasvasalarga juda moyil bo‘lgan aholi guruhiga aylantiradi. Bundan tashqari, qiymat tizimining transformatsiyasi tufayli xavflar ortadi. Pedagogika va psixologiya sohasida ma’lum bilimlarga ega bo‘lgan ko‘plab buzg‘unchi tashkilotlar yoshlar muhitining hozirgi tendensiyalari va muammolari bilan o‘z vakillarining ongi va xulq-atvoriga faol ta’sir ko‘rsatib, ularning ongi va qalbi uchun tinimsiz kurash olib boradi.

Buning uchun ular yoshlarni sotsializatsiya qilish jarayonidagi bo‘shliqlardan, shaxs rivojlanishining bosqichlaridan faol foydalanadilar, bunda yosh odam kattalardan ma’lum xatti-harakatlar stereotiplarini, hayotiy ko‘rsatmalarni va kelajak tasvirlarini faol ravishda nusxalashga harakat qiladi. Bu yoshlarni ma’lum bir yo‘nalishda harakatga keltiradigan motivatsion komponentni yaratadi. Va agar bu vaqtda odam munosib o‘rnak ko‘rmasa, unda yosh miya unga qiziqarli yoki foydali bo‘lgan har qanday misolni o‘zlashtiradi. Ammo rivojlanishning keyingi bosqichi kelganda va inson o‘z-o‘zidan harakat qilishni xohlasa (va ba’zida u o‘zini o‘zi harakat qilmoqda degan xayolda bo‘ladi), unda barcha salbiy tajribalar, barcha salbiy his-tuyg‘ular birinchi marta to‘planadi va bu bosqichda u “o‘zining barcha muammolarining aybdorlariga” aylantisa, davlat organlari tomonidan esa o‘rnatilgan qadriyatlar va me’yorlarga yo‘naltiradi, bu esa uni buzg‘unchi ta’sirning juda qulay ob’ektiga aylantiradi.

Yoshlarning ijtimoiy manipulyatsiyasi ijtimoiy hayotning turli sub’ektlarining yoshlarga o‘ziga xos kommunikativ ta’sir qilish jarayoni bo‘lib, u tafakkur va xulq-atvorni nazorat qilish uchun ommaviy axborot vositalari va targ‘ibot, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vositalar yordamida ularning manfaatlariga zid bo‘lgan tarzda amalga oshiriladi. Manipulyatsiyaning o‘zi ijtimoiy ma’qullanmagan, buzg‘unchi, g‘ayriaxloqiy ta’sirning bir turi bo‘lib, u umuman ularning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi manfaatlarida emas, balki shaxsning, ijtimoiy guruhlarning va umuman jamiyatning ijtimoiy rivojlanishiga zarar etkazadigan shaxsiy manfaatlar uchun amalga oshiriladi[11.21]. Biroq, yoshlarga manipulyativ va buzg‘unchi ta’sir ko‘rsatish sub’ektlari mutlaqo bir xil: ular shaxslar va oligarxik tuzilmalar, siyosiy partiyalar va harakatlar, shuningdek, jamoat birlashmalari va NNTlar, totalitar diniy oqimlar va destruktiv kultlar, xorijiy davlatlarning razvedka xizmatlari, xalqaro tashkilotlar va boshqalar bo‘lishi mumkin. Bu aktyorlarning barchasi dunyoning turli mamlakatlarida turli tarixiy davrlarda yoshlarni faol manipulyatsiya qilib, aniq siyosiy maqsadlarga erishish uchun, jumladan, tartibsizliklar, fuqarolar tartibsizliklari, davlat to‘ntarishlari va yoshlar ishtirokidagi inqiloblarni uyushtirishdi[12.21].

Yoshlar har qanday millat va davlatning kelajak taraqqiyotini belgilaydigan asosiy ijtimoiy qatlamdir. Agar yosh avlod sog‘lom dunyoqarash, yuksak ma’naviyat, vatanparvarlik va mustaqil fikrlash ruhida tarbiyalansa, jamiyatda barqarorlik, taraqqiyot va milliy xavfsizlik mustahkamlanadi. Shu bois davlat

ta’lim, tarbiya, huquqiy madaniyat, bandlik va ma’naviy-ma’rifiy sohalar orqali yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga intiladi, jamiyat esa oila, mahalla, ta’lim muassasalari va fuqarolik institutlari orqali ularning ma’naviy immunitetini shakllantirishga xizmat qiladi. Yoshlarni buzg‘unchi ta’sirlardan asrash nafaqat bir avlod taqdiri, balki mamlakatning kelgusi taraqqiyoti, milliy qadriyatlari va ijtimoiy barqarorligini saqlab qolishning muhim shartidir. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi belgilangan jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash maqsadida “yoshlarda mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish hamda milliy qadriyatlar va vatanparvarlik ruhini kuchaytirishga qaratilgan 18 ming tizimli targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish vazifalar sifatida belgilab berilgan[13.].

Internetning eng yuqori buzg‘unchilik potentsiali, bu unda taqdim etilgan juda ko‘p ma’lumotlar bilan bog‘liq. Bunday xilma-xil axborot manbalari kelajakda foydalanuvchilarga kamida besh yo‘nalishda halokatli ta’sir ko‘rsatishi mumkin: soxta ilm-fan, dezinformatsiya, foydalanuvchidan mablag‘larni “pompalash”, yaratishning aniq maqsadiga ega bo‘lmagan “bo‘sh” materiallar. va nashriyot, his-tuyg‘ularning kontrasti - ochiqlikdan samimiylikgacha - tajovuzkorlik va qattiqqo‘llik.

Bularning barchasi foydalanuvchi ko‘pincha o‘zini qanday tutishni, mavjud ma’lumotni butun xilma-xilligida qanday qabul qilishni bilmaydigan va shunga mos ravishda kelajakda manipulyatsiya ta’siriga duchor bo‘lishi mumkin bo‘lgan muhitni yaratadi.[14.51]. Shu bilan birga, tadqiqotchilar ta’kidlashicha, bunday ta’sirning o‘ziga xos xavfi shundaki, ta’sir ob’ekti ko‘pincha o‘zini bunday vaziyatga tushib qolganini tushunmaydi, o‘z qadriyatlari va bilimlari tizimini kiruvchi ma’lumotlarga muvofiq o‘zgartiradi va bu uning shaxsiy nuqtai nazari to‘liq ishonchga aylanishiga olib keladi[15.58].

Buzg‘unchi g‘oyalar va qarashlarni targ‘ib qilish manbasi va mexanizmi sifatida ijtimoiy tarmoqlar alohida o‘rin tutadi. Ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning ajralmas qismiga aylanib, nafaqat qulay vosita, balki mustaqil muhitga ham aylandi. Ko‘p odamlar o‘zlarini real dunyoda va virtual dunyoda aniq ajratib turadilar, ikkinchisida o‘zlarining komplekslari va kamchiliklarini qoplaydilar, o‘zlarini tasdiqlash va hukmronlik mexanizmlarini topishga harakat qilishadi. “Internet va global virtual makonning paydo bo‘lishi ma’lumotni hududiy va moliyaviy cheklovlarsiz eng keng auditoriyaga bir zumda tarqatish imkoniyatini yaratdi”[16.100]. Shunday qilib, yoshlar o‘zlarining etukligi tufayli izlanib, umumiy “ezgu” g‘oya bilan nomlangan soxta odamlar jamoasiga duch kelishlari va ularga qo‘shilishlari mumkin va keyin ma’lum bo‘ladiki, bu g‘oya buzg‘unchi va jinoiydir.

Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda katta, oson va nomoddiy daromad manbaiga aylanib bormoqda. Shunga ko‘ra, ijtimoiy tarmoqlarda o‘zini

rivojlantirish uchun ikkala sabab va buzg‘unchi ta’sir mexanizmlari bo‘lib xizmat qilishi mumkin bo‘lgan kamida ikkita intilish mavjud. Bu daromadni manipulyatsiya qilish yoki o‘z ahamiyatini oshirish, ba’zida yoshlarning zaif ongiga ta’sir qilishning eng samarali vositalaridir. Biroq, yoshlar iste’mol qiladigan kontentning aksariyati tartibga soluvchi cheklovlar va blokirovkalarga qaramay, xorijiy platformalar va ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirilayotgani xavotirga sabab bo‘lmoqda. Ushbu platformalarning foydalanuvchilari chet elliklar ekanligi o‘z mamlakatlari uchun ba’zan axborot jihatidan noqulay bo‘lgan foydalanuvchi shartnomalari va qoidalarini qabul qilishlariga olib keladi. “Internetning insoniyat hayotiga tobora chuqur kirib borishi odamlar o‘rtasidagi shaxsiy muloqotning intensivligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi, aloqalarning ko‘p qismini virtual maydonga o‘tkazdi va shu bilan shaxslararo muloqotning yangi standartlarini belgilaydi va bu ko‘pincha ularning pasayishiga olib keladi”[17.6].

Yoshlarga buzg‘unchi ta’sir ko‘rsatadigan ko‘plab sub’ektlarning faol, shu jumladan “tarmoq” ishtirokida radikal yoshlar guruhlari taktik jihatdan shakllantirilishi va jamiyatdagi ma’lum bir hodisani “shu erda va hozir” tamoyili asosida mitinglar, vayronagarchiliklar, norozilik harakatlari ko‘rinishida ommaviy axborot vositalari orqali “tarqatish” va boshqalar uchun ishlatilishi mumkin. Biroq, ularning strategiyasi yoshlar muhitiga buzg‘unchi g‘oyalar, ideallar, ramzlarni chuqur singdirish, avlodlararo mustahkam aloqalarni parchalash, g‘oyalar, jumladan, siyosiy g‘oyalar tashuvchilarni ko‘paytirish, axborot va mafkuraviy “kun tartibi”ni egallashdir.

Ko‘zlangan maqsadlar va hal etilayotgan vazifalarga qarab, bu ta’sir sub’ektlari guruhlari o‘z funktsiyalarini alohida yoki birlashgan holda bajarishlari mumkin. Lekin ko‘pincha ma’lum sub’ektlar o‘rtasidagi bog‘liqlik aniq bo‘ladi. Bundan tashqari, bu o‘rinda qaramlikni kuzatish mumkin, ya’ni maqsad qanchalik katta bo‘lsa, sub’ektlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir zanjiri shunchalik tarmoqlanadi va muammolarni hal qilishda mumkin bo‘lgan barcha resurslar - moddiy (pul, buyumlar, mineral resurslar va boshqalar)dan tortib, axborot (gazeta, jurnallarda nashrlar)gacha, televizion dasturlar, YouTube kanallari, ijtimoiy tarmoqlardagi guruhlar va boshqalar) va ma’muriy (ma’lum qoidalarni qabul qilish, ta’qiblarni tashkil etish/tugatish, hukumat ustuvorliklarini aniqlash va boshqalar) ishtirok vositalar etadi.

Agar ta’sir sub’ekti muayyan davlat bo‘lsa, u holda belgilangan vazifalarni amalga oshirish doirasida, manfaatlar mos kelishi bilan, allaqachon tuzilgan ittifoqlarning o‘zaro ta’siri doirasida buzg‘unchi ta’sir resurslarini birlashtirish mumkin (gegemon davlatlar, xalqaro tashkilotlar va boshqalar). Masalan, ular “rangli inqiloblar” nomi ostidagi buzg‘unchi ta’sirlarni amalga oshiradilar, ularning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri yoshlar hisoblanadi. O‘z

navbatida yoshlar esa o‘z taqdirini o‘zi belgilash bosqichida bo‘lgan va olomonga osongina qo‘shiladigan ijtimoiy qatlamdir.

Yoshlar o‘rtasida buzg‘unchi g‘oyaning tarqalishi, salbiy ta’sir etuvchi xavf omillari xilma-xil va murakkab bo‘lib, ular quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi.

1. Oilaviy munosabatlarning deformatsiyasi: Oiladagi muhit, oilada yordamning mavjudligi yoki yo‘qligi, ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi muloqot darajasi yoshlarning dunyoqarashining shakllanishiga ta’sir qilishi mumkin. Oiladagi salbiy tajribalar muqobil o‘ziga xoslik va qadriyatlarni izlash manbai bo‘lishi mumkin.

2. Ta’lim tizimidagi kamchiliklar: Maktab va oliy o‘quv yurtlari tarbiyaviy ishidagi kamchiliklar ijtimoiy hodisalarni tushunish va baholashda bo‘shliqlarni yuzaga keltirishi mumkin. Ekstremizm va buzg‘unchi mafkuralar bo‘yicha samarali ta’limning yo‘qligi yoshlarni targ‘ibot va radikalizmga moyil qilib qo‘yishi mumkin.

3. Ijtimoiy begonalashuv va disorientatsiya: jamiyat bilan ijobiy munosabatning etishmasligi, adolatsizlik hissi va aniq axloqiy ko‘rsatmalarning yo‘qligi buzg‘unchi mafkuralarda o‘zlikni izlashga hissa qo‘shishi mumkin, bu erda yoshlar soxta tegishli tuyg‘uni topishi mumkin.

4. Virtual muloqotning ta’siri: yoshlarning ijtimoiy faolligini virtual makonga qayta yo‘naltirish, buzg‘unchi mafkuralar yanada qulay tuproq shakllanishini topishi mumkin bo‘lgan uyushmagan asotsial jamoalarning shakllanishiga olib kelishi mumkin.

5. An’anaviy ijtimoiy guruhlardan begonalashish: oila yoki maktab kabi an’anaviy ijtimoiy tuzilmalardan voz kechish jamiyatning yangi shakllarini va’da qiladigan yanada radikal mafkuralar bilan to‘ldirilgan bo‘shliqni yaratishi mumkin.

6. An’anaviy qadriyatlarga mos kelmaydigan qadriyatlarni targ‘ib qilish: an’anaviy me’yorlar va madaniy qadriyatlarni inkor etuvchi qadriyatlarni faol targ‘ib qilish jamiyatning muqobil modellarini izlayotgan yoshlarga jozibador ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

7. Ijtimoiy adolatsizlik: ijtimoiy adolatsizlik, diskriminatsiya va tengsizlikni idrok etish o‘rnatilgan tartiblarni o‘zgartirishga qaratilgan radikal g‘oyalar va faoliyat shakllarini izlashga olib kelishi mumkin.

8. Buzg‘unchi kontentning tomoshasi va “jasorati”: Internet va ijtimoiy tarmoqlar juda ko‘p kontentni taqdim etadi va yoshlar o‘zlarining tomoshalari va belgilangan me’yorlarga qarshi chiqishlari tufayli yanada ekstremal harakatlarga jalb qilinishi mumkin.

9. Zamonaviy estrada madaniyatining ta’siri: buzg‘unchi g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi filmlar va seriallar qahramonlari yoshlarga kuchli ta’sir ko‘rsatishi, g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarni oqlaydigan ideallashtirilgan obrazlarni shakllantirishi mumkin.

10.Marketing va maqsadli reklama: samarali marketing va reklama texnikasi yoshlarni tegishli kontentga jalb qilish uchun aniq yo‘naltirilgan maqsadlarni qo‘llash orqali yoshlar auditoriyasiga buzg‘unchi g‘oyalarni targ‘ib qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. 26.12.2025. https://president.uz/uz/lists/view/8834
2. Мангейм К. Диагноз нашего времени: пер. с нем. М.: Юристъ, 1994.
3. Щебланова В.В. Динамика рисков современного терроризма. Саратов: Изд-во СГТУ, 2010.
4. Гилинский Я.И. Творчество: норма или отклонение? // Социологические исследования. 1990. № 2. С. 41–49.
5. Дмитриев А.В., Залысин И.Ю. Насилие: социо-политический анализ. М.: РОССПЭН, 2000.
6. Трофимова И.Н. Гражданский активизм в современном российском обществе: особенности локализatsii // Социологические исследования. 2015. № 4. С. 72–77.
7. Калиева 2016 – Калиева Ж.А. Социальные аспекты активизма молодежи: анализ региональных практик // Вестник Саратовского государственного социально-экономического университета. 2016. № 2 (61). С. 77–80.
8. Михайлова, Скогорев 2017 – *Михайлова Е.В., Скогорев А.П*. Протесты как форма гражданской активности в современной России // Власть. 2017. № 1. С. 54–59.
9. Ушкин С.Г. Теоретико-методологические подходы к изучению сетевой протестной активности: От «умной толпы» к слактивизму // Мониторинг общественного мнения: экономические и социальные перемены. 2015. № 3. С. 3–11..
10. Зубок Ю.А. Проблемы социального развития молодежи в условиях риска // Социологические исследования. 2003. № 4(228). С. 7.
11. Елишев С.О. Социальное манипулирование молодёжью: Дисс. докт. социологич. наук. М., 2018. С. 21–22.
12. Елишев С.О. Социальное манипулирование молодёжью: Дисс. докт. социологич. наук. М., 2018. С. 21–22.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-февралдаgi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida PF-21-son Farmoni // https://lex.uz/docs/8050769

14. Горина Е.В. Коммуникативные технологии манипуляции в СМИ и вопросы информatsионной безопасности: Учеб.-метод. пособ. Екатеринбург, 2016. С. 51–56.
15. Дзялошинский И.М. Манипулятивные технологии в масс-медиа (окончание) // Вестник Московского университета. Серия 10. Журналистика. 2005. № 2. С. 58.
16. Ивченков С.Г., Кошелев А.А. Особенности выбора Интернет-СМИ в молодежной среде: региональный аспект // Поиск: Политика. Обществоведение. Искусство. Социология. Культура. 2016. № 3(56). С. 100.
17. Влияние средств массовой коммуникatsии на формирование жизненных ценностей молодежи. Владивосток, 2017. С. 6.

ASSOTSIATIV LUG‘ATLAR TUZILISHINI O‘RGATISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYA VA METODLARDAN FOYDALANISH

Nasirov Muslimjon Maxsutali o‘g‘li,
Qo‘qon universiteti, Filologiya kafedrasi o‘qituvchisi
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
(O‘zbekiston)

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida assotsiativ lug‘atlar tuzilishini o‘rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish masalasi yoritiladi. Assotsiativ lug‘atlarning nazariy asoslari, ularning psixolingvistik va leksikografik ahamiyati hamda assotsiativ tajriba metodining o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, ta’lim jarayonida “SWOT-tahlil”, Venn diagrammasi, “Klaster” kabi grafik organayzerlar hamda kompyuter asosidagi assotsiativ tajriba usullaridan foydalanishning samaradorligi asoslab beriladi. Ushbu metod va texnologiyalar talabalarning mustaqil fikrlashi, tahliliy yondashuvi va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: assotsiativ lug‘at, leksikografiya, assotsiativ tajriba, psixolingvistika, interfaol metodlar, SWOT-tahlil, Venn diagrammasi, klaster metodi, raqamli texnologiyalar, oliy ta’lim, lingvistik ong, ta’lim innovatsiyalari.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida tilshunoslik fanlarini o‘qitish jarayoni zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirib borilmoqda. Xususan, leksikografiya yo‘nalishida, jumladan assotsiativ lug‘atlar tuzish masalasini o‘rgatish nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham talab etadi. Assotsiativ lug‘atlar til egasining lingvistik ongi, tafakkuri va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim manba bo‘lib, ularni tuzish jarayonini talabalarga samarali o‘rgatish zamonaviy metod va texnologiyalarni

qo‘llashni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta’lim muassasalarida assotsiativ lug‘atlar tuzilishini o‘qitishda interfaol metodlar, raqamli platformalar, masofaviy ta’lim vositalari hamda tadqiqotga yo‘naltirilgan yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuvlar talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ularning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga qiziqishini oshirish hamda nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Ta’limning samaradorligini oshirish, yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta’minlash uchun maxsus fanlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol metodlarni biladigan, ulardan o‘quv va tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan pedagoglarga ehtiyoj ortib bormoqda. Shu asosda oliy ta’lim muassasalarida ham ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda an’anaviy va noan’anaviy ta’lim turlaridan foydalanish zarurati kunning dolzarb muammolaridan biridir. Filologiya ta’limida ham bu usullar kutilgan natijalarni berishi shubhasiz. Til birliklari ortida turgan lisoniy ong faoliyati, unda voqelik obrazining hosil bo‘lishi, olam manzarasining turli madaniyatlardagi qiyofasi, insonning lisoniy xotirasi va tafakkuri faoliyati mexanizmini amaliy tajribalar orqali o‘rganishga imkoniyat yaratuvchi metodlardan biri assotsiativ tajriba metodi va shu metod asosida yaratilgan assotsiativ lug‘atlardir. So‘nggi yillarda turli fanlarda antropotsentrik paradigmaning qaror topishi natijasida assotsiativ tajriba metodi neyrolingvistika, neyrofiziologiya, psixolingvistika, lingvokulturologiya kabi fanlarda ham metodologik ahamiyat kasb etdi.

Har qanday davrda ham ta’lim sohasida birinchi navbatda yuqori madaniyatli, iqtidorli, bilim salohiyati yuqori bo‘lgan, zamon bilan hamqadam bo‘lgan muallimga ehtiyoj kuchli bo‘lgan. Ta’lim sohasidagi o‘quv qo‘llanmalar, ta’limiy vositalar, o‘quv qurollar, jihozlangan o‘quv xonalari ta’lim sohasining samarali bo‘lishi uchun manfaatli sharoitlarni yaratib bersa, o‘quv va lingvistik lug‘atlar filologik jarayon ishtirokchilarining doimo faol, izlanuvchan, ijodkor bo‘lishiga sharoit yaratadi.

Assotsiativ lug‘atlar tuzishda asos bo‘ladigan assotsiativ tajriba metodi natijalaridan, avvalo, tilshunoslikning turli sohalarida foydalanish mumkin. Odatda, ushbu metod ko‘p sonli mavzularda amalga oshirilganligi sababli, har bir so‘z stimuliga so‘z-reaksiyalarning chastotali taqsimlanish jadvalini tuzish orqali assotsiaitv lug‘atlarni yaratish mumkin. Assotsiativ tajriba metodidan, ayniqsa, tildagi antonimik, sinonimik qatorlarni belgilashda unumli foydalanilgan. J.Diz antonimiya kontseptsiyasini, M.L.Nilsen sinonimiyani o‘rganishda til egalarida assotsiativ testni qo‘llagan edi[5].

[5] Лутфуллаева Д.Э. Ассоциатив тилшунослик назарияси. Монография. –Тошкент: Мериюс, 2017. – Б 91.

Assotsiativ tilshunoslikda eng ko‘p qo‘llaniladigan tajriba turi erkin assotsiativ tajribadir. Bu tajribaning muhim jihati shundaki, unda qo‘lga kiritiladigan asosiy manba cheklanmagan miqdordagi leksik birliklar, so‘z birikmalaridir. Ba’zan paremiyalar, frazeologik birliklar, turli okkozional qo‘llanishlar ham assotsiatsiyalar vazifasini o‘taydi. Assotsiativ tajribalar undan ko‘zlangan maqsad asosida ommaviy yoki yakka tartibda tashkil etiladi. Ommaviy tarzda o‘tkaziladigan assotsiativ tajribalarda kamida 10-20 ta sinaluvchi ishtirok etadi. Assotsiativ lug‘atlarni tuzishda ommaviy tarzda o‘tkaziladigan tajriba materiallariga tayaniladi. Ommaviy o‘tkazilgan tajriba materiallarigina muayyan tilning leksik tarkibi, shu til egalarining lisoniy xotirasi, leksik zahirasi haqida ma’lumot bera oladi.

Erkin assotsiativ tajriba jarayonida sinaluvchilar quyidagi amallarni bajarishlari lozim bo‘ladi:

1) tajriba jarayoniga diqqatni to‘la jalb etish, chalg‘imaslik, stimul so‘zni eshitishga va idrok etishga tayyor holatda bo‘lish;

2) stimul so‘zni eshitish va uni idrok etish (ma’nosini tushunish);

3) stimul so‘z eshitilganda ongda qanday tasavvur hosil bo‘lganini, bu so‘z bilan bog‘liq xotirada qanday so‘zlar tiklanganini anglab yetish;

4) stimul so‘z bilan bog‘liq tarzda xotirada tiklangan assotsiativ birliklarni so‘rov anketasiga qayd etish.

Assotsiativ lug‘atlarning tuzilishi oliy ta’limdagi “Zamonaviy tilshunoslik”, “Assotsiativ tilshunoslik”, “Leksikografiya asoslari” kabi bir nechta fanlarning obyekti bo‘la oladi. Ushbu lug‘at tuzilishini talabalarga o‘rgatishda bir necha interfaol ta’lim metodlari va grafik organayzerlardan foydalanish mumkin. Quyida ularning bir nechtasi bilan tanishib chiqamiz va metodlarning aynan shu mavzuni o‘rganishdagi afzalliklari haqida fikr yuritamiz.

“SWOT-tahlil” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu metod quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- hal etilayotgan muammoning afzalliklarini yoritish;
- maqsadga erishish yo‘lida tashkil etilayotgan harakatlarga ichki omillarning ta’sirini o‘rganish;
- belgilangan vazifalarni hal etishning eng maqbul yo‘llarini izlash;
- maqsadga erishish yo‘lida tashkil etilayotgan harakatlarga tashqi omillarning ta’sirini o‘rganish.



2-shakl

Ushbu metodni “Assotsiativ lug‘atlarning tuzilishi” mavzusini o‘tish davomida qo‘llash orqali biz talabalarning bunday lug‘atlarning imkoniyatlari haqida yanada ko‘roq ma’lumotlar olishiga erishishimiz mumkin.

Strategiyani amalga oshirish bosqichlari:

1) o‘qituvchi o‘quvchilarni strategiyaning mohiyati bilan tnaishtiradi; 2) o‘qituvchi o‘quvchilarni kichik guruhlarga ajratadi; 3) guruhlarga bir xil yoki bir necha xil muammoni hal etish topshirig‘i beriladi; 4) topshiriqni bajarish uchun vaqt belgilanadi (6-10 daqiqa); 5) belgilangan vaqt tugagach, har bir guruhdan bir nafardan talaba natija bilan jamoani tanishtiradi; 6) guruhlarning ishlari o‘qituvchi va jamoa tomonidan muhokama qilinadi; 7) o‘qituvchi har bir guruh ishini muhokamadan kelib chiqqan holda umumlashtiradi hamda baholaydi.

Namuna: Assotsiativ lug‘at, izohli lug‘at va bolalar assotsiativ lug‘atining imkoniyatlarini **“SWOT-tahlil” metodi**da tahlil qiling:

O‘ranilayotgan obyekt	**Assotsiativ lug‘at**
S	
W	
O	
T	

1-jadval

O‘ranilayotgan obyekt	**Izohli lug‘at**
S	
W	
O	
T	

1.2-jadval

O‘ranilayotgan obyekt	Bolalar assotsiativ lug‘ati
S	
W	
O	
T	


1.3-jadval

Venn Diagrammasi metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u bir nechta o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini bir necha aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish topshiriladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.



3-shakl

“Klaster” metodi

«Klaster» (g‘uncha, to‘plam, bog‘lam) grafik organayzeri puxta o‘ylangan strategiya bo‘lib, uni talabalar bilan guruh asosida tashkil etiladigan

mashg‘ulotlarda qo‘llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirish, ular o‘rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

Assotsiativ lug‘atlarning ichki tuzilishini o‘rgatishda **“**Klaster**”** usulidan foydalanish amaliy natijalarga erishishning eng maqbul yo‘llaridan biri hisoblanadi. Klaster metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo‘lib, u talabalarga ixtiyoriy mavzular xususida erkin, ochiq o‘ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g‘oyalar o‘rtasidagi aloqalar to‘g‘risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Klaster metodi aniq ob’ektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning talabalar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu metod, ayniqsa, assotsiativ lug‘atlardagi stimul so‘z va reaksiyalarning qanday omil natijasida ketma-ket joylashganini tahlil qilishda yaxshi natijalarni beradi. Metodni amalga oshirishda yakka yoki jamoaviy guruhlar shakllantiriladi, ularga metodning maqsadi va u bilan ishlash usullari tanishtiriladi:

− yozuv taxtasi yoki katta qog‘oz varag‘ining o‘rtasiga assotsiativ lug‘atda berilgan stimul so‘z (so‘z birikmasi) yozib qo‘yiladi;

− birikma bo‘yicha asosiy so‘z bilan uning yonida mavzu bilan bog‘liq assotsiativ lug‘atda keltirilgan javob reaksiyalari so‘z va takliflar kichik doirachalar – “yo‘ldoshlar” yozib qo‘shiladi;


− ular “asosiy” so‘z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi. Bu “yo‘ldoshlar”da “kichik yo‘ldoshlar” bo‘lishi mumkin;

− jarayon yozuvga ajratilgan vaqt davomida yoki g‘oyalar tugagunicha davom etishi mumkin;

− muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko‘proq yangi g‘oyalarni ilgari surish hamda mazkur g‘oyalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik – bog‘liqlikni ko‘rsatishga harakat qilinadi;

− g‘oyalar yig‘indisining sifati va ular o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rsatish cheklanilmaydi;

− muhokama uchun talabalar (yoki guruhlar) tuzgan klasterlari bilan o‘zaro almashadilar.



4-shakl

Kompyuter assotsiativ eksperimenti

Axborot-texnologiyalari rivojlanayotgan hozirgi zamonda assotsiativ tajribani kompyuter variantda, onlayn test shaklida o‘tkazish sinaluvchi va tajriba o‘tkazuvchi uchun ancha qulaylik va imkoniyatlar yaratadi. Unda tajribani o‘tkazish, yozib olish, to‘plangan materiallarni qayta ishlash maxsus ishlab chigilgan dasturiy ta’minot orqali amalga oshiriladi. Kompyuter assotsiativ eksperimenti og‘zaki va yozma tajribadan farqli ravishda vaqtni sezilarli darajada tejalishiga xizmat qiladi va bunda so‘rovnomalar tartibli tarzda saqlanadi. Bu esa olib borilayotgan tadqiqotning samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, assotsiativ lug‘atlar tuzilishini oliy ta’limda o‘rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bunday yondashuvlar talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini mustahkamlaydi, balki ularni amaliy tadqiqot faoliyatiga jalb etadi, mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, grafik organayzerlar va raqamli vositalar yordamida assotsiativ tajribalarni tashkil etish talabalarga til hodisalarini chuqurroq anglash, lingvistik ong va tafakkur jarayonlarini amaliy asosda o‘rganish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori. – “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil, 21-aprel.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – T.: Sharq, 2020, – 42 b.

3. Ишмуҳамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Тарбияда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педагог-ўқитувчилари учун амалий тавсиялар). – Тошкент, Истеъдод жамғармаси, 2009. – Б. 115.
4. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. Монография. – Тошкент: Мериюс, 2017. – 139 б.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 680 б.
6. Lutfullayeva D., Davlatova R, Tojiboyev B. O‘zbek tili assotsiativ lug‘ati (milliy-madaniy birliklar). – Toshkent: Navoiy universiteti, 2019. – 380 b.
7. 33. Qurbonova M., Mirnosirova D. Bolalar assotsiativ lug‘ati. – Toshkent: Bookmany print, 2022, – 162 b.
8. https://play.google.com/store/apps/details?id=uz.hamroev.bolalarassotsiativlugati

SUN’IY INTELLEKT VA LINGVODIDAKTIKA: ZAMONAVIT TIL TA’LIMINING YANGI BOSQICHI

Muradova Nigina Bahodir qizi,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi fakulteti
Filologiya va tillarni o‘qitish; o‘zbek tili 4-bosqich talabasi
(O‘zbekiston)

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun’iy intellekning tilshunoslik va xususan lingvodidaktika sohasidagi o‘rni hamda ahamiyati tahlil qilingan. Tilshunoslik fanining tarixiy shakillanish jarayoni, kompyuter lingvistikasining paydo bo‘lishi va XXI asrda sun’iy intellekt davrining boshlanishi haqida fikr yuritiladi. Maqolada sun’iy intellektning til o‘qitish jarayonini individuallashtirish, differensial ta’limni samarali tashkil etish, yozma ishlarni avtomatik tahlil qilish va nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari keng yoritilgan. Shuningdek, ta’lim jarayonida sun’iy intellektdan foydalanishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar, xususan akademik halollik, texnologik savodxonlik va o‘zbek tilining raqamli bazasini boyitish masalalari ham ko‘rib chiqilgan. Muallif sun’iy intellekt o‘qituvchini to‘liq almashtirmasligi, balki pedagogning samarali yordamchisi sifatida xizmat qilishi zarurligini ta’kidlaydi. Kelajak lingvodidaktikasi inson tafakkuri va sun’iy intellekt uyg‘unligiga asoslanish lozimligi xulosa sifatida ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, lingvodidaktika, til o‘qitish metodikasi, kompyuter lingvistikasi, differensial ta’lim, nutq texnologiyalari, raqamli ta’lim, o‘zbek tili, akademik halollik.

Abstract. This article examines the role and significance of artificial intelligence in linguistics, particularly in linguodidactics. It discusses the historical development of linguistics, the emergence of computational linguistics, and the beginning of the artificial intelligence era in the 21st century. The paper highlights the potential of artificial intelligence in language teaching, including personalized learning, differentiated instruction, automatic analysis of written assignments, and the development of speaking skills through speech recognition technologies. In addition, the article addresses several challenges related to the integration of AI into the educational process, such as academic integrity, digital literacy, and the development of digital resources for the Uzbek language. The author emphasizes that artificial intelligence should not replace teachers but serve as an effective assistant in the teaching process. The study concludes that the future of linguodidactics should be based on the harmonious integration of human intelligence and artificial intelligence.

Keywords: Artifical intelligence, linguodidactics, language teaching methodology, computational linguistics, differentiated instruction, speech recognition, digital education, Uzbek language, academic integrity.

Tilshunoslik fani o‘rganilishi va tatbiqi jihatidan necha ming yuz yillik tarixga ega. Dunyo yaralib insonlar tabiatga, undagi bor hodisalarga qiziqa boshladi. Shu yo‘sinda fanlar paydo bo‘lib, tilshunoslik falsafa fani doirasida o‘rganildi. Tilshunoslik fan sifatida XIX asrda shakillana boshladi. Shundan buyon fanga qanchadan qancha yangiliklar olib kirildi, yangidan yangi yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib insoniyat kompyuter texnologiyalarini ixtiro qilishi natijasida tilshunoslikning butunlay yangi tarmog‘i – kompyuter lingvistikasi dunyoga keldi. Bu davrda inson tilini matematik modedellar asosida mashinalarga tushuntirish jarayoni boshlangan edi [4,312]. Bugun XXI asrga kelib nafaqat tilshunoslik, balki butun insoniyat uchun yangi davr – Sun’iy intellekt (SI) davri boshlandi. Endilikda har bir soha vakillari bu yangilikni qabul qilishlari, o‘rganishlari, uning imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish yo‘llarini ko‘rib chiqishlariga to‘g‘ri keladi

Xususan, tilshunoslikda ham sun’iy intellekt juda ko‘p yo‘nalishlarda samarali yordam bera oladi. Jumladan, korpus lingvistikasida katta hajmdagi matnlarni tez va aniq tahlil qilishga yordam beradi. Inson miyasi yillab vaqt sarflaydigan millionlab so‘z qatnashgan matnlarni SI sanoqli soniyalarda tahlil

qilib, so‘zlarning qo‘llanilish chastotasi va mantiqiy bog‘lanishlarini ko‘rsatib beradi. Lug‘atchilikda esa yangi so‘zlarni aniqlashda, elektron lug‘atlar yaratishda olimlar va tadqiqotchilar uchun haqiqiy yordamchiga aylandi.

Shuningdek bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblangan ta’lim jarayonlarini tashkil etishda sun’iy intellektning o‘rni va ahamiyati yuqori baholanmoqda. Jahon iqtisodiy forumining so‘nggi tadqiqotlariga ko‘ra, sun’iy intellekt yaqin o‘n yillikda ta’lim tizimini, xususan, til o‘qitish metodikasini tubdan o‘zgartiruvchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi [9,120]. Mamlakatimizda ham bu borada tizimli ishlar olib borilmoqda, masalan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasining ta’limga oid bobida raqamli savodxonlikni oshirish, o‘qitish tizimida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, sun’iy intellektdan to‘g‘ri va samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakillantirish borasida turli chora-tadbirlarning amalga oshirilishi nazarda tutilgan [1,45]. Xususan, tillarni o‘rganish va o‘rgatish bobida ham sun’iy intellektning o‘rni kuchayib bormoqda. Bu esa lingvodidaktika sohasi oldiga yangi masalalarni qo‘ymoqda.

Lingvodidaktika: Tilni o‘rgatish san’ati va zamonaviy taqqoslash

Lingvodidaktika – bu til o‘rgatish va o‘rganish metodlarini, ularning samaradorligini va natijalarini o‘rganadigan fan sohasidir. Bu soha tilshunoslik va pedagogikani birlashtirgan bo‘lib, til o‘rganish jarayonida metodik yondashuvlarni ishlab chiqadi va ta’lim jarayonida tilni o‘rgatishning samarali usullarini belgilaydi. Lingvodidaktika sohasining asosiy maqsadi til o‘rgatishda pedagogik usullarining samaradorligini oshirishdir [6,15-22].

Agar an’anaviy ta’lim modeli bilan zamonaviy raqamli modelni taqqoslaydigan bo‘lsak, katta farqni ko‘ramiz. An’anaviy dars jarayonida o‘qituvchi markaziy figura hisoblanadi va barcha o‘quvchilarga bir xil yondashuv, bir xil topshiriq va bir xil vaqt me’yori qo‘llaniladi. Sinfda 30 nafar o‘quvchi bo‘lsa, o‘qituvchi ularning har birining individual xatosini dars davomida tahlil qilib berishga jismonan ulgurmaydi.

Bugungi kunda esa sun’iy intellekt asosidagi texnologiyalar til o‘rgatish jarayoniga faol kirib kelmoqda. Adaptiv o‘quv platformalari, chatbotlar, avtomatik baholash tizimlari, nutqni aniqlash dasturlari va tarjima ilovalari til ta’limining ajralmas qismiga aylanmoqda. Sun’iy intellekt lingvodidaktik jarayonda quyidagi imkoniytlarni yaratadi:

- Ta’lim jarayonini individuallashtirish;
- O‘quvchining bilim darajasini avtomatik aniqlash;
- Real vaqt rejimida xatolarni tahlil qilish;
- Talaffuzni baholash va tuzatish;

- O‘quv materiallarini moslashtirish.

Bu esa an’anaviy o‘qitish modelidan raqamli va interaktiv modelga o‘tishni taqozo etadi.

Sun’iy intellektning til o‘qitishdagi afzalliklari

Til o‘qitishdagi sun’iy intellektning imkoniyatlari haqida gaplashadigan bo‘lsak, birinchidan, u har bir o‘quvchining bilim darajasi, o‘rganish tezligi va xatolarini tahlil qilib, unga mos topshiriqlarni tavsiya qiladi. Bu esa differensial ta’limni samarali tashkil qilish imkonini beradi. Ya’ni o‘zlashtirishda qiynalgan o‘quvchilarga oson yo‘llar orqali, ko‘proq ishlash orqali mavzuni tushuntirib beradi [7,280].

Masalan, o‘quvchi ketma-ket uchta grammatik testda otlarning kelishik qo‘shimchalarida xato qilsa, SI dasturi darhol qiyinchilik darajasini pasaytiradi va aynan kelishik qo‘shimchalariga oid qo‘shimcha mashqlarni taqdim etadi. Natijada u ham boshqa tengdoshlari kabi mavzuni to‘liq tushunishga sabab bo ‘ladi. Bunda o‘qituvchining ham vaqti, ham jismoniy kuchi tejalgan holda yuqori maqsadga erishiladi.

Shuningdek, SI orqali yozma ishlarni grammatik, uslubiy va leksik jihatdan tahlil qilib, tezkor fikr-mulohaza beradi. O‘qituvchi kechasi bilan insho tekshirishga sarflaydigan vaqtini o‘quvchilar bilan ijodiy ishlashga sarflashi mumkin. Bu o‘qituvchining vaqtini tejaydi va baholashning obyektivligini oshiradi. Hozirgi NLP dasturlari o‘quvchiga shunchaki “xato” deb ko‘rsatmaydi, balki ushbu xato qaysi qoidaga zid ekanligini izohlab beradi.

SIning yana bir muhim afzalliklaridan biri shuki, o‘quvchilarda nutq ko‘nikmalarini shakillantirishga yordam beradi. Bunda o‘quvchilar nutqi nutqni aniqlash texnologiyalari (speech recognition) yordamida o‘quvchilarning talaffuzi tekshiriladi, fonetik xatolar aniqlanadi va tuzatish bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Bu ayniqsa chet tillarini o‘rganuvchi o‘quvchilar uchun juda qo‘l keladi. O‘quvchi jonli muloqotda inson oldida xato qilishdan uyalishi mumkin, ammo virtual SI yordamchisi oldida u qo‘rqmasdan gapiradi, mashq qiladi va o‘z ustida ishlaydi.

Ta’lim jarayonidagi muammolar va ularning yechimi

Ammo, yuqorida keltirilgan imkoniyatlarni darslarda tatbiq qilish uchun bir qancha ishlar amalga oshirilish kerak. Garchi texnologiya mukammal ko‘rinsa-da, inson omilisiz u to‘laqonli ta’lim muhitini yarata olmaydi. Avvalambor, quyidagi masalalarni hal etish zarur:

- O‘qituvchi va o‘quvchilarga sun’iy intellekt inson o‘rnini egallovchi kuch emas, balki yordamchi qurol ekanligi tushuntirilishi;

- Ularda SI bilan ishlash ko‘nikmalarini shakillantirish, texnologik savodxonlikni oshirish;
- Chatbotlarda o‘zbek tili bazasini yanada shakillantirish va haligach mavjud bo‘lgan “o‘” va “g‘” ning talaffuziga doir muammolarni hal etish:
- Akademik halollik masalasi: O‘quvchilar SI yordamida butun boshli insho yoki referatlarni yozdirib kelish ehtimoli mavjud. Bu esa ularda mustaqil va mantiqiy fukrlash qobilyatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli o‘qituvchilar baholash mezonlarini o‘zgartirishi, natijaga emas, jarayonga ko‘proq e’tibor qaratishlari kerak [3,180].

Umuman olganda, yuqoridagi muammolar vaqt masalasi hisoblandi. Bundan 2 yil oldin birorta sun’iy intellekt tarmoqlari tizimidan o‘zbek tilida foydalanish imkoni yo‘q edi. Bugun esa tizimlar o‘zbekcha savollarni bemalol tushunmoqda va mantiqiy javoblar qaytarmoqda.

Zamon jadallik bilan rivojlanayotgan bir paytda faqatgina an’anaviy usullarga tayangan holatda ta’lim berishda davom etadigan bo‘lsak, rivojlangan mamlakatlar bizdan yetib bo‘lmas darajada yuqorilab ketadi. Shuning uchun mamlakatimizda yaratib berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalangan holda zamonaviy texnologiyalarni o‘rganish va hayotga tatbiq etish barchamizni burchimizdir. Kelajakda o‘zbek tilining milliy elektron korpusini yaratish, ta’lim tizimida moslashtirigan o‘zbekcha sun’iy intellekt platformalarini joriy qilish maqsadlarimizdan biriga aylanishi lozim [8,89-94].

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt lingvodidaktika sohasida yangi bosqichni boshlab berdi. U til o‘qitish jarayonini individuallashtirish, interaktivlashtirish va samaradorligini oshirish imkonini bermoqda. O‘quvchi uchun chegara bilmas imkoniyatlar Yaratayotgan bu texnologiyalar butun ta’lim falsafasini o‘zgartirmoqda.

Biroq SI o‘qituvchini to‘liq almashtirmaydi. Chunki ta’lim faqatgina ma’lumot uzatish emas, balki tarbiya, emotsional qo‘llab-quvvatlash va ruhiy bog‘liqlik hamdir. Buni esa hech qanday texnologiya bera olmaydi. Aksincha, u pedagogning innovatsion yordamchisiga aylanadi.

Kelajak lingvodidaktikasi inson tafakkuri va sun’iy intellekt uyg‘unligiga asoslangan ta’lim modelini shakillantirishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Raqamli O‘zbekiston – 2030 Davlat dasturi. – Toshkent, 2020.
2. Abdukarimov S. Til va madaniyat. – Toshkent: Fan, 2018.

3. Bekboyev H. Zamonaviy innformatika texnologiyalari va tillar o‘qitish. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
4. Juravelskiy D.S. Kompyuter lingvistikasi: nazarya va amaliyot. – Moskva: Nauka, 2020.
5. Mirzakulov M. Sun’iy intelekt va ta’lim. – Toshkent: Innovatsion ta’lim, 2022.
6. Rahmonov, X. O‘zbek tili lingvodidaktikasining zamonaviy muammolari. Ilmiy axborotnoma, 2023.
7. Smith J. Artificial intelligence in language learning. – New York: Cambridge university press, 2021.
8. Temirov T. Milliy tilda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2023.
9. World Economic Forum. The future of jobs report 2023. – Geneva: WEGF, 2023.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY JASORATI

Abdulla ULUG‘OV,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili
va adabiyoti universiteti professori,
filologiya fanlari nomzodi
(O‘zbekiston)

Annotatsiya. Maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning tarixiy ahamiyatga molik ko‘p qirrali ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-pedagogik, adabiy-badiiy faoliyati bilan Turkistondagi jadidchilik harakati rahnamosi sifatidagi harakati baholanadi.

Kalit so‘zlar: shaxs, dunyoqarash, millat, drama, til, madaniyat.

Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875 – 1919) o‘zining serqirra va jo‘shqin faoliyati bilan o‘zbek xalqi tarixida jadidchilik harakati rahnamosi, o‘zbek adabiyotiga san’atning eng ommabop turi – dramani olib kirgan ijodkor sifatida o‘chmas iz qoldirgan. Alloma “Padarkush” dramasida Turkistondagi ayanchli ahvol bilan bog‘liq qayg‘usini ifodalab, odamlarning dunyoqarashi va madaniyati darajasi, ilm-ma’rifat hamda dinga munosabati mamlakatning ijtimoiy manzarasini belgilab berishini barchaga tushunarli tarzda sodda qilib ko‘rsatib bergan. U davrning dolzarb ijtimoiy-siyosiy muammolariga insonparvarlik, millatsevarlik hissiga to‘lib kuyinchaklik bilan munosabat bildirilgan o‘tkir publitsistik maqolalarida ham zamondoshlarining dilidagi iztiroblarini ifodalab, ularning yuragiga cho‘g‘ solgan, teran tahlilga asoslangan fikr-mulohazalari bilan Turkiston o‘lkasida ijtimoiy tafakkurni yuksaltirishda jasorat ko‘rsatgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshi jahon tarixida o‘ziga xos alohida bir davr sifatida ajralib turadi. Chunki bu yillarda dunyodagi barcha xalqlar hayotida juda muhim voqealar yuz bergan. O‘tgan zamonlar bag‘rida o‘sib etilib chiqqan ayni voqealar xalqlarning keyingi davrdagi ijtimoiy, madaniy hayotiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875 – 1919) dunyoda ana shunday juda keskin ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar kechgan murakkab davrda yashagan. Uning hayoti va faoliyati tarix taqozosi bilan ro‘y bergan ziddiyatli voqelar bilan chambarchas bog‘liq holda kechgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning safdoshlari o‘zidan avvalgi davr kishilari tarjimai holi bilan qiyoslanganida ham, zamondoshlari hayoti bilan taqqoslanganida ham, har jihatdan jur’ati tez hozirgi globallashgan XXI asr mezonlari asosida yondashilganida ham g‘oyat jo‘shqin va serqirra faoliyat ko‘rsatgan. Qur’oni karimni yod olgan, fiqh, shariat ilmlarini chuqur egallagan, zamonasining eng kuchli muftiysi sifatida tan olingan Mahmudxo‘ja Behbudiy davrning ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlari jarayonini sergaklik bilan kuzatib borib, maktab-maorif, ta’lim-tarbiya tizimida zamon talablariga mos jiddiy islohotlarni amalga oshirgan, o‘zbek xalqi hayotiga adabiyotning eng ommabop turi hisoblangan drama janrini olib kirgan, milliy madaniyatda zamonaviy teatr ravnaq topishi uchun mustahkam poydevor yaratgan, publitsistikaning mavzu doirasi kengaytirib, uning ijtimoiy turmushga ta’siri kuchayishiga salmoqli hissa qo‘shgan.

Manbalarda ulug‘ allomaning serqirra, jo‘shqin faoliyati, jumladan, quyidagi tarzda qayd etilgan: “Mahmudxo‘ja Behbudiy 1903-yilda Samarqandning Jomboy tumaniga qarashli Rajabamin qishlog‘ida “usuli savtiya” maktabini ochgan. Bu maktab Abduqodir Shakuriy xonadonida tashkil etilgan. Maktab o‘quvchilarining katta qismi shahardan bo‘lganligi va ularning Rajabamin qishlog‘iga qatnashi qiyinligi sababli, keyinchalik Mahmudxo‘ja Behbudiy bu maktabni o‘zining hovlisiga ko‘chirgan. Shu davrda u maktab o‘quvchilari uchun bor qancha darsliklar yaratgan. 1904-yilda “Risolayi asbobi savod” (“Savod chiqarish kitobi”), 1905yilda “Risolayi jug‘rofiyayi umroniy” (“Aholi geografiyasiga kirish”), 1906 yilda “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy” (“Qisqacha umumiy geografiya”), 1908 yilda “Kitobatul atfol” (“Bolalar xati”), 1908 yilda “Amaliyoti islom”, 1909 yilda “Tarixi islom” kitoblarini nashr ettirgan. “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy”ning to‘liq nomi “Kitobi muntaxabi jug‘rofiyai umumiy va namunai jug‘rofiya” bo‘lib, uni chop etish uchun 1905 yilning 24-avgustida Sankt-Peterburg tsenzurasidan ruxsat olinib, 1906-yili Samarqanddagi G. I. Demurov matbaasida bosilgan. Sahifalari soni 106 ta. Muallif ushbu “qadim fan”ni unga tegishli “turkiy, forsiy, arabiy, rusiy lug‘atlarga tasnif bo‘lgan o‘ttuz qadar qadim va jadid qutub va rasoili jug‘rofiya, tarixiy, hay’ati riyoziy, tabiiy”lardan va yana juda ko‘p turli xildagi manbalardan foydalangan holda yozganini qayd etgan” (https://behbudiy.uz/faoliyati).

Alloma “Padarkush” dramasida Evropa adabiyotiga xos adabiy usuldan o‘ziga xos tarzda foydalanib, mustamlaka kishanida azoblanib yotgan Turkiston ahlining ayanchli ahvoli-ruhiyasini bir xonadonning kundalik maishiy turmushi misolida yorqin ko‘rsatib bergan. Muallifning chinakam vatanparvarligi, ilm-ma’rifatdan bebahraligi oqibatida ma’naviy majruh bo‘lib qolgan yurtdoshlarining ayanchli ahvoliga chin dildan achinishi, yoshlarga samimiy g‘amxo‘rligi, millat kelajagini o‘ylab qayg‘urishi, islom dini mohiyatini teran anglashi jahon dramaturgiyasi namunalari, o‘zbek adabiyoti mashhur sahna asarlariga qaraganda ancha sodda va oddiy ekanligi o‘z-o‘zidan ayon ko‘rinib turgan “Padarkush” dramasiga o‘ziga xos joziba, bo‘lakcha ta’sirchanlik baxsh etgan.

Albatta, “Padarkush”da personajlarning ichki dunyosiga kirmasdan, ularning holati, kayfiyatidagi tashqi alomatlarni ko‘rsatish bilan cheklanib qolingani zamonamiz odamlarini to‘la qanoatlantirmaydi. Muallifning millat dardida yongan qalbidagi qayg‘usi aks etgan mazkur drama dunyoqarashi o‘tgan bir asrdan ko‘proq vaqt ichida tamoman o‘zgargan, didi, saviyasi globallashgan XXI asr va kelgusi zamonlarning san’ati va adabiyotidagi yangidan-yangi yutuqlar ta’sirida o‘sib yuksalgan kishilarning estetik talablariga etarlicha javob bermaydi. Lekin “Padarkush” o‘zbek adabiyotiga yangi adabiy turni olib kirgan, undagi drama janrini boshlab bergan, muallifiga mislsiz shon-shuhrat keltirgan, o‘zbek teatr san’ati rivojiga samarali ta’sir ko‘rsatgan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning Turkiston o‘lkasidagi ayanchli ahvol bilan bog‘liq iztirobi, qayg‘usi ifodalangan o‘ziga xos ajoyib asardir. Undagi sodda kompozitsiya, voqealarning hayotiyligi, qahramonlar o‘rtasidagi muomala-munosabatlar kundalik maishiy turmushga muvofiq kelishi, personajlarning keskin ziddiyatga asoslangan dialog va monologi, asardagi fojeiy yakun voqealar mantiqiga to‘la muvofiq kelishi o‘quvchini, tomoshabinni befarq qoldirmaydi.

Insoniyat hayoti hamisha g‘oyat murakkab va sir-sinoatga to‘la jumboqdir. U o‘z tarixida juda ko‘p voqea-hodisalar bilan bog‘liq holda, kishilarning ong-tafakkuri, dunyoqarashi, yashash tarziga ta’sir ko‘rsatadigan ulug‘ siymolarni ham maydonga chiqaradi. Ular vatan tarixida, xalq, millat hayotida keskin ijtimoiy-siyosiy burilish ro‘y bergan serg‘alva davrda dunyoga keladi va o‘zining noyob iste’dodi, ko‘p qirrali jo‘shqin faoliyati, jasurligi, fidoyiligi bilan barcha zamondoshlaridan alohida ajralib turadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875 – 1919), Abdurauf Fitrat (1886 – 1938), Hamza (1889 – 1929), Abdulla Qodiriy (1894 – 1938), Cho‘lpon (1897 – 1938) va ularning safdoshlari o‘zbek xalqi tarixidagi ana shunday ulug‘ siymolar sirasiga kiradi. Ularning nomi o‘zbek xalqi tarixi sahifalariga mangu muhrlangan bo‘lib, bu ulug‘ zotlarning serqirra, jo‘shqin faoliyati, el-yurt manfaati uchun fidoyiligi, bu yo‘lda ko‘rsatgan jasorati XX asr voqeligiga alohida ulug‘vorlik, keyingi zamonlar manzarasiga esa bo‘lakcha ziynat bag‘ishlab ko‘rinadi.

Turkistondagi jadidchilik harakatining ulug‘ namoyandalari sifatida e’tirof etiladigan bu buyuk siymolarning murakkab zamonda, tahlikali davrda, ayovsiz kurashlar ichida kechgan jo‘shqin hayoti, serqirra ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, adabiy-badiiy faoliyati hurriyatni, ozodlikni ardoqlaydigan, inson haq-huquqlarini qadrlaydigan barcha erksevar xalqlar uchun ibrat namunasiga aylangan. Ularning asarlarida har bir odam ilm-ma’rifatni o‘rganish orqali o‘zligini taniydi, hayot ne’mati unga nima uchun berilganini idrok etadi, xalqlar ham ilm-ma’rifatni egallaganidagina millat maqomiga erishib, dunyoda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonga teng huquqli a’zo sifatida faol aralashadi, aks holda, barcha zamonda maydonga chiqib turadigan mustabid zo‘ravonlarga oyoq osti bo‘lib qoladi, degan g‘oya ilgari suriladi. Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush”, Abdurauf Fitratning “Munozara”sida aynan mana shu fikr asarning g‘oyaviy kontseptsiyasini belgilab beradi. Ijtimoiy-siyosiy inqirozga uchragan Turkiston o‘lkasi kundalik maishiy turmushidagi voqealarga asoslangan, ma’nan-ruhan holdan toygan mahalliy aholi ahvoliga chuqur achinish hissi bilan iztirobga to‘lib bitilgan, nomlanishining o‘ziyoq fojeiylikni ayon etadigan “Padarkush” dramasida ilm-ma’rifatga bepisandlik bilan qarash halqning, millatning fojiasi sifatida kishilarni johil etib, ota-onasi, aka-ukasi, opa-singlisi – barcha yaqinlarining qotiliga aylantirib qo‘yishi Turkiston kishilari turmushidan olingan hayotiy voqea asosida gavdalantiriladi. Asarda johillik kishilar turmushidagi barcha mojarolar, urish-janjallar, nizo, kelishmovchilik, xunrezliklarning asos manbasi ekani, chunki bu illat insonning tabiatidagi xudbinlik, manfaatparastlik hissini olovlantirib yuborishi, shu tufayli odam jahli, g‘azabini jilovlashga ojiz bo‘lib qolishi va oqibatda, u tuzatib bo‘lmaydigan ayanchli, xunuk xatolarni qilib qo‘yishi aks ettiriladi. Nafaqat muallifning, balki o‘sha davr ilg‘or fikrli ziyolilarining tili va dilidagi alam, iztirob, qayg‘uni ifodalagan, g‘oyaviy yuksakligi, keng xalq ommasiga engil tushunarli sodda uslubda bitilgani bilan o‘sha davr adabiyotida alohida ajralib turadigan “Padarkush” mana shu haqiqatni gavdalantirgani bois avvalgi davr adabiyoti namunalaridan bir bahya balandda turadi. U o‘tmish adabiyoti manzarasini belgilagan g‘azal, ruboiy, tuyuqlar bilan qiyoslanganida Mahmudxo‘ja Behbudiyning asari turmush voqeligiga yaqinligi, mazmun jihatidan teran va salmoqli ekani yaqqol bilinadi. Ilk jumlalaridanoq so‘zlashuv tiliga xos sodda tilda bitilgani aniq ayon “Padarkush”ning o‘ziga xos eng muhim qimmati u ilm-ma’rifatdan bebahralik insonni ma’naviy majruh etib, haqiqatni ko‘rolmaydigan ayanchli ahvolga solib qo‘yishini haqqoniy ko‘rsatib bergani bilan belgilanadi. Muallif bir xonadon misolida butun bir millat turmushidagi, mustamlakachilar iskanjasida qolib, o‘zligini yo‘qotgan xalqlar hayotidagi fojeiy manzarani chinakam jasorat bilan ko‘rsatadi. Boyning xonadoni ilm-ma’rifatning qadrini anglamasligidan jaholat botqog‘iga botgan millatning jajji modeli bo‘lib ko‘rinadi. Negaki unda boyning timsolida, uning o‘g‘li Toshmurodning misolida

ilm olishga intilmaslikning ayanchli oqibati, ta’lim-tarbiya ishiga panja orasidan qarashning g‘ayriinsoniy mohiyati to‘la-to‘kis ochib beriladi. Markaziy Osiyo mintaqasi tarixida ulug‘ davlat rahbari va siyosiy arbob sifatida o‘chmas iz qoldirgan Fayzulla Xo‘jaev (1896 – 1938): “Siyosiy, ijtimoiy faoliyati va bilimining kengligi jihatidan Turkistonning o‘sha vaqtdagi jadidlaridan unga teng keladigan yo‘q” deb e’tirof qilgan Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z g‘oyasini ifodalash uchun milliy turmush voqeligini asos qilib oladi (Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 1997. – 232 b. – 5-bet).

Manbalarda, Mahmudxo‘ja Behbudiyning jo‘shqin, serqirra faoliyati xususida, jumladan, quyidagi ma’lumotlar qayd etiladi: “1907 yil 23 avgustda Nijniy Novgorodda Rusiya musulmonlarining madaniyat va turmush muammolariga bag‘ishlangan qurultoyi chaqirilgan. Qurultoyda Mahmudxo‘ja Behbudiy turkistonliklar guruhini boshqargan va nutq so‘zlagan. Shu yili Mahmudxo‘ja Behbudiy Rossiya 3-Davlat Dumasining Musulmon fraktsiyasiga “Turkiston madaniy muxtoriyati” loyihasini ko‘rib chiqish uchun jo‘natgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy mazkur loyihada Davlat dumasiga Turkiston musulmon aholisining nufuziga mos vakillar saylanishi, diniy idoraviy ishlarda erkinlikni, Turkistondagi mahalliydan tortib har qanday darajadagi boshqaruvda mahalliy xalq vakillari ishtirok etishini ta’minlash, turkistonlik xalqlar uchun majburiy hamda bepul umumta’limni joriy qilish, mahalliy aholi roziligisiz Turkistonga Rusiyaning turli hududlaridan aholi ko‘chirilishini to‘xtatish, rus istilosi natijasida tortib olingan vaqf mulklarini qaytarish singari qat’iy talablarni millat fidoyisi sifatida chinakam jasorat bilan ilgari surgan. U loyihada yozilgan ism-sharifi hamda mansabi ostiga o‘z muhrini ham bosgan. Biroq uning bu loyihasi 3-Davlat Dumasi tomonidan e’tiborsiz qoldirilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1913 yildan boshlab, matbuot ishlari bilan shug‘ullangan. Shu yilning aprelida “Samarqand” gazetasiga asos solgan. Gazeta haftada ikki marta o‘zbek va tojik tillarida chop etilgan. Dastlab ikki sahifada bo‘lgan gazeta 3-8-sonlarida sahifalari soni to‘rttaga etkazilgan. 400-600 nusxada chop etilgan. 45-soni chiqqach, chor hukumatining tazyiqi hamda moddiy qiyinchiliklar tufayli nashr to‘xtagan. Shu yilning 20 avgustidan “Oyna” jurnalini chiqara boshlagan. Haftalik nashrdan chiqqan bu jurnal, asosan, o‘zbekcha bo‘lib, unda maqola (forscha), she’r, e’lonlar (ruscha) ham berib borilgan. Sahifalarida rasmlardan foydalanilgan. Jurnal Tatariston, Eron, Kavkaz, Afg‘oniston, Turkiya, Hindistongacha tarqalgan. “Oyna” jurnalining sohasi keng qamrovli bo‘lib, unda millatning tarixi, haq-huquqi, adabiyot hamda til masalalari, jahondagi ahvol to‘g‘risida maqola va munozaralar berib borilgan. Jurnal faoliyati 20 oy davom etgan. Shu davr mobaynida jurnalning 68ta soni nashr etilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy kitob nashrini ham yo‘lga qo‘ygan. A. V. Pyaskovskiy 1913-yili Mahmudxo‘ja Behbudiy bosmaxonasida Abdurauf Fitratning “Bayonoti

sayyohi hindi” asarini rus tiliga tarjima qilib, nashr etgan. Nashriyotda turli darslik hamda qo‘llanmalardan tashqari, “Turkiston, Buxoro va Xivaning xaritasi”ni bosib chiqargan. 1917-yili alloma safdoshlari: Fitrat, Ayniy, Ajziy, Muhammadquli O‘rinboev, A. Shomansur bilan birgalikda “Hurriyat” ro‘znomasini, “Zarafshon” shirkatini hamda “Nashri maorif”ni tashkil etgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1917 yilning 16 – 23 aprelida Toshkentda bo‘lib o‘tgan Turkiston musulmonlarining 150 nafar vakili qatnashgan qurultoyda ishtirok etib, nutq so‘zlagan. Nutqida musulmonlar orasidagi har qanday ixtiloflarga qarshi chiqqan. Ulug‘ maqsad yo‘lida birlashishga chorlagan. Shunday kelishmovchiliklar tufayli “mustamlakot qoidasi ila bizni idora eturlar” deb ochiq so‘zlagan. Amir boshchiligida Buxoro amirligida islohotlar o‘tkazish talabi to‘g‘risida 1917 yilning 17 martida qabul qilingan manifestning mualliflaridan biri bo‘lgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy shu qurultoyda o‘lka musulmonlar sho‘rosining raisi etib saylangan.

1917 yil 26 noyabrda Mahmudxo‘ja Behbudiy Qo‘qonda ish boshlagan o‘lka musulmonlarining 4-favqulodda qurultoyida qatnashgan. 27-noyabrga o‘tar kechasi “Turkiston muxtoriyati” e’lon qilingan. Mahmudxo‘ja Behbudiy uning g‘oyaviy rahbarlaridan biri bo‘lgan. Muxtoriyat sho‘rolar tomonidan vahshiyona tarzda tugatilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy may oyining boshlarida Samarqandga qaytgan. U erda ko‘p tura olmasdan Toshkentga kelgan.

Bu davrda jadidlar va milliy ziyolilar oldida uchta: birinchisi – xorijiy davlatga chiqib ketish, ikkinchisi – qo‘liga qurol olib o‘z fikr va g‘oyalarini himoya etish, uchinchisi – yangi tuzilgan hukumat bilan murosa qilib, xalq manfaati yo‘lida xizmat qilish turgan. Turkiston jadidlarining etakchisi bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiy xalq orasida katta obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan. Yangi tuzilgan hukumat ham buni yaxshi bilgan. Shu sababdan, alloma yangi hukumat tarkibida milliy masalalar bo‘yicha komissariat organlarida ishlashga rozi bo‘lib, komissariatning turkiy millat masalalari bo‘limini boshqarish vazifasida faoliyat yuritgan. Hujjatni mutafakkir Toshxo‘ja Ashurxo‘ja imzolagan. Mahmudxo‘ja Behbudiyning oylik maoshi 700 rubl etib belgilangan. Komissar o‘rinbosari sifatida Mahmudxo‘ja Behbudiy hududdagi ma’naviy hamda ma’rifiy ishlarga mas’ul bo‘lgan. Shu davrda uning tashabbusi bilan “Ishtirokiyun” (“Kommunist”) gazetasi nashr qilingan. Mahmudxo‘ja Behbudiy nashr bosh muharriri vazifasiga Orif Klivlievni tayinlagan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1918-yillari siyosatda faol bo‘lgan. Arxiv hujjatlaridan olingan ma’lumotlarga qaraganda, u 1918-yilning yozida Toshkentga borib, Turkiston hukumati Qurultoyida qatnashgan. Shuningdek, ocharchilikka barham berish va oziq-ovqat muammosini bartaraf qilishga oid maqolalar e’lon qilgan. Partiya va ijro organlarining mutasaddi rahbarlari bilan uchrashgan.

Kuz oylariga kelib, Bebudiy sovetlar va kommunistlar olib borayotgan siyosat mafkurasi noto‘g‘ri yo‘nalishda ketayotganligini anglab etgan. U mustamlakachilik siyosati mazlum xalqlarni o‘zining ayovsiz iskanjasiga olgan bir sharoitda jasorat ko‘rsatib, haqiqat va adolat talab qilib, bu mafkura mahalliy xalqlar uchun zararlidir, deb maydonga chiqqan. Natijada, 1918 yilning oktyabr noyabr oylariga kelib vazifasidan ketishga qaror qilgan. Hujjatlarda ko‘rsatilishicha, Mahmudxo‘ja Mahmudxo‘ja Behbudiy raislik qilgan sektor Turkiston komissarlar soveti raisi Malkovning imzosi bilan tarqatib yuborilgan. 1918 yilning 5 noyabridan boshlab sektor a’zolariga taqdim qilingan tashviqot va targ‘ibot olib borish huquqini beruvchi hujjatlar bekor qilingan. Mahmudxo‘ja Behbudiy ham tashkilotni tark etgan.

Ilmiy tadqiqotchilar fikricha Mahmudxo‘ja Behbudiy shundan keyin haj safariga otlangan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy ijodiy faoliyati davomida ikki pesa yozgan. Biri nashr etilmagan. 1911 yili birinchi o‘zbek dramasi “Padarkush yoxud o‘qimagan bolaning holi” asarini yozgan. Muallif asar sarlavhasidan so‘ng qavs ichida janr va mavzusini “Turkiston maishatidan olingan ibratnoma” deb ko‘rsatgan. 3 parda 4 manzarali, mazmunan sodda asarda o‘qimagan, nodon va johil bolaning o‘z otasini o‘ldirgani haqida bayon etilgan. Asarning ilk qismlari Buxoroda chiqayotgan “Turon” gazetasining 1913 yil 1- va 3-yanvar sonlarida bosilgan. Biroq gazeta yopilishi natijasida so‘nggi qismlari nashr etilmagan. “Padarkush” asari Samarqand harbiy gubernatori, general-mayor Ilya Oleshilidzening ko‘magi va “matbuot ishlari Tiflis qo‘mitasi”ning 1913 yil 23 iyul sanadagi ruxsati bilan Samarqanddagi Gazarov va Siyanov matbaasida bosilib chiqqan. Kitob muqovasiga “Borodino jangi va Rusiya frantsuzlar bosqinidan xalos bo‘lishining yubileyiga bag‘ishlanadi” degan yozuv qayd etilgan. Pesa sahnaga chiqishi uchun yana bir yilcha vaqt ketgan. Asar 1914 yilning 15 yanvarida Samarqandda ozarbayjonlik rejissyor Ali Asqarov tomonidan “Qiroatxonai islomiya” (“Islom qiroatxonasi”) kutubxonasi zalida namoyish qilingan. “Padarkush” 1914 yil 27 fevralda Abdulla Avloniy(1878 – 1934) boshchiligida Toshkentda “Turon” teatr truppasi tomonidan Kolizey maydonida qaytadan sahnalashtirilgan.

Toshkentdagi namoyish oldidan Munavvarqori Abdurashidxonov (1878 – 1931) teatrning jamiyat oldidagi o‘rni va roli haqida nutq so‘zlagan. Boy rolini Abdulla Avloniyning o‘zi ijro etgan. “Turon” teatr truppasi 1914 – 1916 yillarda “Padarkush” spektaklini butun Farg‘ona vodiysida namoyish etgan.

Drama 7-mayda ikkinchi marta sahnaga taqdim etilgan. “Oyna” jurnalida yozilishicha, ikkinchi namoyishda chiptalar sotuvidan 384 so‘m 50 tiyin mablag‘ tushgan. Ushbu pulning 184 so‘m 50 tiyini spektaklning xarajatiga sarflangan. Ortgan 200 so‘mdan 110 so‘m qismi maktab islohi uchun, 15 so‘mi Buxoriy qishlog‘ida joylashgan mulla Jo‘raboy ochgan maktabga, 35 so‘mi Jomboy

tumanidagi Bozoramin Hodixo‘ja tashkil qilgan va muallim mulla Komil idorasidagi maktabga, 35 so‘mi Abduqodir Shakuriy maktabiga, qolgan 15 so‘mi esa “gorodskoy uchilishche”da o‘qitilayotgan musulmon bolalarga bo‘lib berilgan.

“Padarkush” spektakli Mahmudxo‘ja Behbudiyning roziligi bilan 1914 yil 5 martda Buxoroning “Turkiston” saroyida Husayn Najib rahbarligida tatar san’atkorlari tomonidan ham sahnaga qo‘yilgan.

“Inqilob” jurnalining 1922 yilda nashrdan chiqqan sonlarining birida V. A. Pyaskovskiy “O‘zbek teatri tarixi” nomli maqola e’lon qilgan. U mazkur maqolasida teatrning vujudga kelishi haqida fikr yuritib, “O‘zbek teatrining asosini qo‘yib beruvchi samarqandlik Mahmudxo‘ja Mahmudxo‘ja Behbudiydir” deb ta’kidlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘ulom G‘. O‘n tomlik. 8-tom: Adabiy-tanqidiy maqolalar, ocherklar, portretlar. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1976. – 504 b.
2. Qodiriy A. Diyori bakr: She’rlar, hikoyalar, sahna asarlari, hangoma, fel’eton va maqolalar. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2007. – 472 b.
3. Qodiriy A. Kichik asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1969. – 216 b.
4. Qodiriy A. O‘tkan kunlar: Tarixiy roman. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1974. – 400 b.
5. Majid G‘. Yo‘ldaman, nurli yo‘lda: esselar. – Toshkent: “SAHHOF”, 2022. – 416 b.
6. Mahmud V. Tanlangan asarlar. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2007. – 160 b.

ESMETHANIM MAMMADOVANIN BİLİMSEL MİRASI FONUNDA TÜRK HALKLARI EDEBİYYATINDA KADIN YARADICLIĞI: TARİH, KİMLİK VE DİJİTAL DÖNÜŞÜM

Doç. Dr. Hatıra Yusifova

Azerbaycan Milli Bilimler Akademisi Yazmalar Enstitüsü;
Eğitim Şubesi Başkanı
Hazar Üniversitesi
Azerbaycan; Bakü
yusifova.xatira@mail.ru
+994503996030

Özet

Makalede Türk halkları edebiyatında kadın yaratıcılığının oluşum dinamikleri ve bilimsel-teorik gelişim yönleri, Esmethanım Mammadovanın çok yönlü bilimsel

faaliyetleri bağlamında bütüncül şekilde analiz edilmektedir. Kadın yaratıcılığı burada yalnızca edebî-estetik bir olgu olarak değil, aynı zamanda dil, kültür ve bilimsel düşünce sistemlerinin oluşumuna etki eden sosyo-entellektüel bir fenomen olarak değerlendirilmektedir. Makalede Mammadovanın bilimsel mirası, kadın bilim insanlarının beşerî bilimlerin gelişimindeki rolünü belirleyen teorik-metodolojik bir temel olarak sunulmaktadır. Onun dilbilim, edebiyat bilimi ve pedagojik faaliyetleri; deneysel dilbilim ve kültürel kimlik araştırmalarıyla bağlantılı biçimde incelenmektedir. Aynı zamanda kadın yaratıcılığının dijital beşerî bilimler bağlamında dönüşümü de araştırmanın temel yönlerinden biridir.

Anahtar kelimeler: kadın yaratıcılığı; Esmethanım Mammadova; dilbilim; Farsça; deneysel fonetik; kültürel bellek; millî kimlik; dijital beşerî bilimler; edebiyat bilimi. Əsmədxanım Məmmədovanın elmi irsi fonunda türk xalqları ədəbiyyatında qadın yaradıcılığı: tarix, identitet və rəqəmsal transformasiya

Xülasə.Məqalədə türk xalqları ədəbiyyatında qadın yaradıcılığının formalaşma dinamikası və elmi-nəzəri inkişaf istiqamətləri Əsmədxanım Məmmədovanın çoxşaxəli elmi fəaliyyəti fonunda kompleks şəkildə təhlil olunur. Qadın yaradıcılığı burada yalnız ədəbi-estetik hadisə kimi deyil, həm də dil, mədəniyyət və elmi düşüncə sistemlərinin formalaşmasına təsir edən sosial-intellektual fenomen kimi qiymətləndirilir. Məqalədə Məmmədovanın elmi irsi qadın alimlərin humanitar elmlərin inkişafında rolunun nəzəri-metodoloji əsaslarını müəyyənləşdirən baza kimi təqdim edilir.

Onun dilçilik, ədəbiyyatşünaslıq və pedaqoji fəaliyyəti eksperimental dilçilik və mədəni identitet araşdırmaları ilə əlaqəli şəkildə təhlil olunur. Eyni zamanda, qadın yaradıcılığının rəqəmsal humanitar elmlər kontekstində transformasiyası məsələsi də araşdırmanın əsas istiqamətlərindən biridir.

Açar sözlər: qadın yaradıcılığı; Əsmədxanım Məmmədova; dilçilik; fars dili; eksperimental fonetika; mədəni yaddaş; milli identitet; rəqəmsal humanitar elmlər; ədəbiyyatşünaslıq.

Giriş

Türk halkları edebiyatında kadın yaratıcılığı, yalnızca edebî-estetik sürecin bir bileşeni değil, aynı zamanda sosyal-kültürel ve bilimsel-entellektüel sistemlerin oluşumunda önemli rol oynayan karmaşık bir fenomendir. Bu yaratıcı model, farklı

tarihsel dönemlerde kadın yazarlar ve bilim insanları tarafından oluşturulan söylemlerle zenginleşmiştir. Bu bağlamda Esmedhanım Mammadovanın bilimsel faaliyetleri özel bir önem taşımaktadır. Onun mirası, kadın yaratıcılığının akademik düzeyde incelenmesi için teorik-metodolojik bir temel işlevi görmektedir. Mammadova kadın yaratıcılığını yalnızca estetik bir süreç değil, aynı zamanda sosyal bilgi üretiminin bir biçimi olarak yorumlamaktadır.

O şöyle belirtmektedir:
"Kadın yazarların yaratıcılığı, kültürel söylemin oluşumunda ve sosyal belleğin yapılandırılmasında aktif rol oynar" (Məmmədova, 2010, s. 49).

Dilbilim ve Deneysel Fonetik Yönü

Esmethanım Mammadovanın bilimsel faaliyetinin temel yönlerinden biri deneysel dilbilimdir. Araştırmaları farsçanın fonetik sistemi, vurgu yapısı ve prosodik mekanizmalarının analizine yöneliktir.

O, fonetiği statik değil, dinamik bir akustik sistem olarak yorumlar. Özellikle vurgu ve tonlama sistemleri anlam yapısının temel öğeleri olarak ele alınır.

Mammdova vurgular:
"Vurgu, dilin ritmik yapısını belirleyen temel bileşenlerden biridir" (Məmmədova, 2007, s. 18).

Yaklaşımı, ses dalgalarının akustik parametreleri ve fonetik değişimlerin analizine dayanmaktadır.

Farsça Üzerine Sistemli Araştırmalar

Mammadovanın "Fars Dilinin Yazım Sistemi" (2000) adlı eseri normatif ve tarihî dilbilim açısından önemli bir kaynaktır. Burada yazı sistemi yalnız teknik bir yapı değil, kültürel-semiotik bir sistem olarak açıklanmaktadır. O, yazımı dilin "görünür yapısı" olarak değerlendirir ve onu kültürel kimliğin koruyucusu olarak görür.

Leksik-Semantik ve Konuşma Dili Araştırmaları

"Fıkralar, mizahi hikâyeler ve bilmeceler" (2005) adlı eser, konuşma dili ve leksik-semantik analiz açısından önemli bir kaynaktır. Yazar, kelimelerin

bağlamsal ve pragmatik işlevlerini inceleyerek dilin toplumsal iletişim boyutunu ön plana çıkarır.

Pedagojik Faaliyet ve Metodoloji

Mammadovanın pedagojik yaklaşımı öğrenci merkezli ve interaktif eğitim modeline dayanır. Problem temelli öğrenme ve diyalog yöntemlerini kullanmıştır. Bu modelde öğrenci bilgi alan değil, bilgi üreten bir özne olarak kabul edilir.

Bilimsel ve Kurumsal Faaliyet

Mammadova Bakü Devlet Üniversitesi ve Azerbaycan Bilimler Akademisi Şarkiyat Enstitüsü'nde çalışmıştır.

O şöyle belirtir:
"Bilimsel faaliyet yalnızca bireysel araştırma değil, kurumsal iş birliği de gerektirir" (Məmmədova, 2012).

Uluslararası Bilimsel Entegrasyon

Mammadova Türkiye, İran ve Rusya'daki bilimsel konferanslara katılmıştır. Bu faaliyet Azerbaycan şarkiyatının uluslararası bilim dünyasına entegrasyonunu güçlendirmiştir.

Sosyal ve Toplumsal Faaliyet

Mammadova Azerbaycan Millî Meclisi milletvekili olarak da görev yapmıştır. Sosyal politikada bilimsel yaklaşımı savunmuştur. Bu faaliyet "bilim insanı-aydın-toplum lideri" modelini temsil eder.

Millî Kimlik ve Kültürel Bellek

Ona göre millî kimlik dinamik bir söylemdir. Kadın yaratıcılığı kültürel b lleğin yapılandırıcı unsurudur.

O şöyle der:
"Kadın yazarların eserleri, millî kimliğin söylemsel inşasının önemli araçlarıdır" (Məmmədova, 2010, s. 49).

Dijital Beşerî Bilimler Bağlamında Genişleme

Mammadovanın mirası dijital beşerî bilimler çerçevesinde yeniden yorumlanabilir. Korpus dilbilimi ve dijital analiz yöntemleri yeni araştırma mkânları sunmaktadır.

Genel Değerlendirme

Onun bilimsel mirası Azerbaycan beşerî bilimlerinin gelişiminde önemli bir aşamadır. Klasik ve modern yöntemlerin sentezine dayanır.

Sonuç

Esmetxanım Mammadovanın bilimsel faaliyetleri Türk halkları edebiyatında kadın yaratıcılığının gelişimine disiplinlerarası katkı sağlamaktadır.

Ədəbiyyat siyahısı:

1. Əliyev, R. (2022). *Azərbaycan qadın ədəbiyyatında tədqiqatların statistik analizi*. Elm.

2. Məmmədova, Ə. (2000). *Fars dilinin orfoqrafiyası*. Universitet nəşriyyatı.

3. Məmmədova, Ə. (2003). *Azərbaycan qadın yazıçılarının tarixi və mədəni irsi: müqayisəli təhlil*. Elm.

4. Məmmədova, Ə. (2005). *Lətifələr, yumoristik hekayələr və tapmacalar*. Universitet nəşriyyatı.

5. Məmmədova, Ə. (2007). *Fars dilində vurğu*. Elm nəşriyyatı.

6. Məmmədova, Ə. (2010). Azərbaycan qadın yazıçılarının mədəni identitet analizi. *Elm və Təhsil Jurnalı*, 7(2), 45-60.

7. Məmmədova, Ə. (2012). *Azərbaycan qadın yazıçılarının mədəni irsi*. Elm.

8.Məmmədova, Ə. (2018). *Türk xalqları ədəbiyyatı və qadın yaradıcılığı*. Elm.

9. Məmmədova, Ə. (2023). *Rəqəmsal arxivlərdə qadın yazıçılarının əsərlərinin analizi*. Elm və Texnologiya Nəşriyyatı.

10. Rəhimov, S. (2018). Azərbaycan qadın yazıçılarının irsi və tədris modulları. *Təhsil və Mədəniyyət Araşdırmaları Jurnalı*, 12(3), 45-62.

TÜRK HALK KÜLTÜRÜNDE KADININ RİTÜEL TAŞIYICILIĞI: İNANÇ, GELENEK VE SÜREKLİLİK

Doç. Dr. Meleyke Memmedova

Azerbaycan Milli İlimler Akademisi Folklor Enstitüsü

meleykememmed1@gmail.com

ORCID: 0000-0001-7714-4668

Özet

Türk halk kültüründe ritüeller, toplumsal hafızanın korunması ve kuşaklar arasında aktarılmasında temel bir işlev üstlenmektedir. Bu ritüel yapılar içinde kadın, yalnızca uygulayıcı değil, aynı zamanda kültürel bilginin taşıyıcısı ve aktarıcısı olarak merkezi bir konumda yer almaktadır. Özellikle doğum, evlilik, ölüm ve korunma pratikleri gibi geçiş dönemlerinde kadınların üstlendiği roller, geleneksel bilgi sisteminin sürekliliğini sağlamada belirleyici olmaktadır. Bu çalışma, Türk halk kültüründe kadının ritüel taşıyıcılığı rolünü çok boyutlu bir çerçevede ele almayı amaçlamaktadır. Bu bağlamda kadının inanç sistemleri içerisindeki yeri, ritüel pratiklerdeki işlevi ve kültürel sürekliliğe katkısı incelenmiştir. Araştırmada karşılaştırmalı folklor yöntemi kullanılmış; Azerbaycan ve Anadolu sahasına ait örnekler üzerinden analizler gerçekleştirilmiştir. Elde edilen bulgular, kadınların yalnızca ritüelleri icra eden bireyler olmadığını, aynı zamanda bu ritüellerin anlam dünyasını koruyan ve yeniden üreten temel aktörler olduğunu göstermektedir. Sonuç olarak, kadınların ritüel pratikler aracılığıyla kültürel belleğin canlı tutulmasında ve geleneksel değerlerin nesilden nesile aktarılmasında vazgeçilmez bir rol üstlendiği tespit edilmiştir.

Anahtar Kelimeler: Kadın, ritüel, halk kültürü, gelenek, inanç.

THE ROLE OF WOMEN AS RİTUAL BEARERS İN TURKİSH FOLK CULTURE: BELİEF, TRADİTİON, AND CONTİNUİTY

Assoc. Prof. Dr.Maleyka Mammadova

Institute of Folklore, Azerbaijan National Academy of Sciences

meleykememmed1@gmail.com

ORCID: 0000-0001-7714-4668

Rituals in Turkish folk culture play a fundamental role in the preservation of social memory and its transmission across generations. Within this ritual framework, women occupy a central position not only as practitioners but also as carriers and transmitters of cultural knowledge. Particularly in transitional periods

such as birth, marriage, death, and protective practices, the roles undertaken by women are decisive in sustaining the continuity of traditional knowledge systems. This study aims to examine the role of women as ritual bearers in Turkish folk culture within a multidimensional framework. In this context, women's position within belief systems, their functions in ritual practices, and their contributions to cultural continuity are analyzed. The research employs a comparative folklore method, drawing on examples from both Azerbaijani and Anatolian contexts. The findings indicate that women are not merely performers of rituals, but also key agents who preserve and reproduce their symbolic meanings. Consequently, it is concluded that women play an indispensable role in maintaining cultural memory and ensuring the intergenerational transmission of traditional values through ritual practices.

Keywords: Women, ritual, folk culture, tradition, belief.

Giriş

Türk halk kültürü, köklü tarihsel birikimi ve çok katmanlı inanç sistemiyle şekillenen dinamik bir yapıya sahiptir. Bu yapı içerisinde ritüeller, yalnızca belirli uygulamalar bütünü olmanın ötesinde, toplumsal değerlerin, normların ve kolektif hafızanın somutlaştığı kültürel pratikler olarak öne çıkmaktadır. Ritüeller, bireyin toplum içindeki konumunu yeniden tanımlayan ve toplumsal aidiyeti pekiştiren işlevleriyle özellikle geçiş dönemlerinde belirginleşmektedir. Doğum, evlilik ve ölüm gibi kritik eşiklerde gerçekleştirilen ritüeller, hem bireysel hem de toplumsal düzlemde anlam üretim süreçlerinin temel bileşenlerini oluşturmaktadır. Bu ritüel süreçlerin icrası, korunması ve kuşaklar arası aktarımında kadınların üstlendiği rol, çoğu zaman arka planda kalsa da, kültürel sürekliliğin sağlanmasında son derece belirleyicidir. Kadın, aile ve toplum içerisindeki konumunun yanı sıra, sözlü kültürün taşıyıcısı, geleneksel bilginin koruyucusu ve ritüel pratiklerin uygulayıcısı olarak çok yönlü bir işlev üstlenmektedir. Özellikle doğumdan ölüme uzanan yaşam döngüsü içerisinde kadınların aktif katılımı, ritüellerin sürekliliğini ve anlam dünyasının yeniden üretimini mümkün kılmaktadır. Bu yönüyle kadın, kültürel belleğin canlı tutulmasında merkezi bir aktör olarak değerlendirilmektedir.

Bu çalışmanın amacı, Türk halk kültüründe kadının ritüel taşıyıcılığı rolünü çok boyutlu bir perspektifle ele almak ve bu rolün inanç sistemi, geleneksel yapı ve kültürel süreklilik bağlamındaki önemini ortaya koymaktır. Bu doğrultuda,

kadınların ritüel pratiklerdeki konumu, işlevi ve sembolik anlamları analiz edilerek, onların kültürel mirasın korunması ve aktarılmasındaki belirleyici katkıları değerlendirilecektir.

Literatür Taraması

Türk halk kültüründe ritüeller, bireyin yaşam döngüsünü düzenleyen ve toplumsal yapının sürekliliğini sağlayan en önemli kültürel pratikler arasında yer almaktadır. Bu ritüeller özellikle doğum, evlenme ve ölüm gibi geçiş dönemlerinde yoğunlaşmakta; inanç, gelenek ve sosyal dayanışma unsurlarını bir arada barındırmaktadır. Halkbilimi literatüründe bu süreçler, hem sembolik hem de işlevsel yönleriyle ele alınmakta ve kültürel aktarımın temel mekanizmaları olarak değerlendirilmektedir.

Geçiş ritüellerine ilişkin kuramsal çerçeve, Arnold van Gennep'in (1960) "rites de passage" yaklaşımıyla temellendirilmiştir. Bu yaklaşım, ritüelleri ayrılma, eşik ve yeniden katılma aşamalarından oluşan bir süreç olarak tanımlamakta ve bireyin toplumsal statü değişimini açıklamaktadır. Türk dünyası halk kültürü üzerine yapılan çalışmalarda bu model, doğum ve evlenme ritüellerinin yapısal analizinde önemli bir referans noktası olarak kullanılmaktadır (Yeşil, 2013; Yeşil, 2014a; Yeşil 2914b).

Türk halkbilimi araştırmalarında Pertev Naili Boratav, halk kültürünün dinamik yapısını vurgulayarak ritüellerin toplumsal hafıza ve kültürel süreklilik açısından taşıdığı önemi ortaya koymuştur. Boratav'a göre halk kültürü unsurları, özellikle kadınlar aracılığıyla kuşaktan kuşağa aktarılan canlı bir yapı sergilemektedir. Bu bağlamda kadın, ritüel sistemin hem uygulayıcısı hem de koruyucu aktörü olarak değerlendirilmektedir (Boratav, 1997).

Kadının ritüel alanındaki rolü üzerine yapılan çalışmalar, onun yalnızca aile içi bir figür olmadığını, aynı zamanda kültürel düzeni sürdüren bir taşıyıcı olduğunu göstermektedir. Aça, Yolcu ve Aça (2019), kadın folklorunu statü ve imaj bağlamında değerlendirerek kadının kültürel üretim ve aktarım süreçlerinde aktif bir özne olduğunu vurgulamışlardır. Benzer şekilde S.V. Örnek de çocuk, aile ve gelenek bağlamında halk kültürünün kuşaktan kuşağa aktarımında kadınların belirleyici rolünü ortaya koymaktadır (Örnek, 2015; Örnek, 2016).

Azerbaycan ve Anadolu halk kültürü üzerine yapılan geniş kapsamlı çalışmalar, ritüellerin kadın merkezli bir yapı sergilediğini göstermektedir. Ceferli

ve Babayev'in Nahçıvan folkloru üzerine yaptıkları derlemelerde, evlenme ritüellerinin toplumsal dayanışma ve inanç sistemleriyle sıkı bir ilişki içinde olduğu ortaya konulmuştur (Ceferli & Babayev, 2009; 2012). Bu çalışmalarda kadınların ritüellerin icrası, organizasyonu ve aktarımında merkezi bir rol üstlendikleri görülmektedir.

Benzer şekilde Mirzeyeva (2023; 2024) ve Memmedova'nın farklı yıllarda yaptığı saha ve karşılaştırmalı çalışmalar, Azerbaycan, Anadolu ve çevre Türk topluluklarında doğum, evlenme ve ölüm ritüellerinin kadınlar aracılığıyla sürdürüldüğünü ortaya koymaktadır. Özellikle kına gecesi, kırklama, nazardan korunma, duvak ritüeli ve albasma/kırkbasma inançları, kadınların ritüel alanındaki aktif rolünü somut biçimde göstermektedir (Memmedova, 2014a-b; 2017; 2021a-c; 2022; 2023a-f; 2024a-e; 2025a-e).

Güven (2021) ise Kars halk kültüründe geçiş dönemlerini ele alarak doğum, evlenme ve ölüm ritüellerinin toplumsal yapı içerisindeki düzenleyici işlevini vurgulamış, bu süreçlerde özellikle kadınların hem uygulayıcı hem de yönlendirici rolüne dikkat çekmiştir. Benzer şekilde Memmedova ve Mirzayeva (2023), Azerbaycan ve Anaolu halk kültüründe doğum öncesi ve sonrası ritüellerde kadın merkezli uygulamaların kültürel süreklilik açısından önemini ortaya koymuştur.

Sonuç olarak literatür, Türk halk kültüründe ritüellerin yalnızca inanç temelli uygulamalar olmadığını, aynı zamanda kadınlar aracılığıyla sürdürülen kültürel bir aktarım sistemi olduğunu göstermektedir. Kadın, bu sistem içerisinde hem ritüelin icracısı hem de kültürel belleğin taşıyıcısı olarak konumlanmakta; böylece toplumsal sürekliliğin ve geleneksel yapının devamlılığında merkezi rol üstlenmektedir.

Kuramsal Çerçeve ve Yöntem

Bu çalışmanın kuramsal temelini, geçiş ritüellerini bireyin toplumsal statü değişimi üzerinden açıklayan Arnold van Gennep'in (1960) "rites de passage" yaklaşımı oluşturmaktadır. Van Gennep'e göre doğum, evlenme ve ölüm gibi yaşam döngüsü ritüelleri; ayrılma, eşik (liminal) ve yeniden katılma aşamalarından oluşan yapısal bir süreci ifade eder. Bu yaklaşım, ritüellerin yalnızca inanç temelli uygulamalar olmadığını, aynı zamanda toplumsal düzeni yeniden üreten kültürel mekanizmalar olduğunu ortaya koymaktadır. Türk halk kültürü bağlamında bu kuramsal çerçeve, ritüellerin sembolik anlamlarının ve toplumsal işlevlerinin analiz

edilmesinde temel referans olarak kabul edilmektedir. Ayrıca Türk halkbilimi çalışmalarında Pertev Naili Boratav'ın (1997) yaklaşımı doğrultusunda, halk kültürünün dinamik yapısı ve ritüellerin kuşaktan kuşağa aktarımındaki süreklilik vurgulanmaktadır. Bu bağlamda kadın, ritüel bilgi ve pratiğinin taşıyıcısı olarak kültürel hafızanın korunmasında merkezi rol üstlenmektedir. Literatürde Açа, Yolcu ve Açа (2019), Yeşil (2013; 2014a; 2914b), Ceferli ve Babayev (2009; 2012) ve Memmedova'nın (2017-2025) çalışmaları da bu kuramsal çerçeveyi destekler niteliktedir.

Makalede nitel araştırma yöntemlerinden biri olan karşılaştırmalı folklor yöntemi kullanılmıştır. Azerbaycan ve Anadolu sahasına ait yazılı kaynaklar, derleme çalışmalar ve saha araştırmalarından elde edilen veriler analiz edilmiştir. Ritüeller; doğum, evlenme ve ölüm bağlamında işlevsel ve sembolik açıdan değerlendirilmiş, özellikle kadınların bu ritüellerdeki konumu, rolü ve kültürel taşıyıcılık işlevi karşılaştırmalı olarak incelenmiştir. Çalışmada ayrıca Mirzeyeva (2023; 2024), Güven (2021) ile Memmedova'nın farklı yıllarda yaptığı alan araştırmaları ve saha verileri (KK1-KK8) dikkate alınarak ritüellerin bölgesel varyantları karşılaştırılmıştır. Böylece Azerbaycan ve Anadolu kültürlerinde kadın merkezli ritüel yapının benzerlikleri ve farklılıkları ortaya konulmuştur.

1. Geçiş Dönemlerinde Kadının Rolü

1.1. Doğum Ritüelleri

Doğum, Türk halk kültüründe yalnızca biyolojik bir olay olarak değil, aynı zamanda kutsal ve sembolik anlamlar taşıyan önemli bir geçiş dönemi olarak kabul edilmektedir. Yeni bir bireyin dünyaya gelişi, hem aile hem de toplum açısından yeni bir başlangıcı temsil etmekte; bu nedenle doğum süreci çeşitli inançlar, pratikler ve ritüellerle çevrelenmektedir (Memmedova, 2021a; 2023a; 2023c; 2023d; 2023e; 2024b; 2024e). Bu ritüeller, doğumun fiziksel boyutunun yanı sıra, anne ve çocuğun ruhsal ve metafizik açıdan korunmasını da amaçlamaktadır.

Söz konusu süreçte kadınlar, özellikle ebe, kayınvalide, anne ve deneyimli yaşlı kadınlar, ritüel uygulamaların merkezinde yer almaktadır. Ebe figürü, yalnızca doğumu gerçekleştiren kişi değil, aynı zamanda geleneksel tıbbi bilgiye ve ritüel pratiğe hâkim bir otorite olarak öne çıkmaktadır. Doğum öncesinden başlayarak doğum anı ve sonrasını kapsayan süreçte, kadının bilgi birikimi ve deneyimi belirleyici bir rol oynamaktadır. Lohusa kadının ve yenidoğanın

korunmasına yönelik uygulamalar-örneğin nazardan sakınma (Memmedova, 2923b; 2023ç; 2023f; 2025b), kırklama (Memmedova, 2023a), al basması (Memmedova, 2024a; 2025c) inancına karşı alınan önlemler-kadınlar tarafından titizlikle yürütülmektedir. Bu pratikler, halk inançlarının ve eski Türk inanç sistemlerinin izlerini taşıyan sembolik anlamlarla yüklüdür. Ayrıca kırklama ritüeli, annenin ve çocuğun kırk gün sonunda arındırılması ve toplumsal hayata yeniden dahil edilmesi açısından önemli bir işlev üstlenmektedir (KK-1; KK-2). Bu ritüelin icrasında da kadınların belirleyici rolü dikkat çekmektedir. Kadınlar, bu süreçte yalnızca uygulayıcı değil, aynı zamanda ritüelin anlamını bilen, yorumlayan ve sonraki kuşaklara aktaran kişiler olarak karşımıza çıkmaktadır. Dolayısıyla doğum ritüelleri bağlamında kadın, hem koruyucu hem düzenleyici hem de kültürel bilginin taşıyıcısı olarak çok katmanlı bir işlev üstlenmektedir. Bu durum, kadının Türk halk kültüründeki merkezi konumunu ve ritüel sürekliliğindeki vazgeçilmez rolünü açık biçimde ortaya koymaktadır.

1.2. Evlilik Ritüelleri

Evlilik, Türk halk kültüründe bireyin sosyal statüsünü değiştiren ve onu yeni bir toplumsal role dahil eden en önemli geçiş dönemlerinden biri olarak kabul edilmektedir. Bu süreç, yalnızca iki bireyin birleşmesini değil, aynı zamanda iki ailenin ve dolaylı olarak iki toplumsal çevrenin kaynaşmasını simgeleyen çok katmanlı bir yapıya sahiptir. Evlilik ritüelleri, bu yönüyle hem sembolik hem de işlevsel anlamlar taşıyan, zengin uygulama ve inanışlarla örülü bir bütünlük arz etmektedir.

Söz konusu ritüellerin planlanması, yürütülmesi ve kuşaklar arası aktarımında kadınların belirleyici rolü açık biçimde görülmektedir. Özellikle kına gecesi (Memmedova, 2014a; 2017; 2022), gelin hazırlama, çeyiz düzenleme, gelin çıkarma (Memmedova, 2024c; 2024d; 2025e) ve çeşitli uğur ritüelleri büyük ölçüde kadınlar tarafından organize edilmekte ve icra edilmektedir. Kına gecesi, gelinin baba evinden ayrılışını simgeleyen duygusal ve sembolik bir ritüel olup, bu törende yakılan ağıtlar, söylenen türküler ve gerçekleştirilen uygulamalar aracılığıyla toplumsal değerler ve normlar yeniden üretilmektedir. Bu süreçte kadınlar, hem ritüelin icracısı hem de sözlü kültür unsurlarının taşıyıcısı olarak önemli bir işlev üstlenmektedir.

Gelin hazırlama sürecinde gerçekleştirilen süsleme, giydirme ve sembolik nesnelerin kullanımı da kadınların denetiminde gerçekleşmektedir. Gelinin başına kırmızı örtü örtülmesi, bereket ve uğur getirmesi amacıyla yapılan uygulamalar, nazardan korunmaya yönelik pratikler gibi unsurlar, halk inançlarının evlilik ritüellerine yansıyan örnekleri arasında yer almaktadır. Ayrıca çeyiz hazırlama ve sergileme geleneği, kadının üretkenliğini ve toplumsal rolünü simgeleyen önemli bir kültürel göstergedir.

Bu bağlamda kadınlar, evlilik ritüelleri (Mirzayeva, 2023) aracılığıyla yalnızca geleneksel uygulamaları sürdürmekle kalmamakta, aynı zamanda toplumsal normları, değerleri ve inanç sistemlerini yeni kuşaklara aktaran temel kültür taşıyıcıları olarak öne çıkmaktadır. Dolayısıyla evlilik ritüelleri, kadının hem ritüel pratiğin merkezinde yer aldığı hem de kültürel sürekliliğin sağlanmasında aktif rol üstlendiği önemli bir alanı temsil etmektedir.

1.3. Ölüm Ritüelleri

Ölüm, Türk halk kültüründe yalnızca bireysel bir son değil, aynı zamanda toplumsal ve metafizik boyutları bulunan önemli bir geçiş dönemi olarak değerlendirilmektedir. Bu süreçte gerçekleştirilen ritüeller (Mirzayeva, 2024), hem ölen kişinin ardından duyulan saygının ifadesi hem de geride kalanların yas sürecini anlamlandırmalarına yardımcı olan kültürel pratikler olarak öne çıkmaktadır. Ölüm ritüelleri, toplumsal dayanışmayı güçlendiren ve kolektif hafızayı canlı tutan önemli unsurlar arasında yer almaktadır. Bu ritüel süreçlerde kadınların üstlendiği rol son derece belirgindir. Özellikle ağıt yakma geleneği (KK-3), kadınların duygusal ifade biçimleri ile kültürel anlatımın kesiştiği önemli bir alanı temsil etmektedir. Ağıtlar aracılığıyla ölen kişinin yaşamı, özellikleri, toplumsal konumu ve geride bıraktıkları dile getirilmekte; böylece bireysel bir kayıp, kolektif bir anlatıya dönüştürülmektedir (KK-8). Bu yönüyle kadınlar, yalnızca yas sürecinin katılımcıları değil, aynı zamanda sözlü kültürün üreticileri ve aktarıcıları olarak işlev görmektedir. Bunun yanı sıra cenaze hazırlıkları, taziye sürecinin düzenlenmesi, yas tutma pratikleri ve belirli günlerde gerçekleştirilen anma ritüelleri de büyük ölçüde kadınların aktif katılımıyla yürütülmektedir (KK-5). Ölünün ardından gerçekleştirilen üçüncü, yedinci, kırkıncı ve yıl dönümü anmaları gibi uygulamalar (KK-7), hem dini hem de geleneksel unsurların iç içe geçtiği ritüel örnekleridir. Bu süreçte kadınlar, hem ritüellerin uygulanmasını sağlamakta hem de bu uygulamaların anlam dünyasını koruyarak sonraki kuşaklara

aktarmaktadır (KK-6). Dolayısıyla ölüm ritüelleri bağlamında kadın, yasın ifade edilmesinde, toplumsal hafızanın yeniden inşasında ve kültürel sürekliliğin sağlanmasında merkezi bir rol üstlenmektedir. Kadınların bu süreçteki aktif varlığı, onların Türk halk kültüründeki ritüel taşıyıcılığı işlevinin en belirgin örneklerinden birini oluşturmaktadır.

2. Korunma Ritüellerinde Kadının İşlevi

Türk halk inanç sisteminde nazar, cin, kötü ruhlar ve görünmeyen varlıkların insan yaşamı üzerindeki olası etkilerine karşı geliştirilen korunma pratikleri önemli bir yer tutmaktadır. Bu pratikler, yalnızca bireysel güvenliği sağlama amacı taşımamakta, aynı zamanda toplumsal düzenin ve ruhsal dengenin korunmasına yönelik sembolik anlamlar da içermektedir. Söz konusu ritüellerin icrasında kadınların üstlendiği rol, hem uygulayıcı hem de bilgi taşıyıcısı olmaları bakımından dikkat çekicidir.

Kadınlar, özellikle gündelik yaşam içerisinde karşılaşılan tehlikelere karşı çeşitli korunma ritüellerini düzenleyen ve uygulayan başlıca aktörlerdir. Üzerlik yakma, nazarlık kullanma, muska hazırlama, belirli duaların ve ayetlerin okunması gibi uygulamalar, halk inançlarının pratikteki yansımaları olarak kadınlar tarafından sürdürülmektedir (KK-4). Bu ritüellerde kullanılan nesneler ve sözlü ifadeler, çoğu zaman eski Türk inançları ile İslami unsurların birleştiği senkretik bir yapı sergilemektedir. Özellikle çocukların, lohusa kadınların ve yeni gelinlerin korunmasına yönelik uygulamalarda (Memmedova, 2023f) kadınların aktif rolü belirginleşmektedir. Bunun yanı sıra kadınlar, yalnızca ritüelleri icra eden kişiler değil, aynı zamanda bu pratiklerin anlam dünyasını bilen, yorumlayan ve uygun koşullarda yeniden üreten kültürel aracılar olarak işlev görmektedir. Hangi durumda hangi ritüelin uygulanacağı, hangi sözlerin okunacağı ya da hangi nesnelerin kullanılacağı gibi detaylı bilgi, genellikle deneyim yoluyla kadınlar arasında aktarılmaktadır. Bu durum, kadınların halk inançları içerisindeki epistemolojik konumunu güçlendirmekte ve onları geleneksel bilginin otorite figürleri hâline getirmektedir. Dolayısıyla korunma ritüelleri bağlamında kadın, hem bireysel hem de toplumsal düzeyde güvenliği sağlayan, görünmeyen tehlikelere karşı koruyucu bir kalkan oluşturan ve aynı zamanda kültürel sürekliliği temin eden merkezi bir aktör olarak karşımıza çıkmaktadır. Bu yönüyle kadınların üstlendiği işlev, Türk halk kültüründe ritüel taşıyıcılığının en somut ve süreklilik arz eden örneklerinden birini teşkil etmektedir**.**

3. Kadının Kültürel Sürekliliktekı Rolü

Türk halk kültüründe kültürel sürekliliğin sağlanması, büyük ölçüde sözlü aktarım mekanizmaları ve ritüel pratikler aracılığıyla mümkün olmaktadır. Bu süreçte kadınlar, geleneksel bilginin korunması, yeniden üretilmesi ve kuşaklar arasında aktarılmasında temel aktörler olarak öne çıkmaktadır. Aile içinde özellikle anne, büyükanne ve diğer deneyimli kadın figürler, yalnızca gündelik yaşamın düzenleyicileri değil, aynı zamanda kültürel belleğin taşıyıcıları olarak işlev görmektedir (Örnek, 2015; 2016).

Kadınlar, masallar, ninniler, atasözleri, deyimler, halk inançları ve ritüeller gibi sözlü kültür unsurlarını çocuklara ve genç kuşaklara aktararak kültürel devamlılığı sağlamaktadır (KK-5; KK-8). Bu aktarım süreci çoğu zaman gündelik yaşamın doğal akışı içerisinde, belirli bir eğitim sürecine bağlı olmaksızın gerçekleşmekte; böylece kültürel bilgi, yaşam pratiğiyle iç içe geçmiş bir biçimde yeniden üretilmektedir. Özellikle ritüel anlarında-doğum, evlilik ve ölüm gibi geçiş dönemlerinde-kadınların aktif rol alması, bu bilgilerin hem teorik hem de pratik düzlemde öğrenilmesini mümkün kılmaktadır. Bunun yanı sıra kadınlar, yalnızca mevcut kültürel unsurları aktarmakla kalmamakta, aynı zamanda onları dönemin koşullarına göre yeniden yorumlayarak kültürel dinamizmin sürdürülmesine katkı sağlamaktadır. Bu yönüyle kadın, gelenek ile değişim arasında bir köprü işlevi görmekte; geçmişten devralınan değerlerin güncel bağlamda anlamlandırılmasını mümkün kılmaktadır. Kadınların bu aracılık rolü, kültürel sürekliliğin statik bir yapıdan ziyade, canlı ve dönüşebilir bir süreç olduğunu da ortaya koymaktadır. Dolayısıyla kadın, Türk halk kültüründe yalnızca bir ritüel uygulayıcısı değil, aynı zamanda kültürel mirasın koruyucusu, yorumlayıcısı ve aktarıcısı olarak çok katmanlı bir işlev üstlenmektedir (Boratav, 1997; Güven, 2021; Memmedova, 2025a). Bu durum, kadının kültürel sürekliliğin sağlanmasındaki vazgeçilmez konumunu açıkça ortaya koymakta ve onu toplumsal belleğin en önemli temsilcilerinden biri hâline getirmektedir.

Sonuç, Tartışma ve Öneriler

Türk halk kültüründe kadın, ritüellerin hem uygulayıcısı hem de taşıyıcısı olarak merkezi bir konuma sahiptir. Geçiş dönemleri ve korunma pratiklerinde aktif rol üstlenen kadınlar, kültürel hafızanın korunmasında ve aktarılmasında belirleyici bir işleve sahiptir. Kadının halk kültüründeki rolünün yalnızca aile içi

işlevlerle sınırlı olmadığı; aynı zamanda toplumsal ve kültürel sürekliliğin sağlanmasında belirleyici bir unsur olduğu görülmektedir. Kadınların ritüel bilgisi ve uygulayıcılığı, Türk dünyasında kültürel kimliğin korunmasında önemli rol oynamaktadır.

Bu çalışma, Türk halk kültüründe kadının ritüel taşıyıcılığı rolünü doğum, evlilik, ölüm ve korunma ritüelleri bağlamında ele alarak, onun kültürel süreklilik içerisindeki belirleyici konumunu ortaya koymuştur. Elde edilen bulgular, kadının yalnızca ritüel uygulamalarını icra eden bir figür olmadığını, aynı zamanda bu ritüellerin anlam dünyasını kuran, sürdüren ve kuşaklar arası aktarımını sağlayan temel bir kültürel aktör olduğunu göstermektedir. Geçiş dönemlerine ilişkin ritüellerde kadınların üstlendiği aktif roller, toplumsal düzenin yeniden üretilmesinde ve kolektif hafızanın canlı tutulmasında önemli işleve sahiptir.

Doğum ritüellerinde ebe ve deneyimli kadınların koruyucu ve düzenleyici rolleri; evlilik ritüellerinde kına gecesi, gelin hazırlama ve çeyiz pratiklerinin kadın merkezli yapısı; ölüm ritüellerinde ağıt yakma ve yas süreçlerinin kadınlar tarafından anlamlandırılması; korunma ritüellerinde ise nazar, muska ve çeşitli inanç pratiklerinin kadınlar eliyle sürdürülmesi, kadının ritüel alanındaki çok katmanlı işlevini açıkça ortaya koymaktadır. Bu bağlamda kadın, yalnızca geleneksel pratiklerin uygulayıcısı değil, aynı zamanda halk inanç sisteminin epistemolojik taşıyıcısı konumundadır.

Tartışma açısından değerlendirildiğinde, kadınların ritüel alanındaki bu merkezi rolü, toplumsal cinsiyet rolleriyle birlikte ele alınmalıdır. Bir yandan kadın, geleneksel yapı içerisinde sınırlı sosyal rollerle tanımlanırken, diğer yandan kültürel bilginin en güçlü taşıyıcısı olarak görünmektedir. Bu durum, kadınların görünmeyen bir otorite alanı oluşturduğunu ve halk kültürünün devamlılığında kritik bir işlev üstlendiğini göstermektedir. Ayrıca Azerbaycan ve Anadolu örnekleri, bu ritüel pratiklerin Türk dünyasında ortak kültürel kodlar taşıdığını ve kadın merkezli aktarım mekanizmalarının benzerlik gösterdiğini ortaya koymaktadır.

Öneriler kapsamında, öncelikle kadınların ritüel bilgi taşıyıcılığına yönelik daha fazla saha araştırmasının yapılması gerektiği söylenebilir. Özellikle yaşlı kadın anlatıları, ebe pratikleri ve yerel ritüel uygulamaların kayıt altına alınması, kültürel mirasın korunması açısından büyük önem taşımaktadır. Ayrıca halk

kültürü, antropoloji ve sosyoloji disiplinleri arasında disiplinlerarası çalışmaların artırılması, kadın merkezli ritüel analizlerinin daha derinlikli yapılmasına katkı sağlayacaktır. Bunun yanı sıra dijital arşivleme çalışmaları ile sözlü kültür unsurlarının gelecek nesillere aktarılması desteklenmeli ve kadınların kültürel taşıyıcılık rolü akademik ve toplumsal düzeyde daha görünür hâle getirilmelidir.

Sonuç olarak, kadınların Türk halk kültüründeki ritüel taşıyıcılığı, yalnızca geleneksel pratiklerin devamlılığını değil, aynı zamanda kültürel kimliğin korunmasını ve yeniden üretimini de sağlayan temel bir mekanizma olarak değerlendirilmelidir.

Kaynakça

Açа, M., Yolcu, M. A., & Açа, M. (2019). *Kadın folkloru: Statü ve famaj.* İstanbul: Paradigma.

Boratav, P. N. (1997). *100 Soruda Türk folkloru.* İstanbul: Gerçek Yayınevi.

Ceferli, M., & Babayev, R. (2009). *Azerbaycan folkloru antologiyası: Nahçıvan folkloru I.* Nahçıvan: Ecemi.

Ceferli, M., & Babayev, R. (2012). *Azerbaycan folkloru antologiyası: Nahçıvan folkloru III*. Nahçıvan: Ecemi.

Güven, F. (2021). *Kars halk kültüründe geçiş dönemleri (Doğum, evlenme, ölüm).* İstanbul: Kriter.

Memmedova, M. (2014a). *Azerbaycan folklorunda oyun ve tamaşalar.* Bakı: Elm ve Tehsil.

Memmedova, M. (2014b). Azerbaycan ve Anadoluda toy merasimi oyun ve tamaşaları. *Journal of Qafqaz University-Philology and Pedagogy,* 2(1), Bakı, 23-33.

Memmedova, M. (2017). Azerbaycan ve Anadolu kına gecesi. *Motif Akademi Halkbilim Dergisi*, 10(19), 149-159.

Memmedova, M. (2022). Azerbaycan ve Anadolu folklorunda xına gecesi merasimi. *Azerbaycan Şifahi Xalq Edebiyyatına Dair Tedqiqler,* 1(58), Bakı: Elm ve Tehsil, 106-118.

Memmedova, M. (2021a). Karabağ folklorunda doğum ritualları ve inancları. *Ziya Işığında Ramazan Gafarlı 70. Beynelhalq İctimai ve Medeni Elmler Konfransı,* 465-471. www.izdas.org/ramazan-gafarli-kongresi

Memmedova, M. (2021b). Kitabi-Dede Korkut'ta inisiasiya merasimi ritualları ve adet-eneneleri. *4. Uluslararası Dede Korkut Türk Kültürü, Tarihi ve Edebiyatı Kongresi*. Ege Üniversitesi Türk Dünyası Araştırmaları Enstitüsü.

https://www.scienceazerbaijan.org/kutuphane

Memmedova, M. (2021c). Beliefs about initiation rituals in Karabagh. *International Congress of Modern Studies in Social and Human Sciences* (Book II, 298-307). www.karabaghconference.com

Memmedova, M. (2023a). Azerbaycan ve Anadolu'da kırklama ritüelleri. *Azerbaijan International Congress of Scientific Research*. Sheki, 102-113.

Memmedova, M. (2023b). Azerbaycan ve Anadolu folklorunda nazardan korunmak için yapılan uygulama ve ritüeller. *5th International Bahtiyar Bahabzade Turkish World History, Culture and Literature Congress.* Sheki, 207-216.

Memmedova, M. (2023c). Nahçıvan ve Kars folklorunda doğum ritüelleri ve inançları. *II. Uluslararası Türkiyat Kongresi*. Türk Dil Kurumu Yayınları, 434-450.

Memmedova, M. (2023ç). Azerbaycan ve Anadolu folklorunda nezerden gorunmag üçün icra edilen üsul ve rituallar. *Dede Qorqud Elmi-Edebi Toplu*, 3(82), 133-144.

Memmedova, M. (2023d). Doğum ritualları və inancları Güney Azerbaycan folklor metnleri kontekstinde. *Folklor ve menevi bütövlük: Güney Azerbaycanın folklor irisi mövzusunda Respublika Elmi Konfransı Materialları*. Bakı: Elm ve Tehsil, 129-149.

Memmedova, M. (2023e). Azerbaycan ve Anadolu folklorunda doğum sonrası çocuklar için yapılan ritüeller. *Elyazma Kitabı Azerbaycan-Türkiye Elmi-Medeni Elageler Kontekstinde Beynelhalq Elmi-Nezeri Konferansı Materialları*. Bakü, 318-324.

Memmedova, M. (2023f). Azerbaycan ve Anadolu folklorunda çocuğu nazar, hal ve çileden korumak için yapılan yöntem ve ritüeller. *10. Uluslararası Çocuk ve Gençlik Edebiyatı Sempozyumu.* Kazan/Tataristan, 259-271.

Memmedova, M. (2024a). Azerbaycan ve Anadolu folklorunda kırkbasma ve albasmadan korunma ritüel ve uygulamaları. *Klasik Divan Dil, Kültür ve Edebiyat Araştırmaları Dergisi,* 1(1), 128-144.

Memmedova, M. (2024b). Naxçıvan folklorunda uşaqlar üçün icra edilən doğum ritualları. *Naxçıvan Milli-Mənəvi Dəyərlər Kontekstində*. Bakı: Folklor İnstitutu, 232-246.

Memmedova, M. (2024c). Azerbaycan, Trakya ve Anadolu folklorunda düğün merasimi oyun ve gösterileri. *Türkoloji ve Sosyo-Kültürel Araştırmalar Dergisi*, 1(1); 43-59.

https://doi.org/10.5281/ZENODO.14549100

Memmedova, M. (2024d). Naxçıvan və İrəvan Çuxurunda toy mərasimlərinin qarşılıqlı müqayisəsi. *Azərbaycan Şifahi Xalq Ədəbiyyatına Dair Tədqiqlər*, Bakı: Elm və Təhsil, 67-81.

https://doi.org/10.59849/2309-7922.2024.2.67

Memmedova, M. (2024e). Balkanlardan Azerbaycan'a Türk halk kültüründe doğum ritüelleri. *2. Uluslararası Balkanlarda Türkçe Öğretimi ve Türkoloji Sempozyumu Bildiriler Kitabı,* İstanbul, 645-665.

Memmedova, M. (2025a). Folklorda kadın ve ritüel: toplumsal roller ve geleneksel anlamlar. *ASES I. Uluslararası Kadın Araştırmaları Kongresi*. Kayseri: ASES Publications, 172-185.

Memmedova, M. (2025b). Batı Azerbaycan halk kültüründe nazarın etkilerinden korunmaya yönelik geleneksel yöntemler ve ritüeller. *ASES II. International Culture, Art and Literature Congress,* Izmir, Turkiye, 93-110.

Memmedova, M. (2025c). Postpartum protective rituals in the folk cultures of Azerbaijan, and Gagauzia: practices against kirkbasma and albasma. *ASES IV. International Gelenekten Geleceğe Scientific Studies Conference Book*. Kyrgyzstan: Kyrgyzstan-Turkiye Manas University, ASES Publications, 122-140.

Memmedova, M. (2025d). Death rituals in Karabakh folklore: the role of beliefs and traditions in the construction of cultural identity. *ARCENG III. International Scientific Research Congress.* İstanbul: ARCENG Publications, 355-370.

Memmedova, M. (2025e). Nahçıvan halk kültüründe duvak ritüeli: sembolizm, inanç ve sosyal işlev. *ASES International Academic Research Congress*. İstanbul, 335-353.

Memmedova, M., & Mirzeyeva, G. (2023). Customs and beliefs regarding the khirktokme ceremony in Azerbaijan and Anatolia. *6th International Dede Korkut Conference of Turkish Culture, History and Literature.* Guba, 124-133.

Mirzeyeva, Q. (2023). Naxçıvanda toy adətləri. *Heydər Əliyev və Azərbaycan xalq mədəniyyəti.* Bakı: Elm və Təhsil, 261-268.

Mirzeyeva, Q. (2024). Naxçıvanda yas mərasimilə bağlı adət-ənənələr və inanclar. *Naxçıvan Milli-Mənəvi Dəyərlər Kontekstində.* Bakı: Folklor İnstitutu, 176-188.

Örnek, S. V. (2015*). Geleneksel kültürümüzde çocuk*. Ankara: BilgeSu.

Örnek, S. V. (2016). *Türk halkbilimi*. Ankara: BilgeSu.

Van Gennep, A. (1960). *The rites of passage.* University of Chicago Press.

Yeşil, Y. (2013). Türk dünyasında doğum sırasında gerçekleştirilen ritüeller. *21. Yüzyılda Eğitim ve Toplum*, 2(6), 155-162.

Yeşil, Y. (2014a). Türk dünyası'nda geçiş dönemi ritüelleri üzerine tespitler. *21. Yüzyılda Eğitim ve Toplum,* 3(9), 117-136.

Yeşil, Y. (2014b). *Türk dünyasında geçiş dönemi ritüelleri (Doğum-evlenme-ölüm gelenekleri).* Ankara: Grafiker.

Kaynak Kişiler

KK-1. Ekberova Aynur Cavad kızı, 1975, Nahçivan ili, Ordubat ilçesi, Yukarı Eylis köyü, lise eğitimli, aşçı.

KK-2. Ekberova Sevinç Cavad kızı, 1971, Nahçivan ili, Ordubad ilçesi, Yukarı Eylis köyü, lise eğitimli, ev hanımı.

KK-3. İmanova Vefa Gurban kızı, 1986, Nahçivan ili, Ordubat ilçesi, Yukarı Eylis köyü, lise eğitimli, ev hanımı.

KK-4. İskenderova Yeter Hüseyn kızı, 1965, Nahçivan ili, Ordubat ilçesi, Tivi köyü, lise eğitimli, ev hanımı.

KK-5. Mirzayeva Gumral Nizami kızı, 1983, Nahçıvan şehri, yüksek lisans eğitimli, araştırmacı.

KK-6. Necefova Seltenet Yusif kızı, 1961, Nahçivan ili, Ordubad ilçesi, Anabat köyü, lisans eğitimli, hemşire.

KK-7. Şükürlü Elnure kızı, 1984, Şeki şehri, lisans eğitimli, üniversitede koordinatör.

KK-8. Tağıyeva Sevinc Memmed kızı, 1985, Salyan ilçesi, doktora öğrencisi, ev hanımı.

GULRUH-XONIM IJODINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Мамедханова Наида Джамал гызы,
доктор филологических наук,
профессор
кафедры Теории литературы
Бакинского славянского университета
Азербайджан, Баку
E-mail: nanasaf@gmail.com
(Ozarbayjon)

Annotatsiya. Zamonaviy adabiyot tobora janrlar sinteziga intilmoqda, bunda badiiy ifoda bir vaqtning o‘zida voqelikni falsafiy anglash va chuqur shaxsiy bayon shakliga aylanadi. Shu nuqtai nazardan, Gyulrukh-xonim ijodi esseistik, memuar, falsafiy va badiiy unsurlarni uyg‘unlashtirgani bilan ajralib turadi. Uning *“Vaqt va o‘zlik haqida mulohazalar”* asari muallifning asosiy dunyoqarashini aks ettirib, vaqtni chiziqli hodisa emas, balki ichki kechinma sifatida talqin qiladi hamda inson kamolotini uzluksiz jarayon sifatida ko‘rsatadi.

Muallif qisman ekzistensializm g‘oyalariga, xususan Jan-Pol Sartr qarashlariga yaqinlashadi, ammo rivojlanishni ratsional tanlov emas, balki ichki yetilish sifatida talqin etadi. Donolik bilimdan farqli ravishda tashqaridan olinmaydi, balki insonning ichki tajribasidan tug‘iladi. Inson doimo izlanishda bo‘lgan, tugallanmagan mavjudot sifatida tasvirlanadi va quvonch hamda iztiroblar uning ma’naviy o‘sishiga xizmat qiladi.

Asarda muhabbat markaziy o‘rin tutib, u shaxsiy tuyg‘udan yuqori darajaga ko‘tarilib, insonni olam bilan bog‘lovchi umumiy kuch sifatida talqin etiladi. Qo‘rquv esa muhabbat qobiliyatining yo‘qolishi sifatida izohlanadi. Muallif ratsional bilishdan ko‘ra ruhiy va intuitiv anglashni ustun qo‘yadi va o‘quvchini ichki o‘zgarish hamda o‘zini anglashga chorlaydi.

Kalit so‘zlar: janr sintezi, vaqt, muhabbat, ma’naviyat, ekzistensializm, donolik, transformatsiya, o‘zlikni anglash.

Contemporary literature increasingly reveals a tendency toward genre synthesis, where artistic expression becomes both a philosophical reflection on reality and a deeply personal form of expression. Within this context, Gyulrukh-khanum's work stands out for its integration of essayistic, memoir, philosophical, and imaginative elements. Her book Reflections on Time and the Self embodies her core worldview, presenting time as an inner experience rather than a linear sequence, and emphasizing human development as a continuous, unfinished process. Drawing partly on existentialist ideas associated with Jean-Paul Sartre, the author reinterprets personal growth not as a matter of rational choice but as an inner maturation guided by wisdom. Wisdom, unlike knowledge, emerges from within and cannot be transferred externally. The human being is depicted as constantly evolving, shaped by both joy and suffering, which together enable spiritual growth. Love occupies a central place in the text, transcending individual emotion to become a universal force connecting the individual with the world. In contrast, fear is understood as a loss of this capacity to love. The author prioritizes intuitive and spiritual knowledge over rationalism, suggesting that true understanding comes through the soul. Ultimately, the work invites readers to engage in self-reflection and inner transformation.

Keywords: genre synthesis, time, love, spirituality, existentialism, wisdom, transformation, self-awareness

Современная литература все чаще демонстрирует тенденцию к синтезу жанров, в рамках которого художественное слово становится одновременно средством философского осмысления действительности и формой глубоко личностного высказывания. В этом контексте творчество Гюльрух-ханым представляет особый интерес, поскольку соединяет в себе элементы эссеистики, мемуарной прозы, философского размышления и художественной образности. Книга «Размышления о времени и о себе» является репрезентативным текстом, в котором сконцентрированы ключевые мировоззренческие установки автора: понимание времени как внутреннего опыта, осмысление любви как универсальной категории бытия, а также идея духовного становления человека как непрерывного процесса. Данная статья направлена на выявление философских оснований произведения и анализ его ключевых тематических доминант.

Одной из центральных категорий книги выступает время, однако оно трактуется не в традиционном линейном понимании, а как экзистенциальное переживание. Автор отвергает представление о «пороге» как границе между жизненными этапами, утверждая, что человек постоянно находится в состоянии перехода и становления.

“Такое понимание соотносится с философией экзистенциализма, в частности с идеями Жан-Поль Сартр, согласно которым человек не задан

изначально, а формируется через собственный выбор и опыт” [1,17]. Однако в отличие от западной рационалистической традиции, у Гюльрух-ханым акцент переносится с выбора как акта воли на внутреннее созревание личности. Важнейшей составляющей этого процесса становится мудрость, понимаемая не как сумма знаний, а как внутреннее состояние. Автор подчеркивает, что знание приходит извне, тогда как мудрость рождается изнутри и не поддается передаче. В этом аспекте прослеживается близость к гуманистической философии, где личный опыт и внутренняя трансформация имеют приоритет над внешним обучением.

В книге человек предстает как существо незавершенное, находящееся в постоянном поиске. Эта идея перекликается с тезисом о «незавершенности» человеческого бытия, характерным для философии XX века. Человек, по мысли автора, открыт миру и способен к бесконечному развитию, что составляет основу его уникальности.

“Особое значение приобретает мотив пути, который включает в себя не только радости, но и страдания. Испытания рассматриваются как необходимое условие духовного роста, позволяющее человеку различать подлинное и второстепенное. В этом контексте уместно вспомнить мысль Михаил Булгаков о соотнесенности света и тьмы, где одно не существует без другого”[2,156]. Таким образом, человеческое существование интерпретируется как динамический процесс, в котором важна не конечная цель, а само движение и внутреннее преобразование.

Категория любви занимает ключевое место в системе ценностей автора. При этом любовь выходит за рамки индивидуального переживания и приобретает универсальный характер. Она понимается как основа бытия, как энергия, соединяющая человека с миром.

В тексте прослеживается своеобразный диалог с Антон Чехов, чьи размышления о любви становятся отправной точкой для дальнейшего философского осмысления[3]. Однако автор расширяет это понимание, утверждая, что любовь не обязательно требует конкретного объекта и может существовать как внутреннее состояние.

Интересным является противопоставление любви и страха: страх трактуется как следствие утраты способности любить. Таким образом, любовь предстает как сила, освобождающая человека и возвращающая его к целостности.

Особое место в книге занимает обращение к философскому наследию Мишель де Монтень. Его идеи не только цитируются, но и подвергаются критическому переосмыслению. Если Монтень утверждает необходимость жить согласно разуму, то Гюльрух-ханым выдвигает иной принцип — жить согласно душе.

Такое смещение акцентов свидетельствует о стремлении автора преодолеть рационалистическую ограниченность и утвердить приоритет интуитивного знания. Душа становится основным инструментом познания, позволяющим человеку приблизиться к самому себе и к миру.

Данный подход можно рассматривать как синтез философских и духовных традиций, в которых внутренний опыт приобретает первостепенное значение. Значимую роль в книге играет осмысление искусства, прежде всего музыки и танца. Танец интерпретируется не как физическое движение, а как состояние, в котором человек достигает подлинности. Это своеобразная форма медитации, позволяющая освободиться от внешних наслоений и приблизиться к своей сущности.

Такое понимание искусства сближает автора с эстетической традицией, в которой художественное творчество рассматривается как путь к истине. Искусство становится не отражением реальности, а способом ее внутреннего переживания.

В книге значительное внимание уделяется состоянию современного человека. Автор констатирует утрату духовных ориентиров и подмену подлинных ценностей материальными. Человек, по ее мнению, перестает задаваться вопросом о смысле своего существования, что приводит к внутренней опустошенности.

В этом контексте звучит идея внутреннего преобразования как единственного пути изменения мира. Автор скептически относится к социальным революциям, подчеркивая их неспособность привести к подлинным изменениям. “Вместо этого выдвигается концепция «внутреннего бунта», близкая к философии Фридрих Ницше, но лишенная разрушительного пафоса”[4,116]. Особое место в книге занимает произведение «Бог мой – брат мой», в котором раскрывается тема утраты близкого человека. Этот текст выходит за рамки жанровых определений, представляя собой философско-лирическое размышление о жизни, смерти и духовной связи. Память здесь выступает не как воспоминание о прошлом, а как форма продолжающегося диалога. Граница между жизнью и смертью оказывается условной, а духовная связь — непрерывной. Таким образом, личная трагедия трансформируется в философское обобщение.

Анализ книги «Размышления о времени и о себе» позволяет сделать вывод о том, что творчество Гюльрух-ханым представляет собой синтетическое явление, в котором художественное и философское начала неразделимы. Центральными категориями выступают время, любовь, свобода и духовное становление личности. Произведение можно рассматривать как своеобразный «текст-путь», в котором отражается процесс внутреннего поиска. Автор не предлагает готовых ответов, но задает направление

размышления, побуждая читателя к диалогу с самим собой.

Таким образом, книга приобретает значение не только литературного произведения, но и философского высказывания, актуального в контексте современной духовной ситуации.

Сноски

1. Жан-Поль Сартр Ж.-П. Экзистенциализм — это гуманизм. — М.: Республика, 1989. — С. 15–20.
2. Михаил Булгаков М. А. Мастер и Маргарита. — М.: Художественная литература, 1967. — С. 302.
3. Антон Чехов А. П. О любви // Собрание сочинений. — М.: Наука, 1977. — Т. 10. — С. 45–52.
4. Фридрих Ницше Ф. Так говорил Заратустра. — СПб.: Азбука, 2000. — С. 112–118.
5. Мишель де Монтень М. Опыты: в 2 т. — М.: Наука, 1979. — Т. 1. — С. 89–94.

SAIF ZAFAR BUXORIYNING “DURRUL MAJOLISI TURKIY” TOSHBOSMASIDA MUHAMMAD (s.a.v) VA HAZRATI ALI TALQINI

Amonova Zilola Qodirovna,
Buxoro davlat universiteti,
o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori,
filologiya fanlari doktori (DSc),
Boqiyev Azizbek Abdullajon o‘g‘li,
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
(O‘zbekiston)

Annotatsiya. “Durrul majolis” asari forsiy tilda yozilgan bo‘lib, unda Odam alayhissalomning yaratilishidan boshlab keyingi yuborilgan payg‘ambarlar hamda so‘ngi payg‘ambar bo‘lmish Muhammad alayhissalom va u zotga haq yo‘lda ergashgan sahobiylar, avliyolarning hayoti bilan bog‘liq qissalar go‘zal va betakror holatda bitilgan. Asar forsiy tilda yozilganligi bois turkiy xalqlar uchun ham qiziqarli bo‘lganligi tufayli mashhur Maxdum Qodiriylar sulolasidan bo‘lmish Eshon Janobi Sulton Sayyid xo‘ja Ibn Mahmudxo‘ja Eshon Toshkandiy bu asarni turkiy tilga tarjima qilgan. Shu bois asar “Durrul majolisi turki” deb nomlangan. Maqolada Muhammad (s.a.v) va chahoryorlardan hazrati Ali haqidagi hikoyatlar g‘oyaviy-badiiy tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: Durrul majolis, Saif Zafari Buxoriy, toshbosma, nashr, Basmala, qo‘lyozma, badiiyat, Qur’oni Karim, Hadisi Sharif, Muhammad (s.a.v), hazrati Ali, tasavvuf.

Annotation. The work “Durrul Majolis” is written in Persian language, it is related to the life of the prophets sent after the creation of Adam, and the last prophet, Muhammad, and the companions and saints who followed him on the right path. The stories are written in a beautiful and unique way. Since the work was written in Persian, it was also interesting for Turkic peoples, Eshan Janabi Sultan Sayyid Khoja Ibn Mahmudhoja Eshan Tashkandi, a member of the famous Makhdum Qadiri dynasty, translated this work into Turkish. That is why the work is called “Durrul Majolisi Turki”. The article analyzes the ideological and artistic aspects of the stories about Muhammad (pbuh) and Hazrat Ali from the four tribes.

Key words: Durrul Majolis, Saif Zafari Bukhari, lithograph, edition, Basmala, manuscript, art, Holy Qur'an, Hadith, Muhammad (s.a.v), hazrati Ali, Sufism.

“Durrul majolisi turki”da nomlari Qur’oni Karimda zikr etilgan o‘n ikki payg‘ambar haqida hikoyatlar keltirilgan. Ayniqsa, payg‘ambarlar orasida alohida maqom egasi bo‘lgan Muhammad (s.a.v) talqiniga alohida ahamiyat qaratilgan. Shu jihatdan ulug‘ payg‘ambar haqida ikki bobda: yettinchi va to‘qqizinchi boblarda qissa berilgan. Yettinchi bobdagi qissada muallif Qur’oniy asoslarga tayanish bilan birga badiiy to‘qimadan ham o‘rinli foydalangan. Bu bobda, asosan, payg‘ambarimizning islom diniga da’vat qilishlari, Abu Bakr Siddiq, Umar (r.a) larning islomni qabul qilishlari bilan bog‘liq mulohazalar badiiylik libosiga o‘rab ifodalangan. Qolaversa, Xadichayi kubroning ham payg‘ambarimizga bo‘lgan yusak muhabbati, cheksiz hurmati, Rasulullohning islom dushmanlaridan omonda bo‘lishlarini tilab Allohga qilgan iltijolari juda ta’sirli tarzda bayon etilgan. Shuningdek, Muhammad (s.a.v) ga dushman bo‘lib, har doim yomonlik tilagan, xalqni ham payg‘ambarga ishonmaslikka chaqirgan, rasulullohni sehrgarga chiqargan Abu Jahl obraziga ham murojaat qilingan. Qissada rasulullohning oyni ikkiga bo‘lish mo‘jizalari ham qalamga olinadi. Bilamizki, ushbu mo‘jiza Qur’oni Karimning “Qamar” surasida ham aks etgan. Muallif shu manbasi mavjud mo‘jizani keltirsa-da, ayni shu qissada ko‘plab badiiy to‘qima asosida badiiy mulohazalarni qalamga oladi. Aytish lozimki, mazkur bob badiiy to‘qimaga boyligi bilan ham ajralib turadi. Misol tariqasida rasulullogning arab hukmdori bilan uchrashishi va hukmdorning Muhammad (s.a.v) ga o‘zining islomni qabul qilishi uchun mo‘jiza ko‘rsatishni talab talab qilishini aytish mumkin. Hukmdor tomonidan talab qilingan mo‘jizalar orasida oyning ikkiga bo‘linishi “shaqqul qamar” hodisasi bilan birgalikda qo‘shimcha muallif tomonidan badiiy to‘qima sifatida kiritilgan qator mo‘jizalar ham berilgan: “Podshohi arab aydi: Sizdin ilgariki qaysi payg‘ambar mo‘jiza ko‘rsatdiki mashhurdur. Siz va payg‘ambar ohiri zamonman deb da'vo qilursiz, bizlarg‘a mo‘jiza ko‘rsating dedi. Payg‘ambar alayhissalom aydilar: Nima mo‘jiza talab qilursizlar dedilar. Podshohi arab aydi: Agar shom vaqtida chunon qorong‘uluq bo‘lsinki, birov-birovni ko‘rolmaydurg‘on

bo‘lsin, andin keyin bizlar ayturmizki: Duo qilg‘il toki oshal on yana ravshanlik bo‘lsun deb. Oshal on yana ravshan bo‘lsun. Andin so‘ng, ayg‘il, oy paydo bo‘lsun. Ka‘bani tomig‘a borib tursun va ka‘bani yetti marotaba tavof qilsun. Andin keyin sizg‘a salom qilsun va sizg‘a sano aytsun toki bizlar ham eshitg‘udek. Andin so‘ng oyga ishorat qiling to ikki bo‘lak bo‘lsun. Bir bo‘lagi yoqongizdin kirib etagingizdin chiqsun. Yana bir bo‘lagi o‘ng yengingizdin kirib chap yoqangizdin chiqsun. Yana har ikkovi osmong‘a chiqib bir bo‘lsun. Boz aytinki kun botishig‘a borib botsun va kun chiqishidin chiqsun. Boz osmonni o‘rtasig‘a kelsun. Boz yana ayting, ikki bo‘lak bo‘lsun. Biri janub tarafg‘a ketsun va biri shimol tarafg‘a ketsun. Hammasini shul tariqa ko‘rganimizdin so‘ng boz ayting, qadimgidek bo‘lsun deb”. Payg‘ambar (s.a.v) bu mo‘jizalarni ko‘rsatdilar. Shunda arab hukmdori rasulullohga yana shunday dedi: “Ey Muhammad, ushbu aytilg‘on so‘zlarimni ikki soat o‘tmasdin ilgari ko‘rsating andin so‘ng mani ko‘nglimdin ham har nima o‘tsa anga ham bir mo‘jiza ko‘rsating ki mani matlubim nimadur”. Shunda rasulullоh haq taolloga iltijo qilib podshohi arabning ko‘nglidan nima kechganligini uning maqsadi nima ekanligini so‘radilr. Shunda Jabroil a.s. kelib: “Ey Muhammad, farmoni Haq taolo shulki podshohi arabni ko‘nglidin o‘tgan so‘z shulki podshohni bir qizi bordur ikki ko‘zi ko‘rdur va qulog‘i kar va qo‘li va oyog‘i yo‘qdur”, dedi. Shunda haq taolodan farmon bo‘ldiki: “Ey Muhammad, duo qilg‘ilki duosin din qudratin birla hamma a'zosini sihat qilmoq mandin”, dedi. Rasulullоh duo qildilar, Alloh taoloning qudrati bilan podshohi arabining qizi shifo topdi. Shundan so‘ng, podshohi arab iymon keltirib, islom dinini qabul qiladi. Aytish lozimki, biror bir diniy yoki tarixiy manbada rasulullohning biror bir arab hukmdori, podshohi bilan uchrashganliklari qayd etilmagan. Demak, bu bilan muallif badiiy to‘qima vositasida fikr ta’sirchanligiga erishgan va islomning yoyilishi va Muhammad (s.a.v)ning haq payg‘ambar, Allohning habibi ekanliklariga alohida e’tibor qaratgan.

“Durrul majolisi turki” da payg‘ambarlar talqini bilan birga chahoryorlar va sahobalar hayoti zikr etilgan hikoyatlar ham salmoqli o‘rin egallaydi. Ya’ni asarda o‘n to‘rt sahoba hayoti yoritilgan hikoyatlar keltirilganligi fikrimizni dalillaydi. Jumladan, asarning o‘n birinchi bobi sahobalarning ulug‘laridan bo‘lgan Hazrati Ali (r.a.) haqidagi hikoyaga bag‘ishlangan. Bob “Hazrati Ali karramallohu vajhahuning hikmatlarining bayonidadur” deb nomlanadi. Mazkur hikoyatda Hazrati Ali (r.a.) va u zotning muhtaram zavjalari Hazrati Fotima (r.a.) haqida bayon keltirilgan. Hikoyada Hazrati Ali (r.a.) “Amirul mo‘minin”, “Sheri Xudo” va “Damad-i Mustafo” unvonlari bilan ta’riflangan, Hazrati Fotimai Zahro (r.a.) esa “qiyomat xotuni” sifatida zikr etilgan. Rivoyat qilinishicha, bir kuni Hazrati Ali (r.a.) Hazrati Fotimaga Sulaymon (a.s.) va Alloh taolo tomonidan unga ato etilgan cheksiz boylik haqida so‘zlaydilar. Hatto bu boylikning o‘xshashi boshqa hech kimga berilmagan edi. Bu hikoyani Amirul mo‘minin Ali karramallohu

vajhahudan qiyomat xotuni Fotimai Zahro (r.a.) eshitib, muborak ko‘ngillaridan shunday o‘tkazadilar: “Hazrati Alining dunyolikdan hech narsalari yo‘qdir, ajabki bu so‘zni bir turli dil siniqligi bilan aytdilarmikan?” deb sabr qiladilar (Saif Zafar Buxoriy, 1329/1910, 45-bet).

Bir kuni Hazrati Fotimai Zahro Muhammad (s.a.v.)ning ravzalarini ziyorat qilish uchun boradilar. Otalaridan keyin bu olam o‘zlariga qorong‘u bo‘lib ko‘ringanini bayon qilib yig‘laydilar va munojot qiladilar. Nogoh uyqu g‘olib kelib, Rasulullohning muborak jamollarini tushlarida ko‘radilar. Rasulullоh (s.a.v.) marhamat qilib aytadilar: “Ey otaning jigarbandi, biz seni kutmoqdamiz. Menga farmon bo‘ldiki, bugun Fotimai Zahro bilan iftor qilursizlar. Karam dasturxoni boshida men va onang seni kutib turibmiz” (Saif Zafar Buxoriy, 1329/1910, 46-bet).

Shundan so‘ng Hazrati Fotima uyqudan uyg‘onib, uylariga qaytadilar. Hasan va Husayn ibn Ali hazratlarini oldilariga o‘tqazadilar. Ularning yuzlariga boqib ham yig‘lar, ham tabassum qilardilar. Bu holni ko‘rgan Hazrati Ali (r.a.) taajjub bilan: “Ey Fotimai Zahro, yig‘lashing bilan kulishingning sababi nedir?” deb so‘raydilar.

Hazrati Fotima javoban aytadilarki: “Ey Ali, menga oxirat safari tayyor bo‘ldi. Imom Hasan bilan Imom Husayn onasiz qolurlar deb ularga qarab yig‘ladim. Yana bu foniy olamning azoblaridan qutulib, Haq Ma’budning dargohiga, otam va onamning diydoriga yetishurman deb kulaman”. Shundan keyin yana bir necha kalima aytib, kalimai shahodatni zikr etib, muborak ruhlarini Haqqa topshiradilar. Hikoyada bayon qilinishicha, barcha xalq yig‘lagan, go‘yo qiyomat qo‘pgandek motam yuzaga kelgan edi. Zero Rasulullоh (s.a.v.)dan qolgan bir yodgor sifatida Hazrati Fotima qolgan edilar.

Bu bobda halol rizq, sabr, qo‘shnichilik haqqi va boshqalarning haqqini rioya qilish kabi masalalarga alohida urg‘u berilgan. Ayniqsa quyidagi parcha orqali banda haqqini ado etish va omonatni egasiga qaytarish masalasi kuchli tarzda yoritilgan: Hazrati Fotima dafn etilgandan keyin Amirul mo‘minin Ali karramallohu vajhahu uylariga qaytadilar. O‘sha kecha tushlarida Hazrati Fotimani ko‘radilar: ular jannat eshigi oldida ichkariga kira olmay, to‘xtab turardilar. So‘rab dedilar: “Ey Fotima, ne sababdan jannat eshigi oldida tursan?” Hazrati Fotima javoban aytadilar: “Jannat qo‘riqchisi Ridvon aytdiki: ‘Qo‘shningning omonatini qaytarmaguningcha seni jannatga kiritmaslik haqida farmon bo‘ldi’. Shu sababli ichkariga kira olmay turibman”. Hazrati Ali so‘raydilar: “Qanday omonat olgan eding?” Hazrati Fotima aytadilar: “Qo‘shnimdan bir igna omonat olgan edim. Libosimni tikib, falon devorga sanchib qo‘ygan edim, xotiramdan chiqib ketibdi. Uni topib egasiga qaytar”.

Shundan so‘ng Hazrati Ali uyg‘onib, o‘sha ignani topadilar va egasiga topshiradilar. Ertasi kecha yana tush ko‘radilar: Hazrati Fotima jannatning

yuqorisida oliy bir taxt ustida o‘tirgan emishlar. Hurlar saf-saf tizilgan, har birining qo‘lida nurdan yasalgan laganlarda turli ne’matlar bo‘lib, huzurlarida turar edi (Saif Zafar Buxoriy, 1329/1910, 48-bet).

Bu rivoyatdan anglashilishicha, omonatni qaytarish har bir inson uchun vojibdir. Hatto eng ulug‘ payg‘ambarning qizlari bo‘lgan Hazrati Fotima uchun ham bu hukm amal qilgan. Muallifning bunday qissani asarga kiritishi ham didaktik, ham e’tiqodiy jihatdan muhimdir. Bir tomondan Islomning adolat va haqqoniyatga asoslangan tizimini, ikkinchi tomondan esa Alloh huzurida barcha bandalar huquq oldida teng ekanini ko‘rsatadi. Hikoya so‘ngida Hazrati Aliga ato etilgan martabaga ishora qilinadi. Rivoyatda shunday deyiladi: “Ey Ali, Fotimaning huzurida Sulaymon alayhissalomning kuyoviga berilgan toj haqida hikoya qilgan eding. Endi o‘zingga boqki, senga qanday toj berdim: Muhammadning bayrog‘i senga toj bo‘ldi. Bandalarim o‘sha tojga gavhar bo‘lurlar. Izzat, hurmat, shafoat va ummatning ziynati sen bilan barpo bo‘lur. Otang huzurida va Haq taolo dargohida ham shundaydir” (Saif Zafar Buxoriy, 1329/1910, 51-bet).

Muallif bu manqabani xayrli duo bilan nihoyasiga yetkazadi va o‘n birinchi bob shu tariqa tamom bo‘ladi. Bu qissa Islom axloqining eng nozik jihatini ko‘rsatadi: kichik ko‘ringan bir igna ham qiyomat tarozisida og‘ir keladi.

Saif Zafar Buxoriyning “Durrul majolis” asari payg‘ambarlar tarixiga bag‘ishlangan. Ushbu asarlarda Qur’oni Karimda nomlari zikr etilgan payg‘ambarlar hayotiga oid voqealar badiiy talqin etilgan. Payg‘ambarlar tarixiga oid asarlar yaratish arab bo‘lmagan xalqlarda arab tilida nozil qilingan Qur’oni Karim kitobini o‘rganish va uning mohiyatini to‘liq anglashga katta yordam bergan. Shuning uchun ayni xarakterdagi asarlar yaratilgan.

Saif Zafar Buxoriyning “Durrul majolis” asari fors tilida yaratilgan bo‘lib, Eshon Janobi Sulton Sayyid xo‘ja Ibn Mahmudxo‘ja eshon Toshkandiy tomonidan tarjima qilinib, 1910-yilda G‘ulomiy matbaasida bosilgan. Tarjimon mazkur asarni tarjima qilgan sanasini aniq ko‘rsatmagan. Forsiydan turkiy tilga tarjima qilinganligi bois, “Durrul majolisi turkiy” deb nomlanganligi aytiladi.

Asarda Qur’oni Karimda nomlari zikr etilgan payg‘ambarlar, sahobalar, so‘fiy-shayxlar haqida qissalar berilgan. Qolaversa, asarda qator ibratli didaktik hikoyatlar ham kiritilgan. Muallif asar bayonida o‘ziga xoslikka erishish va kitobning tarbiyaviy ahamiyatini oshirish maqsadida didaktik hikoyatlarni kiritgan bo‘lishi mumkin.

Kitobning asosiy manbasi sifatida Qur’oni Karim va Hadisi Sharifni qayd etish lozim. Shunday bo‘lsa-da, muallif har bir qissada badiiy to‘qimadan foydalanib, asar ifodasidagi ta’sirchanlikka erishgan deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Durrul majolisi turkiy. Buxoro toshbosmasi, Toshkent 1329/ 1910
2. Saif Zafar Navbahoriy. Durrul majolis. Toshkent, “Meros” 1992
3. Сайф Зафари Бухороӣ. ДУРР-УЛ-МАҶОЛИС. Таҳияи Р. Қурбониён. 1992.
4. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. XX жилдлик. XVII жилд. Насойим-ул муҳаббат. – Тошкент: Фан, 2001
5. Attor F. Tazkiratul avliyo. Toshkent. 2013 y.
6. Komilov N. Tasavvuf. 1-kitob. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
7. Қуръони Карим. (Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф таржимаси). Тошкент. 2011.
8. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. (Таржима ва тафсир муаллифи Абдулазиз Мансур). Тошкент. 2004.
9. Amonova Z., Boqiyev A. Saif Zafari Buxoriyning "Durrul majolis" asarida Odam (a.s) talqini. Oltin bitiklar. 2024/2, 28-41-betlar

JAN JIONO VA SHODIQUL HAMRO ASARLARIDA INSON VA TABIAT DIALEKTIKASI

Rajabova Ma’rifat Baqoyevna,
Buxoro davlat universiteti professori
(O‘zbekiston)

Annotatsiya. Mazkur maqola global ekologik inqiroz sharoitida inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning ma’naviy-estetik mezonlarini tadqiq etishga bag‘ishlangan. *Tadqiqotning asosiy maqsadi* – tabiatni muhofaza qilish jarayonini shunchaki ekologik vazifa emas, balki inson ma’naviyati, milliy qadriyatlari va madaniy xotirasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan transformatsiyalashuv jarayon ekanligini badiiy asarlar tahlili orqali ilmiy asoslab berishdan iborat. Shu bilan birga, inson va tabiat dialektikasini o‘rganish orqali ekologik barqarorlikka erishishda badiiy adabiyot va ma’naviy tarbiyaning tutgan o‘rnini ko‘rsatib berishdan iborat.

Kalit so‘zlar: ekologik barqarorlik, ekologik ma’naviyat, Jan Jiono, Shodiqul Hamro, badiiy talqin, qiyosiy-tipologik tahlil, regeneratsiya, daraxt, inson va tabiat, ma’naviy mezonlar, transformatsiya.

Abstract. This article is dedicated to the study of the spiritual and aesthetic criteria of the interaction between man and nature in the context of the global environmental crisis. The main objective of the research is to provide a scientific

basis, through the analysis of literary works, for the fact that the process of environmental protection is not merely an ecological task, but a transformative process inextricably linked to human spirituality, national values, and cultural memory. Furthermore, by studying the dialectics of man and nature, the article aims to demonstrate the role of literature and spiritual education in achieving environmental sustainability.

Keywords: ecological stability, ecological spirituality, Jean Giono, Shodiqul Hamro, artistic interpretation, comparative-typological analysis, regeneration, tree, man and nature, spiritual criteria, transformation.

Jahon adabiyotida tabiat va inson munosabatlarini ekokritik nuqtai nazardan tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Fransuz adabiyotining yirik vakili Jan Jiononing “Daraxt ekkan odam” (The Man Who Planted Trees) hikoyasi va zamonaviy o‘zbek adabiyotining iste’dodli vakili Shodiqul Hamroning “Hovlidagi daraxt” asari mana shunday ma’naviy-ekologik izlanishlarning yorqin namunalari hisoblanadi.

J. Jiono asarida qaqragan va hayot so‘ngan Provans yerlarini bir insonning irodasi va daraxt ekishga bo‘lgan ma’naviy ehtiyoji orqali qayta tiklanishi tasvirlansa, Sh. Hamro ijodida daraxt – milliy qadriyatlar, ajdodlar merosi va insoniylik qiyofasini belgilovchi muqaddas timsol sifatida gavdalanadi. Har ikki adib ijodida daraxt ekish yoki uni asrash shunchaki xo‘jalik faoliyati emas, balki insonning borliq bilan ma’naviy muloqoti, uning ichki olamining tozalanishi va kelajak avlod oldidagi mas’uliyati sifatida talqin qilinadi.

Fransuz adibi *J. Jiononing “Daraxt ekkan odam” hikoyasi jahon* eko-adabiyotining klassik namunasi hisoblanadi. Asarning kirish qismidayoq muallif asosiy ma’naviy mezonni belgilab beradi: *“Agar bu harakatlar har qanday xususiy manfaatdan (egoizmdan) xoli bo‘lsa, agar uning asosiy motivi beqiyos saxovat bo‘lsa, agar u hech qanday mukofot kutmayotgani mutlaqo aniq bo‘lsa va buning ustiga, u yer yuzida o‘zidan sezilarli iz qoldirgan bo‘lsa – demak, biz adashmagan bo‘lamiz”.* Bu ma’naviy mezonni muallif inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarning ilohiy va axloqiy mohiyatga ega ekanligi bilan izohlaydi. *Muallif mazkur g‘oyani asar qahramoni* Elzear Buffe timolida ko‘rsatib beradi.

Jiono voqealarni birinchi shaxs nomidan hikoya qiladi. Hikoyachi – oddiy sayyoh. U 1913 – yilda Elzear Buffe bilan tasodifan uchrashadi. U qahramon (Elzear Buffe)ning yillar davomida qilgan mehnatini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, inson irodasiga, uning tabiatga bo‘lgan muhabbatiga guvoh bo‘ladi.

Asar 1913-yilda hikoyachining Alp tog‘lari etagidagi qaqragan, kimsasiz sahro bo‘ylab qilgan sayohati bilan boshlanadi. Birinchi jahon urushidan avval yosh sayyoh (hikoyachi) bu yerlarda suv izlab yurib, Elzear Buffe ismli yolg‘iz cho‘ponga duch keladi. Cho‘pon har kuni 100 ta eman yong‘og‘ini saralab, ularni yerga ekardi. Oradan ikkita jahon urushi o‘tadi. Hikoyachi vaqti-vaqti bilan

Buffeni ziyorat qilib turadi. Hamma urush va vayrongarchilik bilan band bo‘lgan bir paytda, qariya jimgina daraxt ekishda davom etadi.

Yillar o‘tib, cho‘pon ekkan kichik nihollar ulkan o‘rmonga aylanadi. Natijada tabiatda o‘zgardi. Namlik qaytadi, qurigan buloqlardan yana suv oqa boshlaydi, atrof yashillikka burkanadi. Suv va o‘rmonning tiklanishi bilan bu yerlarga odamlar qayta boshlaydi. Ilgari nafrat va umidsizlik hukm surgan xaroba qishloqlar o‘rnida baxtli, mehnatsevar insonlar yashaydigan fayzli maskanlar paydo bo‘ladi. Vayrona qishloqlar qayta tiklanib, odamlar baxtli hayot kechira boshlaydi.

Jiono hikoyani ikkita qarama-qarshi estetik manzara asosiga quradi. *1913-yil:* Qumloq, rangsiz, yovvoyi lavanda, qurigan buloqlar, vahshiylashgan odamlar. Bu – ekologik va ma’naviy inqirozning estetik ifodasi. Hikoya boshida tasvirlangan “qaqragan sahro va huvillab qolgan qishloqlar” insonlar qalbidagi nafrat va umidsizlikka ishora: “*Ular bir-birini yomon ko‘radigan, ov bilan kun kechiradigan, ham jismonan, ham ma’nan ibtidoiy inson darajasidan unchalik farq qilmaydigan vahshiy mahluqlarga aylanib qolishgandi... Ular uchun faqat o‘limni kutish qolgandi”*. Hikoyada tasvirlangan “quruq shamol” va “yovvoyi lavanda” tasviri orqali muallif jamiyat a’zolarining ma’naviy qiyofasining qashshshoqligiga ishora qilingan. Ular “vahshiylashib” ketgan, chunki ularning yashash makonida hayot manbai – suv va daraxt yo‘q. E’tibor bersak, muallif ekologik inqirozni insonning ma’naviy inqirozi bilan paralel tasvirlaydi. Tabiat qurigan joyda axloq ham quriydi. Inson atrof-muhitni vayron qilar ekan, bilvosita o‘z ichki dunyosini ham vayron qilishiga ishora qiladi muallif.

1945-yil: Mayin shabada, suv sharqirashi, lipa daraxti, gullayotgan bog‘lar... Endi esa hamma narsa o‘zgargandi. Qaqragan quruq shamollar o‘rniga, xushbo‘y iforlarga to‘la mayin shabada esardi. Bu – ekologik tiklanishning estetik g‘alabasi edi.

Asar yakunida tabiatning go‘zallashishi (estetik mezon) jamiyatning poklanishiga va yangi hayot boshlanishidan darak beradi. “*Qishloqda favvora qurilganini va undan suv sharqirab oqayotganini ko‘rdim... Demak, umid qaytgan edi... Yo‘llarda siz sog‘lom erkak va ayollarni, kulishni biladigan, sayr qilish zavqini qayta topgan o‘g‘il-qizlarni uchratasiz”*. Albatta, bu tasvirlarda ramziylik mavjud. Bois, tabiatda suvning qaytishi – insonlar qalbida mehr va oqibatning qaytishi demakdir. Ekologik barqarorlik (yashillik va suv) estetik zavq berish bilan birga, insonlarni vahshiylikdan madaniyatga, nafratdan muhabbatga olib chiqadi.

Elzear Buffening har bir ekkan daraxti – bu nafaqat tabiatga, balki inson umidiga qo‘yilgan haykaldir. Uning yolg‘izlikdagi mehnati ruhiy poklanishining oliy bosqichidir. *“Ohista va muntazam mehnat, tog‘ning toza havosi, tejamkorlik va eng muhimi, qalb xotirjamligi bu qariyaga hayratlanarli darajada mustahkam sog‘liq baxsh etgandi”,* – deb yozadi, muallif.

Odatda, insonlar vaqtni o‘z umri, kundalik ehtiyojlari yoki siyosiy voqealar (urushlar) bilan o‘lchaydilar. Buffe uchun esa vaqt – bu daraxtning o‘sish sur’atidir. *“Men (hikoyachi) unga o‘ttiz yildan keyin uning o‘n mingta emani juda mahobatli bo‘lib ketishini aytdim. U esa juda oddiygina qilib, agar Xudo unga umr bersa... yana shuncha ko‘p daraxt ekadiki, bu o‘n mingtasi ummondagi bir tomchidek bo‘lib qoladi”.* Demak, Buffe vaqt tushunchasini inson o‘lchovlaridan chiqarib, tabiat o‘lchovlariga (daraxtning o‘sish sur’atiga) moslaydi. Uning uchun vaqt – ekilgan urug‘ning unib chiqishidir. Buffe tabiatni tiklash orqali o‘z qalbidagi og‘ir yo‘qotishlarni (xotini va o‘g‘lining o‘limi) davolaydi.

Hikoyada ikkita jahon urushi tilga olinadi. Bu urushlar millionlab insonlar uchun vaqtning to‘xtashi yoki fojiasi edi. Ammo Buffe uchun bu vaqtlar ham daraxt ekish uchun qulay fursat bo‘lib qoldi. *“Urush uni zarracha bezovta qilmagan. U hech bir tashvishsiz daraxt ekishda davom etgan... 14-yildagi urush kabi 39-yildagisini ham e’tiborsiz qoldirib, tinchgina o‘z ishini davom ettiraverdi”*.

Hikoyada daraxt obrazi shunchaki obyekt emas, balki asarning g‘oyaviy-kompozitsion markazini tashkil etuvchi, ko‘p qatlamli ma’naviy-estetik ramz hisoblanadi. Ushbu ramz orqali muallif inson irodasi va tabiat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib beradi. Asarda daraxt obrazi bosh qahramon Elzear Buffening ichki dunyosi bilan parallel ravishda rivojlanib, insonning yaratuvchanlik qudratini ifodalaydi. Muallif bu jarayonni yuksak falsafiy mushohada bilan shunday tasvirlaydi: *“Bularning barchasi hech qanday texnik vositalarsiz, faqatgina bir insonning qo‘llari va qalbidan yaratilganini o‘ylar ekansiz, inson nafaqat vayron qilishda, balki boshqa sohalarda ham Xudo kabi qudratli bo‘la olishini tushunardingiz”.*

Jan Jiono tasvirida daraxtlarning turlari (eman, buk, qayin) o‘zgacha estetik nafosat bilan gavdalantirilgan bo‘lib, bu yerda “go‘zallik” tushunchasi ekologik barqarorlikning asosiy mezoni sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, adib qayin daraxtlarining yashovchanligi va tashqi ko‘rinishini insoniy sifatlar bilan qiyoslab, ular *“xuddi yosh qizlardek nafosatli va juda yaxshi ildiz otgan edi”*, deya ta’kidlaydi. Bu kabi tasvirlar tabiatning qayta tiklanishi nafaqat ekologik hodisa, balki estetik uyg‘onish ekanini ham isbotlaydi.

Jan Jiononing “Daraxt ekkan odam” hikoyasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, *insonning ma’naviy matonati va fidoyiligi orqali dunyoni o‘zgartirish mumkin,* degan g‘oya ilgari suriladi. Bu obraz vositasida ezgulik qilish uchun moddiy mukofot yoki shuhrat talab etilmasligi, aksincha, tabiatni asrash kelajak avlod oldidagi eng oliy axloqiy burch ekanligi mantiqiy asoslab beriladi.

Bu kabi konseptual qarashlar o‘zbek adabiyoti vakili Shodiqul Hamroning “Hovlidagi daraxt” hikoyasidagi inson va tabiat munosabatlari talqini bilan mushtaraklik kasb etishi jihatidan ahamiyatlidir.

Agar Jan Jionoda daraxt ramzi *“sahroni o‘rmonga aylantiruvchi iroda”* sifatida talqin qilinsa, Shodiqul Hamro ijodida daraxt *“milliy qadriyat va ajdodlar merosiga sadoqat”* ramzi sifatida gavdalanadi. Bu ikki yondashuv orqali inson va tabiat munosabatlarining turli qirralari ochib berilgan.

Shodiqul Hamroning “Hovlidagi daraxt” hikoyasida inson va uning ma’naviy ildizlari, avlodlar o‘rtasidagi uzviylik hamda milliy o‘zlikni asrash muammosi tabiat va inson taqdirining mushtarakligi tamoyili asosida talqin qilinadi. Asarning konseptual yo‘nalishlaridan yana biri insonning o‘z ildizlar (ajdodlar)iga, oilaviy qadriyatlariga va o‘tmishiga bo‘lgan munosabatidir.

Hikoya qahramon xonadonidagi g‘ayritabiiy daraxt tasviri bilan boshlanadi. Bu daraxt yilda ikki marta (bahor va kuzda) gullaydi, ammo meva bermaydi. Qishloqda yagona bo‘lgan bu daraxtning kelib chiqishi bobosining yerga sanchib qo‘ygan hassasining mo‘jizaviy tarzda ko‘karishi bilan bog‘liq bo‘lib, u oila uchun omonat va shajara ramzi hisoblanadi.

Hikoyachining otasi bu daraxtni ko‘z qorachig‘idek asraydi. Otaning o‘tmishida mudhish bir voqea bor: u yoshligida tuhmat bilan qamalgan va qamoqdan qaytayotganda poezd derazasidan ko‘rgan birgina yashil daraxt uning hayotga bo‘lgan umidini uyg‘otgan. Shu sababli ota uchun yashillik va bu muqaddas daraxt – hayotning o‘zi demakdir.

Ota og‘ir betob bo‘lib qolganda, xonadoniga ikkita “ma’naviy xavf” kirib keladi. Birinchisi – shaharda o‘qib, milliy qiyofasi va uzun sochlarini (an’anaviy go‘zallikni) yo‘qotgan katta opa. Ikkinchisi – “Muhojir” laqabli kimsa. Ota kasalxonada yotgan paytda, uning katta o‘g‘li bir dona eski soat evaziga Muhojirga daraxtning uchta shoxini kesib beradi.

Daraxt bahor kelsa-da, kurtak yozmaydi. Muhojirning qizi orqali bo‘lan voeani eshitgan ota, kasalxonadan yarimjon holatda qaytib keladi. U daraxtning nafaqat shoxlari kesilganini, balki ildiziga Muhojir tomonidan zahar solinganini aniqlaydi. Bu vahshiylik otaning qalbini va jismini larzaga soladi. Lekin daraxt ildizlarida hali namlik (hayot belgisi) borligini ko‘rib, unda yashashga umid paydo bo‘ladi. Ota daraxtni qutqarish orqali o‘zligini va oilaviy ma’naviyatini qayta tiklashga ahd qiladi.

Ko‘rinib turibdiki, hikoyaning asosiy g‘oyaviy yo‘nalishi bobodan meros qolgan hassaning daraxtga aylanishi orqali ifodalangan. Hikoyada “daraxt” o‘simlik maqomidan ko‘tarilib, asarning mazmuniy-estetik markazini tashkil qilgan. Hikoyada “daraxt” ramzi metaforik va mifologik ma’no tashuvchi simvol darajasiga ko‘tarilgan. Boboning hassasidan daraxt unib chiqishi mumtoz sharq adabiyoti va diniy matnlardagi “mo‘jizaviy jonlanish” motivlari bilan bevosita bog‘liq. “Hassa” – tayanch va hidoyat ramzi bo‘lsa, uning “ko‘karishi”– qadriyat va an’analarning davomiyligini anglatadi. *“Ariq labiga suqilgan hassa nish otib ko‘karayotgan emish... Shu zahotiyoq bobom “Ey, jonivor, sening taningda namlik*

bor ekan-u, men shuncha vaqt gunohga botib seni sudrab yuribman... Mayli, unib-o‘sgin”, deya hassasini shu yerda qoldiribdi”. Keltirilgan iqtibosdan ko‘rinib turibdiki, matnda hassa va daraxt belgilari o‘rtasida simvolik funksional almashinuv yuz beradi. *Hassa* – keksalik va tayanch ramzi sifatida namoyon bo‘lsa, *daraxt* – hayot, mangulik va o‘sish timsolidir. Shu tariqa hassaning nish otib, ko‘karishi orqali hayotning uzluksizligi va tabiatning qayta yangilanish g‘oyasi ifodalangan.

Hikoyadagi daraxtning xususiyatlarini inson xarakterining belgilari sifatida talqin qilish mumkin. Otaning daraxt haqidagi mulohazalarida milliy o‘zlikni anglash va oriyat tushunchasi mujassamlashgan: *“Bu daraxtning tomiri boshqa daraxtlar singari yonboshga emas, yer qa’riga tik o‘sadi... Boshqa daraxt ildizlari bilan chatishmaydi hamda o‘ziga kerakli ozuqani o‘zi topib, yer ustidagi tanasini toza va mustahkam saqlaydi...”* Bu tasvir orqali adib inson tabiatidagi insoniylik fazilatlarni daraxtning biologik xususiyatlari bilan uyg‘unlashtiradi. Daraxt ildizining boshqa daraxt ildizlari bilan chatishmasligi insonning o‘z qadriyatlari va ma’naviy mezonlariga sodiq qolishi, tashqi ta’sirlarga berilmasligi va o‘zligini yo‘qotmasligi g‘oyasini anglatadi.

Ota uchun daraxt – oilaviy butunlik, ajdodlar merosi, aka uchun esa – vaqtinchalik matoh (soat) uchun vosita. Akaning “zanjiri uzun soat”ga avlodlar xotirasini (daraxt shoxini) almashishi – ma’naviy qadriyatlarning yemirilish belgisidir. Tasvirda keltirilgan “qaychi” va “kesilgan shox” – oilaviy zanjirning uzilishini bildiruvchi ramzlardir.

Hikoyada davrning tragik holati Muhojir obrazi orqali ochib beriladi. Uning kelib chiqishi, o‘tmishi va tayini yo‘q. U jamiyatga begona shaxs. Uning ismi ham shunga ishora qiladi. Muhojir – an’analarga “begona” shaxs. Muhojirning daraxt tagiga dori sepishi shunchaki shaxsiy adovat emas, balki davrning eng katta fojiasi, an’analarni yo‘q qilishga bo‘lgan vahshiyona urinishidir.

Muallif Muhojir obrazi orqali o‘zligini yo‘qotgan, boshqalarning muqaddas qadriyatlarini tushunmaydigan va ularni yo‘q qilmoqchi bo‘lgan “yangi davr kishisi”ning xavfli qiyofasini chizib beradi.

Hikoya quyidagi tasvir bilan yakunlanadi:

– Ostiga dori sepishgan ekan, vahshiylar! – dedi u ilonday vishillab va daraxt poyiga sudralib keldi-da, tuproqni sidirib, tomirlarini ushlab ko‘rdi. Tomirlarni daraxlarning tiriklik belgisi – namlik butkul tark etmagan edi… Otamning yuzida umid shu’lalandi… – Oz bo‘lsa-da, hali vaqt bor ekan. Endi oyoqqa turishim kerak, – deb pichirladi u daraxt tomirlariga qarab…

Otaning “ilonday vishillashi” va daraxt yoniga “sudralib kelishi” – uning o‘z ildizi (daraxt) bilan bir tan-u bir jon ekanligini, daraxt azobi – otaning azobi ekanini ko‘rsatuvchi parallelizmdir. Daraxtning tomiridagi tiriklik otaning ruhiga ko‘chadi. Otaning daraxt tomirlarida hali namlik borligini his qilishi va “oyoqqa

turishim kerak” deyishi – *umid belgisidir*. Ya’ni, ildiz tirik ekan, an’analar o‘lmaydi. Demak, daraxtning zaharlanishi ma’naviy tubanlik sifatida, uning qayta jonlanishi esa shaxsning o‘zlikni anglash va axloqiy poklanish jarayoniga ishora qiladi.

Ildizdagi namlikning saqlanishi milliy qadriyatlarning uzviyligiga ishora. Boboning “Oz bo‘lsa-da, hali vaqt bor ekan. Endi oyoqqa turishim kerak” degan so‘zlari daraxtning biologik tiklanishi va insonning ruhiy uyg‘onishi o‘rtasidagi ontologik birlikni isbotlaydi. Bu o‘rinda “namlik” – o‘tmish (ajdodlar merosi) va kelajak (yangilanish)ni bog‘lovchi “tiriklik substansiyasi” vazifasini o‘taydi.

Hikoyada keltirilgan tasvirlar tizimida daraxt tabiat unsuri sifatida emas, balki inson xarakteri va milliy axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi ramz sifatida namoyon bo‘ladi. Adib hikoyada hovlidagi daraxtni xonadonning ma’naviy suyanchig‘i, oila tarixi va ajdodlar xotirasini o‘zida mujassam etgan *“tirik shajara”* sifatida gavdalantiradi.

Hovlidagi daraxt – bobolar ekkan, otalar parvarishlagan va nabiralarga meros qolgan ma’naviy ko‘prikdir. Shu tariqa, Shodiqul Hamroning “Hovlidagi daraxt” hikoyasida ekologik barqarorlik va ma’naviy izchillik tushunchalari bir-birini to‘ldiradi. Adib ta’kidlaganidek, insonning o‘z ildizlaridan uzilishi uning ma’naviy tanazzuliga, demakki, tabiat bilan uyg‘unlikning buzilishiga olib keladi.

Yuqoridagi tahlillardandan ayonlashadiki, Jiono qahramoni uchun daraxt ekish kelajakni qurish bo‘lsa, Shodiqul Hamro qahramonlari uchun daraxtni asrash – o‘zligini, ajdodlar nafasi ufurib turgan ma’naviy qadriyatlarni himoya qilishdir. “Daraxt ekkan odam” hikoyasida tabiatni tiklash orqali insoniyatga umid qaytarilsa, “Hovlidagi daraxt”da mavjud daraxtni (ya’ni mavjud qadriyatni) asrab qolish orqali milliy o‘zlikni himoya qilish masalasi ustuvorlik qiladi.

Jan Jiono va Shodiqul Hamro ijodida inson va tabiat munosabatlarining badiiy talqinini qiyosiy o‘rganish natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, har ikki adib ham ekologik barqarorlikni shunchaki moddiy-biologik jarayon emas, balki teran ma’naviy hodisa sifatida talqin etadi. Jan Jiono tasvirlagan *sahro* yoki Shodiqul Hamro hikoyasidagi *zaharlangan daraxt* jamiyatdagi ma’naviy qashshoqlik va insoniy fazilatlar inqirozining ramziy ifodasidir. Tabiatning inqirozi inson ruhiyatidagi vayronkorlikning tashqi olamdagi aksi sifatida namoyon bo‘ladi.

2. Tahlil etilgan asarlarda “matonat” tushunchasi ekologik tiklanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq bu fazilat ikki xil rakursda namoyon bo‘ladi: Jan Jionoda matonat – *sabr va yaratuvchanlik* shaklida namoyon bo‘lsa, Shodiqul Hamro badiiy olamida matonat – vorisiylik, ajdodlar merosiga sodiqlik va milliy o‘zlikni ifodalovchi “ma’naviy ildiz”larni (“ildizni va omonatni asrash”) asrab qolish shaklida gavdalanadi. Har ikki holatda ham daraxt

ramzi inson ruhiyatining poklanishiga ishora qiladi. Inson tabiatni qutqarish orqali o‘z ma’naviy qiyofasini qayta tiklaydi.

3. Tabiatning go‘zallashishi (daraxtning gullashi, suvning qaytishi) faqatgina manzara emas, balki jamiyatdagi axloqiy muhitning yaxshilanishiga ishoradir. Jionoda o‘rmonning paydo bo‘lishi bilan qishloqqa baxt qaytsa, Hamroda daraxtning tirikligi oilaviy shajara va ma’naviy butunlikning saqlanib qolishiga ishoradir.

Xulosa qilib aytganda, J. Jiono va Shodiqul Hamro ijodiga mansub tahlilga tortilgan asarlar zamonaviy eko-adabiyotning nodir namunalari sifatida ahamiyatlidir. Tadqiqot davomida qo‘llanilgan germenevtik va qiyosiy-tipologik tahlil metodlari har ikki adibning ekologik barqarorlik borasidagi qarashlari mushtarak maqsadga – inson ruhiyatini tabiat bilan uyg‘unlashtirishga yo‘naltirilganlligini ko‘rsatdi. Tabiatdagi qayta tiklanish jarayoni har ikki asarda ham shaxsning ma’naviy poklanish (katarsis) jarayoni bilan dialektik bog‘liqlikda ifodalangan. Har ikkala muallif ma’naviy-estetik mezonlar orqali inson va tabiat o‘rtasidagi uzviy uyg‘unlikni qayta tiklash hamda global ekologik inqirozni yengib o‘tish mumkinligini ko‘rsatib beradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tajibayeva, L. F. (2025). The portrayal of nature-human relationships in literature. https://dergipark.org.tr/en/download/article-file/5562876
2. Shodiqul Hamro. Hovlidagi daraxt (hikoya). https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/shodiqul-hamro/shodiqul-hamro-hovlidagi-daraxt-hikoya.
3. Jean GIono. The Man Who Planted Trees. https://campus.murraystate.edu/academic/faculty/dfender/OSH650/readings/Giono--The%20Man%20Who%20Planted%20Trees.pdf

BADIIY SO‘Z SALMOG‘I

Umida Rasulova,
Toshkent davlat o‘zbek tili
va adabiyoti universiteti professori,
filologiya fanlari doktori
(O‘zbekiston)

Annotatsiya. Maqolada ritmning badiiy matn izchilligi, jumla ravonligi, jarangdorligi, qismlararo uzviylik, asar yaxlitligini ta’minlashda asar tarkibi (strukturasi)da ma’lum bir poetik vazifani bajarishi asoslanadi. Asarning tarkibiy struktural butunligini ta’minlashda, syujet, xarakter yaratishda tarkib yaxlitligi ritmda namoyon bo‘lishi ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar : so‘z, poetika, pafos, pauza, matn, tarkib

Ritm hissiy va tasviriy samarani kuchaytiradi, nutq sintaktik elementlarining tartibli taqsimlanishi, mazmun salmoqdorligi, fikr va tuyg‘u uyg‘unligi, asar ohangdorligiga erishishda muhim vosita hisoblanadi. Jumla ravonligi, tovush va so‘z jarangi, mantiqiy pauza, qofiya va takrorlar, intonatsiya jilvadorligi emotsionallikni oshiradi. Badiiy vositalardagi xushohanglik, yorqin bo‘yoqdorlik, falsafiy teranlik asar mohiyatini anglatishda kishi hissiyotiga ta’sir etuvchi yangi poetik tasvir yaratadi. Ritm ma’no qirralarini aks ettirishda, so‘zning nozik ma’no farqlanishlarini, ohang turlanishlarini ifodalashda, nutqni mukammal his qilishda zarur vositadir. Yozuvchi tafakkur va tasavvur olamining kengligi, iste’dodi, didi, sajiyasi, asarlar vositasida anglashiladi.

Tog‘ay Murod ijod jarayonida fikrni aniq, izchil ifodalash, misralardagi bo‘g‘inlar tengligi, o‘lchamlilik, uzluklilik, davomiylik, ichki uyg‘unlik, qofiyalar, saj’ kabi ritmni hosil qiluvchi vositalarga ahamiyat beradi.

Adib jumlalardagi bo‘g‘in tengligi orqali yanada izchil, o‘lchamli ritmni hosil qilishga erishadi: Tog‘ay Murod inversiya hodisasi vositasida izchil ritmni hosil qilishga ahamiyat bergan. Zero, misralarda inversiya hodisasi nasr tili ifodaliligi, jozibasini oshirib, fikrni alohida ajratib, ta’kidlab ko‘rsatgan. quyidagi misralar ham o‘ziga xos maromda, o‘lchamli:

«Emish-emish – bir ajin bir qayg‘uni bildirar emish
Emish-emish – bir ajin bir dardni bildirar emish
Emish-emish – bir ajin bir armonni bildirar emish»

Jumlalarda inversiya hodisasi nasr tili ifodaliligi, jozibasini oshirib, fikrni alohida ajratib, ta’kidlab ko‘rsatgan. Asosan, takror, («emish»-satr boshida takror qo‘llanib, e’tiborni tortish muhim bir voqeaga kishini tayyorlash maqsadida qo‘llangan), ma’nodosh (qayg‘u, dard, armon) so‘zlardan iborat holda misralar tuzilgan bo‘lsa-da, har bir satr avvalgi tushunchani yanada ta’kidlab, to‘ldirib, kuchaytirib ifodalashga yo‘naltiriladi. «Bir ajin» so‘zining har bir takroriga qancha ma’no, qancha g‘am, qancha sir jo etilgan. Bunda umr, turmush sinoatlariga ishora qilinadi, ajin tushishiga sabab vositalar ko‘rsatilidi. Inson qismati, hayot murakkabliklari ertak, rivoyat yo‘sinini eslatuvchi jumlalar vositasida talqin qilinadi.

Kuydi-kuydi – ayolimni tani kuydi
Kuydi-kuydi – meni bag‘rim kuydi
Kuydi-kuydi – bolalarimni sho‘ri kuydi

Asosiy fikrga etiborni qaratishda mantiqiy urg‘u «kuydi» so‘ziga tushishi ta’sirchanlikni oshiradi. Inversiya nutqqa ifodalilik bag‘ishlaydi. Misra boshi va oxirida bir xil so‘z qo‘llanishi umumdan alohidaga o‘tish, fojia – asosiy gapni ta’kidlaydi. So‘ng natijalar ko‘rsatiladi. Jumlada so‘zlar asosan ikki bo‘g‘indan taqsimlangan holda takrorlangani kuzatilsada, «ayolimni, meni, bolalarimni»

bo‘g‘inlari tengligi saqlanmagan, lekin bu so‘zlar fikrni dalillashga yo‘nalgan. Ayoli o‘limi erkak, otaga, so‘ng bola, farzandga kuchli zarba bo‘lishi ko‘rsatilgan. Erkakning yolg‘iz, bolalarning etim qolishi mantiqan asoslangan. Inversiya keskin ritmni xosil qilgan.

Jumlalar tahlilida misralar ritmidagi o‘xshash va farqli jixatlar ko‘zga tashlanadi. «kuydi» fe’li bilan boshlangan satr yni shu so‘z bilan tugashi hamda «emish» fe’li bilan boshlangan misraning xuddi shu so‘z bilan yakunlanishida ohangdorlik darajasi o‘xshash; har bir misrada bo‘g‘indagi ozgina farqlanish, mahzun ohang etakchiligi mantiqiy urg‘ular asosiy nuqtaga e’tiborni qaratishga xizmat qiladi.

Mana bu tasvirda ham misralardagi mahzun ohang ko‘zga tashlanadi:

Dalalarim – bobolarim sho‘r –sho‘r peshonasi

Dalalarim – otalarim yag‘ir- yag‘ir elkasi

Dalalarim – ayollarim xazon-xazon umri

Misra to‘rt bo‘g‘inli so‘z bilan boshlanib, tugallanishida oxirgi so‘zlarning bo‘g‘in soni kamayib boradi. Jumla ega (dalalarim) bilan boshlanib ot – kesim bilan yakunlanadi. Ko‘plik va egalik qo‘shimchalari (dalalarim-bobolarim) ichki uyg‘unlikni yuzaga keltirgan takrorlar ma’no ta’kidni kuchaytirgan. «Bobo-ota-ayol» - avlod ketma ketligida tartib saqlanadi. Birinchi va uchinchi misrada asosan «a» assonansi ikkinchi misrada «a va i» assonasi jarangdorlikka xizmat qilgan. Muallif «sho‘r» va «yag‘ir» qofiyalarini hosil qiladida,uchinchi misrada xazon degan so‘zni qo‘llaydi, bu ham umrga berilgan nisbat, baxo,o‘lchamni ko‘rsatish uchun qo‘llangan misralarda bo‘g‘inlardagi qisman farqlanish talaffuzda seziladi. Ritm misra boshidan ko‘tarilib oxiriga qadar saqlanadi.

Muallif jumlalar tuzishda inversiya, assonans, alliteratsiya, takror qofiyadosh so‘zlardan foydalanadi. Bo‘g‘inlar teng bo‘lmagan o‘rinlarda xam ritm mavjudligi, faqat misralar talaffuzi jarayonida qisman qisqa yo uzun talaffuz qilinishida farqlanish kuzatiladi. Ba’zi xollarda ritm satr boshidan oxiriga qadar asta ko‘tarilib borsa, muayyan misralarda ohangdagi bir xillik saqlanadi.

Yozuvchi shu tarzda sinchkovlik bilan jumladagi so‘zlararo monandlik, muvofiqlik; bo‘g‘inlar tengligi vositasida ma’lum maromni yuzaga keltiradi. Bu o‘z navbatida nutqning ichki tartibi, ritmini hosil qilib, har bir so‘z, bo‘g‘in jarangdorligini oshiradi. Har bir jumlaning ayni bir so‘z bilan boshlanishida anafora usuli kuzatiladi:

El-yurt otamiz qoni to‘kilmish tuproqni devor bilan o‘rab oladi.

El-yurt otamiz jon bermish tuproq uzra oppoq yalov qadab oladi.

El-yurt Aqrab shahid poyidan o‘ta-o‘ta bir oyoq ilib oladi.

El-yurt Aqrab shahid uchun fotiha o‘qib-o‘qib oladi.

Fikrni mantiqiy dalillash, har bir jumlada yanada aniqlikka intilish maqsadida qofiyadosh (qon-jon, to‘kilmish-bermish, o‘rab-qadab, ilib-o‘qib) so‘zlardan, ibora (bir oyoq ilib oladi)dan ham foydalanib, jumla ohangdorligi ta’minlangan.

Adib saj’dan ham unumli foydalanadi:

«Beg‘ubor bolalik, bebosh yoshlik, yaqin olislarda... yaqin olislarda-sochlarning oqi, yuzlarning bujuri, ko‘zlarning nuri, ko‘ngilning tub-tubida qoldi».

Saj’ ritmik funktsiya bajaradi, nasrda ohangdorlikni ta’minlaydi, mazkur parchada ham vazndosh saj’ turi qo‘llanilgan: beg‘ubor bolalik – bebosh yoshlik, sochlarning oqi, yuzlarning bujuri – ko‘zlarning nuri. Saj’ bevosita tasvirdagi izchillikni yuzaga chiqargan.

Adib saj’ san’atining qofiyali saj’ (saj’i mutarraf) turini ham qo‘llagan:

«Otamiz qaramish daraxt shig‘il-shig‘il bo‘ladi

Otamiz kesmish tok shokila-shokila bo‘ladi.

Otamiz qirqmish gul shoda-shoda bo‘ladi».

Jumlada asosan, fe’l va takror so‘zlarda, ravishda qofiya mohiyati anglashiladi.

Juft ot va takror ravishlarning o‘zaro qofiyalanishi evfonik jarangdorlikni oshiradi:

«Noz-ne’matlar tovlana-tovlana turadi.

Shirin-shakarlar bollana-bollana turadi.

Achchiq-chuchuklar bo‘ylana-bo‘ylana turadi»

Muallif saj’ orqali ma’lum holat, tasvirni obrazli ifodalashga erishgan. Satrlarda bo‘g‘in tengligi yoxud bir oz farqlanishi kuzatiladi, voqelikni mufassal, ravshanroq ifodalanishi, ma’lumotni aniq, lo‘nda berilishi epik asarga xos jihatni belgilaydi, tasavvur imkonini kengaytiradi.

Ijodkor B. Meylax: «Ritm tartibsizlik bilan murosa qiluvchi tartiblilik, me’yor va buzilish, umidning oqlanishi yoki poymol bo‘lishi, bir so‘z bilan (mumtoz did tilida) aytganda, xilma-xillikdagi birlik sifatida maydonga chiqadi», – deya fikr bildiradi.

Tog‘ay Murod bo‘g‘in tengligi, so‘z takrori, tovush jarangdorligi, qofiyadosh so‘zlar, zid so‘zlarni qo‘llash orqali jumla ritmikasini hosil qiladi. Yozuvchi ritm vositasida jumla, bob ma’no-mohiyatini teran ifodalaydi. U his-tuyg‘u, ko‘tarinki holatlarga muvofiq ritm tanlaydi. Asar g‘oyasi, qahramon dunyoqarashi, jamiyat va inson munosabatlari ifodasida ritm muhim ahamiyatga ega.

Muallif so‘zdan tejab-tergab, oqilona foydalanadi. Siqiq jumlalar qatiga keng ma’no ko‘lamini singdirib yuboradi. Asarlar tahlilida tig‘iz, ammo teran ifoda, mantiqiy-izchil tasvir, falsafiy-estetik qarashlar ko‘zga tashlanadi.

qilgan

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Barabash Yu. Ya. Algebra i garmoniya. –M.: Xudojestvennaya literatura, 1979
2. Baxtin M. M. Voprosi literaturi i estetiki. –M.: Xudojestvennaya literatura 1975. .
3. Girshman M. M. Ritm xudojestvennoy prozi. –M.: Sovetskiy pisatel, 1982
4. Xrapchenko M. B. Gorizonti xudojestvennogo obraza. –M.: Xudojestvennaya literatura, 1982.
5. Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. –T.:Sharq, 1994.
6. Tog‘ay Murod. Ot kishnagan oqshom. Qissalar. –T.:Sharq,.
7. Tog‘ay Murod. Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. –T.:Sharq,2001

TIL VA ADABIYOTNING MILLIY O‘ZLIKNI SAQLASHDAGI ROLI

Zebo Qobilova,
Filologiya fanlari doktori, professor
(O‘zbekiston)

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv jarayonlari sharoitida o‘zbek tili va adabiyotining ijtimoiy o‘rni va vazifalari keng ilmiy tahlil etiladi. Raqamli texnologiyalar rivoji, xalqaro integratsiya va madaniy globalizatsiya kontekstida milliy tilning saqlanishi hamda rivojlantirilishiga oid asosiy tamoyillar belgilanadi. Til va adabiyotning milliy o‘zlikni saqlashdagi, madaniy merosning davomiyligini ta’minlashdagi roli yoritiladi. Ta’lim tizimi, axborot makonidagi siyosat va raqamli lingvistika sohasidagi amaliy chora-tadbirlar taklif qilinadi.

Kalit so‘zlar: globallashuv, o‘zbek tili, o‘zbek adabiyoti, tilni saqlash, ijtimoiy lingvistika, milliy o‘zlik, raqamli tilshunoslik, lisoniy xavfsizlik.

Abstract: This article comprehensively examines the social role and functions of the Uzbek language and literature in the context of globalization. Against the backdrop of digital technology development, international integration and cultural globalization, the key principles for preserving and developing the national language are defined. The role of language and literature in preserving national identity and ensuring the continuity of cultural heritage is highlighted. Practical measures in the field of education, information space policy, and digital linguistics are proposed.

Keywords: globalization, Uzbek language, Uzbek literature, language preservation, social linguistics, national identity, digital linguistics, linguistic security.

Til — inson madaniyatining eng buyuk yutug‘i, millatning ma’naviy qadriyatlarini ajdodlardan avlodlarga yetkazuvchi asosiy vosita sifatida tamaddun tarixida yagona o‘rin tutadi. Ayni paytda, XXI asrning eng muhim va ziddiyatli jarayonlaridan biri bo‘lgan globallashuv jarayoni tillarning, xususan mintaqaviy va milliy tillarning mavjudligiga noayon, ammo teran ta’sir ko‘rsatmoqda. Jahon ekonomik forumining 2024 yilgi tadqiqotlariga ko‘ra, hozirda mavjud 7 000 dan ortiq tilning taxminan 40 foizi yo‘qolish xavfi ostida turibdi [1].

O‘zbek tili — davlat tili maqomiga, 35 milliondan ziyod so‘zlovchiga va uch ming yildan ortiq yozma adabiy an’anaga ega bo‘lgan til sifatida bu global tendensiyalarga zid turish imkoniyatiga ega. Biroq internet makonidagi dominant tillar kuchayishi, raqamli mazmunda o‘zbek tilining ulushi nisbatan kam ekanligi va yoshlarning xorijiy tillarga ko‘proq murojaat qilishi kabilar — milliy til rivojiga jiddiy to‘siq bo‘lishi mumkin [2].

O‘zbek adabiyoti esa bu muammoni yanada chuqurroq talqin etadi. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Amiriy, Muqimiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Oybek, Abdulla Qahhor, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov va o‘nlab ulug‘ adiblar yaratgan badiiy meros — xalqning ruhiy dunyosini, tarixiy xotirasini va madaniy o‘zligini aks ettiradi. Bugun bu merosning raqamli muhitga ko‘chirilishi, targ‘ibi va yosh avlodga singdirilishi o‘zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi oldidagi asosiy muammo bo‘lib qolmoqda [3].

Globallashuv — iqtisodiy, siyosiy, madaniy va texnologik jarayonlarning yagona dunyo tizimiga integratsiyalashuvi fenomeni sifatida ta’riflanadi. U bir tomondan millatlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlasa, ikkinchi tomondan madaniy xilma-xillikka tahdid tug‘diradi [4].

Til nuqtai nazaridan globallashuv uch darajada namoyon bo‘ladi:

- Makro daraja — xalqaro muloqotda ingliz tilining «lingva franka» sifatida mustahkamlanishi;
- Mezo daraja — milliy tillar ichida mintaqaviy va dialekt tillarning zaiflashuvi;
- Mikro daraja — yakka shaxs yoki oilada til o‘zgarishi (language shift) jarayoni.

Mazkur jarayonlar o‘zbek tili uchun ham o‘ziga xos tarzda yuzaga chiqmoqda. Masalan, O‘zbekistonda ingliz tiliga bo‘lgan talab 2000-2024 yillar davomida besh barobarga oshdi. Raqamli platformalarda (YouTube, Instagram, TikTok) o‘zbek tilidagi kontent ulushi umumiy mazmunning 7-9 foizini tashkil

etadi, xolos [5]. Shu sababli tilning raqamli makonda mustahkamlanishi — dolzarb vazifa hisoblanadi.

Til ijtimoiy hodisa sifatida bir qator muhim vazifalarni bajaradi. Bu vazifalar globallashuv davrida yangicha mazmun kasb etmoqda.

1. Kommunikativ vazifa. Tilning asosiy vazifasi — insonlar o‘rtasida muloqotni ta’minlash. O‘zbek tili bugungi kunda O‘zbekiston aholisining 74,3 foizi uchun ona tili bo‘lib, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Afg‘oniston va Turkiyaning ba’zi hududlarida ham muloqot vositasi sifatida qo‘llaniladi [6]. Bu uni mintaqaviy ahamiyatga molik tilga aylantiradi.

2. Milliy o‘zlikni saqlash vazifasi. Til — millatning pasporti. Nemis faylasufi Yohann Gotfrid Gerder ta’biricha, «xalqning tili — uning ruhidir; uning ruhi — tilidir» [7]. O‘zbek tili o‘zbek xalqining tarixiy xotirasini, qadriyatlarini va dunyoqarashini ifodalaydi. O‘zbek so‘zlashuvi xususiyatlari — mehmondo‘stlik (uy-joy tafsilotlari), hurmat-izzat kategoriyalari (siz/sen farqi), karam-muruvvat ifodalari — umuminsoniy qadriyatlarni o‘ziga xos tarzda tasvirlaydi.

3. Kognitiv vazifa. Ona tilida fikrlash — ijodiy, mantiqiy va mushohadali tafakkurning asosidir. Zamonaviy psixolingvistik tadqiqotlar (L.S.Vigotskiy, V.fon Gumboldt) ona tilida o‘qigan bolalarda abstrakt tafakkur darajasi ancha yuqori ekanini isbotlagan [8]. Shu bois ta’lim tizimida ona tilining o‘rni beqiyos.

4. Madaniy-ma’rifiy vazifa. O‘zbek tili orqali Sharq mumtoz adabiyoti, xalq og‘zaki ijodi, maqol-matallar, dostonlar va urf-odatlar avloddan avlodga o‘tadi. Bu meros — millatning madaniy kapitali bo‘lib, uni saqlash ijtimoiy barqarorlik uchun zarur shart hisoblanadi.

Adabiyot — tilning estetik yuksalishi va inson ruhiyatining ko‘zgusidir. O‘zbek adabiyoti besh asrlik yozma an’ana va undanda qadimiyroq og‘zaki ijod zaminiga tayanadi.

Tarixiy nuqtai nazardan o‘zbek adabiyoti XV asrda Alisher Navoiy ijodi bilan mumtozlik kasb etdi. Navoiy «Xamsa» dostoni, «Xazoyin ul-maoniy», «Mahbub ul-qulub» kabi asarlari orqali faqat adabiy janrlarni rivojlantirgani bilan cheklanmay, o‘zbek tilini musulmon madaniyatida fors tili bilan tenglashtirdi [9]. Uning «Muhokamat ul-lug‘atayn» asari — o‘zbek tilining mustaqil adabiy til sifatidagi birinchi ilmiy isbotnomasidir.

Zamonaviy o‘zbek adabiyoti XX asr boshlaridagi jadidlar harakatidan suv ichdi. Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Hamza va boshqalar adabiyotni ijtimoiy uyg‘onishning vositasiga aylantirdi. Ular asarlari orqali maorif, taraqqiyot va milliy o‘zlik g‘oyalarini xalq ongiga singdirishga harakat qildi [10].

Globallashuv kontekstida zamonaviy o‘zbek adabiyoti ikki muhim vazifani bajarmoqda: birinchidan, milliy o‘zlik va madaniy xotirani tiklash; ikkinchidan, jahon adabiyoti yutuqlarini o‘zbek adabiy an’analari bilan uyg‘unlashtirish. Darhaqiqat, Xurshid Do‘stmuhammad, Nazar Eshonqul, Ulug‘bek Hamdam, Isajon Sulton kabi yozuvchilarning asarlari shu ikki yo‘nalishni muvaffaqiyatli birlashtiradi.

Adabiy asarlar til normalarini mustahkamlaydi, so‘zlar boyligini oshiradi va ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu o‘zaro ta’sir ayniqsa zamonaviy o‘zbek nasri, she’riyati va dramaturgiyasi misolida yaqqol ko‘rinadi. Shuningdek, adabiyot til madaniyatini ommalashtirishning eng samarali vositasi bo‘lib qoladi.

Ijtimoiy lingvistik tahlillar ko‘rsatadiki, hozirgi davrda o‘zbek tili quyidagi asosiy xavf-xatarlar bilan yuzma-yuz: raqamli fazoda zaiflashuv. Internet mazmunining 60 foizi ingliz tilida, atigi 0,04 foizi o‘zbek tilida ekanligi [11] yoshlarni kundalik raqamli hayotda boshqa tillarga murojaat qilishga majbur etmoqda. Natijada o‘zbek tilidagi terminologik bo‘shliq kengayishi kuzatilmoqda;ta’lim tizimidagi ziddiyatlar. Bir tomondan, davlat tilini mustahkamlash siyosati olib borilayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, nufuzli universitetlarda darslar ko‘pincha rus yoki ingliz tilida olib borilmoqda. Bu ahvol tilning ilm-fandagi nufuziga salbiy ta’sir ko‘rsatadi; o‘zga tillar ta’siri. O‘zbek tilida so‘nggi yillarda ingliz tilidan o‘tgan o‘zlashmalar keskin ko‘paydi: «kontent», «menejment», «startap», «onlayn» singari so‘zlar o‘zbek jamoatchiligi nutqiga kirib bordi. Bu jarayon — ijtimoiy lingvistikada «til hibridlashuvi» deb ataladi va milliy tilning tarkibiy butunligiga ziyon yetkazishi mumkin; yoshlar orasida ona tiliga qiziqishning kamayishi. So‘nggi o‘n yillikda o‘tkazilgan sosiologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek yoshlarining 28 foizi o‘z maktab davrida o‘zbek adabiyotini majburiy dars deb bilishi, faqat 14 foizi mustaqil ravishda o‘zbek badiiy asarlarini o‘qishi aniqlandi.

Yuqorida bayon etilgan tahlil asosida o‘zbek tili va adabiyotini saqlash va rivojlantirishning quyidagi tamoyillarini ilmiy asosda taklif etish mumkin:

1. Ta’lim tizimini isloh qilish tamoyili. Maktabgacha ta’limdan tortib oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda o‘zbek tilining didaktik mavqeini mustahkamlash zarur. Buning uchun: (a) umumta’lim maktablarida o‘zbek tili va adabiyotiga ajratilgan soatlar kamaytirilmasligi; (b) o‘zbek tili bo‘yicha kuchli pedagogik kadrlar tayyorlashga davlat investisiyasi oshirishi lozim [14].

2. Raqamlashtirish va texnologik rivojlantirish tamoyili. O‘zbek tilini raqamli asrga moslashtirish uchun: (a) sun’iy intellekt asosidagi o‘zbek tili modellari (NLP, machine translation) yaratilishi; (b) o‘zbek tilida mazmun ishlab

chiqaruvchi yosh blogerlar, jurnalistlar va yozuvchilarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash; (v) «O‘zbek tilining milliy korpusi»ni kengaytirish va uni ochiq manba sifatida e’lon qilish — muhim vazifalardir.

3. Terminologik rivojlantirish tamoyili. Zamonaviy fan, texnologiya, iqtisodiyot va madaniyat sohalarida o‘zbek tili imkoniyatlarini kengaytirish uchun milliy terminologiya komissiyalari faoliyatini jadallashtirish va yangi terminlarni o‘zbek tili so‘z yasalish qonunlariga asosan ishlab chiqish lozim. «Kompyuter» o‘rniga qardosh turklar kabi «bilgasayr» yoki “bilgich”, «internet» o‘rniga «tarmoq» kabi milliy atamalarning targ‘iboti — bu ishning muhim qirrasi [15].

4. Adabiy va madaniy jarayonlarni faollashtirish tamoyili. Adabiyotning ijtimoiy rolini oshirish uchun: (a) adabiy mukofotlar tizimini kengaytirish va ularning nufuzini oshirishni ta’minlash; (b) maktab va universitetlarda adabiy to‘garaklar, o‘qish klublari, she’r kechalari muntazam o‘tkazish; (v) Navoiy, Bobur,Qodiriy, Cho‘lpon, Oybek kabi mumtoz adiblar asarlarini multimedia formatida raqamlashtirish va yoshlarga taqdim etish samarali yo‘l hisoblanadi.

5. Xalqaro hamkorlik tamoyili. Jahondagi o‘zbek diasporasi va turkiy dunyo mamlakatlari bilan til va adabiyot sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash — o‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirishi mumkin. YUNESKO, Turkiy davlatlar tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan mustahkam aloqalar o‘rnatish — bu boradagi ustuvor yo‘nalishdir [16].

6. Jamoatchilik va oila ishtirokini ta’minlash tamoyili. Tilni saqlash — faqat davlat vazifasi emas. Oilaviy muloqot madaniyatini shakllantirish, bolalarga ona tilida kitob o‘qish odatini qaror toptirish, mahalla va jamoatchilik tuzilmalarida tilni targ‘ib qilish — zamonaviy til siyosatining tarkibiy qismidir.

O‘zbekistonning keyingi o‘n yillik tajribasi ko‘rsatadiki, tilni saqlash sohasida muayyan yutuqlar qo‘lga kiritildi. 1989 yilda qabul qilingan «Davlat tili to‘g‘risida»gi Qonun va keyingi konstitutsiyaviy islohotlar o‘zbek tilining mavqeini mustahkamlashga zamin hozirladi. 2021 yilda tashkil etilgan Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti va o‘zbek tilini rivojlantirish davlat dasturlari bu siyosatning amaliy ifodasidir [17].

Shu bilan birga, global tendensiyalar milliy til siyosatidan yuqoriroq sur’atda rivojlanayotganini e’tirof etish lozim. YUNESKO ma’lumotlariga ko‘ra, har ikki haftada dunyoda bir til yo‘qolib ketadi [18]. O‘zbek tili bu xavf-xatar maydonidan chetda bo‘lsa-da, profilaktik choralar kechiktirilmasligi lozim.

Adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan esa o‘zbek adabiyotida jahon standartlariga javob beradigan asarlarni yaratish, ularni tarjima va xalqaro targ‘ibot orqali dunyo kitobxonlariga taqdim etish — bugungi kunning eng muhim

vazifalaridan biridir. Chingiz Aytmatov asarlarining 170 ta tilga tarjima qilingan tajribasi o‘zbek adabiyoti uchun ham ibrat namunasi bo‘lishi mumkin [19].

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, globallashuv jarayoni o‘zbek tili va adabiyotiga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi: bir tomondan, yangi imkoniyatlar vujudga kelsa, ikkinchi tomondan, o‘zlikni yo‘qotish va til zaiflashuvi xavfi kuchayadi.

O‘zbek tilini saqlash va rivojlantirishning muvaffaqiyatli tamoyillari davlatning maqsadli til siyosati, ta’lim tizimidagi islohotlar, raqamlashtirish strategiyalari va jamoatchilikning faol ishtiroki uyg‘unligiga asoslanishi lozim. Bu siyosat — sof madaniy masala emas, balki milliy xavfsizlik, ijtimoiy barqarorlik va insonparvarlik vazifasidir.

O‘zbek adabiyoti esa bu jarayonda uch asriy meros bilan global muloqotga kirish, zamonaviy muammolarni badiiy idrok etish va yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashning betakror vositasiga aylanishi mumkin. Shu bois adabiyotni targ‘ib etish, mumtoz va zamonaviy o‘zbek asarlarini raqamli formatda ommalashtirish — davr talabi hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, tilni va adabiyotni saqlash — bu faqat o‘tmishni asrash emas, balki kelajakni yaratish demakdir. O‘zbek tili va adabiyotining globallashuv davrida gullab-yashnashi butun o‘zbek jamiyatining birlashgan iroda va sa’y-harakatiga bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. UNESCO Atlas of the World's Languages in Danger. — Paris: UNESCO Publishing, 2024. — 224 p.
2. Internet World Stats: Usage and Population Statistics. — 2024. — URL: https://www.internetworldstats.com
3. Mirzayev F. Globallashuv va o‘zbek tili. — Toshkent: Fan, 2023. — 187 b.
4. Robertson R. Globalization: Social Theory and Global Culture. — London: Sage, 1992. — 211 p.
5. O‘zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasining rivojlanishi. — Toshkent: Davstat, 2024. — 94 b.
6. Bo‘ronov J. O‘zbek tilining ijtimoiy maqomi // O‘zbek tili va adabiyoti. — 2023. — №3. — B. 12–19.
7. Herder J.G. Ideen zur Philosophie der Geschichte der Menschheit. — Leipzig: Hartknoch, 1784. — 478 S.

8. Vigodskiy L.S. Мышleniye i rech. — Moskva: Labirint, 1999. — 352 s.
9. Mallayev N.M. Alisher Navoiy — buyuk mutafakkir va shoir. — Toshkent: Fan, 1985. — 262 b.
10. Begali Qosimov. Jadidlar: Birinchi islohotchilar. — Toshkent: Ma’naviyat, 2002. — 318 b.
11. W3Techs Web Technology Surveys: Content Language Distribution. — 2024. — URL: https://w3techs.com
12. Crystal D. Language Death. — Cambridge: Cambridge University Press, 2000. — 198 p.
13. Yo‘ldoshev Y., Xasanov A. O‘zbek yoshlari o‘rtasida kitobxonlik madaniyati // Pedagogik izlanishlar. — 2023. — №2. — B. 45–52.
14. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili to‘g‘risida» Qonuni. Toshkent, 1989 (2023 yilda yangi tahrir). — 24 b.
15. Mamatov A.E. O‘zbek tili terminologiyasida global yondashuv // Tilshunoslik masalalari. — 2022. — №4. — B. 5–14.
16. Türk Dil Kurumu. Türk Dünyası Dil Atlası. — Ankara: TDK, 2023. — 340 s.
17. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti. Tarix va rivojlanish yo‘li. — Toshkent, 2023. — 48 b.
18. Krauss M. The World's Languages in Crisis // Language. — 1992. — Vol. 68. — No. 1. — P. 4–10.
19. Aytmatov Ch. Asarlar to‘plami. Tarjima statistikasi // O‘zAS ma’lumotnomasi. — 2023. — 12 b.

HOZIRGI O‘ZBEK SHE’RIYATIDA TASHBEH SAN’ATINING POETIK FUNKSIYASI

Oripova Gulnoza Murodilovna,
Farg‘ona davlat universiteti adabiyotshunoslik kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari doktori (DSc)
gulnoza_oripova81@mail.ru,
ORCID:0000-0003-3403-5706
(O‘zbekiston)

Annotatsiya. Maqolada hozirgi o‘zbek she’riyatida an’anaviy badiiy san’atlardan biri bo‘lgan tashbehning o‘rni va uning tarkibiy-semantik xususiyatlari tadqiq etiladi. Bugungi she’riyatda badiiy tafakkurning tadriji natijasida tashbeh yaratish tamoyillari tubdan o‘zgardi. Shu nuqtayi nazardan,

hozirgi o‘zbek she’riyatidagi tashbehlarning yangicha poetik funksiyalari aniqlandi va ularning lirik qahramon ruhiyatini ochib berishdagi ahamiyati ko‘rsatildi.

Abstract. The article explores the role and structural-semantic characteristics of simile (*tashbeh*), one of the traditional artistic devices in contemporary Uzbek poetry. As a result of the evolution of artistic thinking in modern poetry, the principles of creating similes have fundamentally transformed. From this perspective, the novel poetic functions of similes in contemporary Uzbek poetry are identified, and their significance in revealing the psyche of the lyrical hero is demonstrated.

Kalit so‘zlar: badiiy san’atlar, tashbeh san’ati, badiiy tafakkur tadriji, lirik qahramon, obraz, badiiy-estetik xususiyat.

Keywords: artistic devices, art of simile (tashbeh), evolution of artistic thinking, lyrical hero, imagery, artistic-aesthetic characteristic.

Badiiyat masalasi har bir davr adabiyoti uchun muhim masalalardan biri hisoblanadi. Sharq poetikasida so‘z san’atining muhim mezoni bo‘lgan badiiylik asrlar osha sayqallanib, shakl va mazmun jihatdan keyingi davr she’riyatining taraqqiy etishi uchun zamin bo‘lgan. Ma’lumki, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida badiiy san’at turlari, fikrni ravon va nafis ifodalash usullari kabi masalalar ilmi bade’ tarkibida o‘rganilgan. Har bir ijodkor lirik asarlarda ifodalangan g‘oyalarning hayotiyligi va ta’sirchanligini ta’minlashda, lafziy nazokat va jozibani oshirishda she’riy san’atlardan mohirlik bilan foydalangan. “She’riy san’atlar shoir badiiy salohiyatini ko‘z-ko‘z qilish, uning xilma-xil san’atlardan mohirona foydalanish usullarini namoyish etish emas, balki ijodkor badiiy tafakkur dahosining ko‘lami, yuksak ijtimoiy-axloqiy g‘oyalarni jilolantirish san’atkorligi ifodasi bo‘lib kelgan”[6]. Shu maqsadda har bir ijodkordan poetika masalalarini chuqur bilish talab qilingan.

Sharqda “ilmi bade’ni tashkil etgan she’riy san’atlar ikki guruhga ajraladi: san’atlarning birinchi guruhi bevosita she’rning mazmuni, ma’nosi bilan bog‘langan bo‘lib, ma’naviy san’atlar (sanoye’i ma’naviy) deb ataladi. Nutqni, she’rni bezash, turli stilistik figuralar, so‘z o‘yinlari hosil qilish maqsadida ishlatiladigan san’atlar esa lafziy san’atlar (sanoye’i lafziy) deb yuritiladi”[7]. Har bir ijodkorning she’riy san’atlar imkoniyatlaridan keng foydalanishi individual uslubi va mahorati bilan bog‘liq. Zero, “badiiy ijod barqaror mezonlarga tayanadi, ayni paytda bu o‘zgarmas mezonlar asosida badiiy so‘zning bitmas-tuganmas imkoniyatlari yotadi. Shoirning maqsadi va vazifasi o‘zigacha kashf etilgan imkoniyatlarni o‘zlashtirish va yangilarini yaratish. Ijodkorning o‘ziga xosligi va

[6] Ҳожиаҳмедов А. Шеър санъатларини биласизми? – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б.4.
[7] Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: O‘zbekiston, 2014. – Б.15

mavqei shu bilan belgilanadi”[8]. Ijodkorning poetik tafakur ko‘lami, badiiy mahorati nimani tasvirlashiga ko‘ra emas, balki qanday tasvirlashiga ko‘ra baholangan. Chunki she’riy san’atlarning qo‘llanilishi shoir g‘oyaviy-badiiy niyatini anglatishga xizmat qilgan. Badiiy timsollar jilosi asosida fikrni bezash, g‘oyani badiiy ifodalash, ta’sirchanlikni oshirish she’riy asarlarning badiiyatini ta’minlashi bilan birga, badiiy-estetik xususiyatlarini ham oshirgan. “Badiiy san’atlar, vosita va usullar lirikaning tabiatiga xos bo‘lgan ixchamlikni ta’minlashda, fikrni obrazli bayon etishda, eng muhimi, she’rxonga estetik zavq bag‘ishlashda muhim ahamiyatga ega”[9]dir.

Har bir davr she’riyatiga xos bo‘lgan yuksak badiiylikka erishish omillari mustaqillik davri lirikasida ham muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Badiiy san’atlardan biri bo‘lgan tashbeh Sharq adabiyotida keng tarqalgan bo‘lib, “uning mohiyati so‘zlarda ifodalangan ikki yoki undan ortiq narsa, hodisa yoki xususiyatni ular o‘rtasida mavjud bo‘lgan biror o‘xshashlik, umumiylik (sifat, belgi yoki vazifa) nuqtayi nazaridan qiyoslashdan iborat”dir. Tashbeh san’atini qo‘llashdan maqsad o‘quvchiga tasvirlanayotgan shaxs, narsa yoki tushunchani yorqinroq ochib berishdir. Atoulloh Husayniy: “Tashbih yetti turdur: 1) tashbihi mutlaq; 2) tashbihi kinoyat; 3) tashbihi mashrut; 4) tashbihi tasviyat; 5) tashbihi aks; 6) tashbihi izmor; 7) tashbihi tafzil”[10] deya ajratgan bo‘lsa, Shayx Ahmad Taroziy tashbehi muallaq-mashrut, tashbehi kinoya, tashbehi tasviya, tashbehi aks, tashbehi tanqis, tashbehi tafze’, tashbehi izmor kabi turlarini ko‘rsatgan. Professor Y.Ishoqov ilmi bade’ga oid arab, fors, turk manbalari asosida tashbehning ichki va tashqi xususiyatlariga ko‘ra quyidagi turlarini ajratgan: 1) tashbihi sareh (ochiq o‘xshatish; “Hadoyiq us-sehr” va “Jam’i muxtasar”da – tashbihi mutlaq); 2) tashbihi mashrut (shartli o‘xshatish); 3) tashbihi tafzil (chekinish yo‘li bilan o‘xshatish; “Tarjimon-ul-balog‘a”da – tashbih ul-marjo‘); 4) tashbihi aks (teskari o‘xshatish); 5) tashbihi muzmar (yashiringan o‘xshatish); 6) tashbihi tasviyat (barobar o‘xshatish; “Tarjimon”da muzdavaj); 7) tashbihi musalsal (ketma-ket o‘xshatish; “Aruzi Humoyun”da – tashbihi jam’); 8) tashbihi kinoyat (kinoya – imo-ishora yo‘li bilan o‘xshatish); 9) tashbihi mo‘kad (ta’kid yo‘li bilan o‘xshatish).

Davr shoirlari ijodida ham tashbeh san’ati qo‘llangan go‘zal namunalarni uchratamiz. Tashbeh san’ati to‘rt qismdan tarkib topadi. Ya’ni “1) mushabbah (o‘xshatilgan narsa); 2) mushabbahun-bih (o‘xshayotgan narsa); 3) adoti tashbeh

[8] Зоҳидова Д. Амирий ижодидаги поэтик талқиннинг айрим қирралари хусусида // “Амирий ва Қўқон адабий муҳити” мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент: Tamaddun, 2017. – Б.24.

[9] Жўраев Ҳ. Алишер Навоий лирикасида воқелик ва унинг поэтик талқинлари: Филол.фан.докт... дисс. – Тошкент, 2008. – Б.246.

[10] Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойи (Аруз вазни ва бадиий воситалар ҳақида). Форсчадан Алибек Рустамов таржимаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981. – Б.212.

(o‘xshatish vositasi); 4) vajhi tashbeh (o‘xshatish sababi belgisi)”. Erkin Vohidov quyidagi baytida an’anaviy ko‘ngil obrazining yangi ma’no qirralarini kashf etib, vatan ozodligi, yurt mustaqilligini ko‘rishga mushtoq vatanparvar shaxs obrazini yaratar ekan, tashbehning to‘rt unsuri qo‘llanganligini kuzatamiz:

Bu vatanda bir Vatan
Qurmoqni istaydir ko‘ngil,
O‘zni ozod qush kabi
Ko‘rmoqni istaydir ko‘ngil[11].

Baytdagi “*qush*” – mushabbih (o‘xshatilgan narsa), “*ko‘ngil*” – mushabbahun-bih (o‘xshayotgan narsa), “*kabi*” – adoti tashbeh (o‘xshatish vositasi) hamda “*ozod*” – vajhi tashbeh (o‘xshatish sababi belgisi)dir. Ko‘rinadiki, tashbehning to‘rtala unsuri ham mavjud, shuning uchun “tashbehi mufassal” deb atash mumkin. Baytda narsaning ikkinchi bir narsaga tashbeh vositalari (***kabi***) yordamida to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘xshatilishi tashbehi sareh (tashbehi mutlaq)ni yuzaga keltirgan. O‘xshatishdan kuzatiladigan badiiy maqsad ham obrazlilikdir. She’riyatda vajhi tashbeh (o‘xshatish sababi belgisi) qo‘llanmasligi ham mumkin. Masalan, Abdulla Oripovning quyidagi baytida tashbehning uch unsuri qo‘llangan:

Muhabbat mulkida bir qul
Kabi Abdullaman, bilgil,
Tag‘in aytgum, seningdek yor,
Dildorni topolmasman[12].

Baytdagi o‘xshatilgan shaxs – *qul*, o‘xshagan shaxs – *oshiq Abdulla*, o‘xshatish vositasi – *kabi* ko‘makchisidir. Demak, tashbehning mushabbah (o‘xshatilgan shaxs), mushabbahun-bih (o‘xshayotgan shaxs), adoti tashbeh (o‘xshatish vositasi) unsurlari qatnashgan, vajhi tashbeh (o‘xshatish sababi belgisi) esa tushirib qoldirilgan. Bunday o‘xshatish “tashbehi mujmal” sanaladi. Baytda oshiq “muhabbat mulki”da o‘zini bir qul deb ataydi, chunki yori uning uchun yagona.

Usmon Azim she’ridan keltirilgan quyidagi bandda ham tashbehning to‘rt unsuri qo‘llanilib, to‘liq o‘xshatish san’ati yuzaga kelgan:

Shamolday yelmoqqa qanchalar urindim,
Devorga urildim, devorga urildim.[13]

Bandda “*shamol”* – mushabbih (o‘xshatilgan narsa), mushabbahun-bih (o‘xshayotgan shaxs) “urindim, urildim” fe’llariga 1-shaxsni ifodalovchi (-m) shaxs-son qo‘shimchasining qo‘shilishidan anglashilgan lirik “men”, “-day” – adoti tashbeh (o‘xshatish vositasi) hamda “*yelmoq*” – vajhi tashbeh (o‘xshatish sababi belgisi)dir. Yoki Shavkat Rahmonning “Yomg‘irdan keyingi atirgul kabi

[11] Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Тошкент: Sharq, 2019. – Б.411.
[12] Орипов А. Ранглар ва оҳанглар. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2012. – Б.12.
[13] Усмон Азим. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 1995. – Б.315.

ko‘zlarni yashnatgan bokira diyor” misralarida ham “*kabi*” o‘xshatish vositasi asosida to‘liq o‘xshatish qo‘llanganligi namoyon bo‘lmoqda. Ko‘rinadiki, tashbehi sareh yoki mutlaq, ya’ni aniq o‘xshatish adoti tashbeh (o‘xshatish vositasi) yordamida o‘xshatilishiga asoslangan badiiy san’at turidir. Tashbehning bu turidan hozirgi davr ijodkorlarining barchasi keng foydalanmoqda. Masalan, Halima Xudoyberdiyevaning “Chor tarafdan chirmashganman **xuddi** tok novdasi**day**, Bir lahzaga na o‘nging, na so‘lingni ham bermasman”, Shavkat Rahmonning “Yashaging keladi, faqat umrni Qumsoat **singari** to‘nkarib bo‘lmas”, Usmon Azimning “Sen – falaksan, kezgani mohlar kerak, Oy **kabi** to‘lmak uchun rohlar kerak”, Muhammad Yusufning “Daryo**dek** chayqalib, daryo**dek** toshib, To‘fon**dek** to‘xtamay umr o‘tkazdik”, Matnazar Abdulhakimning “Tovlanadi qizg‘ish atlas jimirlab, Qizartirgan **go‘yo** suv sathin shafaq”, Iqbol Mirzoning “Entikardi adirlar-u dalalar, Qizil kiygan qiz**dek** qirmiz lolalar”, Ulug‘bek Hamdamning “Yana tipirchilar chorasiz yurak, Iniga o‘t tushgan sho‘rlik qush**day**in” kabi misralarida tashbehi sareh (mutlaq) qo‘llangan.

Tashbehi mashrut (shartli o‘xshatish) turida esa bir narsaning ikkinchi bir narsaga o‘xshashi ma’lum shartga asoslanadi. Erkin Vohidovning

Sevgi kel**sa** qaddi **yo** ham **yosh** bo‘lur
Sevgisiz janona **haykaltosh** bo‘lur[14]

baytida ishqqa mubtalo bo‘lgan oshiqning qaddi ham hijron azoblaridan yoydek egilishiga, ham ma’shuqasi vasli umidida navqironlashishiga o‘xshatiladi. Sevgiga duchor bo‘lish bir tomondan oshiqni xushnud etadi, bir tomondan esa iztirob va azobga giriftor etib, qaddini dol etadi. Tashbehi mashrutda “-sa” qo‘shimchasi yoki “agar”, “magar”, “gar” shartlilikni ifodalovchi so‘zlari ishtirok etib, ma’lum shartlilik asosida o‘xshatilishi lozim. Demak, birinchi misrada “kel**sa**” so‘zidagi “kel” fe’li asosiga “-sa” qo‘shimchasi qo‘shilib, oshiq ishqqa mubtalo bo‘lgandan so‘ng qaddi ham yoydek egilishi, ham yoshdek navqiron bo‘lishiga ishora qilgan va bu orqali shartlilik asosida o‘xshatish qo‘llangan. Ikkinchi misrada esa sevgisiz qalbni toshga o‘xshatmoqchi bo‘lgan shoir go‘zal mahbuba suratini “haykaltosh”ga mengzaydi. O‘quvchi ko‘z o‘ngida oshiqning yori naqadar go‘zal mahbuba ekanligi namoyon bo‘ladi. Bu esa shoirning badiiy topilmasidir. Yoki uning

Shul yoshda yonib sevgini nazm et**sa** ne aybkim,
Erkin yuragi ishq o‘tida kuyguchi sham bo‘l[15].

Lirik qahramon “shul yoshda” birikmasi orqali hayotsevarlik g‘oyalarini ifodalar ekan, ishqni qalamga olmoq yo‘lida yuragini shamga qiyoslaydi. Shoir qiyos orqali go‘zal tashbihni yaratadi. Yoki Abdulla Oripovning

[14] Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Тошкент: Sharq, 2019. – Б.420.
[15] Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Тошкент: Sharq, 2019. – Б.420.

Sochlaring yoymay turib
Tushgan qorong‘u tun emas.
Tishlaringni ko‘rmayin
Tong ham oqargan kun emas[16]

matla’sida tunning qorong‘uligi yor sochiga, tongning otishi esa tishlariga tashbeh qilingan. Tong va tunning almashishi ham yorning uyqu oldidan sochilarini yoyishiga, subhidamda esa tabassum qilgan chog‘ida tishlarining oqligidan tong nur olishiga qiyoslanadi. Shoir baytda ma’no jihatdan bir-biriga zid bo‘lgan “tun” va tong”, “qorong‘u” va “oqargan” so‘zlari vositasida tazod san’atini ham yuzaga keltirish orqali ta’sirchan badiiy lavhani yaratishga musharraf bo‘lgan. Yorning jamolini vasf etish uchun tabiat bilan uyg‘un holda tasvirlagan. Yoki Halima Xudoyberdiyevaning “Izlang meni” she’ri birinchi bandida “agar” so‘zi vositasida shartlilik asosida o‘xshatilgan tashbehi mashrut turi kuzatiladi:

Agar to‘lsam bir jom yanglig‘,
Agar to‘lsam
Ko‘ngillarning titrog‘idan
Izlang meni.[17]

Shuningdek, shoira quyidagi misralarida ham o‘xshatishning shu turidan mohirona foydalangan: “***Garchand*** *taqdirim kaj, loyli, sirpanchiq, bo‘ronli yo‘llardan kelarkan yurib, tik so‘zimni yerga qasamday sanchdim, madori yetganlar olgay sug‘urib*”[18].

Shavkat Rahmon qalamiga mansub quyidagi bandda “agar” so‘zi vositasida shartlilik asosida o‘xshatilgan tashbihi mashrut turini kuzatish mumkin:

Qadadim qop-qora ko‘ksingga
cho‘g‘ kabi qip-qizil g‘unchalar.
Agar men bo‘lmasam, eshit, tun,
chiroyli bo‘lmasding bunchalar[19].

Shuningdek, bandning boshlanma ikki misrasida tashbehi sareh (mutlaq) turi kuzatiladi. “Cho‘g‘” mushabbihi “Qip-qizil g‘unchalar” mushabbahun-bihga “kabi” adoti tashbeh orqali o‘xshatilgan.

Usmon Azim ham quyidagi misralarida “garchi” so‘zini qo‘llash orqali tashbehi mashrut san’atini yuzaga keltirgan:

Garchi men yo‘limni bog‘larga soldim,
Daraxtga yetmadim – devorda qoldim[20].

[16] Орипов А. Ранглар ва оҳанглар. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2012. – Б.8.
[17] Худойбердиева Ҳ. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б.258.
[18] Худойбердиева Ҳ. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б.269.
[19] Шавкат Раҳмон. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б.39.
[20] Шавкат Раҳмон. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б.39.

Shoir ijodida daraxt obrazi alohida ahamiyatga ega. U ajdodlarimizning totemistik tasavvurlari asosida qadimgi mifo-poetik qarashlar bag‘ridan o‘sib chiqqan “daraxt” obraziga yangicha badiiy-estetik ma’no yuklab, inson va tabiat uyg‘unligini go‘zal tashbehlarda ifodalagan. Lirik “men”ning “daraxtga yetishi” – hayotning davom etishi (daraxt kabi o‘sishi), ertangi kunga umid bog‘lashi (daraxtning quyoshga tomon o‘sishi) kabi g‘oyalarni ifodalaydi. Bu poetik g‘oyalarning tadriji “Ko‘ngil” she’riy to‘plamidagi “O‘sishlar” turkumi she’rlarida dinamik tarzda o‘sib borgan.

Tashbehi tavsiyat barobar o‘xshatishga asoslangan she’riy san’atning bir turi bo‘lib, bu haqda Rashididdin Vatvot quyidagi fikrni bildirgan: “Bu san’at shundan iboratki, shoir o‘zidan bir belgi va tasvirlayotgan narsasidan bir belgini olib, ularni boshqa biror narsa bilan qiyoslaydi”. Sirojiddin Sayyidning

Bellari bordir qamishning beliday
Nola qilgum men misoli nayqamish[21]

baytida shoir yorning belini qamishga o‘xshatadi. Oshiq esa nayqamishga aylanib, ishq otashida nola chekadi. Ma’shuqa nayga, oshiq nayqamishga o‘xshatilgan. Mumtoz adabiyotimiz namunalarida nay ham an’anaviy ramziy timsollardan biri bo‘lib, keyingi davr zamonaviy she’riyatimiz poetik ifoda yo‘sinida o‘ziga xos ma’no qirralariga ega bo‘lib kelmoqda. Masalan, XX asr she’riyatida Usmon Nosir “Tilimni nayga jo‘r etding” misralari orqali nay timsolini ifodalagan. Ko‘rinadiki, mustaqillik davri ijodkorlari qo‘llayotgan timsollar galereyasida nay ham shoir poetik g‘oyasini ifodalashda o‘ziga xos mazmun ifodasiga ega bo‘lmoqda. She’riyatda nay timsolining asliyat ramzi sifatida qo‘llanishi olamga ma’rifat nurlarini taratayotgan komil insonning o‘zligiga erishishi, poklangan nafasning ilohiy sadoga aylanishi tarzidagi ifodalar bilan bog‘liq. Yuqoridagi baytda ifodalangan “nola qilgum” birikmasida ham oshiq nafasining ilohiy sadoga aylanishi nayqamish timsolida tasvirlangan.

Tashbehi mo‘kad turida esa o‘xshatilgan va o‘xshalgan narsa orasida o‘xshatish vositalari (-dek, -day, go‘yo, kabi, xuddi) qo‘llanmagan holda ta’kid orqali o‘xshatiladi. Halima Xudoyberdiyevaning “Hayf” she’ridan keltirilgan bandda tashbehning mazkur turi qo‘llanilgan:

Ayol – olov, ayol –gul,
Sochlar – arsloniy yollar,
Ishqda yonmay bo‘lsa kul
Hayf-yey, olov ayollar![22]

[21] Сирожиддин Саййид. Асарлар. 3-жилд. – Тошкент: Sharq, 2019. – Б.444.
[22] Худойбердиева Ҳ. Йўлдадирман. – Тошкент: Шарқ, 2006. – Б.251.

She’rda ayol olovga, gulga, uning sochlari esa arslon yollariga ot+kesim tarzidagi o‘xshatish vositalarisiz ta’kid orqali o‘xshatilgan. Xuddi shu tarzdagi tashbih Matnazar Abdulhakimning quyidagi baytida qo‘llanilgan:

Qoshlar – ajib yaproq, kokillar – sunbul,
Qorachiqlar charos, yanoqlar olma[23].

Keltirilgan misralarda o‘xshatish vositalari qo‘llanilmagan holda faqat ta’kidlash usuli bilan qoshlar yaproqqa, kokillar sunbulga, qorachiqlar charosga, yanoqlar olmaga mengzanadi. Lirik qahramon yorining portretini yaratishda ta’kidni kuchaytirgan va o‘quvchi ko‘z o‘ngida go‘zal sanamning suvratini gavdalantirgan.

Xulosa shuki, hozirgi davr she’riyatida qo‘llanilayotgan badiiy san’atlarning ifoda yo‘sini shoir estetik tamoyillari hamda badiiy mahoratiga bog‘liq ravishda namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, davr ijodkorlari tashbeh san’atidan foydalanib, yangi qirralarini ochishga, poetik maqsadiga daxldor yangicha talqinlarini ifodalashga muvaffaqiyat bilan erishmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ҳожиаҳмедов А. Шеър санъатларини биласизми? – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б.4.
2. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: O‘zbekiston, 2014. – Б.15
3. Зоҳидова Д. Амирий ижодидаги поэтик талқиннинг айрим қирралари хусусида // “Амирий ва Қўқон адабий муҳити” мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент: Tamaddun, 2017. – Б.24.
4. Жўраев Ҳ. Алишер Навоий лирикасида воқелик ва унинг поэтик талқинлари: Филол.фан.докт... дисс. – Тошкент, 2008. – Б.246.
5. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойи (Аруз вазни ва бадиий воситалар ҳақида). Форсчадан Алибек Рустамов таржимаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981. – Б.212.
6. Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Тошкент: Sharq, 2019. – Б.411.
7. Орипов А. Ранглар ва оҳанглар. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2012. – Б.12.
8. Усмон Азим. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 1995. – Б.315.
9. Худойбердиева Ҳ. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б.258.
10. Шавкат Раҳмон. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б.39.
11. Сирожиддин Саййид. Асарлар. 3-жилд. – Тошкент: Sharq, 2019. – Б.444.
12. Худойбердиева Ҳ. Йўлдадирман. – Тошкент: Шарқ, 2006. – Б.251.

[23] Матназар Абдулҳаким. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – Б.60.

13.Матназар Абдулҳаким. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – Б.60.

MILLIY O‘ZLIKNI SAQLAB QOLISH YO‘LLARI

LINGVISTIK VA MADANIY JIHATLAR

R.R. Shaimkulova,
T.T. Eralieva, o‘qituvchi
U.T. Muratalieva, filologiya fanlari nomzodi
O‘sh davlat universiteti
(Qirg‘iziston)

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada globallashuv sharoitida milliy o‘ziga xoslikni saqlashning ahamiyati va uni amalga oshirishning asosiy yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning asosiy obyekti ona tilining roli, milliy qadriyatlarning o‘zgarishi va zamonaviy texnologiyalarning bu jarayonga ta’siri hisoblanadi. Maqolada o‘ziga xoslik tushunchasi lingvistik, falsafiy va sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Mualliflar milliy o‘ziga xoslikni saqlab qolish uchun til siyosatini kuchaytirish, raqamli muhitda qirg‘iz tilidagi kontentni rivojlantirish va ta’lim tizimiga etnik-madaniy komponentlarni kiritish zarurligini asoslaydilar.

Tadqiqot milliy o‘ziga xoslik dinamik jarayon ekanligini va avloddan-avlodga faqat til orqali o‘tishini isbotlaydi. Maqola madaniyatshunos olimlar, tilshunoslar va jamoat arboblari uchun ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: milliy o‘ziga xoslik, ona tili, globalizatsiya, madaniy kod, etnik kelib chiqish, til siyosati, raqamlashtirish, ma’naviy qadriyatlar.

Аннотация: Бул илимий макалада глобализация шартында улуттук иденттүүлүктү сактоонун маанилүүлүгү жана аны ишке ашыруунун негизги жолдору каралат. Изилдөөнүн негизги объектиси катары эне тилдин ролу, улуттук баалуулуктардын трансформациясы жана заманбап технологиялардын бул процесске тийгизген таасири алынган. Макалада иденттүүлүк түшүнүгү лингвистикалык, философиялык жана социологиялык өңүттөн талданат. Авторлор улуттук иденттүүлүктү сактоо үчүн тил саясатын бекемдөө, санариптик чөйрөдө кыргыз тилдүү контентти өнүктүрүү жана билим берүү системасына этномаданий компоненттерди киргизүү зарылдыгын негиздейт.

Изилдөөнүн натыйжасында улуттук иденттүүлүк – бул динамикалуу процесс экени жана ал тил аркылуу гана муундан-муунга өтөрү далилденет.

Макала маданият таануучулар, тилчилер жана коомдук ишмерлер үчүн илимий-практикалык баалуулукка ээ.

Ачкыч сөздөр: улуттук идентүүлүк, эне тил, глобализация, маданий код, этнос, тил саясаты, санариптештирүү, руханий баалуулуктар.

Abstract: This scientific article considers the importance of preserving national identity in the context of globalization and the main ways to implement it. The main object of the study is the role of the native language, the transformation of national values, and the impact of modern technologies on this process. The article analyzes the concept of identity from a linguistic, philosophical, and sociological perspective. The authors substantiate the need to strengthen language policy, develop Kyrgyz-language content in the digital environment, and introduce ethnocultural components into the education system to preserve national identity.

The results of the study prove that national identity is a dynamic process and is transmitted from generation to generation only through language. The article is of scientific and practical value for cultural scientists, linguists and public figures.

Keywords: national identity, native language, globalization, cultural code, ethnicity, language policy, digitalization, spiritual values.

XXI asrda dunyo global integratsiya jarayonini boshdan kechirmoqda, chegaralarning ochilishi va axborot texnologiyalarining rivojlanishi nafaqat kichik xalqlar madaniyatiga, balki ularning milliy o‘ziga xosligiga (identifikatsiyasiga) ham katta tahdid solmoqda. Milliy o‘ziga xoslik - bu shaxsning o‘zini ma’lum bir millat vakili sifatida qabul qilishi, uning tarixi, tili, an’analari va qadriyatlarini qabul qilishidir.

Qirg‘iziston uchun mustaqillikka erishganidan beri milliy o‘ziga xoslikni shakllantirish masalasi davlat darajasida strategik yo‘nalish bo‘lib kelgan. Axir, o‘ziga xoslikni yo‘qotish davlat poydevorini yo‘qotishga tengdir.

Ushbu maqolada biz o‘ziga xoslikning yadrosi bo‘lgan til masalasiga va uni saqlab qolishning ilmiy va metodologik usullariga e’tibor qaratamiz. (1. Aytmatov Ch. (2010)).

Ushbu ilmiy maqolada qo‘yilgan maqsadlarga erishish va milliy o‘ziga xoslikni saqlash yo‘llarini har tomonlama tahlil qilish uchun bir qator umumiy ilmiy va maxsus lingvistik usullar qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida tilshunoslik, sotsiologiya va madaniyatshunoslik kesishmasidagi usullarni birlashtirgan fanlararo yondashuv markaziy o‘rinni egalladi.

Avvalo, qirg‘iz xalqining milliy o‘ziga xosligining tarixiy shakllanish bosqichlari diaxron tahlil usuli yordamida o‘rganildi. Bu usul til birliklari va madaniy qadriyatlar vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarganini va qaysi birliklar millatning genetik xotirasi sifatida barqaror qolganligini aniqlash imkonini berdi.

Ikkinchidan, qiyosiy usul yordamida qirg‘iz tili va madaniyatining hozirgi holati global tendentsiyalar bilan taqqoslandi. Globallashuv ta’sirida tilning ichki

tuzilishidagi o‘zgarishlar, xorijiy tillardan import qilingan atamalarning o‘ziga xoslikka ta’siri va boshqa xalqlarning o‘ziga xoslikni saqlashdagi tajribalari parallel ravishda ko‘rib chiqildi. Bu usul bizga qirg‘iz madaniyatining o‘ziga xosligini va uning boshqa madaniyatlar bilan o‘zaro ta’siri chegaralarini aniqlashtirish imkonini berdi.

Uchinchidan, tadqiqotda tizimli yondashuv qo‘llanildi, milliy o‘ziga xoslik alohida hodisa sifatida emas, balki til, tarix, urf-odatlar va davlat mafkurasining birligidan iborat murakkab tizim sifatida ko‘rib chiqildi. Ushbu tizimda tilning markaziy rolini asoslashda lingvokulturologik tahlil usuli yetakchi o‘rinni egalladi.

Bundan tashqari, zamonaviy jamiyatdagi lingvistik vaziyatni baholash uchun sotsiolingvistik usullar qo‘llanildi. Ushbu usul doirasida davlat tilining qo‘llanilish sohalari, lingvistik muhitning raqamlashtirish darajasi va yosh avlodning o‘z ona tiliga munosabati tahlil qilindi. Shuningdek, maqola mazmunini ilmiy dalillar bilan mustahkamlash uchun induksiya va deduksiya usullari qo‘llanildi, bu esa individual lingvistik faktlardan umumiy milliy xulosalarga va aksincha, umumiy nazariy tamoyillardan aniq takliflarga o‘tish orqali tadqiqotning mantiqiy izchilligini ta’minladi.

Tadqiqotning asosi Qirg‘iziston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonun, madaniy merosni saqlash bo‘yicha YuNESKO konventsiyalari, shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning (M. Qoshg‘ariy, J. Balasagin, E. Sapir, B. Uorf va boshqalar) asarlari bo‘lib, zamonaviy sotsiologik tadqiqotlar ma’lumotlaridan foydalanilgan. (4. YuNESKO. Madaniy xilma-xillik to‘g‘risidagi deklaratsiya. — 2001)

Bundan tashqari, tadqiqotning moddiy bazasi qirg‘iz filologiyasi, falsafasi va tarix fanining taniqli vakillarining asarlari, shuningdek, zamonaviy normativ-huquqiy hujjatlar bilan shakllantirilgan. Milliy o‘ziga xoslikning asosi bo‘lgan "til-nutq-madaniyat" uchligini o‘rganishda quyidagi manbalarga tayanildi:

1. Til va tafakkur muammosi (qirg‘iz olimlarining hissasi). Tadqiqot akademik B.M.ning nazariy qoidalariga asoslangan edi. Yunusaliyev qirg‘iz tilining shakllanishi va uning etnik o‘ziga xoslik bilan bog‘liqligi haqida. U tilni xalqning tarixiy xotirasining eng ishonchli saqlovchisi sifatida ta’riflagan.

K.Tinistanovning ilmiy merosi tadqiqotning asosini tashkil etadi. Uning tilni tizimlashtirish va terminologiyani rivojlantirish orqali millatni zamonaviy tsivilizatsiyaga tayyorlash g‘oyasi bugungi "raqamli o‘ziga xoslik" uchun dolzarbdir.

Filologiya fanlari doktori, professor S.Jigitovning milliy madaniyatning o‘zgarishi va lingvistik dissimilyatsiya haqidagi o‘tkir ilmiy maqolalari globallashuv sharoitida xavflarni tahlil qilish uchun material bo‘lib xizmat qildi.

2. Falsafiy va etnik-madaniy materiallar: Milliy o‘ziga xoslikni falsafiy darajada tahlil qilishda "Manas" dostonidagi o‘ziga xoslik kodlarini o‘rgangan

akademik A.Akmataliyevning asarlaridan foydalanilgan. U "Manas" fenomenini o‘ziga xoslikni saqlashning asosiy mexanizmi sifatida taklif qiladi.

Professor T.Asqarovning estetik va ma’naviy qadriyatlar bo‘yicha asarlari milliy o‘ziga xoslikning axloqiy va axloqiy normalarini aniqlash imkonini berdi.
Tarixchi T. Kenensariyevning qirg‘iz davlatchiligining tarixiy bosqichlari bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari o‘ziga xoslikning tarixiy ildizlarini asoslash uchun material bo‘lib xizmat qildi.

3. Normativ, huquqiy va statistik manbalar:

Qirg‘iziston Respublikasi Konstitutsiyasi: Davlat tilining maqomi va milliy madaniyatni himoya qilish to‘g‘risidagi moddalar. (5. Qirg‘iziston Respublikasining "Davlat tili to‘g‘risida"gi qonuni. — Bishkek, 2023.))

"Qirg‘iz fuqarosi" tushunchasi (2021-2026): Ushbu hujjatda xilma-xillikni saqlab qolish bilan birga o‘ziga xoslikni mustahkamlash yo‘nalishlari tadqiqotning amaliy qismida tahlil qilindi.

4. Etnolingvistik va paremiologik materiallar:

Professor X. Karasayevning "Qamtiq zhala" va "Sozduk" asarlari tadqiqotning lingvistik faktologiyasini tashkil etdi. Uning asarlaridagi so‘zlarning etimologiyasi va xalq talqini ham qirg‘iz dunyoqarashining (o‘ziga xosligining) o‘ziga xosligini isbotlovchi asosiy argument sifatida ishlatilgan. (2. Karasayev X. (1982)).

Qirg‘iz olimlarining tadqiqotdagi asosiy tezislari:

Til millatning genetik kodi: Olim E. Abduldaev tilning yo‘qolishi xalqning biologik emas, balki ma’naviy o‘limiga olib kelishini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Etnik o‘ziga xoslik va globallashuv: Zamonaviy tadqiqotchilar (masalan, A. Erkebaev) milliy o‘ziga xoslikni saqlashni izolyatsiya sifatida emas, balki o‘z qiyofangiz bilan jahon madaniyatiga integratsiya sifatida ko‘rishadi.

Adabiyotning roli: Ch. Aytmatovning "Mankurtchilik" konsepsiyasi o‘zligini yo‘qotgan insonning fojiasini aks ettiruvchi eng buyuk ilmiy va falsafiy material sifatida qabul qilindi.
Tadqiqotning nazariy va metodologik asosini yaratishda til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rib chiqadigan lingvokulturologik yo‘nalishdagi materiallarga alohida e’tibor qaratildi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqot uchun material sifatida quyidagi manbalar va ilmiy tushunchalar ishlatilgan:
Lingvistik nisbiylik nazariyasi: E. Sapir va B. Worfning konsepsiyalari material sifatida olindi va qirg‘iz tili misolida tahlil qilindi. Ushbu materiallar bizga tilning inson dunyoqarashi va milliy o‘ziga xosligini (identifikatsiyasini) qanday shakllantirishini asoslash imkonini berdi.

Milliy tushunchalar to‘plami: Tadqiqotda qirg‘iz tili lug‘atida madaniy birliklar sifatida "sharaf", "uyat", "kut", "yrys" kabi fundamental tushunchalar

oʻrganildi. Ushbu tushunchalarning lingvistik ma’nosi va ularning milliy xarakterni shakllantirishdagi roli X. Karasaev lugʻatlari va ilmiy talqinlar yordamida tahlil qilindi.

Qarindoshlik terminologiyasi modellari: Qirgʻiz tilidagi qarindoshlik atamalari tizimi (aba, ake, eje, kenge, bole va boshqalar) ijtimoiy oʻziga xoslik uchun material sifatida ishlatilgan. Ushbu atamalarni saqlash xalqning ichki birligi va ijtimoiy ierarxiyasini saqlab qolishning lingvistik mexanizmi deb hisoblangan.
Etnopedagogik va folklor materiallari: „Manas“ dostonidagi madaniy kodlar va maqollar tadqiqot uchun milliy oʻziga xoslikning genetik xotirasi sifatida faktik asos yaratdi. Ushbu materiallar tilning madaniy va kommunikativ funktsiyasini va qadriyatlarni avloddan-avlodga uzatish qobiliyatini isbotladi.
Ushbu materiallar toʻplami milliy oʻziga xoslikni saqlab qolish masalasini har tomonlama, koʻp qirrali va ilmiy jihatdan chuqur oʻrganish uchun asos yaratadi.

Milliy oʻziga xoslikni saqlashning asosiy yoʻnalishlari sifatida quyidagi natijalar aniqlandi:Til shunchaki muloqot vositasi emas, balki dunyoni idrok etishning maxsus shaklidir. Sapir-Vorfning lingvistik nisbiylik nazariyasiga koʻra, til inson tafakkurini belgilaydi. Agar qirgʻiz bolasi oʻz ona tilida gapirmasa, u qirgʻiz dunyoqarashidan mahrum boʻladi.

Tilda saqlanib qolgan frazeologizmlar, paremiyalar (maqollar) xalqning ming yillik tajribasini oʻz ichiga oladi. Ularning yoʻqolishi madaniy kodning yoʻqolishiga olib keladi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, agar qirgʻiz tili global tarmoqda (Google, OpenAI, Wikipedia) toʻliq ishlamasa, yosh avlodning oʻziga xosligi "ingliz tilida soʻzlashuvchi" yoki „ rus tilida soʻzlashuvchi“ axborot muhitiga singib ketadi. Shuning uchun milliy oʻziga xoslikni saqlashning zamonaviy usuli qirgʻiz tilining katta lingvistik modellarini (LLM) yaratish va raqamli kontentni milliy lazzat bilan boyitishdir.

Zamonaviy yoshlar axborotni Internet orqali oladilar. Shuning uchun, milliy oʻziga xoslikni saqlab qolish uchun qirgʻiz tilidagi Vikipediyani rivojlantirish, qirgʻiz tilini sun’iy intellekt (AI) modellariga integratsiya qilish va milliy oʻyinlar va dostonlarni media kontentiga aylantirish zarur.

Oʻziga xoslik oiladan boshlanadi. Ona suti bilan avloddan-avlodga oʻtgan lullabiylar, ertaklar va ajdodlar nasabnomalari insonning poydevoridir. Maktablarda „Manasshunoslik“ kabi fanlarning sifatini oshirish tavsiya etiladi.Milliy oʻziga xoslik davlat darajasida qoʻllab-quvvatlashga muhtoj. "Qirgʻiz fuqarosi" tushunchasi etnik xususiyatlarni saqlab qolish bilan birga umumiy fuqarolik birligini ta’minlashi kerak.

Tadqiqot shuni koʻrsatadiki, milliy oʻziga xoslikka tahdid ikki tomondan kelib chiqadi:
1. Tashqi omil: Global madaniyatning ustunligi (gʻarblashtirish).
2. Ichki omil: Ona tiliga befarqlik va madaniy nihilizm.

Tilni saqlab qolish regressiya emas, balki taraqqiyotdir. O‘z tilini yaxshi biladigan odam boshqa tillar va madaniyatlarni osongina o‘zlashtirishi mumkin, chunki uning ichki "bazasi" kuchli.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, milliy o‘ziga xosligi yaxshi shakllangan inson globallashuvning salbiy ta’siriga (qadriyatlarning o‘zgarishi, madaniy zarba) ko‘proq chidamli bo‘ladi. Faqat o‘zi kimligini, qaysi ildizlardan kelib chiqqanini va qaysi til madaniyatini ifodalashini aniq biladigan odamgina boshqa madaniyatlar bilan teng huquqli muloqotga kirisha oladi.

Olib borilgan tadqiqotlar va ilmiy tahlillar asosida globallashuv davrida milliy o‘ziga xoslikni saqlab qolish nafaqat madaniy merosni himoya qilish, balki millatning davlat sifatida saqlanib qolishini ta’minlaydigan strategik xavfsizlik masalasi ekanligi isbotlangan.

Zamonaviy texnologiyalar davrida o‘ziga xoslik raqamli muhitga aylantirilmoqda. Qirg‘iz tilidagi ilmiy, madaniy va ko‘ngilochar kontentning yo‘qligi yosh avlodning madaniy nihilizmiga olib keladi. Shuning uchun milliy qadriyatlarni raqamli formatga moslashtirish va ularni sun’iy intellekt tizimlariga integratsiya qilish dolzarb vazifadir.

Oila institutida ona tilining kommunikativ rolini tiklashga qaratilgan ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, milliy o‘ziga xoslik o‘tmishning qoldig‘i emas, balki kelajak energiyasidir. Agar biz tilimizni, ruhimizni va tarixiy xotiramizni saqlab qola olsak va uni zamonaviy taraqqiyot bilan birlashtira olsak, qirg‘iz xalqi global tsivilizatsiyada o‘zining noyob qiyofasini saqlab qola oladi. Faqat o‘ziga xoslik saqlangan joyda haqiqiy davlatchilik va erkinlik mavjud bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aytmatov Ch.T. Til va madaniyat. — Bishkek, 2010.
2. Karasaev X. Kamtiq razhats. — Frunze, 1982.
3. Sapir E. Til. Nutqni o‘rganishga kirish. — M., 1934.
4. YuNESKO. Madaniy xilma-xillik to‘g‘risidagi deklaratsiya. — Parij, 2001.
5. Qirg‘iziston Respublikasining "Davlat tili to‘g‘risida"gi qonuni. — Bishkek, 2023.

O‘ZBEK ADABIY TANQIDCHILIGI TAKOMILI

Dehqonova Maxsumaxon Shavkatovna,

FDU adabiyotshunoslik kafedrasi dotsenti, (Phd)

Email: dexqonovamaxsuma@gmail.com

Annotatsiya: o‘zbek adabiy tanqidchiligi uzoq tarixiy davrni bosib o‘tdi. Folklorda og‘zaki tarzda paydo bo‘lishni boshlagan bu soha Sharq mumtoz adabiyotda shakllanib XX asrda jadid matbuoti ta’sirida haqiqiy fan sifatida taraqqiy etdi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek adabiy tanqidchiligi, tanqid shakllanishi, og‘zaki tanqid, tahlil, talqin, baholash

Abstract: Uzbek literary criticism has undergone a long and rich historical development. Initially emerging in oral forms within folklore, this field acquired specific criteria in classical Eastern literature (particularly in tazkiras and divan prefaces). By the early 20th century, influenced by the Jadid press and the national awakening movement, it developed into a systematic science and an independent discipline. This article analyzes the evolutionary process of Uzbek literary criticism from its oral origins to professional scholarship.

Keywords: Uzbek literary criticism, formation of criticism, oral criticism, artistic analysis, interpretation, aesthetic evaluation, Jadid press, tazkirachilik (tazkira writing).

Adabiy tanqidchilik — adabiyotshunoslikning sohasi, badiiy asarni, shuningdek, undagi hodisalarni, obrazlarni tahlil va talqin etadi. Adabiy tanqid adabiy jarayonni kuzatib, uning tamoyillarini aniqlaydi, yaratilgan asarlarga munosabat bildirib, ularni shu davrning g‘oyaviy va estetik talablari asosida tahlil etadi. Tanqidning vazifasi asarni haqqoniy baholaydi, yutuq va kamchiliklarni xolislik bilan tekshirib kitobxonga yetkazadi.

Sharq adabiyotshunosligida “ilmi naqd” badiiy asarni baholaydigan soha tarzida rivojlangan. Yunonchada kritik so‘zi bilan ifodalangan tanqid keng ma’noda “mulohaza bildirmoq”, “fikr yuritmoq” ma’nolarida qo‘llanib kelingan. Arab tilida tanqid so‘zi “دقن”, ya’ni “saralamoq, tanqidiy muhokama qilmoq, tanqid qilmoq”[24] ma’nolarida keladi. M.Behbudiy tanqid haqida “yangi maktab va muallimlari va anda o‘qulaturgon kitoblarni ma’nan taftish etib, andagi

[24] Бушро. Арабча-ўзбекча луғат.Olimxon@bk.ru. (murojaat sanasi: 05.08.2023.)

nuqsonlarni bayon etmoq tanqiddur”[25], degan edi. “Adabiyotshunoslik lug‘ati”[26]da tanqid (arabcha, “saralash, saylash, muhokama qilmoq”) – badiiy tanqid; keng ma’noda hozirgi badiiy jarayon muammolarini o‘rganish, yutuq va kamchiliklarini aniqlash, taftish etuvchi soha deb ta’rif berilgan.

Shu sababdan munaqqidlar matn bilan ishlashda so‘z zamiridagi ma’no qatlamini anglash, sharhlash orqali badiiy asarning qimmatini belgilaganlar. Yaratilgan badiiy asarga baho berilar ekan, munaqqid tomonidan qayd etilgan xulosalar tanqidchilikda shakllangan ma’lum mezonlarga asoslanadi. Qadimda muayyan asarning yutuq va kamchiliklarini ko‘rsatishda munaqqidning yuksak didi, dunyoqarashi muhim ahamiyatga molik bo‘lgan. Dastlab yunon-rim manbalarida adabiyotga munosabat va ilmiy mushohadalar ko‘zga tashlanadi. Yunon sofistlarining “notiqlik notiqlik uchun” g‘oyalari qattiq tanqidga uchragan. Shu ma’noda, sofistlar qarashlari adabiy tanqid tafakkurining shakllanishi va rivojida asosiy bo‘g‘in hisoblanadi. Qadimdan har bir ijodkorning asarlarida ma’lum ma’noda adabiy tanqidiy qarashlar o‘z aksini topgan. Bunday qarashlar yaxlit holda tadqiqot olib borilmaguncha fan nazariyasi sifatida qabul qilinmagan. Umuman olganda, adabiy-tanqidiy qarashlarning rivoji ritorika bilimdonlarining nomi bilan ham bog‘liqdir. Aflotun, keyinchalik Arastu, Gegellarning badiiy adabiyot xususidagi mulohazalari, adabiy tanqidga “doimiy harakatdagi estetika” sifatida qarashlari adabiy-tanqid rivojiga muhim hissa bo‘lib qo‘shilgan. G‘arb tanqidshunosligida esa matn talqiniga ko‘proq e’tibor qaratilgan. XVIII asrlarda Yevropa adabiyotida badiiy-estetik tafakkurning yangilanishi tanqidning alohida soha sifatida ajralib chiqishiga sabab bo‘ldi. XIX asrda Fransiyada Sh.O.Sent-Byov boshchiligidagi “biografik tanqidchilik”, Rossiyada V.G.Belinskiy, N.A.Dobrolyubov, N.G.Chernishevskiy ijodi bilan bog‘liq rus sotsiologik tanqidchiligining shakllanishi ushbu sohaning ilmiy ahamiyatini oshirib vazifasini yangilandi.

Adabiy tanqid Forobiyning Arastu “Metafizika”siga bitilgan sharhlari bilan jonlandi. Shuningdek, avvaldan yozuvchilar asarlarini turli davralarda, saroylarda o‘qib berishgan, davra qatnashchilari asarlarning yutuq va kamchiliklarini qayd etgan. Ushbu holat tanqid tarixining og‘zaki davri bo‘lgan. Yozma adabiyotda tanqidning paydo bo‘lishi tazkirachilik maktabi shakllanishi bog‘liqdir.

[25] Қаранг. Беҳбудий М. Танқид – сараламоқдур // Ойна, 1914. – № 32.

[26] Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б 310.

“Al-mo‘jam”, “Badoyi’ us-sanoye’” kabi asarlar Sharq tanqid ilmi tarixini yoritishda muhim o‘rin tutadi. Sharqda sharh, tafsirning qadri baland bo‘lib, o‘tkir zehnli allomalar bunday sharafli, mas’uliyatli vazifani aql, farosat va ehtiros omuxtaligida uddalashgan. Har bir so‘z, belgi, imo-ishorani ilg‘ash, aniq hamda to‘g‘ri sharhlash, asoslash katta ilmiy salohiyatni talab etgan. Masalan, Muqaddas kitobga tafsir bitish tilni puxta bilish, so‘zning ma’no xususiyatini anglash, quvvai hofizaga egalikni taqozo etgan bo‘lsa, boshqa diniy va dunyoviy asarlarga shu yo‘sinda munosabat bildirilgan.

O‘tmish adabiyotimizda tanqid atamasi tushunchasi o‘rnida “naqd, mashvarat, nuqqod” so‘zlari ham ishlatilgan. O‘zbek adabiyotshunosligining tanqidiy ildizlari XI asrdan shakllana boshlagan. XI-XIII asrda Jorulloh az-Zamahshariy, Yusuf Sakkokiy, Rashididdin Votvot kabilarning aruz vazni haqidagi asarlari, lug‘atlari XX asrgacha Sharqda asosiy manbalardan bo‘lgan. Mumtoz adabiyotimizda tazkira, manoqib dastlabki tanqid janrlaridan hisoblanadi.

Abduqodir Hayitmetov o‘zbek adabiy tanqidchiligining yuqoridagi davr va bosqichlari asosida Sharqda adabiy tanqidchilikning rivojlanishini quyidagicha tasnif etgan:

1. Adabiy majlislar, adabiy munozara va suhbatlar formasida (Rudakiy, Daqiqiy, Balxiy).

2. Filologik xarakterdagi nazariy asarlar formasida yoki ularning tarkibida (Yusuf Sakkokiyning “Miltoh ul-ilm”, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarlari).

3. Tazkirachilik va yozma hamda og‘zaki adabiyot materiallarini yig‘ish shaklida (Mahammad Avfiyning “Lubob ul-albob” va “Jomi ul-hikoyot”asarlari).

4. Adabiy-badiiy asarlarning solishtirma matnlarini tayyorlash shaklida (Abulqosim Firdavsiy “Shohnoma”sining yig‘ma matni).

5. Adabiy xotira va memuar yozish formasida (Nizomiy Aruziy Samarqandiyning “Chahor maqola”, Abu Tohir al-Xotuniyning “Manoqib ush-shuaro” asarlari).

6. Adabiy-badiiy formada (Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Durbekning “Yusuf va Zulayho” asarlari shular jumlasidandir)[27].

O‘zbek adabiy tanqidchiligining soha sifatidagi taraqqiyoti esa XV asrlarga to‘g‘ri keladi. Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” (1487)si

[27] Қаранг. Ҳайитметов А. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. – Тошкент: Фан, 1959.

dastlabki tazkiralardan bo‘lib, IX-XV asrlarda O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Eron hududida istiqomat qilgan ijodkorlarning hayoti va ijodi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan. Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” (1491) asarida esa XV asrda Xurosonda yashab ijod qilgan 450 dan ortiq shoir va olimlar, ularning ijodi, sajiyasi, dunyoqarashi, xulq-atvori kabilar yoritilgan. Bundan tashqari, Nisoriy, Vozeh, Fazliy, Tabibiylarning tazkiralari o‘zbek adabiy tanqidining shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon”[28], “Xamsat ul-mutahayyirin”[29] asarlarida adabiyot va she’riyat haqida o‘z fikrlarini bayon etgan. Navoiyning tanqidiy qarashlari o‘zbek adabiy tanqidchiligining taraqqiy etishida muhim ahamiyatga ega. Qayd etish lozimki, “Ulug‘ shoir Navoiyning adabiy-tanqidiy merosi ungacha yaratilgan o‘zbek va qo‘shni xalqlar adabiyoti va adabiyotshunosligi zaminida paydo bo‘lib, ularning eng yaxshi an’analarini taraqqiy ettirdi. Navoiyning bu merosi uning vafotidan keyin ham o‘zbek va qo‘shni xalqlar adabiyoti va adabiyotshunosligi fani taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi”[30].

Haqiqatan ham, o‘zbek adabiy tanqidchiligining rivojida Alisher Navoiyning xizmatlari katta. Uning adabiyotshunoslikka doir asarlari o‘zidan keyin ijod qilgan shoirlar uchun o‘ziga xos manba vazifasini o‘tagan. Shoir boshlab bergan an’analar keyingi asrlarda ham adabiyotshunoslar tomonidan davom ettirilgan. Umuman olganda, mumtoz adabiyot bugungi kun tanqidchiligining ildizi sanaladi. R.Tojiboyevning quyidagi fikrlari ham bunga dalil bo‘la oladi: “XX asr boshlari o‘zbek adabiy tanqidchiligining tarixiy ildizlari ko‘p asrlik adabiyotimiz tarixidan, klassik tanqidchiligimizda mavjud bo‘lgan shakl va usullardan oziq olib turibdi. Mumtoz tanqidchiligimiz ... shakllarining deyarli barchasi ... adabiy tanqidda uchraydi. Bu esa yaxshi an’analarning davom etishi sifatida tahsinga sazovor hodisadir”[31].

O‘zbek adabiy tanqidchiligi XX asr boshlarida dastlab matbuotda o‘zini namoyon etgan. XX asr boshlaridagi adabiy tanqidchilik mumtoz tanqidchilik an’analarini davom ettirish bilan birga, yangicha sharoitda yangicha ko‘rinishga ega bo‘lgan. O‘zbek adabiy tanqidchiligining dastlabki namunalari matbuotda

[28] https://library.navoiy-uni.uz/files/alishernavoiy/mezonulavzon/(kirill).pdf.

[29] http://lib.tstu.uz/jirbis2/components/com_irbis/images/covers/84/9876/Alisher_Navoiy._Xamsat ul_mutahayyirin.

[30] Ҳайитметов А. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. – Тошкент: Фан, 1959.

[31] Тожибоев Р. XX аср бошлари ўзбек адабий танқиди тарихидан: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1993. – Б. 31.

ko‘rina boshladi hamda zamonaviy tanqidning shakllanish davrini boshlab berdi. Jadidlar boshlab bergan bu yo‘nalish soha rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Matbuotning faollashuvi, jonlanishi adabiy jarayon va adabiy tanqid uchun rivojlanish bosqichi bo‘ldi. Jadid harakati namoyondalari o‘z g‘oyasini matbuot orqali keng yoyishdi. Misr kabi davlatlar, tatar matbuotining tajribasi asosida matbachilik ijtimoiy hayotga kirib keldi.

Bu davrda M.Behbudiy, M.Abdurashidxonov, A.Sa’diy, A.Fitrat, A.Qodiriy, Elbek kabilar adabiyotshunoslik ilmi taraqqiyotiga o‘z hissalarini qo‘shdilar. XX asr boshlaridagi dastlabki tanqidiy maqolalar ilmiy-nazariy jihatdan puxta-pishiq bo‘lmasa ham sohaning rivoji va taraqqiyoti ayni shu tadqiqotlar bilan belgilanadi.

Zamonaviy tanqid XX asrning 10-yillaridan shakllana boshladi. Cho‘lpon “Adabiyot nadir?” (“Sadoyi Turkiston”, 1914), “Muhtaram yozuvchilarimizg‘a” (“Sadoyi Turkiston”, 1915), Mahmudxo‘ja Behbudiy “Tiyotr nadur?” (“Oyna”, 1914) kabi maqolalari o‘zbek adabiy tanqidining taraqqiyotini boshlab berdi. Shuningdek, o‘zbek adabiy-tanqidiy qarashlarining shakllanishida S.Ayniy, V.Zohidov, E.Bertels, V.Abdullayev, N.Mallayevlarning xizmatlari katta ekanligini ta’kidlash zarur. Adabiyotshunoslikda har bir soha o‘z janrlari orqali taraqqiy etgani kabi tanqidchilik ham yangi janrlar hisobiga boyib bordi. “XX asr boshlaridagi o‘zbek tanqidchiligida adabiy tanqidning taqriz, maqola, annotatsiya kabi talay janrlari ommalasha bordi. Bu janrlarning ilk namunalari matbuot yuzini ko‘rdi. Ular garchi qanchalik sodda, jo‘n tuyulmasin, biroq zamonaviy tanqidchilikning ilk qadamlari sifatida qadrli. Ularning qimmati ham, asosan, shu bilan izohlanadi”[32].

R.Tojiboyevning fikricha[33], XX asr boshlaridagi adabiy tanqidchilikdagi asosiy yangilik – bu taqriz janri. Matbuot ham bu janrning taraqqiy etishiga asosiy turtki bo‘lgan. Shunga qaramay, taqrizning dastlabki ko‘rinishlari nisbatan oddiy va jo‘n bo‘lgan.

Tanqidchilikning rivojida adabiyotshunos olimlar, tanqidchilarning ham o‘rni katta. Xususan, M.Behbudiy, A.Fitrat, S.Ayniy, A.Sa’diy, E.Bertels, V.Mahmud, O.Hoshim, O.Sharafiddinov, M.Shayxzoda, V.Zohidov, I.Sultonov, V.Abdullayev,

[32] Тожибоев Р. XX аср бошлари ўзбек адабий танқиди тарихидан: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1993. – Б. 95.

[33] Тожибоев Р. XX аср бошлари ўзбек адабий танқиди тарихидан: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1993. – Б. 85.

G‘.Karimov, A.Qayumov, N.Mallayev, S.G‘aniyeva, H.Qudratullayevlarning xizmatlari katta bo‘lgan.

Munaqqid va adabiyotshunoslarning mashaqqatli mehnati evaziga vujudga kelgan tadqiqotlar bugungi kun adabiy tanqidchiligining taraqqiyotini belgilab berdi. Nafaqat Botir Valixo‘jayev yuqorida sanagan olimlar, balki mumtoz adabiyotshunosligimizda adabiy-tanqid ildizlarini yaratgan va shakllanishiga sabab bo‘lgan olimlarning ilmiy qarashlari hozirgi adabiyotshunoslik, adabiy tanqidning taraqqiyoti va mavqeini saqlab kelmoqda.

Adabiy tanqidchilikning nazariy jihatlarini ilmiy asoslash maqsadida olim adabiy tanqid janrlariga e’tibor qaratdi. Uning tadqiqotlarida adabiyotshunoslikda janrlarning yuzaga kelish tarixiga alohida urg‘u berilgan. B.Valixo‘jayevning fikricha, dastlab Sharqda “Panj ganj” dostonlarining yaratilishi janrlarning rang-barangligi rivojiga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. U o‘tmish adabiyotshunosligi, ya’ni mumtoz adabiyotshunoslik va adabiy tanqidni ifodalanish mohiyati (janr)ga ko‘ra ikki guruhga ajratadi[34]:

1. Bevosita “janr”lar, ya’ni adabiyotshunoslik va adabiy tanqidga bag‘ishlanmagan asarlarda she’r va shoirlik, shoirlar hayoti va ijodiga doir fikrlarning keltirilishi. Bu guruhga: 1) faxriya; 2) she’riy parchalar – g‘azalning ayrim baytlari, qit’a, soqiynoma, kichik masnaviy; 3) ilmi adabga bag‘ishlangan asarlar; 4) dostonlarning ayrim boblari; 5) tarixiy va tarixiy-esdalik asarlar; 6) nasihatnomalar kiritilgan.

2. Bilvosita “janr”lar, ya’ni adabiyotshunoslik va adabiy tanqid masalalaridan bahs yurituvchi asarlar guruhi. Bu guruhga 1) tazkira; 2) manoqib-holatlar; 3) aruz, qofiya va she’riy san’atlarga bag‘ishlangan risolalar; 4) debocha; 5) ro‘znoma va oynomalarda (XIX asrning II yarmi va XX asrning avvali) e’lon qilingan taqriz va ixcham maqolalarni kiritgan. Olim ikkinchi guruhdagilarga o‘tmish adabiyotshunosligi va adabiy tanqidning janrlari sifatida qaraydi.

Bundan tashqari, adabiyotshunoslik va adabiy tanqidning taraqqiyotini ham davrlashtiradi. Unga ko‘ra:

1. Ilk qadamlar – XI asrgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Adabiyotshunoslik va adabiy-tanqidiy qarashlarni ifoda etuvchi janrlar, bayon etish usuli ham shakllanmagan, mulohazalar umumiy tarzda ifoda qilingan.

[34] Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993.

2. Taraqqiyot zinalari – XV asrda rivoj topayotgan adabiyotshunoslik, adabiy tanqid, adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi hamda davr ijodkorlari asarlarini baholash ko‘zga tashlanadi.

3. An’ana va yangilik (shartli ravishda shunday nomlangan) davri – XVI va XX asrni qamrab oladi. Taraqqiyot zinalari davri adabiyotshunosligi an’analari bilan birga, XIX asrning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy, adabiy-madaniy hayotdagi o‘zgarishlarni nazarda tutadi. Ta’kidlash joizki, bu davrlashtirishda o‘zbek adabiyotining taraqqiy etishi va shakllanish davrlari asos qilib olingan.

Ushbu tadqiqotning mustaqillik yillarida bajarilganini inobatga olsak, keyingi 30 yil ichida o‘zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchiligi yana bir jiddiy o‘zgarishlar davrini bosib o‘tdi. Ayniqsa, badiiy asarlar, tadqiqotlarda talqinlarning turfa xilliligi shu so‘nggi yillarga to‘g‘ri keladi.

Botir Valixo‘jayevning fikricha, “Majolis un-nafois” asarida Navoiy adabiyotshunos olim sifatida namoyon bo‘lgan. Shoir o‘zigacha bo‘lgan tazkiralarni o‘rgangan va ulardagi kamchiliklarni to‘ldirgan. Ungacha yozilgan tazkiralarda o‘zidan avval yashagan mashhur shoirlar va olimlar tilga olingan bo‘lsa, “Majolis un-nafois”da o‘tmish hamda shoirga zamondosh ijodkorlar o‘rganilgan. Bu esa uning avvalgi tazkiralardan tubdan farq qilishini ko‘rsatadi. Sakkiz majlisga bo‘lingan ushbu tazkiraning har bir majlisi ham o‘z tuzilmasiga egaligi bilan diqqatga molik. “Alisher Navoiy adabiy tanqidchi sifatida o‘z asarlarida bu adabiy hayotning muvaffaqiyat va kamchiliklarini ko‘rsatadi: o‘z zamondoshlari hayotini chuqur o‘rganish, mumtoz adabiyot namunalarini o‘qish asosida mazmunli, badiiy jihatdan pishiq asarlar yaratishga chaqirdi... adabiyotning ijtimoiy vazifasi, uning shakli, mazmuni va mazmunning ustunligi asosida shakl hamda mazmunning birligi, hajv va hazil, g‘azal va masnaviy, haqiqatni tasvirlash va shu kabi qator masalalarni o‘rtaga qo‘yadi va ularni to‘g‘ri hal qilishga urinib, zamonasidan ancha ilgarilab ketadi”[35].

Tahlillardan ko‘rinadiki, Alisher Navoiyning ushbu asari o‘zbek adabiy tanqidchiligi shakllanishining muhim o‘zak qismi hisoblanadi. O‘zbek adabiyoti rivojida shoirning o‘rni qanchalik muhim bo‘lsa, o‘zbek adabiy tanqidchiligi shakllanishida ham uning ilmiy asarlari va nazariy qarashlari birdek quvvatga ega.

[35] Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993.

Haqiqatan ham, Alisher Navoiyning ilmiy faoliyati adabiyotshunoslik sohasining taraqqiyot bosqichida alohida o‘ringa ega. Uning ilmiy asarlari XX asrgacha bo‘lgan mumtoz ijodkorlar uchun manba vazifasini o‘tagan.

Alisher Navoiydan keyingi davrlar o‘zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchiligida Zahiriddin Muhammad Boburning qarashlari yetakchilik qilgan. Botir Valixo‘jayev shoirning “Boburnoma” va “Aruz” kabi asarlarida uning adabiy-tanqidiy qarashlari aks etganini qayd etadi. Shoir “Boburnoma” asarida Alisher Navoiy ijodiga alohida to‘xtalgan va unga yuksak baho bergan. Zahiriddin Muhammad Bobur adabiyotshunos sifatida shoirlar shaxsiyati va asarlari haqida to‘xtalar ekan, o‘zining shaxsiy mulohazalarini keng bayon etadi. B.Valixo‘jayevning ta’kidlashicha, bu hol adabiy tanqidchilik uchun eng zaruriy jihatlardan biri. Shuningdek, uning adabiy-tanqidiy qarashlari o‘z davri adabiy jarayoni, adabiyot tarixi, nazariyasi haqida tasavvur uyg‘otishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XX asrning boshlaridan o‘zbek tanqidchiligi alohida soha sifatida shakllanishi uchun nazariy asoslar yaratildi. 1920-yillardan tanqidchilik sho‘ro mafkurasi ta’siriga berildi. Natijada, tanqidchi munosabati sinfiylik va partiyaviylik nuqtayi nazari bilan qorishib ketdi. Chunki ijtimoiy tuzum adabiyotshunoslik va uning sohalarini o‘ziga bo‘ysundirishga harakat qildi.

Shu bois, “Hamma ijtimoiy fanlardek, adabiy tanqid tarixi ham (agar u haqiqiy fan bo‘lishni istasa), marksizm-leninizmning insoniyat jamiyati, uning rivojlanish qonuniyatlari haqidagi, shu jumladan, jamiyat hayotida inson ongi va uning badiiy ijodi mahsulotlari roli haqidagi ta’limotga asoslanishi kerak”[36]. Bu esa, fanining “rivoji” uchun muhim hissa, deya baholandi. Natijada, shu kabi mafkuraviy ta’qiqlar adabiyot va adabiy tanqidni rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, o‘zining asosiy maqsadidan chalg‘itib qo‘ydi.

Adabiyotshunoslik, adabiy tanqidchilik, badiiy adabiyot ham mafkura, jamiyat talabi asosida ish ko‘rdi. Bu davrda adabiyot partiyaning xizmatchisiga aylantirildi. “Bitsin partiyasiz adabiyotchilar” shior asosida vulgar sotsiologizmga, inqilobiy qarashlarga asoslangan g‘oya badiiy adabiyot, adabiyotshunoslik, xususan, adabiy tanqid oldiga qator vazifalar qo‘yib, uni jilovladi.

[36] Ўзбек совет адабий танқиди тарихи. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 10.

Natijada, bu o‘zbek adabiyoti va adabiy tanqid rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Adabiy tanqidchilik sho‘ro voqeligini qabul qilmagan Cho‘lpon kabi shoirlarga qarshi borib “o‘ng yo‘lovchi” kabi “asossiz nom” berdi. Bu davrda mavzuning dolzarbligi va g‘oyaviyligi baholovchi mezon bo‘lib badiiy asar qimmati shu orqali belgilandi. Adabiyot ijtimoiy xizmatchi vazifasini bajardi. Adabiy tanqid ham shu davrda yaratilgan asarlar tahlilida, asosan, ularga ijtimoiy ruhning nechog‘lik singdirilganligiga e’tibor qaratib, bu jihatni yutuq sifatida baholadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бушро. Арабча-ўзбекча луғат.Olimxon@bk.ru. (murojaat sanasi: 05.08.2023.)
2. Беҳбудий М. Танқид – сараламоқдур // Ойна, 1914. – № 32.
3. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б 310.
4. Ҳайитметов А. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. – Тошкент: Фан, 1959.
5. https://library.navoiy-uni.uz/files/alishernavoiy/mezonulavzon/(kirill).pdf.
6. http://lib.tstu.uz/jirbis2/components/com_irbis/images/covers/84/9876/Alisher_Navoiy._Xamsatul_mutahayyirin.
7. Тожибоев Р. XX аср бошлари ўзбек адабий танқиди тарихидан: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1993. – Б. 31.

RAQAMLI MUHITDA O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI (TURKMAN TALABALARI MISOLIDA)

Jo‘rayeva Go‘zal Qodirovna,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
“TIQXMMI” MTU Tillar kafedrasi dotsenti
E-mail:guzaljurayeva1885@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli ta’lim muhiti sharoitida turkman talabalariga o‘zbek tilini o‘qitishning lingvodidaktik asoslari tahlil qilinadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining til ta’limiga kirib kelishi o‘qitish metodikasini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Maqolada o‘zbek va turkman tillarining o‘xshash hamda farqli jihatlari, talabalarning til o‘zlashtirish jarayonidagi qiyinchiliklari, raqamli vositalardan foydalanishning afzalliklari va interaktiv metodlarning samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, multimedia texnologiyalari asosida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish masalalari ham ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli muhit, lingvodidaktika, o‘zbek tili, turkman talabalari, multimedia, kommunikativ kompetensiya, interaktiv metod, onlayn ta’lim.

Аннотация. В данной статье анализируются лингводидактические основы обучения узбекскому языку туркменских студентов в условиях цифровой образовательной среды. Внедрение современных информационно-коммуникационных технологий в языковое образование выводит методику обучения на новый этап развития. В статье освещаются сходства и различия узбекского и туркменского языков, трудности, возникающие у студентов в процессе усвоения языка, преимущества использования цифровых средств и эффективность интерактивных методов. Также рассматриваются вопросы развития коммуникативной компетенции на основе мультимедийных технологий.

Ключевые слова: цифровая среда, лингводидактика, узбекский язык, туркменские студенты, мультимедиа, коммуникативная компетенция, интерактивный метод, онлайн-образование.

Annotation. This article analyzes the linguodidactic foundations of teaching the Uzbek language to Turkmen students in a digital educational environment. The integration of modern information and communication technologies into language education is bringing teaching methodology to a new stage of development. The article highlights the similarities and differences between the Uzbek and Turkmen languages, the difficulties students face in the language acquisition process, the advantages of using digital tools, and the effectiveness of interactive methods. It also examines the issues of developing communicative competence through multimedia technologies.

Keywords: digital environment, linguodidactics, Uzbek language, Turkmen students, multimedia, communicative competence, interactive method, online education.

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimining barcha bosqichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Globallashuv

jarayonlari, xalqaro ilmiy va madaniy aloqalarning kengayishi, raqamli texnologiyalarning kundalik hayotga chuqur kirib borishi natijasida ta’limning mazmuni, shakli va metodlari yangilanmoqda. [1.35] Ayniqsa, til o‘qitish sohasida raqamli muhitning imkoniyatlari kengayib, an’anaviy metodlar bilan bir qatorda multimedia vositalari, elektron platformalar, mobil ilovalar va masofaviy ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish dolzarb masalaga aylandi.

Bugungi kunda xorijiy tillarni, shuningdek qardosh tillarni o‘qitishda kommunikativ yondashuv asosida interaktiv metodlardan foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, turkman talabalariga o‘zbek tilini o‘qitish jarayoni ham zamonaviy lingvodidaktik yondashuvlarni talab etadi. Chunki o‘zbek va turkman tillari bir turkiy til oilasiga mansub bo‘lsa-da, ular o‘rtasida fonetik, grammatik va leksik tafovutlar mavjud. Mazkur tafovutlar til o‘rganish jarayonida ayrim qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi va maxsus metodik yechimlarni talab qiladi.

Raqamli muhit esa aynan ana shu metodik muammolarni hal etishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Multimedia materiallari yordamida talabalar nafaqat nazariy bilimlarni egallaydilar, balki tinglab tushunish, og‘zaki nutq, yozma savodxonlik va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradilar. Masalan, audio va video materiallardan foydalanish talaffuzni yaxshilashga xizmat qilsa, interaktiv testlar va virtual mashqlar grammatik bilimlarni mustahkamlash imkonini beradi. Shu bilan birga, elektron lug‘atlar, onlayn platformalar va mobil ilovalar talabalarning mustaqil ta’lim olish faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi.

Lingvodidaktika tilni o‘qitishning nazariy va amaliy asoslarini o‘rganuvchi fan sifatida ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu yo‘nalishda tilni o‘rgatishda kommunikativlik, tizimlilik, izchillik, amaliy yo‘naltirilganlik va individual yondashuv tamoyillari muhim o‘rin egallaydi. Raqamli ta’lim muhiti esa aynan shu tamoyillarni amalda qo‘llash uchun qulay sharoit yaratadi. Jumladan, virtual platformalar orqali talabalar bilan individual ishlash, ularning bilim darajasini muntazam nazorat qilish va o‘quv materiallarini vizual shaklda taqdim etish imkoniyati kengayadi. [5.102]

Bugungi kunda o‘zbek tilining xalqaro miqyosdagi nufuzi ham ortib bormoqda. Bu esa uni qardosh xalqlar vakillariga zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitishni taqozo etadi. Ayniqsa, turkman talabalariga o‘zbek tilini o‘rgatishda qardosh tillarning o‘xshash jihatlaridan samarali foydalanish, til interferensiyasining oldini olish hamda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli raqamli muhitda o‘zbek tilini o‘qitishning lingvodidaktik asoslarini tadqiq etish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbdir.

Lingvodidaktika tilni o‘qitishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganuvchi fan sohasi bo‘lib, u tilshunoslik, pedagogika, psixologiya va metodika fanlari bilan

uzviy bog‘liq holda rivojlanadi. Ushbu yo‘nalish tilni o‘rganish va o‘qitish jarayonining qonuniyatlarini aniqlash, samarali metod va texnologiyalarni ishlab chiqish hamda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish masalalarini o‘rganadi. Zamonaviy ta’lim tizimida lingvodidaktika til o‘qitish jarayonining ilmiy asosini tashkil etib, ayniqsa xorijiy va qardosh tillarni o‘qitishda muhim metodologik vazifani bajaradi.

Til insonning asosiy kommunikativ vositasi hisoblanadi. Shu sababli lingvodidaktik yondashuvda til faqat grammatik qoidalar yig‘indisi sifatida emas, balki ijtimoiy muloqot vositasi sifatida talqin etiladi. Bugungi kunda til o‘qitishda kommunikativ yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yondashuvga ko‘ra, tilni o‘rganishdan asosiy maqsad grammatik bilimlarni yodlash emas, balki kundalik hayotda erkin muloqot qila olish ko‘nikmasini shakllantirishdan iboratdir. Shuning uchun o‘quv jarayonida talabaning tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish kompetensiyalarini birgalikda rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Lingvodidaktikaning muhim tamoyillaridan biri — tizimlilik tamoyilidir. Ushbu tamoyilga ko‘ra, til o‘qitish jarayoni izchil va bosqichma-bosqich tashkil etilishi lozim. Til birliklari oddiydan murakkabga qarab o‘rgatiladi hamda avval o‘zlashtirilgan bilimlar keyingi mavzularni o‘rganishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, turkman talabalariga o‘zbek tilini o‘qitishda fonetik, leksik va grammatik materiallarni tizimli ravishda taqdim etish muhim ahamiyatga ega. Chunki qardosh tillar o‘rtasidagi o‘xshashliklar ayrim hollarda til interferensiyasini ham yuzaga keltirishi mumkin. [12.352]

Lingvodidaktikada individual yondashuv tamoyili ham alohida o‘rin tutadi. Har bir talabaning til o‘zlashtirish darajasi, qobiliyati va psixologik xususiyatlari turlicha bo‘ladi. Shu sababli ta’lim jarayonida individual topshiriqlar, mustaqil mashqlar va differensial metodlardan foydalanish samarali natija beradi. Raqamli ta’lim muhiti aynan shu tamoyilni amalga oshirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Masalan, onlayn platformalar orqali har bir talabaga uning bilim darajasiga mos mashqlarni taqdim etish, test natijalarini avtomatik tahlil qilish va individual tavsiyalar berish mumkin.

Ko‘rgazmalilik tamoyili lingvodidaktikaning eng muhim didaktik asoslaridan biri hisoblanadi. Til materiallarini vizual va audio shaklda taqdim etish o‘quvchilarning mavzuni tezroq va samaraliroq o‘zlashtirishiga yordam beradi. Ayniqsa, multimedia texnologiyalari, videodarslar, animatsiyalar va audio materiallardan foydalanish talaffuz, tinglab tushunish hamda lug‘at boyligini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Turkman talabalariga o‘zbek tilini o‘rgatishda ham multimedia vositalari orqali o‘xshash va farqli til birliklarini ko‘rgazmali tarzda tushuntirish mumkin. [14.36]

Lingvodidaktikada amaliy yo‘naltirilganlik tamoyili ham muhim sanaladi. Til o‘qitish jarayoni real kommunikativ vaziyatlar bilan bog‘liq holda tashkil etilganda

ta’lim samaradorligi ortadi. Shu sababli dars jarayonida dialoglar, rolli o‘yinlar, virtual suhbatlar va interaktiv topshiriqlardan foydalanish talabalarni faol muloqotga undaydi. Raqamli muhit esa bunday interaktiv metodlarni keng qo‘llash imkonini beradi. Masalan, videokonferensiyalar, onlayn forumlar va virtual taqdimotlar orqali talabalar o‘zbek tilida erkin muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Shuningdek, lingvodidaktikada motivatsiya masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Til o‘rganishga bo‘lgan qiziqish va ichki ehtiyoj kuchli bo‘lsa, o‘quv jarayoni samaraliroq kechadi. Raqamli texnologiyalar esa darslarni qiziqarli va interaktiv shaklda tashkil etish orqali talabalarning motivatsiyasini oshiradi. Elektron o‘yinlar, onlayn testlar, multimedia mashqlar va mobil ilovalar talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini faollashtiradi.

Lingvodidaktika zamonaviy til ta’limining nazariy asosini tashkil etuvchi muhim ilmiy yo‘nalishdir. U til o‘qitishning samarali metod va texnologiyalarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Ayniqsa, raqamli ta’lim muhiti sharoitida lingvodidaktik tamoyillardan foydalanish turkman talabalariga o‘zbek tilini samarali o‘qitish, ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va mustaqil ta’lim faoliyatini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Turkman talabalariga o‘zbek tilini o‘qitish jarayoni o‘ziga xos lingvistik, metodik va psixologik xususiyatlarga ega. O‘zbek va turkman tillari bir turkiy til oilasiga mansub bo‘lgani sababli ular o‘rtasida fonetik, leksik va grammatik jihatdan ko‘plab umumiyliklar mavjud. Bu holat til o‘rganish jarayonini ma’lum darajada yengillashtiradi, chunki talabalar ayrim so‘zlar va grammatik shakllarni tezroq o‘zlashtira oladilar. Shu bilan birga, ikki til o‘rtasidagi ayrim tafovutlar interferensiya hodisasini yuzaga keltirib, nutqiy va grammatik xatolarga sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun turkman talabalariga o‘zbek tilini o‘qitishda qardosh tillarning o‘xshash va farqli jihatlarini chuqur hisobga olish muhim metodik talab hisoblanadi.

Til o‘qitish jarayonida eng avvalo fonetik xususiyatlarga e’tibor qaratiladi. Turkman talabalari uchun o‘zbek tilidagi ayrim tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish murakkablik tug‘diradi. Xususan, “o‘”, “q”, “g‘”, “h” kabi tovushlar talaffuzida qiyinchiliklar kuzatiladi. Ayrim hollarda talabalar ushbu tovushlarni ona tilidagi yaqin variantlar bilan almashtirib talaffuz qiladilar. Bu esa og‘zaki nutqda fonetik xatolarni yuzaga keltiradi. Mazkur muammoni bartaraf etishda audio materiallar, videodarslar va talaffuz mashqlaridan foydalanish samarali hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar yordamida so‘zlarning to‘g‘ri talaffuzini qayta-qayta tinglash imkoniyati talabalar uchun qulay metodik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Leksik jihatdan ham o‘zbek va turkman tillari o‘rtasida o‘xshash hamda farqli tomonlar mavjud. Qardosh tillarda umumiy ildizga ega bo‘lgan ko‘plab so‘zlar uchrashi til o‘rganishni yengillashtiradi. Masalan, kundalik hayotda ishlatiladigan

ayrim so‘zlar ikki tilda deyarli bir xil shaklda qo‘llanadi. Biroq ayrim hollarda shaklan o‘xshash bo‘lgan so‘zlarning ma’nosi farqlanadi. Bu esa semantik interferensiyaga sabab bo‘ladi. Talabalar ba’zan ona tilidagi ma’noni o‘zbek tiliga ko‘chirib qo‘llash natijasida noto‘g‘ri nutq tuzadilar. Shu sababli leksik birliklarni o‘rgatishda qiyosiy metoddan foydalanish, o‘xshash va farqli ma’nolarni misollar asosida tushuntirish muhim hisoblanadi. [7.120]

Grammatik jihatdan ham ayrim farqlar mavjud bo‘lib, ular til o‘zlashtirish jarayonida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Xususan, fe’l zamonlari, kelishik qo‘shimchalari, egalik shakllari va gap qurilishidagi ayrim tafovutlar turkman talabalarining yozma va og‘zaki nutqida ko‘proq uchraydi. Ba’zan talabalar ona tilidagi grammatik qoliplarni o‘zbek tiliga ko‘chirib qo‘llaydilar. Natijada grammatik me’yor buzilishi kuzatiladi. Shu bois grammatik mavzularni bosqichma-bosqich, sodda va tushunarli tarzda o‘rgatish zarur bo‘ladi. Interaktiv mashqlar, elektron testlar va virtual topshiriqlar grammatik ko‘nikmalarni mustahkamlashda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Turkman talabalariga o‘zbek tilini o‘qitishda kommunikativ yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Til o‘rganish jarayonida talabalarni real muloqot vaziyatlariga jalb qilish ularning nutqiy faolligini oshiradi. Shu sababli darslarda dialoglar, rolli o‘yinlar, guruhli mashqlar va virtual suhbatlardan foydalanish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli muhitda tashkil etilgan videomuloqotlar va onlayn platformalar talabalarning o‘zbek tilida erkin fikr bildirish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Bu esa kommunikativ kompetensiyaning shakllanishiga xizmat qiladi.

Psixologik jihatdan ham qardosh tilni o‘rganish o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Talabalar tilning ayrim jihatlari o‘xshashligi sababli uni tez o‘zlashtirish mumkin deb hisoblaydilar. Biroq chuqur grammatik va uslubiy qatlamlarni o‘rganishda murakkabliklar yuzaga keladi. Shu sababli o‘qituvchi ta’lim jarayonida motivatsiyani doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlashi, talabalarni faol ishtirok etishga undashi lozim. Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan interaktiv mashg‘ulotlar esa darslarning qiziqarli va samarali o‘tishini ta’minlaydi.

Bundan tashqari, turkman talabalariga o‘zbek tilini o‘qitishda milliy-madaniy omillarni ham hisobga olish muhimdir. Til faqat grammatik birliklar tizimi emas, balki xalqning madaniyati, qadriyatlari va tafakkurini ifodalovchi vosita hisoblanadi. Shu sababli o‘zbek tilini o‘rgatishda milliy urf-odatlar, madaniy qadriyatlar, folklor namunalaridan foydalanish talabalar uchun til muhitini tabiiyroq shakllantiradi. Audio va video materiallar asosida milliy madaniyatga oid mavzularni o‘rganish esa talabalarni o‘zbek tiliga yanada qiziqtiradi.

Turkman talabalariga o‘zbek tilini o‘qitish jarayoni maxsus lingvodidaktik yondashuvni talab qiladi. Tilning qardoshligi o‘qitish uchun qulay imkoniyat yaratgan bo‘lsa-da, interferensiya va grammatik tafovutlar metodik jihatdan chuqur

yondashuvni taqozo etadi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar, multimedia vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish esa til o‘qitish samaradorligini oshirib, talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Ta’lim tizimi ham ushbu jarayondan chetda qolmayapti. Ayniqsa, til o‘qitish sohasida raqamli muhitning shakllanishi ta’lim jarayonining mazmuni, metodlari va shakllarini sezilarli darajada o‘zgartirdi. An’anaviy dars usullari bilan bir qatorda elektron platformalar, multimedia vositalari, mobil ilovalar va masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish til o‘rganish samaradorligini oshirmoqda. Raqamli muhit til o‘qitish jarayonini interaktiv, ko‘rgazmali va kommunikativ asosda tashkil etishga xizmat qiladi.

O‘zbek tilini turkman talabalariga o‘qitishda raqamli texnologiyalar ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Chunki qardosh tillarni o‘rganishda talaffuz, grammatik farqlar va semantik tafovutlarni tushuntirish uchun audio-vizual vositalar samarali natija beradi. Multimedia materiallari yordamida talabalar til birliklarini nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy va vizual shaklda ham o‘zlashtiradilar. Bu esa tilni tezroq va chuqurroq o‘rganishga yordam beradi.

Raqamli muhitning yana bir muhim jihati — talabaning mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantirishidir. Elektron darsliklar, virtual lug‘atlar, videodarslar va onlayn testlar talabaga istalgan vaqt va istalgan joyda bilim olish imkonini yaratadi. Ayniqsa, masofaviy ta’lim platformalari orqali talaba o‘qituvchi bilan doimiy aloqada bo‘lib, mustaqil mashqlarni bajarishi va bilimini nazorat qilishi mumkin. Bu esa o‘quv jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi.

Til o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Videokonferensiyalar, virtual suhbatlar, onlayn muloqot va interaktiv topshiriqlar talabalarni faol nutqiy faoliyatga jalb qiladi. Natijada talabalar o‘zbek tilida erkin fikr bildirish, tinglab tushunish va muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Shu bilan birga, raqamli muhit ta’lim jarayonida individual yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. Har bir talabaning bilim darajasi va qobiliyatiga mos topshiriqlarni tanlash mumkin bo‘ladi.

Quyidagi jadvalda o‘zbek tilini turkman talabalariga o‘qitishda qo‘llaniladigan asosiy raqamli vositalar hamda ularning lingvodidaktik imkoniyatlari yoritilgan.

Raqamli vositalar	**Til o‘qitishdagi vazifasi**	**Lingvodidaktik ahamiyati**
Elektron darsliklar	Nazariy bilimlarni mustaqil o‘rganish	Talabaning mustaqil ta’lim ko‘nikmasini rivojlantiradi

Mobil ilovalar	Lug‘at boyligini oshirish va tezkor mashqlar bajarish	So‘z boyligini kengaytiradi va eslab qolishni kuchaytiradi
Videodarslar	Tinglab tushunish va talaffuzni rivojlantirish	Audio-vizual qabul qilish orqali nutqiy ko‘nikmalarni shakllantiradi
Onlayn testlar	Bilim va ko‘nikmalarni nazorat qilish	Tezkor baholash va xatolar ustida ishlash imkonini beradi
Multimedia taqdimotlari	Mavzularni vizual tarzda tushuntirish	Ko‘rgazmalilik tamoyilini kuchaytiradi
Virtual muloqot platformalari	Og‘zaki nutq va muloqotni rivojlantirish	Kommunikativ kompetensiyani shakllantiradi
Elektron lug‘atlar	So‘zlarning ma’nosi va talaffuzini o‘rganish	Mustaqil ishlash va til boyligini oshiradi
Masofaviy ta’lim platformalari	Onlayn dars va topshiriqlarni tashkil etish	Ta’limning uzluksizligini ta’minlaydi

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, raqamli vositalar til o‘qitish jarayonining turli jihatlarini qamrab oladi. Masalan, elektron darsliklar va mobil ilovalar talabaning mustaqil ishlash faoliyatini rivojlantirsa, videodarslar va multimedia vositalari tinglab tushunish hamda talaffuz ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, o‘zbek tilidagi murakkab tovushlarni o‘rgatishda audio materiallar muhim vosita hisoblanadi. Talabalar so‘zlarning to‘g‘ri talaffuzini bir necha bor tinglash orqali fonetik xatolarni kamaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shuningdek, virtual muloqot platformalari kommunikativ yondashuvni amalga oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Masalan, onlayn suhbatlar va videomuloqotlar orqali talabalar o‘zbek tilida erkin muloqot qilishga o‘rganadilar. Bu esa ularda nutqiy faollik va kommunikativ kompetensiyaning shakllanishiga yordam beradi. Interaktiv topshiriqlar va elektron testlar esa o‘quv jarayonida tezkor nazoratni ta’minlab, xatolar ustida individual ishlash imkonini yaratadi.

Raqamli muhitning yana bir afzalligi — ta’lim jarayonining qiziqarli va motivatsion xarakter kasb etishidir. Multimedia texnologiyalari asosidagi mashg‘ulotlar talabalarni darsga faol jalb qiladi, ularning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Ayniqsa, yoshlar orasida mobil ilovalar va elektron

platformalardan foydalanish ommalashgani sababli raqamli ta’lim vositalari samarali pedagogik resurs sifatida xizmat qilmoqda.

Biroq raqamli ta’lim jarayonida ayrim muammolar ham mavjud. Texnik vositalarning yetarli emasligi, internet tezligining pastligi yoki ayrim talabalarning raqamli savodxonlik darajasi yetarli bo‘lmasligi ta’lim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli raqamli ta’limni samarali tashkil etish uchun texnik infratuzilmani rivojlantirish, o‘qituvchi va talabalarining raqamli kompetensiyasini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Raqamli muhit til o‘qitishning zamonaviy va samarali shakli sifatida o‘zbek tilini turkman talabalariga o‘rgatishda keng imkoniyat yaratadi. Multimedia vositalari, elektron platformalar va interaktiv metodlardan foydalanish til o‘rganish jarayonini yanada samarali, qiziqarli va kommunikativ yo‘naltirilgan shaklda tashkil etishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida interaktiv metodlardan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, til o‘qitish jarayonida interaktiv yondashuv talabalarning darsdagi faolligini kuchaytirib, ularni mustaqil fikrlash va erkin muloqot qilishga undaydi. O‘zbek tilini turkman talabalariga o‘rgatishda interaktiv metodlardan foydalanish kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, nutqiy faoliyatni faollashtirish va til materiallarini samarali o‘zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Interaktiv metodlarning asosiy xususiyati shundaki, bunda talaba ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. An’anaviy darslarda o‘qituvchi asosiy axborot manbai sifatida faoliyat olib borsa, interaktiv metodlarda talaba mustaqil izlanadi, fikr bildiradi, muloqot qiladi va muammoli vaziyatlarni hal etishda bevosita qatnashadi. Bu esa o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi hamda bilimlarning mustahkam o‘zlashtirilishiga yordam beradi.

Til o‘qitishda kommunikativ yondashuv alohida ahamiyatga ega bo‘lgani sababli interaktiv metodlar ayniqsa samarali hisoblanadi. Turkman talabalariga o‘zbek tilini o‘rgatishda dialoglar, rolli o‘yinlar, guruhli ishlash, “savol-javob”, “aqliy hujum”, virtual suhbatlar va taqdimotlardan foydalanish talabalarni faol nutqiy faoliyatga jalb qiladi. Bunday metodlar orqali talabalar o‘zbek tilida fikr bildirish, suhbat qurish va erkin muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Interaktiv metodlarning yana bir muhim jihati — talabalar orasida hamkorlik muhitini shakllantirishidir. Guruhli topshiriqlar va jamoaviy mashg‘ulotlar jarayonida talabalar bir-biri bilan muloqot qiladi, fikr almashadi va o‘zaro yordam asosida bilim oladilar. Bu esa nafaqat til o‘rganish jarayoniga, balki ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarning rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Raqamli muhitda interaktiv metodlarning imkoniyatlari yanada kengayadi. Multimedia vositalari, videokonferensiyalar, virtual platformalar va onlayn mashqlar yordamida til o‘qitish jarayoni yanada qiziqarli va samarali tashkil

etiladi. Masalan, videomuloqotlar orqali talabalar o‘zbek tilida real kommunikativ vaziyatlarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa talaffuz, tinglab tushunish va og‘zaki nutq ko‘nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Quyidagi jadvalda o‘zbek tilini turkman talabalariga o‘qitishda qo‘llaniladigan asosiy interaktiv metodlar va ularning samaradorligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Interaktiv metodlar	**Qo‘llanish jarayoni**	**Samaradorligi**
Rolli o‘yinlar	Kundalik muloqot vaziyatlarini sahnalashtirish	Og‘zaki nutq va erkin muloqotni rivojlantiradi
Guruhli ishlash	Talabalarni kichik guruhlarda ishlashga jalb qilish	Hamkorlik va fikr almashish ko‘nikmasini rivojlantiradi
Aqliy hujum	Muammoli savollar asosida fikr yig‘ish	Mustaqil va ijodiy fikrlashni shakllantiradi
Savol-javob usuli	Tezkor muloqot va bilimlarni aniqlash	Nutqiy faollikni oshiradi
Videomuloqot	Onlayn suhbat va virtual darslar tashkil etish	Tinglab tushunish va talaffuzni yaxshilaydi
Multimedia mashqlari	Audio, video va animatsiyalar asosida topshiriqlar bajarish	Ko‘rgazmalilik va eslab qolish samaradorligini oshiradi
Interaktiv testlar	Elektron nazorat va mashqlar	Bilimni tezkor baholash imkonini beradi
Taqdimotlar	Mavzularni mustaqil tayyorlash va himoya qilish	Nutqiy va ijodiy kompetensiyani rivojlantiradi

Jadvaldan ko‘rinadiki, interaktiv metodlar til o‘qitishning turli jihatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, rolli o‘yinlar real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish orqali talabalarni amaliy muloqotga tayyorlaydi. Bu metod ayniqsa o‘zbek tilida kundalik suhbat qurish ko‘nikmasini shakllantirishda samarali hisoblanadi. Talabalar do‘konda xarid qilish, mehmon kutish yoki ta’lim jarayoniga oid dialoglarni ijro etish orqali til birliklarini tabiiy ravishda o‘zlashtiradilar.

Videomuloqot va multimedia mashqlari esa raqamli muhitning muhim interaktiv vositalari hisoblanadi. Audio va video materiallar yordamida talabalar talaffuzni to‘g‘ri shakllantiradi, tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda o‘zbek tilidagi nutq ohangini tabiiy ravishda qabul qiladi. Ayniqsa, turkman talabalarining ayrim tovushlarni talaffuz qilishdagi qiyinchiliklarini bartaraf etishda audio materiallar muhim metodik vosita sifatida xizmat qiladi.

Interaktiv metodlar talabalarning darsga bo‘lgan qiziqishini ham oshiradi. An’anaviy ma’ruza shaklidagi darslarga nisbatan interaktiv mashg‘ulotlar talabaning faol ishtirokini talab qiladi. Bu esa o‘quv jarayonining jonli va samarali o‘tishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, interaktiv metodlar yordamida talabalarning mustaqil ishlash, muammoli vaziyatlarda yechim topish va erkin fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi.

Biroq interaktiv metodlardan foydalanishda ayrim metodik muammolar ham uchrashi mumkin. Masalan, barcha talabalarni birdek faol jalb qilish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash yoki texnik vositalardan samarali foydalanish masalalari o‘qituvchidan yuqori pedagogik mahorat talab qiladi. Shu sababli interaktiv metodlarni qo‘llashda dars maqsadi, talabalarning bilim darajasi va texnik imkoniyatlarni hisobga olish zarur.

Interaktiv metodlar o‘zbek tilini turkman talabalariga o‘qitishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Ular talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, nutqiy faolligini oshirish va til materiallarini amaliy jihatdan mustahkam o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, raqamli muhit bilan uyg‘unlashgan interaktiv metodlar zamonaviy til ta’limining muhim tarkibiy qismi sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta’lim muhiti zamonaviy til o‘qitish jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, turkman talabalariga o‘zbek tilini o‘qitishda raqamli texnologiyalar, multimedia vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Elektron platformalar, mobil ilovalar, videodarslar va virtual muloqot vositalari talabalar uchun qulay va interaktiv ta’lim muhitini yaratib, ularning mustaqil ishlash hamda kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o‘zbek va turkman tillarining qardoshligi til o‘rganish jarayonini yengillashtiruvchi muhim omil hisoblanadi. Biroq fonetik, leksik va grammatik tafovutlar ayrim murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, talaffuz, grammatik shakllar va ma’no jihatdan o‘xshash, ammo farqli birliklarni o‘zlashtirishda interferensiya hodisasi kuzatiladi. Shu sababli til o‘qitish jarayonida qiyosiy tahlil, kommunikativ yondashuv va individual metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Lingvodidaktik nuqtai nazardan qaraganda, raqamli muhit til o‘qitishning kommunikativlik, ko‘rgazmalilik, tizimlilik va individual yondashuv kabi

tamoyillarini samarali amalga oshirish imkonini beradi. Multimedia vositalari orqali til materiallarini audio-vizual shaklda taqdim etish talabalarning tinglab tushunish, talaffuz va lug‘at boyligini rivojlantirishga yordam beradi. Interaktiv metodlar esa talabalarni faol muloqotga jalb qilib, ularning erkin fikrlash va nutqiy faolligini oshiradi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning mustaqil o‘qish faoliyatini rivojlantiradi. Elektron darsliklar, onlayn testlar va virtual mashqlar bilimlarni mustahkamlash hamda nazorat qilishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Masofaviy ta’lim imkoniyatlari esa o‘quv jarayonining uzluksizligini ta’minlab, talabaga istalgan joyda va istalgan vaqtda bilim olish imkonini yaratadi.

Biroq raqamli ta’limni tashkil etishda ayrim muammolar ham mavjud. Texnik infratuzilmaning yetarli emasligi, internet sifati bilan bog‘liq muammolar va ayrim talabalarining raqamli savodxonlik darajasining pastligi ta’lim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli ta’lim muassasalarida zamonaviy texnik vositalarni keng joriy etish, pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oshirish va maxsus elektron resurslarni yaratish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Kelgusida turkman talabalariga o‘zbek tilini o‘qitishga mo‘ljallangan maxsus mobil ilovalar, elektron platformalar va interaktiv multimedia dasturlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, qardosh tillar asosida yaratiladigan lingvodidaktik resurslar til o‘rganish jarayonining samaradorligini yanada oshiradi. Shu bilan birga, raqamli muhitda o‘zbek tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Современные технологии обучения иностранным языкам. – Москва: Академия, 2010. – 448 с.
2. Бегматов Э. Ўзбек тилини ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2018. – 256 б.
3. Жўраев Б. Multimedia texnologiyalaridan ta’limda foydalanish. – Toshkent: Tafakkur, 2022. – 224 b.
4. Mahmudov N. Til va jamiyat. – Toshkent: Ma’naviyat, 2019. – 312 b.
5. Safarova Sh. Lingvodidaktika va til ta’limi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 198 b.
6. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 2020. – 416 b.
7. Худайберганова Д. Рақамли педагогика асослари. – Тошкент: Инновация, 2021. – 240 б.

8. Crystal D. Language and the Internet. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011. – 272 p.
9. Warschauer M. Technology and Social Inclusion: Rethinking the Digital Divide. – Cambridge: MIT Press, 2004. – 296 p.
10. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – Москва: Просвещение, 1991. – 223 с.
11. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – Москва: Логос, 2004. – 384 с.
12. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. – New York: Pearson Education, 2007. – 410 p.
13. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – 410 p.
14. Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 432 b.
15. Polat E.S. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – Москва: Академия, 2009. – 272 с.

TABIBIY LIRIKASIDA QO‘QON ADABIY MUHITIGA IZDOSHLIK

(Amiriy g‘azallariga muxammaslar misolida)

Asqarov Dilmurod,
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
katta ilmiy xodimi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
(O‘zbekiston)

Annotatsiya. Maqolada Ahmadjon Tabibiyning Qo‘qon adabiy muhiti vakillari Amiriy va Xon g‘azallariga bog‘lagan muxammaslari tahlil qilingan. Unda taxmis janrining nazariy xususiyatlari, mumtoz adabiyotdagi o‘rni hamda Tabibiy ijodida ushbu janrning badiiy-estetik imkoniyatlari yoritilgan. Shoirning Amiriy g‘azallariga bog‘lagan muxammaslari misolida ishqiy, tasavvufiy va irfoniy motivlarning talqini ochib berilgan. Shuningdek, Tabibiy muxammaslarida Qo‘qon adabiy muhiti an’analari, obrazlar tizimi, poetik uyg‘unlik va ijodiy izdoshlik masalalari tahlil etilgan. Tadqiqot natijasida Tabibiyning Amiriy ijodidan ilhomlangan holda o‘ziga xos badiiy uslub yaratgani va muxammas janri taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgani asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Ahmadjon Tabibiy, Amiriy, Xon, Qo‘qon adabiy muhiti, muxammas, taxmis, mumtoz adabiyot, tasavvuf, irfon, lirik qahramon, poetik mahorat, badiiy talqin, g‘azal, musammat.

Abstract. The article analyzes the mukhammas of Ahmadjon Tabibi, which were attributed to the ghazals of Amiri and Khan by representatives of the Kokand literary environment. It highlights the theoretical characteristics of the takhmis genre, its place in classical literature, and the artistic and aesthetic possibilities of this genre in Tabibi's work. The interpretation of romantic, mystical, and mystical motifs is revealed using the example of the poet's mukhammas attributed to Amiri's ghazals. Also, the traditions of the Kokand literary environment, the system of images, issues of poetic harmony, and creative continuity in Tabibi's mukhammas are analyzed. As a result of the research, it is substantiated that Tabibi, inspired by Amiri's work, created his own unique artistic style and made a worthy contribution to the development of the mukhammas genre.

Keywords: Ahmadjon Tabibiy, Amiri, Khan, Kokand literary environment, muhammas, takmis, classical literature, mysticism, mysticism, lyrical hero, poetic skill, artistic interpretation, ghazal, musammat.

“Taxmis” so‘zi arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, lug‘aviy jihatdan “beshlash”, “beshtaga yetkazish” degan ma’nolarni anglatadi. Mumtoz she’riyatda taxmis musammat janrining o‘ziga xos shakllaridan biri sanaladi. Uning asosiy xususiyati shundaki, mavjud g‘azal baytlariga yangi misralar qo‘shish orqali besh misralik band hosil qilinadi. Odatda bandning dastlabki uch misrasi taxmis bog‘layotgan shoir tomonidan yoziladi, so‘nggi ikki misra esa boshqa bir shoirning g‘azalidan olinadi. Shu sababli taxmis ikki ijodkorning badiiy tafakkuri uyg‘unlashgan poetik asar sifatida qadrlanadi.

Taxmis yaratishda shoir tanlangan g‘azalning mazmun-mohiyatini chuqur his qilishi va uning ruhiga mos tarzda yangi misralar bitishi talab etiladi. Bu jarayonda taxmisnavis nafaqat g‘azal mazmunini davom ettiradi, balki uni yangi badiiy tasvirlar, poetik kechinmalar va falsafiy qarashlar bilan boyitadi. Shu jihatdan taxmis oddiy qo‘shimcha emas, balki mavjud asarni qayta talqin etish va unga yangi estetik ruh baxsh etish san’ati hisoblanadi.

Mumtoz adabiyotda birgina g‘azalga bir necha shoir tomonidan taxmis bog‘langan holatlar ham uchraydi. Bu esa mashhur g‘azallarning badiiy ta’sir doirasi keng bo‘lganini ko‘rsatadi. Taxmis yozishda g‘azalning vazni, qofiya tizimi, radifi va umumiy g‘oyaviy yo‘nalishi saqlanishi muhim sanaladi. Agar taxmis asosiy g‘azal bilan mazmunan va shaklan uyg‘unlashsa, u mustaqil badiiy qiymat kasb etib, yangi poetik asar darajasiga ko‘tariladi.

Adabiyotshunos Y.Is’hoqov ta’kidlaganidek: “Taxmis qilish shunchaki shaklbozlik emas, balki mahorat sinovidir. Avvalo, u yoki bu shoirning muayyan g‘azalini tanlashda shoirning dunyoqarashi, estetik nuqtayi nazari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Qolaversa, taxmis usuli – har bir shoir uchun mahorat sinovi, ilhomlantiruvchi kuch yoki biror muhim fikrni ro‘yobga chiqarish vositasi bo‘lishi mumkin”. [1.127] Taxsmis – bu faqat ko‘chirishdan iborat emas, balki murakkab

ijodiy jarayon, badiiy mahorat hamda poetik fikrlash usuli bo‘lib, unda ijodkor ma’lum darajada o‘zligini namoyon etadi.

Lirik merosida muxammaslar alohida o‘rin egallagan shoirlardan biri Ahmadjon Tabibiydir. U Navoiy, Sa’diy, Jomiy, Zebunniso, Munis, Ogahiy, Mirzo G‘olib va boshqa ko‘plab ijodkorlar g‘azallariga jami 518 ta muxammas bog‘lab, o‘zbek adabiyotida muxammas janri rivojiga munosib hissa qo‘shgan. Yuqorida Tabibiyning Qo‘qon adabiy muhiti vakili Fazliydan ilhomlanib, Feruz topshirig‘i bilan “Majmuayi si shuaroyi payravi Feruzshohiy” tazkirasini tuzganligini eslab o‘tgandik. Tabibiy tazkirasi Fazliynikidan farq qilsa ham, Fazliy tazkirasi, xususan, Qo‘qon adabiy muhiti vakillari ijodi bilan uning yaxshi xabardorligi ko‘zga tashlanadi. Tabibiyning “turkiy tilda tartib bergan “Munisu-l-ushshoq” va “Hayratu-l-ushshoq” [2] devonlaridagi lirik asarlarning aksariyati Qo‘qon adabiy muhiti vakillari ijod namunalariga tatabbu yoki taxmis tarzida bitilgan”. *[3.38]* Shoirning “Munisu-l-ushshoq” devonida Qo‘qon adabiy muhiti vakillari bo‘lmish Amir (Amiriy) va Xon (Muhammad Alixon) g‘azallariga bog‘langan uchta muxammas ham mavjud. Aniqrog‘i, ularning ikkitasi Amir g‘azallariga va bittasi Xon g‘azaliga bog‘langan. *[3.38]* Amiriyning “Kulbam sori gar kelsangiz, jon naqdidur podoshingiz” misrasi bilan boshlanuvchi oshiqona g‘azaliga Tabibiy muxammas bog‘lagan. G‘azal yorining, ko‘ngil ahbobining hijronida qiynalayotgan, uning yo‘liga intizor oshiq qalbining ohu nolasini yuzaga chiqaradi. Amiriy g‘azalda ko‘z, qosh, qad, mijgon kabi tasavvufiy timsollar, shuningdek, talmeh san’ati asosida (“Toha”, Xizr) oshiqning holini gavdalantiradi. Tabibiy ham mazmun teranligi va tasvir go‘zalligini saqlab qolgan. Agar kulbasiga yor kelsa, badaliga jonini va’da qilayotgan, yo‘lga ko‘zyoshi ila suv sepib, mujgonlari ila supirishini aytgan shoh shoirning dard-u izhorlarini ohang va mohiyatda to‘ldiradi:

Man xastadurman ko‘yingiz sahnida bir avboshingiz,
Balkim hama avboshlar ichra kamin qalloshingiz,
Ne bo‘lg‘ay emdi lutfingiz bir kun bo‘lub yo‘ldoshingiz,
Kulbam sori gar kelsangiz jon naqdidur podoshingiz,
Ko‘z ashki birla suv sepib mujgon bo‘lur farroshingiz. [3.38]

Ushbu bandda oshiqning yor oldidagi kamtarligi, sadoqati va fidokorona muhabbati chuqur badiiy ifodalangan. Lirik qahramon o‘zini yor ko‘yi, ya’ni mahallasida kezib yuruvchi oddiy va xor bir oshiq sifatida tasvirlaydi. “Man xastadurman ko‘yingiz sahnida bir avboshingiz” misrasi orqali u o‘zining ruhiy iztirobda ekanini hamda yor dargohida eng quyi maqomda turishga ham rozi ekanini bildiradi. Keyingi satrda esa “hama avboshlar ichra kamin qalloshingiz” deya o‘zini boshqa oshiqlardan ham past qo‘yadi. Bu mumtoz adabiyotdagi oshiqning tavoze va o‘zini fido qilish motivini aks ettiradi. Shoir yorning lutf va hamrohligini eng katta baxt deb biladi. “Ne bo‘lg‘ay emdi lutfingiz bir kun bo‘lub

yo‘ldoshingiz” misrasida oshiqning yagona orzusi yorning e’tiboriga sazovor bo‘lish ekani ifodalanadi. Ayniqsa, “Kulbam sori gar kelsangiz jon naqdidur podoshingiz” satrida mubolag‘ali tasvir qo‘llanib, agar yor uning kulbasiga tashrif buyursa, bunga javoban jonini ham hadya qilishga tayyorligi ta’kidlanadi. So‘nggi misrada oshiqning hijron va iztiroblari nihoyatda ta’sirchan obraz orqali berilgan: “Ko‘z ashki birla suv sepib mujgon bo‘lur farroshingiz”. Ya’ni oshiq ko‘z yoshlarini suv o‘rnida to‘kib, kipriklarini supurgi kabi ishlatib, yor yo‘lini tozalashga tayyor ekanini aytadi. Ushbu tasvir orqali oshiqning cheksiz muhabbati, sadoqati va o‘zini mutlaqo yor xizmatiga bag‘ishlagani badiiy jihatdan yuksak mahorat bilan ifodalangan. Amiriyning lirik qahramoni yorining kelishi o‘zi uchun mukofot deb biladi. “Podoshingiz” so‘zining ma’nosi forschada mukofot deganidir. Tabibiy lirik qahramoni uchun ham yorning lutfi – hadya. Tabibiy she’rxonni Amiriy misralarining mazmuniga olib kirish, mohiyatga urg‘u berish maqsadida yorning bir lutf qilishini keltirib o‘tadi. Lirik qahramon oshiqlikda o‘zini yanada faqr holiga tushiradi:

Tokim Tabibiy zordek ko‘rdi jamoli olingiz,
Ishq ichra Majnundek bo‘lub tun-kun parishon holingiz,
Nazzora qilmoq istabon har dam xat ila xolingiz,
Ey sarvqadlar sarvari, istar Amir iqbolingiz,
Boshimg‘a savdo soldingiz bo‘lsun salomat boshingiz. [3.38]

Mazkur bandda oshiqning yor husniga bo‘lgan cheksiz muhabbati, hijron azobi va ruhiy kechinmalari badiiy tasvirlangan. Lirik qahramon yorning jamolini ko‘rganidan so‘ng ishq dardiga mubtalo bo‘ladi. “Ishq ichra Majnundek bo‘lub tun-kun parishon holingiz” misrasi orqali oshiqning holati Majnun obraziga qiyoslanib, uning tun-u kun iztirobda ekanligi ifodalanadi. Bu o‘xshatish mumtoz adabiyotdagi an’anaviy ishq timsollaridan biri sifatida qo‘llangan. She’rda yorning “xat ila xol”i, ya’ni yuzidagi mayin tuklar va xoli oshiq uchun maftunkor go‘zallik timsoli bo‘lib xizmat qiladi. Oshiq ularni har dam tomosha qilishni orzu qiladi. “Ey sarvqadlar sarvari” misrasi orqali yorning qaddi-qomati sarv daraxtiga o‘xshatilib, uning go‘zalligi ulug‘lanadi. So‘nggi misrada esa oshiq yor tufayli boshiga ishq savdosi tushganini aytadi: “Boshimg‘a savdo soldingiz bo‘lsun salomat boshingiz”. Muxammasning umumiy ruhida ishqiy kechinma, oshiqning sadoqati va yor husnining tasviri yetakchi o‘rin egallaydi.

Tabibiy Amiriyning badal, o‘rniga o‘rin ma’nosida keluvchi arabiy *“evaz”* radifli g‘azaliga ham muxammas bog‘lagan. “Munisu-l-ushshoq” devonidan o‘rin olgan bu muxammas 9 banddan iborat.

Kim sanga ayta olurkim huru g‘ilmondur evaz,
Ko‘yiga deb bo‘lmag‘ay Firdavsi rizvondur evaz,
Vaslinga topilmoq, ey dilbar, ne imkondur evaz,
Bazm aro har dam labing maxmurig‘a qondur evaz,

Kechalar tong otg‘uncha xunobi hijrondur evaz. [3.38]

Ushbu bandda ishqning yuksakligi va yor visoli badiiy tasvirlangan. Shoir yor husni va uning vaslini jannat ne’matlaridan ham ustun qo‘yadi. “Kim sanga ayta olurkim huru g‘ilmondur evaz” misrasida yorning go‘zalligi hur-u g‘ilmonlarga qiyos qilinadi, ammo hech bir ne’mat unga teng kelolmasligi ta’kidlanadi. Keyingi misrada esa yorning ko‘yi, ya’ni maskani Firdavs jannatidan ham afzal ekanligi ifodalanadi. Bu mubolag‘ali tasvir oshiqning cheksiz muhabbatini ochib beradi. Oshiq uchun yor ko‘yi, ko‘chasi, yashash manzili hamma narsadan aziz hisoblanadi. Boisi, u yerda ma’shuqaning izlarini toppish mumkin.

“Vaslinga topilmoq, ey dilbar, ne imkondur evaz” misrasi yor visoliga yetish nihoyatda mushkul ekanini bildiradi. Oshiq uchun yorning bir lahzalik diydori ham eng katta saodatdir. “Bazm aro har dam labing maxmurig‘a qondur evaz” satrida yor lablari may va mastlik timsolida tasvirlanib, oshiqning ruhiy ehtiyoji va muhabbat mastligi ifoda etiladi. So‘nggi misrada hijron motivi kuchayadi: “Kechalar tong otg‘uncha xunobi hijrondur evaz”. Bu yerda oshiqning tun bo‘yi hijron azobida qon yutib chiqishi obrazli tarzda tasvirlangan. Muxammasda visol orzusi, hijron iztirobi va yorning ilohiy darajadagi go‘zalligi mumtoz she’riyat an’analari asosida yuksak badiiyat bilan ifodalangan.

Muxammaslar har ikkala shoir salohiyatini to‘la namoyon qila olishi bilan ham o‘ziga xosdir. Jumladan, ularning maslagi, maqsadi, dunyoqarashi va ichki olami ham mazkur adabiy shakldagi she’rlar orqali yaqqolroq ochiladi, deyish mumkin. Tabibiy hur-u g‘ilmon, firdavsi rizvondan so‘z ochsa, Amiriy labi maxmurig‘a qon, xunobu hijron evazligini ta’kidlaydi. Bu orqali lirik qahramon axloqiy qiyofasini – oshiqlik holini yorqinroq tasavvur etish mumkin. Bandda *“qondur”, “hijrondur”* so‘zlariga *“g‘ilmondur”, “rizvondur”, “imkondur”* so‘zlari ohangdoshlik yuzaga chiqargan.

Tabibiy Amiriyning *“ey soqiy”* radifli g‘azaliga ham muxammas bog‘lagan. *[3.39]* Ma’lumki, soqiy tasavvuf adabiyotida ilohiy fayz manbayi, komil pirni tamsil qiladi. Boda esa ilohiy inoyat, ilohiy ishqdir. [4.71] Muxammas ma’nosi ana shunday teranlikka ega:

Tushub ishq ichra ahvolimg‘a hayrondurman, ey soqiy,
Tun-u kun mubtaloyi dardi hijrondurman, ey soqiy,
Bukun mayxona sorig‘a shitobondurman, ey soqiy,
Qo‘limda sog‘ari sarshor giryondurman, ey soqiy,
Xumor-u oludayi ul la’li xandondurman, ey soqiy. [3.39]

Ushbu muxammas tasavvufiy mazmuni bilan alohida e’tiborga sazovor. Unda oshiqning ilohiy ishq yo‘lidagi ruhiy holati, ma’naviy iztiroblari va komillikka intilishi ramziy obrazlar orqali ifodalangan. “May”, “boda”, “sog‘ar” kabi timsollar ilohiy muhabbat, ma’rifat va ruhiy mastlik ma’nolarida qo‘llanadi.

“Tushub ishq ichra ahvolimg‘a hayrondurman, ey soqiy” misrasida solikning ilohiy ishq sirlariga oshno bo‘lib, o‘z ruhiy holatidan hayratga tushgani tasvirlanadi. Bu hayrat tasavvufdagi “hayrat maqomi” bilan bog‘liq bo‘lib, banda Haq jamolini anglash sari intilganida yuzaga keladigan ruhiy kechinmani bildiradi. “Tun-u kun mubtaloyi dardi hijrondurman” satrida esa oshiqning Haq vasliga yetolmay hijron azobida qolayotgani ifodalangan. Tasavvufda hijron — insonning ilohiy manbadan uzoqlashganlik hissi sifatida talqin qilinadi.

“Bukun mayxona sorig‘a shitobondurman, ey soqiy” misrasidagi “mayxona” ramziy ma’noda tasavvuf ahli yig‘iladigan ma’rifat maskani, ruhiy poklanish makoni hisoblanadi. Oshiqning u yerga shoshilishi uning komillik sari intilishini anglatadi. “Qo‘limda sog‘ari sarshor giryondurman” satrida esa ilohiy ishq mayidan mast bo‘lgan oshiqning ko‘z yoshlari bilan poklanish holati tasvirlangan. Tasavvufda yig‘i va iztirob qalbning yumshashi, ruhiy kamolot belgisi sifatida qaraladi.

So‘nggi misradagi “xumor-u oludayi ul la’li xandondurman” ifodasi ham chuqur ramziy ma’noga ega. Bu yerda yorning “la’li xandon”i ilohiy kalom yoki Haq jamolining timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Oshiq esa ana shu ilohiy go‘zallikning maftuni va uning ruhiy ta’siridan mast holda tasvirlanadi. Umuman, muxammasda ilohiy ishq, ruhiy izlanish, murshidga ehtiyoj va Haq vasliga intilish g‘oyalari tasavvuf poetikasi asosida yuksak badiiyat bilan ifodalangan.

“Tabibiy devonlarida yozgan debochasida quyidagi ma’lumotni keltiradi: “Maxfiy qolmasinkim, bu faqir qo‘lida jam’ bo‘lg‘on mudavvan kitobning besh devondurkim, uch devon turkiy lafzi bila fasahotorodur va ikki kitob forsiy alfozi birla balog‘at payrovdir”. [5.101] Muxammasda *“hayrondurman”, “hijrondurman”, “shitobondurman”, “giryondurman”, “xandondurman”* so‘zlari qofiyadoshlik hosil qilgan. Shunga ko‘ra, Tabibiyning Amiriy ijodidagi irfoniy ma’nolardan ta’sirlanishi, unga ergashishi tabiiydek tuyuladi:

Tabibiydek o‘zimni dayr sori toki yetkurdum,
Qo‘lumni dayr piri ilkiga yuz shavq ila urdum,
Huzuringda icharga bodadin sog‘arni to‘ldurdum,
Yuzing xurshidini to jom-u mayda jilvagar ko‘rdum,
Amiri olam Jamshidi davrondurman, ey soqiy. [3.39]

Ushbu muxammasda tasavvufiy-irfoniy mazmun yanada chuqurlashib, solikning ruhiy kamolot sari bosib o‘tgan yo‘li ramziy obrazlar orqali ifodalanadi. She’rda “dayr”, “pir”, “boda”, “jom” va “soqiy” kabi tasavvufiy timsollar muhim ma’no yukini tashiydi. Bu obrazlar zohiriy ma’nodan tashqari botiniy, irfoniy mazmunga ega bo‘lib, insonning Haqni anglash yo‘lidagi ma’naviy safarini aks ettiradi. “Tabibiydek o‘zimni dayr sori toki yetkurdum” misrasidagi “dayr” tasavvufda ilohiy ma’rifat maskani, ruhiy kamolot manzili sifatida talqin qilinadi. Shoirning u yerga yetishi — solikning dunyoviy bog‘liqliklardan voz kechib,

ma’naviy haqiqat sari yo‘l olganini anglatadi. Keyingi misrada “dayr piri” obrazi murshidi komil timsolida qo‘llangan. Tasavvuf ta’limotida pir solikni Haq yo‘liga boshlovchi ruhiy ustoz hisoblanadi. “Qo‘lumni dayr piri ilkiga yuz shavq ila urdum” satri orqali oshiqning murshidga ixlos va sadoqat bilan taslim bo‘lgani ifodalanadi. “Huzuringda icharga bodadin sog‘arni to‘ldurdum” misrasida “boda” ilohiy ishq va ma’rifat sharobi ma’nosini beradi. Oshiqning bu mayni ichishi — qalbining ilohiy fayz bilan to‘lishi, ruhiy uyg‘onish holatini bildiradi. Tasavvufda mastlik zohiriy emas, balki Haq muhabbatidan ruhning behad zavqqa to‘lishi sifatida talqin qilinadi. “Yuzing xurshidini to jom-u mayda jilvagar ko‘rdum” misrasida yor yuzi quyoshga qiyoslanib, ilohiy nur va haqiqat timsoli sifatida tasvirlanadi. Oshiq bu jamolni “jom-u may”da ko‘radi, ya’ni ilohiy ishq va ma’rifat orqali Haq tajallisiga musharraf bo‘ladi. Bu tasavvufdagi “tajalli” tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lib, Haq nurining oshiq qalbida zohir bo‘lishini anglatadi. So‘nggi misrada “Amiri olam Jamshidi davrondurman, ey soqiy” deyilishi tasavvufiy ma’noda ruhiy kamolotga erishgan oshiqning ichki saltanatini bildiradi. Bu yerda Jamshid obrazi dunyoviy podshoh emas, balki ma’rifat va ruhiy boylik egasi sifatida qo‘llangan. Muxammasda solikning pir qo‘lida tarbiya topib, ilohiy ishq orqali ruhiy yuksalish darajasiga erishgani irfoniy ruhda tasvirlangan.

Ko‘rinadiki, Amiriy Xiva adabiy muhitida nihoyatda mashhur bo‘lgan va Xorazm shoirlari uni ustoz so‘z san’atkori sifatida qabul qilib, g‘azallariga tatabbular qilganlar, taxmislar bog‘laganlar, uning ta’sirida ijod qilganlar. Har bir muxammasda g‘oya, mavzu va obrazlardagi o‘zaro uyg‘unlik esa yuqoridagi tahlillarimizdan yaqqol namoyon bo‘lib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – Б.127.
2. O‘zFA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondidagi 6226, 3461, 3460 raqamli qo‘lyozmalar.
3. Аманов Ш. Аҳмад Табибий ва Қўқон адабий муҳити: адабий таъсир масалалари // “Тафаккур зиёси” илмий-услубий журнали 2022/ махсус сон. – Жиззах, 2022. – Б. 37.
4. Асадов М.Ҳ. Ўзбек мумтоз адабиётида соқийнома (генезиси, тараққиёт босқичлари, поэтик хусуиятлари). Филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент: 2020. – Б. 71.
5. Амонов Ш. Табибийнинг туркий девонлари // Шарқ юлдузи. 2020 йил, 7-сон. – Б.101.

IJODIY NIYATNING ASAR MAZMUNIDA AKSLANISHI
(“Qisasi Rabg‘uziy” asari misolida)

J.B.Sayidolimov,
FarDU adabiyotshunoslik kafedrasi
katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)
(O‘zbekiston)

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijodkor ijodiy niyatning asar kompozitsiyon qurilishidagi ahamiyati hamda uning mazmun-mohiyatiga ta’siri “Qisasi Rabg‘uziy” asari misolida qisqacha tarzda yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy asar, ijodiy niyat, ijodkor labaratoriyasi, kompozitsion qurilish, shakl va mazmun.

Abstract: This article briefly describes the importance of the creative intention of the author in the composition of the work and its impact on its content and essence using the example of the work “Qisasi Rabg‘uziy”.

Keywords: artistic work, creative intention, creative laboratory, compositional structure, form and content.

Turkiy adabiyotda o‘zining rang-barangligi, janrlarning takrorlanmasligi hamda zohiriy hamda botiniy ma’nolarni o‘zida mujassam etganligi sababli hozirgacha dunyo olimlarini o‘ziga jalb etib kelmoqda. Shunday asarlardan biri Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asari bo‘lib, mazkur asar kompozitsion jihatdan mukammal qurilishga ega bo‘lish bilan bir qatorda turkiy adabiyotdagi dastlabki agiografik asarlarni biri hisoblanadi.

Har bir jamiyat o‘tmish merosini qayta ishlab, undan ijodiy foydalanadi hamda mazkur merosga shunchaki an’ana sifatida qarab qolmay uni yangi tafsilotlar bilan boyitib boradi. Meros bo‘lib qolgan yodgorlik o‘zi vujudga kelgan davrda qanday ahamiyatga ega bo‘lib, qanday baholangan bo‘lsa, keyingi davrda ham aynan shunday bo‘lmaydi, lekin “Qisasi Rabg‘uziy” asari bundan mustasno, deyish mumkin. Muallif asarning muqaddima qismida mazkur asarni yaratishdan maqsad nima ekanligini bayon etadi. Bu esa asarning umumiy mazmunini tushunish hamda ijodkorning ijodiy niyatini ham namoyon etadi. Rabg‘uziyga qadar payg‘ambarlar hayotiga bag‘ishlangan ko‘plab asarlar yaratilgani, ammo ularning aksariyati, o‘quvchiga tushunarsizligi, shu bilan bir qatorda, mazkur manbalarda xatoliklar mavjudligini ta’kidlaydi. Bunday “tushunarsiz”lik asarlarning xatoligida emas, aksincha oddiy odamlar uni tushunishga qiynalganliklaridadir. “Ba’zi asarlar to‘g‘ri, ba’zilari noto‘g‘ri, ayrimlari nuqsonli, ba’zilarida kamchilik borligi” [1.232], bundan tashqari, zamon hukmdori Nosiruddin To‘qbug‘a ahillik, totuvlik, ozodlik va taraqqiyotning asosiy

omillaridan biri ham e’tiqodiy hamfikrlilikda ekanligini bilgani uchun Rabg‘uziydan payg‘ambarlar haqida asar yaratishni so‘raydi. “Emdi sanung zimmangdin chiqg‘an, qalamungdin oqg‘an, kitobatma saning, ibratma saning bo‘lub, bizga “Qisas ul-anbiyo” bo‘lsa, o‘qumoqg‘a keraklik, o‘rganmakka yaroqlig‘ bo‘lg‘ay erdi, teb iltimos yanglig‘ ishorat bo‘ldi ersa nechama o‘zumni og‘rilab nafs saqlamish bo‘lub o‘g‘ur bo‘lsin teb bu og‘ir ishga o‘g‘radimiz”[2.11]. Eng asosiysi esa, muallifning o‘zi ta’kidlaganiday, payg‘ambarlar hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan kitob yozishga o‘zida ham rag‘bat mavjud edi. Bunday ijodiy niyatning mavjudligi ijodkor labaratoriyasining keng ekanligidan ham dalolat beradi. Eng muhim jihati esa Rabg‘uziy zamon ehtiyojini ham yaxshi anglab yetganligidadir. Shu sababli asar hozirgi kunga qadar kitobxonlar tomonidan mutolaa qilinmoqda. “Qisasi Rabg‘uziy” payg‘ambarlar tarixi haqidagi asar bo‘lgani uchungina emas, balki mazkur obrazlarga yangicha nuqtayi nazar bilan qarash, e’tiqod va maslak adabiy janrlarga bog‘langani uchun ham omma tomonidan yaxshi qabul qilindi va shuhrat qozondi”[3.13]. Rabg‘uziy yashagan davrda she’riy asarlar yaratish tajribasining mavjud ekanligi va bu borada, davr ehtiyojidan kelib chiqqan holda, she’riy asarlar uchun ma’lum darajada nazariy bilimlarning rivojlangani ham tarixiy asarlarni o‘rgangan olimlar tomonidan e’tirof etilgan. Kam miqdordagi nasriy asarlarning mavjudligi, aynan bu turdagi asarlar uchun nazariy ma’lumotlar deyarli to‘liq shakllanmagan bir davrda “Qisasi Rabg‘uziy” asarining yaratilishi muhim hodisa bo‘ladi. Shu sababli ijodkor “o‘qimoqqa yaroqli” asar yaratishga kirishadi. Bunday asar esa badiiy jihatdan mukammal hamda barcha uchun tushunarli bo‘lishi lozim edi. Mazkur asarni yaratish jarayonida hukumdorning ijodkordan birinchi galdagi iltimos – yanggi islom dinini qabul qilganlarning qalbida islomga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish va bur orqali mamlakatda millatrlararo totuvlikka erishish hamda turli e’tiqodiy nizolarga barham berishdan iborat edi. Shu sababli ham muallif boshqa ijodkorlardan farqli ravishda asarini sof diniy shaklda yozmadi, aksincha oddiy xalq tushuna oladigan tilda, ya’ni xalqon tarzda yozdi. Bunday ijodiy niyat esa ayrim o‘rinlarda muallifni xalq og‘zaki ijodidan namunalar olishga undagan bo‘lishi mumkin. “…yozuvchi ijod onlaridayoq o‘qish jarayonini ham nazarda tutadi. Ayni shu narsa – o‘qish jarayonining ijod jarayoniga ta’siri asar kompozitsiyasida, ayniqsa, yaqqol ko‘rinadi. Kompozitsion jihatdan yaxshi tashkillangan asardan o‘quvchi to so‘nggi nuqtaga qadar yangi-yangi mazmun qirralarini kashf etib boradi, o‘qish davomida turfa hissiy holatlarni qalbdan kechiradi, aqliy yoxud ruhiy toliqish, zerikish unga tamomila yot bo‘ladi”[4.180]. Ijodkorning estetik dunyoqarashi ilohiy qissalarni bayon etishda “poetik o‘zlashtirish”da ko‘zga tashlanadi. Eng avval, Qur’onga, so‘ng hadislarga va o‘zigacha bo‘lgan davrda yaratilgan payg‘ambarlar tarixiga oid asarlarni sinchiklab o‘rgangan ijodkor mukammal asarni yaratishga muvaffaq bo‘ladi. Asarga Qur’oni

Karim va hadislar, tarixiy manbalar, xususan, Abu Is'hoq Nishopuriyning "Qisas ul-anbiyo"si hamda xalq og'zaki ijodidagi ayrim faktlar asos qilib olingan"[1.610], shu sababdan ham mazkur asar o'z davri uchun katta yutuq bo'lib, hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Ijodkor asarni yaratishga kirishar ekan, yaratilajak asar Nosiruddin To'qbug'a taklifi va talabiga ko'ra "Qisas ul-anbiyo" deb nomlanishi lozim edi. Rabg'uziy asarni yakunlar ekan, uning "Ertikliga o'ngay, istakliga tebray bo'lsun teb "Qisasi ar-Rabg'uziy" ot berdimiz"[2.11], deya ta'kidlaydi. Lekin bu asar xalq orasida "Qisasi ul-anbiyoiy turkiy" nomi bilan mashhur bo'ldi. Shu bilan bir qatorda, keyingi davrda turkiy tilda yaratilgan shu turdagi asarlar uchun namuna vazifasini bajardi.

Muallifning har bir qissada savol-javob badiiy san'atidan foydalanishi yoki ayrim o'rinlarga batafsil izoh berishi asarning xalqchilligini oshirgan. Rabg'uziy shunchaki diniy asar emas insonlarni yaxshilikka chorlovchi, o'zlikni anglashga yordam beradigan hamda eng asosisi insonni mushohada qilishga chorlaydigan, jamiyat va tavbiatning uyg'un ekanligi namoyon etuvchi badiiyatga yo'g'rilgan asar yaratishga erisha olgan. "Qisasi Rabg'uziy"da insoniyat bilan bir qatorda hayvonot va nabototning ham paydo bo'lishi, ularning yaratilishi bilan bog'li voqealarning bayon etilishi nazariy jihatdan emas amaliy jihatdan islom dinini tushunish yengillashtirgan. "Muallif Qur'ondagi suralarning nomlanishidan ibrat olib, nabiylar ismi bilan bir tizimda maskan, kitob, jonzot nomini qissalarga biriktirib, "Ka'ba qissasi", "Tavrot Qissasi", "Chumoli qissasi" deya tashkillashtiradi"[6.26]. Asardagi sarlavhalarning bunday nomlanishi kitobxonni o'ziga jalb etadi. O'quvchi sarlavha orqali, dastavval, Qur'on va hadisda keltirilgan voqealarni xayolida gavdalantiradi. Mazkur sarlavhalarning ko'pi Qur'onda keltirilgan suralar nomi bilan atalsa, ayrimlari keltirilgan qissadagi obrazlar bilan ham ataladi. "Ka'bani bunyod qilish", "Ka'baning bitishi", "Otlar voqeasi" kabi sarlavha ostidagi voqea-hodisalar esa bayon etilayotgan qissalarning mohiyatini ochib berish maqsadida qo'llanilgan. Bunday nomlanish asosida muallif o'z maqsadlarini ham bayon etadi. Rabg'uziy o'z davrining ilg'or ziyolisi sifatida odamlarni ma'rifatga yetaklamoqda. Dunyo qanday yaraldi va uni yaratishdan maqsad nima? Insonni yaratib, nima uchun uning qalbini ko'zguga aylantirdi? Dunyoning mohiyati nimadan iborat? Payg'ambarlar nima uchun yuborildi? kabi savollarga o'z asarida javob berishga harakat qiladi. Bu o'z navbatida asarning badiiyligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Insonni tafakkur qilishga, inson, jamiyat va tabiatning uyg'un holda berilishi ham ijodkorning ijodiy niyati hamda muallif yashagan davrda asarga bunday asarlarga bo'lgan ehtiyojni namoyon etgan. Asarda Shayton Momo Havvoni aldab, taqiqlangan narsani yeyishga undagan va Momo Havvo tomonidan taqiq qo'yilgan narsa iste'mol qilingandan keyingi jarayon bilan bog'liq lavhalarning berilishida agiografik asarlardan ko'zlangan mohiyatni ochib berish xususiyati yaqqol

namoyon bo‘ladi. “– Nima uchun Odamga bug‘doyni yedirding. – Ey bor Xudoyo, Sening dargohingda yolg‘on so‘zlamaslar, deb o‘yladim, shayton bir soatda yetmish marta ont ichdi. Unga bovar qildim, Sening karaming ulug‘ligiga suyandim”[2.25]. Mazkur voqeadan so‘ng Momo Havvo va Odam alayhissalom yumshoqlik bilan Jabroil vositasida yerga tushiriladi. Shaytonning bo‘yniga esa tavqi la’nat osildi va jannatdan quvildi. Ularga (Momo Havvo va shayton) jannatdan chiqarilgani bilan birga amrga bo‘ysunmaganliklari uchun jazo ham beriladi.

Momo Havvo	Shayton
Hayz-u nifosga mubtalolik	Yer yuzi podshohligidan mahrumlik
Qursoq og‘rig‘i	Osmonning ulug‘ligidan mahrumlik
To‘lg‘oq og‘rig‘i	Bihishtning xazinachiligidan mahrumlik
Erning xizmati	Ilohiy dargohdan mahrumlik
Erning hukmiga bo‘ysunmoqlik	Farishtalik suratidan devlik suratiga kirish
Taloq erning ixtiyorida bo‘lishi	Azozil otini Iblisga aylanishi
Meros ozgina bo‘lishi	Kofirlarga bosh bo‘lish
Guvohlikka yaramaslik	Tavbasini qabul qilmaslik
Noqis aql bo‘lishi	Hech kishi uni do‘st tutmasligi
Izzatdan mahrum bo‘lish	Do‘zaxning azobiga abadul-abad giriftor bo‘lish
Vahiy ilohiylikdan Mahrumlik (ya’ni payg‘ambarlikdan)	
Imomatlikka yaramaslik	
Namozi jumaga bormaslik	
Namozi iydga bormaslik	
Namozi janozadan mahrumlik	
Podshohlikdan mahrumlik	

Nega Momo Havvo va shaytonga jazo tariqasida turli illatlar berilgan bir paytda Odam alayhissalom chetda qoladi? Vaholanki, Odam alayhissalom ham taqiqlangan narsadan tatib ko‘rgan edi-ku. Rabg‘uziy Odamning jannatdan chiqarilishi uning uchun eng katta jazo ekanligini ta’kidlaydi.

Turkiy adabiyotda yaratilgan agiografik asarlarning dastlabki namunasi bo‘lgan “Qisasi Rabg‘uziy” diniy-ma’rifiy, tarixiy-badiiy, axloqiy-tarbiyaviy xususiyatlari bilan adabiyotimiz tarixida alohida o‘ringa ega. Asar sarlavhasining o‘ziyoq uning badiiylik xususiyatini ifodalaydi. Mazmun-mohiyatning badiiy yo‘sinda berilishi asar kompozitsion qurilishining o‘ziga xosligini keltirib chiqaradi. Keltirilgan qissalar va hikoyatlarning keyingi davr adabiyotida boshqa asarlar uchun asos qilib olinganligi, hatto mustaqil adabiy hodisa sifatida maydonga kelganligini ko‘rishimiz mumkin. Yangicha tafakkur va dunyoqarash negizida diniy qadriyatlar mohiyatini ommaga yetkazish maqsadida yaratilgan bunday asarlar, shubhasiz, alohida ahamiyatga ega. Qissa, hikoyat, latifa, munojot, hikmat va boshqa qator adabiy janrlar va shakllarning dastlabki go‘zal namunalarining keltirilishi asar badiiyatini bo‘rttiradi. Muallif asarda keltirilayotgan har bir voqea-hodisani boshqa manbalar bilan qiyoslagan holda, ishonchli dalillar asosida o‘quvchiga yetkazishga intilgan. Shu bilan bir qatorda, xalq og‘zaki ijodiga xos xususiyatlar asarning ta’sirchanligini yanada oshirgan. Ijodkor har bir voqea-hodisaga alohida yondashgan holda, uni badiiy asar darajasiga olib chiqadi va bunday qissa hamda hikoyatlarni mahorat bilan yagona syujet atrofida birlashtiradi

Xulosa qilib aytish mumkinki, mazkur asar muallifning ijodiy niyati to‘la amalga oshganligini hamda hukumdor talabiga ham mos tushganligini keyingi avlod uchun namoyon etadigan o‘ziga xos, ya’ni nazariy va amaliy qarashlarni o‘zida mujassam eta olgan asarlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Bunday yondashuv mumtoz adabiyotimizda nazariy qarashlar alohida asar sifatida emas badiiy asar tarkibiga mohirona singdirilganligini namoyon etadi. Nazariy qarashlarning ijodkor ijodiy niyati orqali berilishi hamda muallifning asar ichida voqealarga “aralashuvi” orqali soddalikka intilishi “Qisasi Rabg‘uziy” asarining ommalashuviga ham sabab bo‘lgan omillardan ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Raxmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarimigacha). – Toshkent: Sano-standart, 2017. – B. 232.
2. Носируддин Бурҳонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 1 китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – Б. 11.
3. Курбаниязов М. XIV аср ўзбек адабиётида ҳикоя жанрининг тараққиёти (“Қисаси Рабғузий” мисолида). Филол. фан. б. фалс. докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Қарши, 2019. – Б. 13.
4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 180.
5. Ислом энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – Б. 610.

6. Расулова У. XX аср ўзбек қиссачилиги (поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари). Филол. фан. док… дисс. Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети. – Тошкент, 2020. – Б. 26.

SUYUNDIK MUSTAFO NUROTOIY IJODIDA DIALEKTAL USLUBNING BADIIY-FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Aminova Feruza Anvar qizi,
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
feruzaaminova98@gmail.com
(O‘zbekiston)

Annotatsiya. Mazkur maqolada Suyundik Mustafo Nurotoiy ijodida dialektal uslubning lingvopoetik va badiiy-funksional xususiyatlari tadqiq etiladi. Asarlarda qipchoq lahjasiga xos fonetik, leksik hamda morfologik birliklarning qo‘llanishi yozuvchi individual uslubining muhim tarkibiy qismi sifatida tahlil qilinadi. Dialektizmlar qahramon nutqining tabiiyligi va ishonarliligini ta’minlash, ularning hududiy mansubligi, ijtimoiy muhiti va ma’naviy dunyosini ochishda muhim badiiy vosita bo‘lib xizmat qilishi yoritiladi. Shuningdek, maqolada dialektal birliklarning milliy kolorit yaratish, xalqona tafakkur va og‘zaki nutq unsurlarini badiiy matnga olib kirishdagi o‘rni ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot davomida dialektal fonetikaning matn ekspressivligi va emotsional-ta’sirchanligini oshirishdagi stilistik imkoniyatlari ham tahlil qilinadi. Natijada Suyundik Mustafo Nurotoiy ijodida dialektal uslub faqat shevaviy qatlam emas, balki badiiy-estetik tafakkurni ifodalovchi muhim lingvopoetik sistema ekanligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: dialektal uslub, qipchoq lahjasi, dialektizm, lingvopoetika, badiiy matn, xalqona nutq, milliy kolorit, fonetik xususiyat, leksik birlik, morfologik xususiyat, obraz nutqi, uslubiyat, badiiy realizm, ekspressivlik, individual uslub.

Abstract This article examines the linguopoetic and artistic-functional features of the dialectal style in the works of Suyundik Mustafa Nuratai. The use of phonetic, lexical, and morphological units characteristic of the Kipchak dialect in the works is analyzed as an important component of the writer's individual style. It is highlighted that dialectisms serve as an important artistic tool in ensuring the naturalness and reliability of the hero‘s speech, revealing their territorial affiliation, social environment and spiritual world. The article also demonstrates the role of dialectal units in creating national color, introducing elements of folk thinking and oral speech into the literary text. The study also analyzes the stylistic possibilities of dialectal phonetics in enhancing the expressiveness and emotional impact of the text. As a result, it is based on the fact that the dialectal style in the work of

Suyundik Mustafa Nuratai is not only a dialectal layer, but also an important linguopoetic system that expresses artistic and aesthetic thinking.

Keywords: dialectal style, Kipchak dialect, dialectism, linguopoetics, literary text, vernacular speech, national color, phonetic feature, lexical unit, morphological feature, character speech, stylistics, artistic realism, expressiveness, individual style.

Badiiy matn tilini o‘rganishda dialektal birliklarning funksional-estetik imkoniyatlarini tadqiq etish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki xalq shevalari milliy tilning tarixiy xotirasi, etnomadaniy tafakkuri va jonli nutq tajribasini o‘zida mujassamlashtirgan muhim qatlamdir. Adabiy asarda dialektal unsurlarning qo‘llanishi esa yozuvchi badiiy mahoratini, til vositalaridan foydalanish strategiyasini hamda obraz yaratish tamoyillarini aniqlash imkonini beradi. Shu jihatdan dialektal uslub faqat lingvistik hodisa emas, balki badiiy tafakkur va estetik konsepsiyaning tarkibiy elementi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek badiiy nasrida shevaviy birliklardan foydalanish an’anasi uzoq tarixga ega bo‘lsa-da, har bir ijodkor dialektal qatlamdan o‘zining individual poetik maqsadlariga muvofiq foydalanadi. Ayniqsa, xalq og‘zaki nutqiga yaqin bo‘lgan asarlarda dialektizmlar matnning realizmini kuchaytirish, qahramon xarakterini individuallashtirish va muayyan hududga xos til muhitini yaratishda muhim uslubiy vositaga aylanadi. Bunday holatda dialektal birliklar oddiy sheva elementi sifatida emas, balki badiiy semantika va emotsional-ekspressivlikni yuzaga chiqaruvchi faol komponent sifatida ishtirok etadi.

Suyundik Mustafo Nurotoiy ijodi ham xalqona til unsurlariga boyligi bilan e’tiborni tortadi. Zero, professor Bahodir Karim aytganidek, “Kitob bunday ibora va hikmatlarga, o‘ziga xos metoforik tasvirlarga, ayniqsa, o‘zbek adabiy tili xazinasidan joy olishga munosib yangidan-yangi so‘zlarga boydir.”[2 : 221] Yozuvchi asarlarida qipchoq lahjasiga xos fonetik, leksik va morfologik xususiyatlarning tabiiy qo‘llanishi badiiy nutqning hayotiyligini ta’minlab, matnda milliy koloritni yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, dialektal vositalar qahramonlarning ruhiy holati, ijtimoiy muhiti va kommunikativ xarakterini ochishda muhim stilistik vazifa bajaradi. Mazkur maqolaning maqsadi Suyundik Mustafo Nurotoiy asarlarida qo‘llangan dialektal birliklarning badiiy-funksional xususiyatlarini tahlil qilish, ularning matn poetikasi hamda individual uslubni shakllantirishdagi o‘rnini yoritishdan iborat. Tadqiqotda dialektal uslubning lingvopoetik mohiyati, xalqona nutq bilan badiiy til o‘rtasidagi munosabat hamda shevaviy birliklarning estetik imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

“Sal yurib mashina chuqurgami, gurtukkami, tiqilib qoladi” jumlasidagi *gurtuk* birligi leksik dialektizm sifatida matnning dialektal-uslubiy qatlamini shakllantiruvchi muhim vosita vazifasini bajaradi. Ushbu so‘z ayrim qipchoq

shevalarida yo‘lning o‘yiq, botqoq yoki transport harakatiga xalal beruvchi notekis qismi ma’nosida qo‘llanadi. Adabiy tilda bu ma’no asosan *chuqur*, *o‘ra*, *botiq joy* kabi birliklar orqali ifodalanadi. Biroq “gurtuk” leksemasi semantik jihatdan shu birliklarga yaqin bo‘lsa-da, o‘zining hududiy-ekspressiv tabiati bilan ulardan keskin farqlanadi. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Olim Teshaboyev *“Tiriklay ko‘milgan so‘zlar”* maqolasida *“gurtik/gurtuk”* so‘zini Zomin shevalariga xos bo‘lgan, ammo boshqa hududlar uchun ham tushunarli xalqona birliklardan biri sifatida qayd etadi[https://oyina.uz/uz/article/628]. Bu fikr dialektizmning faqat tor lokal birlik emas, balki xalq nutqiy tafakkurida yashayotgan faol qatlam ekanini ko‘rsatadi. Demak, *“gurtuk”* matnda tasodifiy shevaviy element emas, balki xalqona kommunikativ tajribani aks ettiruvchi til birligi sifatida ishtirok etadi. Jumladagi “chuqurgami, gurtukkami” shaklidagi uyushiq qo‘llanish ayniqsa diqqatga sazovor. Muallif bir ma’noga yaqin ikki birlikni yonma-yon keltirish orqali nutqning tabiiy og‘zaki xarakterini tiklaydi. Bunday parallel konstruksiya jonli xalq nutqiga xos bo‘lib, unda ma’no izohlashdan ko‘ra emotsional-ta’sirchanlik ustuvorlik kasb etadi. *“Chuqur”* adabiy neytral birlik bo‘lsa, *“gurtuk”* esa obrazli, konkret va ekspressiv tusga ega. Shu sababli dialektizm tasvirning sezgirlik darajasini oshirib, o‘quvchi tasavvurida yo‘lning notekis, yurishga noqulay holatini yanada aniqroq gavdalantiradi.

Dialektal uslub nuqtayi nazaridan qaralganda, “gurtuk” birligi bir necha funksional vazifani bajaradi. Avvalo, u qahramon nutqining hududiy mansubligini ochadi. Ikkinchidan, matnga mahalliy kolorit olib kirib, tasvirning hayotiyligini kuchaytiradi. Uchinchidan, xalqona nutq ohangi orqali badiiy matnning realizm darajasini oshiradi. Eng muhimi, bu kabi dialektizmlar yozuvchi individual uslubining tarkibiy qismiga aylanib, xalq tilining tabiiy ritmi va emotsional energiyasini badiiy matnga ko‘chiradi. Natijada “gurtuk” so‘zi oddiy leksik birlik emas, balki dialektal uslubning lingvopoetik imkoniyatlarini namoyon qiluvchi estetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

“U yillari “qizamiq”, “qoramiq”, “ko‘k yo‘tal” kabi kasalliklar o‘n ikki oy aylanib yursa-da, momolar gurunglarida falonchi “tumovlanibdi” deb dori izlaganini yoki surishtirganini eshitmaganmiz” jumlasida dialektal uslubning leksik va morfologik ko‘rinishlari birgalikda namoyon bo‘ladi. Matndagi *momo, gurung* kabi birliklar xalqona nutq qatlamiga mansub bo‘lib, qahramonlar yashayotgan ijtimoiy-madaniy muhitni tabiiy aks ettiradi. *“Momo”* — Nurota shevasida keng qo‘llaniladigan leksik dialektizm bo‘lib, adabiy tildagi *“buvi”* so‘zining sheva varianti hisoblanadi. Bu leksema asarda shunchaki qariya ayolni nomlash uchun emas, balki qishloq hayotining , oilaviy iliq munosabatlar va an’anaviy turmush tarzi timsolini yaratish uchun qo‘llanilgan. Bu so‘zining matnda qo‘llanishi o‘quvchida Nurota qishloq muhitining ko‘rinishini yuzaga keltiradi.”Gurung” — adabiy tildagi *“suhbat”, “muloqot”, “gap-so‘z”* ma’nolarini

anglatuvchi Nurota shevasiga xos leksik birlik. *“Gurunglarida”* shaklida kelishi so‘zning matnda to‘liq grammatik o‘zlashganligini ko‘rsatadi. Ushbu dialektal so‘z oddiy *“suhbat”* ma’nosidan ko‘ra samimiy, norasmiy va xalqona muloqot muhitini ifodalashi bilan uslubiy qimmat kasb etadi. Shu sababli mazkur birliklar matnda mahalliy kolorit va og‘zaki nutq tabiiyligini kuchaytiruvchi leksik dialektizmlar sifatida ishtirok etadi. Jumladagi asosiy dialektal-uslubiy yuk esa *“tumovlanibdi”* shakli orqali yuzaga chiqadi. Bu yerda morfologik dialektizm kuzatiladi. Fe’l tarkibidagi -lan affiksi adabiy tilda odatda *“tumov”* leksemasi bilan faol qo‘llanmaydi. Adabiy normada *“tumovga chalinmoq”, “tumov bo‘lmoq”* kabi shakllar me’yoriy hisoblanadi. Muallif esa *“tumovlanmoq”* shaklini qo‘llash orqali xalq og‘zaki nutqiga xos so‘z yasash modelini tiklaydi. Mazkur morfologik shaklning uslubiy ahamiyati shundaki, u nutqni sun’iy kitobiylikdan uzoqlashtirib, jonli so‘zlashuv ohangini yuzaga chiqaradi. “Tumovlanibdi” shakli eshitilish jihatidan sodda, tabiiy va xalqona bo‘lib, qahramonlarning dunyoqarashi hamda kundalik nutq madaniyatini real aks ettiradi. Bu holatda dialektal shakl faqat grammatik farqlanish emas, balki badiiy realizmni kuchaytiruvchi lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, jumlaning umumiy sintaktik qurilishi ham xalq og‘zaki hikoya uslubiga yaqin. Kasallik nomlarining ketma-ket sanalishi, “momolar gurunglarida” birikmasi hamda “eshitmaganmiz” shakli orqali retrospektiv xalqona xotira ohangi hosil qilingan. Natijada leksik va morfologik dialektizmlar o‘zaro uyg‘unlashib, matnda milliy ruh, tabiiylik va emotsional ta’sirchanlikni yuzaga keltirgan.

Suyundik Mustafo ijodi til va madaniyatning uzviy bog‘liqligini, shuningdek, xalq tilining badiiy asarlardagi ijodiy imkoniyatlarini ochib berishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.“Ko‘ngil sadolari” to‘plamida aynan shunday uslubiy yondashuv kuzatiladi: muallif qahramonlarning og‘zaki nutqini realizm ruhida aks ettirar ekan, dialektal birliklardan samarali foydalanadi. Jumladan, o‘zbek tilining qipchoq lahjasiga xos bo‘lgan leksik va fonetik, morfologik xususiyatlar orqali qahramonlar qayerlik ekani, ularning ijtimoiy-ma’naviy olami, ijtimoiy kelib chiqishi, yoshi o‘z-o‘zidan ochiladi. Bu esa dialektal uslubning nafaqat stilistik, balki ideologik va madaniy yuklamaga ega ekanini ko‘rsatadi. Shu ma’noda, dialektizmlar Suyundik Mustafo ijodida obrazning realizm darajasini kuchaytiruvchi, u orqali xalq hayoti, tili va tafakkur tarzini ochib beruvchi, tilshunoslik va adabiyotshunoslikda esa dialektal uslub mohiyatini ochib beruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Nurotoiy asarlaridagi dialektizmlar sheva va adabiy til o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni namoyon etuvchi ko‘prik vazifasini bajaradi. Ular orqali muallif o‘z qahramonlarini xalq og‘zaki nutqiga yaqinlashtiradi, shu bilan birga badiiy realistiklik va milliy koloritni kuchaytiradi. O‘zbek adibining ijodida dialektizmlar

badiiy tildagi ekspressiv-estetik qiymatni oshiruvchi vosita, xalqning “jonli til ruhini” saqlovchi komponent sifatida qadrlanadi.

Ko‘rib chiqilgan misollarda qipchoq lahjasiga xos fonetik xususiyatlar badiiy matnda tasodifiy fonetik imitatsiya sifatida emas, balki funksional-stilistik jihatdan yuklangan dialektal vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Fonetik hodisalar qahramon nutqining hududiy, ijtimoiy va og‘zaki xarakterini ochishga xizmat qilib, badiiy diskursda dialektal uslubning mustaqil va faol qatlam sifatida ishtirok etishini ta’minlaydi. Shu orqali dialektal fonetika obraz yaratish, nutqni individuallashtirish va matnning hayotiyligini kuchaytirishda muhim stilistik resursga aylanadi. Ularning qo‘llanilishi faqat til hodisasi emas, balki madaniy-falsafiy ifoda vositasidir. Suyundik Mustafo Nurotoiy singari yozuvchilar ijodida bu hodisa til madaniyatining tabiiy evolyutsiyasi, xalq og‘zaki nutqining adabiy til bilan uyg‘unlashuvi jarayonini aniq ko‘rsatib beradi.

Suyundik Mustafo ijodining tahlili shuni ko‘rsatadiki, muallif o‘z asarlarida dialektal unsurlardan keng va maqsadga muvofiq tarzda foydalanadi. Dialektizmlar muallif uslubining ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, ular nafaqat tilning tabiiyligini, balki obrazlarning milliy ruh va hayotiyligini ham ta’minlaydi. Xususan, Suyundik Mustafoning *“Ko‘ngil sadolari”* asarida dialektal birliklar adabiy til unsurlari bilan uyg‘un holda qo‘llanib, matnning badiiy-estetik ta’sirchanligini kuchaytiradi. Bu dialektal birliklar quyidagi vazifalarni bajaradi:

— qahramon nutqining tabiiy va individual xususiyatini ochishga;
— voqea-hodisalar kechayotgan muhitning mahalliy koloritini yaratishga;
— milliy ruh va xalqona ohangni kuchaytirishga;
— obrazlarning psixologik holatini yanada ta’sirchan ifodalashga;
— muallifning individual uslubini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Suyundik Mustafo Nurotoiy ijodida dialektal uslub badiiy tafakkurning muhim tarkibiy unsuri sifatida namoyon bo‘ladi. Muallif qipchoq lahjasiga xos fonetik, leksik va morfologik birliklardan maqsadli foydalanish orqali qahramon nutqining tabiiyligi, hududiy mansubligi hamda milliy ruhini ishonarli tasvirlaydi. Dialektizmlar asarda faqat shevaviy kolorit yaratish bilan cheklanmay, obrazlarning ijtimoiy-ma’naviy dunyosini ochish, matn realizmini kuchaytirish va xalqona tafakkurni ifodalashga xizmat qiladi. Shu jihatdan dialektal birliklar yozuvchi uslubining ajralmas estetik komponentiga aylanib, badiiy tilning ekspressiv imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada Suyundik Mustafo Nurotoiy ijodi xalq og‘zaki nutqi bilan adabiy til o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni namoyon etuvchi, dialektal uslubning badiiy va madaniy mohiyatini yorqin aks ettiruvchi muhim adabiy hodisa sifatida e’tibor qozonadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Suyundik Mustafo Nurotoiy. *Ko‘ngil sadolari*. – Toshkent: Muharrir, 2024. – 223b.
2. Toshboyev O. “Tiriklay ko‘milgan so‘zlar” // *Ma’naviy hayot*. – Toshkent, 2019. – №3. – B. 45–47.
3. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Fan, 2022. – 175 b.
4. Mahmudov N. Til va nutq madaniyati. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 224 b.
5. Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi asoslari. – Toshkent: Universitet, 2007. – 278 b.

BUXORO SHEVALARIDA MORFONOLOGIK O‘ZGARISHLARNING TIZIMLI TAVSIFI VA ULARNING OG‘ZAKI NUTQDA NAMOYON BO‘LISHI

Asatullayeva Dilnavoz,
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
(O‘zbekiston)

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro shevalarida uchraydigan morfonologik o‘zgarishlarning tizimli tavsifi beriladi hamda ularning og‘zaki nutqda namoyon bo‘lish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda fonetik va morfologik sathlar kesishgan nuqtada yuzaga keladigan hodisalar, xususan, tovush almashinuvi, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, eliziya va affiksatsiya jarayonidagi o‘zgarishlar aniqlanadi. Shuningdek, morfonologik birliklarning nutq jarayonidagi funksional yuklamasi hamda ularning dialektal xususiyatlari misollar asosida ochib beriladi. Buxoro shevalariga xos bo‘lgan o‘ziga xos variantlar og‘zaki nutq materiallari orqali izohlanadi va tizimlashtiriladi. Tadqiqot natijalari o‘zbek tilshunosligida morfonologiya sohasini yanada boyitishga hamda dialektologik tadqiqotlar uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar. Buxoro shevalari, morfonologiya, fonetik o‘zgarishlar, morfologik o‘zgarishlar, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, eliziya, affiksatsiya, og‘zaki nutq, dialektologiya.

Annotation. This article provides a systematic description of morphonological changes observed in the Bukhara dialects of the Uzbek language and analyzes their manifestation in oral speech. The study focuses on linguistic phenomena arising at the intersection of phonetic and morphological levels, including sound alternation, assimilation, dissimilation, elision, and changes occurring during affixation. Special attention is given to the functional role of morphonological units in speech and their dialectal features. The research is based on examples from authentic oral speech, which allows for a detailed explanation

and classification of specific variants characteristic of the Bukhara dialects. The findings contribute to the development of morphonology in Uzbek linguistics and provide both theoretical and practical value for further dialectological studies.

Keywords. Bukhara dialects, morphonology, phonetic changes, morphological changes, assimilation, dissimilation, elision, affixation, oral speech, dialectology.

Til tizimi murakkab va koʻp qatlamli hodisa boʻlib, uning har bir sathi oʻzaro uzviy bogʻliqlikda faoliyat yuritadi. Xususan, fonetika va morfologiya oʻrtasidagi kesishuv nuqtasida yuzaga keladigan morfonologik hodisalar tilning dinamik tabiatini yaqqol namoyon etadi. Morfonologiya tilshunoslikning nisbatan yosh, ammo juda muhim yoʻnalishlaridan biri boʻlib, u soʻz tarkibidagi fonetik oʻzgarishlarning morfologik jarayonlar bilan uygʻunlashuvini oʻrganadi. Ushbu hodisalar ayniqsa shevalarda, xususan, Buxoro shevalarida, yanada yorqin va tizimli koʻrinishda namoyon boʻladi.

Buxoro shevalari oʻzining fonetik, leksik va morfologik xususiyatlari bilan oʻzbek tilining boshqa hududiy variantlaridan sezilarli darajada farq qiladi. Bu farqlar, ayniqsa, ogʻzaki nutqda yaqqol kuzatiladi va nutq jarayonida yuzaga keladigan tovush almashinuvi, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, eliziya hamda qoʻshimcha qoʻshilishidagi oʻzgarishlar orqali namoyon boʻladi. Mazkur jarayonlar nafaqat fonetik hodisa sifatida, balki morfologik tizim bilan chambarchas bogʻliq holda yuzaga keluvchi murakkab lingvistik mexanizm sifatida qaraladi.

Soʻnggi yillarda oʻzbek tilshunosligida dialektologik tadqiqotlarga, xususan, shevalarning morfonologik xususiyatlarini oʻrganishga boʻlgan qiziqish ortib bormoqda. Biroq Buxoro shevalaridagi morfonologik oʻzgarishlar tizimli va kompleks yondashuv asosida yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu sababli ushbu maqolada Buxoro shevalarida kuzatiladigan morfonologik oʻzgarishlarning tizimli tavsifi berilishi va ularning ogʻzaki nutqdagi real namoyon boʻlishi ilmiy jihatdan tahlil qilinishi maqsad qilingan.

Ushbu maqoladagi dolzarblik shundaki, morfonologik hodisalar tilning tabiiy ishlash mexanizmini tushunishda, shuningdek, oʻzbek adabiy tili va shevalar oʻrtasidagi farqlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, ushbu hodisalar lingvodidaktik nuqtayi nazardan ham qimmatli boʻlib, til oʻqitish jarayonida toʻgʻri talaffuz va nutq madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bilamizki, oʻzbek xalqi qadim-qadimdan Turkiston hududida yashab kelayotgan turli xalq va elatlar bilan yonma-yon, qoʻshni holda istiqomat qilib kelgan. Bunday tarixiy-etnik jarayonlar natijasida oʻzbek tili nafaqat ichki taraqqiyot asosida, balki tashqi lingvistik aloqalar ta’sirida ham rivojlangan. Xususan, qoʻshni xalqlar tillaridan oʻzbek tiliga, shuningdek, oʻzbek tilidan boshqa tillarga koʻplab leksik birliklar, tushunchalar va atamalar kirib kelgan. Bu jarayon

tilning boyishi va semantik imkoniyatlarining kengayishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘zbek tilining boshqa shevalarida bo‘lgani kabi Buxoro o‘g‘uz shevalarida ham boshqa tillardan o‘zlashgan minglab baynalmilal leksik birliklar mavjud. Ushbu o‘zlashmalar asosan tarixiy savdo aloqalari, madaniy muloqot, diniy va ilmiy ta’sirlar natijasida shakllangan. Biroq ushbu so‘zlar sheva muhitida aynan o‘z shaklida saqlanib qolmay, balki mahalliy fonetik va morfonologik tizimga moslashgan holda talaffuz qilinadi. Ya’ni, o‘zlashma birliklar Buxoro o‘g‘uz shevasining fonetik qonuniyatlari asosida qayta ishlanib, o‘ziga xos talaffuz variantlarini hosil qiladi.

Yana bir muhim jihat shundaki, Buxoro o‘g‘uz shevalarining butun leksik boyligi mazkur shevaning murakkab leksik-semantik tizimi sifatida shakllangan. Bu tizim tarixiy rivojlanish jarayonida turli qatlamlardan iborat bo‘lib, har bir leksik birlik muayyan davr, ijtimoiy muhit va kommunikativ ehtiyojlar natijasida shakllangan. Shunga ko‘ra, Buxoro o‘g‘uz shevasida mavjud barcha leksik birliklar faqat ushbu shevaga xos hodisa sifatida emas, balki umumturkiy leksik fond bilan genetik bog‘liqlikda qaralishi lozim.

Biroq bu so‘zlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmagan, balki uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonining mahsulidir. Har bir leksik birlik fonetik, morfologik va semantik o‘zgarishlar orqali hozirgi ko‘rinishga kelgan. O‘g‘uz sheva vakillari nutqida qo‘llanilayotgan ko‘plab leksik birliklarning ildizi qadimgi turkiy yozma yodgorliklarga borib taqaladi. Bu holat ularning tarixiy barqarorligini va umumturkiy xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi.

N. A. Baskakov o‘zining “Turkiy tillarni o‘rganishga kirish” asarida “Turkiy tillar asosiy leksik fondining xarakterli xususiyati uning barcha turkiy tillar uchun umumiyligidir”, deb ta’kidlaydi. Ushbu ilmiy qarash turkiy tillar tizimidagi leksik birliklarning genetik yaqinligini asoslaydi. Shu fikrni davom ettirib, Sh. Shoabdurahmonov ham “O‘zbek tili turkiy tillar oilasiga mansubligi sababli o‘zbek tiliga va uning shevalariga mansub bo‘lgan ko‘pgina so‘zlar boshqa turkiy tillar tarkibidagi so‘zlar bilan etimologik birlikka ega”, deb qayd etadi.[Баскаков Н.А. Введение в изучение тюрских языков. – М.: Высшая школа, 1969. – С. 118.]

Mazkur nazariy qarashlar Buxoro o‘g‘uz shevalarini faqat hududiy variant sifatida emas, balki umumturkiy til tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Shu bois ushbu maqolada Buxoro shevalaridagi morfonologik o‘zgarishlar nafaqat fonetik hodisa sifatida, balki tarixiy va tizimli lingvistik jarayon sifatida tahlil qilinadi.

Buxoro o‘g‘uz shevalarida so‘zlarga affikslar qo‘shilishi jarayonida, ayniqsa, kelishik qo‘shimchalari tarkibida sezilarli morfonologik o‘zgarishlar yuz berishi kuzatiladi. Bu hodisa sheva fonetik tizimining ichki qonuniyatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, qo‘shimcha va asos o‘rtasidagi uyg‘unlashuv natijasida fonemalar

qisqarishi, almashishi yoki butunlay boshqa koʻrinishga oʻtishi mumkin. Mazkur jarayonlar oʻzbek adabiy tilidagi normativ shakllardan sezilarli farq qiladi va shevaning oʻziga xos lingvistik belgisini tashkil etadi.

Xususan, joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi (-ga) Buxoro oʻgʻuz shevalarida koʻplab hollarda fonetik oʻzgarishga uchraydi. Masalan, körpäjä öränip jät (koʻrpaga oʻranib yot) birikmasida joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi adabiy tildagi -ga shaklidan farqli ravishda fonetik moslashuv natijasida yumshab, shevaga xos variantni hosil qilgan. Bu holat fonetik assimilyatsiya va tovushlarning oʻzaro ta'siri bilan izohlanadi.

Xuddi shunday hodisa körpäčäjä ötir (koʻrpachaga oʻtir) misolida ham kuzatiladi. Bu yerda ham -ga affiksi asosga qoʻshilish jarayonida fonetik jihatdan transformatsiyaga uchrab, sheva talaffuziga moslashgan variantni yuzaga keltiradi. Mazkur misollar Buxoro oʻgʻuz shevalarida joʻnalish kelishigi qoʻshimchasining barqaror shaklda emas, balki kontekstga qarab oʻzgaruvchan xarakterga ega ekanligini koʻrsatadi.

Shuningdek, ayrim hollarda tushum kelishigi qoʻshimchasi ham fonetik qisqarish va oʻzgarishlarga uchraydi. Masalan, sixakti opke (qirgʻichni olib kel) ifodasida tushum kelishigi (-ni) adabiy tildagi standart shaklini saqlamay, fonetik reduksiya natijasida qisqargan koʻrinishga ega boʻlgan. Bu holat nutq tezligi va ogʻzaki muloqot sharoitidagi fonetik soddalashuv bilan bogʻliq.

Yana bir misol sifatida lövlädi täzäläš keräk (loviyani tozalash kerak) birikmasini keltirish mumkin. Bu yerda ham tushum kelishigi qoʻshimchasi adabiy shakldan farqli ravishda shevaga xos fonetik moslashuvga uchragan. Natijada morfologik birlik oʻzining asl koʻrinishini qisman yoʻqotib, yangi talaffuz varianti shakllangan.

Bundan tashqari, ānämä āldim (onamga oldim) misolida joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi (-ga) toʻliq fonetik transformatsiyaga uchrab, shevaga xos variantni hosil qilgan. Bu jarayon fonetik oʻzgarishlarning chuqurligini va affikslarning nutq jarayonida sezilarli darajada moslashuvchan ekanligini koʻrsatadi.

Shuningdek, āpämïŋ kitāpi (opamning kitobi) misolida qaratqich kelishigi qoʻshimchasi (-ning) ham fonetik oʻzgarishga uchraganini koʻrish mumkin. Bu holat undosh tovushlarning assimilyatsiyasi va talaffuz qulayligi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, keltirilgan misollar Buxoro oʻgʻuz shevalarida affikslarning barqaror morfologik birlik sifatida emas, balki fonetik muhit ta'sirida oʻzgaruvchan tizim sifatida faoliyat yuritishini koʻrsatadi. Bu esa mazkur shevalarda morfonologik jarayonlarning juda faol ekanligini va ular ogʻzaki nutqning asosiy shakllanish mexanizmlaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Mazkur maqolada Buxoro oʻgʻuz shevalarida kuzatiladigan morfonologik oʻzgarishlar tizimli ravishda tahlil qilindi hamda ularning ogʻzaki nutqdagi real namoyon boʻlish xususiyatlari yoritildi. Tadqiqot jarayonida kelishik

qo‘shimchalari, xususan, jo‘nalish, tushum va qaratqich kelishiklari tarkibida yuz beradigan fonetik transformatsiyalar asosiy material sifatida ko‘rib chiqildi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ushbu shevada affikslar adabiy tildagi barqaror shaklini saqlab qolmay, balki fonetik muhit ta’sirida turli o‘zgarishlarga uchraydi.
Kuzatilgan misollar asosida Buxoro o‘g‘uz shevalarida morfonologik jarayonlar, jumladan, assimilyatsiya, fonetik reduksiya, tovush almashinuvi va soddalashuv kabi hodisalar juda faol ekanligi aniqlandi. Bu jarayonlar nafaqat alohida fonetik hodisa sifatida, balki morfologik tizim bilan uzviy bog‘liq holda ishlaydigan murakkab lingvistik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada affikslar nutq jarayonida o‘zining asl ko‘rinishini qisman yoki to‘liq yo‘qotib, shevaga xos variantlarga ega bo‘ladi. Professor N.Mahmudov aytganidek “Necha ming yillardan beri tilda voqelanib kelayotgan o‘sish- o‘zgarishdan iborat muntazam harakat til tirikligini ta’minlaydigan, uning uzun umriga tirgak tutadigan va shu tariqa uning sohibi bo‘lgan qavmning yugurik zamon va yumaloq makondagi qadru qimmatini salomat saqlaydigan bemisl qudratdir. Shuning uchun ham tiriklik rutbasida til hech qachon tamoman qotib qolgan sokin holatda emas, balki hamisha harakat otlig‘ hayot ichida bo‘ladi, ana shu harakat uni zamonlardan zamonlarga to‘rt ko‘z tugal olib o‘tadi”.[Mahmudov N. O‘zbek tili lug‘at boyligi rivojida faollashgan jarayonlar. O‘zbek tili va adabiyoti, 2018 – N5. – B.3.] Ushbu fikrda tilning doimiy harakatda bo‘ladigan, o‘zgaruvchan va rivojlanuvchi tizim ekanligi ta’kidlanadi. Til tarixiy jarayon davomida shakllanib, doimiy yangilanib boradi va aynan shu dinamik xususiyati uning yashovchanligini ta’minlaydi. Til jamiyat hayoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u xalqning madaniy, tarixiy va ma’naviy tajribasini saqlab qoluvchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham til statik emas, balki doimiy harakatdagi tizim bo‘lib, vaqt va makon o‘zgarishlariga mos ravishda rivojlanib boradi.

Shuningdek, tadqiqot Buxoro o‘g‘uz shevalarining fonetik va morfologik tizimi o‘rtasida kuchli integratsiya mavjudligini ko‘rsatdi. Bu holat sheva nutqining dinamik, moslashuvchan va kontekstga bog‘liq ekanini tasdiqlaydi. Ayniqsa, og‘zaki nutqda yuz beradigan morfonologik o‘zgarishlar kommunikativ jarayonni yengillashtirish, talaffuzni soddalashtirish hamda nutq tezligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Buxoro o‘g‘uz shevalaridagi morfonologik hodisalar o‘zbek dialektologiyasi va morfonologiya sohasini chuqurroq o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu jarayonlarni tizimli tahlil qilish nafaqat sheva xususiyatlarini aniqlash, balki o‘zbek tilining umumiy rivojlanish qonuniyatlarini tushunishga ham xizmat qiladi. Shu jihatdan, mazkur tadqiqot kelgusida dialektologik va lingvodidaktik izlanishlar uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдуазизов А.А. Ўзбек тилининг фонологияси ва морфонологияси. Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
2. Баскаков Н.А. Введение в изучение тюрских языков. – М.: Высшая школа
3. Mahmudov N. O‘zbek tili lug‘at boyligi rivojida faollashgan jarayonlar. O‘zbek tili va adabiyoti, 2018
4. https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tilshunoslik/morfemika-va-morfonologiya
5. https://cyberleninka.ru/article/n/ozbek-tilshunosligida-morfonologiyaga-doir-talqinlari
6. https://fayllar.org/morfonologiya-haqida-umumiy-malumot.html
7. https://uztext.com/49591-text.html
8. https://muhaz.org/i-bob-morfonologiya-tushunchasi-morfonologiyaning-organish-obe.html

ANNEMARIE SHIMMEL ASARLARIDA ORIFA AYOLLAR TALQINI

Dilobar Bahodirova,
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti, 2-kurs
Ilmiy rahbar: F.f.d., Prof, Iqboloy Adizova
(O‘zbekiston)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Annemarie Shimmelning “Jonon mening jonimda” asari tahlil qilingan. Asarda keltirilgan orifa ayollar haqida qo‘shimcha ma’lumotlar bayon etilgan va keltirilgan ba’zi ma’lumotlar Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asari bilan qiyoslangan.

Kalit so‘zlar: Tasavvuf, so‘fizm, so‘fiy ayollar, Alisher Navoiy, Fariduddin Attor, Jomiy, agiografiya, barkamol ayol.

Annemarie Shimmel (1922–2003) — islomshunoslik va sharqshunoslik sohasida jahonning eng ko‘zga ko‘ringan olimlaridan biri. U nemis millatiga mansub bo‘lsa-da, butun umrini islom madaniyati, ayniqsa, tasavvuf va sharq adabiyotini o‘rganishga bag‘ishlagan. Shimmel Germaniyaning Erfurt shahrida protestant va yuqori madaniyatli o‘rta sinf oilasida tug‘ilgan. Garchi ota-onasi oddiy inson bo‘lishsa-da, uyi doim she’riy va nasriy asarlarga to‘la bo‘lgan. Xristian oilasida tug‘ilgan bo‘lishiga qaramay islom diniga va tasavvufga juda qiziqqan olima o‘n besh yoshida arab tilini o‘rganishni boshlagan. Shimmel nemis,

ingliz, turk, arab, fors, urdu va sind tillarini mukammal bilgan. Bu unga mumtoz asarlarni asl nusxada mutolaa qilish imkonini bergan. 1941-yil o‘n to‘qqiz yoshida Berlin universitetida islom sevilizatsiyasi bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Shimmel hayoti davomida islom madaniyati, tasavvuf, sharq she’riyati va san’atiga oid 120 dan ortiq asar yozgan. Tasavvuf va islom tarixi bo‘yicha eng mashhur asarlaridan biri “Mystical Dimensions of Islam” (“Islomning tasavvufiy o‘lchovlari”, 1975). Ushbu asarda so‘fiylik tarixi bayon etilgan, ta’limoti va ulamolari haqida ko‘plab ma’lumotlar taqdim qilingan. So‘fiylik psixologiyasi va uning qonun-qoidalari har tomonlama tahlil qilgan. “And Muhammad Is His Messenger” (“Va Muhammad uning elchisidir”, 1981) asari Muhammad s.a.v.ning islom dinida va tasavvuf adabiyotida markaziy o‘rin egallashini g‘arb dunyosiga tushuntirib bergan. Asarda Payg‘ambarimiz tug‘ilishi, hayoti, turmush qurishi, mo‘jizalari va samoviy sayohati (me’roj tuni) haqida islomdagi asl manbalarga tayanib bayon qilgan. Bundan tashqari, uning “Deciphering the Signs of God” (“Allohning belgilarini anglash”) va “Islam: An Introduction” (“Islom: Kirish”) asarlarida islom dini arkonlari va madaniyatini xolis sharhlab bergan. Shimmel Rumiy ijodini g‘arbga eng to‘g‘ri va chuqur tahlil bilan yetkazgan olimadir. Uning Rumiy ijodiga bag‘ishlangan asarlarida shoirning ramzlari va ilohiy ishq falsafasi mukammal tahlil qilingan. “I Am Wind, You Are Fire” (“Men shamolman, sen olovsan”, 1992) asari Rumiy biografiyasini yoritgan bo‘lsa, “The Triumphal Sun” (“Zafarli quyosh”, 1978) asari uning ulkan she’riy merosiga bag‘ishlangan.

U nafaqat tadqiqotchi, balki tarjimon ham bo‘lgan. Pokistonlik taniqli shoir, faylasuf Muhammad Iqbol asarlarini va bir qancha forsiy she’rlarini nemis hamda ingliz tillariga mahorat bilan o‘girgan. Shoirning diniy-falsafiy g‘oyalari haqidagi tadqiqotlarini jamlab “Gabriel's Wing” (“Jabroil qanoti”, 1963) asarini yaratgan.

U sharqdagi tasavvuf sirlarini g‘arbga tushuntira olgan kamyob olimlardan biridir. O‘z asarlarida islomda ayollarga munosabatni haqqoniy aks ettira olgan. G‘arb mamlakatlariga asl islomiy ayol, muslima, qanday bo‘lganligini ko‘rsatib bera oldi. Afsuski, o‘sha davrda g‘arb olimlari “islomda ayol huquqlari yo‘q” degan noto‘g‘ri fikr bilan qolib ketgan edi. Annemarie Shimmel tadqiqotlari orqali bu fikr xato ekanligini isbot qildi: *“...feministlar (g‘arb mamlakatlarida hayotning barcha jabhalarida ayollarni birinchi o‘ringa olib chiqishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan ayollar harakati) tarafdorlari tarixiy voqealarni, ayniqsa, islomiy adabiyotlarni yuzaki o‘rganib, o‘rtamiyona asarlarni potirlatib yozib tashlamoqdalar, afsuski, ularning ko‘pchiligi hatto qo‘lga olishga ham arzimaydigan darajada.”*[37] Xalqaro miqyosda e’tirof etilgan olima umrining 50 yildan ko‘proq vaqtini islom dunyosini tushunishga bag‘ishlagan. Shimmel

[37] Annemarie Shimmel “Jonon mening jonimda”

islomning ko‘p jihatdan noto‘g‘ri tushunilgan tomonini, ayollarning o‘rnini o‘rganadi. “Jonon mening jonimda” nomli asari orqali barkamol, orifa ayollarni tarixda juda ko‘p bo‘lganini ko‘rsatib berdi. Bu asar 150 dan ortiq tarixiy va adabiy manbalar o‘n yildan ortiqroq muddatdagi ilmiy izlanishlar natijasida vujudga kelgan. Asar 1999-yilda olmon tilidan Yo‘ldosh Parda tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan. U so‘zboshi, kirish, 12 bob va xotimadan iborat. Olima islom dini, madaniyati va an’analarini bilmasdan bo‘hton tarqatganlarni, ayniqsa, g‘arb feministlarini tanqid qiladi. Islom madaniyatidagi muhim, ammo kam ma’lum bo‘lgan ma’lumotlarni tiklaydi.

Nasroniy olamida ham ko‘plab so‘fiy ayollar o‘tgan. Ular ham islomdagi orifalar singari o‘z hayotini Allohga bag‘ishlagan. Barcha ilohiy dinlar shuni ilgari suradiki, ayol va erkak ikki qutbdir: biri bo‘lmasa, ikkinchisi ham bo‘lmaydi. Shimmel ilohiy kitoblarda keltirilgan ayollar va turli tazkiralarda tilga olingan orifa ayollar haqidagi ma’lumotlarni yig‘ib, tahlil qiladi. U Fariddin Attorning “Tazkirat ul-avliyo”, Abdurahmon Jomiyning “Nafahot un-uns” hamda Ibn Arabiy va Jaloliddin Rumiy asarlaridan asosiy manba sifatida foydalangan.

G‘arbdagi ba’zi adabiyotlarda ayol “nafs” ramzi sifatida talqin qilinadi. Masalan, Momo Havvo Odam Attoni yo‘ldan ozdiruvchi (taqiqlangan mevani yeyishga undagan) obraz sifatida gavdalantiriladi yoki Yusuf alayhissalomning go‘zalligiga oshiq bo‘lgan Zulayho zino qilishga ham tayyor qahramon sifatida tasvirlanadi. Yuqoridagi va boshqa bir qancha ayol obrazlari qatnashgan voqealar keltirilganda, ular ko‘pincha to‘liq tahlil qilinmaydi, yuzaki va noto‘g‘ri tushuniladi. Shimmel o‘z asarlarida mana shunday voqealarni taqdir va sinov tushunchalari orqali tahlil qilgan. Ba’zi insonlar boshqa bir inson uchun sinov sifatida yuboriladi, sinov esa taqdirdir. Islomdagi ayollar haqida so‘z yuritilganda, dastlab payg‘ambar ayollari va qizlari tilga olinadi. Shimmel ham bu asarni aynan Muhammad sollallohu alayhi vasallam yashagan davrdagi ayollar tarixini keltirishdan boshlaydi. Payg‘ambarimizning birinchi rafiqasi Xadicha roziyallohu anho Makka shahrining eng boy savdogarlaridan biri bo‘lgan. Oysha roziyallohu anho sahobalar bilan birga din va shariat masalalari muhokama etilgan majlislarda ishtirok etgan. Sahoba Hishom ibn Urva otasidan rivoyat qilgan hadisda otasi: “...Ummul mo‘minin (mo‘minlarning onasi) Oishadan ko‘ra she’rni, tibni (tibbiyotni), lug‘atni, fiqh (huquq)ni biluvchiroq xotinni ko‘rmadim”, — deydi. (Abu Lays Samarqandiyning “Bo‘ston ul-orifiyn” asari, 42-bet). Bundan tashqari, u payg‘ambarimizning shaxsiy hayotiga doir juda ko‘p qimmatli ma’lumotlarni yetkazgan. Ummi Osiyo esa payg‘ambarimiz bilan birga g‘azotlarda ishtirok etib, yaradorlarga hamshiralik qilgan. Yuqoridagi payg‘ambar ayollarini e’tiborga olmasdan, islomdagi ayollarning o‘rni haqida xulosa chiqarish noto‘g‘ridir. Nasroniylik dinida Allohga yaqinlashish yo‘li rohiblik deb ataladi. Rohiblar dunyodan kechib, oila qurmay, butun umrini ibodatga bag‘ishlaydi. Rohiblar

uchun tarkidunyochilik muhim faoliyat hisoblangan. Shu sababdan ular Muhammad payg‘ambarimizning ko‘p ayollarga uylanganligini qabul qila olmaydi. Hammaga ma’lumki, u zot o‘sha davrda eri urushda vafot etgan yoki himoyasiz qolgan ayollarga yordam berish maqsadida uylangan. Shuni ham ta’kidlash kerakki, islom — mo‘tadillik dinidir. To‘g‘ri, olima islom diniga e’tiqod qiluvchi ayrim hududlarda qizlar ortiqcha yuk sifatida tiriklayin ko‘mib yuborilganini eslab o‘tadi. Ammo bu voqealar johiliya davrida, ya’ni islom dini tarqalishidan avval sodir bo‘lganligini alohida ta’kidlaydi.

Asarning 3-bobi so‘fiy ayollarga bag‘ishlangan. Bobda Robiya Adaviyadan boshlanib to ismi noma’lum “ko‘plab erkaklardan ustun” so‘fiy ayollar haqida ma’lumot keltiriladi. Dastlab sharq mumtoz adabiyotida muhim o‘rin egallagan Robiya Adaviya haqidagi rivoyatlar kelgan:

U dunyoning barcha lazzatlaridan voz kechishga undaydigan tarkidunyochilikning so‘fizmga aylanishida asosiy, hal etuvchi rol o‘ynagan ayoldir. [38]

Uning bir qo‘lida mash’ala, bir qo‘lida chelak ko‘tarib yurganligi haqidagi rivoyat nasroniy dunyosida ham mashhur ekanligini ta’kidlash joiz. Bundan tashqari, Fariddin Attor “Tazkirat ul-avliyo”, Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” tazkiralarida avliyolar qatorida tilga oladi. Hatto, Robiya Adaviyaning ba’zi fikrlari xalq orasida aforizmga aylanib ketgan. U barcha manbalarda *“erkaklar boshidagi oltin toj”*[39] kabi tasvirlanadi. Robiya ibratli faoliyati, halol-pokligi, karomatgo‘yligi bilan avliyolik darajasiga erishgan. U Iroqning Basra shahrida kambag‘al oilada tug‘ilgan. Ota-onasi u tug‘ilganda o‘rashga bir parcha mato ham topa olmagan ekan. Oila ruhan tushkunlikka tushib qoladi. Shunda Robiyaning onasi tush ko‘radi. Tushida Rasullulloh “g‘am chekmasligini, qizi sayyidalardan ekanini” aytib onani hotirjam qiladi.

Yana bir so‘fiy ayol Robiya Adaviyaning dugonasi Maryam Basriya to‘g‘risida ma’lumot keltirilgan. U ishq ishtiyoqida (ekstas holatida) jon taslim etgan. Navoiy ham tazkirasida, bir majlisda muhabbat haqida so‘zlashar ekan vafot etganini yozgan: *“...bir majlisda muhabbat so‘zi o‘tar ermish. Chun so‘z muassirroq tushubdur, yuraki yorilib, jon beribdur. Ul debdurki, hargiz ro‘ze g‘ami yemadim va aning talabig‘a ranj tortmadim.”*[40] Uning so‘nggi so‘zlaridan ham ko‘rish mumkinki, Maryam Basriya Allohning yaqin insonlaridan bo‘lgan.

Annemarie Shimmel Bahriya al-Mauzuliya nomini yig‘lay-yig‘lay ko‘zlari ko‘r bo‘lib qolgan so‘fiy ayol deya tilga olgan ya’ni u ko‘zi ko‘r, ammo ko‘ngil ko‘zi ochiq inson bo‘lgan. Navoiy tazkirasida Basralik Ufayrai Obida aynan shunday qismat egasi sifatida ko‘rsatiladi: *“Ul Basra ahlidindur. Tengri qo‘rqunchidin*

[38] Annemarie Shimmel “Jonon mening jonimda”
[39] Muhammad Zehniy “Mashohir an-niso”
[40] Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”

ancha yig‘ladiki, ko‘zlari ko‘rmas bo‘ldi.”[41] U jismoniy ko‘rlikdan ko‘ra ma’naviy ko‘rlik ya’ni ko‘ngil ko‘rligi qo‘rqinchliroq ekanini ta’kidlagan.

Yuqoridagi fikr orqali shuni anglash kerakki, yig‘lay-yig‘lay ko‘zlari ko‘r bo‘lgan so‘fiylar haqidagi rivoyatlar agiografiyada (avliyosifat kishilarning tarjimayi hollari bilan shug‘ullanuvchi fan) ko‘plab uchrashi mumkin.

Yana bir so‘fiy ayol Rayhona al-Valiya uzluksiz ravishda o‘zini yo‘qotish darajasidagi hayajon va zavqlanish holatida bo‘lgan. Rayhona qalbida Haq ishqi bo‘lgan komillik yo‘lidagi ayollardan bo‘lgan. Navoiy tazkirasida ham bu ayol keltirilgan. U Basraning ibodat qiluvchilaridan bo‘lgani, Solih Murriy ayyomiga yoqasiga baytlar bitib borganligi haqida yozgan. Bu so‘zlar orqali u ilohiy ishq haqidagi she’rlar ham yozganligini aniqlash mumkin.

Suriyalik Robiya ash-Shomiya haqida ma’lumotlarni ko‘rib chiqib uni diniy-mistik lirikaning ilk manbalarini yaratgan deya xulosa chiqargan. Rayhona va Robiya mahoratli shoiralardan bo‘lishgan. Ular Haq taolo ishqini tarannum etuvchi qo‘shiqlar kuylab turgan. Navoiy ham Robiya ash-Shomiyaning Ahmad ibn Abulhavoriy zavjasi ekanini aytib o‘tadi va Abulhavoriy tilidan Robiyaning baytlaridan na’muna keltirgan.

Shavona ismli ayol juda ko‘p ko‘z yosh to‘kishi bilan boshqalardan ajralib turgan. Barcha orifa ayollar tinimsiz ko‘z yosh to‘kib Haqqa yaqinlashgan. Olima Shimmel uning duosi mustajob ayol bo‘lganligini alohida ta’kidlab o‘tadi. Hatto, mashhur so‘fiy Fuzayl ibn Iyad “meni bir duo qilib qo‘ying” deya iltimos qilgan ekan. Imom G‘azzoliy ham u haqida bir qancha ma’lumotlar keltirgan. O‘z davrining buyuk olimlari u haqida rivoyatlarni chuqur hurmat bilan tilga olgan.

Basralik yana bir so‘fiy ayol Muoza Adaviya “vafot etgach to ro‘zi mashhargacha bo‘lgan davrdagi qabr uyqusi yetib ortadi” degan g‘oyani ilgari surib, uyqudan voz kechib toat-ibodat bilan shug‘ullanishga harakat qilgan. Navoiy uni Robiya Adaviya aqroni (tengdoshi) deb keltiradi. U kechasi uxlamay toat-ibodatda, kunduzi yemak yemay ro‘zada ekanligini yozgan. So‘fiylar shu kabi yo‘llar orqali nafslarini yengishga uringan:

Va hargiz kunduz nima yemadi va kecha uyuqlamadi. Anga dedilarki, nafsingg‘a ko‘p zarar yetkurasen. Dediki, hech zarar yetkurmaydurmen, kecha uyqusun kunduzga solibmen va kunduz yemakin kechaga![42]

Tazkiradagi boshqa ayollar ham shu g‘oyani ilgari surib yashaganliklarini ko‘rish mumkin.

Annemarie Shimmel Abdurahmon Jomiy ijodidan xabardor bo‘lgan, chunki asarlaridagi ma’lumotlardan fikrlarini dalillashda foydalangan, uning tasavvufga oid qarashlarini tahlil qilgan, Jomiyning shoh baytlaridan namunalar keltirgan:

[41] Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”

[42] Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”

Chin oshiqlar bu dunyodan bemor o‘turlar,
Ko‘p dard chekib, ishq og‘rig‘in zo‘r malham bilib.
Yor hajrida devonavash, zor-zor o‘turlar,
Va bir kuni ketishurlar yorga qo‘shilib.[43]

Lekin Jomiy bilan zamondosh bo‘lgan Navoiy haqida yoki uning asarlari haqida hech bir bobida qayd etmagan.

Shimmel Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asaridan bexabar bo‘lganligi Sari as-Soqotiy shogirdi haqida keltirgan ma’lumotlarida ham ko‘rinadi. Ikkala adib ham bir xil rivoyat keltiradi (shogird ayolning o‘g‘li cho‘kib o‘lganligi haqida). navoiy bu ayol ismini Tilmiza ekanligini yozadi, Shimmel asarida esa uning ismi noma’lum, Soqotiy shogirdlaridan biri deb ko‘rsatilgan.

Nishopurlik Fotima Robiya Adaviyadan yarim asr keyin yashagan so‘fiy ayol. Shimmel ko‘plab so‘fiy ayollar turmush qurmagan o‘zlarini Haq ishqiga bag‘ishlaganligini ta’kidlaydi, ammo turmush qurgan bandalikni ham, bekalikni ham birdek olib borgan ayol sifatida Fotimani esga oladi. Fotima taniqli so‘fiy Ahmad Qidruy zavjasi bo‘lgan. Bundan tashqari, u o‘sha davrning yetuk tasavvuf rahnamolari bilan muloqotda bo‘lgan. Misrlik murshid Zunnun bilan bo‘lgan rivoyat (Fotima tuhfa jo‘natadi, Zunnun esa olmagan voqea) va Zunnunning“Qur’on ma’nolari ilmida hech kim unga yetolmaydi” deya katta baho berganligi Navoiy tazkirasida ham o‘zgarishsiz keltirilgan.

Keyingi o‘rinlarda Ahmad ibn Abulhavoriy rafiqasi Robiya bint Ismoilni zikr etgan. Shimmel Robiya bint Ismoil bilan Robiyai Shomiyani ikki inson sifatida keltiradi, aslida bu ikkisi bir ayol. Yuqorida Robiyai Shomiya haqida Navoiy tazkirasidan keltirilgan ma’lumotlarda uning turmush o‘rtog‘i Abulhavoriy ekanini yozgan edik. Bunga qo‘shimcha sifatida Shimmel ushbu fikrni aytib o‘tadi: *Robiya bint Ismoil birinchi eri vafot etganida uning mol-mulkini oqilona sarflash maqsadida Abulhavoriy bilan ruhiy nikohda bo‘ladi. U Ahmadga “men seni er sifatida emas aka sifatida yaxshi ko‘raman” der edi.*[44]

“Nasoyim ul-muhabbat”da esa bu gaplar Abulhavoriy tilidan aytilgan:

Ahmad Abulhavoriy debdurki,Seni ayollarni sevgandek emas, birodarlik muhabbati bilan sevaman.

Ibn Arabiy xotira kitoblarida o‘ta kambag‘al yashagan Fotima bint Mutannaga shunday ta’rif bergan: “insoniyat uchun Alloh tomonidan jo‘natilgan rahm-shafqat”. Bu ayolga fotiha surasi bo‘ysundirilgan bo‘lib, U nimani duo qilib so‘rasa, shu zahoti amalga oshar ekan. U bir ayolning bevafo erini xotinini bir lahza ko‘rmasa turolmaydigan qilib qo‘ygani haqidagi rivoyat uning qanday ayol

[43] Annemarie Shimmel “Jonon mening jonimda”
[44] Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”

bo‘lganiga dalildir. Navoiy tazkirasida bu duosi mustajob ayol ismi Fotima bint al-Musanno deb keltirilgan va xuddi shu rivoyat ilova qilingan.

Ilk davrlarda erkaklar bilan bir qatorda ba’zi so‘fiy ayollar ham “zikr”larda ishtirok etishgan. Masalan, Fotima bint al-Kattoniy uch erkak va Samnun al-Muhib bilan zikr tushayotganda kuchli orziqishdan vafot etgan. “Nasoyim ul-muhabbat”da ham Fotima bint al-Kattoniy haqida aynan shu rivoyat keltirilgan. Tazkirada beshta komillik yo‘lidagi Fotima ismli ayollar zikr qilingan. Fotimai Nishopuriya, Fotimai Zaytuna, Fotima bint al-Kattoniy, Fotima bint al-Musanno, Fotima Bardaiyah. Barchasi tasavvuf bilimdonlar, Haq ishqi sohiblari bo‘lishgan.

Bu ayollar haqidagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollar hamma vaqt ijtimoiy hayotda va tasavvuf dunyosida faol bo‘lishgan. Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida ham 35 ta ayol nomi qalamga olingan. Ular ko‘plab insonlarni lol qoldirgan karomat egasi ekanliklari tasvirlab berilgan. Annemarie Shimmel “Jonon mening jonimda” asarida so‘fiylar qatorida turib ijtimoiy hayotda katta rol o‘ynagan xotin-qizlar nomlarini ham qalamga olgan. Abulxayr at-Tinoniy al-Aqtaning buvisi Uyayna yigitlar va xotin-qizlardan iborat 500 ta talabaga dars bergan. Ummi Fazl al-Harmatiya Payg‘ambarimiz s.a.v hadislarini to‘plash va ularni avloddan avlodga yetkazishda katta jonbozlik ko‘rsatgan. Marvlik ikki ayol, Karima va Xadicha al-Jahniya, “ayollar futuvvati” (jo‘mardligi) tashkilotini hamkorlikda yuritishgan. Shuxda ismli taqvodor ayol o‘z davrining mashhur xattoti bo‘lgan, hatto, o‘zining husnixatini ham yaratgan. Bibi Nishi esa ko‘zga suriladigan malham tayyorlovchi katta tabib bo‘lgan. Yuqorida keltirilgan barcha ayollar “islom dini ayollarni zanjirlaydi, ularni rivojlanishiga yo‘l qo‘ymaydi” degan fikr qanchalik xato ekanligining dalilidir.

Zero, Qur’oni Karimning 35 ta surasi va 100 dan ortiq oyatlarida ayol so‘zining ishlatilishi va suralardan biri aynan “Niso”, ya’ni “Ayollar” deb nomlanishi va unda ayolning mavqeyi, ularning hayotdagi o‘rni, haq-huquqlari batafsil bayon etilishi ayollarga bo‘lgan e’tiborning yorqin misolidir.

Ko‘rinadiki, Sharq xalqlari tarixida (VII–IX asrlarda) she’r ilmini, huquq, tibbiyot kabi ilmlarni chuqur bilgan ayollar bo‘lganligi aniq haqiqatdir. Islom dinida Muhammad s.a.v vafotidan bir necha asr o‘tib ayollarga munosabat yomon tomonga o‘zgardi, ularni bir qancha vaqt past darajaga tushirib qo‘ydi. G‘arb olimlari aynan shunday davrlarni o‘rganib chiqib xulosa chiqardi. Ular “muslima ayollarning erkinligi yo‘q” degan fikrga kelishdi. Annemarie Shimmel “Jonon mening jonimda” asarida har bir davrning yetuk ayollari tarjimayi holi, ular haqidagi rivoyatlarni keltirib islom dini hamma vaqt ayollar uchun katta imkoniyatlar berganligini ko‘rsatib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. Toshkent: Movarounnahr. 2017
2. Annemarie Shimmel. Jonon mening jonimda. Toshkent: Sharq nashriyoti. 1999
3. Навоий А. Насойим ул-муҳаббат. Нашрга тайёрловчи О.Давлатов. Toshkent: O‘zbekiston. 2015
4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. To‘rt tomlik. 1-tom. Toshkent: Fan. 1983
5. Алишер Навоий. НАСОЙИМ УЛ-МУҲАББАТ. Хикоятлар ва ҳидоятлар. “O‘zbekiston” нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2018
6. Peter Antes. Encyclopedia of Religion. 2005
7. ISLOM ENSIKLOPEDIYASI. O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 2004
8. https://share.google/1BQllGt4Z6CmVobNF
9. Quotes by Annemarie Schimmel (Author of Mystical Dimensions of Islam)
10. Olimjon Rahimov. Bibi Robiya Adaviya avliyplik maqomiga erishgan ayol edi. www.iqbol.uz
11. Cornell E. Rkia. Early Sufi Women: Dhikr an-Niswa al-Muta'bbidat as-Sufiyyat. - USA: Fons Vitae Edition, 1999

O‘ZBEK XALQ ERTAKLARINING LINGVOFOLKLORISTIK TADQIQI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY AHAMIYAT

Bozorov Hamid Xo‘shmurodovich

Termiz davlat universiteti dotsenti,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

gmail: hamidbozorov65@gmail.com

ORCID. https://orcid.org/0009-0002-1650-3801

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligining zamonaviy va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri – lingvofolkloristikaning shakllanish tarixi, nazariy-metodologik asoslari va o‘zbek xalq ertaklarini tadqiq etishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Matn markaziy obyektga aylangan hozirgi bosqichda folklor asarlarini, xususan, ertaklarni xalqning milliy dunyo manzarasi muhrlangan lisoniy arxiv sifatida o‘rganish dolzarbligi asoslangan. Tadqiqotda jahon va rus tilshunosligi

olimlarining qarashlariga tayanilgan holda, ertak matnining lisoniy strukturasi, undagi arxaik qatlamlar va tarixiy leksikaning epik ko‘lamni yaratishdagi o‘rni misollar orqali ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: lingvofolkloristika, folklor tili, xalq ertaklari, lisoniy dunyo manzarasi, arxaizmlar, tarixiy leksika, epik ko‘lam, leksikografiya.

Abstract. This article analyzes the history of formation, theoretical and methodological foundations of linguofolkloristics – one of the modern and promising branches of Uzbek linguistics – and its significance in the study of Uzbek folk tales. In the current stage, where the text has become a central object of study, the urgency of researching folklore works, particularly fairy tales, as a linguistic archive reflecting the national worldview is established. Relying on the perspectives of world and Russian linguistics scholars, the study demonstrates through examples the linguistic structure of the folk tale text, its archaic layers, and the role of historical lexis in creating an epic scale.

Keywords: linguofolkloristics, folklore language, folk tales, linguistic worldview, archaisms, historical lexis, epic scale, lexicography.

Tilshunoslik fanida matn markaziy obyektga aylanishi bilan folklor asarlarini lisoniy nuqtayi nazardan tadqiq etishga bo‘lgan e’tibor sezilarli darajada kuchaydi. Qayd etish joizki, lingvofolkloristika sohasi og‘zaki ijodi namunalarining tilini o‘rganish bilan cheklanmay, balki xalqning ma’naviy olami, mifologik tafakkuri va estetik qarashlarining tilda qanday moddiylashganini tadqiq etadi. Ertaklar bu borada eng boy manba hisoblanadi, chunki ularda tilning eng qadimiy qatlamlari bo‘lgan arxaizmlar va jonli xalq shevasi elementlari uzviy sintezlashgan bo‘ladi.

Uyg‘onish davridan boshlab XX asrning 50-yillariga qadar xalq og‘zaki ijodi namunalari, jumladan, qo‘shiqlar, afsonalar va dostonlar folklorshunoslar tomonidan to‘planib, yozma shaklga keltirildi. Ushbu sa’y-harakatlar

lingvofolkloristik yo‘nalishning asosiy obyekti bo‘lgan boy manba bazasini kelgusi avlodlarga yetkazib berdi. Biroq mazkur sohani alohida metodologik asosda tadqiq qilishga bo‘lgan qiziqish 1966-yilgi sotsiolingvistika konferensiyasi va H.Xoyenigsvaldning [8, 16-21] xalq tilini o‘rganish bo‘yicha takliflariga oid chiqishidan so‘ng rasman boshlandi. Olim o‘z ma’ruzasida folklor matnlarini tahlil qilishda faqatgina tarixiy yoki estetik yondashuv bilan cheklanib qolmasdan, balki ularni dinamik, kommunikativ va ijtimoiy-funksional nuqtayi nazardan ham ko‘rib chiqish lozimligini asoslab berdi.

XX asrning 70-yillariga kelib tilshunoslik va folklorshunoslik kabi gumanitar fanlar tutashuvida mustaqil yo‘nalish sifatida shakllangan lingvofolkloristikaning rivojlanishida A.N.Veselovskiy [3, 88], I.A.Ossovetskiy [6, 66-71] va A.T.Xrolenko [7, 19] kabi olimlarning tadqiqotlari fundamental manba bo‘lib xizmat qildi. Ushbu davrga qadar jahon tilshunosligida matallar yoki lapar kabi janrlar tili o‘rganilgan bo‘lsa-da, ular yagona terminologik apparat atrofida birlashmagan edi. Natijada olimlar lingvofolkloristikaning predmeti folklor tilini tavsiflashdan iborat ekanligini ta’kidlab, tilshunoslik o‘zining tadqiqot vositalarini yangilash zaruratini his qilayotganini ko‘rsatib berishdi.

A.Dandes tomonidan e’lon qilingan tadqiqotlar to‘plami lingvofolkloristika fanining shakllanishida muhim metodologik turtki bo‘ldi. Olim folkloriy matnlarni belgilar tizimi va inson psixikasi mahsuli sifatida tahlil qilib, ulardagi lisoniy birliklarni semantik yuklamaga ega belgilar ekanligini isbotladi [3, 279]. Har bir so‘z yoki lisoniy struktura folklorda kodlangan bo‘lib, u xalq dunyoqarashi va mentalitetining til orqali ifodasidir. Shuningdek, A.T.Xrolenko ushbu sohani etnolingvistikaning bir tarmog‘i sifatida ko‘rsatar ekan, uning o‘ziga xosligini alohida ta’kidlaydi. Etnolingvistika etnosga xos tafakkur va urf-odatlarni umumiy tarzda o‘rgansa, lingvofolkloristika bevosita folklor janrlariga xos til birliklarini tadqiq etishga ixtisoslashadi.

Sohaning rivojlanishi natijasida folklor leksikologiyasi va dialektologiyasi kabi yangi yo‘nalishlar ajralib chiqdi. G.Bogatirov [2, 510] va A.P.Yevgeniyeva [5, 353] kabi olimlarning xizmatlari tufayli folklor asarining shaxssiz tabiati va uning murakkab lisoniy impulslar mahsuli ekanligi tahlil qilindi. Bu esa lingvofolkloristika fanining nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va semiotik tahlil mezonlari bilan chambarchas bog‘liqligini dalillaydi.

O‘zbek tilshunosligida folklor matnlarining lisoniy tabiatini o‘rganish o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab izchil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllana boshladi. Bu davrda xalq og‘zaki ijodi namunalarini nafaqat adabiy meros, balki tilning tarixiy taraqqiyoti, leksik boyligi va poetik imkoniyatlarini o‘zida mujassam etgan noyob obyekt sifatida tadqiq etishga bo‘lgan ehtiyoj yuqori edi. Ko‘plab tilshunos olimlar tomonidan folklor janrlarining leksik-semantik sathlari, fonetik-fonologik qurilishi va stilistik xususiyatlari tahliliy tadqiqotlar markaziga olib chiqildi. Xususan, ertak, doston, maqol, xalq qo‘shiqlari va topishmoq kabi janrlarning til qurilishi, ulardagi badiiy tasvir vositalarining qo‘llanilish mahorati, shuningdek, ushbu birliklarning poetik va kommunikativ funksiyalari tilshunoslikning turli kesimlarida o‘rganildi. Tadqiqotlarda folklor matnlaridagi obrazlar tizimi, ularning lingvopoetik in’ikosi, personajlar nutqining o‘ziga xos ijtimoiy-uslubiy xususiyatlari, frazeologik qatlamning ifoda imkoniyatlari hamda diaxron va sinxron tahlil metodlari uyg‘unligida yoritishga harakat qilindi. Bu boradagi izlanishlar milliy tilning xalq shevalari va jonli nutq bilan aloqasini ochib berishda muhim poydevor bo‘lib xizmat qildi.

Folklorning yetakchi va eng qadimiy janrlaridan biri hisoblangan ertaklar bugungi kunga qadar, asosan, folklorshunoslik obyekti sifatida, ya’ni syujet, kompozitsiya va tipologiya nuqtayi nazaridan tadqiq etib kelindi. Biroq ertak matnining lisoniy strukturasi, undagi til birliklarining semantik transformatsiyasini lingvofolkloristik aspektda o‘rganish uchun ulkan manba bazasi mavjud bo‘lsa-da,

bu yo‘nalishdagi ishlar hali ham yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Ertak tilini lingvofolkloristikaning zamonaviy metodologik tamoyillari asosida, xalqning milliy-madaniy dunyoqarashi bilan bog‘liq holda keng qamrovli tadqiq etish bugungi o‘zbek tilshunosligining dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘zbek tilshunosligida ertak matnlarini tadqiq etishga bo‘lgan bunday ehtiyoj, birinchi navbatda, ushbu janrning lisoniy tabiatidagi o‘ziga xoslik – unda xalqning tarixiy xotirasi va jonli nutqiy jarayonlarining o‘zaro dialektik bog‘liqligi bilan izohlanadi. Lingvofolkloristik tahlil ertak matnini muayyan etnosning dunyoni anglash va uni lisoniy obrazlar orqali qayta qurish usuli sifatida baholaydi. Shu nuqtayi nazardan, ertaklardagi turg‘un epitetlar, metaforik ko‘chimlar va frazeologik birliklar milliy lisoniy dunyo manzarasining tayanch nuqtalari bo‘lib xizmat qiladi.

Ertak tilini tadqiq etishda lingvokulturologik va kognitiv yondashuvlarning ustuvorligi ushbu sohaning qamrovini yanada kengaytiradi. Chunki ertak qahramonlari tili, ularning nutqiy xulq-atvori va voqelikni ifodalash usullari zamirida xalqning asriy qadriyatlari, axloqiy mezonlari va mifologik qatlamlari yashiringan bo‘ladi. Masalan, ertak matnlaridagi lisoniy formulalarning tahlili xalqning makon va zamon haqidagi tasavvurlarini ochib berishga yordam beradi. ***“Bir bor ekan, bir yo‘q ekan”*** kabi an’anaviy boshlamalardan tortib, ***“Murod-maqsadiga yetibdi”*** kabi yakuniy xulosalargacha bo‘lgan barcha lisoniy qoliplar matnning janriy yaxlitligini ta’minlash bilan birga, milliy tafakkurning o‘ziga xosligini ifodalaydi. Bundan tashqari, ertaklarda sheva elementlarining o‘rni va ularning badiiy-estetik funksiyasini aniqlash dialektologiya va lingvofolkloristika kesishmasidagi muhim masalalardan biridir. Ertak matni o‘zining og‘zaki tabiati tufayli doimiy harakatda va o‘zgarishda bo‘ladi, bu esa o‘z navbatida til birliklarining semantik transformatsiyasiga olib keladi. Ushbu jarayonni sinxron va

diaxron kesimda o‘rganish o‘zbek tili tarixiy leksikasi va dialektal boyligini tizimlashtirishda yangi gorizontlarni ochadi.

Qayd etish kerakki, ertakning boshlanishi *(“Bir bor ekan, bir yo‘q ekan...”)* va yakuni *(“Murod-maqsadiga yetibdi...”)* oddiy kirish yoki xulosa emas, balki tinglovchini real dunyodan “ertak dunyosi”ga o‘tkazuvchi *lisoniy koddir*. Ushbu formulalar:

Vaqt va makonning mavhumligini ta’minlaydi;

Matnning janriy mansubligini belgilaydi;

Ritmik qurilish orqali matnga musiqiylik baxsh etadi.

Ertak qahramonlarining tavsifida qo‘llaniladigan lisoniy vositalar xalqning go‘zallik va xunuklik haqidagi qadimiy tasavvurlarini saqlaydi. Masalan:

Ijobiy obrazlar: *“**Oydan go‘zal, kundan charog‘on”, “Kipriklari nayza”, “Bo‘yi sarvday”.***

Salbiy obrazlar: ***“Tishi koshinday”, Og‘zilari g‘orday”, “Bo‘yi bilan enining farqi yo‘q”, “Burni hassaday”.*** Ushbu epitet va o‘xshatishlar asrlar davomida o‘zgarmasdan kelayotgan lingvistik konstantalardir.

Ertaklarda bugungi adabiy til iste’molidan chiqqan, ammo xalqning tarixiy xotirasida saqlanib qolgan so‘zlar faol qo‘llaniladi. Bu birliklar asarning etnik ruhini kuchaytiradi. Masalan, qadimiy ovchilik, chorvachilik yoki rasm-rusumlar bilan bog‘liq atamalar ertak tili orqali avloddan avlodga o‘tadi.

Ertak matnlarining lingvofolkloristik tabiatini tahlil qilar ekanmiz, undagi tarixiy leksika shunchaki o‘tmish xotirasi emas, balki asarning epik ko‘lamini ta’minlovchi dinamik lisoniy vosita ekanligini ko‘ramiz. Masalan, matnlarda uchraydigan ***sulton, xon*** yoki ***podshoh*** kabi hukmdorlik unvonlari ko‘pincha ***to‘xsoba, yasovul*** yoki ***qushbegi*** kabi ma’muriy-harbiy mansablar bilan uyg‘unlikda kelib, xalqning davlat boshqaruvi haqidagi asriy tasavvurlarini jonlantiradi. Buni *“Shundan keyin **podsho to‘xsobasini** chaqirib, bolalarga ot*

minish, ***tirandozlik,*** *qilichbozlik, ishqilib jangchiga nimaiki hunar kerak bo‘lsa, hammasini o‘rgat, debdi”* [1, 90] degan misolda ham yaqqol ko‘rish mumkin. Shuningdek, ertaklardagi ijtimoiy tabaqalanish ***boyvachcha, qarol, cho‘ri*** va ***kanizak*** kabi birliklar orqali lisoniy reallikka aylanadi. Bu so‘zlar qahramonning jamiyatdagi mavqeyini chizib berish bilan birga, syujetdagi ziddiyatlarni (masalan, ***“bo‘z bola”*** va ***“cho‘ri”*** munosabati) kuchaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, jallod, sayis, hammol yoki meshkob kabi kasb-hunar nomlari orqali personajlarning taqdiri va xarakteri ochib beriladi. Xususan, ***“Yengilib biri qarol, biri hammol, yana biri meshkob bo‘lib ishladi”*** kabi tasvirlar ertakning mantiqiy yakunini ta’minlovchi lisoniy unsurlardir. Bundan tashqari, ***darvesh, baxshi, qoqinchi*** kabi ma’naviy-madaniy hayot vakillarining tilda aks etishi o‘zbek ertaklarining milliy-etnik ruhini yanada yorqinroq namoyon etadi. Hatto ***munshivasiqa*** (rasmiy hujjat yozuvchi) yoki ***giranda*** (nazorat qiluvchi) kabi kam qo‘llaniladigan tarixiy atamalarning matnga singib ketishi, ertak tilining o‘z davri ijtimoiy institutlari bilan naqadar uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Har bir millatning tili dunyoni o‘ziga xos tarzda “chizadi”. O‘zbek ertaklarining lingvofolkloristik tahlili milliy dunyo manzarasining quyidagi qirralarini ochadi:

Tabiat hodisalarining insoniylashtirilishi (gapiruvchi hayvonlar, jonvorlar, yordamchi vositalar).

3, 7, 9, 40 raqamlarining tilda muqaddaslashtirilishi va ularning matn qurishdagi o‘rni.

“Andisha”, “Himmat”, “Sadoqat” kabi tushunchalarning qahramonlar nutqi va harakat-fe’llari orqali ifodalanishi.

Ertak matnini lingvofolkloristik tadqiq qilishda quyidagi ketma-ketlikka amal qilish maqsadga muvofiq:

Ertak matnidagi badiiy tasvir vositalarini aniqlashda lisoniy birliklarning matn ichidagi ko‘chma va ramziy ma’nolarini ochish, til birligini milliy madaniyat va urf-odatlar bilan bog‘liqlikda tushuntirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Lingvofolkloristik tadqiqotlar natijasida qo‘lga kiritilgan ilmiy xulosalar nafaqat nazariy tilshunoslik uchun, balki qator amaliy sohalar rivoji uchun ham poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotlar doirasida aniqlangan ertak matnining lisoniy qonuniyatlari va tarixiy qatlamlari quyidagi yo‘nalishlarda keng ko‘lamda qo‘llanilishi mumkin:

Leksikografiya sohasida lingvofolkloristik tahlillar “Folklor tili izohli lug‘ati”ni yaratish uchun asosiy manba hisoblanadi. Bugungi kunda iste’moldan chiqqan, ammo xalq og‘zaki ijodida faol yashayotgan arxaizmlar, sotsial tabaqalanishni ifodalovchi tarixiy birliklar va dialektal so‘zlarning matn ichidagi ma’no qirralarini ochib berish leksikografiyaning muhim vazifasidir. Bunday lug‘atlarda so‘zning shunchaki lug‘aviy ma’nosi emas, balki uning ertak syujetidagi mifologik va estetik yuklamasi ham sharhlanadi. Bu esa tilshunos va adabiyotshunoslar, shuningdek, keng kitobxonlar ommasi uchun folklor matnlarining ichki mazmunini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Lingvodidaktika yo‘nalishida ushbu tadqiqotlar natijalari maktab darsliklari va o‘quv qo‘llanmalarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Ona tili va adabiyot darslarida milliy qadriyatlarni, xalqning o‘ziga xos dunyoqarashini quruq nasihatlar orqali emas, balki jonli til birliklari va ertaklardagi lisoniy obrazlar orqali o‘rgatish samaraliroqdir. Lingvofolkloristik tahlillar yordamida ajratib olingan matn namunalari o‘quvchilarda milliy lisoniy dunyo manzarasi haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi, ularning so‘z boyligini boyitadi va tilimizning tarixiy ildizlariga bo‘lgan hurmatini oshiradi.

Raqamli gumanitar fanlar bugungi kunning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu sohada folklor matnlarining lingvistik korpusini yaratish alohida

ahamiyatga ega. Lingvofolkloristik tadqiqotlar natijasida shakllantirilgan tizimli ma’lumotlar asosida ertak matnlarini avtomatik tahlil qilish, ulardagi takrorlanuvchi lisoniy formulalarni statistik aniqlash va janriy xususiyatlarni raqamli formatda tasniflash imkoniyati tug‘iladi. Bu kabi elektron platformalar nafaqat o‘zbek folklorshunosligini xalqaro ilmiy makonga integratsiya qiladi, balki qadimiy matnlarni saqlash va ularni kompyuter lingvistikasi metodlari yordamida qayta ishlashda yangi bosqichni boshlab beradi.

Xulsa qilib aytganda, lingvofolkloristika o‘zbek tilshunosligining mustaqil tarmog‘i sifatida xalq og‘zaki ijodi namunalarini yangicha, tizimli rakursda tadqiq etish imkonini beradi. Ertak matnlari tilning qadimiy qatlamlari, sotsial tabaqalanishni ifodalovchi tarixiy birliklar va milliy mentalitet kodlari jamlangan ulkan lisoniy xazinadir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, lingvofolkloristik tahlil metodologiyasi an’anaviy folklorshunoslik va tilshunoslik chegaralarini kengaytirib, ularni yagona semiotik tizimga birlashtiradi. Ertak formulalarining lisoniy tabiatini o‘rganish orqali xalqning makon va zamon haqidagi qarashlarini ochish, tarixiy leksika tahlili orqali esa o‘tmish boshqaruvi va kasb-hunar madaniyatini qayta tiklash mumkin. Ushbu sohadagi izlanishlarning amaliy ahamiyati beqiyosdir. Ertak matnlarini lingvofolkloristik o‘rganish o‘zbek tili tarixiy taraqqiyotini tadqiq etish va milliy madaniy merosimizni zamonaviy texnologiyalar yordamida kelajak avlodlarga yetkazishning eng samarali yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Афзалов. М.И. Ойжамол. Ҳаётий эртаклар. Иккинчи китоб. – Тошкент: Ғ.Ғулом, 1969. – 173 б.

2. Богатырев П. Г. Вопросы теории народногс искусства. – Москва: Издлтшльство искусство, 1971. – 510 с.

3. Веселовский А.Н. Избранное: Историческая поэтика. – Санкт-Петербург: Университетская книга, 2011. – 687 с.

4. Дандес А. Фольклор: семиотика и/или психоанализ: Сб. ст. Пер. с англ.; Сост. А.С.Архипова. – Москва: Вост. лит., 2003. – 279 с.

5. Евгеньева А.П. Очерки по языку русской устной поэзии в записях XVII-XX вв. – Москва. Издлтшльство академии наук СССР, 1963. – 353 с.

6. Оссовецкий И.А. О языке русского традиционного фольклора // Вопросы языкознания. 1975. № 5. – С. 66-77.

7. Хроленко А.Т. Введение в лингвофольклористику: учебное пособие. – Москва: Флинта Наука, 2010. – 152 с.

8. Hoenigswald H.A. Proposal for the study of folk-linguistics, in: William Bright (ed.), Sociolinguistics. – London: The Hague: Mouton, 1966.

TURKIY YOSHLARNING LINGVISTIK IDENTITETINI SHAKLLANTIRISHDA ALIFBONING ROLI

Shaxnoza Jumanova
Qo‘qon universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (O‘zbekiston).

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot Turkiy davlatlarning yoshlari o‘rtasida umumiy alifboni ommalashtirishning eng muhim va samarali usullarini aniqlash hamda ularning amaliyotga tadbiq etish imkoniyatlarini tahlil qilishdan iboratdir. Tadqiqot davomida ilmiy manbalar qiyosiy tahlili, ijtimoiy so‘rovlar, mutaxassislar fikrini baholash usuli, kuzatuvlar hamda raqamli metodlar asosidagi tahlillar qo‘llanildi. Bundan tashqari, yoshlarning ma’naviy-madaniy an’analar tizimi, ijtimoiy aloqaga bo‘lgan ehtiyojlari va virtual makonda o‘zaro munosabatlar o‘ziga xosliklari chuqur o‘rganishga harakat qilindi.

Ushbu izlanishning ilmiy yangiligi shundan iboratki, birinchi marta Turkiy dunyo yoshlari orasida yagona alifboni tatbiq etishning tizimli yondashuvi ishlab chiqilgan bo‘lib, u an’anaviy va zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlarining uyg‘unlashuvini nazarda tutadi. Maqolada yoshlarning psixologik holatlariga yo‘naltirilgan interfaol o‘quv dasturlari, mobil dasturlar, ijtimoiy tarmoqlar hamda raqamli platformalardan foydalanishning o‘ziga xos shakllari taklif etilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yoshlar o‘rtasida umumiy alifboni targ‘ib etishda qat’iy boshqaruv usullaridan ko‘ra ularni ruhlantirish va ijodiy faoliyatga undash, Gamifikatsiya (ya’ni o‘yin mexanizmlarini o‘quv jarayoniga tatbiq etish) hamda raqamli kommunikatsiya strategiyasida ijtimoiy media trendlarini qo‘llash samaraliroq hisoblanadi. Xususan, onlayn material tayyorlashda ularning dunyoqarashida aks etgan qadriyatlar tizimi, estetik didi hamda kommunikativ salohiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, Turkiy davlatlarning yoshlari o‘rtasida umumiy alifboni ommalashtirishda yoshlarning faol ishtirokini rivojlantiruvchi va ularning ijodkorlik imkoniyatlarini belgilovchi vositalarning qo‘llanilishi zarur ekanligi ta’kidlab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: umumiy alifbo, ommalashtirish, samarali usullar, raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar, madaniy integratsiya.

Abstract. This study aims to identify the most important and effective methods of popularizing a common alphabet among the youth of the Turkic countries and analyze the possibilities of their practical implementation. During the study, a comparative analysis of scientific sources, social surveys, expert opinion assessment methods, observations and analysis based on digital methods were used. In addition, an attempt was made to deeply study the system of spiritual and cultural traditions of young people, their needs for social communication and the specifics of their interaction in virtual space.

The scientific novelty of this study is that for the first time a systematic approach to the implementation of a single alphabet among the youth of the Turkic world has been developed, which involves the combination of traditional and modern information and communication systems. The article proposes specific forms of using interactive educational programs, mobile applications, social networks and digital platforms aimed at the psychological state of young people.

The results of the study showed that in promoting the common alphabet among young people, it is more effective to use motivation and creative activities, gamification (i.e., the application of game mechanisms to the learning process), and social media trends in digital communication strategies than strict management methods. In particular, when preparing online materials, it is important to take into account the value system reflected in their worldview, aesthetic taste, and communicative potential. In general, it is emphasized that in popularizing the common alphabet among young people in the Turkic countries, it is necessary to use tools that develop the active participation of young people and determine their creative potential.

Keywords: common alphabet, popularization, effective methods, digital platforms, social networks, cultural integration.

Turkiy davlatlarning birlashmasi o‘zining ma’naviy, ijtimoiy hamda filologik jihatdan bir-biri bilan ajralmas bog‘liq bo‘lsa-da, ularning yozma ifoda shakllaridagi farqlar o‘zaro axborot almashinuvi hamda madaniy almashinuvni cheklanishiga sabab bo‘lib kelmoqda. So‘nggi yillarda Turkiy xalqlarning umumiy yozuv tizimini yaratish tashabbusi tobora keng muhokama qilinmoqda, ammo ushbu fikrni amalga oshirish, ayniqsa turkiy xalqlarning yoshlari orasida yagona alifboni targ‘ib qilish masalasi hanuz dolzarbligicha qolmoqda.

Turkiy davlatlarning yoshlari miqyosida umumiy bo‘lgan alifboni ishlab chiqish hamda uni keng targ‘ib etish yuzasidan bir necha muammoli holatlar ko‘zga tashlanmoqda: xususan, ko‘plab davlatlarda amalda bo‘lgan lotin alifbolaridagi mavjud yozuv belgilarining turlicha ifodalanishi; ikkinchidan, yoshlarning umumiy alifboni o‘rganishning muhim ekanligi yuzasidan bilimlarining mukammal shaklga ega emasligi; bundan tashqari, o‘qitish uchun mo‘ljallangan adabiyotlar hamda pedagogik yondashuvlarning ma’lum bir me’yorga ega emasligini aytib o‘tish joiz.

Hozirgi globallashgan dunyoda turkiy davlatlar yoshlari o‘rtasida umumiy bo‘lgan alifboni keng yoyishning samarali vositalarini ishlab chiqish asosan til jihatidan, balki ijtimoiy-ma’naviy va iqtisodiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu tadqiqot turkiy mamlakatlar yoshlari o‘rtasida yagona bo‘lgan alifboni keng targ‘ib qilishning innovatsion tizimlari hamda ularning ijobiy natijalarini o‘rganishga qaratilib, mavjud masalani hal etishga yo‘naltirilgan amaliy yechimlarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Turkiy mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlik jarayonida yagona bo‘lgan alifboni ommalashtirish millatlararo ma’naviy va madaniy hamjihatlikni mustahkamlash, yoshlar o‘rtasidagi muloqot hamda o‘zaro aloqalarni rivojlantirish, bundan tashqari, ilmiy bilimlarni bo‘lishish va hamkorlikdagi loyihalarni bajarish imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Turkiy xalqlarning madaniy va tarixiy aloqadorligi hamda lingvistik nuqtai nazardan qardoshligi millatlar orasida ma’naviy va axloqiy hamkorlikni samarali va keng rivojlanish imkoniyatini taqdim etadi. Ammo, alifbo va yozuv tizimi o‘zgarishlari turli xil davrlar natijasida o‘zgarib kelgan yozuv tizimlari ushbu imkoniyatlardan keng foydalanishga qiyinchilik holatlarini yuzaga kelishiga sabab bo‘lib kelmoqda. Bugungi globallashuv asrida turkiy davlatlar yoshlari orasida yagona alifboni keng yoyish masalasi faqat til nuqtai nazaridan, balki strategik nuqtai nazardan muhim bo‘lib, mavjud milliy va umumiy bo‘lgan qadriyatlarni saqlash, ularni o‘zaro anglashuvni kuchaytirish hamda ilm va tajribalarni almashinuvini takomillashtirishning asosiy vositasiga aylangan.

Tadqiqotdan ko‘zlangan asosiy maqsadimiz - Turkiy xalqlarning yoshlari orasida yagona bo‘lgan alifboni keng yoyishning zamonaviy va o‘ziga hos usullarini ishlab chiqish hamda ularning tatbiqiy jihatlarini o‘rganishdan iborat.

Ushbu tadqiqotda quyidagi vazifalarni o‘z oldimizga maqsad qilib olganmiz: Turkiy millatlarda amalda faoliyatda bo‘lgan lotin yozuvi asosidagi alifbolar hamda ularning solishtirma tahlil orqali o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlash; Turkiy mamlakatlarning yoshlari orasida yagona bo‘lgan alifboni keng joriy etish jarayonidagi mavjud til nuqtai nazaridan, ta’limiy va psixologik muammolarni hisobga olish; xalqaro miqyosdagi tajriba asosida zamonaviy raqamli vositalar, interfaol metodlar va yangi pedagogik yondashuvlarni o‘rganish; Turkiy mamlakatlar yoshlari uchun yagona bo‘lgan alifboni o‘rganishga mo‘ljallangan integratsiyalashgan ta’lim resurslari va o‘quv materiallarini ishlab chiqish takliflarni tizimli tarzda shakllantirish; umumiy alifboni keng yoyish mavzusidagi hamkorlikning ishlash tizimlari va birgalikdagi ta’lim dasturlarini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish. Ushbu tadqiqotimiz natijasida taklif etilayotgan yondashuvlar turkiy dunyo yoshlari orasida lingvistik va madaniy almashinuvni bundanda takomillashtirishga, qolaversa, turkiy xalqlarning ma’naviy hamjihatlikka erishishga ma’naviy yoki amaliy hissa berishi kutilmoqda.

Turkiy mamlakatlarning yoshlari o‘rtasida yagona bo‘lgan alifboni keng targ‘ib qilish masalasi so‘nggi o‘n yillikda shiddat bilan rivojlangan keng yo‘nalishli ilmiy izlanish doirasiga aylangan. Ushbu mavzu doirasida turkiy xalqlarning ko‘plab tadqiqotchi olimlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavzu asosan tilshunoslik, ta’lim, texnika va siyosat nuqtai nazaridan o‘rganilmoqda.

Mavjud holatni lingvistik jihatdan, Karimov o‘zining tadqiqoti davomida turkiy tillardagi grafik va fonetik qiyosiy tahlilga alohida e‘tibor qaratadi va “turkiy fonologik makon” tushunchasini ilmiy muomalaga kiritadi.[1.35] Ta’limiy nuqtai nazaridan N.Abdullayeva turkiy mamlakatlar o‘quv dasturlaridagi konvergent va divergent elementlarni chuqur tahlil qilgan.[2.69] Texnologik yondashuvlar doirasida A.Doğanning olib borgan tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir. Olim o‘zining olib borgan tadqiqoti mobaynida sun’iy intellekt vositasidagi mobil ilovalarning til o‘zlashtirish samaradorligi haqida qimmatli ma’lumotlarni taqdim etgan.[3.92] Xalqaro hamkorlik doirasida Tanagawa tomonidan o‘tkazilgan qiyosiy tahlil yozuv normalarini isloh qilishning mintaqaviy integratsiyadagi o‘rnini yoritishda muhim manba hisoblanadi.[4.112,117]

Mavzuning keng o‘rganilganiga qaramasdan, ayrim sohalarda jiddiy tadqiqot bo‘shliqlari saqlanib qolgan. Masalan, til va psixologik komponentlarning uyg‘unligi muammolari, raqamli o‘zgarish va moslashuv qiyinchiliklari masalalari, ijtimoiy va madaniy xususiyatlar, institutsional salohiyatdagi yetishmovchiliklar, Moliyaviy va iqtisodiy omillar, yangi metodik yondashuvlar.

Sanab o‘tilgan bo‘shliqlarni hisobga olgan holda, ushbu tadqiqot turkiy davlatlar yoshlari o‘rtasida umumiy alifboni joriy etishning zamonaviy

yondashuvdagi modelini taklif qilishga qaratilgan bo‘lib, u mavjud va innovatsion usullarni integratsiyalashuvga yo‘naltirilgan.

Ushbu tadqiqotning asosiy ilmiy yangiligi shundan iboratki, birinchi marta “Transmilliy lingvistik adaptatsiya modeli” (TLAM) asosida turkiy mamlakatlar yoshlari uchun yagona bo‘lgan alifboni ommalashtirishning keng qamrovli yondashuv taklif etilmoqda. Ushbu model quyidagi o‘ziga xos jihatlar bilan tavsiflanadi:

Dinamik grafik o‘zaro bog‘lanish tahlili - turli turkiy tillarda mavjud alifbolardagi grafik belgilar tizimining o‘zaro munosabatini Matematik yondashuv yordamida o‘rganish (mavjud ilmiy adabiyotlarda hali ko‘rib chiqilmagan);

Til va psixologik rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash mexanizmi - yangi alifboni egallash jarayonida uchrashi mumkin bo‘lgan kognitiv qarama-qarshilikni bartaraf etishning zamonaviy yo‘llari;

Mobil neyro-lingvistik interfeys - sun’iy intellekt neyron tarmoqlari asosida individual rivojlanishga yo‘naltirilgan o‘qitish dasturini taklif qilish;

Madaniyatlararo motivatsiya indeksi - turli madaniyatlar vakillari uchun eng samarali rag‘batlantirish strategiyalarini aniqlash;

Lingvistik ma’lumotlarni raqamli xaritalash - raqamli xaritalarni modellashtirish usullari yordamida ommaviy alifboni keng targ‘ib qilish darajasini tahlil qilish.

Yuqoridagilarga qo‘shimcha sifatida amaliy jihatdan:

TURKSOY va boshqa mintaqalararo hamkorlik tashkilotlari faoliyati uchun o‘quv-metodik qo‘llanma, ta’lim tashkilotlari uchun o'quv muassasalari uchun kompleks o‘quv dasturi, millatlararo hamkorlik qilish dasturini amaliy joriy qilish.

Yuqorida sanab o‘tilgan ilmiy yangiliklar faqat turkiy davlatlar uchun emas, balki boshqa hududlar faoliyati uchun ham amalga tadbiq etilishi mumkin bo‘lgan zamonaviy yondashuvni targ‘ib etadi.

Ushbu tadqiqotda keng qamrovli metodologik yondashuv qo‘llanildi, quyidagi usullar integratsiyalashgan holda qo‘llandi:

Qiyosiy-tahliliy usul - turli turkiy mamlakatlar (O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Turkiya) alifbolaridagi grafik, fonetik va morfologik xususiyatlarni solishtirish.

Eksperimental usul – yuqorida nomi keltirilgan 5 turkiy davlatning 18-25 yoshli 1000 nafar yoshlari ishtirokida 7 oy davomida olib borilgan ta’limiy eksperiment.

Ijtimoiy so‘rov - 5 ballik Likert shkalasi asosida motivatsiya, qiyinchiliklar va imkoniyatlarni o‘rganish.

Statistik tahli - SPSS 25 dasturida ANOVA, korrelyatsiya va regressiya tahllari.

2. Transmilliy lingvistik adaptatsiya modeli (TLAM) asosida olingan natijalar

2.1. Dinamik grafik interferensiya tahlili natijalari

Olib borilgan faoliyat davomida turkiy alifbolardagi mavjud 34 asosiy grafik belgilar tahlil qilindi, ular quyidagi natijalarni qayd etdi: Grafik o‘zaro ta’sir darajasiga ko‘ra: 23% (O‘zbekiston-Qozog‘iston); Tovush jihatidan moslik darajasiga ko‘ra: 67% (O‘zbekiston-Qirg‘iziston); So‘z shakllari uyg‘unligi: 71% (barcha turkiy tillar uchun).

1-jadval. Ayrim turkiy alifbolar qiyosiy tahlili

Parametr	**O‘zbek**	**Qozoq**	**Qirg‘iz**	**Turk**	**Ozarbayjon**
Umumiy belgilar	26	28	29	27	25
Maxsus belgilar	8	6	5	7	9
Interferensiya %	0	23	18	15	12

2.2. Psixolinguistik nazorat mexanizmlarining samaradorligi

Eksperimental guruhda psixolingvistik profilaktika mexanizmi qo‘llanildi, natijada:Kognitiv dissonans darajasi: 42% ga kamaydi, o‘zlashtirish tezligi: 67% ga oshdi, motivatsiya darajasi: 3.2 balldan 4.5 ballga ko‘tarildi.

2.3. Sun’iy intellekt neyron tarmoqlari asosida individual rivojlanishga yo‘naltirilgan dastur natijalari

Shaxsiy yondashuv asosidagi o‘rganish tezligi: 89% samaradorlik, manbalarnii esda qolishi: 76% (an'anaviy usullarga nisbatan 34% yuqori), vaqtni samarali boshqarish: 45% (kuniga 1.5 soat)

Madaniyatlararo motivatsiya indeksi tahlii

Tadqiqotimiz davomida yuqoridagi 5ta turkiy davlatlarning yoshlari uchun optimal motivatsion strategiyalar aniqlandi:

2-jadval.Madaniyatlararo motivatsiya indeksi

Davlat	**Material manfaat**	**Karyeraviy istiqbol**	**Madaniy identifikatsiya**	**Ijtimoiy status**
O‘zbekiston	4.2	4.5	4.8	3.9
Qozog‘iston	4.0	4.7	4.5	4.1
Qirg‘iziston	3.8	4.3	4.6	3.7

Davlat	Material manfaat	Karyeraviy istiqbol	Madaniy identifikatsiya	Ijtimoiy status
Turkiya	4.1	4.4	4.3	4.2
Ozarbayjon	4.3	4.6	4.7	4.0

Lingvistik ma’lumotlarni raqamli xaritalash

Raqamli kartografiya usullari yordamida 7 oylik monitoring natijalari:Ommalashuv darajasi: dastlabki 34% dan 78% ga koʻtarildi; faol foydalanuvchilar soni: 45 000+ yosh, hududiy qamrov: 87% (shahar), 65% (qishloq).

Taklif etilayotgan innovatsion yondashuvlarning samaradorligi

Oʻquv jarayonini oʻyin elementlari bilan boyitilgan platform - faollik darajasi: 92%, davomiylik: 78% (4 oydan ortiq), tavsiya qilish darajasi: 4.7/5.0

Qisqa interaktiv oʻquv moduli

Kundalik faollik: 15-20 daqiqa, oʻzlashtirish: 89%, takrorlash darajasi: 67%.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, taklif etilayotgan TLAM modeli mavjud usullarga nisbatan koʻzga tashlanadigan darajada ustunlikka ega. Taklif etilgan modelning asosiy ustunligi - uning koʻp komponentlilikda hamda koʻplab sohalarni qamrab olishidadir.

Grafik tasvirlarning dinamik oʻzaro ta’siri tahlili orqali turkiy alifbolar orasidagi moslik va tafovutlarni aniq belgilash imkoni yaratildi. Ushbu tahlil shuni koʻrsatdiki, grafik tasvirlar uygʻunligi darajasi 27% atrofida boʻlib, ushbu raqam dastlabki taxminlardan (35-40%) pastroq chiqdi. Bu holat turkiy tillardagi Grafik elementlar oʻzaro yaqinligining tahmin qilinganidan ham yuqori ekanligini koʻrsatadi.

Eksperimental guruhda kuzatilgan idrokiy nomuvofiqlikning 42% ga kamayishi, yangi umumiy alifboni qabul qilishda kognitiv-lingvistik omillarining qanchalik ahamiyatini belgilab beradi. Bu natija Abdullayeva hamda Karimovaning olib brogan tadqiqotlarida keltirilgan psixolingvistik profilaktikaning samaradorligi haqidagi dalillarni[1,2.44,75] mustahkamlashga yordam beradi.

Mobil neyrolingvistik aloqa tizimi orqali erishilgan 89% samaradorlik natijasi, zamonaviy texnologiyalarning til oʻrgatishda muhim vazifani bajarishini isbotlaydi. Ushbu natija tadqiqotchi Doğan tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalarini isbotlaydi.

Madaniyatlararo motivatsiya indeksi tahlili shuni koʻrsatdiki, koʻplab turkiy mamlakatlar yoshlari uchun ragʻbatlantirish yondashuvlari turlichadir. Masalan,

O‘zbekiston yoshlari uchun madaniy o‘zlikni shakllantirish (4.8 ball) eng muhim omil hisoblansa, Qozog‘iston yoshlari uchun kasbiy rivojlanish yo‘li (4.7 ball) ustunlik qiladi.

Tadqiqotimiz natijasida shunga guvoh bo‘ldikki, TURKSOY va Turkiy davlatlar birlashmasi kabi mintaqaviy tashkilotlarning faol ishtiroki umumiy alifboning ommalashtirish samaradorligi natijasini 40% gacha oshirishi mumkin. Bu tadqiqotchi Öztürk tomonidan keltirilgan mintaqaviy hamkorlikning ahamiyati haqidagi fikrlarni tasdiqlashga yordam beradi.

Olib borilgan tadqiqot jarayonida ayrim qiyinchilikli holatlar ham kuzatildi: ba’zi hududlarda internet infratuzilmasining muammoli holatlari (yetarli emasligi – asosan chekka qishloq hududlarida). Mintaqalar o‘rtasidagi **madaniyatlararo tafovutlar -** turli hududlarda ta’lim metodlaridagi farqlar. **Moliyaviy va moddiy resurslarning yetishmasligi -** ta’lim resurslarining cheklanganligi.

Tadqiqot natijalariga asoslangan holda ayrim taklifli mulohazalar ishlab chiqildi:

Qisqa muddatli takliflar (6-12 oy): TLAM asosida pilot loyihalarni amaliyotga tatbiq etishni kengaytirish, ushbu mobil ilovani barcha turkiy tillarga moslashtirish.

O‘rta muddatli takliflar (1-2 yil): hududiy pedagoglarni tayyorlash markazlarini tashkil etish, ko‘p komponentli o‘quv dasturlarini ishlab chiqish

Uzoq muddatli takliflar (3-5 yil): Doimiy ravishda nazorat tizimini joriy qilish, xalqaro miqyosdagi sertifikatlash tizimini ishlab chiqish.

Bajarilgan tadqiqot quyidagi nazariy jihatlarni ham amalga oshiradi: xalqaro lingvistik moslashtirish nazariyasini ishlab chiqish, madaniyatlararo motivatsiya indeksi kontseptsiyasini taklif etish, onlayn lingvistik ekotizim modelini shakllantirish.

Erishilgan tadqiqot natijalari quyidagi sohalarda amaliy qo‘llanilishi bilan ahamiyatli hisoblanadi - ta’lim modullarini rivojlantirish, maxsus pedagoglarni shakllantirish, tilni rivojlantirish siyosatini ishlab chiqish, hududlararo aloqa dasturlarini yaratish, mavzu doirasida raqamli platformalar yaratish hamda mavzu doirasida mukammal mobil ilovalarni ishlab chiqish.

Ishlab chiqilgan “Transmilliy lingvistik adaptatsiya modeli” asosida olib borilgan yuqoridagi tadqiqot natijalari shuni isbotladiki, turkiy mamlakatlarning yoshlari orasida yagona bo‘lgan alifboni keng ommalashtirishning samaradorligi 89% darajasigacha yetishi mumkin. Ushbu modelning ijobiy yutug‘i uning kompleks holda ishlab chiqilganligida – til jihatidan, psixologik nuqtai nazardan, texnologik hamda madaniy jihatlarni birikuvida namoyon bo‘ladi. Interaktiv platformalar, mobil dasturiy ta’lim resurslari va o‘yinlashgan o‘qitish metodlari yordamida alifboni o‘zlashtirish jarayoni 3,2 baravar tezlashdi, aqliy qarama-qarshilik 42% ga kamaydi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, turkiy millatlarning yoshlari orasida yagona bo‘lgan alifboni keng targ‘ib etish nafaqat til birligini, balki

madaniy, ma’naviy hamda pedagogik yaqinlashuvni yaratib beruvchi kuchli manba sanaladi. Kelajakda ushbu taklif etilgan model asosida hududiy hamkorliklarnini yanada rivojlantirish, integratsiyalashtirilgan raqamli ta’lim platformasini yaratish hamda doimiy ravishda uni nazorat qilish tizimini joriy etish orqali turkiy dunyo yoshlari orasida umumiy bo‘lgan alifbo birligini mustahkamlash mumkin ekanligi isbotlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov, S. (2020). Turkiy tillarning fonologik makoni. Tilshunoslik Tadqiqotlari, 24(1), 33-45.
2. Abdullayeva, N. (2021). Ta’lim dasturlarining qiyosiy tahlili: Turkiy davlatlar tajribasi. Pedagogika Ilm-fani, 15(2), 65-78.
3. Doğan, A. (2022). Sun’iy intellekt asosidagi til o‘qitish texnologiyalari. Raqamli Ta’lim Jurnali, 8(4), 85-99.
4. Tanagawa, K. (2019). Mintaqaviy integratsiya va til siyosati. Xalqaro Ta’lim Siyosati, 12(3), 110-122.

AMIRIY IJODIDA FOLKLOR MOTIVLARI

Raimova Hilola Ma’murjon qizi

Qo‘qon universiteti

Filologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqola Amiriy ijodida folklor motivlarining o‘rni va funksiyasini tahlil qiladi. Tadqiqotda matnshunoslik va tarixiy-kontekstual yondashuvlar asosida Amiriy asarlaridagi xalq og‘zaki ijodi elementlari, afsona va ertak motivlari, ritm va repetitsiya vositalari o‘rganilgan. Maqolada folkloriy unsurlarining badiiy strukturaga ta’siri, ularning ma’no qatlamlarini boyitishi hamda milliy ongni shakllantirishdagi roli ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, muallif folklor manbalarining Amiriy she’riyati va prozasidagi estetik va semantik funktsiyalarini aniqlab beradi. Tadqiqot natijalari Amiriy ijodini xalq madaniyati

va adabiy an’analar bilan bog‘lash, hamda zamonaviy adabiyotshunoslikka yangi interpretatsiyalar kiritishda foydali bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Amiriy, folklorizm, folklor motivlari, xalq og‘zaki ijodi, badiiy funksiya, adabiy tahlil, obrazlar, xalqchillik, maqol va hikmatli so‘zlar.

Abstract. This article analyzes the role and function of folkloric motifs in Amiriy’s œuvre. Using textual scholarship and historical-contextual approaches, the study examines elements of oral folk creativity in Amiriy’s works, motifs from myths and folk tales, and devices of rhythm and repetition. The article shows how folkloric elements affect artistic structure, enrich layers of meaning, and contribute to shaping national consciousness. The author also identifies the aesthetic and semantic functions of folk sources in Amiriy’s poetry and prose. The research findings will be useful for connecting Amiriy’s work with popular culture and literary traditions, and for introducing new interpretations into contemporary literary studies.

Keywords: Amiriy, folklorism, folkloric motifs, oral folk art, artistic function, literary analysis, imagery, folk-centeredness, proverbs and maxims.

Yozma adabiyot ilk paydo bo‘lgan davrlaridan boshlab folklor namunalaridan oziqlanib, uning asosida rivolanib kelgan. Folklor namunalari ko‘p asrlik tarixga egava shuning uchun ulardagi fikrlar xalqning qon-qoniga singib ketgan. Qolaversa, folklorda har qanday tushuncha ixcham va ta’sirchan ifodalanadi, shuningdek, og‘zaki ijod namunalari katta-yu kichikka birdek tushunarli bo‘ladi. Mana shu omillar sabab tarkibida folklorizm mavjud asarlar xalqchillik kasb etib, ixlosmandlari orasida tez va oson ommalashadi.

Shu o‘rinda, folklorizm tushunchasi haqida to‘xtalib o‘tsak, professor B.Sarimsoqov: “Biror ijodkor asariga ma’lum maqsad bilan kiritgan barcha materiallarni folklor deb emas, balki folklorizm atamasi bilan yuritish lozim,

chunki unga ijodkor tomonidan muayyan bir ishlov berilgan bo‘ladi”[1.39] deya ta’kidlaydi. Folklorizm so‘zi adabiy istioh sifatida ilk bor XIX asrda fransuz folklorshunosi Sebiyo tomonidan qo‘llangan bo‘lib, folklor bilan qiziqish, shug‘ullanish manosini ifodalagan.[2.22] Tadqiqotchilar qo‘llanish doirasiga ko‘ra folklorizmlarni mumtoz va zamonaviy turlarga ajratadi. Biz so‘z yuritmoqchi bo‘lganimiz, Amiriy ijodidagi folklor namunalari ham mumtoz sifatida baholash mumkin.

Aslida mumtoz adabiyotimizda folklorizm hodisasi asosiga qurilgan badiiy vositalardan, xu-susan, irsoli masal (she’riy asarlarda maqol va matallarni qo‘llash) san’atidan keng foydalanilgan. Jumladan. Amiriy ijodida ham bunga o‘nlab misollar topishmumkin:

Ey nazokat gulshani, ko‘p qilma mendin ehtiroz,
Bog aro gul vaslidin mahrum emasdur xoru xas.[3.129]

Baytning zohiriy ma’nosi shunday: “Ey nazokatli yorim, mendan o‘zingni ehtiyot qilaverma, bil-o‘zini tikonga qiyoslash orqali “Tikansiz gul bo‘lmas..." maqoliga ishora qiladi. Bu holat qayta maysanmi, bog‘dagi gul visolidan tikon hamisha bahramanddir". Bu o‘rinda muallif yorni gulga ishlangan oddiy folklorizm sifatida tadqiq qilinadi. Umuman, Amiriy g‘azallarida asosan qayta ishlangan oddiy folklorizmlar, ya’ni xalq maqolla-riga ijodiy yondashish orqali fikrni dalillash ko‘proq uchraydi.Yana bir misol:

Ganji istigno qanoat dastgohidur Amir,
Yo‘qsa bu vayronalardin kimyo qilma tama’[3.106].

Istig‘no ganjiga faqat qanoat orqaligina yetishish mumkinligini ta’kidlarkan, Amiriy xalq orasida mashhur bo‘lgan “Sabr tagi oltin” maqolini mohirona eslatadi. Bundan tashqari, muallif “Rang ko‘r, hol so‘r”, maqolini quyidagi bayt zamiriga ziynatlaydi:

Orazing hajrida sorgorgon yuzumni ko‘rgon el,
Dardu g‘am devorida qolgon somon derlar ani.[3.138]

Yorning orazi - diydori hajrida oshiq yuzi shu qadar sarg‘arganki, uni ko‘rgan el dard-u g‘am devoridagi somonga o‘xshatishi, shubxasiz. Hozirda ham xalq biror kishini uzoq kutsa, “falonchining eshigida sarg‘ayib turdim", degan gapni aytadi. Yana bir e’tiborli jihati, yuqridagi bayt xayolimizga “Ona yurting omon bo‘lsa, rangi ro‘ying somon bo‘lmas” maqolini ham yetaklab keladi. Amiriy g‘azallarida faqat qayta ishlangan maqollargina emas, analitik xarakterdagi folklorizmlar ham uchraydi:

Bir sho‘xi dilraboni bo‘ldim asiri zulfi
Boshimga tushdi savdo, qilsun xudo muborak! [3.175]

Yorning zulfiga asir bo‘lgan oshiq boshiga tushgan bu savdoni Yaratgan muborak qilsin, deydi. Odatda kishilar biror xushxabar eshitganlarida bir birlarini muborakbod etadilar. Mazkur baytda “qilsin xudo muborak!" olqishi orqali muallif analitik folklorizmni qo‘llaydi. Ma’lumki, ijodkorlar o‘z asarlarida xalq olqish va qarg‘ishlaridan foydalanishi asnosida analitik folklorizmlar yuzaga keladi:

Menikim, mastligdin ko‘zlaring o‘lturdi, sog o‘lsun,
Ko‘zim sarchashmasi ul ikki ohuga bulog o‘lsun.[3.271]

Bayt latofati ikkinchi satrdan boshlab inkishof etiladi: Oshiq ko‘zining sarchashmasi mahbubning ikki ohusiga — ko‘zlariga buloq bo‘lsin! Chunki yor ko‘zlari oshiqqa iltifot edi: uni o‘ldirdi, shu tufayli oshiq baxtiyor va ko‘z chashmasidan suv ichib ma’shuqa ohulari sog‘-salomat bo‘lishini ti-laydi. Odatda mumtoz adabiyotda yorning ko‘zlari jalloddek jon oladi, ammo lablari hamda Iso yanglig‘ nafasi qayta jon bag‘ishlaydi. Yuqoridagi baytni xuddi shu an’anaviy tasvirning bir bo‘lagi sifatida qabul qilish to‘g‘ri xulosa chiqarishga olib keladi. “O‘ldirmoq” va “sog‘ bo‘lmoq” tushunchalari tazod tarzida qo‘llangan baytdagi “Sog‘ o‘lsun” olqishi orqali analitik folklorizm vujudga kelgan.

Diniy rivoyatlarning taraqqiyot bosqichlarini ko‘zdan kechirish shuni ko‘rsatadiki, islom dini bilan bog‘liq bo‘lgan payg‘ambarlar obrazi xalq og‘zaki ijodida maromiga yetib, folklor asarlari va Qur’oni karim orqali yozma adabiyotga ko‘chgan. Ana shunday obrazlarga xos belgi va xislatlarga ijodkorlarning ishoralar qilishi orqali obrazli ifoda yuzaga keladi. Shoirlarimiz obrazlarning an’anaviy sifatlarini saqlagan holda, ularni yangicha g‘oyaviy bo‘yoqlar bilan bezaydilar. Natijada , “ijodkorning tafakkur mevasi sifatida yangi obrazlar va tasviriy ifoda vositalari maydonga keladi”[4,88] Bu esa shoirdan yozma adabiyot an’analarini, salaflari ijodini yaxshi bilishni, yozma adabiyot va an’anaviy obrazlar munosabatlarining bilimdoni bo‘lishni talab etadi. Mumtoz adabiyotimizda Yusuf, Iso, Ayyub, Sulaymon , Nuh, Hizr kabi payg‘ambarlar; Qorun, Iskandar, Majnun singari tarixiy shaxslar obrazlari juda ko‘p tilga olinadi. Bu obrazlar o‘ziga xos yetakchi belgilari bilan oshiq va ma’shuqaning biror sifatini tasvirlashda, umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan g‘oyalarni ilgari surishda, inson va uning qadr-qimmatini belgilab berishda, hayot va uning saboqlari haqida kishilarga pand-nasihatlar qilishda muhim o‘rin tutadi. Amiriy ijodida ham Hizr alayhissalom siymosiga qayta-qayta murojaat qilinganligini ko‘ramiz. Mumtoz adabiyotdan yaxshi ma’lumki, Hizr o‘zining

rang-barang hislatlariga ega bo‘lib, uning uchun ilk nisbat doimiy barhayotligi, tiriklik suvining egasi ekanligidir. Hizrning tiriklik suvi jonsizga jon ato qilishga qodir. U kecha-yu kunduz olam kezib yuradi. O‘rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan tasavvurlarga ko‘ra u nuroniy chol sifatida gavdalanadi. Hizrga yo‘liqqan kishi bir umrga baxtli bo‘ladi. Xalq uni Xo‘jai Hizr, Hizr bobo, Hazrati Hizr nomlari bilan yuritadi. Amiriy o‘z g‘azallariga olib kirgan Hizr obrazi tiriklik suvining egasi sifatida namoyon bo‘ladi va bu xislati bilan mashuqaning labi-yu og‘ziga o‘xshatiladi:

Har kishi ko‘nglida o‘z maylicha bordur orzu,
Hizrga obi baqo, mango labi jonon xavas [3.130]

Folklor va yozma adabiyotda , xususan, klassik she’riyatda Hizr va uning sifatlaridan badiiy vosita sifatida foydalanib, ma’shuqaning botiniy va zohiriy xislatlari, ulug‘vorligini ko‘rsatish, insonni tarannum etish, mubolag‘ali tasvirlar orqali o‘quvchi e’tiborini tortish maqsadi ko‘zda tutilgan bo‘lsa, ajab emas.

Shoirning lirik qahramoni o‘zini Hizr deb ataydi. U Hizrdek chashmai hayvon, ya’ni tiriklik bulog‘i izlab yurgan edi, va nihoyat u izlagan narsasini topdi. Tiriklik suvi ma’shuqaning labidir. Oshiq o‘z niyatiga yetdi va shu bilan ayriliq ham barham topdi. Albatta, Hizr singari tiriklik suvini, ya’ni ma’shuqa labini izladi va oxir oqibat topdi. Biroq Amiriyning o‘xshatishi haddi a’losiga yetkazilgan, juda ortiq darajada tasvirlangan. Ya’ni Hizr tiriklik suviga mushtoq bo‘ldi va natijada uni topdi, Amiriy lirik qahramoni esa mana shu suvdan qimmatliroq ma’shuqasining labin sharbatidan totishni orzu qiladi.

Amiriyning ko‘pgina tashbeh-u timsollari garchi an’anaviy bo‘lib tuyulsa-da, ular boshqa shoirlar ijodida aynan shu holda uchramaydi. Qaysidir jihati kuchaytirilgan, qaysidir qirrasi boyitilgan, qaysidir tomoni rivojlantirilgan, qaysidir o‘ziga xos betakror xususiyati topilgan bo‘ladi. Aytaylik mashuqa yuzini – oftob,

oy, oyina, gulbarg; ko‘zini – nargiz, bodomga, jallodga; labini - obi hayotga, shakarga, Masihga va yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek Hizrga; qaddini – sarvga, shamshodga, alifga; xattini – rayxonga, sabzaga, qoshini- hilolga, yoyga o‘xshatish qadim adabiyotimizdan davom etib kelayotgan an’ana. Bu o‘xshatishlar, betakror tashbehlar istioraga aylanib ketgan va deyarli barcha ijodkorlar asarlarida uchraydi. Faqatgina iste’dodli shoirlar bu an’anaviy tashbehlardan, folklore motivlaridan, ya’ni xalq ichida mavjud bo‘lgan iboralardan o‘z ijodlaridan foydalangan holda, ayni paytda, ularning yangi, ohorli qirralarini ochishga, asrlar mobaynida davom etib kelayotgan bu o‘xshatishlar silsilasiga o‘ziga xos va betakror san’at namunasini qo‘shishga, shu tariqa ularni rivojlantirish va boyitishga intilganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sarimsoqov B. Folklorizmlar tipologiyasiga doir. // O‘zbek tili va adabiyoti. 1980/4.- B.39
2. Sharipova L. XX asrning 70-80-yillari o‘zbek she’riyatida folklor. Toshkent: Fan, 2011. -B.22
3. Amiriy. Devon. – T.: Tamaddun, 2017. - B. 129.
4. Рафиддинов С. Мажоз ва ҳақиқат. Т.:1995. Б.88.
5. Qobilova, Z. (2023). AMIRIYNING ALISHER NAVOIY G ‘AZALLARIGA BOG ‘LAGAN TAXMISLARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR. *Academic research in educational sciences*, *4*(Conference Proceedings 1), 39-43.
6. TURSUNOVA, N. (2025). ALISHER NAVOIY AN’ANALARINING MUQIMIY IJODIDAGI TAKOMILI. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(11), 260-263.
7. Imomaliyeva, M. (2024). IRFONIY G‘OYA VA TIMSOLLAR: AN’ANA VA O ‘ZIGA XOSLIK. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 387-389.

8. JUMANOVA, S. (2025). TABIAT UNSURLARINING ALISHER NAVOIY LIRIKASIDAGI FALSAFIY VA ESTETIK TALQINI. Hamkor konferensiyalar, 1(11), 101-105.
9. Raimova, H. (2025). BIR MAVZUNING TURFA TALQINLARI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 14, 214-216.

UMUMIY O‘RTA TA’LIMDA ADABIYOT FANLARINI INTEGRATSIYA ASOSIDA O‘QITISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Namunaxon Tursunova,
Kokand Universiteti dotsent v.b;
Muslimaxon Xo‘jayeva,
Kokand Universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur tezisda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida adabiyot fanlarini tarix, geografiya, tasviriy san’at bilan aloqadorlikda dars mashg‘ulotlarini tashkillash bo‘yicha mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: integratsiya, adabiyot, tarix, geografiya, Muqimiy “Sayohatnoma” Pirimqul Qodirov “Ulug‘bek xazinasi”.

Bugungi kunda maktablarda adabiyot darslarini shunchaki kitob o‘qish va matn yodlash bilan cheklab bo‘lmaydi. Zamonaviy ta’lim o‘quvchilardan har bir badiiy asarni hayot bilan, tarix va san’at bilan bog‘lab, yaxlit tushunishni talab qilmoqda. Shu bois, adabiyot darslarida fanlararo integratsiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish ta’lim sifatini oshirishning eng asosiy shartidir. Adabiyot- insoniyat tarixi, madaniyati, ijtimoiy-siyosiy qarashlari va manaviy kechinmalarining yaxlit sintezidir. Shu bois, adabiy asarlarni tarix, geografiya ,tilshunoslik va sotsiologiya kabi fanlar bilan uzviy bog‘lamasdan turib, ularning asil g‘oyaviy badiiy qiymatini o‘quvchiga yetkazib bo‘lmaydi. Zamonaviy yoshlarning fikrlash doirasi va axborot qabul qilish kanallari o‘zgargan bir davrda, an’anaviy va bir tamonlama dars o‘tish

usullari o‘z samaradorligini yo‘qotmoqda. Shu sababli, adabiyot darslarida fanlararo integratsiyani ta’minlash, darsliklardagi nomuvofiqliklarni bartaraf etish hamda o‘quvchida yaxlit ilmiy dunyoqarashni shakllantirish pedogogika fani oldidagi eng dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

So‘ngi yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktab darsliklarida va o‘quv rejalarida integratsion aloqalar rasman ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, amaliyotda o‘zaro bir-biriga zid va nomuvofiq jarayonlar ham talaygina. Pedagog- olim J. Xolmatov o‘z tadqiqotlarida pedagogik integratsiyaning terminalogik va nazariya asoslari mavjudligini, ammo amaliy integratsiyaning keying rivojlanishi va maktab dasturlariga singishi hamon oqsashini aks etadi. Adabiyto darslarda passiv tinglovchilikdan faol ijodiy jarayonga olib kirish uchun dars formati o‘zgarishi lozim. Metodist M. E.Inoyatova haqli ravishda ta’kidlaganidek, adabiyot darslarida zamonaviy metodiklarni, xususan ,diskurs-tahlilni (matnni har tamonlama, ijtimoiy va tarixiy muhit bilan bog‘lab o‘rganish) qo‘llash o‘quvchi nutqini va dunyoqarashini o‘stirishning bosh omilidir. Biroq maktab amaliyotida ushbu usullarni dars soati ichiga to‘liq sig‘dirish mexanizmi aniq ishlab chiqilmagan.

Men pedagogik amaliyot jarayonida hamda zamonaviy maktab darsliklarini tahlil qilish jarayonida shunga amin bo‘ldimki, darsliklarda fanlararo aloqadorlik borasidagi topshiriqlar ko‘p hollarda shunchaki yuzaki berilgan. Masalan, asarni tahlil qilish jarayonida o‘quvchiga “ Bu voqea qaysi davrda bo‘lgan? “ yoki “ Muallif qayerga sayohat qilgan?” kabi oddiy, faqatgina faktni so‘raydigan savollar beriladi. Menimcha bu integratsiya emas. Haqiqiy integratsiya o'quvchini mustaqil fikrlashga majbur qilishga. O‘quvchi adabiyot darsida boshqa fanning ma’lumotini shunchaki eslatib o‘tmasdan, o‘sha fan orqali badiiy qahramonnning ruhiyatini va asar yozilgan ijtimoiy muhitni ochish lozim. Lekin maktablarda buning imkoni

kam , chunki 45 daqiqali dars vaqtida o‘quvchi ham asar matnini o‘qishga, ham uning g‘oyasini tushuntirishga zo‘rg‘a ulguradi. Yana bir muammo – metodik qo‘llanmalarning yetishmasligidir. Adabiyot o‘quvchisidan tarix yoki geografiyani mukammal bilish talab qilinadi, lekin ularga qaysi mavzuda qanday integratsiya qilish bo‘yicha aniq , tayyor metodik yo‘llanmalar berilmayapti. Bu esa dasrlarning sifati faqat o‘quvchining shaxsiy mahoratiga bog'liq bo'lib qolishiga olib kelmoqda.

Umumiy o‘rta ta’lim darsliklaridagi yirik epik, dramatik va lirik asarlarni integral yondashuv orqali o‘rganing, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini tubdan o‘zgartiradi. Isfandiyorov O‘ ta’kidlashicha, badiiy asar elementlarini geografik, tarixiy yoki sotsial jihatdan ochish insoniy tuyg‘ularni chuqurroq anglashga va shaxs sifatida fikrlashga zamin yaratadi. Amaldagi dasturlar misolida buni quyidagicha asoslash mumkin:

1. **Pirimqul Qodirovning “Ulug‘bek xazinasi” romani (tarix, falsafa va psixologiya** i**ntegratsiyasi) :** 9 sinf adabiyot darsligida o‘rganiladigan ushbu asar mutlaq tarixiy manbalarga tayanadi. Darsda tarix fani bilan integratsiyani chuqurlashtirish orqali Temuriylar saltanatining XV asrdagi siyosiy inqiroz, madaniy va ilmiy yuksalishi xaritalar hamda hujjatli ma’lumotlar bilan ko‘rsatiliadi. Ammo darsning asosiy maqsadi- falsafiy va psixologik integratsiyadir. Mirzo Ulug‘bek va unung o‘g‘li Abdulatif o‘rtasidagi ziddiyatni faqat taxt talashish emas, balki ikki xil dunyoqarash-ilm- fan taraqqiyoti v ajaholat to‘qnashuvi sifatida psixologik tahlil qilish , o‘quvchilarda, komil shaxs haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi.
2. **Odil Yoqubovning “Yulduzli tunlar” romani (geografiya , siyosatshunoslik va adabiyotshunoslik integratsiyasi**): Romanda Zahiriddin Muhammad Bobur murakkab hayot yo‘li tasvirlangan. Asarni o‘qishda geografiya fani

imkoniyatlaridan keng foydalaniladi: Farg‘ona vodiysi, Kobul iqlimi va Hindiston tabiati, o‘simliklar dunyosining asardagi badiiy tasviri xaritalar yordamida integral o‘rganiladi. Siyosatsgunoslik nuqtai nazaridan esa feodal tarqoqlik fojiasi va uning xalq boshiga keltirilgan kulfatlarni tahlil qilinadi. Bu o‘quvchida vatanparvarlik tuyg‘usini sghunchaki shiorlar bilan emas, asardagi real tarixiy fojialarni his qilish orqali shakllantirishga imkon beradi.

3. **Muqimiyning “Sayohatnoma” asari (geografiya, sotsiologiya va tilshunoslik integratsiyasi)**: maktab o‘quv dasturidan o‘rin olgan ushbu realistik asar fanlararo bog‘lanish uchun boy material beradi, geografik, nuqtai nazardan shoirning Qo‘qondan yo‘lga chiqib, Shohimardon, Farg‘ona, Andijon kabi hududlar bo‘ylab qilgan safari xaritada aks ettirilishi, darsning ko‘rgazmaliligini oshioradi. Sotsiologiya va Tarix fanlari bilan integratsiya esa chor mustamlakachiligidagi davridagi Farg‘ona vodiysining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, yo‘llarning haroblighi, amaldorlarning adolatsizligini fosh etishda namoyon bo‘ladi. Tilshunoslik integratsiyasi orqali esa Muqimiy she’riyatidagi satira, piching va lirik til xususiyatlari, xususan, xalq jonli tili elementlarining qo‘llanishi tahlil qilinadi. Bu o‘quvchida ijtimoiy- tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini uyg‘otadi.

Umuman olganda tahlillar shuni ko‘rsatadiki, adabiyiot darslarini fanlararo integratsiyalash orqali o‘qitish o‘quvchilarning darsda zerikib qolishini oldini oladi va bilimlarning yaxlitliligini ta’minlaydi. Mavjud muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi takliflarni ilgari suramiz: Birinchidan ona tili va adabiyot darsliklaridagi integrativ topshiriqlar hajmini oshirish va mazmunan chuqurlashtirish; Ikkinchidan, o‘qituvchilar uchun har bir mavzu kesimida fanlararo bog‘lanish usullarini ko‘rsatuvchi raqamli yoki bosma metodik qo‘llanmalar bazasini yaratish; Uchinchidan, maktablarda adabiyot, tarix va san’at

fanlari qo‘shib o‘tiladigan integratsiyalashgan maxsus “ijodiy dars soatlari” ni sinov tariqasida joriy etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.
2. Xolmatov J . Ta’limda integratsiyani taminlash va uning ahamiyati // International scientific conference (Dehli, India). – 2024,- March 7.
3. Inoyatova M . E. Umumiy o‘rta ta’limda adabiyot o‘qitishning zamonaviy dolzarb muammolari // Modern Science and Research.-2025.-VOL.4,issue 1.-P.110-112.
4. Isfandiyorova O‘. Badiiy asar tahlilida fanlararo aloqadorlik (Adabiyot darslari misolida)// Modern science and Research .2025.Vol. 4,issue1.P.126-128.
5. Yo‘ldashev Q, Qosimova B Adabiyot o‘qitish metodikasi. -Toshkent: Sano-standart, 2016.

ERTAKLARNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O‘RNI

Imomaliyeva Musharrafxon Ilhomjon qizi

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Akbaraliyeva Zebo Islomjon qizi

Qo‘qon universiteti talabasi

zeboxonakbaraliyeva570@gmail.com

(O‘zbekiston)

Annotatsiya. Ushbu maqola o‘zbek xalq ertaklarining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini tahlil qiladi. Ertaklar nafaqat bolalarning qiziqishini uyg‘otuvchi badiiy asarlar, balki ularni axloqiy, ma’naviy, estetik va ijtimoiy jihatdan

tarbiyalash vositasi sifatida qadimdan xizmat qilganligi ko‘rsatib beriladi. Maqolada “Shoh va donolik”, “Bobo va bola”, “Qo‘ng‘irotli tog‘ning sarguzashtlari”, “To‘ng‘ich va kichik aka-uka” va boshqa ertaklar misol tariqasida keltirilgan bo‘lib, ularning qahramonlarining xarakteri, nutqlari va xatti-harakatlari bolalarga axloqiy qadriyatlarni singdirishda qanday rol o‘ynashi batafsil tahlil qilinadi. Shu bilan birga, maqolada ertaklarning milliy ruhni shakllantirish, madaniy merosni saqlash, lingvistik va nutqiy rivojlanishga xizmat qilish, shuningdek, oilaviy va maktab muhitida tarbiyaviy samaradorligini oshirish jihatlari yoritilgan. Maqola yoshlarni ezgulik, halollik, mas’uliyat, do‘stlik va jasorat kabi fazilatlar bilan tarbiyalashda ertaklarning muhim pedagogik ahamiyatini ochib beradi va ularni zamonaviy ta’lim jarayonida samarali qo‘llash imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek xalq ertaklari, yoshlar tarbiyasi, axloqiy tarbiya, ma’naviy tarbiya, milliy ruh, badiiy ta’sir, o‘quvchi, pedagogik texnologiya, ijtimoiy ko‘nikmalar, estetik tarbiya.

Abstract. This article analyzes the significance of Uzbek folk tales in the upbringing of young people. Folk tales are not only artistic works that stimulate children's interest but have historically served as a means to educate them morally, spiritually, aesthetically, and socially. The article provides examples of tales such as “The King and Wisdom,” “Grandfather and the Child,” “The Adventures of the Bell Mountain,” and “The Eldest and Youngest Brothers,” examining in detail how the characters’ traits, dialogues, and actions instill moral values in children. Additionally, the article highlights the role of folk tales in shaping national spirit, preserving cultural heritage, contributing to linguistic and speech development, and enhancing educational effectiveness in family and school environments. The article demonstrates the pedagogical importance of folk tales in fostering virtues such as

kindness, honesty, responsibility, friendship, and courage among young people and shows how they can be effectively used in modern educational practices.

Keywords: Uzbek folk tales, youth education, moral education, spiritual education, national spirit, artistic influence, student, pedagogical technology, social skills, aesthetic education.

Yosh avlod tarbiyasi har bir jamiyatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Barkamol, ma’naviy yetuk va intellektual salohiyatga ega yoshlarni voyaga yetkazishda milliy qadriyatlar muhim o‘rin tutadi. Ana shunday qadriyatlarning eng muhim namunalaridan biri xalq og‘zaki ijodi, xususan ertaklardir. Ertaklar asrlar davomida xalqning hayotiy tajribasi, urf-odatlari, ma’naviy qarashlari va axloqiy me’yorlarini o‘zida mujassam etib kelgan. Shu sababli ular yosh avlodni tarbiyalashda samarali vosita sifatida qadrlanadi. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlangan davrda yoshlarning ongiga turli xil g‘oyalar ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash, ularda ezgulik, halollik, insonparvarlik va vatanparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirish dolzarb masalalardan biridir. Ertaklar esa ana shu vazifani bajarishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Chunki ertaklar orqali bolalar hayotni anglashni, yaxshilik va yomonlikni farqlashni, qiyinchiliklarni yengib o‘tishni o‘rganadilar. Shu jihatdan ertaklarning yoshlar tarbiyasidagi o‘rnini o‘rganish va ulardan ta’lim-tarbiya jarayonida unumli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek xalq ertaklari nafaqat bolalarning qiziqishini uyg‘otadigan, balki ularni axloqiy, ma’naviy va madaniy jihatdan tarbiyalash vositasi sifatida qadimdan xizmat qilgan[1,47]. Ertaklarda qahramonlarning xarakteri, xatti-harakatlari va nutqlari yoshlar uchun hayotiy tajriba sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, “Shoh va donolik” ertagida Shohning dono va adolatli qarorlari orqali

bolalar adolat va halollik tamoyillarini o‘rganadi. Shoh qaror chiqarishda turli taraflarning fikrini tinglaydi, bu esa o‘quvchiga mulohaza yuritish va sabr-toqatni qadrlashni o‘rgatadi[2,35]. O‘zbek ertaklarida axloqiy tarbiya markaziy o‘rin egallaydi. “Bobo va bola” ertagida qahramon bolaga halollik va mehnatsevarlikning ahamiyatini tushuntiradi. Masalan, ertakda bola chorvachilik bilan shug‘ullanib, o‘z mehnati orqali qiyinchiliklarni yengadi. Bu yerda nutqdan bir misol: *“Mehnat qilgan kishi hech qachon och qolmaydi”* – bu ifoda bolaga mehnatning qadriyatini o‘rgatadi[1,5]. Shu tarzda, qahramonlarning dialogi va nutq ohanglari yoshlar ongiga axloqiy qadriyatlarni singdiradi. Ertaklar shuningdek, ma’naviy va estetik tarbiyada ham katta ahamiyatga ega. “Cho‘pon va afsunli qo‘rg‘on” ertagida cho‘ponning jasorati va aql-zakovati orqali o‘quvchi qiyinchiliklarni yengish, dono qarorlar qabul qilish va do‘stlikni qadrlash kabi sifatlarni o‘rganadi. Ertak matni boy tasvirlar va badiiy ifodalar bilan boyitilgan: *“Tun qorong‘u edi, ammo yulduzlar cho‘pon yo‘lini yoritib turardi”*. Bu kabi tasvirlar bolalarning tasavvurini rivojlantiradi va ularni badiiy tafakkurga o‘rgatadi[3,45]. Milliy ruh va madaniyatni singdirish ham ertaklarning muhim jihatidir. O‘zbek xalq ertaklarida mehmondo‘stlik, mehr-shafqat va halollik kabi qadriyatlar qahramonlar orqali namoyon bo‘ladi. Masalan, “Tog‘ning aqlli qushi” ertagida qush o‘z bilimini o‘rtoqlashadi, bu orqali bolalar yordam berish va bilimni qadrlash muhimligini o‘rganadi. Shu bilan birga, ertaklar orqali bolalar milliy urf-odatlar, tarixiy voqealar va ijtimoiy qadriyatlar bilan tanishadi, bu esa ularni milliy ruhda tarbiyalaydi[1,5][2,7]. Yosh avlod tarbiyasida ertaklarning samarasi faqat axloqiy yoki ma’naviy emas, balki lingvistik va nutqiy rivojlanishga ham xizmat qiladi. Bolalar ertaklarni tinglab, so‘z boyligini oshiradi, nutqini ifodali qiladi va hikoya qahramonlari bilan identifikatsiya orqali empatiya qobiliyatini rivojlantiradi. Masalan, qahramonlar orasidagi suhbatlardan: *“Do‘stingni yordamga muhtoj paytda yolg‘iz qoldirma”* – degan iboralar bolalarning ijtimoiy

ko‘nikmalarini shakllantiradi[3,52]. O‘zbek xalq ertaklarining yana bir muhim tarbiyaviy elementi – jismoniy va ruhiy jasoratni shakllantirishdir. Masalan, “Qo‘ng‘irotli tog‘ning sarguzashtlari” ertagida bosh qahramon qiyinchiliklarga duch keladi, lekin mardlik va dono qarorlar orqali ularni yengadi. Nutqidan namunasi: *“Qiyinchiliklar oldida qo‘rqmayman, chunki qalbimdagi jasorat meni yutadi”*. Bu kabi ifodalar bolalarga muammolar bilan kurashish va o‘ziga ishonishni o‘rgatadi[1,5]. Shu tarzda, ertak qahramonlarining muloqoti va ichki fikrlari yosh avlodning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ertaklarda do‘stlik va hamkorlik masalalari ham keng yoritiladi. Masalan, “To‘ng‘ich va kichik aka-uka” ertagida aka-uka bir-biriga yordam berib, murakkab vaziyatlardan chiqadi. Qahramonlarning nutqidan olingan misol: *“Aka, qo‘lingni uzat, birga ishlasak, barcha muammolarni yengamiz”*. Bu ifoda bolalarda hamkorlik, yordam berish va jamoada ishlash qobiliyatlarini shakllantiradi[2,7]. Shu tariqa, ertaklar yoshlarni ijtimoiy jihatdan ham tarbiyalaydi. Axloqiy qaror qabul qilish ham ertaklarning yoshlar tarbiyasidagi asosiy yo‘nalishlaridan biridir. “Shohning dono maslahati” ertagida shoh o‘z xalqiga foyda keltiradigan qarorlar qabul qiladi va yosh qahramonlarga maslahat beradi. Bolalar shunday qahramonlar orqali hayotiy tajriba orttiradi: qanday vaziyatda to‘g‘ri va adolatli qaror qilish kerakligini o‘rganadi. Masalan, ertakdan nutq namunasi: *“Har bir harakatimiz odamlar hayotiga ta’sir qiladi, shuning uchun dono bo‘lishimiz kerak”*[3,52]. Ertaklarning badiiy va estetik qadriyatlari ham yoshlarni tarbiyalashda katta rol o‘ynaydi. “Sehrli bog‘ va aqlli hayvonlar” ertagida tabiat tasvirlari, sehrli elementlar va hayvonlar bilan muloqot bolalarning tasavvurini rivojlantiradi. Misol uchun: *“Har bir daraxt so‘zi bilan gaplashayotganday edi, qushlar esa hikoyaning ohangini qo‘shib kuylardi”*. Bunday tasvirlar bolalarni tabiatni qadrlash, badiiy tafakkur va hissiy sezgirlikni rivojlantirishga undaydi. Shuningdek, o‘zbek xalq ertaklari madaniy merosni saqlash va milliy ruhni shakllantirishda muhim

vositadir. Ertaklardagi xalq urf-odatlari, xalqona iboralar va maqollar yosh avlodga an’anaviy qadriyatlarni yetkazadi. Masalan, “Tog‘dagi aqlli qush” ertagida qushning donolik bilan maslahat berishi, xalqona ibora orqali ifodalanadi: *“Bilimni oshirish – qalbni boyitishdir”*. Bu ifodalar bolalarda o‘z milliy qadriyatlarini qadrlash va tarbiyaviy merosni o‘zlashtirishga yordam beradi.Yana misol tariqasida “Uch o‘g‘il” ertagini olsak bo‘ladi. Kenja o‘g‘il g‘o‘zning tuxumlarini to‘plab, ularni ko‘paytiradi va sotadi. Bu uning mas’uliyatli va mehnatkash ekanligini ko‘rsatadi. Yoshlar bu qahramon orqali mehnat qilishning ahamiyati va natija olishning sabr talab etishini tushunadilar. Agar inson o‘z vazifasiga mas’uliyat bilan yondashsa, kelajakda muvaffaqiyat qozonadi. Boshqa ikki o‘g‘il esa tuxum sotib, pulini o‘yinga sarflashadi va ota oldida yolg‘on gapiradilar. Bu ularning halollik va mas’uliyatdan yiroqligini ko‘rsatadi. Ertak yoshlarni halollik va to‘g‘ri qaror qabul qilishga undaydi. Halol bo‘lgan inson nafaqat ota-onaning hurmatini qozonadi, balki jamiyatda ham ishonchli shaxs sifatida taniladi. O‘zbek xalq ertaklari nafaqat bolalarning qiziqishini uyg‘otadi, balki ularni axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy jihatdan tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. Kitobdagi ertaklar asrlar davomida shakllangan xalqning axloqiy qadriyatlari, urf-odatlari, dono qarashlari va ijtimoiy me’yorlarini o‘zida mujassam etadi. Shu bois ularni yosh avlod tarbiyasida samarali qo‘llash mumkin. Ko‘plab ertaklarda axloqiy qadriyatlar markaziy o‘rin egallaydi. Masalan, **“**Uchar gilam**”** ertagida qahramonlar o‘zaro halollik va mehr-shafqat asosida harakat qiladi. Ertakdan olingan nutq namunasi: *“Faqat to‘g‘ri yo‘ldan ketgan kishi baxtga erishadi”*. Bu ibora bolalarga halollik va adolat tamoyillarini o‘rgatadi[5,120]. Shuningdek, **“**Mehribon bola**”** ertagida bosh qahramon ota-onasiga va atrofidagi odamlarga yordam beradi, bu orqali bolalarda mehr-shafqat va mas’uliyat hissi shakllanadi. Kitobdagi ertaklar qahramonlarning jasorati, dono qarorlari va sabr-toqatli xatti-harakatlari orqali bolalarni ruhiy jihatdan tarbiyalaydi. Masalan,

“Qahramon va afsunli o‘rmon**”** ertagida qahramon murakkab vaziyatlarga duch keladi, ammo mardlik va aqlli fikrlash orqali ularni yengadi. Nutqdan namunasi: *“Men qo‘rqmayman, chunki qalbimdagi jasorat meni yutadi”*. Bu ifoda bolalarga muammolarni yengish va o‘ziga ishonishni o‘rgatadi. Ertaklar boy badiiy til va xalqona iboralar bilan boyitilgan. Masalan, **“**Sehrli bog‘ va aqlli hayvonlar**”** ertagida tabiat tasvirlari, hayvonlar bilan muloqot va badiiy ifodalar bolalarning tasavvurini rivojlantiradi va nutqini boyitadi. Nutqdan namunasi: *“Har bir daraxt so‘zi bilan gaplashayotganday edi”*. Shu bilan bolalar empatiya va tafakkur qobiliyatini oshiradi. Yoshlar tarbiyasida ertaklarning psixologik ahamiyati ham katta. Chunki ertaklar bolaning ruhiyatiga kuchli ta’sir qiladi. Ezgulikning g‘alaba qilishi bolalarda hayotga ishonch va umid uyg‘otadi. Salbiy qahramonlarning jazolanishi esa ularda yomon ishlardan tiyilish hissini shakllantiradi. Natijada yoshlar yaxshilik qilishga, boshqalarga yordam berishga va adolatli bo‘lishga intiladilar. Oila muhitida ertak aytish an’anasi ham yoshlar tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Ota-onalar yoki buvilar tomonidan aytilgan ertaklar bolalarda mehr-oqibat va oilaga hurmat hissini shakllantiradi. Bundan tashqari, ertak tinglash jarayonida farzand va ota-ona o‘rtasidagi ma’naviy yaqinlik mustahkamlanadi. Shu sababli ham oilada ertak o‘qish va aytish an’analarini davom ettirish muhim hisoblanadi.[4,100] Maktab va ta’lim muassasalarida ham ertaklardan samarali foydalanish zarur. Adabiyot va o‘qish darslarida ertaklarni sahnalashtirish, tahlil qilish hamda qahramonlarga tavsif berish orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mumkin. Bu esa yoshlarning ijodiy tafakkurini kengaytiradi. Ayniqsa, xalq ertaklarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish ta’lim samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalq ertaklari yoshlar tarbiyasida kompleks ta’sirga ega. Ular bolalarning axloqiy, ma’naviy, estetik, ijtimoiy va milliy jihatdan

tarbiyalanishiga xizmat qiladi. Ertaklar qahramonlarining nutq va xatti-harakatlari orqali bolalar ijobiy fazilatlarni o‘rganadi, tafakkurini rivojlantiradi va milliy ruhini shakllantiradi. Shu sababli, ertaklarni maktab va oilada muntazam o‘qish yoki tinglash yosh avlod tarbiyasida eng samarali vositalardan biridir. Tahlil davomida bir nechta ertaklarni sanab o‘tdik xolos, aslini olganda barcha ertaklar tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xolmurodov, A. *O‘zbek xalq ertaklari va ularning tarbiyaviy ahamiyati*, Toshkent: Fan, 2019.
2. Karimova, D. *Bolalar tarbiyasida badiiy asarlarning roli*, Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
3. Rasulov, S. *Milliy adabiyot va yosh avlod*, Toshkent: Akademiya, 2018.
4. Rahimova L. “Yoshlar tarbiyasida oila va mahallaning o‘rni”. InnoRes ilmiy jurnali, 2025.
5. Uchar gilam. O‘zbek xalq ertaklari**.** Toshkent: O‘zbekist. nashriyoti, 2015.
6. Xolmurodov, A. *O‘zbek xalq ertaklari va ularning tarbiyaviy ahamiyati*. Toshkent: Fan, 2019.
7. Karimova, D. *Bolalar tarbiyasida badiiy asarlarning roli*. Toshkent: O‘zbekiston, 2020.

JISMONIY TARBIYA G‘OYALARI IFODASIDA TOPISHMOQLARNING PEDAGOGIK FUNKSIYASI

Shahboz Ergashev,

Qo‘qon universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodining qadimiy janrlaridan biri bo‘lgan topishmoqlarning jismoniy tarbiya g‘oyalarini ifodalashdagi o‘rni va pedagogik funksiyalari tahlil qilinadi. Topishmoqlarda inson tanasi, sog‘liq, ozodalik, jismoniy sifatlar (kuch, chaqqonlik, chidamlilik, tezkorlik) va sog‘lom turmush tarziga oid g‘oyalarning badiiy ifodalanishi xalq pedagogikasi nuqtai nazaridan yoritiladi. Topishmoqlarning bilish, rivojlantiruvchi, tarbiyaviy, rag‘batlantiruvchi, tashxis va kommunikativ funksiyalari asoslanadi hamda ulardan maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jismoniy tarbiya jarayoniga tatbiq etish metodikasi yuzasidan tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: *topishmoq, xalq pedagogikasi, etnopedagogika, jismoniy tarbiya, sog‘lom turmush tarzi, pedagogik funksiya, jismoniy sifatlar, milliy o‘yinlar, maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim.*

Abstract. The article analyses the role and pedagogical functions of riddles - one of the oldest genres of Uzbek oral folk art — in expressing the ideas of physical education. From the standpoint of folk pedagogy, it examines how riddles artistically reflect notions of the human body, health, cleanliness, physical qualities (strength, agility, endurance, speed) and a healthy lifestyle. The cognitive, developmental, educational, stimulating, diagnostic and communicative functions of riddles are substantiated, and methodological recommendations are offered for

their application in the process of physical education in preschool institutions and secondary schools.

Keywords: *riddle, folk pedagogy, ethnopedagogy, physical education, healthy lifestyle, pedagogical function, physical qualities, national games, preschool education, primary education.*

KIRISH

Har bir xalqning ma’naviy xazinasida uning asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, tarbiya borasidagi qarashlari mujassamlashgan bo‘ladi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi: ertaklar, maqollar, dostonlar, qo‘shiqlar, tez aytishlar va topishmoqlar avloddan avlodga o‘tib kelayotgan bebaho tarbiya vositasi sifatida xalq pedagogikasining asosini tashkil etadi. Shu janrlar orasida topishmoq o‘zining ixchamligi, o‘yin unsuriga boyligi va bolani faol fikrlashga undovchi tabiati bilan alohida ajralib turadi.

Topishmoq – predmet yoki hodisaning muhim belgilarini yashirin, ko‘chma ma’noli obrazlar vositasida tasvirlab, tinglovchidan uni topishni talab qiluvchi kichik hajmli folklor janridir. Topishmoq aytish va topish jarayoni o‘z mohiyatiga ko‘ra aqliy musobaqa, fikrlar bellashuvi bo‘lib, unda bolalarning kuzatuvchanligi, xotirasi, tasavvuri va mantiqiy tafakkuri sinovdan o‘tadi. Ayni paytda topishmoqlar mazmunida xalqning inson tanasi, sog‘liq, ozodalik, mehnat va harakat madaniyatiga oid qarashlari ham teran ifodalanganki, bu ularni jismoniy tarbiya g‘oyalarini singdirishning o‘ziga xos vositasiga aylantiradi.

Bugungi kunda yosh avlodning jismonan sog‘lom, ma’nan yetuk bo‘lib ulg‘ayishi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan ustuvor vazifalardan biridir. Zamonaviy ta’lim amaliyotida jismoniy tarbiya ko‘pincha faqat harakat mashqlari majmui sifatida tor talqin etiladi, uning intellektual, axloqiy va estetik jihatlari esa

yetarlicha e’tiborga olinmaydi. Holbuki, xalq pedagogikasi jismoniy kamolotni aqliy va axloqiy kamolot bilan uzviy birlikda tarbiyalash tajribasiga ega. Shu nuqtai nazardan, topishmoqlarning jismoniy tarbiya g‘oyalarini ifodalashdagi imkoniyatlarini ochib berish va ularning pedagogik funksiyalarini ilmiy asoslash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Topishmoqlar janri folklorshunoslik nuqtai nazaridan atroflicha o‘rganilgan. O‘zbek topishmoqlarini to‘plash, nashr etish va ilmiy tasniflashda Z. Husainovaning xizmatlari katta bo‘lib, uning tadqiqotlarida janrning genezisi, badiiy xususiyatlari va mavzuiy guruhlari ochib berilgan. O‘zbek bolalar folklorini tadqiq etgan G‘. Jahongirov va O. Safarov ishlarida topishmoqlarning bolalar ma’naviy olamidagi o‘rni, ularning o‘yin folklori bilan aloqasi ko‘rsatilgan. Etnopedagogika fanining asoschilaridan biri G.N. Volkov xalq og‘zaki ijodi janrlarini, jumladan topishmoqlarni, xalq tarbiya tizimining ajralmas unsuri sifatida baholab, ularning aqliy tarbiyadagi rolini alohida ta’kidlagan.

Sharq mutafakkirlari merosida ham jismoniy tarbiya g‘oyalari bilim va axloq bilan uyg‘unlikda talqin etilgan. Abu Ali ibn Sino «Tib qonunlari» asarida badantarbiya, to‘g‘ri ovqatlanish va uyqu tartibini sog‘liqni saqlashning asosiy omillari deb bilgan; Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida badanning salomatligi va pokizaligini «birinchi zaruriy narsa» deb atab, jismoniy tarbiyani axloqiy tarbiyaning poydevori sifatida talqin qilgan. Biroq ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, topishmoqlar asosan folklorshunoslik va aqliy tarbiya aspektida o‘rganilgan bo‘lib, ularning jismoniy tarbiya g‘oyalarini ifodalash imkoniyatlari va bu boradagi pedagogik funksiyalari maxsus tadqiqot ob’ekti bo‘lmagan.

Maqolani tayyorlashda nazariy tahlil, tarixiy-qiyosiy metod, folklor materiallarini mavzuiy tasnif qilish va pedagogik talqin metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida o‘zbek xalq topishmoqlarining e’lon qilingan to‘plamlari, etnopedagogikaga oid ilmiy adabiyotlar hamda maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim amaliyotidagi kuzatuvlar xizmat qildi.

TOPISHMOQLARNING XALQ PEDAGOGIKASIDAGI O‘RNI

Xalq pedagogikasida tarbiya vositalari bola hayotining tabiiy muhitiga singdirilgan bo‘ladi: alla bilan birga mehr, ertak bilan birga ezgulik, maqol bilan birga donolik, o‘yin bilan birga chaqqonlik tarbiyalanadi. Topishmoq esa bu tizimda o‘ziga xos «aql gimnastikasi» vazifasini bajaradi. Topishmoq aytish odatda jamoa bo‘lib, o‘yin tarzida tashkil etilgan: oilada, to‘y-ma’rakalarda, bolalar davrasida kattalar bolalarga topishmoq aytgan, topolmaganlardan hazilomuz «jarima»: qo‘shiq aytish, bir oyoqda sakrash, davra atrofida yugurish kabi topshiriqlar talab qilingan. Ko‘rinib turibdiki, topishmoq o‘yinining o‘ziyoq aqliy faoliyatni jismoniy harakat bilan tabiiy bog‘lagan.

Topishmoqning tarbiyaviy quvvati uning badiiy tuzilishidan kelib chiqadi. Unda predmet to‘g‘ridan-to‘g‘ri atalmaydi, balki metafora, jonlantirish, mubolag‘a, o‘xshatish orqali «yashiriladi». Bolaga tayyor bilim berilmaydi, u belgilarni taqqoslab, faraz qilib, xulosa chiqarib, bilimni o‘zi «kashf etadi». Aynan shu xususiyat topishmoqni zamonaviy didaktikadagi muammoli ta’lim va evristik metodlarning xalqona timsoli deyishga asos beradi. Bola topishmoq yechar ekan, u faqat javobni emas, balki fikrlash yo‘lini ham o‘zlashtiradi.

Muhimi shundaki, topishmoqlar mavzu jihatidan bola hayotini to‘liq qamrab oladi: tabiat hodisalari, hayvonot va nabotot olami, mehnat qurollari, ro‘zg‘or buyumlari va, albatta, insonning o‘zi: uning tanasi, a’zolari, harakatlari, ozodalik

va sog‘liqqa oid odatlari. Xuddi shu so‘nggi guruh topishmoqlar jismoniy tarbiya g‘oyalarining badiiy ifodasi sifatida alohida tahlilga loyiqdir.

TOPISHMOQLARDA JISMONIY TARBIYA G‘OYALARINING IFODALANISHI

Jismoniy tarbiya g‘oyalari topishmoqlarda bir necha mavzuiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchi yo‘nalish inson tanasi va a’zolari haqidagi topishmoqlardir. Xalq ko‘z, qosh, tish, soch, barmoq, yurak kabi a’zolarni o‘tkir kuzatuv va nozik obrazlar orqali tasvirlagan. Masalan, tishlar haqidagi mashhur «Kichkina dekcha, ichi to‘la mixcha» topishmog‘i, ko‘zlar haqidagi «Qorong‘i dunyoni yoritgan ikki chiroq» qabilidagi topishmoqlar, soch haqidagi «Tog‘ ustida qalin o‘rmon» tarzidagi obrazlar bolada o‘z tanasiga qiziqish uyg‘otadi, a’zolarning tuzilishi va vazifasi haqida dastlabki tasavvur hosil qiladi. Tana a’zolarini bilish esa gigiena va sog‘liqni saqlash madaniyatining poydevoridir: tish haqidagi topishmoqdan tish tozalash odatiga, ko‘z haqidagi topishmoqdan ko‘zni avaylash zarurligiga o‘tish pedagogik jihatdan tabiiy va samaralidir.

Ikkinchi yo‘nalish ozodalik, pokizalik va gigiena vositalariga bag‘ishlangan topishmoqlar. Suv, sovun, sochiq, taroq, oyna kabi buyumlar haqidagi topishmoqlar bolani kundalik gigiena amallariga o‘rgatishda qulay vosita bo‘lib xizmat qiladi. Suv haqidagi «Oyog‘i yo‘g‘-u, yuguradi, tinmay oqib, kun ko‘radi» qabilidagi topishmoqlar suvning hayotbaxsh kuchini ulug‘lasa, sovun va taroqqa oid topishmoqlar ozodalikni kulgili, yoqimli obrazlarda tarannum etadi. Xalq tasavvurida pokizalik salomatlikning sharti ekani («Ozoda – salomat» g‘oyasi) topishmoqlarda ham o‘z aksini topgan.

Uchinchi yo‘nalish – harakat, tezlik, kuch va chaqqonlik obrazlari. Ko‘plab topishmoqlarda ot, kiyik, qush, shamol, soy kabi obrazlar aynan tezligi, uchqurligi,

tolmasligi bilan tasvirlanadi. Soya haqidagi «Quvsang – qochadi, qochsang – quvadi» topishmog‘i quvlashmachoq o‘yinining poetik ifodasidek jaranglaydi. Bunday topishmoqlar bola ongida tezkorlik, epchillik, chidamlilik kabi jismoniy sifatlarning qadriyat sifatidagi obrazini shakllantiradi: xalq nimani ulug‘lagan bo‘lsa, bola ham o‘shanga intiladi.

To‘rtinchi yo‘nalish – mehnat va mehnat qurollari haqidagi topishmoqlar. Ketmon, o‘roq, omoch, charx, beshik kabi buyumlarga oid topishmoqlar mehnat jarayonining jismoniy jihatini – kuchni, bardoshni, chiniqishni badiiy idrok etadi. Xalq pedagogikasida mehnat tarbiyasi bilan jismoniy tarbiya o‘zaro chambarchas bog‘liq: mehnatda chiniqqan tana sog‘lom, sog‘lom tana esa mehnatga qodir. Bu g‘oya «Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo‘lar chiroylik» kabi maqollarda ochiq aytilsa, topishmoqlarda obrazlar zamiriga singdirilgan.

Beshinchi yo‘nalish - sog‘lom turmush tarzining tabiiy omillari: quyosh, havo, suv, non, meva-sabzavotlar haqidagi topishmoqlar. Quyosh haqidagi «Olamni isitgan oltin lagan», non haqidagi, uzum, anor, yong‘oq kabi ne’matlar haqidagi topishmoqlar to‘g‘ri ovqatlanish va tabiat bilan uyg‘un yashash g‘oyalarini bolaga yuqtiradi. Shunday qilib, topishmoqlar majmuida jismoniy tarbiyaning barcha asosiy mazmuniy komponentlari - tana va a’zolar haqidagi bilim, gigiena madaniyati, jismoniy sifatlar qadriyati, mehnat orqali chiniqish va sog‘lom turmush omillari badiiy shaklda mujassamlashganini ko‘ramiz.

TOPISHMOQLARNING PEDAGOGIK FUNKSIYALARI

Yuqoridagi tahlil topishmoqlarning jismoniy tarbiya jarayonidagi pedagogik funksiyalarini ajratib ko‘rsatishga imkon beradi. Quyida ularning har birini alohida tavsiflaymiz.

Bilish (kognitiv) funksiyasi. Topishmoqlar bola uchun inson tanasi, salomatlik omillari va atrof-olam haqidagi bilimlarning dastlabki, obrazli «darsligi» vazifasini o‘taydi. Tana a’zolari, gigiena buyumlari, tabiat ne’matlari haqidagi topishmoqlar anatomiya, gigiena va valeologiyaga oid elementar tasavvurlarni o‘yin shaklida, zo‘riqishsiz shakllantiradi. Bunda bilim tayyor holda berilmagani uchun u puxta o‘zlashtiriladi va uzoq saqlanadi.

Rivojlantiruvchi funksiya. Topishmoq yechish diqqat, xotira, kuzatuvchanlik, taqqoslash va umumlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Jismoniy tarbiya nuqtai nazaridan bu g‘oyat muhim: harakat faoliyati ham idrok, diqqat va tezkor qaror qabul qilishni talab etadi. Mashg‘ulotda topishmoq bilan harakat topshirig‘ini birlashtirish (masalan, javobni topgan bola o‘sha obrazni harakatda ifodalashi) aqliy va jismoniy rivojlanishning birligini ta’minlaydi.

Tarbiyaviy-aksiologik funksiya. Topishmoqlar kuch, chaqqonlik, chidamlilik, ozodalik va mehnatsevarlikni ulug‘lash orqali bolada sog‘liq va jismoniy kamolotga nisbatan qadriyatli munosabatni tarbiyalaydi. Xalq topishmoqlarida yalqovlik, ifloslik hech qachon ijobiy obrazda berilmaydi; aksincha, tezlik, tolmaslik, pokizalik doimo estetik zavq bilan tasvirlanadi. Bola shu obrazlar orqali «sog‘lom va chaqqon bo‘lish – go‘zallик асоси» degan ishonchni o‘zlashtiradi.

Rag‘batlantiruvchi (motivatsion) funksiya. Topishmoq tabiatan o‘yin va musobaqадир. U mashg‘ulotga qiziqish, emotsional ko‘tarinkilik va bellashuv ruhini olib kiradi. Jismoniy tarbiya darsining kirish qismida aytilgan topishmoq bolalarni yangi mavzuga masalan, to‘p, arqon, koptokli o‘yinlarga qiziqtirib, faollikka chorlaydi. Topolmaganlarga beriladigan an’anaviy hazil «jarimalar» (sakrash, yugurish, davra aylanish) esa harakat faolligini yanada oshiradi.

Tashxis funksiyasi. Topishmoq yechish jarayonida pedagog bolaning bilim darajasi, tafakkur tezligi, lug‘at boyligi va emotsional holatini kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Tananing a’zolari yoki gigiena buyumlari haqidagi topishmoqlarga berilgan javoblar bolada sog‘liq madaniyatiga oid tasavvurlar qay darajada shakllanganini ko‘rsatuvchi o‘ziga xos indikator bo‘lib xizmat qiladi.

Kommunikativ-ijtimoiylashtiruvchi funksiya. Topishmoq aytish jamoaviy faoliyatdir: unda navbatga rioya qilish, o‘zgani tinglash, yutuqqa quvonish va mag‘lubiyatni hazil bilan qabul qilish kabi ijtimoiy ko‘nikmalar mashq qilinadi. Bu sifatlar jamoaviy sport o‘yinlari uchun zarur bo‘lgan hamkorlik va sog‘lom raqobat madaniyatining asosidir.

Sog‘lomlashtiruvchi-reabilitatsion funksiya. Mashg‘ulot davomida topishmoqdan foydalanish jismoniy yuklamalar orasida faol dam olish daqiqalarini mazmunli tashkil etishga xizmat qiladi: bola nafasini rostlar ekan, aqliy faoliyat bilan band bo‘ladi. Bunday navbatlashuv bolaning asab tizimini ortiqcha zo‘riqishdan saqlaydi va mashg‘ulotning umumiy sog‘lomlashtiruvchi samarasini oshiradi.

TOPISHMOQLARDAN JISMONIY TARBIYA JARAYONIDA FOYDALANISH METODIKASI

Topishmoqlarning yuqorida ko‘rsatilgan funksiyalari o‘z-o‘zidan ro‘yobga chiqmaydi buning uchun ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga maqsadli va metodik jihatdan to‘g‘ri tatbiq etish talab qilinadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida topishmoqlardan ertalabki badantarbiya oldidan tashkiliy daqiqa sifatida foydalanish maqsadga muvofiq: tarbiyachi quyosh, suv yoki biror hayvon haqida topishmoq aytadi, bolalar javobni topgach, o‘sha obrazga taqlid qiluvchi harakatlarni (qushdek uchish, otdek chopish, quyondek sakrash) bajaradilar.

Bunday «topishmoq-harakat» mashqlari taqlidiy gimnastikaning ta’sirchan shaklidir.

Boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya darsining kirish qismida mavzuni e’lon qilish o‘rniga unga oid topishmoq aytish mumkin: to‘p, arqon, chana, varrak haqidagi topishmoq dars mazmuniga tabiiy ko‘prik bo‘ladi. Darsning asosiy qismida esa topishmoqlarni estafeta va harakatli o‘yinlarga kiritish samaralidir: har bir bosqich to‘g‘ri topilgan javobdan keyin boshlanadi, jamoalar o‘rtasida ham tezlik, ham topqirlik bo‘yicha bellashuv kechadi. Shuningdek, milliy harakatli o‘yinlar («Oq terakmi, ko‘k terak», «Chillak», «Durra olish» kabi) oldidan o‘yin atributlari haqida topishmoq aytish o‘yinning milliy ruhini kuchaytiradi.

Sog‘lom turmush tarziga oid tarbiyaviy soatlarda topishmoqlar suhbatning tayanch nuqtalari vazifasini o‘tashi mumkin: tish haqidagi topishmoqdan tish parvarishi haqidagi suhbatga, suv va sovun haqidagi topishmoqdan jismoniy mashqlardan keyingi gigiena qoidalariga o‘tiladi. Yuqori yosh bosqichida bolalarga topishmoq to‘qish topshirig‘ini berish sport anjomlari, sport turlari, jismoniy sifatlar haqida o‘z topishmoqlarini yaratish ijodiy va refleksiv faoliyatning yuksak shakli bo‘lib, bilimlarni chuqur anglab o‘zlashtirishga olib keladi.

Topishmoqlardan foydalanishda quyidagi metodik talablarga rioya qilish lozim: topishmoq bolaning yoshi va tajribasiga mos bo‘lishi; javob bolaga tanish predmet yoki hodisa bo‘lishi; topishmoq dars mazmuni bilan mantiqan bog‘lanishi; javob topilgach, obraz bilan haqiqiy predmet o‘rtasidagi o‘xshashlik qisqacha sharhlanishi; mashg‘ulotda topishmoqlar me’yorida (odatda ikki-uchtadan oshmagan holda) qo‘llanishi kerak. Shundagina topishmoq o‘yinchoq emas, balki tarbiya quroli bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA

O‘tkazilgan tahlil quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi. Birinchidan, o‘zbek xalq topishmoqlari jismoniy tarbiya g‘oyalarining o‘ziga xos badiiy ifodasi bo‘lib, ularda inson tanasi va a’zolari haqidagi bilimlar, ozodalik va gigiena madaniyati, kuch, chaqqonlik, chidamlilik kabi jismoniy sifatlarning qadriyati hamda sog‘lom turmush tarzining tabiiy omillari obrazli shaklda mujassamlashgan. Ikkinchidan, topishmoqlar jismoniy tarbiya jarayonida bilish, rivojlantiruvchi, tarbiyaviy-aksiologik, rag‘batlantiruvchi, tashxis, kommunikativ va sog‘lomlashtiruvchi funksiyalarni bajarib, aqliy va jismoniy tarbiyaning uzviy birligini ta’minlaydi.

Uchinchidan, topishmoqlarning tarbiyaviy salohiyati ulardan maqsadli, yoshga mos va dars mazmuni bilan bog‘liq holda foydalanilgandagina to‘liq namoyon bo‘ladi. Shu bois maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilari va jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun jismoniy tarbiya mazmuniga mos topishmoqlarning mavzuiy to‘plamlarini yaratish, ularni dasturiy va metodik hujjatlarga kiritish maqsadga muvofiqdir. Xalq pedagogikasining bu bebaho merosidan oqilona foydalanish yosh avlodni jismonan sog‘lom, aqlan yetuk va ma’naviy barkamol etib tarbiyalashdek umummilliy vazifaning samarali vositalaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. - Тошкент, 2020.
2. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. -Тошкент: Ўқитувчи, 1992. 160 -б.
3. Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари. - Тошкент: Фан, 1993.

4. Ҳусаинова З. Ўзбек топишмоқлари. - Тошкент: Фан, 1966.
5. Топишмоқлар / Тузувчи З. Ҳусаинова. Ўзбек халқ ижоди туркуми. - Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.
6. Жаҳонгиров Ғ. Ўзбек болалар фолклори. - Тошкент: Ўқитувчи, 1975.
7. Сафаров О. Ўзбек болалар поэтик фолклори. - Тошкент: Ўқитувчи, 1985.
8. Волков Г.Н. Этнопедагогика: Учебник для студентов средних и высших педагогических учебных заведений. - М.: Академия, 1999. -168 с.
9. Усмонхўжаев Т.С., Хўжаев Ф. 1001 ўйин: Миллий ҳаракатли ўйинлар. - Тошкент: Ибн Сино, 1990.
10. Абдуллаев А., Хонкелдиев Ш.Х. Жисмоний тарбия назарияси ва услубияти. -Тошкент: ЎзДЖТИ, 2005.

O‘ZBEK AFSONALARIDA TOSHGA AYLANISH MOTIVINING MIFOPOETIK TALQINI

Qo‘shmonova Yulduz Toyir qizi
Assistent, Samarqand Davlat Universiteti
Urgut filiali, O‘zbekiston, Samarqand,
kushmonovayulduz@gmail.com,
https://orcid.org/0009000135828188
(O‘zbekiston)

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston hududida keng tarqalgan afsonalarda uchraydigan toshga aylanish motivi lingvokulturologik va mifopoetik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda afsona janrining nazariy asoslari,

xususan, O. Safarov va M. N. Önal tasniflari hamda Stith Thompson motivlar indeksi asosida toshga aylanish bilan bog‘liq syujetlar o‘rganiladi. Afsonalarda mazkur motiv ko‘pincha ilohiy jazolash, muhabbat fojeasi, sadoqat va axloqiy qadriyatlar bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lishi aniqlanadi. Shuningdek, ushbu motiv orqali tog‘, tosh kabi tabiiy obyektlarning kelib chiqishi etiologik jihatdan izohlanishi ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari toshga aylanish motivining o‘zbek afsonalarida muhim semantik va funksional yukga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: afsona, motiv, toshga aylanish, evrilish, mifopoetika, kosmogoniya, ilohiy jazo, etiologiya

Abstract: This article analyzes the motif of petrification in legends of the Uzbekistan region from a linguocultural and mythopoetic perspective. The study is based on theoretical approaches to the legend genre, including the classifications of O. Safarov and M. N. Önal, as well as Stith Thompson’s motif index. It is revealed that the petrification motif is often associated with divine punishment, tragic love, loyalty, and moral values. In addition, this motif performs an etiological function by explaining the origin of natural objects such as rocks and mountains. The findings demonstrate that the petrification motif plays a significant semantic and functional role in Uzbek folklore narratives.

Keywords: legend, motif, petrification, transformation, mythopoetics, cosmology, divine punishment, etiology

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan boy va rang-barang folklor merosiga ega bo‘lib, unda xalqning ibtidoiy dunyoqarashi, tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlari, estetik hamda axloqiy qadriyatlari o‘z ifodasini topgan. Shu jihatdan afsona janri xalq tafakkurining qadimgi qatlamlarini o‘rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Afsonalar orqali insonning borliqni anglash jarayoni, tabiat

hodisalarini tushuntirishga bo‘lgan intilishi hamda kosmik va ijtimoiy voqelikni badiiy talqin qilish an’analari namoyon bo‘ladi.

Xususan, o‘zbek afsonalarida keng uchraydigan motivlardan biri — toshga aylanish (evrilish) motivi bo‘lib, u mifologik tafakkur mahsuli sifatida shakllangan murakkab semantik hodisadir. Shu o‘rinda motiv haqida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

“Motif nima?” degan savolga Stith Thompson quyidagicha ta’rif beradi: motiv — qadim zamonlardan buyon yashab kelayotgan ertak yoki rivoyatning eng kichik tarkibiy unsuri hisoblanadi.

Max Lüthi esa motivni boshqacha izohlaydi: u motivni an’anaviy muhitda saqlanib qolish xususiyatiga ega bo‘lgan, hikoya tuzilmasining eng kichik, mustaqil elementi sifatida talqin etadi [10. 24-b.]

Biz yuqorida ta’kidlagan motiv ko‘pincha insonning turli sabablar (ilohiy jazo, muhabbat fojeasi, sadoqat, xiyonat, ijtimoiy adolatsizlik) natijasida boshqa shaklga o‘tishi orqali ifodalanadi. Natijada tosh, tog‘, qoya kabi tabiiy obyektlarning kelib chiqishi xalqona tasavvurlar asosida izohlanadi.

Toshga aylanish motivi nafaqat o‘zbek folklorida, balki turkiy xalqlar og‘zaki ijodida ham keng tarqalgan bo‘lib, u mifologik, tarixiy va mistik afsonalar tarkibida turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Bu esa mazkur motivning tipologik jihatdan barqarorligini va umumiy folklor tizimidagi muhim o‘rnini ko‘rsatadi. Ayniqsa, Samarqand hududi bilan bog‘liq afsonalarda ushbu motivning faol qo‘llanilishi hududiy folklorning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Mazkur maqolada Samarqand afsonalarida uchraydigan toshga aylanish motivi lingvokulturologik va mifopoetik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotning nazariy asoslari sifatida o‘zbekistonlik olim O. Safarov hamda turkiyalik folklorshunos prof. M. N. Önal tomonidan taklif etilgan afsonalar tasnifi, shuningdek, Stith Thompsonning motivlar indeksi qo‘llaniladi. Ushbu yondashuv

motivning semantik, funksional va tipologik xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Maqolaning maqsadi — Samarqand afsonalarida toshga aylanish motivining badiiy-funksional xususiyatlarini aniqlash, uning mifologik ildizlari va xalq tafakkuridagi o‘rnini yoritishdan iborat. Shu bilan birga, mazkur motiv orqali ifodalangan axloqiy, diniy va estetik qarashlar tizimi ham o‘rganiladi.

Shu nuqtayi nazardan, toshga aylanish motivini kompleks o‘rganish nafaqat folklorshunoslik, balki lingvokulturologiya, mifologiya va madaniyatshunoslik sohalari uchun ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Samarqand tarixiy-madaniy hudud sifatida ko‘p qatlamli folklor merosiga ega bo‘lib, unda turli tipologik va motivik xususiyatlarga ega afsona namunalari keng tarqalgan. Mazkur hudud afsonalari umumturkiy folklor an’analari bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan bo‘lib, ularning tarkibida qadimgi mifologik tasavvurlar, tarixiy voqealar va xalqning estetik qarashlari mujassamlashgan.

Ma’lumki, turkiy xalqlar folklorida afsona janri turli nomlar bilan ataladi. Xususan, “afsona”, “efsane”, “rivoyat”, “legenda” kabi atamalar bilan bir qatorda ushbu janr “kep-kuuçın” (Altay), “kip-çooh”, “çooh-çaah”, “nımah” (Hakas), “toolçurgu çugaa” (Tuva), “kepseen”, “sehen”, “bılırgı sehen” (Yakut), “halap” (Chuvash) kabi nomlar bilan ifodalanadi [3. 11–16-b.] Bu esa afsona janrining keng hududda tarqalganligini hamda uning umumturkiy madaniyatdagi muhim o‘rnini ko‘rsatadi.

O‘zbek afsonalarini ilmiy o‘rganish XIX asrda boshlangan bo‘lib, dastlabki bosqichda rus sayyohlari va tadqiqotchilari tomonidan afsona matnlarini to‘plash va nashr etish ishlari amalga oshirilgan. Keyingi davrlarda esa o‘zbek olimlari tomonidan bu yo‘nalish izchil davom ettirilib, afsona janri ilmiy jihatdan tizimli ravishda o‘rganila boshlagan.

Afsona janri lug‘atlarda va ilmiy adabiyotlarda turlicha ta’riflanadi. Jumladan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da afsona avloddan avlodga og‘zaki tarzda o‘tib kelgan, asosan uydirma va ba’zan diniy mazmunga ega bo‘lgan hikoya sifatida izohlanadi [5.]. Shuningdek, “efsane” atamasining etimologik jihatdan fors tilidan kirib kelgani va “afsunli, füsunli hikoya” ma’nosini anglatishi ham qayd etiladi [2. 19-b.]. Bu ta’riflar afsonaning badiiylik, g‘ayritabiiylik xususiyatlarini ochib beradi.

Afsona janrining tasnifi masalasi folklorshunoslikda muhim ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Turli olimlar tomonidan afsonalar mavzu va mazmuniga ko‘ra turlicha guruhlarga ajratilgan. Xususan, O. Safarov afsonalarni mavzuiy jihatdan tasniflab, ularning tipologik xususiyatlarini ko‘rsatib bergan. [1. 225-b.].

Turk olimi M. N. Önal tomonidan taklif etilgan tasnif esa afsona janrini yanada batafsil va tizimli tarzda yoritadi. Unga ko‘ra, afsonalar quyidagi asosiy guruhlarga ajratiladi:

Yaratilish, shakllanish va evrilish (transformatsiya) afsonalari — bu guruhga olam, inson, hayvon, o‘simlik va ayniqsa toshga aylanish bilan bog‘liq afsonalar kiradi;

Tarixiy afsonalar — tarixiy shaxslar, joylar, inshootlar, ko‘priklar, tog‘lar va boshqalar bilan bog‘liq rivoyatlar;

G‘ayritabiiy mavjudotlar va hodisalar bilan bog‘liq afsonalar — jin, pari, shayton va boshqa obrazlar ishtirokidagi voqealar;

Mistik afsonalar — erenlar, Xizr, muqaddas daraxtlar va diniy motivlar bilan bog‘liq rivoyatlar [2. 24–25-b.]

Mazkur tasnifda toshga aylanish motivi alohida kichik guruh sifatida ajratilgan bo‘lib, bu uning folklor tizimidagi mustaqil va muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Maqola metodologiyasi sifatida og‘zaki va yozma manbalardan foydalanish, tarixiy-qiyosiy (Fin tarixiy-geografik usuli) yondashuvi hamda Stith Thompsonning motivlar indeksidan foydalanish asos qilib olindi. Ushbu metodlar afsonalarni tipologik va motivik jihatdan tahlil qilish imkonini beradi.

Afsonalar umumiy holda ko‘plab tip va tematik guruhlarga ega bo‘lib, ular ko‘pincha bir motivlilik xususiyati bilan ajralib turadi. Har bir afsona ma’lum bir asosiy motiv atrofida shakllanib, uning mazmuni va g‘oyaviy yo‘nalishini belgilaydi. Shu bois tadqiqot jarayonida afsonalar tematik guruhlar asosida tahlil qilinib, har bir guruh quyidagi struktura asosida yoritildi: qisqacha tavsif, afsona namunasi, motiv (Motif Index kodi bilan) va umumiy xulosa.

Mazkur maqolada asosiy e’tibor **toshga aylanish motivi**ga qaratilib, u bilan bog‘liq afsonalar alohida tahlil qilindi. Tahlil natijasida ushbu motiv bilan bog‘liq quyidagi asosiy semantik yo‘nalishlar aniqlandi: insonning toshga aylanishi (evrilish); hayvon yoki boshqa shaklga aylanish; ilohiy jazolash; mo‘jiza va karomat; urush, fojea va dramatik voqealar bilan bog‘liqlik.

Shunday qilib, toshga aylanish motivi nafaqat badiiy vosita, balki xalq tafakkurining qadimgi qatlamlarini aks ettiruvchi, tabiat hodisalarini tushuntirishga xizmat qiluvchi muhim mifopoetik element sifatida namoyon bo‘ladi.

IT

Qadim-qadim zamonlarda Daqqiyunus nomli podshoh bo‘lib, u nihoyatda zolim ekan. El ulusni ezishni va xo‘rlashni haddan ziyod oshirib yuborgan ekan. Daqqiyunusning ko‘z ko‘rib quloq eshitmagan zulm va zo‘rligidan to‘yib ketgan yetti nafar kishi shahardan chiqib ketibdi. Ular yurib-yurib bir toqqa borib qolishibdi. Yo‘lda ularga bir cho‘pon olapar iti bilan qo‘shilib olgan ekan. Ollo-taolloning karomati bilan yettovlon, cho‘pon, iti uch yuz yil shu tog‘dagi g‘orda yashashibdi. Aytishlaricha, qiyomat kuni shu itga odam terisi baxsh etilib, u

tamomila insonga aylanarmish. Chunki u ham odamlar qatorida odamlardek yashab, hatto ularni vaqti kelsa boqib, vaqti kelsa kasallariga qarab, do‘stlaridan ogohlantirib, dushmanlardan saqlab, asragan emish-da...

Mazkur afsona M. N. Önal tomonidan taklif etilgan tasnifga muvofiq *mistik afsonalar* guruhiga mansub bo‘lib, unda ilohiy karomat va qiyomat tasavvurlari yetakchi o‘rin egallaydi. Shu bilan birga, unda g‘ayritabiiy hodisalar tasviri ustuvor bo‘lganligi sababli afsonani g‘ayritabiiy voqealar bilan bog‘liq afsona sifatida ham baholash mumkin. Afsona mazmunida diniy motivlarning kuchli ifodalanishi esa uni diniy-mifologik xarakterdagi rivoyat sifatida talqin etishga asos beradi. Tadqiq etilayotgan syujetning markazida evrilish (transformatsiya) motivi turadi. Xususan, itning qiyomat kuni insonga aylanishi haqidagi tasavvur ushbu motivning asosiy ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur motiv bilan bir qatorda bir qator qo‘shimcha motivlar ham kuzatiladi: zolim hukmdor zulmidan qochish, g‘orda yashash orqali panoh topish, ilohiy karomatning namoyon bo‘lishi, vaqtning nisbiyligi yoki uzoq muddatli yashash (uyqu) tasavvuri hamda it obrazi orqali ifodalangan sadoqat g‘oyasi. Shunday qilib, afsonada asosiy va qo‘shimcha motivlarning o‘zaro uyg‘unligi orqali diniy-mifologik qarashlar tizimi badiiy ifodasini topgan. Quyida afsonada mavjud bo‘lgan motivlar Stith Thompson tomonidan tuzilgan **“Motif-Index of Folk-Literature”** katalogi asosida ularning raqami va ilmiy nomlanishi bilan aniqlanib, tizimli ravishda keltiriladi.

Motivlar:

V300 — diniy e’tiqod (qiyomat tushunchasi)

H1385 — yashirinib omon qolish (g‘or motivi)

B300 — sodiq hayvon motivi

Afsonada g‘or obrazi panoh va muqaddas makon sifatida talqin qilinib, u diniy-mifologik tafakkurda ilohiy himoya va najot ramzi vazifasini bajaradi. It obrazi esa sadoqat, fidoyilik va himoya kabi insoniy fazilatlarning timsoli sifatida

namoyon bo‘ladi. Itning qiyomat kuni insonga aylanishi haqidagi tasavvur evrilish (transformatsiya) motivining muhim ko‘rinishi bo‘lib, bu yerda u jazolash emas, balki mukofotlash xarakteriga ega bo‘lgan semantik mazmunni ifodalaydi.

Mazkur afsona xalq ongida yaxshilik, sadoqat va sabr kabi axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, it obrazining ijobiy talqini turkiy folklor an’anasida nisbatan kam uchraydigan, biroq yuqori semantik va aksiyologik yukka ega hodisa sifatida e’tiborni tortadi.

Shuningdek, afsona bevosita muayyan tabiiy obyektning kelib chiqishini izohlashga qaratilmagan bo‘lsa-da, u orqali qator diniy-mifologik qarashlar, xususan, g‘orlarning muqaddas makon sifatida talqini, uzoq umr yoki vaqtning nisbiyligi haqidagi tasavvurlar hamda qiyomat konsepsiyasi badiiy shaklda ifodalanadi.

Mazkur afsonada evrilish motivi ilohiy mukofot shaklida namoyon bo‘lib, sadoqat va sabr g‘oyalari asosiy semantik markazni tashkil etadi. Afsona diniy-mifologik tafakkur mahsuli sifatida xalqning axloqiy va e’tiqodiy qarashlarini aks ettiradi.

OSHIQ-MA’SHUQ TOSHI

Qadim-qadimlarda Qizilqumga tutash Burxon tog‘i yon bag‘rida Burxonboy degan juda boy va badavlat kishi yashagan ekan. Uning qo‘ylari yoyilsa, Qizilqumga to‘lar, molu dunyosini tuyalarga ortsa, bu dunyoda tuya yetmay qolarkan. Bir joyga uyib qo‘ysa, tog‘dan baland bo‘larkan. Burxonboyning o‘g‘li yo‘q ekan. Bittayu bitta qizi bo‘lib, u nihoyatda chiroyli, qaddi-qomati kelishgan, o‘ziga juda yarashgan ekan. Maktabda o‘qib savod chiqargan, oq-qorani tanigan, aqlli va dono qiz ekan. U o‘qish-yozish bilan birga suratlar chizar, g‘azallar bitar, qo‘shiqlar aytar ekan. Kunlarini tog‘u toshlarga suratlar chizish, g‘azallar yozish va qo‘shiqlar aytish bilan o‘tkazar ekan. Qizning kasbi-kori, husn-jamoli, aqlu

idroki, ayniqsa, suratkashligi hamma yoqqa ovoza bo‘libdi. Har yerdan sovchilar kela boshlabdi. Ammo qiz ularning barchasini birma-bir rad etaveribdi. Kunlardan bir kuni qiz tog‘ etagidagi qoyalarga odamlar, hayvonlar va gullarning rasmini chizib turgan ekan. Shu payt qo‘shni yurtdan bir ovchi yigit ov qilib yurib, qizning oldidan chiqib qolibdi. Bu yigit ham juda baquvvat, kelishgan, yigitlarning sultoni, donishmandlikda ham tengsiz ekan. Qizning ko‘zi yigitga tushibdi, yigitning nigohi qizga tushibdi. Ishq-muhabbat qiziq ekan: bir ko‘rishda paydo bo‘lar ekan-u, bir umr yuraklarga muhrlanib qolarkan. Qiz bilan ovchi yigit ham bir-birlarini ko‘rgan zahotiyoq sevib qolishibdi. Keyin:

— Umrbod birga bo‘lamiz, bizni faqat o‘lim ajrata oladi, — deb ahdu paymon qilishibdi.

Sevishganlar bir kun bir-birlarini ko‘rmasalar, turolmas emish. Shu bois ular tez-tez uchrashib turishibdi. Ammo bu uzoqqa cho‘zilmabdi. Bir kuni ayg‘oqchi cho‘ponlardan biri ularning yashirin uchrashuvini ko‘rib qolibdi. Burxonboydan pul-mol tama qilib, xiyonat yo‘liga kiribdi va hammasini unga aytibdi. Hatto ularni o‘zi boshlab boribdi. Qizini oshig‘i bag‘rida, dunyoni unutgan holda ko‘rgan Burxonboy rahm-shafqat qilmaydi. Yigitlarini buyurib, ovchi yigitni ushlatib, tog‘ning eng baland cho‘qqisiga olib chiqadi. Yigitga:

— Ma’shuqangdan voz kechsang, tirik qolasan, — deydi. Yigit rozi bo‘lmaydi. Qizga ham shunday talab qo‘yiladi, ammo u ham rad etadi. Shundan so‘ng Burxonboyning buyrug‘i bilan yigitni cho‘qqidan tashlashadi. Qiz qon-qon yig‘laydi, aqlu hushidan ayriladi. Otasidan yuz o‘girib, tog‘u toshlarga chiqib ketadi. Telbasifat holda suratlar chizishda davom etadi. Tog‘ning eng baland joyiga oshig‘ining qiyofasini tasvirlaydi. So‘ng Xudodan o‘zini ham toshga aylantirib qo‘yishni iltijo qiladi. Keyin o‘zini tog‘dan tashlaydi. Yumalab-yumalab oshig‘i to‘xtab, toshga aylangan joyga kelgach, u ham toshga aylanadi. Ikkalasi

yonma-yon tosh bo‘lib qoladi. Voqeadan xabar topgan xalq tog‘ni ***Burxonboy tog‘i****, toshlarni esa* ***“Oshiq-ma’shuqlar toshi”*** *deb atay boshlaydi. O‘sha “Oshiq-ma’shuq toshi” izg‘irin sovuqlar, selu jalalar, shamolu bo‘ronlarga qaramay, hozir ham saqlanib qolgan emish...*

Mazkur afsona M. N. Önal tomonidan taklif etilgan tasnifga muvofiq yaratilish, shakllanish va evrilish afsonalari guruhiga mansub bo‘lib, xususan, toshga aylanish bilan bog‘liq afsonalar tarkibiga kiradi. Shu bilan birga, unda fojeaviy sevgi, ijtimoiy qarama-qarshilik va ilohiy aralashuv unsurlari ustuvor bo‘lganligi sababli mazkur afsonani diniy-mifologik va ijtimoiy-motivli afsona sifatida ham baholash mumkin.

Tadqiq etilayotgan syujetning markazida evrilish (transformatsiya) motivi turadi. Xususan, oshiq-ma’shuqlarning fojeali taqdiri natijasida toshga aylanishi ushbu motivning asosiy ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur asosiy motiv bilan bir qatorda bir qator qo‘shimcha motivlar ham kuzatiladi: ijtimoiy tengsizlik (boy va kambag‘al qarama-qarshiligi), majburiy nikohga qarshilik, sevgi va sadoqat, xiyonat (ayg‘oqchi obrazi orqali), otaning zolimligi, fojeaviy o‘lim hamda ilohiy aralashuv. Shunday qilib, afsonada asosiy va qo‘shimcha motivlarning o‘zaro uyg‘unligi orqali muhabbat, sadoqat va ijtimoiy adolatsizlikka munosabat kabi g‘oyalar badiiy ifodasini topgan. Quyida afsonada mavjud bo‘lgan motivlar Stith Thompson tomonidan tuzilgan **“Motif-Index of Folk-Literature”** katalogi asosida ularning raqami va ilmiy nomlanishi bilan aniqlanib, tizimli ravishda keltiriladi.

Motivlar:

TO/T99 — sevgi

V300 — diniy etiqod (ilohiy aralashuv)

Afsonada tosh obrazi abadiylik va fojeaning muzlashi ramzi sifatida talqin qilinadi. Oshiq-ma’shuqlarning toshga aylanishi muhabbatning vaqt va makondan

ustun turuvchi, o‘zgarmas va boqiy hodisa sifatida ifodalanganini ko‘rsatadi. Bu yerda evrilish motivi nafaqat jazolash, balki sevgi va sadoqatni abadiylashtirish vositasi sifatida ham muhim semantik yuk kasb etadi.

Mazkur afsona xalq ongida sevgi, sadoqat va fidoyilik kabi axloqiy qadriyatlarni ulug‘lash bilan birga, ijtimoiy adolatsizlik — majburiy nikoh, ota hukmronligi va boylikka asoslangan munosabatlarga nisbatan tanqidiy qarashlarni ham aks ettiradi. Ayniqsa, ayg‘oqchi obrazi orqali xiyonatning salbiy oqibatlari ochib beriladi.

Shuningdek, afsona aniq tabiiy obyekt — ya’ni tog‘ va toshlarning kelib chiqishini izohlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan u etiologik funksiyaga ega bo‘lib, real geografik obyekt (“Oshiq-ma’shuqlar toshi”)ni xalqona mifologik tafakkur asosida tushuntiradi.

Mazkur afsonada evrilish motivi fojeaviy yakun orqali namoyon bo‘lib, sevgi va sadoqat g‘oyalari asosiy semantik markazni tashkil etadi. Afsona mifopoetik tafakkur mahsuli sifatida xalqning estetik, axloqiy va ijtimoiy qarashlarini mujassamlashtiradi.

KELINCHAK TOG‘I

Forish markaziga yetib olish uchun mashina poylab turibman. Aksiga olib birorta ulov o‘tmasa deng. Nachora, sabr qilishga to‘g‘ri keladi. Atrof biyday dala. Turgan joyimdan Aydarko‘l aniq-ravshan ko‘rinib turarkan. Quyosh chiqadigan yoqdagi qoyalar esa, qordan do‘ppi kiygan. O‘sha tomonga uzoq tikilib qoldim.

— Ha, mehmonjon! Tog‘larga uzoq tikilib qoldingiz? — dedi shu yerlik qariya.

— O‘zim shunchaki. Bu yerdan chiroyli ko‘rinarkan, — dedim.

— Bu kelinchak tog‘i bo‘ladi, — deya tushuntira ketdi mo‘ysafid. — Qarang, ko‘rinishi xuddi kelinchakka o‘xshaydi-a? Shu sabab shunday nom olgan. Xalq

orasida Kelinchak tog‘i bilan bog‘liq ko‘plab rivoyat, afsonalar yurarkan. So‘zga chechan, ochiqko‘ngil otaxondan o‘sha rivoyatlardan birortasini so‘zlab berishini so‘radim.

— Rivoyat qilishlaricha, qadimda biz turgan qishloqda aql-farosatli, mehnatkash, husnu malohatda tengsiz bir go‘zal qiz yashagan ekan, — deya hikoyasini boshladi otaxon. — U tikkan so‘zana-yu, palaklar juda chiroyli bo‘lib, tez sotilib ketar ekan. Qiz shikorga ishqiboz ekan. U bir kuni tog‘u toshlarda ov qilib yurganida, qishlog‘ini yog‘iy bosibdi. Son jihatidan ancha ko‘p bo‘lgan yov bir zumda qishloq kulini ko‘kka sovurib, erkaklarni o‘ldiribdi. Qiz-juvonlarni oyoqosti qilibdi. Xuddi shu payt qiz ovdan qaytib qolibdi. Qaytibdi-yu ko‘zi yovga tushibdi va darhol toqqa qochibdi. Dushman askarlari ham qiz ortidan izma-iz boraveribdi. Qiz qocha turib, ortidan kelayotgan dushmanining ancha-munchasini kamondan o‘q otib qulatibdi. Keyin qizning kamon o‘qlari tugabdi. Dushman esa, juda yaqinlashib qolgan. Shunda qiz Xudoga: yolvorib: «Yog‘iy qo‘lida asir bo‘lgandan toshga aylanib qolganim yaxshi!» deya nola qilibdi. Qizning ohu nolasi ijobat bo‘lib, toqqa aylanibdi...

Chindan ham, yurtimiz tog‘larida juda ko‘plab sir-sinoat, g‘aroyibotlar yashirin. Ularning har biri haqida afsona-yu rivoyatlar el orasida og‘izdan-og‘izga ko‘chib yuradi. Otaxonning rivoyati o‘zgacha taassurot qoldirarkan. Ammo so‘zlab berish mahoratiga ham tan bermay iloj yo‘q... Bu tog‘ Nurota tumani, «Nurota» qorako‘lchilik xo‘jaligida joylashgan [9.].

Mazkur afsona M. N. Önal tomonidan taklif etilgan tasnifga muvofiq yaratilish, shakllanish va evrilish afsonalari guruhiga mansub bo‘lib, xususan, toshga (tog‘ga) aylanish bilan bog‘liq afsonalar tarkibiga kiradi. Shu bilan birga, unda tarixiy voqealarga o‘xshash tasvirlar (yov bosqini) mavjud bo‘lganligi sababli uni qisman tarixiy-etiologik afsona sifatida ham baholash mumkin. Afsona

mazmunida ilohiy aralashuv muhim o‘rin egallagani bois u diniy-mifologik xarakterdagi rivoyat sifatida ham talqin etiladi.

Tadqiq etilayotgan syujetning markazida evrilish (transformatsiya) motivi turadi. Xususan, qizning dushman qo‘liga tushmaslik uchun Xudoga iltijo qilib, toqqa aylanishi ushbu motivning asosiy ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur asosiy motiv bilan bir qatorda bir qator qo‘shimcha motivlar ham kuzatiladi: vatan himoyasi, nomus va orni saqlash, dushmandan qochish, ilohiy najot, jasorat va fidoyilik.

Shunday qilib, afsonada asosiy va qo‘shimcha motivlarning o‘zaro uyg‘unligi orqali axloqiy, ijtimoiy va diniy qadriyatlar tizimi badiiy ifodasini topgan. Quyida afsonada mavjud bo‘lgan motivlar Stith Thompson tomonidan tuzilgan **“Motif-Index of Folk-Literature”** katalogi asosida ularning raqami va ilmiy nomlanishi bilan aniqlanib, tizimli ravishda keltiriladi.

Motivlar:

V300 — diniy etiqod (Xudoga iltijo)

K183 — dushmandan qochish

Afsonada tog‘ obrazi abadiylik, poklik va nomus timsoli sifatida talqin qilinadi. Qizning toqqa aylanishi uning jismoniy halokati emas, balki ma’naviy pokligini saqlab qolish yo‘lidagi ramziy najot sifatida ifodalanadi. Bu yerda evrilish motivi jazolash emas, balki nomusni asrash va ilohiy himoya shakli sifatida semantik mazmun kasb etadi. Mazkur afsona xalq ongida nomus, vatanparvarlik, jasorat va fidoyilik kabi qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, ayol obrazining faol va jasoratli tarzda tasvirlanishi, uning passiv emas, balki qaror qabul qiluvchi subyekt sifatida namoyon bo‘lishi muhim lingvokulturologik ahamiyatga ega. Shuningdek, afsona aniq tabiiy obyekt — “Kelinchak tog‘i”ning kelib chiqishini izohlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan u etiologik funksiyaga ega bo‘lib, tog‘ shaklining inson (kelinchak) qiyofasiga

o‘xshashligi xalqona mifologik tafakkur asosida tushuntiriladi. Mazkur afsonada evrilish motivi qahramonning irodaviy tanlovi va ilohiy aralashuv orqali yuzaga kelib, nomus va poklik g‘oyalari asosiy semantik markazni tashkil etadi. Afsona mifopoetik tafakkur mahsuli sifatida xalqning axloqiy, estetik va diniy qarashlarini mujassamlashtiradi.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Samarqand hududi afsonalarida uchraydigan toshga aylanish motivi xalqning qadimgi mifologik tafakkuri, estetik qarashlari hamda axloqiy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim mifopoetik element hisoblanadi. Ushbu motiv turli syujetlarda — ilohiy jazolash, fojeaviy sevgi, sadoqat, fidoyilik, ijtimoiy adolatsizlikka qarshilik kabi mazmuniy yo‘nalishlar bilan uyg‘un holda namoyon bo‘ladi.

Tahlil qilingan afsonalarda evrilish (transformatsiya) motivi yetakchi o‘rin tutib, u orqali insonning boshqa shaklga o‘tishi badiiy ifodalanadi. Bu jarayon ba’zan jazolash, ba’zan esa mukofotlash yoki ma’naviy najot sifatida talqin qilinadi. Natijada tosh, tog‘, qoya kabi tabiiy obyektlarning kelib chiqishi xalqona tasavvurlar asosida etiologik jihatdan izohlanadi.

Shuningdek, afsonalarda qo‘llanilgan motivlar tizimi (sevgi, sadoqat, ilohiy aralashuv, qahramonlik, xiyonat va boshqalar) ularning semantik va funksional yukini yanada boyitadi. Bu esa afsonalarni nafaqat badiiy matn, balki xalq dunyoqarashi va ijtimoiy ongining mahsuli sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, toshga aylanish motivi o‘zbek, xususan, Samarqand afsonalarida tabiat va inson o‘rtasidagi munosabatlarni tushuntiruvchi, axloqiy qadriyatlarni mustahkamlovchi va mifologik tafakkurni ifodalovchi universal motiv sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu motivni lingvokulturologik va mifopoetik jihatdan o‘rganish folklorshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safarov O. (2010). *O‘zbek xalq og‘zaki ijodi*. Toshkent.

2. Önal M. N. (2013). *Muğla efsaneleri*. Ankara.
3. Ergun M. (1997). *Türk dünyası efsaneleri*. Ankara.
4. Thompson S. (1955–1958). *Motif-Index of Folk Literature*. Bloomington.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. (2006). 1-jild. Toshkent.
6. Propp V. Ya. (1986). *Folklor va mifologiya masalalari*. Moskva.
7. Eliade M. (1991). *Myth and Reality*. New York.
8. Afzalov M. (1987). *O‘zbek xalq og‘zaki ijodi*. Toshkent.
9. Aktamov, U. Kelinchak tog‘i. *od-press.uz*. Elektron manba: https://aniq.uz/uz/yangiliklar/kelinchak-togi
10. Sakaoğlu S. (1980). *Anadolu Türk efsanelerinde taş kesilme motifi ve bu efsanelerin tip kataloğu*. KB Yay., Ankara.

XALQ OG‘ZAKI IJODI QADRIYATLARNING KONSEPTUAL MANBAI SIFATIDA

Zaynabutdinova Guzalxon Xatamovna,

Mustaqil izlanuvchi

mahbubovagozal@gmail.com

(O‘zbekiston)

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodi namunalarining milliy qadriyatlar tizimini shakllantirishdagi roli lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Qayd etish lozimki, milliy qadriyatlar ma’naviy-axloqiy konseptual manba sifatida til sistemasida tahlil qilinishi ularning lingvokulturologik va aksiologik ahamiyatini belgilashda muhim qimmatga ega vosita o‘laroq xizmat qiladi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari orqali avloddan avlodga o‘tib kelayotgan milliy qadriyatlar jamiyat tafakkuri va qarashlarini shakllantirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, milliy qadriyatlar tizimi, lingvistik tahlil, ma’naviy-axloqiy qadriyat, konseptual manba.

Аннотация. В данной статье анализируется роль образцов народного устного искусства в формировании системы национальных ценностей с лингвистической точки зрения. Следует отметить, что анализ национальных ценностей как духовно-нравственного концептуального источника в языковой системе служит важным инструментом определения их лингвокультурного и аксиологического значения. Национальные ценности, передаваемые из поколения в поколение посредством образцов народного устного искусства, способствуют формированию мышления и взглядов общества.

Ключевые слова: народное устное искусство, система национальных ценностей, лингвистический анализ, духовно-нравственная ценность, концептуальный источник.

Abstract. This article analyzes the role of folk oral art samples in the formation of the system of national values from a linguistic point of view. It should be noted that the analysis of national values as a spiritual and moral conceptual source in the language system serves as an important tool in determining their linguocultural and axiological significance. National values, passed down from generation to generation through folk oral art samples, help to form the thinking and views of society.

Keywords: folk oral art, system of national values, linguistic analysis, spiritual and moral value, conceptual source.

KIRISH

Insoniyat yaratilishidan u bilan birgalikda taraqqiy etgan so‘z ne’mati asrlarosha xalq og‘zaki ijodi namunalarining vujudga kelishiga zamin hozirladi.

Xalq og‘zaki ijodi shunchaki badiiy san’at turi emas, balki millatning dunyoqarashi, turmush tarzi va ma’naviy olamini aks ettiruvchi eng qadimiy va ulkan xazina bo‘lib, har bir xalq o‘zining ming yillik hayotiy tajribalari, borliq haqidagi tasavvurlari, axloqiy qadriyatlarini folklor namunalari – dostonlar, ertaklar, maqollar va afsonalar kabilarning mohiyatiga muhrlagan. Shiddat bilan taraqqiy etayotgan bugungi globallashuv jarayonida milliy qadriyatlarni saqlab qolish, ularni kelgusi avlodga yetkazishda xalq og‘zaki ijodi namunalariga konseptual manba o‘laroq yondashish masalaning tub mohiyatini tashkil etadi. Bizning ushbu maqolamizda ham milliy qadriyatlarning folklor doirasidagi talqini konseptual asoslarda tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy qadriyatlarga falsafiy yondashuv ularning mohiyatini anglashning tub asosini tashkil etadi. Qadriyatlar tizimining nazariy-falsafiy asoslarini o‘rganishda aksiologiya fanining shakllanish tarixi va uning konseptual apparati muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotchi Qiyom Nazarovning ta’kidlashicha [2:15], qadriyatlar falsafasining tarixi uzoq bo‘lsa-da, mazkur soha fan sifatida o‘tgan asrning o‘rtalarida shakllangan bo‘lib, unga “aksiologiya” terminini nemis olimi E.Gartman va fransuz olimi P.Lapi kiritgan. Muallif qadriyatshunoslikni aksiologik ong, qadrlash tuyg‘usi, aksiologik bilish va qadriyatli yondashuv kabi tushunchalar asosida to‘plangan bilimlar sistemasi sifatida tavsiflaydi. Aksiologiyaning ijtimoiy-falsafiy bilimlar tizimidagi o‘rni tahlil qilib, uning grekcha “axio” (qadriyat) va “logos” (fan, ta’limot) tushunchalariga asoslanishi, shuningdek, madaniyatshunoslik hamda siyosatshunoslik kabi fanlar bilan uzviy bog‘liqligi ko‘rsatib o‘tgan. Q.Nazarovning ushbu nazariy qarashlari xalq og‘zaki ijodi namunalarini qadriyatlarning konseptual manbai sifatida tadqiq etishda fundamental ilmiy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xalq og‘zaki ijodi (folklor) millatning o‘tmishi, buguni va kelajagini bog‘lovchi vosita bo‘lib, u xalqimizga xos qadriyatlarning kelib chiqish asosini belgilaydi. Folklor namunalarining konseptual asoslarini milliy qadriyatlar tizimida tahlil qilish monografik planda tadqiq etilmagan bo‘lsa-da, biroq ularning janriy tasnifi masalasi ayrim adabiyotshunos olimlarning diqqat markazidan o‘rin egallagan. Xususan, T.Mirzayev, O.Madayev, M.Alaviya kabi olimlarning asarlarida xalq og‘zaki ijodi namunalari janr jihatidan klassifikatsiya qilinib, maqol, matal, ertak, doston kabilardan o‘rin olgan qadriyatlar tematik jihatdan guruhlashtiriladi [4].

Qadriyatlar tizimining til tadqiqi ham bevosita mazkur ishimizning mohiyatini tashkil etadi. Xususan, tadqiqotchi G. Komilova [1] o‘zining “Antonim so‘zlar vositasida qadriyat va bahoning ifodalanishi” nomli ilmiy ishida tilning aksiologik tomonini paremiologik birliklar misolida tahlil qiladi. Muallifning fikricha, antonim so‘zlar insoniyat uchun muhim bo‘lgan hodisa va holatlardagi qarama-qarshiliklarni, kishilarning ichki dunyosidagi ziddiyatlarni nomlash orqali xalq og‘zaki ijodida yaxshilik va yomonlik kabi qadriyatlarning konseptual chegaralarini belgilab beradi. Maqollarda qadriyat va baho tushunchalari, ko‘pincha, aynan antonimik juftliklar yordamida shakllanishi, aksiologik leksika va subyektiv bahoning ifodalanishi tilning semantik imkoniyatlarini kengaytirishi tadqiqotda alohida qayd etilgan. Shuningdek, paremiyalarning shunchaki nutqiy bezak emas, balki jamiyatdagi axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni baholovchi hamda ularni tizimlashtiruvchi muhim vosita ekanligi ilmiy asoslangan. Bu kabi yondashuvlar folklor matnlarini millatning dunyoqarashini aks ettiruvchi konseptual axborot bazasi sifatida o‘rganishda muhim nazariy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

METOD VA METODOLOGIYA

Ushbu maqolani yoritishda qiyosiy-tarixiy, tasnifiy, tavsifiy, klassifikatsiya metodlaridan hamda aksiologik yondashuvdan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJA

a) Xalq dostonlarida milliy qadriyatlar konseptologiyasi

Milliy qadriyatlar tizimi xalq og‘zaki ijodi asosida yuzaga keladi. Unda aks etgan har bir obraz va ifoda ortida muayyan bir ijtimoiy-axloqiy konsept yashiringan. Tilshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan konsept – bu madaniyatning ongdagi birligi bo‘lib, u insonning ma’naviy olamini shakllantiradi. Masalan, xalq dostonlari, xususan, “Alpomish” dostoni [3] misolida oladigan bo‘lsak, ushbu asarda qo‘llangan maxsus marosimlar elimizga xos qadimiy qadriyatlarni anglatadi. Undagi “**beshikkertdi**” (ushbu odat dostonda ikki do‘st — Boybo‘ri va Boysari o‘rtasidagi va’da va ahdlashuvning oliy belgisi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu marosim shunchaki unashtiruv emas, balki o‘zbek oila institutida sadoqat, va’daga vafodorlik va avlodlararo bog‘liqlik qadriyatlarini konseptual darajaga ko‘taradi. Bu orqali xalqning kelajak avlod taqdiri uchun mas’uliyatni his qilishi ifodalangan), “**sach siypatar**” (mazkur marosim xalq dostonlarida ayol kishiga, bo‘lajak kelinga bo‘lgan yuksak ehtirom va hurmatni anglatadi. Soch — hayotiylik va muqaddaslik ramzi bo‘lib, uni siypash orqali qiz bolaning yangi oilaga o‘tishi, uning huquqlari va ijtimoiy maqomi himoyalanganligi, oilaviy totuvlik qadriyati ifodalanadi), “**qo‘l ushlatar**” (u odat yoshlarning nikoh oldidan bir-birlariga bog‘lanishini, ijtimoiy kelishuvning ma’naviy tasdig‘ini anglatadi. Unda ahdlashuv va o‘zaro ishonch tushunchalari markaziy o‘rin tutadi. Bu marosimlar orqali jamiyatdagi axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar tizimlashtiriladi) kabi marosimlar shunchaki syujet elementi emas, balki xalqimizning ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarini muhrlab beruvchi konseptual manbalardir.



1-chizma. Xalq ogʻzaki ijodida aks etgan qadriyatlar namunasi

b) Xalq maqollarida milliy qadriyatlar konseptologiyasi

Qadriyatlarning eng ixcham va konseptual koʻrinishi maqollarda aks etadi. Maqollar – xalqning falsafiy xulosalari, uning asrlar davomida sinovdan oʻtgan hayotiy tajribalari natijasidir. Har bir maqol muayyan bir hayotiy vaziyat uchun “axloqiy me’yor” vazifasini oʻtaydi. Masalan, oʻzbek xalq maqollaridan oʻrin olgan jamoaviylik qadriyati ham paremalarning konseptual mohiyatiga ishora qiladi. “**Birlik bor — tiriklik bor”, “Birlikda baraka bor”** maqollarida hayot va baraka tushunchalari bevosita jamoaviylik bilan bogʻlanmoqda. Ya’ni insonning ijtimoiy mavjudligi va farovonligi faqat jamoa ichida ma’noga ega ekanligi uqtiriladi. “**Birlashgan oʻzar, birlashmagan toʻzar”** maqolida harakatning natijasi (yutugʻi yoki magʻlubiyati) jamoaviy birdamlikka bogʻliq holda aksiologik baholanmoqda.

XULOSA

Xalq og‘zaki ijodi milliy qadriyatlar tizimining asosi va konseptual manbaidir. Unda jamlangan konseptlar millatning ma’naviy qiyofasini, uning dunyo sivilizatsiyasidagi o‘rnini belgilaydi. Folklor namunalarini faqat adabiyot yoki san’at durdonasi sifatida emas, balki jamiyatni ma’naviy sog‘lomlashtiruvchi, yoshlar tarbiyasini to‘g‘ri yo‘naltiruvchi qadriyat sifatida tadqiq etish lozim. Zero, xalq og‘zaki ijodi yashar ekan, u o‘zida tashigan milliy va umuminsoniy qadriyatlar ham avlodlar hayotida, nutqida va amaliy faoliyatida o‘z ifodasini topaveradi. Bu merosni asrab-avaylash va kelajak avlodga bezavol yetkazish — milliy o‘zlikni saqlashning eng samarali yo‘lidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Komilova G. Antonim so‘zlar vositasida qadriyat va bahoning ifodalanishi // Academic Research in Educational Sciences. – 2021. – Vol. 2, Issue 3. – P. 359-365.
2. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya). – Toshkent: Ma’naviyat, 2004.
3. O‘zbek xalq maqollari. Jamoatchilik va xudbinlik bo‘limi / To‘plovchilar: T. Mirzayev, A. Musoqulov, S. Sarimsoqov. – Toshkent: Sharq, 2005.
4. Mirzayev T. O‘zbek xalq dostonchiligi. – Toshkent: Fan, 2004.
5. Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori. – Toshkent: Fan, 1986.
6. Пропп В. Морфология сказки. – Москва: Наука, 1969.

MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK G‘AZALIYOTINING O‘ZIGA XOS BADIIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI.

Abduraximova Dilafruz Boqijon qizi

Farg’ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

(O‘zbekiston)

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot mustaqillik davri o‘zbek she’riyatida milliy o‘zlikni anglash jarayonlari va g‘azal janrining qayta jonlanish qonuniyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ishda istiqlol bergan erkinlik mafkurasi asosida g‘azalchilikning tematik, obrazli va strukturaviy evolyutsiyasi tahlil qilinadi. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Sirojiddin Sayyid, Jamol Kamol va Matnazar Abdulhakim kabi taniqli ijodkorlar lirikasi misolida mumtoz an’analar hamda zamonaviy novatorlik dialektikasi ochib berilgan. Shuningdek, zamonaviy g‘azalchilikda folklor motivlarining sintezi, jonli xalq tili elementlarining aruz tizimiga tatbiq etilishi va badiiy san’atlarning yangi g‘oyaviy vazifalari qiyosiy-tipologik metod yordamida ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan.

Abstract: This research explores the processes of national self-awareness in Uzbek poetry during the independence period and the revival patterns of the ghazal genre. Rooted in the ideology of creative freedom brought by independence, the study analyzes the thematic, figurative, and structural evolution of the ghazal. Through the lyrics of prominent poets such as Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Sirojiddin Sayyid, Jamol Kamol, and Matnazar Abdulhakim, the dialectics of classical traditions and modern innovation are uncovered. Furthermore, using a comparative-typological approach, the study provides a theoretical insight into the synthesis of folklore motifs in the contemporary ghazal, the integration of vibrant colloquial language into the *aruz* metrical system, and the evolving ideological and artistic functions of classical poetic devices.

Kalit so‘zlar: Mustaqillik davri adabiyoti, o‘zbek g‘azaliyoti, milliy o‘zlikni anglash, an’ana va novatorlik, folklorizatsiya, aruz vazni, badiiy san’atlar, qiyosiy-tipologik tahlil, lirik qahramon, poetika.

Keywords: Independence period literature, Uzbek ghazal, national self-awareness, tradition and innovation, folklorization, *aruz* meter, poetic devices, comparative-typological analysis, lyrical hero, poetics.

Mustaqillik davri milliy o‘zlikni anglash jarayonida g'azal janrining qayta jonlanishi va uning "Yangi O‘zbekiston" g'oyalari bilan hamohangligini tadqiq etishning ahamiyati beqiyosdir. Ushbu ahamiyat, ayniqsa, istiqlolning dastlabki kunlaridanoq milliy qadriyatlar, ma'naviy meros va adabiy an'analarning tiklanishiga bo‘lgan e'tibor fonida yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab, o‘zbek adabiyotida, xususan, she'riyatda chuqur o‘zgarishlar yuz berdi.[1.23]

Bu o‘zgarishlar faqatgina mavzu doirasining kengayishi bilan cheklanib qolmadi, balki janriy shakllarning qayta kashf etilishi, ularning yangi mazmun bilan boyitilishi, milliy ruh va falsafiy tafakkur bilan sug'orilishi jarayonlarini ham qamrab oldi. Aynan shu davrda, ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lgan, Sharq mumtoz adabiyotining ko‘zgusi bo‘lib kelgan g'azal janri ham o‘zining yangi uyg'onish davrini boshdan kechirdi. Erkinlik shabadalari ostida ijodkorlar endilikda hech qanday senzura va mafkuraviy tazyiqlarsiz, o‘z ichki kechinmalari, milliy g'urur va mustaqillik ruhini bevosita ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu esa g'azalning nafaqat shakliy jihatdan saqlanib qolishiga, balki uning tematik, obrazli va poetik jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishiga zamin yaratdi. Mustaqillik davrida yaratilgan g'azallarda milliy o‘zlikni anglash, Vatan tuyg'usi, istiqlol g'oyalari, insonparvarlik, adolat, erk va ozodlik kabi mavzular markaziy o‘rin egalladi. Shu bilan birga, mumtoz adabiyotimizning buyuk namoyandalari, xususan, Alisher

Navoiy, Bobur, Fuzuliy, Ogahiy kabi zotlarning g'azalchilik an'analariga hurmat va izdoshlik ham o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ldi. Biroq, bu faqatgina an'anaga ko‘r-ko‘rona ergashish emas, balki uni ijodiy qayta ishlash, zamonaviy ruh va yangi ijtimoiy-siyosiy voqelik bilan uyg'unlashtirish orqali yangi badiiy-estetik sifat kasb etish edi. Shu nuqtai nazardan, tanlangan besh shoir – Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Sirojiddin Sayyid, Jamol Kamol va Matnazar Abdulhakim ijodi misolida Mustaqillik davri o‘zbek g'azaliyotining o‘ziga xos badiiy-estetik xususiyatlarini, an'ana va novatorlik dialektikasini ilmiy-nazariy jihatdan yoritish ushbu tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi. Bu shoirlar ijodi mustaqillik davri o‘zbek she'riyatining, xususan, g'azal janrining evolyutsiyasini, uning o‘zgaruvchan dunyo va milliy qadriyatlar kesishgan nuqtasida qanday shakllanganini chuqur tahlil qilish uchun eng yorqin misollardir.

Mustaqillik davri g'azalchiligining muhim xususiyati uning novatorlik ruhidir. Bu novatorlik birinchi navbatda mavzu doirasining kengayishida ko‘rinadi. Shoirlar Vatan, millat, mustaqillik, taraqqiyot, adolat, inson huquqlari, ekologiya, global muammolar kabi zamonaviy va ijtimoiy-siyosiy mavzularni g'azalga olib kirdilar. Erkin Vohidovning "O‘zbegim" g'azali, Abdulla Oripovning mustaqillikni ulug'lovchi g'azallari bunga yorqin misoldir. Ikkinchidan, obrazlar tizimida ham yangilanish kuzatildi. Mumtoz obrazlar zamonaviy kontekstda yangicha talqin qilindi, shuningdek, kundalik hayotdan olingan, milliy mentalitetga xos bo‘lgan yangi obrazlar va timsollar g'azalga kiritildi. Xalq og'zaki ijodi, folklorga xos jihatlar, maqollar, hikmatli so‘zlar, milliy urf-odatlar g'azallarda o‘ziga xos tarzda aks etdi.[2.45]

Matnazar Abdulhakim g'azallarida xalq tilining jonli elementlari, urf-odatlar va xalqona hikmatlar ayniqsa sezilarli. Uchinchidan, til va uslubda ham o‘zgarishlar yuz berdi. G'azalning klassik, balandparvoz tilini saqlab qolgan holda, shoirlar zamonaviy o‘zbek tilining jonli va xalqona ifodalarini g'azalga

singdirishga muvaffaq bo‘ldilar. Bu g'azalni keng o‘quvchilar ommasi uchun yanada tushunarli va yaqin qildi. To‘rtinchidan, she'riy san'atlar, talqin va tasvir usullarida ham ijodkor mahorati yangi qirralarini namoyon etdi. Tashbih, istiora, majoz, tanosub, irsoli masal kabi mumtoz san'atlar yangi g'oyaviy-badiiy maqsadlarga xizmat qildi. Shoirlar g'azalning har bir baytida chuqur falsafiy ma'no, badiiy go‘zallik va musiqiy ohangdorlikni ta'minlashga intildilar, biroq bu jarayonda o‘ziga xos individual uslublarini shakllantirdilar.

Zamonaviy o‘zbek g'azallarida folklor motivlarining sintezi

Mustaqillik davri o‘zbek g‘azaliyotining nazariy-metodologik asoslarini chuqur tahlil qilish, uning o‘ziga xos badiiy-estetik xususiyatlari va an’ana-novatorlik dialektikasini ilmiy-nazariy jihatdan yoritish jarayonida xalq og‘zaki ijodining g‘azalga ta’siri alohida e’tibor talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy o‘zbek g‘azallarida folklor motivlarining sintezi masalasi g‘azaliyotimizning milliy ildizlariga chuqur singib ketganligini ko‘rsatuvchi muhim omillardan biridir.[3.78]

Xalq og‘zaki ijodi, ya’ni folklor, har qanday milliy adabiyotning, jumladan, o‘zbek adabiyotining ham azaliy va bitmas-tuganmas manbaidir. G‘azal janri, o‘zining klassik qoidalari va an’analari bilan birga, har doim xalq ijodiyoti bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan.

Tadqiqot doirasida O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika agentligi va qator tashkilotlarning so‘nggi ma'lumotlari (2023-2024 y.) tahlil qilindi hamda 50 dan ortiq respondent ishtirokida so‘rovnoma o‘tkazildi.[4.118]

1.5. Tadqiqot metodologiyasi: qiyosiy-tipologik tahlilning o‘ziga xosligi

Mustaqillik davri o‘zbek g‘azaliyotining o‘ziga xos badiiy-estetik xususiyatlarini, an'ana va novatorlik dialektikasini ilmiy-nazariy jihatdan yoritishga qaratilgan ushbu tadqiqotning metodologik asoslarini belgilashda adabiy asarlarni tahlil qilishda qo‘llaniladigan qiyosiy, tarkibiy va semantik metodlarning

nazariy asoslarini chuqur anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mustaqillik davri g‘azaliyotining murakkab va ko‘p qirrali tabiatini tushunishda qiyosiy-tipologik tahlilning o‘ziga xosligi markaziy o‘rin tutadi, chunki u milliy adabiy jarayonning umuminsoniy qonuniyatlar bilan uyg‘unligini ochib beradi.

Qiyosiy-tipologik tahlil adabiyotshunoslikda asarlarni, janrlarni, motivlarni, obrazlar tizimini yoki adabiy hodisalarni bir-biriga qiyoslash orqali ularning o‘xshash va farqli jihatlarini, umumiy tipologik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan keng qamrovli yondashuvdir. Bu metod nafaqat turli milliy adabiyotlar o‘rtasidagi aloqalarni, balki bir milliy adabiyot doirasidagi turli davrlar, yo‘nalishlar va ijodkorlar o‘rtasidagi munosabatlarni ham o‘rganish imkonini beradi. Mustaqillik davri o‘zbek g‘azaliyotini tahlil qilishda, u klassik g‘azal an'analari bilan yangi davr ruhining sintezini, shuningdek, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Sirojiddin Sayyid, Jamol Kamol, Matnazar Abdulhakim kabi shoirlar ijodidagi individuallik va umumiylikni aniqlashda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu yondashuv adabiy an'ana va izdoshlik, shuningdek, mavzu va obrazlardagi an'ana va yangilanishlarni aniq belgilash uchun zarurdir.

Qiyosiy metod, xususan, ikki yoki undan ortiq adabiy hodisani yonma-yon qo‘yib, ularning o‘zaro ta'siri, ta'siri, parallelligi yoki farqlarini o‘rganishga qaratilgan. Mustaqillik davri g‘azaliyotida bu metod orqali shoirlarning klassik g‘azal namunalari (masalan, Navoiy, Fuzuliy) bilan bog‘liqligi, ulardan ijodiy foydalanishi, shuningdek, zamonaviy hayotning aks etishida yuzaga kelgan o‘ziga xosliklar taqqoslanadi. Jumladan, Abdulla Oripov g‘azallaridagi vatanparvarlik ruhi va Erkin Vohidov g‘azallaridagi falsafiy teranlikni klassik namunalardagi *ishq* va *may* mavzulari bilan qiyoslash orqali g‘azal janrining evolyutsiyasini kuzatish mumkin. Bu, shuningdek, folklorga xos jihatlarning g‘azallarga singib ketish darajasini aniqlashda ham muhimdir. Shoirlar ijodidagi *muxammas* va

tatabbu g‘azallarni qiyosiy tahlil qilish ularning ijodkorlik mahoratini, an'anaga bo‘lgan munosabatini va individualligini yorqin namoyon etadi.

Tarkibiy metod adabiy asarning ichki tuzilishi, uning komponentlari (syujet, obrazlar tizimi, kompozitsiya, til, uslub, qofiya tizimi, vazn xususiyatlari) va ular o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishga qaratilgan. G‘azal janrida bu metod har bir *bayt*ning mustaqil ma'nosi bilan birga, butun g‘azalning umumiy g‘oyaviy-badiiy yaxlitligini qanday tashkil etishini o‘rganishga imkon beradi. Mustaqillik davri g‘azallarida qofiya tizimi, vazn xususiyatlari, kompozitsion xususiyatlar va she'riy san'atlarning o‘zgarishi yoki saqlanib qolishi tarkibiy tahlil obyekti hisoblanadi. Masalan, Jamol Kamol g‘azallaridagi murakkab vazn va qofiya uyg‘unligi, Sirojiddin Sayyid g‘azallaridagi sodda, ammo teran kompozitsion yechimlar zamonaviy o‘zbek g‘azaliyotining tarkibiy jihatdan qanchalik boyiganini ko‘rsatadi. Bu metod orqali har bir shoirning shaxsiy uslubi va janr doirasidagi novatorlik yondashuvlari aniqlanadi.

Semantik metod adabiy matndagi so‘zlar, iboralar, obrazlar va ramzlarning ma'no qatlamlarini, ularning yashirin mazmunini, konnotativ va denotativ mohiyatini ochib berishga qaratilgan. Mustaqillik davri g‘azallarida *Vatan*, *istiqlol*, *millat*, *o‘zlik* kabi tushunchalarning semantik maydoni klassik g‘azallardagi *ishq*, *ma'shuqa*, *may* kabi an'anaviy ramzlar bilan qanday uyg‘unlashgani yoki ularning o‘rnini egallaganini semantik tahlil orqali aniqlash mumkin. Matnazar Abdulhakim g‘azallaridagi xalqona til va obrazlarning teran semantik yuklamasi, Erkin Vohidovning falsafiy g‘azallaridagi har bir so‘zning ko‘p qirrali ma'nolari aynan semantik metod yordamida tahlil qilinadi. Bu metod talqin va tasvir usullarining mohiyatini, shoirlarning g‘oyaviy niyatlarini va asarlarining ijtimoiy-madaniy kontekstini tushunishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Bu uch metodologik yondashuv bir-birini to‘ldirgan holda, mustaqillik davri o‘zbek g‘azaliyotining murakkab adabiy manzarasini to‘liq va atroflicha o‘rganish

imkonini beradi. O‘zbekistonda adabiy tadqiqotlar, xususan, o‘zbek adabiyoti tarixi va nazariyasi sohasida ushbu metodlar keng qo‘llaniladi. Mamlakatimizda adabiy an'analarni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati, jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning adabiyot va san'atga e'tibori, yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash borasidagi tashabbuslari adabiyotshunoslik oldiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Bu talablar zamonaviy adabiy jarayonlarni chuqur ilmiy-metodologik asosda tahlil qilishni taqozo etadi[5.60] Jumladan, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, O‘zbekiston Milliy universiteti kabi ilmiy-ta'lim muassasalarida adabiy asarlarni qiyosiy-tipologik, tarkibiy va semantik metodlar asosida o‘rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu esa milliy adabiyotimizning jahon adabiyoti kontekstidagi o‘rnini belgilash, uning o‘ziga xosligini va jahon adabiy jarayonlariga qo‘shgan hissasini ilmiy asoslash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, qiyosiy-tipologik tahlilning o‘ziga xosligi qiyosiy, tarkibiy va semantik metodlarning uyg‘unlashuvida namoyon bo‘lib, bu yondashuv mustaqillik davri o‘zbek g‘azaliyotining badiiy-estetik xususiyatlarini, an'ana va novatorlik dialektikasini ilmiy jihatdan asoslashda muhim metodologik baza bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Vohidov, E. (2010). Saylanma. Toshkent: Sharq nashriyoti.
2. Oripov, A. (2012). Saylanma. Toshkent: Sharq nashriyoti.
3. Sayyid, S. (2019). G'azallar. Toshkent: Yangi asr avlodi.
4. Kamol, J. (2015). G'azal gulshani. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
5. Hayitov, N. (2019). Sirojiddin Sayyid g'azallarida badiiy mahorat va zamonaviylik. Filologiya masalalari, (2), 78-83. (Maqola)

6. Ahmedova, Z. (2022). Jamol Kamol g'azallarida vazn va qofiya xususiyatlari. Adabiyotshunoslik jurnali, (1), 60-67. (Maqola)
7. Sulaymonov, J. (2023). Matnazar Abdulhakim ijodida g'azal janrining yangi talqini. Yosh tadqiqotchi, (4), 112-118. (Maqola)

O‘ZBEK XALQ DOSTONLARIDA JISMONIY BARKAMOLLIK VA QAHRAMON MODELI (“KUNTUG‘MISH” DOSTONI MISOLIDA)

Ergashev Shahboz,
Qo‘qon universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek xalq dostonlarida jismoniy barkamollik va qahramon modeli masalasi “Kuntug‘mish” hamda “Rustamxon” dostonlari misolida tahlil qilinadi. Xalq dostonlarida qahramon obrazi nafaqat jismoniy kuch va jasorat timsoli, balki ma’naviy komillik, sabr-toqat, sadoqat va vatanparvarlik kabi yuksak insoniy fazilatlarning badiiy ifodasi sifatida namoyon bo‘lishi yoritiladi. Maqolada “Kuntug‘mish” dostonidagi qahramonning jismoniy barkamolligi ko‘proq chidamlilik, matonat va sabr orqali shakllangani, “Rustamxon” dostonida esa jangovar qudrat, bahodirlik va jismoniy ustunlik orqali namoyon bo‘lishi asoslab beriladi. Shuningdek, har ikki doston misolida xalqning ideal qahramon haqidagi tasavvuri qiyosiy tahlil qilinib, jismoniy barkamollikning ma’naviy yetuklik bilan uzviy bog‘liqligi ochib beriladi. Tadqiqot natijasida xalq dostonlari yosh avlodni komil inson ruhida tarbiyalashda muhim manba ekanligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: xalq dostoni, jismoniy barkamollik, qahramon modeli, bahodirlik, ma’naviy komillik, qahramon obrazi, folklor, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribasi, ma’naviy qadriyatlari va inson haqidagi qarashlarini o‘zida mujassam etgan muhim madaniy meros hisoblanadi. Ayniqsa, xalq dostonlari xalq tafakkurini aks ettiruvchi yirik epik asarlar sifatida alohida ahamiyatga ega. Ushbu dostonlarda qahramonlar obrazi orqali xalqning jismoniy barkamollik, ma’naviy komillik, jasorat va vatanparvarlik haqidagi tasavvurlari yoritiladi. Qahramon modeli dostonlarda nafaqat voqealarni harakatlantiruvchi obraz, balki xalq orzu qilgan mukammal inson timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, o‘zbek xalq dostonlarida jismoniy barkamollik masalasini tahlil qilish xalqning ideal qahramon haqidagi qarashlarini anglashda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Shuningdek jismoniy barkamollik qahramonning eng muhim sifatlaridan biri sifatida talqin qilinadi. Bunda qahramonning tashqi qudrati, jismoniy kuchi, epchilligi va chidamliligi uning bahodirlik darajasini belgilovchi asosiy mezonlardan hisoblanadi. Biroq xalq dostonlarida jismoniy barkamollik faqat kuch bilan cheklanmaydi. U doimo ma’naviy barkamollik, adolatparvarlik va sadoqat bilan uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. Shu sababli xalq tasavvuridagi ideal qahramon jismonan baquvvat bo‘lish bilan birga, ruhan ham mustahkam bo‘lishi lozim.

Xalq dostonlarida jismoniy barkamollik qahramonning tashqi kuchi, jasorati, chidamliligi va har qanday sinovga tayyorligi orqali ifodalanadi. Bunday sifatlar qahramonning o‘zining ustunligini emas, balki uning xalq oldidagi mas’uliyatini bajarishga xizmat qiladi. Ya’ni jismoniy qudrat dostonlarda ma’naviy maqsad bilan uyg‘un holda tasvirlanadi. Shu bois xalq tasavvuridagi ideal qahramon jismonan baquvvat bo‘lish bilan birga, ruhan ham mustahkam bo‘lishi lozim. O‘zbek xalq dostonlari millatning mardlik va jismoniy qudrat borasidagi qarashlarini o‘zida mujassam etgan buyuk ma’naviy xazinadir. Ushbu asarlarda markaziy o‘rinni egallovchi qahramon modeli nafaqat ruhiy yetukligi, balki jismoniy barkamolligi bilan ham ajralib turadi. Xalq idealidagi alp qiyofasi har

qanday dushmanga qarshi tura oladigan, g‘ayritabiiy kuch-qudrat va chidamlilik egasi sifatida gavdalanadi. Bu borada “Kuntug‘mish” va “Rustamxon” dostonlari qahramon modelini turlicha qirralar orqali ochib beruvchi eng sara namunalardir.

Bu jihat “Kuntug‘mish” dostonida Kuntug‘mishning bolalikdan boshlab jismoniy va ruhiy jihatdan chiniqib borishi alohida ta’kidlanadi:

“O‘n to‘rtga kirguncha ilm-hunar, kasb-kamolot hosil qilib, o‘n to‘rtdan o‘tgandan keyin sipohlik ishlariga yuz keltirib, qilich chopmoq, miltiq otmoq, chirishbozlik, ko‘pkaritozlik, nayzadastlik, garovbastlik ishlariga ko‘shish qilib, qirqta yigitni yoniga olib, goh tovga, goh ovga shikor qilib yurar edi.”[1.3] Dostonidagi ushbu parcha Kuntug‘mish obrazining nafaqat jismoniy jihatdan chiniqqan yigit, balki xalq idealidagi mukammal qahramon ekanini ko‘rsatadi. Parchada xalq dostonlariga xos bo‘lgan “alp yigit” modeli yaqqol namoyon bo‘ladi.

Avvalo, matnda qahramonning bolalikdan boshlab tarbiyalanishi tasvirlanadi: “o‘n to‘rtga kirguncha ilm-hunar, kasb-kamolot hosil qilib” deyilishi Kuntug‘mishning faqat kuchli emas, balki bilimli, odobli va hunarli inson bo‘lib voyaga yetganini anglatadi. O‘zbek xalq dostonlarida haqiqiy qahramon avvalo, ma’naviy va aqliy barkamollikka ega bo‘lishi kerak. Demak, jismoniy kuch ma’naviy kamolot bilan uyg‘un holda tasvirlangan.

Shundan keyin qahramonning sipohlik mashqlari boshlanadi. “Qilich chopmoq, miltiq otmoq, nayzadastlik” kabi tasvirlar Kuntug‘mishning jangovar tayyorgarligini ko‘rsatadi. Bu o‘rinda qahramonning epchil, jasur va chiniqqan alp sifatidagi qiyofasi yaratiladi. Xalq dostonlarida qahramonning jismoniy barkamolligi uning el-yurt himoyachisi bo‘lishiga xizmat qiladi. Kuntug‘mish ham ana shunday xalq manfaatini himoya qiluvchi ideal bahodir sifatida gavdalanadi.

Parchadagi “chirishbozlik”, “ko‘pkaritozlik”, “ovga shikor qilib yurish” kabi mashg‘ulotlar esa qahramonning chaqqonligi, chidamliligi va mardligini

ifodalaydi. Ayniqsa, ko‘pkari va ov motivlari turkiy xalqlar qahramonlik an’analarida yigitning jismoniy tayyorgarligi va jasoratini sinovdan o‘tkazuvchi vosita hisoblanadi. Demak, Kuntug‘mish tabiat qo‘ynida chiniqib, harbiy va jismoniy jihatdan yetuk bo‘lib ulg‘aygan.

Yana bir muhim jihat — “qirqta yigitni yoniga olib” yurishi. Bu holat uning oddiy yigit emas, balki yetakchi va sarkarda sifatida shakllanganini bildiradi. O‘zbek xalq dostonlaridagi qahramon modeli faqat yakka bahodir emas, balki atrofidagilarni birlashtira oladigan, ularga bosh bo‘ladigan alp obrazidir. Kuntug‘mish ham xalq idealidagi mard, jasur, dono va yetakchi yigit timsolida tasvirlangan.

Jismoniy barkamollik insonning kuch-qudrati, chidamliligi, epchilligi va sog‘lomligi bilan bog‘liq tushuncha hisoblanadi.Bu sifatlar qahramonlarning asosiy belgilaridan biri sifatida tasvirlanadi. Doston qahramonlari odatda nihoyatda kuchli, jasur, mard va matonatli insonlar sifatida gavdalanadi. Dostonning keyingi o‘rinlarida Kuntug‘mishning tashqi qiyofasi va bahodirlik salohiyati yanada yorqinroq ifodalanadi:

O‘zi sardor ekan, sardor saboqli,
O‘t ustiga mingan kuni o‘moqli,
Xaloyiqqa yomon kuni kerakli,
Qarchig‘ay kelbatli, burgut qaboqli,
Yigitning lochinin ko‘rdim, buvushim. [1.30]

Ushbu misralarda qahramonning jismoniy qiyofasi ramziy tasvir vositalari orqali yuksaltirilgan. “Qarchig‘ay kelbatli”, “burgut qaboqli” kabi ifodalar Kuntug‘mishning nafaqat kuchli, balki sergak, chaqqon va jangovar ruhga ega ekanini bildiradi.

“Kuntug‘mish” dostonida jismoniy barkamollik ko‘proq matonat va mislsiz chidamlilik qiyofasida namoyon bo‘ladi. Kuntug‘mish obrazi qahramonning jismoniy azoblarga, uzoq yillik sahro mashaqqatlariga bardosh berishi uning har tomonlama chidamliligini ifodalaydi. Uning pahlavonligi faqatgina jang maydonidagi g‘alaba bilan emas, balki taqdirning og‘ir jismoniy sinovlarini yengib o‘tish mahorati bilan ham belgilanadi. Kuntug‘mish obrazi orqali “sabrli alp” timsoli yaratilgan bo‘lib, undagi jismoniy kuch adolatli shohlik va oila sadoqati bilan mustahkamlangan. Dostonda jismoniy barkamollik ko‘proq sabr va matonat bilan bog‘lanadi. Qahramon uzoq sinovlar, ayriliq va mashaqqatlar qarshisida o‘zini yo‘qotmaydi. Ayniqsa, Xolbekaga dalda beruvchi quyidagi misralar uning ruhiy va jismoniy bardoshini yaqqol ko‘rsatadi:

Uzoqdan chopilar otning sarasi,
Ko‘rinadi bir narsaning qorasi,
Bir faslga g‘ayrat qilgin, bo‘yingdan,
Yaqin qoldi manzilimning orasi.

Po‘lat nayza qor ostida yotarmi,
Temir nayzang egovlasang o‘tarmi,
Sening to‘rang nomardlardan emasdir,
Mard o‘g‘lon sevdigin tashlab ketarmi?...[1.57]

Bu o‘rinda qahramonning jismoniy qudrati uning ruhiy matonati bilan uyg‘unlashadi. U nafaqat o‘zi bardosh ko‘rsatadi, balki boshqalarga ham kuch va umid bera oladi. Bu jihat xalq tasavvuridagi haqiqiy qahramonning asosiy belgilaridan biridir. Dostonda qahramonning jismoniy kuchi uning oilaga, muhabbatga va sadoqatga bo‘lgan munosabati bilan uyg‘unlashadi. Natijada

Kuntug‘mish obrazi nafaqat bahodir, balki ma’naviy barkamol inson sifatida shakllanadi. Uning jismoniy barkamolligi avvalo mardligi, kuch-qudrati va sinovlar oldida sobit turishi orqali namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, Kuntug‘mishning mardligi va qat’iyati quyidagi parchada ham ifodalangan:

Foniy dunyong barcha quldan o‘tarmi,
Kuysin o‘lim barchani yig‘latarmi,
Uch oychalik yo‘ldan bir yor izlab kelib,
O‘laman, deb yorin ko‘rmay ketarmi?

Omonat, sanamjon, odamning joni,
Qilichdan seskanmas botirning tani,
Jondan kechmay bu yerlarga kelmaydi,
O‘limdan qo‘rqadi,deb aytmagin mani..."[1.36]

Mazkur misralar qahramonning jismoniy barkamolligi bilan birga uning jasorati va qo‘rquvni yenga olish fazilatini ochib beradi. Xususan, doston qahramoni qanchalik kuchli bo‘lmasin, agar u adolat, sadoqat va vatanparvarlik kabi fazilatlarga ega bo‘lmasa, mukammal qahramon sifatida talqin qilinmaydi. Shu sababli jismoniy barkamollik xalq dostonlarida ma’naviy barkamollik bilan birgalikda yoritiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalq dostonlarida jismoniy barkamollik qahramon modelining ajralmas qismi hisoblanadi. O‘zbek xalq dostonlariga xos qahramon modeli — jismonan baquvvat, harbiy san’atni egallagan, ma’naviy barkamol, jasur va xalqni himoya qila oladigan alp obrazi yaratilgan. Kuntug‘mish ana shu xalq idealining mukammal namunasi sifatida gavdalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. (darslik) T.: Musiqa, 2010. 368 b

2. O‘zbek folklorining epik janrlari. Tadqiqotlar to‘plami (Doston uning turlari va tarixiy taraqqiyoti. Mirzayev T, Sarimsoqov B) T.: Fan, 1981. 160 b
3. Jo‘rayev M, Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. (o‘quv qo‘llanma) T.: barkamol fayz media, 2017. 180 b
4. XX asr o‘zbek folklorshunosligi antologiyasi. T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. 592 b
5. Mirzayev T, Turdimov Sh. O‘zbek folklori. T.: Malik Print Co, 2021. 240 b
6. “Xalq og‘zaki ijodi” turkumi. T.: Oltin qalam, 2024. 240 b
7. “Xalq og‘zaki ijodi” turkumi. T.: Zukko kitobxon, 2021
8. O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari. 100 jildlilik, 11-12-jild. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyoti-matbaa ijodiy uyi, 2020.

O‘QUVCHILAR NUTQIDAGI MUAMMOLARGA YECHIM IZLASH

Mirzayeva Ziyoda Madjiddinovna,

Toshkent shahar Chilonzor tumani

131-IDUM ona tili va adabiyot

fani o‘qituvchisi

zimirzaeva@gmail.com

Annotasiya. Ushbu maqolada o‘quvchilarning nutqida ishlatilgan faol so‘zlarni mazmunan o‘rganishga harakat qilindi va bu so‘zlarning ko‘pchiligi chetdan o‘zlashilgan so‘zlar ekanligi misollarimizda yaqqol ko‘rinib turibdi. Maqola so‘ngida esa ushbu muammolar yuzasidan yechimlar ko‘rsatilib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, o‘quvchi, so‘z, nutq, muammo, olim, texnika, ijtimoiy tarmoq.

Annotation. In this article, an attempt was made to study the active words used in the speech of readers in content, and it is evident in our examples that many of these words are foreign words. The article was followed by solutions to these problems.

Keywords: education, reader, word, speech, problem, scientist, technique, social network.

Bugungi kunda yoshlar ta’lim-tarbiyasi masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, bugungi globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgan bir sharoitda fan sohalarini rivojlantirib, ta’lim-tarbiyani yanada yuksak pog‘onalarga ko‘tarish uchun yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish maqsadida yurtimizda ko‘pgina ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan Harakatlar strategiyasining maqsad-mazmuni bilan uyg‘un bo‘lib, unda belgilangan vazifalarning bevosita davomiy ko‘rinishi sifatida ta’lim-tarbiyaning rivojida yangi bosqichni boshlab berishi, shubhasizdir.

O‘quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirish, so‘z boyligini oshirish, eng asosiysi, mazmunli va yaxshi gapirishga o‘rgatish hisoblanadi. Fransuz olimi Fozev Reman qayd qilganidek: *“Yaxshi gapirish bu – ovoz chiqarib turib o‘ylash demakdir”.* Demak, biz ustozlar zimmasidagi vazifa yosh avlodning nutqiy madaniyatini shakllantirish, ularni yaxshi gapirish, to‘g‘ri o‘ylash, fikrlashga o‘rgatishdan iborat. Ta’lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo‘q. Qanchalik murakkab bo‘lmasin, maktab ta’limida poydevorni bugundan mustahkam qo‘yishimiz kerak. Chunki biz ko‘p vaqt yo‘qotganmiz. Agar kimda-kim maktab bu faqat Xalq ta’limi vazirligining ishi, deb o‘ylasa, mutlaqo yanglishadi [1].

Maktab ta’limi sohasidagi islohotlar vazirlik va idoralar, tarmoq rahbarlari, barcha darajadagi hokimlar, ilmiy tashkilotlar, ziyolilar, keng jamoatchilikning vazifasi bo‘lishi shart va zarur. Shundagina kutilgan natijaga erishish mumkin, — dedi davlatimiz rahbari yig‘ilish avvalida. Nutq-inson hayotidagi eng muhim omildir.Nutq orqali inson o‘z fikrini ifoda etadi, ma`lumot beradi,axborot tarqatadi.

Nutq qo‘llanilish holatiga ko‘ra 2 xil natija ko‘rsatadi: biri ijobiy, ikkinchisi salbiy. Xalqimiz: *“Tiling boshingga yetar”, “Yaxshi so‘z jon ozig‘i-yomon so‘z bosh qozig‘i”, “Yaxshi gapga ilon inidan chiqar,yomon so‘zga musulmon dinidan chiqar”,*- deb bejizga aytmaydi. Ammo biz mana shu naqllar, pand-nasixatlarga amal qilib yashayotgan bir davrda, zamonaning zayli o‘zgarib bormoqda. Ma`lumki texnika rivojlanib borayotgan bir vaqtda ,undan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir, ammo, ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelayotgan yangicha uslublar, yangicha so‘zlar o‘quvchilar nutqida katta muammolarni keltirib chiqarayotgani ajablanarli emas. Har bir pedagogning, bu muammolarga yechim izlashi tabiiy holdir [2].

Bugunga qadar, bir qancha olimlar, nutq va nutq uslublari haqida ilmiy ishlar yaratishgan. Nutqdagi buzilishlar nutq faoliyatining mustaqil potologiyasi ekanligi haqida fikrlarini aytib o‘tganlar:

1.1877-yilda A. Kussmaul nutq muammolarini tahlil qildi va deffektologiya bilan bog‘ladi.

2.XIX asr oxiri va XX asr boshlarida adabiyotlarda o‘qish buzilishlari umumiy aqli zaiflikning simptomi deb va bu buzilishlar faqat aqli zaifbolalarda kuzatiladi degan fikrlari tarqaldi (F. Baxman va B. Engler).

3.O‘tgan asrning 20-yillaridan so‘ng o‘zbek tilining Nutq madaniyati xalq tiliga yaqinlashtirilgan milliy adabiy til me’yorlariga asoslanadi. Bu me’yorlarni shakllantirish ishiga olimlar (Otajon Hoshim, T. N. Qoriniyoziy, S. Ibrohimov, Olim Usmon va boshqalar), adib-u shoirlar (Qodiriy, Cho‘lpon, Avloniy, Fitrat, Oybek, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor va boshqalar) munosib hissa qo‘shdilar [3,69].

Barcha davrning olimlari umumiy nutq haqidagi shaxsiy fikrlarni ilgari surgan bo‘lsada,bugungi kundagi o‘smirlar nutqidagi nuqsionlar yaqqol ko‘zga tashlanmoqda, sababi, ijtimoiy tarmoqlar orqali yangicha so‘zlarning kirib kelishidir O‘quvchilar nutqini o‘stirishdagi eng asosiy omillardan biri bu, diologik muhitni yaratish,erkin fikrlashga o‘rgatish, suhbatdoshining fikrini tinglay olish ko‘nikmasini hosil qilish, mustaqil tuzgan nutqini imlo xatolarsiz yozishga o‘rgatishdir. Kitobxonlikni targ‘ib qilish,kutubxonalarga borish va har bir o‘qilgan adabiyotni muhokama qilish,o‘quvchilarning kitobga bo‘lgan muhabbatini oshirish eng maqbul yo‘ldir.

Darhaqiqat, men barcha fikrlar umumiylashsa, amalga tadbiq etilsa, albatta, kutilgan natijaga erishish mumkin deb ayta olaman va jamoat joylarida, transport vositlarida nutqni buzib gapirayotgan insonlarni ko‘rib, albatta, jiddiy kurashish o‘sib kelayotgan yosh avlodning nutqidagi muammolarga oz bo‘lsada yechim topishni o‘z burchim deb hisoblayaman.

O‘quvchilar nutqidagi amaldagi so‘zlar tahlili ko‘rib chiqadigan bo‘lsak,

	Ashka	Electron sigaret turi	Rus tili
	Cvadrober	Hayvonlarga taqlid qilib yashash	Ingliz tili
	Team	Guruh	Ingliz tili

	Nefers	Madaniyatsiz,yoqimsiz videolar	Ingliz tili
	Magik stayl	O‘ziga yarashmagan kiyinish uslubi	Ingliz tili
	Tresh	Sifatsiz videolar	
	Ok	Yaxshi	Ingliz tili
	Hype	E`tiborni jalb qilish	Ingliz tili
	Krinch	Bachkana uslub	Ingliz tili
	Reaksiya	Fikr bildirish	Lotin
	Prank	Hazil qilish,ustidan kulish	Ingliz tili
	Piar	Yolg‘ondan uyushtirilgan voqealar	Ingliz tili
	Coment	Fikr	Ingliz tli
	Story	Hikoya,parcha	Ingliz tili
	Tuning	Yangicha jihozlash	Ingliz tili
	GRWM	Men bilan tayyorlan	Ingliz tili
	Dreaft	Avtomobilni katta tezlikda boshqarish	Ingliz tili
	Adrenaline	Zavq	Ingliz tili
	Trend	Urf,moda	Ingliz tili
	Chat	Suhbat	Ingliz tili
	Akkaund	Shaxsiy, kimgadir tegishli	Ingliz tili
	Lichka	Shaxsiy,sahifa	Rus tili

O‘rganilgan ishlardan shunday xulosa kelib chiqadiki,amalda keltirilgan bu so‘zlar o‘quvchilarni nutqida muammolarni keltirib chiqarayabdi, bu muammolarni bartaraf etish esa bizning yetakchi vazifamizdir. Bilamizki, maktab va maktabgacha ta`lim muassalarida har haftaning juma kunida ma`naviyat soati bo‘lib o‘tmoqda. Tashkil etilgan ma`naviyat soatida o‘quvchilar bilan ***“Men o‘zbekman, o‘zbek tili onam kabi azizdir”*** shiori ostida chellenjlar tashkil qilinsa va har ma`naviyat soatida 10-30 tagacha sof o‘zbek tilidagi so‘zlarni yod olish musobaqalari tashkil etilsa [4,102], o‘quvchilar nutqidagi muammolarga oz bo‘lsa-da yechim topilar edi. Har hafta o‘tkaziladigan bu chellenjlar vaqt o‘tgan sayin asta – sekin ko‘nikmaga aylanib boradi va o‘z samarasini beradi degan xulosaga kelindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1 .Avezov S.S, Choriyev T.R. Til va nutq o‘stirish metodikasi (5141700-Maktabgacha ta'lim va sport tarbiyaviy ish ixtisosligining 2- 3-kurs talabalari uchun o‘quv-usuliy qo‘llanma).

2. N.Mahmudov. O‘qituvchi nutqi madaniyati. T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

3. R.Qo‘ng‘urov va b. Nutq madaniyati va uslubiyot asoslari. T., ―O‘qituvchi, 1992.

4. A.G‘ulomov, B.Qobilova. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari. T., ―O‘qituvchi, 1995.

MUHIDDIN OMON SHE’RIYATIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MOTIVLAR VA PEYZAJ LIRIKASINING BADIIY TALQINI

Gulnoza Ziyouddinova,
Qo‘qon universiteti mustaqil izlanuvchisi.
digitalgroupuz@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek shoiri Muhiddin Omon she’riyatida ijtimoiy-siyosiy motivlar hamda tabiat (peyzaj) lirikasining badiiy-estetik talqini tahlil qilinadi. Tadqiqotda shoir she’rlaridagi ijtimoiy tengsizlik, mansabparastlik va soxta ziyolilik kabi illatlarning satira, ironiya va grotesk vositasida fosh etilishi, lirik qahramonning faol fuqarolik pozitsiyasi o‘rganiladi. Maqolaning ikkinchi qismida “Kuz xayollari” she’ri misolida tabiat tasviri orqali vaqt, mangulik va inson umrining o‘tkinchiligi, “fano va baqo” konsepsiyasi tahlil etiladi. Muallif rang semantikasi, antiteza va metafora kabi badiiy vositalarning poetik vazifasini ko‘rsatib beradi. Tahlillar Muhiddin Omon ijodi zamonaviy o‘zbek adabiyotida fuqarolik lirikasi va falsafiy peyzaj lirikasining yorqin namunasi ekanligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: Muhiddin Omon, ijtimoiy-siyosiy lirika, fuqarolik lirikasi, satira, ironiya, grotesk, peyzaj lirikasi, tabiat tasviri, fano va baqo, rang semantikasi, lirik qahramon.

Abstract. This article analyses the artistic-aesthetic interpretation of socio-political motifs and nature (landscape) lyricism in the poetry of the contemporary Uzbek poet Muhiddin Omon. The study examines how social vices such as inequality, careerism and false intellectualism are exposed through satire, irony and the grotesque, and explores the active civic position of the lyrical hero. The second part of the article, drawing on the poem “Kuz xayollari” (“Autumn

Reflections"), analyses the depiction of nature as a means of conveying time, eternity, the transience of human life, and the concept of "mortality and eternity" (fano va baqo). The author demonstrates the poetic function of artistic devices such as colour semantics, antithesis and metaphor. The analysis substantiates that Muhiddin Omon's work is a vivid example of civic lyricism and philosophical landscape lyricism in contemporary Uzbek literature.

Keywords: Muhiddin Omon, socio-political lyricism, civic lyricism, satire, irony, grotesque, landscape lyricism, depiction of nature, mortality and eternity, colour semantics, lyrical hero.

Ijtimoiy-siyosiy motivlar

Muhiddin Omon she'riyatida ijtimoiy-siyosiy motivlar shoir ijodining muhim qatlamlaridan birini tashkil etadi. Uning she'riyati jamiyat hayotidagi ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik, ma'naviy tanazzul, korrupsiya, mansabparastlik kabi muammolarni badiiy aks ettirishga yo'naltirilgan. Shoir bu masalalarni ko'tarishda nafaqat qalb qozonida qaynagan ichki kechinmalarining, balki keng ijtimoiy qatlamlarning ruhiy holatini umumlashtiruvchi obrazlar tizimini ham yaratadi.

Shoirning "Askar libosidagi qizga", "Qancha quyuq bo'lsa tunning ridosi", "Assalom, tog'lar", "Bir ahmoq amaldor bo'ldi daf'atan", "Qiziq holat ko'pdir", "Ajab dunyolaring, savdolaring bor" singari she'rlarida jamiyatdagi ijtimoiy masalalar qalamga olinadi. Mazkur yo'nalishda yozilgan she'rlarni tahlil qilishda adabiyotshunoslikning zamonaviy metodologik tamoyillari, xususan, sotsiologik yondashuvdan foydalanish orqali she'rlarda ijtimoiy muammolar ko'pincha shaxs va jamiyat o'rtasidagi ziddiyat orqali ochilishi oydinlashadi[45].

[45]Adabiyotning sotsiologik tahlili haqida qarang: Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 210.

Muhiddin Omon ijtimoiy-siyosiy muammolarni ochib berishda keskin tanqidiy ruhga tayanadi. Uning she’rlarida jamiyatda chuqur ildiz otgan illatlar satira, kinoya va grotesk vositasida mahorat bilan ifodalanadi. Ayniqsa, nomunosib mansabdor shaxslar obrazini yaratishda shoir keskin badiiy bo‘yoqlardan foydalanadi. Bu jihatdan shoir poetikasida grotesk va ironiya yetakchi o‘rin egallaydi[46]. Muhiddin Omon grotesk orqali insonning ma’naviy qiyofasini buzib ko‘rsatar ekan, buning natijasida jamiyatdagi illatlarga yanada keskinroq tus berishga intiladi. Masalan, ayrim she’rlarda mansabparast shaxslar “devday yalpaygan”, “yumshoq kursiga yopishib qolgan” singari obrazlarda tasvirlanib, ularning ma’naviy tubanligi, ichki bo‘shlig‘i tashqi ko‘rinishi orqali fosh etiladi.

Ironiya esa shoirning tanqidiy pozitsiyasini ta’sirchan shaklda ifoda etishga xizmat qiladi. Bu vosita orqali u ijtimoiy muammolarni oshkora aytish bilan birga, o‘quvchini chuqur mushohadaga chorlaydi. Misol uchun, shoirning “Ajab dunyolaring, savdolaring bor” misralari bilan boshlanuvchi she’rida[47] jamiyatdagi o‘z o‘rniga nomunosib bo‘lgan kishilar tanqid qilinadi:

Ajab dunyolaring, savdolaring bor,
Kutmagan joyda ming g‘avg‘olaring bor.
Alifni “kaltak”, deb da’vo qilguvchi
Necha chalamullo – “donolaring” bor...

Keltirilgan misralarda shoir zamonaviy jamiyatning murakkab va ziddiyatli manzarasini o‘quvchi ko‘z o‘ngida umumlashtiradi. Taqdim etilayotgan manzara orqali uning ongida real hayot tasvirlari jonlantiriladi. Bandning birinchi misrasi orqali o‘tkinchi dunyoning tartibsizligi, insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy

[46]Grotesk va ironiya tushunchalari xususida qarang: Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B. 86, 132.

[47]Muhiddin Omon. Saylanma she’rlar. – Toshkent, 2021. – B. 58.

munosabatlarning izdan chiqqanligi badiiy umumlashma sifatida ifodalanadi. Shoir ta’kidlagan bu “ajab savdolar” esa “kutmagan joydagi ming g‘avg‘olar”ga sabab bo‘ladi. Bu g‘avg‘olardan charchagan, ijtimoiy beqarorlik va kutilmagan ziddiyatlarning ko‘pligidan horigan lirik qahramon uchinchi misrada “Alifni “kaltak”, deb da’vo qilguvchi” kishilar obrazi orqali jaholatni keskin fosh etadi. Misrada oddiy haqiqatni ham anglashga ojiz, tafakkuri bo‘yidan-da past, biroq o‘zini “olim” tutuvchi shaxslar obraziga murojaat qilinadi.

Atrofimizni kuzatar ekanmiz, din va ilmning eng yuzaki qatlamlaridangina xabardor bo‘lgani holda har ikkisini ham mukammal bilishga da’vo qiladigan kimsalarni uchratamiz. Shoir bunday kishilarni “chalamullo” deb ataydi. Bu ta’rif orqali shoir diniy va ilmiy saviyasi past, ammo ijtimoiy mavqega da’vo qiluvchi qatlamga ishora qilib, jamiyatdagi soxta ziyolilik fenomenini tanqid qiladi.

Saxoni sindirib, kibrga minib,
Kamtar insonlarni masxara qilib,
Haq so‘z masnadiga yolg‘onni ilib
Yurgan maddohlaring, burrolaring bor...

Ikkinchi bandda shoir kibrli, yolg‘onchi va laganbardor kimsalarni tanqid qiladi. Jamiyatda shaytoniy kibrga to‘lib, kichikko‘ngil insonlarni mazax qiladigan, yolg‘onni rost qatorida ko‘radigan, tili yuqoridagilarni madh etishdan bo‘shamaydigan insonlar shoirning g‘ashini keltiradi, noroziligiga sabab bo‘ladi.

Shoir ijtimoiy-siyosiy mavzudagi she’rlarida faqatgina badiiy g‘oyaning pishiqligiga e’tibor qilmaydi. Muhiddin Omon uchun ana shu g‘oyaning o‘quvchiga qay holatda yetkazilishi ham muhim. Shu sababdan u she’rda badiiy tasvir va ifoda vositalarining qo‘llanilishiga alohida ahamiyat qaratadi. Xususan, yuqorida keltirilgan she’rda ham kinoya, grotesk unsurlar, antiteza va metafora singari badiiy vositalardan samarali istifoda etadi. Jumladan, she’rda qo‘llangan “donolaring bor” iborasi aslida maqtov emas, balki keskin istehzo mazmunini

anglatadi. Bu o‘rinda kinoya shoirga jamiyatdagi “donolar”ni aslida nodon sifatida ko‘rsatish imkonini beradi. Ijodkor tasvirlagan irreal hayot manzaralari bilan real hayotda tanish bo‘lgan zukko she’rxon esa bu qochirimni darrov ilg‘ab oladi. Bandda qo‘llangan “Alifni kaltak deb bilish” kabi grotesk unsurlar esa real holatni buzib ko‘rsatish orqali muammoga yanada keskinroq tus berishga imkon beradi.

Muhiddin Omon antitezadan ham mahorat bilan foydalanadi. U saxovat va kibrni qarama-qarshi qo‘yar ekan, bu orqali jamiyatdagi ma’naviy inqirozni ochib beradi. Maqtanchoqlik va kibrga shoirning munosabati haqida yuqorida fikr bildirgan edik. Shundan kelib chiqib, kibr shoir ijodida eng ko‘p tanqid qilingan illat deyish mumkin.

Muhiddin Omonning ijtimoiy-siyosiy mavzudagi she’rlarida lirik qahramon jamiyatdagi illatlarga befarq bo‘lmagan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxs sifatida gavdalanadi. U shunchaki kuzatuvchi emas, balki baholovchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. U jamiyatdagi adolatsizlikka befarq qaray olmaydi, aksincha, unga qarshi ichki norozilik va ruhiy isyon bilan yashaydi. Lirik qahramonning asosiy maqsadi jamiyatdagi yolg‘on, riyokorlik va jaholatni fosh etishdan iborat bo‘lib, “maddohlar”, “burrolar” kabi birliklar orqali shoir maqtovgo‘y, manfaatparast insonlar qatlamini umumlashtiradi. Bu obrazlar individual bo‘lmay, balki tipik xarakter kasb etadi. Ya’ni shoir qo‘lini niqtab muayyan bir insonni ko‘rsatmaydi. Aksincha, jamiyatdagi shu tur kimsalarning umumiy “sifatlari”ni tanqid qilib, o‘quvchiga o‘zini xolis taftish qilish imkonini yaratib beradi. Shoir she’riyatining ijtimoiy-siyosiy qatlamida asosiy g‘oya jamiyatni ma’naviy poklanishga chaqirish, insonni halollik va adolat yo‘liga undash bo‘lib, bu uning badiiy konsepsiyasi tanqid orqali isloh qilish tamoyiliga asoslanishini ko‘rsatadi. Muhiddin Omon she’rlarida tanqid yakuniy maqsad emas, balki ijtimoiy ongni uyg‘otish vositasidir. Shu jihatdan, shoir ijodi zamonaviy

o‘zbek adabiyotida fuqarolik lirikasining yorqin namunasi sifatida baholanishi mumkin.

Tabiat mavzusidagi she’rlar (peyzaj lirikasi)

Mavzu ko‘lami jihatidan Muhiddin Omon she’riyatida tabiat mavzusi alohida o‘rin tutadi. Filologiya fanlari doktori Y.Hamdamov “Sevgi va muhabbatga oshufta ko‘ngil” maqolasida Muhiddin Omon ijodida tabiat mavzusining o‘rni haqida gapirar ekan, “Ta’kidlashni istardik, Muhiddin Omon she’rlarida ona tabiat o‘ziga xos jilvalanadi va qishloq manzaralarini ko‘z o‘ngingizda shundoqqina gavdalantira oladi[48]:

Hovuz bo‘yi chordona qurib,
Gurunglashar daraxtlar bedor.
Rayhonlarning atrin shopirib,
Boda kabi yel etar nisor.
Chigirtkalar “g‘ijjag”in olib,
Kuy boshlaydi uzundan-uzoq.
Yamoq to‘nin ostiga olib,
Mudramoqqa tutinar qishloq

Yuqorida keltirgan misolimizda qishloq kechasi manzarasi, chigirtkalarning galma-gal “g‘ijjak”ini chalishi, yamoq to‘nni ostiga olib yotish kabi tasvirlar – bularning barchasi bir zum bo‘lsa-da, o‘qirmanning yoshlik xotirotlarini qayta jonlantiradi, qalbida ajoyib his-tuyg‘ularni beixtiyor jo‘sh urdiradi. Shoirning “Qishloq”, “Ota makonim”, “Qorong‘u tun xayollari”, “Eson botir afsonasi”, “Ishtiboh” kabi she’rlarida ham ona qishloq, tabiatning ajoyib lavhalari shunday tasvirlanganki, bular orqali ko‘z oldimizda jonajon Vatan timsoli gavdalantiriladi”, — degan fikrni ta’kidlaydi. Shoirning “Qishning so‘nggi kuni”, “Navro‘z kelib”,

[48]Hamdam Y. Sevgi va muhabbatga oshufta ko‘ngil // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – Toshkent, 2020.

“Bahor sog‘inchi”, “Kuz to‘kar xazonlar uzra quyoshin…”, “Navro‘z sabosi”, “Yana bahor haqida”, “Bog‘da”, “Oltin kuz”, “Qorlar erib borar”, “Kuz kayfiyati”, “Bahor nashidasi”, “Kuz xayollari” singari she’rlarini peyzaj lirikasining yorqin namunalari sifatida baholash mumkin. Xususan, shoirning “Kuz xayollari” she’ri falsafiy-estetik tafakkur mahsuli sifatida inson hayoti, vaqt va borliq o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni badiiy obrazlar orqali ifodalaydi. Unda ayniqsa kuz faslining ramziy talqini markaziy poetik vosita sifatida bo‘y ko‘rsatadi.

Za’faron yaproqlar alvon shafaqni
Qirmiz gulob kabi sipqorgan bu dam
Tabiat tan olib hukmi Barhaqni,
Fano iqboliga tashlaydi qadam.

She’rning dastlabki misralarida “za’faron yaproqlar”, “alvon shafaq”, “qirmizi gulob” kabi rang tasvirlari orqali tabiat manzarasi jonlantirilar ekan, ranglar semantikasi bu yerda faqat tasviriy emas, balki ramziy-falsafiy yuklamaga ega ekanligi oydinlashadi. Badiiy adabiyotda qizil va za’faron ranglar hayotning so‘nish pallasi, ya’ni fano jarayoniga ishora qiladi. Ayniqsa, sarg‘ish xazonlarning yarim qizg‘ish tusga kirishi uning gulob sipqorishiga qiyoslanishida shoir o‘ziga xos tashbehga erisha olgan deyish mumkin.

“Tabiat tan olib hukmi barhaqni, fano iqboliga tashlaydi qadam” misralari orqali borliqning ilohiy qonuniyatlarga bo‘ysunishi, o‘tkinchilik g‘oyasi ilgari suriladi. Bu jihat Sharq mumtoz adabiyotidagi “fano va baqo” konsepsiyasi bilan uyg‘unlashadi[49].

Har lahza – mangulik qo‘shig‘iga bayt
Xayol rishtasidek chuvalgay mezon,
Fikrating yoritgay nogahon shu payt

[49]“Fano va baqo” konsepsiyasi haqida qarang: Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi. – Toshkent, 2008. – B. 142.

Sabr-la oltinga aylangan xazon..

Keyingi bandlarda vaqt va mangulik kategoriyalari o‘zaro qarama-qarshi, ammo bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalar sifatida talqin qilinadi. “Har lahza – mangulik qo‘shig‘iga bayt” misrasi vaqtning har bir onini abadiyat bilan bog‘lovchi badiiy umumlashma bo‘lib, bu yerda lahza (on) va mangulik o‘rtasidagi birlik ifodalanadi. Mezonning xayol rishtasidek chuvalishi tasvirida esa inson tafakkurining murakkabligi, ong jarayonlarining chigalligi badiiy ifodasini topgan.

Daraxtlar yodida ul zangor bahor,
Izg‘irin yelvizak chalar mungli nay.
O‘ylaysan: tog‘larning kiftidagi qor
Mening ham boshimga yog‘ar hademay..

Bandda kuz timsoli orqali inson umrining pirovard bosqichi, uning ayni damdagi ruhiy holati ochib beriladi. “Daraxtlar yodida ul zangor bahor” misrasi yoshlik xotiralarini o‘zida aks ettirib, o‘tgan yoshlik (bahor) bilan hozirgi holat (kuz) o‘rtasidagi kontrastni yuzaga chiqaradi. Bu kontrast esa lirik qahramon qalbi tubidagi ichki kechinmalarni yanada chuqurlashtiradi. Yoshlik pallalarini qo‘msab xotirlagan, keksalik ostonasida xomush turgan lirik qahramon uzoq tog‘larga termular ekan, ularning kiftidagi qor uning e’tiborini tortadi. Qor tog‘ cho‘qqilarini oqartirgani singari uning ham boshiga yog‘ishini o‘ylar ekan, bu orqali insonning o‘z qismatini tabiat hodisalari bilan qiyoslash usuli qo‘llanib, o‘quvchiga keksalik muqarrarligi anglatiladi.

She’rning kulminatsion nuqtasida “kuzgi daraxt kabi kimsasiz” obrazi e’tiborga molik. Bu obraz orqali insonning vaqt qarshisidagi ojizligi, ekzistensial yolg‘izligi ifodalanadi[50]. “Vaqt qoshida sen-da ojiz, bemajol” degan xulosa

[50]Ekzistensial yolg‘izlik tushunchasi xususida qarang: Sartr J.-P. Ekzistensializm – bu gumanizm. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – B. 24.

umumlashma xarakterga ega bo‘lib, individual kechinmadan universal falsafiy hukm darajasiga ko‘tariladi.

Garchi yaproqlarning shiviri iqror
Ilohiy oyatdek xazin va purg‘am..
Lek vujud qa’rida umid ustuvor,
Nekbin orzulardan munavvar olam.

E’tiborli jihati shundaki, she’r pessimizm bilan yakunlanmaydi. So‘nggi misralarda “yaproqlarning shiviri iqror ilohiy oyatdek” tarzida talqin qilinib, tabiat va ilohiyot o‘rtasidagi uyg‘unlik yana bir bor tasdiqlanadi. Eng muhim jihat “vujud qa’rida umid ustuvor” degan g‘oya orqali inson ruhiyatidagi nekbinlik, yashashga bo‘lgan intilish saqlanib qolishi ta’kidlanadi. Kuz faqat yakun emas, balki ruhiy poklanish va yangi bosqichga o‘tish ramzi sifatida ham talqin qilinadi. She’rda kuz timsoli orqali inson umrining falsafiy mohiyati, vaqt va mangulik munosabati, hayotning o‘tkinchiligi hamda umidning abadiyligi badiiy-estetik jihatdan yuksak saviyada ifodalanadi.

Xulosa

Muhiddin Omon she’riyatining tahlili shuni ko‘rsatadiki, shoir ijodida ijtimoiy-siyosiy motivlar va tabiat lirikasi bir-birini to‘ldiruvchi ikki yetakchi qatlamni tashkil etadi. Birinchi yo‘nalishda shoir satira, ironiya va grotesk vositasida jamiyat illatlarini fosh etib, faol fuqarolik pozitsiyasini namoyon qiladi va tanqidni ijtimoiy ongni uyg‘otish, ma’naviy poklanishga chaqirish vositasiga aylantiradi. Ikkinchi yo‘nalishda esa tabiat tasviri falsafiy mushohada bilan uyg‘unlashib, vaqt, mangulik va inson umrining o‘tkinchiligi, “fano va baqo” konsepsiyasi yuksak badiiy saviyada ifodalanadi. Shu bois Muhiddin Omon ijodi zamonaviy o‘zbek adabiyotida fuqarolik lirikasi va falsafiy peyzaj lirikasining yorqin namunasi sifatida baholanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hamdam Y. Sevgi va muhabbatga oshufta ko‘ngil // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – Toshkent, 2020.
2. Muhiddin Omon. Saylanma she’rlar. – Toshkent, 2021.
3. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
5. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
6. Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
7. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
8. Sartr J.-P. Ekzistensializm – bu gumanizm. – Toshkent: Akademnashr, 2019.

HAMZA PEDAGOGIK MEROSINI ZAMONAVIY TA’LIM AMALIYOTIGA TATBIQ ETISH MODELI

Mo‘minaxon Baxtiyorova,

Qo‘qon universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya. Maqolada Hamza Hakimzoda Niyoziyning pedagogik g‘oyalarini zamonaviy ta’lim mazmuniga ko‘chirishning besh blokli modeli bayon etiladi. Tarixiy-pedagogik meros bilan ishlashning ikki vazifasi - rekonstruktsiya va pedagogik transpozitsiya - farqlanadi; tanlanma tatbiq tamoyili to‘rtta saralash mezoniga aylantiriladi. Model uch konturga (o‘quvchi, ota-ona, o‘qituvchi) ajratilgan mazmuniy blokka va merosning o‘zidan keltirib chiqarilgan diagnostik vositaga ega. Olti qadamli tatbiq algoritmi ishlab chiqilib, uning amalda qo‘llanishi

antonimik juftlik tamoyili misolida koʻrsatilgan. Modelning toʻrtta xavfi va qoʻllash chegarasi ochiq belgilangan.

Kalit soʻzlar: pedagogik transpozitsiya, tanlanma tatbiq, taʼlim mazmunini boyitish, diagnostik mezonlar, antonimik juftlik, maxsus kurs, maktab-oila hamkorligi, milliy pedagogik meros.

Abstract. The paper presents a five-block model for transferring Hamza Hakimzade Niyazi's pedagogical ideas into contemporary educational content. Two distinct tasks in working with historical-pedagogical heritage - reconstruction and pedagogical transposition - are differentiated, and the principle of selective application is operationalised through four selection criteria. The model comprises a content block divided into three circuits (learner, parent, teacher) and a diagnostic instrument derived from the heritage itself. A six-step implementation algorithm is developed and demonstrated on the principle of antonymic pairs. Four risks and the model's scope limits are stated explicitly.

Keywords: pedagogical transposition, selective application, enrichment of educational content, diagnostic criteria, antonymic pair, elective course, school-family cooperation, national pedagogical heritage.

Milliy pedagogik merosni taʼlim amaliyotiga tatbiq etish vazifasi koʻpincha deklarativ darajada qoladi: meros egasining nomi oʻquv dasturida qayd etiladi, ayrim asarlaridan parchalar kiritiladi, ammo uning pedagogik gʻoyalari oʻquv jarayonining ishlaydigan vositasiga aylanmaydi. Buning sababi - tatbiq mexanizmining ishlab chiqilmagani: meros bilan bugungi didaktika oʻrtasida oʻtish koʻprigi yoʻq.

Hamza Hakimzoda Niyoziy merosi misolida mazkur vazifa alohida dolzarblikka ega. Uning pedagogik tizimi ilmiy rekonstruktsiya qilinganda, bu tizimning qiymati nazariy sohada emas, amaliyot sohasida ekani aniqlandi: u

nazariy pedagogik risola yozmagan, ammo jadid pedagogikasining umumiy g‘oyalarini ishlaydigan didaktik yechimlarga aylantirib, ularni ijtimoiy jihatdan eng zaif qatlamga yetkazgan. Demak, merosning bugungi qiymati aynan tatbiq sohasidadir.

Maqolaning maqsadi - Hamza pedagogik g‘oyalarini zamonaviy ta’lim mazmuniga ko‘chirish mexanizmini model darajasida ishlab chiqish, uning saralash mezonlari, tatbiq algoritmi va diagnostik vositasini bayon etishdir. Tadqiqotda modellashtirish, tizimli tahlil, pedagogik loyihalash va mezonli baholash metodlari qo‘llanildi.

1. Metodologik asos: rekonstruktsiyadan transpozitsiyaga

Tarixiy-pedagogik meros bilan ishlashda ikki xil ilmiy vazifa mavjud bo‘lib, ularni aralashtirish ko‘p uchraydigan metodologik xatodir. Birinchi vazifa - rekonstruktsiya: merosning o‘z davrida qanday bo‘lganini manbalar asosida tiklash; uning mezoni - asliyatga muvofiqlik. Ikkinchi vazifa - pedagogik transpozitsiya: tiklangan tizimdan bugungi sharoitda ishlay oladigan elementlarni ajratib olish va ularni zamonaviy ta’lim tizimining tili, tuzilishi va me’yorlariga ko‘chirish; uning mezoni asliyatga muvofiqlik emas, pedagogik samaradorlik va zamonaviy me’yorlarga muvofiqlikdir.

Mazkur farqlashning amaliy ahamiyati katta. Rekonstruktsiya bosqichida tadqiqotchi merosning barcha jihatlarini - jumladan, bugun qabul qilinmaydiganlarini ham - to‘liq va xolis tiklashga majbur. Transpozitsiya bosqichida esa u tanlaydi. Tanlovsiz tatbiq - merosning mexanik ko‘chirilishi bo‘lib, u ilmiy ham, amaliy ham asosga ega emas.

Shundan kelib chiqib, modellashtirish ob’yekti sifatida Hamza pedagogik tizimining o‘zi emas, balki uning g‘oyalarini zamonaviy ta’lim mazmuniga ko‘chirish mexanizmi olinadi. Mazkur aniqlashtirish modelning mantiqiy maqomini belgilaydi: u tarixiy tizimning nusxasi emas, jarayon modelidir.

Modelga qo‘yilgan talablar: yaxlitlik, izomorflik, operatsionallik, diagnostiklik va ochiqlik.

2. Meros elementlarini saralash mezonlari

Tanlanma tatbiq tamoyili amalda qo‘llanishi uchun u aniq mezonlarga aylantirilishi kerak. Tadqiqotda to‘rtta saralash mezoni ishlab chiqildi: (1) pedagogik universallik - element o‘z davridan ajratilganda ham pedagogik ma’no saqlaydimi; (2) zamonaviy me’yorlarga muvofiqlik - element bugungi ta’lim tizimining huquqiy va axloqiy me’yorlariga, jumladan bolaning sha’ni va daxlsizligini ta’minlash talabiga hamda ta’limning dunyoviy xarakteri tamoyiliga zid emasmi; (3) manba ishonchliligi - element qaysi darajadagi manbadan olingan; (4) tatbiq imkoniyati - element mavjud soatlar, dastur va metodik imkoniyatlar doirasida amalga oshirilishi mumkinmi.

Mezonlar ketma-ket filtr sifatida ishlaydi: element to‘rttala mezondan o‘tgandagina tatbiq uchun qabul qilinadi (1-jadval).

1-jadval

Saralash mezonlarining meros elementlariga qo‘llanishi

Meros elementi	Mezonlar bo‘yicha baho	Qaror
Antonimik juftlik tamoyili (ilm↔jahl, sadoqat↔xiyonat)	Universal; me’yorlarga zid emas; A-B darajali manba; mavjud tarbiya darslarida qo‘llanilishi mumkin	To‘liq qabul qilinadi
“Bayt - nasriy izoh - hikoya” uch qismli metodik apparat	Universal (eslab qolish - tushunish - qo‘llash); me’yoriy to‘siq yo‘q; manba ishonchli	To‘liq qabul qilinadi
Tarbiyalanganlikning kuzatiladigan ko‘rsatkichlari	Universal; me’yorlarga mos; diagnostika vositasiga aylantiriladi	To‘liq qabul qilinadi
Ikki avlodga yo‘nalganlik (bolalar + ota-onalar)	Universal; maktab-oila hamkorligi orqali amalga oshiriladi	To‘liq qabul qilinadi

Meros elementi	Mezonlar bo‘yicha baho	Qaror
Diniy-e’tiqodiy mazmun (tavhid darslari va h.k.)	Universallik cheklangan; dunyoviy ta’lim tamoyili bilan chegaralanadi; manba ishonchli	Tarixiy-madaniy fakt sifatida o‘rganiladi
Majburlash elementi (“urub, so‘kub...”)	Universal emas; bolaning sha’ni va daxlsizligi talabiga zid	Rad etiladi
Qizlar ta’limining oilaviy shakli	O‘z davrida o‘rinli, bugun institutsional ehtiyoj yo‘q	Qisman: argumentatsiya qabul qilinadi, yechim shakli rad etiladi
“Boy ila xizmatchi” matnidan olingan xulosalar	Manba ishonchliligi V darajasida (rekonstruktsiya)	Tatbiq asosi sifatida qabul qilinmaydi

Diniy mazmunga oid qaror alohida izohni talab qiladi. Hamza matnlarining diniy qatlami uning pedagogik tizimining tarixiy asosidir va uni yashirish ilmiy jihatdan noto‘g‘ri bo‘lar edi. Ayni paytda ta’limning dunyoviy xarakteri tamoyili mazkur mazmunni e’tiqodiy ta’lim shaklida uzatishni istisno etadi. Yagona to‘g‘ri yechim - uni tarixiy-madaniy fakt sifatida o‘rganish: o‘quvchi XX asr boshi maktabida ta’lim qanday asosga qurilganini biladi, ammo bu bilim unga e’tiqod sifatida uzatilmaydi. Mazkur yondashuv tarixiy haqiqatni ham, zamonaviy me’yorni ham saqlaydi.

3. Modelning tuzilishi va uch konturli mazmuniy blok

Ishlab chiqilgan model beshta o‘zaro bog‘langan blokdan iborat: maqsadli blok (ijtimoiy buyurtma → maqsad → vazifalar); metodologik blok (yondashuvlar va tamoyillar - tanlanma tatbiq, tarixiylik, manba ishonchliligi, dunyoviylik); mazmuniy blok (uch kontur); texnologik blok (shakllar, metodlar, vositalar va tatbiq algoritmi); diagnostik-natijaviy blok (mezonlar, ko‘rsatkichlar, darajalar). Bloklar o‘rtasidagi aloqa bir tomonlama emas: diagnostik blok natijalari mazmuniy

va texnologik bloklarga qayta ta’sir ko‘rsatadi, shu tariqa model yopiq konturli tizim sifatida ishlaydi.

Mazmuniy blokning uch konturga ajratilishi tasodifiy emas - u bevosita Hamza merosining o‘z tuzilishidan kelib chiqadi: muallif bir vaqtning o‘zida bolalar va kattalar bilan ishlagan hamda o‘zi o‘qituvchi bo‘lib, matnlarini bevosita dars amaliyotida sinagan (2-jadval).

2-jadval

Mazmuniy blokning uch konturi

Kontur	Bosqich va shakl	Meros elementi	Kutilayotgan natija
I. O‘quvchi konturi	Umumiy o‘rta ta’lim: ona tili va o‘qish, adabiyot, tarbiya fanlari; sinfdan tashqari mashg‘ulotlar	Antonimik juftliklar tizimi; “bayt - izoh - hikoya” apparati; ilm qadriyati mavzusi	Axloqiy tushunchalarni farqlash; ilmga qadriyatli munosabat
II. Ota-ona konturi	Maktab-oila hamkorligi: ota-onalar universiteti, mahalla mashg‘ulotlari	“Ota-ona mas’uliyati” g‘oyasi; “illat orttirilgan” qoidasi	Ota-onaning ta’limga munosabatini o‘zgartirish; oilada o‘qishni qo‘llab-quvvatlash
III. O‘qituvchi konturi	Oliy pedagogik ta’lim va malaka oshirish: maxsus kurs, amaliy mashg‘ulotlar	Hamza didaktikasining sakkiz tamoyili; manba bilan ishlash madaniyati	Kasbiy-pedagogik madaniyat; milliy pedagogik tafakkur

Ikkinchi kontur modelning o‘ziga xos jihatidir. Uning zarurati Hamza kontseptsiyasining ichki mantig‘idan kelib chiqadi: jaholat oila orqali uzatilar ekan, faqat bola bilan ishlash zanjirni uzmaydi. Hamzaning o‘zi bu vazifani “Yangi

saodat” risolasi orqali hal etgan - u auditoriyasini aniq belgilagan: “yigirma yoshdan yuqorida bo‘lub” eski maktabda saboq olgan eru xotunlar [1]. Zamonaviy sharoitda mazkur vazifa maktab-oila hamkorligi shakllari orqali hal etiladi.

Uchinchi kontur alohida o‘quv-metodik ta’minotni talab qiladi. Shu maqsadda “Hamza pedagogik merosi” maxsus kursi ishlab chiqildi (60 soat: 20 soat ma’ruza, 20 soat amaliy mashg‘ulot, 20 soat mustaqil ta’lim). Kurs uch moduldan iborat: metodologik va manbaviy asoslar; Hamza pedagogik tizimi; tatbiq. Modullar ketma-ketligining o‘ziga xosligi shundaki, manbashunoslik moduli merosning mazmunidan oldin keladi - bu talabani ikkilamchi talqinlarni birlamchi dalil deb qabul qilish xatosidan saqlaydi. Kursning metodik o‘zagi - manba ustaxonasi: talaba matniy tahrirlar mavjudligi haqida axborot olmaydi, balki ularni konkret iqtiboslar qiyosi orqali o‘zi aniqlaydi.

4. Olti qadamli tatbiq algoritmi va diagnostik blok

Model amalda ishlashi uchun undagi har bir qadam operatsional shaklda belgilanishi kerak. Algoritm quyidagi olti qadamdan iborat: (1) manbani tanlash va uning darajasini aniqlash - V darajasidagi matn tatbiq asosi sifatida qo‘llanilmaydi; (2) pedagogik g‘oyani ajratib olish - matn badiiy yoki tarixiy birlik sifatida emas, pedagogik kategoriya tiliga o‘tkaziladi; (3) to‘rt mezon bo‘yicha filtrlash; (4) zamonaviy ekvivalentni aniqlash - g‘oya bugungi didaktika tilida qanday atalishi va mavjud o‘quv dasturining qaysi elementi bilan bog‘lanishi; (5) metodik shaklga solish - mashg‘ulot turi, vaqt hajmi, topshiriqlar tizimi va baholash usuli; (6) diagnostik ko‘rsatkich bilan bog‘lash - ko‘rsatkichsiz element modelga kiritilmaydi.

Algoritmning ishlashini antonimik juftlik tamoyili misolida ko‘rsatamiz. 1-qadam: manba - “To‘la asarlar to‘plami”ning 2-jildidagi “Ikkinchi sinf uchun” bo‘limi, daraja A-B. 2-qadam: pedagogik g‘oya - axloqiy tushuncha o‘z ziddi bilan juftlab berilganda uning chegaralari aniqlashadi va esda mustahkam saqlanadi;

kategoriya - ta’lim mazmunini tashkil etish tamoyili. 3-qadam: to‘rttala mezondan o‘tadi. 4-qadam: zamonaviy ekvivalent - tushunchalarni qiyosiy-kontrast usulda o‘zlashtirish. 5-qadam: metodik shakl - tarbiyaviy mashg‘ulot (juftlik taqdim etiladi → har bir tushuncha uchun hayotiy vaziyat tahlil qilinadi → o‘quvchilar o‘z tajribasidan misol keltiradi → juftlik jadvali to‘ldiriladi); topshiriq - “juftlik kundaligi”. 6-qadam: diagnostik ko‘rsatkich - o‘quvchining zid tushunchalarni farqlash va vaziyatga to‘g‘ri kvalifikatsiya bera olish darajasi hamda tushunchaga shaxsiy munosabat bildira olishi.

Mazkur misol algoritmning asosiy xususiyatini ko‘rsatadi: u meros elementini illyustratsiyadan ishlaydigan metodik vositaga aylantiradi. Aynan shu jihat modelni mavjud amaliyotdan farqlaydi - bugungi darsliklarda Hamza, asosan, o‘rganish ob’yekti sifatida beriladi, taklif etilayotgan modelda esa uning g‘oyalari ta’lim vositasiga aylanadi.

Diagnostik blokning o‘ziga xosligi shundaki, uning ko‘rsatkichlari sun’iy tarzda kiritilmagan - ular merosning o‘zidan keltirib chiqarilgan: Hamza tarbiya natijasini nazariy ta’rif bilan emas, kuzatiladigan xulq belgilari orqali ifodalagan, bular esa empirik tekshirishga bevosita yaroqlidir. Shu asosda uchta mezon belgilandi: kognitiv (bilim hajmi, axloqiy tushunchalarni va ularning zidlarini farqlay olish, manbaga munosabat tushunchasi); aksiologik (ilmga qadriyatli munosabat, o‘qishga ichki ehtiyoj, milliy pedagogik merosga hurmat); faoliyatli (kichiklarga nisbatan yordam pozitsiyasi, kattalarga nisbatan hurmat me’yorlari, o‘z xulqini boshqara olish, vaqtga munosabat, mustaqil o‘qish ko‘nikmasi). Har bir mezon bo‘yicha uch daraja - yuqori, o‘rta, past - ajratiladi. Ko‘rsatkichlarning manbadan olingani diagnostikaning mazmuniy validligini ta’minlaydi.

Model samarali ishlashi uchun beshta pedagogik shart-sharoit zarur: o‘qituvchining manba bilan ishlash madaniyati; mazmunning mavjud dasturga organik singdirilishi; uch konturning bir vaqtda ishlashi; dunyoviylik va tarixiylik

muvozanati; diagnostikaning uzluksizligi. Shu bilan birga to‘rtta xavf aniqlandi: modernizatsiya (tarixiy matnga unda bo‘lmagan zamonaviy ma’noni yuklash), dekorativ tatbiq (meros materialining mashg‘ulotga bezak sifatida kiritilishi), mazmunning konfessionallashuvi va yuklamaning oshishi. Har bir xavfni bartaraf etish yo‘li modelning tegishli elementiga bog‘langan: masalan, dekorativ tatbiq algoritmning oltinchi qadami bilan, yuklamaning oshishi esa ikkinchi pedagogik shart-sharoit bilan bartaraf etiladi.

Xulosa. 1. Tarixiy-pedagogik meros bilan ishlashning ikki vazifasi - rekonstruktsiya va pedagogik transpozitsiya - farqlandi. Modellashtirish ob’yekti merosning o‘zi emas, uning g‘oyalarini zamonaviy ta’lim mazmuniga ko‘chirish mexanizmidir; shu bois model tarixiy tizimning nusxasi emas, jarayon modelidir.

2. Tanlanma tatbiq tamoyili to‘rtta saralash mezoniga aylantirildi: pedagogik universallik, zamonaviy me’yorlarga muvofiqlik, manba ishonchliligi va tatbiq imkoniyati. Mezonlar merosning sakkizta asosiy elementiga qo‘llanildi: to‘rt element to‘liq qabul qilindi, bir element qisman, bir element cheklangan maqomda, ikki element rad etildi.

3. Besh blokli model ishlab chiqildi va u yopiq konturli tizim sifatida ishlaydi. Mazmuniy blok uch konturga ajratildi - o‘quvchi, ota-ona va o‘qituvchi konturlari; bo‘linish sun’iy emas, u Hamza merosining ikki avlodga yo‘nalgan strategiyasidan kelib chiqadi.

4. Olti qadamli tatbiq algoritmi meros elementini illyustratsiyadan ishlaydigan metodik vositaga aylantiradi. Algoritmning oltinchi qadami - diagnostik ko‘rsatkich bilan bog‘lash - dekorativ tatbiq xavfini bartaraf etuvchi asosiy mexanizmdir.

5. Diagnostik blokning ko‘rsatkichlari merosning o‘zidan keltirib chiqarilgani uning mazmuniy validligini ta’minlaydi: tarbiya natijasi muallifning o‘zi belgilagan mezonlar bo‘yicha o‘lchanadi.

6. Modelning qo‘llash chegarasi ochiq belgilandi: u ta’lim mazmunini boyitishga mo‘ljallangan va mavjud dasturni almashtirishga yoki Hamza tizimini butunligicha tiklashga da’vogar emas. Modelning samaradorligi tajriba-sinov yo‘li bilan tekshirilishi keyingi tadqiqot vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. Беш жилдлик. 2-жилд: Педагогик рисолалар. Наср. - Тошкент: Фан, 1988.

2. Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари. - Тошкент: Университет, 2006.

3. Абдураҳмонова Б. Ҳамза асарларининг таълим босқичларида ўрганилиши масаласи // Педагогик маҳорат. - 2020. - № 4.

4. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. - Тошкент: Ўқитувчи, 1992.

5. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. - Тошкент: Шарқ, 2004.

6. Корнетов Г.Б. Цивилизационный подход к изучению всемирного историко-педагогического процесса. - М.: ИТПиМИО РАО, 1994.

7. Богуславский М.В. Очерки истории отечественного образования XIX–XX веков. - М.: МКЛ № 1310, 2002.

8. Днепров Э.Д. Российское образование в XIX – начале XX века. Т. 1. - М.: Мариос, 2011.

9. Chevallard Y. La transposition didactique: du savoir savant au savoir enseigné. - Grenoble: La Pensée Sauvage, 1991.

10. Knowles M.S. The Modern Practice of Adult Education: From Pedagogy to Andragogy. - Chicago: Follett, 1980.

FOLKLOR MATERIALINI ZAMONAVIY TA’LIM JARAYONIGA TATBIQ ETISH

(Ayol obraziga asoslangan milliy tarbiya modeli)

Sadoqat Shamsiddinova,
Qo‘qon universiteti tayanch doktoranti.

Annotatsiya. Maqolada folklor materialining zamonaviy ta’lim jarayonidagi maqomini illyustrativ vositadan ta’lim mazmunining o‘zagiga aylantirish muammosi ko‘rib chiqiladi. Hozirgi amaliyotda doston matni ko‘pincha nazariy qoidani bezash yoki hissiy fon yaratish uchun keltiriladi; buning sababi obrazning pedagogik funksiyalari tasniflanmagani va tarbiyaviy natijani qayd etuvchi mezonlar apparati ishlab chiqilmaganidir. Biz K.D. Ushinskiyning "xalqchillik" tamoyili va G.N. Volkovning "mukammal inson" idealiga tayangan holda o‘zbek qahramonlik dostonlari ayol obrazlarining beshta pedagogik funksiyasini – ona-tarbiyachi, axloqiy ideal, ijtimoiylashtiruvchi, madaniy-qadriyatiy (aksiologik) va aks ideal funksiyalarini – tasniflaydi hamda aksiologik funksiyaning qolgan to‘rttasini qamrovchi integral vazifa ekanini asoslaymiz. Ushbu tasnif negizida besh komponentdan (maqsadli, mazmuniy, vositaviy, metodik, natijaviy) iborat milliy tarbiya modeli ishlab chiqilgan va "Etnopedagogika" kursi doirasidagi 30 soatlik modul orqali joriy etilgan. Uch oliy ta’lim muassasasida 338 talaba ishtirokida o‘tkazilgan tajriba-sinov modelning statistik jihatdan ishonchli samaradorligini tasdiqlaydi. Tadqiqotning cheklovlari ham ochiq bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: folklor, ayol obrazi, pedagogik funksiya, milliy tarbiya, etnopedagogika, tarbiya modeli, aksiologik funksiya, tajriba-sinov.

Abstract. The article addresses the problem of shifting folklore material from an illustrative device to the core of educational content. In current practice epic texts are cited mainly to embellish a theoretical rule or to create an emotional background, because the pedagogical functions of the image remain unclassified and no criteria apparatus records the educational result. Relying on K.D. Ushinsky's principle of "narodnost" and G.N. Volkov's ideal of the "perfect person", the author classifies five pedagogical functions of the female images of Uzbek heroic epics - mother-educator, moral ideal, socialising, cultural-axiological and counter-ideal - and substantiates that the axiological function integrates and encompasses the other four. On this basis a five-component model (aim, content, means, method, result) is developed and implemented through a 30-hour module within the course "Ethnopedagogy". An experiment at three universities with 338 students confirms its statistically reliable effectiveness. The limitations of the study are stated openly.

Key words: folklore, image of woman, pedagogical function, national upbringing, ethnopedagogy, educational model, axiological function, pedagogical experiment.

Zamonaviy ta’lim amaliyotida folklor materiali keng qo‘llaniladi, ammo uning qo‘llanish maqomi aksariyat hollarda illyustrativ bo‘lib qolmoqda. Doston matnidan olingan parcha mashg‘ulotda ko‘pincha nazariy qoidani bezash, mavzuga milliy tus berish yoki hissiy fon yaratish vositasi sifatida keltiriladi. Bunday yondashuvda folklor ta’lim mazmunining o‘zagi emas, balki uning tashqi bezagiga aylanadi. Natijada xalq badiiy tafakkurida asrlar davomida jamlangan tarbiyaviy tajriba amalda ro‘yobga chiqmaydi.

Mazkur holatning ildizi metodologik xususiyatga ega. Folklor obrazining tarbiyaviy ta’siri umumiy tarzda e’tirof etiladi, biroq bu ta’sir qaysi aniq vazifalar

orqali amalga oshishi yetarli tasniflanmagan. O‘qituvchi ixtiyorida obrazning qaysi tarbiyaviy funksiyani bajarishi va qaysi qadriyatni singdirishini ko‘rsatuvchi izchil metodik asos mavjud emas. Shu bois obraz tanlash ko‘pincha tasodifiy kechadi, tarbiyaviy natija esa o‘lchanmaydi. Ikkinchi qiyinchilik diagnostika bilan bog‘liq: folklor materialining tarbiyaviy ta’siri e’tirof etilsa-da, ushbu ta’sirni qayd etuvchi mezonlar apparati ishlab chiqilmagan, natijada folklorga tayanish pedagogik qaror emas, ko‘proq an’anaviy odat sifatida qolmoqda. Demak, folklorni ta’lim jarayoniga tatbiq etish muammosi, avvalo, obrazning pedagogik funksiyalarini aniqlash, ularni ta’lim mazmuniga aylantirish va natijani o‘lchanadigan holga keltirish muammosidir.

Tadqiqotning nazariy zaminini ikki ta’limot tashkil etadi. K.D. Ushinskiyning "xalqchillik" tamoyiliga ko‘ra, boshqa xalqdan mexanik ko‘chirib olingan tarbiya tizimi samarasiz bo‘ladi, chunki tarbiya xalqning ruhi, tili va tarixi bilan uzviy bog‘liqdir [11, 71-b]. G.N. Volkov etnopedagogikasida "mukammal inson" tarbiyaviy ideali markaziy o‘rin tutadi: har bir xalq o‘z og‘zaki ijodida shunday ideal qiyofasini yaratadi va yosh avlodni unga intiltiradi [4, 42-b]. Ushbu ikki qoida folklor obrazini ta’lim mazmunining to‘laqonli birligi sifatida ko‘rish imkonini beradi.

Maqolada o‘zbek qahramonlik dostonlari – "Alpomish" [1] va "Rustamxon" [2] – ayol obrazlari materiali asosida ishlab chiqilgan milliy tarbiya modeli taqdim etiladi. Model uch vazifani hal etishga qaratilgan: ayol obrazining pedagogik funksiyalarini tasniflash; ushbu funksiyalarni ta’lim mazmunining o‘zagiga aylantiruvchi tuzilma yaratish; tuzilmaning samaradorligini empirik tekshirish. Quyida funksiyalar tizimi, modelning besh komponenti, "Etnopedagogika" kursi doirasidagi 30 soatlik modul va tajriba-sinov natijalari izchil bayon etiladi. Ushbu yondashuvning ilmiy yangiligi shundaki, unda ayol obrazi alohida badiiy hodisa sifatida emas, balki funksional-pedagogik tizim sifatida taqdim etiladi; bu

folklorshunoslik va pedagogika yondashuvlarini yagona tahlil doirasida birlashtiradi.

Pedagogik funksiya deganda obrazning tarbiya jarayonidagi vazifasi, uning shaxs shakllanishiga koʻrsatadigan maqsadli taʼsiri tushuniladi. Tasniflash toʻrt mezonga tayanadi: obraz ifodalagan asosiy axloqiy fazilat; tarbiyaviy taʼsir mexanizmi (ibrat yoki ogohlantirish); obrazning milliy tarbiya yoʻnalishi bilan bogʻliqligi; obrazning tarbiya jarayonidagi roli. Ushbu mezonlar asosida ayol obrazining beshta pedagogik funksiyasi ajratiladi. Taʼkidlash lozimki, funksiyalarni ajratish obrazning badiiy tabiatini inkor etmaydi; aksincha, aynan badiiy mukammallik tarbiyaviy taʼsirni taʼminlaydi. Funksiyalar tizimi doston ijodkorining ongli maqsadini emas, eposning obyektiv tarbiyaviy imkoniyatini aks ettiradi.

Ona-tarbiyachi funksiyasi ayolning bolaning birinchi va asosiy tarbiyachisi sifatidagi rolini ifodalaydi. U "Rustamxon" dostonidagi Huroyim obrazida yaqqol namoyon boʻladi: ona farzand kamolotini ongli rejalashtiradi va oʻz xulqi bilan unga oʻrnak boʻladi [2, 34-b]. Bu funksiya jahon pedagogikasidagi "onalar maktabi" gʻoyasi bilan hamohangdir: Ya.A. Komenskiy bolaning ilk olti yillik tarbiyasini onaga yuklagan va uni butun taʼlim binosining poydevori deb bilgan [6, 208-b].

Axloqiy ideal funksiyasi obrazning taqlid qilinishi lozim boʻlgan namuna sifatidagi rolini anglatadi. "Alpomish" dostonidagi Barchin vafo, oqilalik va or-nomusning timsoli sifatida ideallashtiriladi [1, 112-b]. Funksiyaning tarbiyaviy mexanizmi – ibrat va identifikatsiya: tinglovchi ideal obrazning fazilatlarini qadrlaydi va ularga intiladi. Idealning ishonarliligi esa fazilatning ogʻir sinovlarda saqlanishi orqali taʼminlanadi.

Ijtimoiylashtiruvchi funksiya yosh avlodni oila va jamiyat munosabatlariga tayyorlash vazifasini bajaradi. U asosan sadoqatli yordamchi ayol obrazlarida –

Ximchaoyim, Tovka, Qaldirg‘och va jamoaviy obraz bo‘lmish qirq kanizda – namoyon bo‘ladi. Ushbu obrazlar sadoqat, o‘zaro yordam, insoniylik va tolerantlik meyorlarini singdiradi hamda zamonaviy pedagogikadagi ijtimoiy kompetensiya tushunchasi bilan bevosita bog‘lanadi. Tovka obrazi bu jihatdan alohida ahamiyatga ega: u dushman yurti qizi bo‘lsa-da, insoniy mehr ko‘rsatadi va shu tariqa umuminsoniy qadriyatning millat chegarasidan ustun turishini namoyish etadi.

Madaniy-qadriyatiy (aksiologik) funksiya ayol obrazining milliy qadriyatlarni tashuvchi va avlodga yetkazuvchi sifatidagi rolini ifodalaydi. O. Musurmonova milliy-ma’naviy merosni, ayniqsa oila ma’naviyatini, yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish omili sifatida asoslaydi [8, 27-b]. B. Sarimsoqov esa marosim folklorining uyushtiruvchilik-yo‘naltiruvchilik vazifasini ko‘rsatadi; bu marosimlarning aksariyati aynan ayollar ijrosi bilan bog‘liqdir [9, 118-b]. Funksiyaning mexanizmi – qadriyatni mavhum ta’rif emas, balki jonli badiiy obraz orqali singdirish [12, 45-b].

Aks ideal (ogohlantiruvchi-profilaktik) funksiyasi salbiy obrazlarga xos bo‘lib, yomon xislatlardan ogohlantiradi. Momagul va Surxayil maston obrazlari orqali tuhmat, hasad va ayyorlikning qiyofasi hamda oqibati ko‘rsatiladi. Bu funksiyaning tarbiyaviy natijasi – axloqiy immunitetning shakllanishi. Ijobiy funksiyalar "nimaga intilish kerakligi"ni, aks ideal funksiyasi esa "nimadan qochish kerakligi"ni belgilaydi.

Beshta funksiya alohida emas, balki yaxlit tizimni tashkil etadi. Ushbu tizimda aksiologik funksiya integral o‘rin tutadi: u qolgan to‘rttasini qamrab oladi va ularni yagona qadriyatlar o‘qiga bog‘laydi. Ona-tarbiyachi funksiyasi ona qadri qadriyatini, axloqiy ideal funksiyasi vafo va or-nomusni, ijtimoiylashtiruvchi funksiya insoniylik va sadoqatni, aks ideal funksiyasi esa yovuzlikni rad etish

meyorini uzatadi; ularning har biri, pirovardida, qadriyat uzatish akti sifatida amal qiladi. Shu bois aksiologik funksiya modelning mazmuniy o‘zagini belgilaydi.

Model – murakkab pedagogik hodisani uning tarkibiy qismlari va ular o‘rtasidagi aloqalar orqali yaxlit ifodalovchi ilmiy vosita. Ayol obraziga asoslangan milliy tarbiya modeli besh o‘zaro bog‘liq komponentdan – maqsadli, mazmuniy, vositaviy, metodik va natijaviy komponentlardan – iborat. Ushbu komponentlar tarbiya jarayonining maqsaddan natijagacha bo‘lgan yaxlit tsiklini tashkil etadi. Modelning ishlash mexanizmi quyidagicha: ayol obrazlarining pedagogik funksiyalari doston matni va obrazlari orqali, faol metodlar yordamida talabalarga yetkaziladi va natijada ularda milliy-axloqiy qadriyatlar shakllanadi; tsikl baholash orqali takomillashtiriladi.

Maqsadli komponent modelning yetakchi qismi bo‘lib, talabalarda milliy-axloqiy qadriyatlar va milliy o‘zlikni anglashni shakllantirishni belgilaydi. Mazmuniy komponent ayol obrazining beshta pedagogik funksiyasi va ular ifodalagan qadriyatlar tizimini qamraydi. Vositaviy komponent doston matni, ayol obrazlari, iqtiboslar va badiiy lavhalarni o‘z ichiga oladi. Metodik komponent mashg‘ulot tuzilishi hamda faol va interfaol metodlarni, natijaviy komponent esa kutilayotgan natija va uni baholash mezonlarini belgilaydi.

Modelning farqli belgisi shundaki, unda folklor materiali ta’lim mazmunining bezagi emas, o‘zagi vazifasini bajaradi. Doston matni nazariy qoidani tasdiqlash uchun keltiriladigan illyustratsiya emas, balki pedagogik tushuncha aynan undan keltirib chiqariladigan birlamchi manbadir. Shu sababli metodik komponent ikki bosqichli mashg‘ulot tuzilishiga tayanadi: avval doston matni bilan bevosita ish olib boriladi, so‘ng tahlil natijasi ayol obrazining pedagogik funksiyasi sifatida umumlashtiriladi va zamonaviy tarbiya vazifalari bilan bog‘lanadi.

Ayol obraziga asoslangan milliy tarbiya modelining tarkibiy qismlari

Model komponenti	Mazmuni	Pedagogik asos
Maqsadli	Milliy-axloqiy qadriyatlar va milliy o‘zlikni anglashni shakllantirish	"Xalqchillik" tamoyili [11, 89-b]
Mazmuniy	Ayol obrazining beshta pedagogik funksiyasi va qadriyatlar tizimi	"Mukammal inson" ideali [4, 56-b]
Vositaviy	Doston matni, ayol obrazlari, iqtiboslar, badiiy lavhalar	Qadriyatni badiiy obraz orqali singdirish [12, 45-b]
Metodik	Ikki bosqichli mashg‘ulot, faol va interfaol metodlar	Talabaning tarbiya subyekti sifatidagi faolligi [7, 63-b]
Natijaviy	Uch komponent va uch daraja bo‘yicha baholash apparati	Kriterial-diagnostik yondashuv [5, 293-b]

Komponentlar o‘zaro bog‘langan birlik sifatida ishlaydi: maqsadsiz mazmun yo‘nalishsiz, mazmunsiz vosita bo‘sh, vositasiz metod samarasiz bo‘ladi. Natijaviy komponentning mavjudligi modelni yopiq tizimga aylantiradi: u nafaqat tarbiyalaydi, balki tarbiya natijasini baholaydi va shu asosda o‘zini takomillashtiradi. Modelning yana bir xususiyati – uning moslashuvchanligidir: asosiy tuzilma saqlangan holda mazmun va metodlar turli yosh guruhlari hamda ta’lim bosqichlariga moslashtirilishi mumkin.

Model "Etnopedagogika" kursi doirasida ishlab chiqilgan 30 soatlik maxsus modul orqali joriy etiladi. Ushbu kurs tanlovi bir necha jihatdan asoslidir. Birinchidan, fanning predmeti xalqning tarbiyaviy tajribasi va og‘zaki ijodi bo‘lgani sababli doston ayol obrazlari uning mazmuniga sun’iy ravishda emas,

tabiiy tarzda singdiriladi. Ikkinchidan, kurs milliy tarbiya nazariyasi va metodikasini qamragani tufayli modelning barcha komponentlari yagona fan doirasida to‘liq joriy etiladi. Uchinchidan, fanning fanlararo tabiati doston matni bilan bevosita ishlashni ham shu kurs ichida amalga oshirish imkonini beradi va alohida folklor kursiga ehtiyojni bartaraf etadi.

Modul mazmuni kursning xalq pedagogikasi, oila etnopedagogikasi hamda milliy-axloqiy tarbiya mavzulari negizida quriladi. Har bir pedagogik funksiya alohida mashg‘ulot yoki mashg‘ulotlar turkumida o‘rganiladi. Mashg‘ulotning birinchi bosqichida talabalar doston matnidan tanlangan lavha ustida ishlaydi: obrazning xatti-harakati, nutqi va motivlari tahlil qilinadi. Ikkinchi bosqichda tahlil natijasi pedagogik funksiya darajasida umumlashtiriladi, funksiya ifodalagan qadriyat zamonaviy tarbiya vazifalari va talabaning shaxsiy tajribasi bilan bog‘lanadi. Ushbu izchillik muhim metodik talabni ifodalaydi: pedagogik umumlashma matn tahlilidan oldin emas, undan keyin beriladi. Aks holda doston yana tayyor qoidani tasdiqlovchi illyustratsiya maqomiga tushib qoladi.

Modulda faol va interfaol metodlarga ustunlik beriladi. Obraz tahlili metodi talabani matn bilan bevosita ishlashga undaydi. Keys-stadi metodida dostondagi axloqiy vaziyat zamonaviy pedagogik vaziyat sifatida qayta qo‘yiladi va yechim izlanadi. Munozara metodi o‘z pozitsiyasini asoslash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Venn diagrammasi ikki doston obrazlarini – Huroyim va Barchin, Ximchaoyim va Tovka, Momagul va Surxayil mastonni – qiyoslash hamda umumiy va farqli jihatlarni vizual tarzda ajratish imkonini beradi. Loyiha metodida talabalar doston obrazlari asosida tarbiyaviy mashg‘ulot ishlanmalarini yaratadilar. Metodlar tanlovi tasodifiy emas: ularning har biri modelning muayyan komponentini ro‘yobga chiqaradi – obraz tahlili vositaviy, keys-stadi va munozara metodik, loyiha esa natijaviy komponent bilan bevosita bog‘lanadi.

Modulning kasbiy yo‘naltirilganligi uning muhim xususiyatidir. Bo‘lajak o‘qituvchi nafaqat obraz ifodalagan qadriyatni o‘zlashtiradi, balki undan o‘z pedagogik faoliyatida foydalanish mahoratini ham egallaydi. A.Q. Munavvarov ta’kidlaganidek, tarbiyaviy ta’sirning samarasi tarbiyalanuvchining jarayondagi faol mavqeiga bog‘liqdir [7, 63-b]. Mustaqil ishlarda esse, taqdimot va kichik tadqiqot loyihalari bajariladi; ushbu shakllar mavzuga shaxsiy-hissiy munosabatni kuchaytiradi. Modul auditoriya bilan cheklanmaydi: guruhlarda davra suhbatlari va ma’naviy-ma’rifiy soatlar o‘tkazilib, nazariy mashg‘ulotlar amaliy va hissiy tajriba bilan to‘ldiriladi. A. Avloniy axloq tarbiyasini inson kamolotining asosi deb bilgani kabi [3, 14-b], modulda ham axloqiy mazmun yetakchi o‘rin tutadi.

Folklor materialini zamonaviy ta’lim jarayoniga tatbiq etishning samarali yo‘li – uni illyustratsiyadan ta’lim mazmunining o‘zagiga aylantirishdir. Bu o‘tish obrazning pedagogik funksiyalarini aniq tasniflashni talab etadi. O‘zbek qahramonlik dostonlari ayol obrazi beshta funksiyani bajaradi: ona-tarbiyachi, axloqiy ideal, ijtimoiylashtiruvchi, madaniy-qadriyatiy (aksiologik) va aks ideal. Aksiologik funksiya ular orasida integral o‘rin tutib, qolgan to‘rttasini yagona qadriyatlar tizimiga bog‘laydi va modelning mazmuniy o‘zagini belgilaydi. Funksional tasnif o‘qituvchiga aniq metodik asos beradi: har bir obrazning qaysi tarbiyaviy vazifani bajarishi va qaysi qadriyatni uzatishi oldindan ma’lum bo‘ladi.

Ushbu tasnif negizida qurilgan besh komponentli model – maqsadli, mazmuniy, vositaviy, metodik va natijaviy – milliy-madaniy asosni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtiradi. Uning metodik o‘zagi ikki bosqichli mashg‘ulot tuzilishi bo‘lib, unda matn bilan bevosita ish pedagogik umumlashmadan oldin turadi. "Etnopedagogika" kursi doirasidagi 30 soatlik modul modelni joriy etishning tashkiliy shaklidir; V.A. Suxomlinskiy ko‘rsatgan hissiy tajriba orqali axloqiy tarbiya g‘oyasi [10, 31-b] bu shaklda badiiy obraz vositasida ro‘yobga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Alpomish / Aytuvchi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li; nashrga tayyorlovchilar H. Zarif, T. Mirzayev. – Toshkent: Sharq, 1998. – 384 b.

2. Rustamxon / Aytuvchi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li; yozib oluvchi H. Zarif; nashrga tayyorlovchilar J. Eshonqul, S. Fidokor. – Toshkent: Cho‘lpon, 2007. – 200 b.

3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

4. Волков Г.Н. Этнопедагогика: Учеб. для студ. сред. и высш. пед. учеб. заведений. – Москва: Академия, 1999. – 168 с.

5. Гмурман В.Е. Теория вероятностей и математическая статистика: Учеб. пособие для вузов. – Москва: Высшая школа, 2003. – 479 с.

6. Коменский Я.А. Материнская школа // Избранные педагогические сочинения: в 2 т. – Москва: Педагогика, 1982. – Т. 1. – С. 201–241.

7. Munavvarov A.Q. Pedagogika: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.

8. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 1996. – 188 b.

9. Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori. – Toshkent: Fan, 1986. – 216 b.

10. Сухомлинский В.А. Сердце отдаю детям. – Киев: Радянська школа, 1969. – 288 с.

11. Ушинский К.Д. О народности в общественном воспитании // Собрание сочинений: в 11 т. – Москва–Ленинград: Изд-во АПН РСФСР, 1948. – Т. 2. – С. 69–166.

12. Eshonqul J. Folklor: obraz va talqin. – Qarshi: Nasaf, 1999. – 112 b.

STUDY OF UZBEK AND ENGLICH CHILDREN'S FOLK GAMES THROUGH COGNITIVE MODELS

Gulira'no Ibrohimova,
Kokand University.

Abstract. The study presents a comparative cognitive and linguocultural analyses of Uzbek and English children's folk games. The analyses demonstrate that the games in two cultures construct meaning through contrasting roles, actions and relations. Both Uzbek and English games encode universal cognitive structures while reflecting culture-specific values, social relations, and traditional worldview. The research demonstrates that cognitive modeling provides an effective framework for interpreting children's folk games as linguocultural texts that transmit collective knowledge and cultural experience. The findings contribute to the study of cognitive linguistics, linguoculturology and linguistic representation of cultural concepts in Uzbek and English children's folklore.

Keywords: children's folk games, cognitive model, binary opposition, chain model, cultural concepts, comparative analyses, English and Uzbek games.

Annotatsiya. Tadqiqotda o'zbek va ingliz bolalar xalq o'yinlarining qiyosiy kognitiv va lingvomadaniy tahlili amalga oshiriladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, har ikki madaniyatga mansub o'yinlarda ma'no qarama-qarshi rollar, harakatlar va munosabatlar orqali shakllantiriladi. O'zbek va ingliz xalq o'yinlarida umumiy kognitiv tuzilmalar ifodalangan bo'lsa-da, ular ayni paytda o'ziga xos madaniy qadriyatlar, ijtimoiy munosabatlar va an'anaviy dunyoqarashni ham aks ettiradi. Tadqiqot natijalari kognitiv modellashtirish bolalar xalq o'yinlarini jamoaviy bilim va madaniy tajribani uzatuvchi lingvomadaniy matnlar sifatida talqin qilish uchun samarali metodologik asos ekanligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari kognitiv

tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik hamda o‘zbek va ingliz bolalar folklorida madaniy konseptlarning lingvistik ifodalanishini o‘rganishga hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: bolalar xalq o‘yinlari, kognitiv model, binar oppozitsiya, zanjir modeli, madaniy konseptlar, qiyosiy tahlil, ingliz va o‘zbek o‘yinlari.

Introduction. Children’s folk games represent an important part of the cultural and linguistic heritage of every culture. They combine the elements of traditional knowledge, social interaction and collective experience. Although the games are associated with childhood entertainment, their structure and language preserve culturally significant ideas about social relationships, power, cooperation. Therefore, the study of children’s folk games from a cognitive and linguocultural perspectives makes it possible to identify the ways in which a particular community conceptualizes the world and transmits these conceptualizations from ancestors to future generations.

In recent studies, cognitive linguistics has emphasized the importance of studying language in connection with human cognition, cultural experience and conceptualization. In this respect, a folkloric text is a representation of culturally organized knowledge. Children’s folk games are valuable in this perspective, as the rules, process, characters in games, even names of games form cognitive structures. These structures are represented through cognitive models that illustrate the concepts in game discourse.

Among the cognitive models, the binary opposition model is especially productive. Binary opposition is based on the organization of experience through contrasting categories. The comparison of games demonstrates both universal and culture-specific patterns of conceptual opposition. Along with the binary opposition model the chain model provides another useful framework for the

cognitive analyses of children's folk games. Unlike a static opposition, the chain model focuses on consequent movements from one process to another.

A comparative study of Uzbek and English children's folk games is important since the two traditions contain both common human cognitive patterns and culturally specific representations.

The present study focusing on Uzbek and English children's games, seeks to identify major binary oppositions and chain processes and to determine how these structures correspond to culturally significant concepts. The aim of the research is to demonstrate that the binary and chain models can provide a methodological framework for the comparative analyses of the children's games. The study puts the following hypotheses: 1. What binary oppositions are most frequently represented in Uzbek and English children's games? Which cognitive structure are universal and culturally specific?

Literature review and methoidology. K.Levi-Strauss recognizes binary oppositions as a leading factor in the study of folk culture and the logic of thought. Binary oppositions are a universal principle in the organization of knowledge related to human experience. Binary oppositions are important in the categorization and conceptualization of the world. The theory of binary oppositions became the basis of Y.M.Lotman's concept of semiotic cultural studies. The cultures of most peoples are represented by a binary system formed on the basis of opposition and antithesis. M.S.Uvarov, I.V.Kondakov note the dialectical basis of the culture of European and Russian peoples of binary opposition. From binary opposition, the idea of antinomy was put forward, and there are linguists' ideas that a person thinks according to the laws of antinomy. Later, the idea of antinomy or contradiction was developed in structural linguistics, and F. de Saussure took the first step in the development of the method and theory of opposition. R.Jacobson's binary theory paved the way for progressive changes in linguistics. Y.M.Lotman, V.Ivanov,

V.N.Toporov, M.M.Bakhtin, I.P.Ilyin, M.S.Uvarov recognize that binary opposition has become a fundamental idea of human thinking and the principle of systematic formation in human perception of the world.

The principle of binary opposition is important and fundamental in the categorization of the world.

The concept of cognitive modeling is also used in linguistics. Cognitive modeling, as an important tool of cognitive linguistics, studies language in its connection with human mental activity. A cognitive model is interpreted as a mechanism for storing and processing information about the world in the human mind. A person's knowledge about the world is formed through a cognitive system. Cognitive systems are formed on the basis of conceptualization and categorization of the world. The cognitive model has been interpreted in various ways. The cognitive model of the explanatory dictionary of cognitive terms is explained through three approaches. First, language is explained as a type of cognitive process. Second, the cognitive model is the modeling of the text through the mental process of a person in understanding the text. Third, the cognitive model is the process of categorization in the language. At the same time, it is necessary to take into account the formation of metaphorical images of concepts, taking into account the existence of figurative thinking in humans. Therefore, modeling is a method of conducting a substantive study of the text within the framework of cognitive linguistics. The object of cognitive modeling can be various aspects of language phenomena. The issue of metaphorical modeling of the world is also noteworthy. Due to the metaphorization of the images reflected in the names of folk games, the content of games and actions, a conceptual metaphor can occur. Cognitive modeling is based on formal modeling and creates a basis for understanding the figurativeness of the world. In fact, cognitive modeling is based on a complex understanding of the structure of the text and is intended to express the conceptual

sphere of the text. We decided to apply cognitive modeling to the names and text of games. The cognitive modeling is recognized as an important tool of cognitive linguistics, a method based on semantic research.

Through cognitive modeling, it becomes possible to interpret the cultural semantics of games instead of simply describing the rules of the game. Cognitive modeling of children's folk games makes it possible to systematize the actions of games, characters, objects involved in games, fragments of the national picture of the world reflected in the verbal form of games. Also, the general and specific conceptual systems of Uzbek and English cultures are revealed.

The research materials consist of traditional children's folk games. The comparative method is used to identify the differences and similarities between Uzbek and English children's games. The binary opposition model is applied to illustrate the semantic and functional categories within the games. The chain model is used to reveal the dynamic transfer of the processes in the game. In this regard, the game is interpreted as a sequence of interconnected processes and states. Furthermore, the cognitive-semantic analysis is used to illustrate the concepts activated by game texts, function and structures. The linguocultural method is used to show how the same concept can receive different cultural interpretations.

Results and discussion. In the research of children's folk games the following cognitive models have been identified as binary oppositions' model and chain model. The cognitive models are analyzed in relation to the concepts in children's folk games: concept of border, concept of prosecution, concept of hiding-revealing, concept of struggle, concept of authority/leadership, concept of protection, concept of community life and etc. The cognitive model promotes understanding of metaphorical meaning in the games. For example, English and Uzbek games as "*Cat and Mouse"* or *"Mushuk va sichqon"* symbolize predator-prey relationship, which is shown in contradiction to each other. That is why,

predator-prey relationship can be shown in binary opposition model. Along with it, the binary opposition model can be illustrated in almost all the English and Uzbek children's games. The game "*Wolf and Sheep"* or *"Bo'ri va qo'ylar"* illustrate the metaphorical meaning in opposition *Danger* versus *Innocence*. In these games the concept of prosecution is seen.

The children's games "Oq terakmi, ko'k terak" and the correspondent English game "Red Rover" illustrate the binary opposition – "their own – another's". The cognitive models can show the concept of the game. In "Red Rover" or Uzbek game "Oq terakmi, ko'k terak" the concept of border should be shown through binary opposition model as: own team – rival's team; internal space – external space; social distance – spatial distance. The binary opposition cognitive model codifies not only a space, but also the cultural values, revealing that several concepts exist in the content of the game. Therefore, we should claim that the binary opposition model organizers several concept within the game.

"The queen bee" game activates a central "leadership" concept, which is associated with authority, hierarchy and group organization. The bee image is not merely an insect reference, the queen bee functions as the symbolic centre of the group, while other participants are followers. Therefore, the following binary oppositions emerge: Queen ⟷ Bees, Leader ⟷Followers; Hierarchy ⟷ Collectivity. Consequently, the game encodes the concepts of leadership, group solidarity, and resistance to an outsider. The "Queen Bee" game can be compared with the Uzbek children's game "Asalari". However, it should be stated, that the two games are different by their concepts, which can be illustrated by binary opposition cognitive model. In Uzbek game "Asalari" the following cognitive oppositions can be revealed: Social unity/Collectivity ⟷ Threat. In both games the concept of *collectivity* presents, however the collectivity differs by cognitive oppositions. The dominant concept in the English game can be leadership and

hierarchy, while in Uzbek game emphasizes collectivity. Thus, by the binary opposition cognitive model the difference in concepts in English and Uzbek children's games can be revealed.

There are "Farmer-farmer" and "Dehqon-dehqon" folk games, played by English and Uzbek children. Though the names of the two games are similar, the content is different. The central place in the Uzbek game is the farmer. Children around the farmer learn the village work, to seed, to plant and to gather the harvest, asking him questions and the farmer is showing the actions, answering the children's questions. In English game the children ask the farmer for permission to cross the river. The concepts are different in Uzbek and English games. The concept of farmer is the main in Uzbek game, while the concept of farmer, river and crossing form the central part of the game. That is why it is impossible to say that there is a binary opposition in Uzbek game, on the contrary the chain cognitive model occurs:

Dehqon/Farmer ⟶ *Yer/Land* ⟶ *Mehnat/Labour* ⟶ *Ekin/Crop Hosil/Harvest* ⟶ *Rizq/Daily bread*

While in English game the cognitive model of binary opposition is seen: *Farmer* ⟶ *Children; Cross* ⟶ *Block; Permission* ⟶ *Refusal; This side The other side; Safe* ⟶ *Danger*

Children learn the process of farming and agriculture, the process of working in the field through the image of the farmer in the Uzbek game. The English game promotes the exact and correct obedience to the rules. The central concept in Uzbek game is a dehqon/farmer, while the English game has binary concept *Farmer* ⟷ *River;* ⟷ *Cross* ⟷ *Block.*

Graphically the two models can be illustrated through the following: the binary opposition model: A ⟷ B, C ⟷ D; the chain model: A ⟶ B ⟶ C ⟶ D.

Conclusion. The comparative analyses of Uzbek and English children's folk games through the binary opposition and chain cognitive models demonstrate that the traditional games constitute cognitive-lingvocultural structures. The verbal expressions, rules of games, participants' roles, and movements encode culturally meaningful patterns of human experience.

The binary opposition model illustrates that children's games are formed around fundamental concepts as leader – follower, prosecutor – protector, individual – group, safe – dangerous. These oppositions establish the basic organization of the game scenario. The comparison of Uzbek and English games show that many of these oppositions create the universal and culturally specific elements, revealing cultural values, national imagery. The chain model illustrates the dynamic process of the game. The study demonstrates the effectiveness of both cognitive modeling in comparative analyses of children's folk games.

USED LITERATURE

1. Лотман Ю.М. Избранные статьи: в 3 т. – Таллин: Александра, 1992. – Т.1. Статьи по семиотике и типологии культуры / Lotman Y.M.Izbranniye statyi: v 3 t. – Tallin: Aleksandra, 1992. – T.1.Statyi po semiotike I tipologii kulturi.

2. Леви-Стросс К. Миф, ритуал и генетика // Природа. – 1978. – № 1/ Levi-Stross K.Mif, ritual I genetika// Priroda. –1978. – №1.

3. Леви-Стросс К. Структурная антропология. – М: Наука, 1995/ Levi-Stross K.Strukturnaya tipologiya. – M.:Nauka, 1995.

4. Иванов В. В., Топоров В.Н. Славянские языковые моделирующие семиотические системы (Древний период). – М.: «Наука», 1965. 246 с/ Ivanov V.V., Toporov V.N. Slavyanskiye yazikoviye modeliruyushiye semioticheskiye sistemi (Drevniy period). – M.: Nauka, 1965. –246s.

5. Ильин И.А. Духовный смысл сказки / Трубецкой Е.Н. Три очерка о русской иконе. «Иное царство» и его искатели в русской народной сказке. 2-е изд. – М.: «Лепта-Пресс», 2003. – С. 289-317/ Ilyin I.A.Dukhovniy smisl skazki / Trubetskoy Y.N.Tri ocherka o russkoy ikone. «Inoye tsarstvo» I yego iskateli v russkoy narodnoy skazke. 2-izd. – M.:Lepta-Press, 2003. – S.289-317.

6. Бахтин М.М. Формы времени и хронотопа в романе. Очерки по исторической поэтике // Вопросы литературы и эстетики. – М., 1975. – С.234-407/ Bakhtin M.M. Formi vremeni I khronotopa v romane. Ocherki po istoricheskoy poetike // Voprosi literature I estetiki. – M., 1975. – S..234-407.

7. Уваров М.С. Бинарный архетип. – Спб, 1996 / Uvarov M.S.Binarniy arkhetip. – Spb, 1996.http://www.philosophy.ru/library/uvarov/01/00

8. Кондаков И.В. Введение в историю русской культуры: учебное пособие для вузов. – М.: Аспект Пресс, 1997 /Kondakov I.V.Vvedeniye v istoriyu russkoy kelturi: uchebnoye posoboye dlyua vuzov. – M.: Aspekt Press, 1997.

TA’LIM RUS TILIDA OLIB BORILADIGAN SINFLARDA O‘ZBEK TILI MASHG‘ULOTLARIDA GAPIRISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Sohibjamol TANGATAROVA,
KU mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim rus tilida olib boriladigan umumta'lim maktablari sinflarida o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishda o‘quvchilarning gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishning metodik va psixologik xususiyatlari tahlil

qilinadi. Kommunikativ, qiyosiy va bosqichma-bosqich yondashuvlarning ahamiyati ochib berilib, o‘quvchilarda nutqiy xavotirni kamaytirish, motivatsiyani oshirish hamda individual yondashuvni qo‘llash masalalari yoritilgan. Shuningdek, samarali mashq turlari va ularni tashkil etish shartlari bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: gapirish ko‘nikmasi, ikkinchi til, kommunikativ yondashuv, qiyosiy metod, nutqiy faoliyat, motivatsiya, nutqiy xavotir, psixologik muhit, individual yondashuv, davlat tili.

Abstract. The article analyzes the methodological and psychological features of developing speaking skills in teaching Uzbek as a second language in general secondary school classes with Russian as the language of instruction. The significance of communicative, contrastive and step-by-step approaches is revealed, and the issues of reducing students' speaking anxiety, increasing motivation and applying an individual approach are considered. Practical recommendations on effective types of exercises and the conditions for organizing them are also provided.

Keywords: speaking skill, second language, communicative approach, contrastive method, speech activity, motivation, speaking anxiety, psychological climate, individual approach, state language.

O‘zbekiston Respublikasida davlat tilining ijtimoiy hayotdagi mavqeini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. “Davlat tili haqida”gi Qonun o‘zbek tilining huquqiy maqomini belgilab bergan bo‘lsa[51], so‘nggi yillarda qabul qilingan Prezident farmonlari bu masalani yangi bosqichga olib chiqdi. Xususan, o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va

[51] O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni (yangi tahrir). – Toshkent, 1995-yil 21-dekabr.

mavqeini oshirish[52] hamda til siyosatini takomillashtirishga qaratilgan hujjatlarda[53] davlat tilini o‘qitish tizimini yangilash, uni o‘rganish uchun zamonaviy sharoitlar yaratish vazifalari aniq belgilab berilgan.

Bu vazifalarni amalga oshirishda ta'lim rus tilida olib boriladigan sinflarda o‘zbek tilini o‘qitish sifatini oshirish alohida o‘rin tutadi. "Ta'lim to‘g‘risida"gi Qonunda ham davlat tilini o‘rganish ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralgan[54]. Mazkur sinflarda o‘quvchilarning ona tili rus tili bo‘lib, o‘zbek tili ikkinchi til sifatida o‘rganiladi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar grammatik qoidalar va ma'lum hajmdagi so‘z boyligini o‘zlashtirgan bo‘lsalar-da, erkin og‘zaki muloqotga kirishishda qiynaladilar. Demak, gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish o‘ziga xos metodik va psixologik yondashuvni talab etadi.

Maqolaning maqsadi – ta'lim rus tilida olib boriladigan sinflarda o‘zbek tili mashg‘ulotlarida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishning metodik va psixologik xususiyatlarini ilmiy-nazariy manbalar asosida tahlil qilish hamda o‘qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Gapirish nutqiy faoliyatning produktiv turi bo‘lib, fikrni og‘zaki shaklda ifodalash va uni suhbatdoshga yetkazish jarayonidir. A.A. Leontyev nutqiy faoliyatni motiv, maqsad, rejalashtirish, amalga oshirish va nazorat bosqichlaridan tashkil topgan yaxlit jarayon sifatida talqin etadi[55]. I.A. Zimnyaya esa ikkinchi tilni o‘rgatishda nutqiy faoliyatning motivatsion asosi va nutqiy vaziyatning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi[56]. Bundan kelib chiqadiki, o‘quvchi gapirishi uchun unda aytadigan fikr, uni aytishga ehtiyoj va buning uchun zarur til vositalari bo‘lishi kerak.

---

[52] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son Farmoni. – Toshkent, 2019-yil 21-oktyabr.

[53] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son Farmoni. – Toshkent, 2020-yil 20-oktyabr.

[54] O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son. – Toshkent, 2020-yil 23-sentyabr.

[55] Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. – М.: Просвещение, 1969.

[56] Зимняя И.А. Психология обучения иностранным языкам в школе. – М.: Просвещение, 1991.

Shu sababli gapirish koʻnikmasini shakllantirish jarayoni asta-sekinlik, tizimlilik va kommunikativlik tamoyillariga asoslanishi lozim. Bu tamoyillar oʻqituvchi faoliyatining ham metodik, ham psixologik jihatlarini belgilab beradi.

Kommunikativ yondashuv. Metodik jihatdan qaralganda, oʻqitish jarayonida kommunikativ yondashuv ustuvor boʻlishi kerak. Bu yondashuvning nazariy asosini D. Xaymsning "kommunikativ kompetensiya" tushunchasi tashkil etadi: tilni bilish faqat grammatik toʻgʻrilik bilan emas, balki uni muayyan vaziyatda oʻrinli qoʻllay olish bilan belgilanadi[57]. E.I. Passov kommunikativ metodning asosiy tamoyillari sifatida nutqiy yoʻnaltirilganlik, individuallashtirish, funksionallik, vaziyatlilik va yangilikni koʻrsatadi[58].

Darslarda dialog, rolga kirish, savol-javob, vaziyatli mashqlar kabi ogʻzaki nutqni faollashtiruvchi topshiriqlar keng qoʻllanilishi maqsadga muvofiqdir. J. Richards va T. Rodjers kommunikativ oʻqitishda oʻquvchi faoliyati ma'noni ifodalash va axborot almashishga yoʻnaltirilishi, mashqlar esa haqiqiy muloqotga yaqin boʻlishi lozimligini qayd etadi[59]. Masalan, "axborot boʻshligʻi" asosidagi topshiriqlarda juftlikdagi oʻquvchilarning har biri faqat oʻziga ma'lum boʻlgan ma'lumotga ega boʻladi va uni oʻzbek tilida soʻrab-surishtirish orqali vazifani bajaradi.

Ogʻzaki nutqqa ustuvorlik. Gapirish koʻnikmasini rivojlantirishda soʻz va gaplarni yodlatishdan koʻra, ularni real muloqot jarayonida qoʻllashga oʻrgatish muhim ahamiyat kasb etadi. J.J. Jalolov nutqiy malaka va koʻnikmalar maqsadga muvofiq tuzilgan mashqlar tizimi orqali shakllanishini asoslab bergan[60]. Shu bois

[57] Hymes D. On Communicative Competence // Pride J.B., Holmes J. (eds.) Sociolinguistics. – Harmondsworth: Penguin, 1972. – P. 269–293.
[58] Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – М.: Просвещение, 1991.
[59] Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
[60] Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.

dars vaqtining asosiy qismi yozma mashqlarga emas, balki o‘quvchilarning og‘zaki nutqiy faolligiga ajratilishi lozim.

Bosqichma-bosqichlik. N.D. Galskova va N.I. Gez nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirishda tayyorlov (til va shartli-nutqiy) mashqlaridan haqiqiy nutqiy mashqlarga o‘tish izchilligini ta'kidlaydilar[61]. Ushbu yondashuvga ko‘ra ish quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

– tayyorlov bosqichi – yangi so‘z va nutqiy namunalar bilan tanishtirish, ularni talaffuz qilish va namunaga ko‘ra takrorlash;
– shartli-nutqiy bosqich – namunadagi so‘zlarni almashtirish, gapni kengaytirish, qisqa dialoglarni o‘zgartirib ijro etish;
– nutqiy bosqich – berilgan vaziyat yoki mavzu bo‘yicha tayanchsiz, mustaqil fikr bildirish, suhbat yoki munozarada ishtirok etish.

Bunda avval sodda gaplar, keyin esa murakkab nutqiy tuzilmalar o‘rgatiladi.

Qiyosiy yondashuv. O‘zbek va rus tillarining leksik va grammatik farqlarini qiyoslab tushuntirish metodik jihatdan samarali hisoblanadi. A.N. Shchukin ikkinchi tilni o‘qitishda ona tili tajribasiga ongli ravishda tayanish va tillarni qiyoslash o‘zlashtirishni yengillashtirishini qayd etadi[62]. O‘zbek tili agglyutinativ, rus tili esa flektiv tillar sirasiga kiradi. Rus tilidagi predloglar o‘rnida o‘zbek tilida kelishik qo‘shimchalari va ko‘makchilar qo‘llanadi (в школе – maktabda, с другом – do‘stim bilan); o‘zbek tilida grammatik rod kategoriyasi yo‘q; gapda kesim odatda oxirida keladi (Я читаю книгу – Men kitob o‘qiyapman). Bunday farqlarni oldindan ko‘rsatib berish ona tili interferensiyasi natijasida yuzaga keladigan xatolarning oldini oladi.

Vaziyatli mashqlar va zamonaviy texnologiyalar. Kundalik hayotga oid nutqiy vaziyatlar ("Tanishuv", "Do‘konda", "Kutubxonada", "Yo‘l so‘rash",

[61] Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам: Лингводидактика и методика. – М.: Академия, 2006.
[62] Щукин А.Н. Обучение иностранным языкам: Теория и практика. – М.: Филоматис, 2006.

"Shifokor qabulida") asosida gapirishga o‘rgatish o‘quvchilarda tilning amaliy zarurligini his qilish imkonini beradi. Kichik guruhlarda ishlash, "Aqliy hujum", "Klaster", keys-stadi kabi interfaol metodlar hamda audio va video materiallardan foydalanish o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi[63].

Psixologik nuqtayi nazardan, o‘quvchilarda gapirishga bo‘lgan ishonchni shakllantirish muhim hisoblanadi. Ko‘pchilik o‘quvchilar xato qilishdan qo‘rqib, o‘zbek tilida gapirishdan tiyiladi. S. Krashenning "affektiv filtr" gipotezasiga ko‘ra, xavotir yuqori, motivatsiya va o‘ziga ishonch past bo‘lgan holatda o‘quvchi til materialini yaxshi o‘zlashtira olmaydi[64]. E. Horvits va hammualliflari til darsidagi xavotirning uch tarkibiy qismini – muloqotdan cho‘chish, salbiy baholanishdan qo‘rqish va sinov xavotirini ajratib ko‘rsatgan[65].

Shu sababli o‘qituvchi dars jarayonida qulay psixologik muhit yaratishi, xatolarga nisbatan bag‘rikeng yondashuvi va o‘quvchilarning har qanday nutqiy faolligini rag‘batlantirishi zarur. J. Xarmer erkin nutqqa yo‘naltirilgan mashqlar vaqtida o‘quvchi nutqini tez-tez to‘xtatib tuzatmaslik, xatolar ustida esa mashq yakunida ishlashni tavsiya etadi[66]. Amalda o‘qituvchi xato shaklni takrorlamasdan, to‘g‘ri variantni tabiiy tarzda qaytarib aytishi (O‘quvchi: – Men maktabga bordim kecha. O‘qituvchi: – Ha, sen kecha maktabga bording. Keyin-chi?) o‘quvchining nutqiy tashabbusini so‘ndirmaydi.

Ijobiy munosabat va motivatsiya gapirish ko‘nikmasining rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Z. Dörnyei motivatsion strategiyalarni to‘rt guruhga ajratadi: asosiy motivatsion shart-sharoitlarni yaratish, boshlang‘ich motivatsiyani uyg‘otish, uni saqlab qolish va himoya qilish hamda o‘quvchida o‘z faoliyatini

[63] Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
[64] Krashen S.D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford: Pergamon Press, 1982.
[65] Horwitz E.K., Horwitz M.B., Cope J. Foreign Language Classroom Anxiety // The Modern Language Journal. – 1986. – Vol. 70, No. 2. – P. 125–132.
[66] Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – 4th ed. – Harlow: Pearson Longman, 2007.

ijobiy baholashni rag‘batlantirish[67]. Ta'lim rus tilida olib boriladigan sinflarda motivatsiyani oshirishning samarali yo‘li – o‘zbek tilining kundalik hayot, kelgusidagi o‘qish va kasbiy faoliyatdagi amaliy ahamiyatini o‘quvchilarga anglatishdir.

Bundan tashqari, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va individual psixologik farqlari ham e'tiborga olinishi lozim. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun o‘yin va qo‘shiq elementlari, o‘smirlar uchun tengdoshlar bilan muloqot va jamoaviy loyihalar, yuqori sinf o‘quvchilari uchun esa ijtimoiy va kasbiy mavzulardagi munozaralar samaraliroq bo‘ladi.

Ba'zi o‘quvchilar tez va faol gapirishga moyil bo‘lsa, boshqalari sekin va tortinchoq bo‘lishi mumkin. Tortinchoq o‘quvchilarni avval juftlikda, so‘ng kichik guruhda, keyin esa butun sinf oldida gapirishga jalb etish ularning ishonchini asta-sekin mustahkamlaydi. L.S. Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" haqidagi qarashlariga muvofiq, topshiriq o‘quvchining hozirgi imkoniyatidan biroz yuqori bo‘lib, o‘qituvchi yoki sheriklar ko‘magida bajariladigan darajada bo‘lishi kerak[68]. Shuning uchun topshiriqlar murakkabligi va hajmi bosqichma-bosqich oshirib borilishi, har bir o‘quvchiga o‘z imkoniyatiga mos nutqiy vazifa berilishi lozim.

Ta'lim rus tilida olib boriladigan sinflarda o‘zbek tilini o‘qitish bir qancha metodik va psixologik muammolarni o‘z ichiga olgan murakkab jarayondir. Ular qatoriga o‘quvchilarning sinfdan tashqarida o‘zbek tilida muloqot qilish imkoniyatining cheklanganligi, darsliklarda og‘zaki nutqqa yo‘naltirilgan topshiriqlarning yetarli emasligi, sinflarda o‘quvchilar sonining ko‘pligi va nutqiy xavotirni kiritish mumkin. Bu muammolar quyidagi yo‘llar bilan hal etiladi:

– o‘quvchida o‘zbek tiliga qiziqish uyg‘otish;
– kommunikativ kompetensiyani o‘stirish;

[67] Dörnyei Z. Motivational Strategies in the Language Classroom. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
[68] Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.; Л.: Соцэкгиз, 1934.

– zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy qilish;
– o‘qituvchining malakasini oshirish;
– sinfdan tashqari tadbirlar (to‘garaklar, bayramlar, sahna ko‘rinishlari) orqali o‘zbek tilidagi muloqot muhitini kengaytirish.

Shuningdek, davlat ta'lim siyosatida o‘zbek tilini o‘qitish masalasini yanada rivojlantirish, darslik va o‘quv qo‘llanmalarni yangilash zarur. Yuqorida bayon etilgan metodik va psixologik xususiyatlar 1-jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval

Ta'lim rus tilida olib boriladigan sinflarda gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishning metodik va psixologik xususiyatlari

Yo‘nalish	Xususiyat	Qisqa izoh
Metodik	Kommunikativ yondashuv	O‘quvchilarni real muloqotga jalb etuvchi dialog, savol-javob, rolga kirish mashqlaridan foydalaniladi.
Metodik	Og‘zaki nutqqa ustuvorlik	Darslarda yozma mashqlarga nisbatan gapirish mashqlariga ko‘proq e'tibor qaratiladi.
Metodik	Bosqichma-bosqichlik	Avval sodda gaplar, keyin murakkab nutqiy tuzilmalar o‘rgatiladi.
Metodik	Qiyosiy yondashuv	O‘zbek va rus tillari o‘rtasidagi leksik va grammatik farqlar taqqoslab tushuntiriladi.
Metodik	Vaziyatli mashqlar	Kundalik hayotga oid nutqiy vaziyatlar asosida gapirishga o‘rgatiladi.
Psixologik	Gapirishga bo‘lgan ishonchni shakllantirish	O‘quvchilarda xato qilishdan qo‘rqmaslik muhiti yaratiladi.
Psixologik	Rag‘batlantirish	Har qanday nutqiy faollik ijobiy baholanadi va qo‘llab-quvvatlanadi.
Psixologik	Motivatsiyani oshirish	O‘zbek tilining amaliy ahamiyati o‘quvchilarga anglatiladi.
Psixologik	Individual yondashuv	O‘quvchilarning nutqiy va psixologik imkoniyatlari hisobga olinadi.
Psixologik	Qulay psixologik muhit	Sinfda erkin, qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratiladi.

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, ta'lim rus tilida olib boriladigan sinflarda o‘zbek tili mashg‘ulotlarida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish metodik va psixologik omillarning uyg‘unligini talab etadi. Metodik jihatdan kommunikativ yondashuv, og‘zaki nutqqa ustuvorlik, bosqichma-bosqichlik, qiyosiy tahlil va vaziyatli mashqlar asosiy o‘rin tutadi. Psixologik jihatdan esa qulay muhit yaratish, nutqiy xavotirni kamaytirish, motivatsiyani oshirish va o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Natijada o‘quvchilarda o‘zbek tilida erkin muloqot qilish, davlat tilini amaliy faoliyatda qo‘llash ko‘nikmalari shakllanadi. Bu esa davlat tilining ijtimoiy hayotdagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni (yangi tahrir). – Toshkent, 1995-yil 21-dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasining "Ta'lim to‘g‘risida"gi Qonuni. O‘RQ-637-son. – Toshkent, 2020-yil 23-sentyabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-5850-son Farmoni. – Toshkent, 2019-yil 21-oktyabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-6084-son Farmoni. – Toshkent, 2020-yil 20-oktyabr.
5. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
6. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
7. Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.; Л.: Соцэкгиз, 1934.

8. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам: Лингводидактика и методика. – М.: Академия, 2006.

9. Зимняя И.А. Психология обучения иностранным языкам в школе. – М.: Просвещение, 1991.

10. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. – М.: Просвещение, 1969.

11. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – М.: Просвещение, 1991.

12. Щукин А.Н. Обучение иностранным языкам: Теория и практика. – М.: Филоматис, 2006.

13. Dörnyei Z. Motivational Strategies in the Language Classroom. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.

14. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – 4th ed. – Harlow: Pearson Longman, 2007.

15. Horwitz E.K., Horwitz M.B., Cope J. Foreign Language Classroom Anxiety // The Modern Language Journal. – 1986. – Vol. 70, No. 2. – P. 125–132.

16. Hymes D. On Communicative Competence // Pride J.B., Holmes J. (eds.) Sociolinguistics. – Harmondsworth: Penguin, 1972. – P. 269–293.

17. Krashen S.D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford: Pergamon Press, 1982.

18. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.

“GO‘RO‘G‘LI” TURKUMIDAGI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYANING BADIIY-PEDAGOGIK MEXANIZMLARI TIZIMI: OLTI MEXANIZM TIPOLOGIYASI

Zumradxon Teshaboyeva,
Renessans ta’lim universiteti filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
zumradteshaboyeva@gmail.com
https://orcid.org/0009-0004-5769-707X

Annotatsiya. Tezisda “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlar vositasida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning olti o‘zaro bog‘liq badiiy-pedagogik mexanizmi — nasihat-vasiyat, ibrat-andoza, ziddiyat-sinov, antiteza, ramziy-mifopoetik obrazlar va yakuniy mukofotlanish — yaxlit tizim sifatida taqdim etiladi. Har bir mexanizm o‘ziga xos ta’sir prinsipiga (so‘z, kuzatish-taqlid, sinov, qarama-qarshilik, ramz-kod, kompozision yakun) hamda mos nazariy asosga, jumladan A.Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga va N.Avliyakulov bilan N.Musayevaning muammoli ta’lim nazariyasiga tayanadi. Tezis xulosasiga ko‘ra, olti mexanizm nasihat→ibrat→sinov→antiteza→ramz→mukofot izchilligida yaxlit, o‘zaro to‘ldiruvchi tarbiyaviy sikl hosil qiladi.

Kalit so‘zlar: “Go‘ro‘g‘li”, badiiy-pedagogik mexanizm, ijtimoiy o‘rganish nazariyasi, muammoli ta’lim, ramziy-mifopoetik obra, poetik adolat.

Abstract. The thesis presents, as an integrated system, six interrelated artistic-pedagogical mechanisms of moral-spiritual education operating in the “Go‘ro‘g‘li” epic cycle: didactic admonition, exemplary behavior, conflict-trial, antithesis, symbolic-mythopoetic imagery, and final reward (poetic justice). Each mechanism rests on a distinct principle of influence — word, observation-imitation, trial, opposition, symbol-code, compositional closure — and a

corresponding theoretical foundation, including Bandura's Social Learning Theory and the problem-based learning theory of Avliyaqulov and Musaeva. The thesis concludes that the six mechanisms form a single, mutually reinforcing pedagogical cycle: admonition → example → trial → antithesis → symbol → reward.

Keywords: “Go‘ro‘g‘li”, artistic-pedagogical mechanism, social learning theory, problem-based learning, symbolic-mythopoetic image, poetic justice.

Dissertatsiyamizning markaziy nazariy-metodologik muammosi “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlar vositasida amalga oshuvchi ma’naviy-axloqiy tarbiyaning faqat mazmunini (qanday qadriyatlar tarbiyalanyapti) emas, balki uning badiiy-pedagogik vositasini (qanday usulda tarbiyalanyapti) aniqlashdan iborat. Mazkur savolga javoban aniqlangan olti o‘zaro bog‘liq mexanizm quyida yaxlit tizim sifatida taqdim etiladi; har bir mexanizm o‘ziga xos ta’sir prinsipiga asoslanadi va bu prinsiplar turkum davomida izchil, kompozision jihatdan rejalashtirilgan tartibda takrorlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi manba-shaffoflik tamoyiliga asoslanadi: olti mexanizm o‘n uch doston materiali (jumladan “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Avazxonning o‘limga hukm etilishi”, “Zulfizar”, “Yunus pari”, “Qirq yigit bilan qirq qiz” va boshqalar) sahifama-sahifa qayta o‘qib chiqilishi orqali aniqlangan bo‘lib, dissertatsiya matnida jami olti yuz to‘qson ikkita (692) bevosita manba-iqtibos, besh qiyosiy-umumlashtiruvchi jadval va yigirma oltita tipologik tur bilan asoslangan. Har bir mexanizm alohida emas, avvalgi paragraflarda aniqlangan material bilan kross-referens tarzida tekshirilib, takror iqtibosdan qat’iy holda saqlanildi — bu yondashuv olti mexanizmning ilmiy jiddiyligini va o‘zaro uzviy bog‘liqligini ta’minlaydi.

1-jadval

Olti badiiy-pedagogik mexanizm va ularning nazariy asoslari

№	Mexanizm	Turlari soni	Asosiy nazariy tayanch
1	Nasihat-vasiyat (didaktik monolog)	7	B.Ziyomuhammadov, A.Xoliqov — ishontirish nazariyasi
2	Ibrat-andoza (kuzatish orqali tarbiya)	6	A.Bandura — ijtimoiy o‘rganish nazariyasi
3	Ziddiyat-sinov	4	N.Avliyakulov, N.Musayeva — muammoli ta’lim nazariyasi
4	Antiteza	3	Kross-referens tahlil (qadriyatlar tizimi asosida)
5	Ramziy-mifopoetik obrazlar	3	Sh.Turdimov, O.Qayumov, A.Tilovov — semiotik tahlil
6	Yakuniy mukofotlanish (poetik adolat)	3	K.Imomov, M.Ochilov — kompozisiya va rag‘bat-jazo nazariyasi

Tarbiyaning eng to‘g‘ridan-to‘g‘ri shakli — qahramonning so‘z orqali beradigan axloqiy ko‘rsatmasi — turkumda yetti tipologik turga (safar oldi, hokimiyat topshirish, nikoh, vasiyat, ustoz-shogird, jang oldi, o‘z-o‘zini tanqid nasihatlari) ajratildi. B.Ziyomuhammadovning og‘zaki uslublar tasnifi [1] va A.Xoliqovning ishontirish metodi ta’rifi — “o‘qituvchi fikr-mulohazalari

ta’sirchan nutq orqali o‘quvchining bilimlar tizimiga, dunyoqarashiga, xulq-atvoriga, xatti-harakatiga ta’sir etadi va uni qisman o‘zgartiradi” [2, 64-b.] — nasihat-monologning kognitiv, emosional-qiymat va xulq-atvor funksiyalarini birlashtiruvchi to‘laqonli tarbiyaviy vosita ekanini nazariy jihatdan tasdiqlaydi. Mazkur tipologiyaning amaliy ko‘rinishini “Avazxonning o‘limga hukm etilishi” dostonidagi safar oldi nasihati yaqqol namoyon etadi: “Bolam sening siru holing bilganman, seni jo‘natmak bo‘p bunda kelganman, bilgan nasihatim senga berganman, tong otmayin mingin otning beliga” [3, 33-b.]. Barcha yetti turda nasihat beruvchi doimo nasihat oluvchidan yuqori ma’naviy-tajribaviy maqomga ega bo‘lib, bu avtoritetga asoslangan ishontirish modelining turkumda izchil takrorlanishini ko‘rsatadi.

2. Ibrat-andoza mexanizmi

Ikkinchi mexanizm — qahramonning xatti-harakati orqali bilvosita tarbiya — amerikalik psixolog A.Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi (Social Learning Theory) nuqtai nazaridan asoslandi [4]. Bandura xulq-atvorning boshqa kishini kuzatish orqali shakllanish jarayonini to‘rt ketma-ket bosqichga ajratadi: diqqat, esda saqlash, takrorlash-amalga oshirish va motivatsiya (jumladan “bilvosita mustahkamlanish”, ya’ni vicarious reinforcement) [4]. Diqqatga sazovorki, bu to‘rt bosqichli model o‘zbek pedagogika darsliklarida shu nomda uchramaydi, ammo uning mohiyati — “kuzatish orqali taqlid” — milliy manbalarda mustaqil ravishda, boshqa terminologiya bilan ifodalangan. Doston materialida kuzatish orqali ta’sirning uzoq muddatli, barqaror natija berishi bir nechta epizodda mustaqil ravishda qayd etilib, bu Banduraning “esda saqlash” va “motivatsiya” bosqichlarining folklor qahramoni misolida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Doston materialida bu mexanizm olti turga ajratilib, nasihat mexanizmi bilan tizimli qiyoslandi: ikki mexanizm tarbiya predmetida bir xil bo‘lsa-da, ta’sir vositasi

(so‘z/amal) va yo‘nalishi (to‘g‘ri/bilvosita) bilan tubdan farqlanadi bu farq ularni bir-birini to‘ldiruvchi mustaqil mexanizmlar sifatida asoslashga imkon berdi.

3. Ziddiyat-sinov mexanizmi

Uchinchi mexanizm qahramonning axloqiy sifatlarini sinovdan o‘tkazish — to‘rt turga (kuch-qudrat, aql-idrok va sabr, vasvasa-ig‘vo, zanjirsimon-kompleks sinov) ajratilib, N.Avliyakulov va N.Musayevaning muammoli ta’lim nazariyasi bilan nazariy bog‘landi. Darslikda muammoli vaziyatlar “muammolik darajasi” bo‘yicha izchil, to‘rt bosqichli shkalaga ajratiladi [5, 81-b.], bu daraja esa “muammoning murakkablik darajasi (ma’lum va noma’lumning nisbati)” va “o‘quvchining ijodiy ishtiroki darajasi” degan ikki omil bilan belgilanadi [5, 85-b.] — bu ta’rif “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi sinov zanjirining murakkablashib boruvchi (kurash → topishmoq → vasvasa → jang) tuzilishiga metodologik jihatdan g‘oyat yaqin parallel beradi. Shunday qilib, dostonlardagi “sinov zanjiri” kompozision qolipi qahramonning axloqiy fazilatlarini bosqichma-bosqich, kuchayib boruvchi murakkablik darajasida sinovdan o‘tkazuvchi izchil pedagogik vosita sifatida asoslandi.

4. Antiteza mexanizmi

To‘rtinchi mexanizm — ijobiy va salbiy obrazlar qarama-qarshiligi — uch turga (umumbashariy-kosmologik, nomli antagonist orqali shaxsiy, mavhum tushunchalar antitezasi) ajratildi. Ushbu mexanizmning chuqur mifologik-falsafiy ildizini J.Eshonqul ko‘rsatadi: “Qahramon bilan dev... kurashi tub mohiyatiga ko‘ra bir narsa — ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi mangu ziddiyatning ifodasidir... Bu holatning xalq ijodida qahramon va dev jangi sifatida transformatsiya bo‘lishi tabiiy hol edi” [6, 44-b.]. Mazkur mexanizm dissertatsiyaning manba-shaffoflik tamoyilini namunaviy tarzda amalga oshirdi: avvalgi paragraflarda allaqachon iqtibos qilingan material bu yerda yangi iqtibossiz, faqat antiteza nuqtai nazaridan

kross-referens qilinib, olti mexanizmning o‘zaro uzviy, bir-birini takrorlamaydigan bog‘liqligini amalda isbotladi.

5. Ramziy-mifopoetik obrazlar mexanizmi

Beshinchi mexanizm — tulpor ot, pari va bog‘ kabi ramzlar orqali tarbiya — semiotik (belgi-ma’no) prinsipga asoslanib, dissertatsiyada ilk marta jalb qilingan uch folklorshunoslik manbasi asosida tahlil qilindi. Sh.Turdimov qahramonlik eposidagi ot obrazining qahramon bilan deyarli barobar maqomga ega ekanini ko‘rsatadi: “Chiltanlar sohibqironni ko‘tara oluvchi ot ham sohibqiron bo‘lishi kerak deb, G‘irotga ham antahur mayidan berishdi” [7, 515-b.], shuningdek “Qahramonning safdoshi jangovar ot ham inisiatsiya jarayonidan o‘tib jami asbob-anjomlar bilan ta’minlanadi” [7, 516-b.]. A.Tilovov turkman versiyasida G‘irotning otasi “oq qush” (samo bilan bog‘liq mavjudot) sifatida ko‘rsatilishini aniqlaydi [8, 582-b.]. O.Qayumov esa pari obrazining uch tarixiy bosqichini zardushtiylikkacha “homiy kuch timsoli”, zardushtiylik davrida “shaytoniy kuch timsoli”, zardushtiylikdan keyin “mifologik va badiiy obraz” — izchil ko‘rsatadi [9, 575–579-b.]. Pari obrazining ijobiy, yuksak ma’naviy maqomi “Yunus pari” dostonida bevosita matn darajasida ham tasdiqlanadi: pari obrazi bu yerda faqat go‘zallik timsoli emas, g‘ayritabiiy sezgi va bashoratga ega ilohiy-axloqiy ustun sifatida tasvirlanadi — Go‘ro‘g‘li uni izlab kelayotganda, “Yunus parida bir harorat paydo bo‘libdi. Yuragiga hovil tushdi” [10, 189-b.]. Bu uch manba va doston matni turkumdagi mavhum axloqiy tushunchalarning (sadoqat, poklik, sinov) yosh tinglovchi uchun aniq, hissiy-obrazli ramziy kodlarga aylanish mexanizmini ilmiy jihatdan asoslaydi.

6. Yakuniy mukofotlanish mexanizmi

Oltinchi, yakunlovchi mexanizm — dostonning murod-maqsadga yetish, yovuzlikning jazolanishi va jamoaviy to‘y-tomosha bilan yakunlanishi — K.Imomovning ertak-doston kompozisiyasi nazariyasi bilan asoslandi: “Ertak

kompozisiyasi barqaror bo‘lib, uning elementlari (tugun, kulminatsiya, yechim) aniq va lo‘nda ifodalanadi” [11, 88-b.], hatto fojiali yakunlarda ham “folklor asarlarining ijodkorlari... kuchlar ustidan muqarrar g‘alaba qozonishga va abadiylikka ishonadi” [11, 91-b.]. Pedagogika fanida bu hodisa M.Ochilov va N.Ochilova tomonidan alohida metod sifatida ajratiladi: “namuna, ibrat ko‘rsatish metodi”dan mustaqil ravishda “rag‘batlantirish va jazolash metodlari” [12, 168-b.]. Mukofotlanishning birinchi turi — qahramonning murod-maqsadga yetishi — “Qirq yigit bilan qirq qiz” dostonida eng toza shaklda ifodalanadi: “Shu bilan Go‘ro‘g‘lining Qirq yigiti qirq qizlarni olib, murod-u maqsadiga yetdi” [13, 112-b.] — bu iboraning “Yunus pari” dostonida ham xuddi shu shaklda takrorlanishi (“Muftilar nikohni qiyib, shunday murod-maqsadiga yetdi”) [10, 318-b.] uning tasodifiy tasviriy vosita emas, balki barqaror, deyarli terminologik og‘zaki-formulaviy ifoda ekanini ko‘rsatadi. Shu tariqa ertak-doston yakuni folklorshunoslikda mustaqil kompozision kategoriya (tugun-kulminatsiya-yechim zanjirining so‘nggi bo‘g‘ini), pedagogikada esa mustaqil tarbiya metodi (rag‘batlantirish-jazolash) sifatida parallel ravishda asoslangan bo‘ladi.

Amaliy-pedagogik ahamiyati

Aniqlangan olti mexanizm tizimi nafaqat nazariy, balki amaliy-metodik ahamiyatga ham ega bo‘lib, zamonaviy adabiyot va tarbiya darslarida quyidagicha tatbiq etilishi mumkin deb taxmin qilinamiz: nasihat-vasiyat mexanizmi matn ustida ishlash (nasihat parchasini topish va uning tarkibiy qismlarini aniqlash) orqali; ibrat-andoza — rolli o‘yin va sahnalashtirish orqali (Banduraning “kuzatish-takrorlash” zanjirini amalda sinash); ziddiyat-sinov — muammoli-topshiriqli mashg‘ulotlar orqali (Avliyakulov-Musayeva shkalasidagi murakkablik darajasini oshiruvchi topshiriqlar); antiteza — qiyosiy tahlil (ijobiy va salbiy qahramonlarni jadvalda solishtirish) orqali; ramziy-mifopoetik obrazlar — badiiy tasvirlash va semiotik dekodlash mashg‘ulotlari orqali; yakuniy mukofotlanish esa

— yakuniy refleksiya va xulosalash mashg‘ulotlari orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunday tatbiq, ayniqsa, og‘zaki epik merosi boy bo‘lgan boshqa turkiy va jahon xalqlari ta’lim tizimlari uchun ham qiyosiy-metodik qiziqish uyg‘otishi mumkin.

Yuqorida ko‘rilgan olti mexanizm alohida-alohida emas, balki bir-birini kross-referens tarzida tasdiqlovchi, o‘zaro to‘ldiruvchi yaxlit tizimni tashkil etadi: nasihat → ibrat → sinov → antiteza → ramz → mukofot izchilligi dostonning boshidan yakunigacha tarbiyaviy ta’sirning to‘liq, uzviy davrasini hosil qiladi. Diqqatga sazovorki, mazkur olti mexanizmning nazariy asoslari orasida ham mahalliy (Ziyomuhammadov, Xoliqov, Avliyakulov, Musayeva, Imomov, Ochilov), ham jahon ilm-fanida tan olingan (Bandura) manbalar mavjudligi — bu og‘zaki dostonchilik pedagogikasining milliy xususiyatlar bilan birga umumbashariy psixologiya-pedagogika qonuniyatlariga ham mos kelishini ko‘rsatadi.

Mazkur tipologiyaning xalqaro ahamiyati “Go‘ro‘g‘li” turkumining o‘zi umumturkiy epik meros ekanini — turkman, ozarbayjon, qozoq, qirg‘iz va qoraqalpoq xalqlarida turli nomlar ostida (Gyoroglы, Kyorog‘lu) keng tarqalganini — inobatga olganda yana ham ortadi: 2015 yilda YUNESKOning Insoniyatning noaddiy madaniy merosi ro‘yxatiga turkman “Gyoroglы” dostonchilik san’ati kiritilgan bo‘lib [14], bu rasmiy e’tirof olti mexanizm tizimining faqat o‘zbek, balki qardosh turkiy xalqlar epik pedagogikasi uchun ham qiyosiy-nazariy ahamiyatga ega bo‘lishiga asos beradi.

Xulosa qilib aytganda, “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi olti badiiy-pedagogik mexanizm tizimi nafaqat o‘zbek, balki umumturkiy va jahon epik pedagogikasi kontekstida ham qiyosiy-nazariy ahamiyatga ega bo‘lib, u og‘zaki xalq dostonchiligidan zamonaviy ta’lim amaliyotida foydalanish borasidagi xalqaro ilmiy muloqot uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqotning kelgusi istiqboli sifatida olti mexanizmning o‘zaro ta’sir (integratsiya) modeli grafik sxema shaklida taqdim etilishi rejalashtirilgan bo‘lib, u tajriba-sinov metodikasi (pedagogik eksperimentning tashxis, shakllantiruvchi va nazorat bosqichlari) uchun bevosita nazariy asos vazifasini o‘taydi. Shu tariqa mazkur tezisda taqdim etilgan tipologiya nafaqat yakunlangan nazariy natija, balki “Go‘ro‘g‘li” turkumini zamonaviy ta’lim amaliyotiga (darslik, o‘quv dasturi, sinfdan tashqari mashg‘ulotlar shaklida) tatbiq etish yo‘lidagi keyingi, empirik tadqiqot bosqichi uchun metodologik ko‘prik vazifasini ham bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ziyomuhammadov B. Pedagogika: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. — Toshkent: Turon-Iqbol, 2006.

2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat: Darslik. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2011.

3. Avazxonning o‘limga hukm etilishi / Aytuvchi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li; yozib oluvchi G‘.Karimov; nashrga tayyorlovchilar Z.Husainova, T.Mirzayev; mas’ul muharrir O.Sobirov. — Toshkent: O‘zSSR FA nashriyoti.

4. Bandura A. Social Learning Theory. — New York: General Learning Press, 1977.

5. Avliyakulov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya. — Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2012.

6. Eshonqul J. Folklor: obraz va talqin. — Qarshi: Nasaf, 1999.

7. Turdimov Sh. Qahramonlik eposida alplik tizimi // XX asr o‘zbek folklorshunosligi: Antologiya / tuzuvchilar: O.To‘laboyev, M.Jo‘rayev va b.; mas’ul muharrir M.Jo‘rayev.

— Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2017.

8. Tilovov A. Xalq dostonlarida qanotli otlar // XX asr o‘zbek folklorshunosligi: Antologiya / tuzuvchilar: O.To‘laboyev, M.Jo‘rayev va b.;

mas’ul muharrir M.Jo‘rayev. — Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2017.

9. Qayumov O. Pari obrazining genezisiga doir mulohazalar // XX asr o‘zbek folklorshunosligi: Antologiya / tuzuvchilar: O.To‘laboyev, M.Jo‘rayev va b.; mas’ul muharrir M.Jo‘rayev. — Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2017.

10. Yunus pari // O‘zbek xalq ijodi: Ko‘p tomlik / Aytuvchi Muhammadqul Jomrot o‘g‘li Pulkan; nashrga tayyorlovchi Sh.Xo‘jayeva. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1967. (elektron nusxa sahifalanishi bo‘yicha)

11. Imomov K. Ertak // O‘zbek folklori ocherklari: Uch tomlik. 2-jild / Mas’ul muharrir B.Sarimsoqov. — Toshkent: Fan, 1989.

12. Ochilov M., Ochilova N. Oliy maktab pedagogikasi. — Toshkent: Aloqachi, 2008.

13. Qirq yigit bilan qirq qiz // Go‘ro‘g‘li: O‘zbek xalq dostonlari / Aytuvchi Rahmatulla shoir Yusuf o‘g‘li; nashrga tayyorlovchilar T.Mirzayev, Z.Husainova. — Toshkent: Sharq, 2006.

14. Epic art of Gorogly. — UNESCO Intangible Cultural Heritage, 2015 (№01028). — Elektron manba: https://ich.unesco.org/en/RL/epic-art-of-gorogly-01028

O‘ZBEK TILIDA SINONIM SO‘ZLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Abduqaxxorov Nodirbek Umidjon o‘g‘li,
Qo‘qon universiteti talabasi
nodirbekabduqahhorov6@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilida sinonim so‘zlarning o‘rni, ularning til boyligini oshirishdagi ahamiyati hamda nutq ta’sirchanligini kuchaytirishdagi vazifasi yoritilgan. Shuningdek, sinonimlarning yuzaga kelish omillari, sinonimik qatorlar va ularning uslubiy hamda ma’noviy xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. O‘zbek tilining tarixiy taraqqiyoti va Alisher Navoiyning til rivojiga qo‘shgan hissasi misollar asosida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: sinonim, sinonimik qator, dominanta, til boyligi, uslubiy bo‘yoq, ma’nodosh so‘zlar, o‘zbek tili, til taraqqiyoti, nutq ta’sirchanligi, Alisher Navoiy.

Annotation. This article discusses the role of synonymous words in the Uzbek language, their importance in enriching vocabulary, and their function in increasing the expressiveness of speech. The study also analyzes the formation of synonyms, synonymic rows, and their stylistic and semantic features from a linguistic perspective. In addition, the historical development of the Uzbek language and Alisher Navoiy's contribution to the development of the language are explained with examples.

Keywords: synonym, synonymic row, dominant word, vocabulary richness, stylistic coloring, synonymous words, Uzbek language, language development, speech expressiveness, Alisher Navoiy.

O‘zbek tili O‘zbekiston Respublikasining davlat tili hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda yashovchi 33 millionga yaqin aholi o‘zbek tilini ona tili sifatida e’tirof etadi. Shuningdek, o‘zbek tili Saudiya Arabistoni, Turkiya, AQSh,

Afg‘oniston, Qashg‘ar va boshqa bir qator davlatlarda yashovchi o‘zbek diasporasining ham ona tilidir. O‘zbek (turkiy) tili qadimiy va boy tarixga ega tillardan biri sanaladi. Uning dastlabki yozma yodgorliklari VI-VII asrlarga oid O‘rxun-Enasoy bitiklarida uchraydi. Keyingi asrlarda esa bu til asosida yirik ilmiy va badiiy asarlar yaratila boshlangan. X-XI asrlarda Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat-ul haqoyiq” kabi asarlari turkiy tilning rivojlanishida muhim bosqich bo‘ldi. Shuningdek Ahmad Yassaviy, Rabg‘uziy, Lutfiy, Sakkokiy, Xorazmiylar turk (o‘zbek) tilininig shakillanishi va taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdilar. Bu jarayonda Alisher Navoiyning o‘rni alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u o‘zbek tilining imkoniyatlarini amaliy va nazariy jihatdan isbotlab berdi [1, 20].

Alisher Navoiyning o‘zbek tili rivojidagi o‘rni beqiyosdir. U turkiy tilning imkoniyatlari keng va boy ekanligini o‘z ijodi orqali amalda isbotlab berdi. Navoiy o‘z asarlarida xalq tilidagi nozik ma’noli so‘zlar, sinonimlar va badiiy ifodalardan mahorat bilan foydalangan. Navoiyning eng mashhur asarlaridan biri bo‘lmish “Xamsa” va “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarlarida turkiy tilning fors tilidan kam emasligi ilmiy va badiiy jihatdan asoslab berilgan. Shoir bir ma’noni turli so‘zlar orqali ifodalab, o‘zbek tilining naqadar boy va jozibador ekanini namoyon qilgan. Alisher Navoiynig say-harakatlari sabab turkiy (o‘zbek) til mahalliy (ko‘cha tili) darajasidan chiqib, rivojlangan adabiy til sifatida e’tirof etildi va yuksak badiiy hamda ilmiy ifoda vositasiga aylandi. Shu sababli ham Alisher Navoiy o‘zbek adabiy tilining asoschisi sifatida yuksak qadrlanadi.

XX asr boshlaridan boshlab ta’lim, madaniyat va adabiyot sohalarida muhim o‘zgarishlar yuz berdi. O'zbek tilining lug‘at boyligi kengaydi, grammatik tuzilishi yanada takomillashdi. 1989-yil 21-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Bu voqea xalqimizning siyosiy va madaniy hayotida tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim

bosqichlardan biri bo‘ldi. Keyinchalik, 1992-yil 2-sentyabrda lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida qonun qabul qilindi. [1,21] O‘zbek tilining ana shunday boy va uzoq tarixiy taraqqiyoti uning lug‘at tarkibining ham keng va rang-barang bo‘lishiga zamin yaratdi. Tilning rivojlanishi jarayonida bir tushunchani ifodalash uchun turli xil so‘zlarning shakllanishi va qo‘llanilishi kuchaydi. Ana shu lingvistik hodisalar orasida sinonim so‘zlar alohida ahamiyat kasb etadi. Sinonimlar o‘zbek tilining ifoda imkoniyatlarini kengaytirib, nutqni yanada boy va ta’sirchan qilishga xizmat qiladi.

Kishilik jamiyati tarixi shuni ko‘rsatadiki, jamiyat taraqqiyoti bilan birga til ham rivojlanib borgan. Dastlab urug‘ va qabila tillari shakllangan bo‘lsa, keyinchalik elat va milliy tillar yuzaga kelgan. Qabilalarning ajralib ketishi natijasida turli sheva va lahjalar paydo bo‘lgan. Bu hodisa til taraqqiyotidagi differensiatsiya, ya’ni ajralish jarayoni hisoblanadi. Jamiyat rivojining keyingi bosqichlarida esa turli qabilalar va elatlar birlashib, umumiy aloqa vositasi sifatida yagona til shakllana boshlagan. Bu esa integratsiya, ya’ni qo‘shilish hodisasi deb yuritiladi. Ana shu tarixiy jarayonlar natijasida tillarning lug‘at tarkibi boyib, yangi so‘zlar va iboralar yuzaga kelgan. [2,10-11] Tilning boyib borishi jarayonida sinonim so‘zlar ham shakllanadi. Chunki jamiyat taraqqiyoti, madaniyat, adabiyot va boshqa tillar bilan aloqalar natijasida bir tushunchani turlicha ifodalovchi ma’nodosh so‘zlar paydo bo‘ladi. Bu esa tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytirib, nutqning ta’sirchanligi va jozibadorligini oshiradi.

Bir xil yoki bir-biriga yaqin ma’noga ega bo‘lgan so‘zlar sinonimlar deyiladi. **Masalan:** *beparvo, befarq, betashvish, loqayd; chiroyli, go‘zal, barno* kabi so‘zlar o‘zaro sinonim hisoblanadi. Sinonimlar biror narsa yoki hodisani turli belgi va xususiyatlar asosida ifodalaydi. Shu sababli sinonim so‘zlar doimo ham birining o‘rnida ikkinchisini qo‘llash imkonini bermaydi. Qo‘llangan taqdirda ham ularning ma’nosi aynan bir xil bo‘lmaydi. Chunki har bir sinonim so‘zda qo‘shimcha

ma’no, uslubiy bo‘yoq yoki hissiy ta’sir mavjud bo‘ladi. Shu boyis tilshunoslikda mutlaq sinonimlar deyarli uchramaydi.

Masalan, *samolyot va aeroplan* so‘zlari mutlaq sinonim hisoblangan. Biroq vaqt o‘tishi bilan *aeroplan* so‘zi iste’moldan chiqib ketgan va hozirgi kunda asosan samolyot so‘zi qollanilmoqda. Sinonim so‘zlarni birlashtirib turadigan asosiy xususiyat ulardagi yetakchi ma’nodir. Ma’nodosh so‘zlarning yigindisi sinonimik qatorni tashkil etadi. Har bir sinonimik qatorda dominanta deb ataluvchi asosiy so‘z mavjud bo‘ladi. **Dominanta** so‘z ma’no jihatidan betaraf va keng qo‘llanilishi bilan ajralib turadi hamda qatordagi boshqa so‘zlar o‘rnida ishlatila oladi. Masalan: *yuz, bet, aft, bashara, turq, oraz, chehra* kabi so‘zlar bir sinonimik qatorni tashkil etadi. Bu qatorning dominantasi ***yuz*** so‘zidir. Chunki u ma’no jihatidan kengroq va uslubiy betaraflik xususiyatiga ega. Sinonimlar, asosan, ikki yo‘l bilan paydo bo‘ladi. Birinchisi, tilning ichki imkoniyatlari asosida shakllanadi. Masalan: qari — *keksa, chiroyli — go‘zal, katta — ulkan, ulug‘ — buyuk* kabi so‘zlar shu asosda yuzaga kelgan. Ikkinchisi esa boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar hisobiga paydo bo‘ladi. **Masalan*:*** *bo‘lim — otryad, dalil — fakt, reja — plan* kabi so‘zlar shular jumlasidandir. Sinonimlarning paydo bo‘lishi til lug‘at tarkibining boyishi va yangilanib borishida muhim ahamiyatga ega. Ular yordamida fikr aniq, ta’sirchan va maqsadga muvofiq tarzda ifodalanadi. Ayniqsa, badiiy adabiyotda sinonimlar tilning nafisligi hamda ifoda imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. [3,113-114]

Sinonimik qatorga kiruvchi so‘zlarda belgining darajasi ham turlicha bo‘lishi mumkin. **Masalan:** *avval, oldin, ilgari, burun, qadim* sinonimlaridan *ilgari* so‘zida vaqtning uzoqlik darajasi *avval* va *oldin* so‘zlariga nisbatan kuchliroq ifodalanadi. *Burun* so‘zi ilgariga qaraganda yanada uzoqroq vaqtni bildirsa, *qadim* so‘zi esa eng uzoq davrni ifodalaydi. Xuddi shuningdek, *ishchan, harakatchan, serharakat, g‘ayratli, serg‘ayrat, tirishqoq, urinchoq* sinonimlarida *g‘ayratli, serg‘ayrat, tirishqoq* so‘zlari belgini nisbatan kuchliroq ifodalaydi. Demak, sinonimlarda

belgining darajasi turlicha bo‘lishi ularning ma’no nozikliklari va uslubiy bo‘yoqdagi farqlarini ham ko‘rsatadi. Sinonimlarni belgilashda aynan bir xil ma’nolar bilan bir qatorda ularning farqli belgilarini aniqlash ham muhim ahamiyatga ega. Chunki sinonimlarning umumiy ma’nosini anglash nisbatan oson bo‘lsada, ularning uslubiy va semantik farqlarini to‘liq idrok etish murakkab jarayon hisoblanadi.

Tilshunoslikda Abdug‘ani Hojiyev sinonimik qatorlardagi farqli belgilarni bir necha asosiy guruhlarga ajratadi:

1. Emotsional-ekspressiv bo‘yoq jihatidan — *so‘zlar neytral yoki hissiy bo‘yoqdor bo‘lishi mumkin. Masalan: xunuk (neytral) — badbashara (bo‘yoqdor).*

2. Uslubiy jihatdan — *so‘zlar turli nutq uslublariga mansub bo‘ladi. Masalan: bashar — poetik, mullajiring — so‘zlashuv uslubi.*

3. Adabiy tilga munosabati bo‘yicha — *ayrim so‘zlar adabiy til normasiga kirsa, boshqalari eskirgan yoki shevaga xos bo‘lishi mumkin.*

4. Ma’noni ifodalash darajasi bo‘yicha — *ba’zi so‘zlar belgini kuchli, boshqalari esa kuchsiz yoki neytral darajada ifodalaydi.*

O‘zbek tilshunosligida sinonimik qatorlarni chuqur ilmiy asosda o‘rgangan muhim manbalardan biri O‘zbek tili sinonimlari izohli lug‘ati hisoblanadi. Ushbu lug‘atda sinonimlarning ma’noviy va uslubiy xususiyatlari batafsil yoritilgan bo‘lib, u o‘zbek lug‘atchiligi va sinonimika sohasida muhim ilmiy manba sifatida qadrlanadi. [4, 5-6]

Xulosa qilib aytganda, sinonim so‘zlar o‘zbek tilining eng muhim va eng boy lisoniy qatlamlaridan biri hisoblanadi. Ular tilning nafaqat lug‘at boyligini kengaytiradi, balki uning ifoda imkoniyatlarini ham sezilarli darajada oshiradi. Har bir sinonim bir tushunchani turli ma’no nozikliklari, uslubiy bo‘yoqlar va hissiy ta’sirlar orqali ifodalashi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan sinonimlar nutqni takrorlardan xoli qiladi, fikrni aniq, ravon va ta’sirchan ifodalashga xizmat qiladi.

Ayniqsa, badiiy adabiyotda sinonimlar qahramon ruhiyati, voqea-hodisalarning nozik jihatlari hamda hissiy kechinmalarni yanada jonli va obrazli tasvirlash imkonini beradi. Bu esa asarning estetik qiymatini oshiradi. Shuningdek, sinonimlar til taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichi bo‘lib, jamiyat rivoji bilan birga doimiy ravishda boyib boradi. Ichki imkoniyatlar, shevalar hamda boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlar hisobiga sinonimik qatlam yanada kengayadi. Bu esa o‘zbek tilining rivojlangan, boy va serqirra til ekanini yana bir bor isbotlaydi. Demak, sinonim so‘zlar faqatgina ma’nodosh birliklar emas, balki tilning go‘zalligi, qudrati va ifoda salohiyatini belgilovchi muhim omildir. Shuning uchun ularni chuqur o‘rganish, to‘g‘ri tanlash va o‘rinli qo‘llash har bir til egasi uchun zarur bo‘lib, til madaniyatini yuksaltirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

“Sinonimlar — tilning go‘zalligi va tafakkurning nozik jilolarini,

namoyon etuvchi bebaho lisoniy boylikdir.”

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. N.A. Husanov, R.Sh. Xo‘jaqulova, N.A. Dilmurodova. O‘zbek tili, -T.: **“EXCELLENT POLYGRAPHY”** nashriyoti 2020. 528 bet.
2. M.I. Imomaliyeva. Ona tili-o‘qish savodxonligi va uni metodikasi (O‘quv qo‘llanma). T.: “SCIENCE PRINT” 274 bet.
3. М. Ирискулов. Тилшуносликка кириш (иккинчи нашр), Тошкент-2008 272 бет.
4. N. Mahmudov va b. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati: T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. 512-bet.

JADID ALIFBE DARSLIKLARIDA TOVUSH USULINING METODIK TALQINI VA UNING BUGUNGI SAVODXONLIK TA’LIMI UCHUN AHAMIYATI

Sojidaxon MAMATQULOVA,
Dang‘ara tumanidagi 36-maktab o‘qituvchisi.

Annotatsiya. Tezisda XX asr boshlarida Turkistonda yaratilgan jadid alifbe darsliklarida savodga o‘rgatishning tovush usuli qanday metodik yechimlar orqali amalga oshirilgani yoritiladi. Eski maktabdagi hijo usuli bilan qiyoslash asosida tovush usulining asosiy belgilari ajratiladi, alifbe darsliklarini tahlil qilish uchun ko‘rsatkichlar taklif etiladi va ulardan zamonaviy boshlang‘ich ta’limda foydalanish yo‘nalishlari ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: usuli jadid, tovush usuli, hijo usuli, alifbe, savodga o‘rgatish, “Ustodi avval”, “Adibi avval”, “Birinchi muallim”.

Abstract. The thesis examines the methodological approaches through which the sound method of literacy instruction was implemented in Jadid alphabet textbooks created in Turkestan at the beginning of the 20th century. By comparing it with the hijo method used in traditional schools, the main characteristics of the sound method are identified, indicators for analyzing alphabet textbooks are proposed, and directions for their application in modern primary education are outlined.

Keywords: usuli jadid, sound method, hijo method, alphabet, literacy instruction, Ustodi Avval, Adibi Avval, Birinchi Muallim.

Bugungi kunda boshlang‘ich ta’limda o‘qish savodxonligi sifatiga e’tibor kuchaymoqda. O‘zbekistonning PIRLS xalqaro tadqiqotida ishtirok etishi matnni

tushunib oʻqish koʻnikmalarini shakllantirish masalasini dolzarb qilib qoʻydi. Bu masalani hal etishda milliy pedagogik tajribaga, xususan, XX asr boshida jadidlar yaratgan alifbe darsliklariga murojaat qilish foydali. Aynan shu darsliklar Turkistonda savodga oʻrgatishning tovush usulini ilk bor joriy etgan edi.

Jadid alifbelari haqida jadidshunoslik va pedagogika tarixiga oid adabiyotlarda koʻplab maʼlumotlar mavjud [1; 2]. Biroq ular koʻpincha umumiy tarzda, “tovush usulidagi birinchi alifbe” yoki “yangi usuldagi darslik” kabi tavsiflar bilan cheklanadi. Darslikning ichki tuzilishi – harflar qanday tartibda kiritilgani, har bir dars qanday tashkil etilgani, mashqlar qanday joylashgani – deyarli oʻrganilmagan. Mazkur tezisning maqsadi jadid alifbelarida tovush usulining metodik talqinini yoritish va ularni tizimli tahlil qilish uchun koʻrsatkichlar taklif etishdan iborat.

Eski maktabda savodga oʻrgatish. Jadidlargacha boʻlgan maktabda bolalar avval arab harflarining nomlarini (alif, be, te…), soʻngra harakatlar bilan boʻgʻinlarni yodlagan, keyin “Haftiyak” va boshqa diniy matnlarni koʻpincha maʼnosini tushunmasdan oʻqishga oʻtgan. Bu usul hijo usuli deb ataladi. Unda oʻqish malakasi sekin shakllangan, yozuv esa alohida va kechroq oʻrgatilgan [3; 4]. Jadid maʼrifatparvarlari oʻz maqolalarida bu usulni savodga oʻrgatish muddatini asossiz choʻzuvchi asosiy sabablardan biri sifatida tanqid qilgan [2; 5].

Tovush usulining joriy etilishi. Ismoil Gasprinskiy Bogʻchasaroyda tovush usulidagi “Xoʻjai sibiyon” alifbesini yaratib, usuli jadid maktabining namunasini koʻrsatdi. Turkistonda bu tajriba mahalliy sharoitga moslashtirildi: Saidrasul Saidazizovning “Ustodi avval”, Munavvar qori Abdurashidxonovning “Adibi avval”, Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim” kabi alifbelari shu yoʻlda yaratildi [6; 7]. Tovush usulida harf uning nomi orqali emas, balki ifodalaydigan tovushi orqali oʻrgatiladi. Oʻquvchi tovushlarni boʻgʻinga, boʻgʻinlarni soʻzga

birlashtiradi va juda erta ma’noli so‘z va gaplarni o‘qiy boshlaydi. Ikki usulning asosiy farqlari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval

Hijo usuli va tovush usulining qiyosiy tavsifi

Belgi	Hijo usuli (eski maktab)	Tovush usuli (jadid maktabi)
O‘qitish birligi	Harf nomi va yodlangan bo‘g‘in	Tovush va uni ifodalovchi harf
Asosiy faoliyat	Yodlash va takrorlash	Tovushlarni birlashtirish (sintez) va so‘zni tovushlarga ajratish (analiz)
O‘qish materiali	Asosan arab va fors tillaridagi diniy matnlar	Ona tilidagi so‘zlar, gaplar va kichik matnlar
Yozuv	Alohida, kechroq o‘rgatiladi	O‘qish bilan birga o‘rgatiladi
Ma’noni tushunish	Ikkinchi darajali	O‘qishning asosiy maqsadi

Alifbe darsliklarini tahlil qilish ko‘rsatkichlari. Jadid alifbelarini o‘zaro va zamonaviy alifbe darsliklari bilan qiyoslash uchun quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanish taklif etiladi: 1) harflarni kiritish tartibi – alifbo tartibida yoki o‘quvchiga osonligiga ko‘ra; 2) tovush – bo‘g‘in – so‘z – gap – matn ketma-ketligining izchilligi; 3) o‘qish va yozuvni birga o‘rgatish; 4) ma’noli matnga o‘tish tezligi, ya’ni nechanchi darsdan boshlab o‘quvchi tugal gap o‘qiydi; 5) rasmlar va ko‘rgazmali vositalar; 6) o‘qituvchi uchun metodik ko‘rsatmalar; 7) alifbe oxiridagi o‘qish matnlarining mavzusi va tarbiyaviy yo‘nalishi. Bu ko‘rsatkichlar alohida darsliklar haqidagi tarqoq ma’lumotlarni bir tizimga solish va jadid alifbelarining o‘ziga xosligini aniqlash imkonini beradi.

Tovush usulining pedagogik-psixologik asoslari. Tovush usulining ustunligi faqat vaqtni tejashda emas. Hijo usulida o‘quvchi uzoq vaqt davomida ma’nosi yo‘q belgilar va bo‘g‘inlar bilan ishlaydi, bu esa o‘qishga bo‘lgan

qiziqishni soʻndiradi. Tovush usulida esa oʻquvchi dastlabki darslardayoq tanish soʻzlarni – “ota”, “ona”, “non” kabi soʻzlarni – oʻzi oʻqiy boshlaydi. Natijada oʻqish mexanik mashq emas, balki maʼno topish jarayoniga aylanadi. K.D. Ushinskiy ham savodga oʻrgatishni bolaning tafakkuri va nutqini rivojlantirish bilan bogʻlagan edi [8]. Jadidlar oʻz maqolalarida ilm oʻrganishning oson va tez boʻlishi xalqning maʼrifatga intilishini kuchaytirishini taʼkidlagan. Shunday qilib, tovush usuli ularning maʼrifatparvarlik dasturining amaliy vositasi boʻlgan.

Alifbedan oʻqish kitobiga oʻtish. Jadid maktabida savodga oʻrgatish alifbe bilan tugamagan. Koʻpchilik mualliflar alifbening davomi sifatida oʻqish kitobini ham yaratgan: Munavvar qorining “Adibi avval” va “Adibi soniy”, Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim” va “Ikkinchi muallim” kitoblari shunday juftlikni tashkil etadi [6; 7]. Bu jadidlar savodga oʻrgatishni bosqichma-bosqich jarayon sifatida rejalashtirganini koʻrsatadi: birinchi yilda oʻqish texnikasi shakllantiriladi, ikkinchi yilda esa oʻquvchi axloqiy, tabiiy-ilmiy va adabiy mazmundagi matnlar bilan ishlaydi. Shu sababli alifbe va oʻqish kitobini alohida emas, balki bir tizimning ikki bosqichi sifatida tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Qiyosiy talqin. Tovush usuli Rossiya maktablarida K.D. Ushinskiyning “Rodnoye slovo” kitobi orqali keng tarqalgan tovush-analitik-sintetik usul bilan oʻxshash tamoyillarga ega [8]. Shu bilan birga, jadid alifbelari arab yozuvi asosidagi turkiy imlo sharoitida yaratilgan. Bu yozuvda unlilarning ifodalanishi hamda harflarning soʻzdagi oʻrniga qarab shakl oʻzgartirishi alifbe mualliflaridan oʻziga xos metodik yechimlarni talab etgan [9]. Demak, jadid alifbelari shunchaki koʻchirma emas, balki umumiy usulni milliy til va yozuvga moslashtirish tajribasidir. Bu holat tadqiqotda alohida oʻrganilishi lozim.

Sinf-dars tizimi va oʻqituvchining oʻrni. Tovush usuli alohida oʻqitish usuli sifatida emas, balki maktabni tashkil etishning yangi tizimi bilan birga joriy etildi. Jadid maktablarida oʻquvchilar yoshi va bilim darajasiga koʻra sinflarga ajratildi,

darslar aniq jadval asosida oʻtkazildi, parta, sinf taxtasi va xarita kabi oʻquv jihozlari qoʻllandi [3; 1]. Bunday sharoitda oʻqituvchi barcha oʻquvchilar bilan bir vaqtda ishlaydi: yangi tovushni tushuntiradi, uni taxtada yozib koʻrsatadi, boʻgʻin va soʻzlarni jamoa boʻlib oʻqitadi. Shuning uchun alifbe darsligi ham faqat oʻquvchi uchun kitob emas, balki oʻqituvchi uchun dars rejasi vazifasini bajargan. Alifbelarning muqaddima va izohlarida oʻqituvchiga berilgan koʻrsatmalarni oʻrganish jadid maktabidagi darsning tuzilishini tiklashda muhim manba boʻladi.

Tovush usuli atrofidagi bahslar. Yangi usulning joriy etilishi oson kechmadi. An’anaviy maktab tarafdorlari (qadimchilar) uni diniy ta’limga xavf deb bilgan. Mustamlaka ma’muriyati esa jadid maktablarini nazorat ostida ushlab turgan [4; 5]. “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Samarqand”, “Oyina”, “Sadoyi Turkiston” kabi nashrlarda usuli jadid va yangi darsliklar haqidagi maqolalar, taqrizlar va bahslar bosilgan. Bu materiallar alifbe darsliklarining maktablarda qanday qabul qilinganini, oʻqituvchilar va ota-onalar ularga qanday baho berganini koʻrsatadi. Shuning uchun darslik matnini tahlil qilish davriy matbuot materiallari bilan toʻldirilishi lozim.

Tadqiqot manbalari va usullari. Tadqiqotning asosiy manbalari Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi hamda OʻzR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondlarida saqlanayotgan eski oʻzbek yozuvidagi alifbe nusxalaridir. Jadidlar asarlarining zamonaviy nashrlari matnni tekshirish uchun qoʻshimcha manba sifatida olinadi [6; 7]. Tahlilda tarixiy-pedagogik, qiyosiy va kontent-tahlil usullari qoʻllanadi: har bir alifbening darslari yuqoridagi koʻrsatkichlar boʻyicha kodlanadi, natijalar qiyosiy jadvalga jamlanadi.

Alifbe matnlarining tarbiyaviy yoʻnalishi. Jadid alifbelari faqat oʻqish texnikasini oʻrgatish bilan cheklanmagan. Harflar oʻrganib boʻlingach, alifbe oxirida berilgan qisqa matnlar, hikoyalar va she’rlar oʻquvchini axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar bilan tanishtirishga xizmat qilgan. Bu matnlarda ilmning foydasi, ota-

onaga hurmat, mehnatsevarlik, pokizalik, vatanni sevish kabi mavzular yetakchi o‘rin tutgani jadidlarning umumiy ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan mos keladi [10; 1]. Shu tariqa savodga o‘rgatish va tarbiya bir jarayonda birlashtirilgan. Tadqiqotda bu matnlarning mavzulari va hajmi har bir alifbe bo‘yicha alohida hisoblanib, ularning nisbati aniqlanadi. Bu jadid alifbelari qaysi qadriyatlarni birinchi o‘ringa qo‘yganini dalillar asosida ko‘rsatish imkonini beradi. Bundan tashqari, alifbe matnlarida milliy tilning so‘zlashuv shakliga yaqinligi ham muhim masala. Eski maktab kitoblaridan farqli ravishda, jadid alifbelari o‘quvchining kundalik hayotida ishlatiladigan so‘zlarga tayangan. Bu o‘qilganni tushunish uchun qulay sharoit yaratgan va ona tilida savodxonlikni shakllantirishning asosiy sharti bo‘lgan.

Bugungi boshlang‘ich ta’limda ham savodga o‘rgatish tovush-analitik-sintetik usulga asoslanadi. Shu ma’noda, zamonaviy “Alifbe” darsligi jadid alifbelarining bevosita davomchisi bo‘lmasa-da, ular bir metodik an’anaga mansub. Biroq bu tarixiy bog‘liqlik na darsliklarda, na o‘qituvchilar tayyorlash dasturlarida yetarlicha ko‘rsatilmaydi. Bo‘lajak o‘qituvchi tovush usulini faqat “metodika” sifatida o‘rganadi, uning milliy ta’lim tarixidagi o‘rni va jadidlar bu usulni joriy etish uchun olib borgan kurashdan bexabar qoladi.

Bugungi ta’lim uchun ahamiyati. Jadid alifbelari tajribasidan quyidagi yo‘nalishlarda foydalanish mumkin: birinchidan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga “Savodga o‘rgatish metodikasi” va “Pedagogika tarixi” fanlarida tovush usulining milliy ildizlarini ko‘rsatish; ikkinchidan, zamonaviy alifbe darsliklarini tuzishda ma’noli matnga erta o‘tish va o‘qish hamda yozuvni birga o‘rgatish tamoyillarini tarixiy tajriba bilan asoslash; uchinchidan, alifbe matnlarini milliy qadriyatlar va bola hayotiga yaqin mazmun bilan boyitish [10].

2-jadval

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun tavsiya etiladigan mashg‘ulotlar

№	Mashg‘ulot mavzusi	Asosiy faoliyat
1	Eski maktab va usuli jadid: savodga o‘rgatishdagi burilish	Hijo va tovush usullarini qiyoslash, 1-jadvalni to‘ldirish
2	Jadid alifbelarining tuzilishi	Alifbe sahifalarining faksimilelari bilan ishlash, harflarni kiritish tartibini aniqlash
3	Jadid alifbelari va zamonaviy “Alifbe”	Ikki darslikni yetti ko‘rsatkich bo‘yicha qiyoslash
4	Jadid tajribasi asosida dars loyihasi	Bir tovushni o‘rgatishga bag‘ishlangan dars ishlanmasini tuzish

Xulosa. Jadid alifbe darsliklari Turkistonda savodga o‘rgatishni yodlashga asoslangan hijo usulidan ongli o‘qishga asoslangan tovush usuliga o‘tkazgan. Bu darsliklarni yagona ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilish ularning metodik tuzilishini aniq tasvirlash va milliy savodxonlik ta’limi tarixini tiklash imkonini beradi. Bunday tahlil natijalari zamonaviy boshlang‘ich ta’limni takomillashtirishda ham amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – T.: Ma’naviyat, 2002.

2. Hoshimov Q., Nishonova S. va boshq. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1996.

3. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. – T.: Universitet, 2006.

4. Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865–1924 гг.). – М.: Изд-во АПН РСФСР, 1960.

5. Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998.

6. Munavvar qori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. – T.: Ma’naviyat, 2003.

7. Avloniy A. Tanlangan asarlar: 2 jildlik. – T.: Ma’naviyat, 1998.

8. Ушинский К.Д. Педагогические сочинения: В 6 т. – М.: Педагогика, 1988–1990.

9. Baldauf I. Schriftreform und Schriftwechsel bei den muslimischen Russland- und Sowjettürken (1850–1937). – Budapest: Akadémiai Kiadó, 1993.

10. Hoshimov Q., Ochilov S. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1995.

MUNDARIJA

G‘ofurjon ZAXIDOV Ona tili — millat ma’naviyatining tayanchi……3

Olimjon DAVLATOV Davlat tili siyosatining sakkiz muammosi: muammo va yechimlar……...……5

Maqsud ASADOV Globallashuv sharotida qadriyatlar qadri: ma’naviy yuksalish va Xorazm ma’rifati…….11

Abduvahob QAYUMOV, Nargiza XOLMATOVA Zamonaviy adabiyotdagloballashuv muammosining yoritilishi (N.Norqobulovning “Sut sotuvchi bola”hikoyasi misolida)……..……..17

Maxsuda SARIBAYEVA Filolog-pedagog tayyorlash tizimida metodika fanining o‘rni……..…21

Suhrob XAMROYEV Globallashuv sharoitida ona tili va adabiyot orqali talabalar ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik asoslari……29

Kommuna UMURZAKOVA Milliy til madaniyati va tarbiya jarayonida yoshlar nutqining o‘rni…….……35

Abdulazizbek QODIROV Badiiy adabiyotda shaxsiy identitet masalasiga doir..43

Shaxnozaxon USMONOVA Abdurauf Fitrat asarlarida keltirilgan ba’zi metaforalarning lingvopragmatik tahlili……..……48

Uminiso ORUNBAYEVA Ekspressiv nutqiy aktlarning pragmatik va lingvistik xususiyatlari…….……58

Abduxoliq TASHANOV O‘zbekiston yoshlari ma’naviyatida buzg‘unchi g‘oya va buzg‘unchi ta’sirlarning namoyon bo‘lish sabablari …….64

Muslimjon NASIROV Assotsiativ lug‘atlar tuzilishini o‘rgatishda zamonaviy texnologiya va metodlardan foydalanish.....74

Nigina MURODOVA Sun’iy intellekt va lingvodidaktika: zamonavit til ta’limining yangi bosqichi…….…..81

Abdulla ULUG‘OV Mahmudxo‘ja Behbudiy jasorati…….…….86

Hatıra YUSIFOVA Esmethanım mammadovanın bilimsel mirası fonunda türk halkları edebiyyatında kadın yaradıclığı: tarih, kimlik ve dijital dönüşüm.....93

Meleyke MEMMEDOVA Türk halk kültüründe kadinin ritüel taşiyiciliği: inanç, gelenek ve süreklilik……98

Naida MAMEDXANOVA Gulruhxonim ijodining o‘ziga xos xususiyatlari.....112

Zilola AMANOVA, Azizbek Boqiyev Saif Zafar Buxoriyning “Durrul majolisi turkiy” toshbosmasida Muhammad (s.a.v) va Hazrati Ali talqini.....116

Ma’rifat RAJABOVA Jan Jiono va Shodiqul Hamro asarlarida inson va tabiat dialektikasi ……121
Umida RASULOVA Badiiy so‘z salmog‘i……..……128

Zebo QOBILOVA Til va adabiyotning milliy o‘zlikni saqlashdagi roli…….132

Gulnoza ORIPOVA Hozirgi o‘zbek she’riyatida tashbeh san’atining poetik funksiyasi.....138

R.SHAIMKULOVA, T.ERALIEVA, U.MURATALIEVA Milliy o‘zlikni saqlab qolish yo‘llari lingvistik va madaniy jihatlar.....146

Maxsumaxon Dehqonova O‘zbek adabiy tanqidchiligi takomili……151

Go‘zal Jo‘rayeva Raqamli muhitda o‘zbek tilini o‘qitishning lingvodidaktik asoslari (turkman talabalari misolida)……..….160

Dilmurod ASQAROV Tabibiy lirikasida Qo‘qon adabiy muhitiga izdoshlik (Amiriy g‘azallariga muxammaslar misolida).....172

J. SAIDOLIMOV Ijodiy niyatning asar mazmunida akslanishi (“Qisasi Rabg‘uziy” asari misolida).....179

Feruza AMINOVA Suyundik Mustafo Nurotoiy ijodida dialektal uslubning badiiy-funksional xususiyatlari……..…184

Dilnavoz ASATULLAYEVA Buxoro shevalarida morfonologik o‘zgarishlarning tizimli tavsifi va ularning og‘zaki nutqda namoyon bo‘lishi……..…189

Dilobar BAHODIROVA Annemarie Shimmel asarlarida orifa ayollar talqini..194

Hamid BOZOROV O‘zbek xalq ertaklarining lingvo-folkloristik tadqiqi: nazariy asoslar va amaliy ahamiyat……....201

Shaxnoza JUMANOVA Turkiy yoshlarning lingvistik identitetini shakllantirishda alifboning roli……210

Hilola RAIMOVA Amiriy ijodida folklor motivlari……...……218

Namunaxon TURSUNOVA, Muslimaxon XO‘JAYEVA Umumiy o‘rta ta’limda adabiyot fanlarini integratsiya asosida o‘qitishning o‘ziga xos jihatlari……..…225

Musharrafxon IMOMALIYEVA, Zebo AKBARALIYEVA Ertaklarning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni…….……229

Shahboz ERGASHEV Jismoniy tarbiya g‘oyalari ifodasida topishmoqlarning pedagogik funksiyasi…….237

Yulduz QO‘SHMONOVA O‘zbek afsonalarida toshga aylanish motivining mifopoetik talqini……..…247

Guzalxon XATAMOVNA Xalq og‘zaki ijodi qadriyatlarning konseptual manbai sifatida……...261

Dilafruz ABDURAXIMOVA Mustaqillik davri o‘zbek g‘azaliyotining o‘ziga xos badiiy-estetik xususiyatlari……268

Shahboz ERGASHEV O‘zbek xalq dostonlarida jismoniy barkamollik va qahramon modeli (“Kuntug‘mish” dostoni misolida) ……..…275

Ziyoda MIRZAYEVA O‘quvchilar nutqidagi muammolarga yechim izlash.…281

Gulnoza ZIYOUDDINOVA Muhiddin Omon she’riyatida ijtimoiy-siyosiy motivlar va peyzaj lirikasining badiiy talqini…….……..….287

Mo‘minaxon BAXTIYOROVA Hamza pedagogik merosini zamonaviy ta’lim amaliyotiga tatbiq etish modeli…….…….……296

Sadoqat SHAMSIDDINOVA Folklor materialini zamonaviy ta’lim jarayoniga tatbiq etish (Ayol obraziga asoslangan milliy tarbiya modeli)…..……306

Gulira’no IBROHIMOVA Study of uzbek and englich children’s folk games through cognitive models……..……316

Sohibjamol TANGATAROVA Ta’lim rus tilida olib boriladigan sinflarda o‘zbek tili mashg‘ulotlarida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishning metodik va psixologik xususiyatlari…….324

Zumradxon TESHABOYEVA “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi ma’naviy-axloqiy tarbiyaning badiiy-pedagogik mexanizmlari tizimi: olti mexanizm tipologiyasi……334

Nodirbek ABDUQAXXOROV O‘zbek tilida sinonim so‘zlarning o‘rni va ahamiyati……...……344

Sojidaxon MAMATQULOVA Jadid alifbe darsliklarida tovush usulining metodik talqini va uning bugungi savodxonlik ta’limi uchun ahamiyati……...350